

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

R.A.Mavlonova, B.S.Abdullayeva,
M.K.Shirinov, M.M.Rustamova

“BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODOGIYASI”

O‘quv qo‘llanma

5A111701 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi mutaxassisligi

Toshkent – 2016

ANNOTATSIYA

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi» kursi bo'yicha pedagogika, ta'lim va tarbiya nazariyasi mutaxassisliklari magistraturasi uchun mo'ljallangan namunaviy o'quv dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, u talabalarda fanning va ilmiy dunyoqarashning metodologik muammolari bo'yicha ijodiy fikrlash malakalarini shakllantiradi.

“Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi” fani nomli o'quv qo'llanmada magistrantlarni boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, metodikasi, pedagogika metodlarini o'rganishiga zamin yaratish, ilmiy tadqiqotlar va fan metodologiyasi bilan tanishtirish, ilmiy tadqiqotning asosiy tushunchalari, ilmiy uslublarga qo'yilgan talablar, ilmiy tadqiqot usullari va bosqichlari, ilmiy informatsiya va uni izlash, eksperimental tadqiqotlar, ilmiy tadqiqotlarning joriy etilishi va samarasi, ilmiy tadqiqotni olib borish jarayonida ijodiy yondoshish, ilmiy tadqiqot ishlarini rasmiylashtirish tartibi, ilmiy materiallarni nashrga tayyorlash kabi masalalarni o'z ichiga olgan.

O'quv qo'llanma respublikamizning pedagogika, ta'lim va tarbiya nazariyasi mutaxassisliklari magistraturasi talabalari va ushbu masalalar bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo'ljallangan.

АННОТАЦИЯ

Данное учебное пособие было одобрено Министерством высшего и среднего специального образования Республики начального курса образования по методике преподавания обучения и теории обучения для получения степени специальностей мастера на основе стандартной учебной программе, студенты науки и научного мировоззрения методологических проблем формирования навыков творческого мышления.

“Методология начального образования” учебник науки выпускником образования педагогики, методологии, методики преподавания на местах, знакомый с методикой научных исследований и науки, концепция научных исследований, научных требования к стилю, научно-исследовательские методы и научной информации и поиск, экспериментальные исследования, эффективность осуществления научных исследований и, в процессе проведения научных исследований и творческий подход, порядок научных исследований, научных вопросов, таких, как подготовка материалов для публикации о в том числе.

Учебник, Республика педагогики, обучения и теории обучения, студенты специальностей магистра и всех читателей, интересующихся этими вопросами.

ANNOTATION

This manual has been approved by the Ministry of Higher and Secondary Special Education of the Republic of primary education course on teaching learning and learning theory for master degree specialties on the basis of the standard curriculum, students of science and scientific outlook of the methodological problems of formation of creative thinking skills.

"Methodology of primary education 'textbook science graduate education pedagogy, methodology, teaching methodology on the ground, familiar with the methodology of research and science, the concept of scientific research, scientific requirements for style, research methods and scientific information and search, experimental studies, the effectiveness of the research and, in the process of research and creative approach, the procedure for scientific research, scientific issues, such as the preparation of materials for publication on as well.

Textbook arespublikamizning pedagogy, teaching and learning theory, students of master's specialties, and all readers who are interested in these issues.

Textbook, Republic of pedagogy, teaching and learning theory, students of master's specialties, and all readers interested in these issues.

MUNDARIJA

Ilmiy tadqiqot metodologiyasi.....	
Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari.....	
Ilmiy adabiyotlarni o‘qish.....	
Referatning tuzilishi.....	
Annotatsiya.....	
Maqola.....	
Matnlarni ilmiy stilda yozishga tavsiyalar	
Ilmiy tadqiqot ishini rejalashtirish.....	
Magistrlik dissertatsiyasi: uni shakllantirish.	
Struktura va texnologiyasi.....	
Ilmiy tadqiqot ishining asosiy tushuncha — atamalari.....	
Ilmiy tadqiqot ishining nomi, mavzusini tanlash, shakllantirish.....	
Ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi, yangiligi, amaliy ahamiyatini asoslash.....	
Ilmiy tadqiqotning maqsadi, vazifalarini qo‘yish, tadqiqot metodlarini aniqlash....	
Dissertatsiyaning ilmiy farazini shakllantirish. Himoyaga olib chiqiladigan xolatlar	
Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va natijalash.....	
Ilmiy tadqiqotning mazmunini shakllantirish va uni tizimi.....	
Magistrlik dissertatsiyasi.....	
Ma’ruza tayyorlash mezonlari.....	
Ta’lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni joriy etish.	
Mustaqil ta’lim.....	
Interfaol ta’lim	
Innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish.....	
Interfaol o‘qitish metodlari.....	
Interaktiv o‘qitish metodlari va uni o‘quvchilar bilimlarini rivojlantirish.....	
Metodologiya va metodologik prinsiplar haqida tushuncha.....	
Ta’limning usul va uslublari hamda darsni amalga oshirishda ishtirok etadigan texnik vositalar.....	

Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari.....	
Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar pedagoglari asarlarida o'ziga xos pedagogik texnologiyalar elementlari.....	
Ijodiy tafakkur metodologiyasi.....	
Fan va ijod.....	
Ijod jarayonini ifoda etish shakllari, metodlari va usullari.....	
Ilmiy prognoz k;ilish ijodiyjarayon sifatida.....	
Pedagogika va fan tarixida ijod muammolarining ishlab chiqilishi.....	
Fanda bashorat ijod shakli sifatida.....	
Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish.....	
Ijod ta'rifi va uning bilish jarayonidagi roli.....	
Ijodiy fikrlashning psixologik-pedagogik jabhalari.....	
Tafakkur olamida ijodiy fikrlashning o'rni.....	
Ijodiy fikrlashni rivojlantirish prinsiplari.....	
Boshlang'ich sinflarda ijodiy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlari.....	
Ilovalar	
Tayanch tushunchalar.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	

СОДЕРЖАНИЕ

Научно-исследовательские методологии	
Набор педагогических наук	
Учителя и требования	
Школьники и студенты должны быть формирование социальной.....	
Форма и содержание процесса и методы образования и науки	
Закон об образовании, а также правила и принципы.....	
И методы обучения и средства принимают участие в осуществлении урока	
Образовательная методология и методы исследования	
Научных публикаций чтения	

Абстрактная структура.....	
Аннотация	
Статья	
Рекомендации написать научный стиль текста	
Исследования и планирование работы.	
Магистерская: она предназначена. Структура и технология	104
Базовое понимание научно-исследовательской работы - с точки зрения	
Название научного исследования, выбор темы, формирование	
.Приоритет работы научных исследований, инноваций и практическое значение	
Цель научно-исследовательских задач, методы исследования	
Формирование научной гипотезы диссертации. Защита, развивался нормально	
В результате создания опытно-конструкторских работ и	
Формирование и содержание научно-исследовательской системы	
Степень магистра	
Критерии для подготовки доклада	
Педагогические технологии в образовательном процессе.	
Самостоятельное обучение.....	
Интерактивное обучение.....	
Внедрение инноваций в учебном процессе	
Интерактивные методы обучения	
Интерактивные методы обучения и развития знаний студентов	
Понятие методологии и методологических принципов	
Методы и обучения и средства принимают участие в осуществлении урока ...	
.....	
Научные основы педагогических технологий	
Восточной интеллигенции и просвещенные учителя в трудах своих собственных педагогических элементов	
Творческая методология мышления	

Формы выражения и творческий процесс, методы и методы	
Исследования прогноз к; порядок, как креативный процесс	
Педагогические проблемы истории науки и искусства развития	
Наука как форма пророческого творчества	
Для развития творческого мышления студентов	
Определение творчества и его роль в процессе, чтобы знать	
Творческое мышление, психологические и педагогические аспекты	
Роль в мире творческого мышления, мышления	
Развитие творческого мышления и принципов	
Элементарные возможности школы для художественное впечатление	
Приложения	
Основные понятия	
Библиография	

CONTENT

Research methodology	
A set of pedagogical sciences.....	
Requirements for teachers and.....	
Pupils and students should be the formation of social.....	
The form and content of the process and methods of education and science	
The Education Act and the rules and principles	
Education and the teaching methods and means of taking part in the lesson	
Educational research methodology and techniques	
Scientific publications read	
Abstract structure	
Annotation.....	
Article.....	
Recommendations write a scientific text style	
Research and planning work.	
Master: it is intended. Structure and technology	
A basic understanding of research work - in terms of	
The name of scientific research, the choice of theme, the formation	
The priority of the work of scientific research, innovation and practical significance	
The aim of the research objectives, research methods	
Formation of a scientific thesis hypothesis. Protection, developed normally	
As a result, the creation of development work and	
The formation and maintenance of a research system	
Master's degree	
Criteria for the preparation of the report	
Pedagogical technologies in the educational process.	
Independent learning.....	
Interactive learning	

The introduction of innovations in the learning process	
Interactive teaching methods	
Interactive teaching methods and the development of students' knowledge	
The concept of methodology and methodological principles	
And the teaching methods and means of taking part in the lesson	
Scientific bases of pedagogical technology	
Eastern intellectuals and enlightened teachers in the works of their own pedagogical elements	
Creative thinking methodology	
The forms of expression and the creative process, techniques and methods	
Studies to forecast; order as ijodiyjarayon	
Pedagogical problems of science and the development of art history	
Science as a form of prophetic creativity	
For the development of creative thinking of students	
Creativity and its role in the process to know the definition of	
Creative thinking, psychological and pedagogical aspects of	
The role of the world's creative thinking, thinking	
Development of creative thinking and the principles of	
Elementary school opportunities for artistic impression	
Applications	
Concepts	
Bibliography	

KIRIHS

“Ta’lim to’g’risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash miliy dasturi”, “Maktab ta’limni rivojlantrish Davlat umummilliy dasturi”ga ko’ra oliy ta’lim, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish, ta’mirlash, zamonaviy o’quv-texnika jihozlari bilan ta’minlash hukumatimiz tomonidan jadal sur’atlar bilan olib borilmoqda.

Davlat ta’lim standartlari takomillashtirilib dasturlar modernizatsiya qilinib, jahon andozalari darajasidagi darsliklar, o’quv-uslubiy qo’llanmalar, o’quv qurollari bilan ta’minlanmoqda.

Bu o’z navbatida ta’lim-tarbiya ishlariga yangicha munosabatda bo’lish, yuksak madaniyatli kasb egasi, metodik jihatdan mahoratli, zamonaviy o’qitish texnologiyalarni va innovatsiyalarni mukammal egallangan kadrlarni talab etmoqda.

Shu munosabat bilan oliy o’quv yurtlarida pedagogik kadrlarning yangi avlodini tayyorlash ishlari olib borilmoqda. Ya’ni bakalavr, magistr pedagoglarni yetishtirib chiqarish tizimi ishlab chiqildi va yo’lga qo’yildi.

Bu masalaga davlatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab jiddiy e’tibor berib kelinmoqda.

Bu haqda prezidentimizning quyidagi so’zlari ibratlidir “Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda xalqimizning ertangi kuni qanday bo’lishi farzandlarmizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog’liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko’rish zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarmizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo’lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo’lishi lozim deb qabul qilishimiz kerak”¹.

¹ И.А.Каримов “Юксак маънавият- енгилмас куч” Т. Маънавият 2008 йил 61-бет.

Yuqoridagi maqsad va vazifalardan ta'lim jarayoniga tadbqiq etishda pedagoglarning yangi avlod vakillari bo'lmish magistrant talabalarning qanday bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi avlod pedagog-magistrlarni tayyorlash bo'yicha bir qancha xuquqiy-me'yoriy, uslubiy-metodik yo'riqnomalar, o'quv reja, standart talablari yaratilgan. Shu asosida Oliy ta'lim muassasalarida magistr-pedagoglar tayyorlanmoqda.

Jumladan, magistratura to'g'risidagi nizom, unga qo'shimcha magistrlik dasturining namunaviy tuzilmasi, magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashning namunaviy tarkibi, magistrantlarning ilmiy-pedagogik ish mazmuni, magistratura talabasining ilmiy-tadqiqot ishi, mazmuni va reyting nazorat tizimi "Shaxsiy ish reja" kabi me'yoriy xujjatlar ishlab chiqilib o'quv jarayoniga joriy etilgan.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida magistrlar tayyorlash bo'yicha orttirilgan dastlabki tajribalar, magistrant, talabalar bilan o'tkazilgan savol-javoblar, suhbatlar, davra suhbatlari shuni ko'rsatadiki, iste'moldagi o'quv me'yoriy xujjatlar, o'quv rejalar dastur, yo'riqnomalar asosidagina mustaqil ta'lim olish va ishlash, ilmiy-pedagogik, ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish, ular yuzasidan tahliliy tadqiqotlar o'tkazish ancha qiyin kechmoqda.

Magistrant-talabalar o'z faoliyatlarini mustaqil tashkil etish, shaxsiy rejalarda ko'zda tutilgan ilmiy-pedagogik, ilmiy-tadqiqot izlanishlar, tajriba-sinovlarni tashkil etishda, o'qitish metodlarini boshlashida metodik ishlar va pedagogik mahoratlarini oshirishda, tarbiyaviy ishlarni tayyorlash va tashkil qilishda maxsus uslubiy qo'llanmaga ehtiyoj sezmoqdalar. Shu munosabat bilan yaratilgan ushbu "Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi" nomli o'quv qo'llanma magistrantlarni mustaqil o'qishini, ilmiy-pedagogik-ijodiy faoliyatini tashkil etish, magistrlik dissertatsiyasini yozish va tayyorlash texnologiyasi va magistrantlarga qo'yilgan kasbiy talablar va adabiyotlar ro'yxati keltirilgan. Aziz ilmiy rahbar va magistrant-talabalar, qo'llanma sizning ish faoliyatingizda yaqindan yordam beradi, degan umiddamiz.

ILMIY TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Bilimga chanqoq iste'dodli yoshlarni topib,
ularni vatanga fidoiy insonlar qilib
tarbiyalash muqaddas vazifamizdir.

I.A.Karimov

Insonning xayoti ijod demakdir. Bu falsafiy muammo o'tgan asrning 70-yillarida keng ko'rib chiqkilgan va o'rganilgan. Ammo xayotni ijod deb, insonning vazifasini esa xayot va dunyoni yaratish deb tushunish faqat bir qarashda sodda tuyulishi mumkin. O'zining ijodiy mohiyatini hamma ham tushunib yetavermaydi. Buning uchun inson o'z maqsadlarini va ularga erishish usullarini aniq tushunishi kerak. Ammo bu tushunish sof egoistik asosga surilmasligi kerak, zero, ijod o'z mohiyatiga ko'ra beg'araz bo'lib, egoizm bilan mos kelmaydi. Ko'plab odamlarning ideallari, maqsadlari va ehtiyojlariga muvofiqlik har qanday ijodning zarur belgisidir.

Ma'lumki, ijod xilma-xil ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni so'ndirish bo'yicha son-sanoqsiz vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Buning negizida odamlar ijodiy faoliyatining juda ko'p turlari, tiplari va shakllari vujudga keladi. Ular orasida fan, ilmiy-ijodiy faoliyat kishilik taraqqiyotining hozirgi davrida ijodiy faoliyatning muxim turlaridandir. Har sanday ilmiy yoki (bugungi kunda fan bilan uzviy bog'liq bo'lgan) texnikaviy kashfiyot fanga ilgari ma'lum bo'lmagan ob'ektiv qonuniyatlar, xodisalar, xossalar, effektlarni aniqlaydi, mavjud ilmiy bilimlarga tub o'zgartishlar kiritadi.

Umuman ijod jarayonida, ayniqsa, ilmiy ijod jarayonida inson mohiyatan rivojlanadi. Bu bilan inson nafaqat tashqi muxitda, balki o'zida ham o'zgarish yasaydi. Shuning uchun ham fan va texnika jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy munosabatlar yangilanayotgan hozirgi zamonda yoshlarni ijodga o'rgatish, ijodiy qobiliyatli shaxslarni shakllantirish masalalari, ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu nuqtai nazardan magistratura o'quv jarayoniga kiritilgan «Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi» kursi ijobiy rol o'ynaydi deb o'ylaymiz.

Zero, mamlakatimiz prezidenti I.Karimov qayd etib o'tganidek: «Fan bugungi kunda jamiyat taraqqiyotini ol'ga siljituvchi kuchdir».

Ijod deganda keng ma'noda ob'ektga (butun atrof muxit yoki uning ozmi-kupmi ajratib olingan, aloxida bulagiga) sub'ekt-ning (aloxida shaxs, ijtimoiy tabaka, jamiyatning) faol, izchil ta'siri tushuniladi. Mazkur ta'sir jarayonida sub'ekt uzini qurshagan muhitni uzgartiradi, shu paytgacha kurilmagan, bilinmagan, urganilmagan, garoyib va jozibali yangilikni yarata-di yoki kashf etadi. Ijodiy jarayon davomida shaxs xam dunyoni uzgartiradi, x.am uzini yaratuvchi, ijodkor, koshif sifatida kashf etadi. Insonning ijodi - bu shaxsning tub xususiyati, uning immanent xossasidir: shaxsning, uning k,obiliyatlar va ko'nikmalarining rivojlanish darajasi, shuningdek, uning ij-timoiylashganlik darajasi uning ijodiy-bunyodkorlik faol-ligi bilan belgilanadi. Ijod shaxsning bunyodkorlik, yaratuvchilik salohiyatini ruyobga chiqaradi. Shaxs ijod usuli bilan yangilik yaratadi, xilma-xil muammolarni k.uyadi va xal kiladi, ularning uziga xos yechimlarini, ba'zan bunday yechimlarga nisbatan betakror yondashuvlar, usullar, metodlarni topadi. Ijodiy faollikda tadqiqotchi, yaratuvchi, olim shaxsining uziga xosligi va betakrorligi namoyon bo'ladi.

Ijodiy faollik sub'ektga muttasil uzgaruvchi, rivojlanuv-chi, ichki ziddiyatlarga boy ob'ektning kurashga chorlovlariga munosib javob kaytarishga kumaklashadi. Ijod jarayonining bu jixati ilmiy bilish jarayonida, ayniksa, yorikin namoyon bo'ladi. Ilmiy tadbik.otdagi barcha yondashuvlar, shakllar, vosita-lar va metodlar ilmiy xususiyatga ega.

Fan - bu rivojlanuvchi, usib boruvchi bilim tizimi, ijtimoiy ongning va kishilik sivilizatsiyasi ijodiy-bunyodkorlik ama-liyotining insonning uzini qurshagan olamni surunkali va chuqur uzlashtirishiga, tabiiy va ijtimoiy vokelikning borlik. qonuniyatlari tugrisida anik., chuk.ur, haqqoniy axborot olish, bunday axborotni uzlashtirish, saqlash, kayta ishlash va undan foydalanishga yunaltirilgan aloxvda shaklidir. Bugungi kun-da fan xozirgi zamon postindustrial, axborot jamiyatining ar-xetipidan mustavkam urin olgan. Bunda borlikning

tuzilishi-ni ijodiy bilish instituti sifatidagi fanning epistemologik, kreativ-evristik funksiyasi aloxvda rol uynaydi.

Xozirgi zamon noklassik (kvant-realitivistik) fanining kreativ-evristik roli aloxida yaratuvchi-olimning ilmiy ijodida xam, ilmiy jamoalar-laboratori5shar, institutlar, sinov po-ligonlari va hokazolarning ilmiy ijodida ham uz aksini to padi. Ilmiy ijod -bu ilmiy bilishni rivojlantirish, yangi ilmiy bilim olish va undan foydalanish, ilmiy bilimni yangi konunlar va konuniyatlar, yangi ilmiy prinsiplar va nazariyalar, inson faoliyatining xar xil sohalaridagi amaliyotta faol chikishlar bilan boyitish bilan bogliq bilish va bunyodkorlik faoliyatidir. Ilmiy ijod - bu asosiy jixati urganilayotgan hodisalar va ja-rayonlarning, ularning xarakat va rivojlanish konunlarining moxiyatini abstrakt tushunchalar, sxemalar, formulalar, tengla-malar va hokazolar shaklida ifodalashdan iborat bo'lgan ob'ektiv vokelikni sub'ektiv aks ettirishdir.

Inson ijodiy ilmiy tadqiqotlar yordamida uzini kurshagan olamga epistemologik jixatdan faol, muttasil ravishda chu kur va keng kirib boradi. Ilmiy kashfiyot ilmiy ijodning muhim jirata bulib, u ilmiy tadqiqot ob'ekti haqida yangi sifatli axborot olish, yangi konunlar, gipotezalar va nazariyalarni aniqlash, fanning yangi sohaları haqida ma'lumotlar olishda namo-yon bo'ladi.

Ilmiy ijod jarayonida olimlar, fan odamlari yangi-yangi ilmiy bilimlarni umuminsoniy qadriyatlar xazinasiga kiritadi va bunda, K.Popper ta'biri bilan aytganda, «insoniyat bi-lishdan lazzat oladi». Hozirgi zamon qobiliyatli olimi yuksak u mumiy madaniyatli, chinakam ziyoli, yuksak darajada ma'lumot-li odam bulishi, nafaqat ilmiy bilimlar va ko'nikmalarga, balki ijodiy qobiliyatlarga, keng xayot tajribasiga ega, utkir zexnli bulishi kerak. Fanni ijodiy, faol rivojlantirish - xozirgi zamon ijtimoiy tarakkiyotining ajralmas jixatidir. Dolzarb ilmiy muammolarning yechimini topishga nisbatan ijodiy, uziga xos sndashuv kupgina hozirgi zamon ilmiy tadqiqot-lariga xos xususiyatdir.

Falsafaning ilmiy bilishdagi o‘rni

Zamonaviy metodologik yondashuv turli qarama-qarshiliklar sharoitida shakllangan oliy pedagogik ta’limda mavjud kreativlik protsessual majmuasini shaxsning fan asoslarini bilish faoliyatining ilk bosqichidan tortib pedagogning ijodiy gullab-yashnagan davri faoliyatiga qadar bo‘lgan butun jarayonini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda;

Pedagogik-psixologik bilimlar zahirida shakllangan innovatsion kreativ ta’limni XXI asr ta’limi sifatida e’tirof etgan holda uning quyidagi yetakchi tamoyillarini sanab o‘tish mumkin:

- ijodkorlikka tayyorlash;
- haqiqiy va to‘liq ma’nodagi loyihalashtirish faoliyatiga o‘tish;
- o‘z faoliyatiga ma’naviy mas’uliyat bilan yondashadigan, sabr-qanoatli, ko‘pmazonli qarorlarga asoslangan dunyoqarash sohibini shakllantirish;
- umumlashgan bilimlar tizimini shakllantirish maqsadida fanlararo aloqalarni ta’minlash;
- hozirgi zamon oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi yuksak madaniyati bilan ajralib turishi, chuqur pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo‘lishi, shuningdek, o‘z fani yuzasidan yuqori darajadagi kasbiy mahorat sohibi bo‘lishi bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mukammal bilishi, pedagogik intiluvchanlik mahoratini egallashi talab etiladi.

Ta’lim jarayonining maqsadi tayyor bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki yangi bilimlarni egallash va ularni yaratishni ta’minlashga xizmat qiladigan ma’lum bir tafakkur qobiliyatlarini o‘zlashtirishdan iborat bo‘lmoqda.

Ta’lim tizimining tubdan isloh qilinishi natijasida yuzaga kelgan uzluksiz ta’lim xususiy ta’lim va ijtimoiy-madaniy muammolarining yechimi oliy kasbiy ta’lim tizimi, shuningdek, ta’limning asosiy subektlari hisoblangan talaba hamda professor-o‘qituvchilarning o‘z faoliyatiga bo‘lgan munosabatlarini o‘zgartirish, qaytadan ko‘rib chiqishni talab qilmoqda.

Bu o‘rinda o‘qituvchi faoliyatida xalqaro pedagogik me’yorlarga mos keladigan talabaga bo‘lgan har tomonlama tizimli munosabatlari nazarda tutiladi.

Xarakter bu kabi sub'ektiv-sub'ektiv hamda pedagogik sub'ektiv munosabatlar xarakteri, ular kechadigan muhitdagi pedagog va talaba, shuningdek bevosita ta'limga aloqador shaxslarning o'zaro optimal hamkorligi munosabatlari chuqur falsafiy-ta'limiy mushohadani talab qiladi. E'tirof etilayotgan mushohada ta'lim jarayoni texnologiyalarini anglash nazariyasiga nisbatan to'la ma'nodagi falsafiy metodologik yondashuvni o'zida aks ettiradi.

Shu bilan bir qatorda, asosiy e'tiborni bugungi kunda oliy ta'limda faoliyat olib borayotgan pedagoglar tarkibining intinsiv tarzda rivojlanib borayotgan ta'lim tomonidan qo'yilayotgan talabalarda ijodiy qobiliyat va tafakkur, salohiyatni shakllantira olish, ijodiy individuallik, kreativlik xususiyatlarini rivojlantirish talablariga javob bera olish muammosiga qaratish o'ta muhim. Kreativlik muammosi pedagogika fanida keyingi paytlarda muttasil o'rganilayotgan bo'lishiga, ilmiy ijodiyotda o'nlab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramasdan, aynan muammoning mohiyatini ochib beradigan, bevosita kreativlikka aloqador jiddiy tadqiqot ishi amalga oshirilmaganligi barchaga ma'lum.

Falsafiy metodologiya faoliyati bizga asosan tabiat, jamiyat hamda tafakkurning umumiy qonunlarini tadqiq qiluvchi ta'limot sifatida tanish. Falsafa insonning borliqqa bo'lgan haqiqiy pozitsion munosabatini belgilab beradi. Masalan, tadqiqotchi hodisalar izchilligi, voqelar rivoji, sifat va miqdor o'zgarishlari bilan bog'liq qarama-qarshiliklarni tahlil qilishda metafizik metodlarga tayanib ishko'radi.

Falsafiy metodologiya tadqiqotchiga u yoki bu texnik usullarga ishora qiluvchi qat'iy normalar tizimi sifatida mavjud bo'lib qolmasdan, balki asosiy yo'nalishlarni tavsiya etishi bilan ajralib turadi. Bu darajadagi metodologiyaga ilmiy tafakkurning umumiy ko'rinishi shaklida qarash-masalan, anglashning umuminsoniy va tabiiy-ilmiy metodlarining o'ziga xosligining muhokamasi sifatida qarash mumkin.

Umumilmiy metodologiyaga o'quv muassasalarida o'rganiladigan o'quv predmetlariga xos bo'lgan o'qitishning ilmiy bilish bilan bog'liq universal shakl, vosita va tamoyillarni ishlab chiqishga bo'lgan urinishlarni kiritish mumkin.

Aynan mana shu darajada ilmiy tadqiqotni amalga oshirish asoslari, olimning nazariy va imperik faoliyatini amalga oshirish usullari, shuningdek, eksperiment, kuzatish hamda loyihalashtirishning umumiy muammolarini qurish masalalari hal etiladi.

Aniq - ilmiy metodologiya – bu kabi muammolarni obektning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muayyan fanning nazariyasi hamda empirik faoliyatiga munosabatini ishlab chiqadi. Jarayon mavjud o'z tushuntirish tamoyillari hamda tadqiqot va amaliy ishlar olib borish tajribasiga ega bo'lgan turli ilmiy maktablar tomonidan tizimli fanlar doirasida amalga oshiriladi.

Ko'rib turganimizdek, keng ma'nodagi «metodlar» tushunchasi inson amaliy faoliyatining juda ko'plab sohalariga nisbatan qo'llaniladi (dialektika metod sifatida va boshqa.).

Psixolog pedagogik tadqiqotda quyidagilarni nazarda tutadi:

- 1) Muammoni shakllantirish;
- 2) Farazni ilgari surish;
- 3) Farazni tekshirib chiqish;
- 4) Tekshirish natijalarini tahlil qilish.

Odatda, xususiy psixologiya metodiga uning uchinchi bosqich bilan o'zaro aloqadorligini inobatga olgan holda farazlarni tekshirish usuli sifatida qoraladi. U pedagog va psixologning o'rganilayotgan obekt bilan o'ziga xos aloqalarini, hamkorligini nazarda tutadi.

Biz bu bosqichga o'tishdan oldin dastlabki ikki bosqichning muhokamasini amalga oshiramiz.

Odatda muammo javobini topish lozim bo'lgan savol sifatida shakllantiriladi: bu – o'ziga xos mavhumlikka, uni bilan ilk to'qnashishga tashlangan qadamga o'xshaydi. Aksariyat hollarda bu savol u yoki bu hodisalar va ularning mavjud yoki mavjud emasligi sabablari "ilmiyligi"ni bilishga qaratiladi.

Masalan: «O‘smirlar xulqida asosiy tendensiyalarning paydo bo‘lishini nima (qanday omillar) belgilab beradi?» yoki «Talabaning shaxs sifatida kamol topishida tarbiya tizimi qanday qurilishi lozim», «Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun rok-musiqasini tinglash qanday psixologik oqibatlarga olib kelishi mumkin?».

Aksariyat hollarda muammo sabab-oqibat munosabatlari bilan emas, balki boshqa tipdagi aloqalar guruhiga mansub deb qaraladi. Masalan, intellekt darajasi bilan shaxsning o‘ziga xos xavotirlarining mavjudlik darajalari o‘rtasidagi aloqalari masalasini o‘rganish maqsadga muvofiqroq hisoblanadi.

Shuning uchun ham tadqiqotchilar muammoga to‘g‘riligi tekshirilayotgan nazariyaning muhimligi nuqtai nazaridan yondashishlari o‘ta muhim. Berilayotgan savolga javob voqealarning o‘zaro bog‘liqlik xarakteridan kelib chiqqan holda farazda namoyon bo‘ladi. Tahlil etilayotgan holatda faraz: «o‘smirning o‘zini tutishida uning katta yoshdagi shaxslar bilan bo‘ladigan o‘ziga xos munosabatlariga ta’sir etuvchi muhim omillarlarni aniqlash, izlab topish» shakliga ega bo‘ladi.

Muammoni qo‘yishning boshqa usuli ham mavjud. Ular ta’limiy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lmasligi, balki bevosita uning o‘zi yoki biror bir obektning mavjudlik omili bilan, masalan: hayvonlar ham ijodiy tafakkurga egamilar? yoki telepatiya hodisasi haqiqatan ham mavjudmi? qabilida bo‘lishi mumkin. Turli darajadagi muammolar xususida gapirish mumkin; ular nazariyaning asosiy holatlarini o‘zida to‘la namoyon etishi, amaliy topshiriqlar, uning muayyan qismini qamrab olishi mumkin.

Agar misol uchun ota-onalar tomonidan o‘smirlar xulqida agressiv tendensiyalarning shakllanishi omillari farazi ilgari surilsa, uni tekshirish uchun har xil ijtimoiy munosabatlar xukm suradigan oilalarda tarbiyalanayotgan o‘smirlarning xulqi o‘zaro taqqoslanadi, qaysiki oilada bola ota-ona tomonidan to‘g‘ri tushunilmasa, jiddiy qabul qilinmasa yoki uning fikri bilan hisoblanishmasa, aynan shunday oilada tarbiyalanayotgan o‘smirning xulqida agressiv tendensiyalar ko‘proq uchraydi (e’tirof etilayotgan faktlarga asoslangan

holda ilgari surilayotgan farazni tasdiqlangan deb hisoblash mumkin; aks holda u qayta ko'rib chiqiladi).

Bir narsani alohida ta'kidlash joizki: tahlil qilinayotgan misollar shartlilik xususiyatga ega bo'lib; ruhiy hayot hodisalari ko'plab omillar bilan izohlanadi va kamdan-kam hollarda tadqiqotchilar ulardan yagonasini ochib berishga da'vo qilishadi. Aynan shuning uchun ham e'tibor qilgan bo'lsangiz, oxirgi faraz aynan ana shu shaklga ega.

Quyidagi ikki fikrni taqqoslang:

1. O'smirning ota-onalar tomonidan jiddiy qabul qilinmasligi uning xulqida agressiv holatlarning shakllanishida muhim omillardan biri vazifasini o'taydi.

2. Agressiv xulqning muhim omili asosan ota-onalar hisoblanishadi.

Bir qarashda so'z o'rinlari almashgandek tuyulsada, ilgari surilayotgan birinchi farazda bola xulqida agressiv jihatlarning shakllanishi ko'p omillarga bog'liqligi va shulardan biri sifatida ota-onalarning e'tiborsizligi e'tirof etilayotgan bo'lsa, ikkinchi farazda ota-ona asosiy sababchi va bu barcha o'smirlarga taalluqli ekanligi hamda bu ilmiy tadqiqot obekti sifatida o'ta dolzarb ijtimoiy muammoligi ta'kidlanadi.

Demak, farazlarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri uning tekshirilishiga bo'lgan talab hisoblanadi. Shu bois ham farazlarni shakllantirishda "yoki-..." jumlasini qo'llanilmaydi, chunki aniq ta'kidlanayotgan fikrlarninggina haqiqiyliги tekshirilishi mumkin.

Eslatish joizki, faraz yakunlangan biror hodisa yoki hodisalar orasidagi o'zaro aloqalar to'g'risidagi tasavvurlarni o'zida aks ettiradi. Tegishli tarzda, o'sha hodisa (yoki aloqa) empirik material asosida aniqlanishi zarur. Buning eng maqbul usullaridan biri nimanidir kutib turgan obekt (insonlar guruhi)ni kuzatishda o'z aksini topadi, ya'ni tadqiq etilayotgan hodisaning qiziqliги bois har bir jarayonni o'z o'rnida qayd etib borish imkonini beradi. Ishning bu usulida mutaxassislar bevosita jarayonga aralashmaganlari holda faqat turli o'zgarishlarni kuzatish faoliyati bilan mashg'ul bo'lganliklari bois bu usul pedagogik-psixologik

tadqiqotning empirik ma'lumotlarni olishni ta'minlashga xizmat qiladigan asosiy usullaridan biri hisoblanadi va kuzatish metodi deb yuritiladi.

Tadqiqotchining bevosita vaziyatga aralashmasligi metodning muhim o'ziga xos tasnifini belgilash bilan bir qatorda uning afzallik jihatlari hamda nuqsonlarini ham belgilab beradi.

Ustun va afzal jihati tekshirilib-kuzatilayotgan obekt odatda o'zi ustida tajriba o'tkazilayotganidan mutlaqo bexabar bo'lganligi sababli har qanday harakat va faoliyat chog'ida o'zini tabiiy tarzda tutadi. Shu bilan bir qatorda, kuzatish metodidan foydalanishning o'ziga xos qiyinchiliklari mavjudligini inkor etmaslik lozim. Birinchi navbatda tadqiqotchi kuzatilayotgan shaxslar bilan bog'liq voqealar rivoji va o'zgarishlarni qaysidir darajada oldindan taxmin qilgan bo'lishiga qaramasdan ularni boshqarish va to'la nazorat qilish imkoniga umuman ega emas. Bu nazorat qilib bo'lmaydigan omillarning ta'sirida vaziyatning tubdan o'zgarishiga va natijada kutilgan maqsadga erisha olmaslik ehtimolini kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Eksperiment kuzatishdan, birinchi navbatda, tadqiq etilayotgan vaziyatning tashkil qilish mutaxassis tomonidan tavsiya etilishi bilan ajralib turadi. Bu holat kuzatish metodidan farqli o'laroq barcha jarayon hamda u bilan bog'liq o'zgarishlarni to'laligicha nazorat qilish va tegishli qaydlarni o'z vaqtida amalga oshirish imkonini beradi. "O'zgaruvchanlik" tushunchasi (kuzatish usuliga ham qaysidir ma'noda tegishli bo'lishiga qaramasdan) eksperimentni izohlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zgarish yoki o'zgaruvchanlik tushunchasi eksperiment vaziyati bilan bog'liq bo'lgan har qanday real voqelikka xos. Kuzatish bilan bog'liq aksariyat holatlarda tadqiqotchi mutaxassis o'zgarishlarni oldindan tasavvur qila olmagan holda, eksperimentda u bunday imkoniyatga ega bo'ladi. Xatto bu o'zgarishlarni oldindan rejalashtirish va kutilmagan holatlarning oldini olishga muvaffaq bo'lish ham tadqiqotchiga bog'liq bo'ladi. Demak, tadqiqotchi eksperiment jarayonida kuzatishga nisbatan muhim ustunlikka ega bo'ladi.

Quyida vaqtni tejash, mashg'ulot jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim subektlarining o'ziga bog'liq degan farazni isbotlashga urinib ko'ramiz.

Farazlarni tajriba jarayonidagi holatiga ko'ra nisbatan belgilangan hamda daxldor kabi turlarga ajratish mumkin. Eksperimentator tomonidan oldindan asos qilib olingan faraz belgilangan, harakat-jarayonning o'zida yuzaga keladigan faraz esa daxldorlik hisoblanadi, eksperimentda ular orasidagi o'zaro aloqalar oydinlashtiriladi; buni tekshirish uchun eksperimentator xonada yuzaga keladigan shovqin (daxldorlik faraz) bolalarning tez charchab qolishiga sabab bo'lishini ko'rsatadi (shovqin qancha kuchli bo'lsa, charchash tezligi shuncha yuqori bo'ladi). Bunday holatda eksperimentator eksperimentni ikki xil sharoitda amalga oshiradi. Birinchi vaziyatda o'quvchilarga matematik amallarni bajarish topshirig'i shovqin fonida o'tkaziladi va bolalarning charchash tezligi qayd etib boriladi. Ikkinchi vaziyatda esa o'quvchilar matematik amallar bilan bog'liq vazifalarni nisbatan tinch va osuda holatda bajarish imkoniga ega bo'ladilar. Bu sharoitda ham ularning toliqish vaqtlari qayd etib boriladi. Har ikkala vaziyatdagi bolalarning charchash vaqtlari o'zaro taqqoslanib ko'riladi va albatta tinch va sokin paytda ishlagan bolalarda charchash alomatlari shovqin sharoitida topshiriqni bajargan bolalarga nisbatan ancha pastligi aniqlanadi. Demak, bolalarga bog'liq bo'lmagan sharoit ta'siri bilan bog'liq (daxldorlik) farazi o'z tasdig'ini topdi. Vaqtni tejash, jarayonning samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim subektlarining o'ziga bog'liqligi isbotlandi.

Ta'kidlovchi va shakllantiruvchi eksperiment

Psixikaning rivojlanishiga nisbatan mustaqil hodisa sifatida yondashish talab etiladi. Mazkur yondashish ayniqsa yosh va pedagogik psixologiya uchun o'ta muhim. Gap shundaki, psixikaning rivojlanishi ta'lim – tarbiyaga nisbatan mustaqil hodisa sifatida yondashishni talab qiladi, ya'ni ta'lim inson psixikasi rivojlanishiga moslashishi, uyg'unlashishi, u bilan hamqadam bo'lishi kerak bo'ladi. Shu munosabat bilan tadqiqotchining jarayonlar rivojiga bo'lgan munosabati o'zgaradi, boshqacha aytganda, inson psixikasi umumiy rivojlanishini

alohida hodisa ekanligini teran anglagan holda unda ta'lim-tarbiyaning uni rivojlantirishdagi o'ziga xos o'rnini belgilab beradi.

Shakllantiruvchi eksperiment eksperimentatorning faol va maqsadli ta'siri ostida tekshiriluvchi obekt psixikasini shakllantirish hamda rivojlantirish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Shu bois ham, shakllantiruvchi eksperimentning boshqacha nomini pedagogik-psixologik, ta'limiy va tarbiyaviy deb atash tavsiya etiladi.

Falsafa uzining kup asrlik tarakdiyotvda xamisha ilmiy ijod bilan uzviy bogliqbo'lgan, uz konun-koidalarida muayyan fanlarning yutuklari va xulosalariga tayanib kelgan.

Shu bilan birga, falsafa muayyan fanlarga nisbatan uz me-todologik funksiyasida bilim ga chanqoq, fanning, haqiqatning tagiga yetish sari mashaedatli ijodiy yulini yorituvchi yulchi yulduz vazifasini xam bajaradi.

Falsafa bu fan epistemologiyasi, ilmiy ijodning metodo-logik negizidir, zero, u ilmiy tadqiqot lar ummonida olimga metodologik va dunyoga karashga doyr muljal bulib xizmat qiladi. Falsafa ilmiy ijodning metodologik asosi hisoblanadi, zotan, u ilmiy dunyokarashning moxiyati, uzagi, tub negizidir.

Falsafa fanni ilmiy bilishning umumiy, inson amaliyoti sinovidan utgan, xavdoniy usullari bilan kugrollantiradi. u ilmiy ijodning maxsus metodlari va metodikalarining ob'ektiv asoslari va umumiy mazmunini, ularning moxiyati va umumiy tuzilishini ochib beradi, bu ma'lum metodlarni ilmiy tartibga solish va turkumlash, ilmiy bilishning yangi usullarini kidirish va ishlab chikish vositalarini yaratish imkonini beradi.

Ilmiy ijod metodologiyam, uning predmetы - bu tadsisotchining akli va ijodiy faoliyati bilan muttasil nazorat kili-nuvchi va yunaltiriluvchi bilishning umumfalsafiy, umumilmiy va maxsus ishlab chikilgan metodlari negizida yangi ilmiy bilim olish usullari xamda bu ilmiy bilimning tuzilishi prinsipla-ri xuqidagi xozirgi zamon falsafiy ta'limotidir. Fan meto-dologiyasining maqsadi yangi bilim olish, uni ustirish uchun zarur ilmiy ijod negizi, prinsiplarini ishlab chikishdan ibo-rat. Yangi bilim olish uchun ob'ektiv xaskoniy bilimdan kurol sifatida

foydalanilganida, u ijodiy metodologik rol uynaydi, ilmiy metodning jixati, shakli, elementi bulib xizmat kiladi. Olimlar ilmiy metodologiya yordamida olingan bilimlarni tushuntiradi, talkin kiladi, shuningdek, ularni amali-yotga: texnika, texnologiya, amaliy tadqiqotlar va hokazolarga tatbik. etadi.

Bunda bilishning umumfalsafiy, umumilmiy metodlari: analiz va sintez, induksiya va deduksiya, abstraksiyalashtirish, abstraktlikdan konkretlikka tomon yuk,orilab borish va bo-shkalar olimlarning ko‘plab avlodlari ilmiy ijodining mahsulidir¹.

Ilmiy metod - bu ilmiy bilimni muttasil ustarishga yunal-tirilgan inson bilishining ob’ektiv jarayonlari, qonunlari va tendensiyalarini aks ettiradigan ilmiy bilimdir. Bu nuktai nazardan ilmiy metod uz mohiyatiga kura ijodiy metoddir. Ilmiy ijod deganda avvalambor ilmiy bilishning har xil usulla-ridan yangi ilmiy bilim olish vositasi sifatida foydalanish tushuniladi.

Odatda, olim uz ijoditsa metodlar, yondashuvlar va konsepsiyalarning tizimidan foydalanadi. Shuninguchun xam ilmiy ijod vokelikni ilmiy bilish va uzgartirishning abadiy barxa-yot, uzgaruvchan, har safar uzgargan sharoitlarga moslashuvchan usuli hisoblanadi.

Uzbekiston Respublikasi Prezidenta I.A.Karimovning fa-oliyati ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida Uzbekiston-ni rivojlantirish muammolari va istikbollarini ilmiy ji-xatdan chuqur, ob’ektiv kurib chikishga nisbatan ijodiy yonda-shuvning yorkin misolidir.

I.A. Karimov uzining teran ijodiy tadqiqotlari, kitoblari, asarlari, ma’ruzalarida xalk., jamiyat, davlatni ijtimoiy rivojlantirishningtarixiy ildizlarini va istikbollarini chuqur tax.lildan utkazdi. Prezidentimiz yaratgan ijtimoiy-demokratik islox.otlarni amalga oshirishning uziga xos va betak-ror ijodiy modeli «Uzbek modeli» sifatida nom kozondi. Ushbu modeldabizning asosiy mak.sadimiz- kelajagi buyuk demokra-tik Uzbekiston davlatini barpo etish ekanligi e’lon k.ilindi va amalga tatbiq etilmoqda.

Ilmiy pedagogik tadqiqotning nazariy asoslari

Ilmiy tadqiqot ishining pirovard mahsuloti “dissertatsiya” deb yuritiladi. “Dissertatsiya” soʻzi lotincha soʻz boʻlib uni maʼnosi ilmiy izlanish, muhokama-munozara qilish demakdir. U ilmiy monografiya, ilmiy maqola koʻrinishlarida namoyon boʻladi? Koʻpincha ularni adabiy insho koʻrinishida boʻlib, ilmiy izlanishlarning natijasi sifatida bayon qilingan.

U oʻziga xos ilmiy asar hisoblanib, uni ilmiy jamoada himoya qilingan va ilmiy maqolali kadr sifatida qabul qilingan ilmiy darajali shaxs sifatida tan olingan.

Umuman dissertatsiya qoʻlyozma sifatida ilmiy ishning alohida turi boʻlib, ilmiy ijodiy ish natijasi deb qabul qilingan.

Dissertatsiya boshqa badiiy, adabiy asarlardan oʻzining ilmiy tekshiruv, tajriba-sinov natijasi sifatida, maxsus metodika asosida olingan ilmiy yangilik, yangi bilim maʼlumotnomasi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning mazmuni keltirilgan axborotni oʻzining takrorlanmasligi bilan ajralib turadi.

Dissertatsiya olingan, toʻplangan ilmiy faktlarni oʻz nuqtai nazaridan tartibga soladi, ularni amaliy jihatdan, nazariy qimmatini belgilab beradi.

Har bir fakt, muammolarning har bir taxminlari ilmiy asoslanadi va tushuntiriladi. Dissertatsiyaning oʻzini “tili” va tushunchalari mavjud.

Umuman dissertatsiyalar maʼlum tizim, konsepsiya, modellashtirish, algoritmlashtirishlar asosida kechadi. Endi magistratura, magistrant, magistrlik dissertatsiyalari xaqida fikr yuritamiz.

Magistratura - magistr mutaxassislar tayyorlaydigan, ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy pedagogik faoliyatni olib bora oladigan kadrlar tayyorlaydi.

Zamonaviy - oliy taʼlim yurtida “magistr” bu ilmiy daraja emas, balki akademik daraja boʻlib, u yuqori darajadagi tayyorgarlikka ega boʻlib, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish koʻnikma malakasiga ega boʻlgan yuqori malakali shaxsdir.

Magistraturaning bosh maqsadi oliy o'quv yurtini bitiruvchilaridan eng qobiliyatlarini ilmiy tadqiqot faoliyatiga tayyorlash orqali doktoranturaga kirish yoki mustaqil ilmiy tadqiqot olib borishga tayyorlab berishdan iborat.

“Magistr” so‘zi lotin so‘zidan olingan bo‘lib «o‘z ishini ustasi», «ustoz», «o‘qituvchi», «rahbar» ma'nolarini bildiradi. Ilgari vaqtlarda ayrim davlatlarda (qadimgi Rim, Vizantiyada «doktorlik» darajalariga) tenglashtirilgan.

Hozirgi kunda bizning oliy o'quv yurtlarimizda akademik bilimli darajasidagi yuqori darajali mutaxassis deb e'tirof etilmoqda.

Pedagogik ixtisosligidagi magistr – keng erruditsiyali mutaxassisdir.

Ilmiy ijodkorlik metodikasi va metodologiyasini biladigan, zamonaviy axborot-texnologiyalarini egallagan pedagogik axborotlarni olish, qayta ishlash, uzatish ko‘nikma va malakasiga ega bo‘lgan ya'ni:

- Pedagogik axborotlarni to‘plash, tahlil qilish malakasiga ega;
- Ilmiy pedagogik loyihalarni ishlab chiqish va boshqarishni biladigan;
- Pedagogik faoliyatda faol, modulli ta'lim, ilg‘or texnologiyalarni qo‘llay oladigan bo‘lishi kerak.

Magistr quyidagilarni bilishi kerak:

- Tadqiqot vazifalarini shakllantirish;
- Tadqiqot rejasini shakllantirish;
- Informationsion texnologiyalarni qo‘llagan holda bibliografik ishlarni olib borish;
- Tadqiqotning metodlarini tanlash, mavjudlarini modifaqatsiya qilish va tadqiqot maqsadlari, vazifalari asosida yangi metodlarni ishlab chiqish;
- Tadqiqot asosida olingan natijalarni tahlil qilish, ularni ilmiy adabiyotlar asosida ko‘rib chiqish;
- Qilingan ishlarni hisoblash, referat, maqola, ma'ruza, tezislarini talablar va tahrir asosida taqdim etish;

Magistrni ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda maxsus tayyorgarlikka qo‘yilgan talablar:

- Tadqiqotni olib borish rejasini aniq shakllantira bilish, tadqiqotning muammosi, farazi va vazifalarini belgilay olish;
- Zamonaviy axborot-texnologiyalari asosida bibliografik ishni olib borish;
- Ilmiy tadqiqotlarda zaruriy metod va vositalarni va zamonaviy axborot texnologiyalarni qo'llashni bilish;
- Tadqiqotdan olingan natijalar asosida xulosa chiqarish, qilingan ishlar yuzasidan referat, tezis, ilmiy maqola tariqasida xisobot tayyorlashni talablar asosida xujjatlashtirish.

Yigirmanchi asr o'rtalariga kelib ob'ektiv borliq to'g'risidagi ma'lumotlar shu darajada ortib ketdiki, asr boshida go'yoki, shakllanib bitgan, deb hisoblangan fan tarmoqlari taraqqiy etishi natijasida ularning turlari qariyb o'n baravar ko'paydi. O'rganish ob'ekti va tadqiqot usullari jihatidan, ularning fanlararo integrativ turlari vujudga kela boshladi. Bilim hajmi, turi va sifati ortib boraverdi. Bu bilimlarni keng ommaga yetkazish va ularning tafakkuriga singdirib, xotiralarida saqlab qolishlari uchun dunyoni boshqacha tushunish tartibi paydo bo'la boshladi. Ob'ektiv borliqni cheksiz ko'p, sodda va murakkab, katta va kichik, jonli va jonsiz, tiklanuvchi va tiklanmaydigan, bir tomonga yo'naltirilgan hamda ko'p tomonli va hokazo xususiyatlarga ega bo'lgan majmular sifatida idrok qilish shu taraqqiyot mahsulidir. Narsa va hodisalarga majmu sifatida yondashish rivojlana borib, qisqa muddat ichida o'zining xususiy qonuniyatlariga, atama va tushunchalariga ega bo'la boshladi. Natijada majmular nazariyasi vujudga keldi. Majmular nazariyasi juda ham taraqqiy etgan nazariya bo'lib, o'z qonuniyatlariga, kategoriya apparatiga va ularni ommaga yetkazuvchi maxsus jurnal va ilmiy nashriga ega. Majmular nazariyasini yaxshi egallagan inson maxsus fikr yuritish uslubiga ega bo'ladi.

Majmular nazariyasiga to'liq asoslanuvchi oliy matematikaning bo'limi, kibernetika, kosmonavtika, robototexnika kabi ilm-fan tarmoqlari mavjud.

Majmular nazariyasidan dunyoni anglash usuli sifatida foydalanuvchi fanlar kundan-kunga ortib bormoqda. Bugun muayyan fanning taraqqiy etganlik darajasi va har bir olimning yetukligi ular majmular nazariyasidan naqadar unumli

foydalanganligi bilan belgilanmoqda. Majmular nazariyasi pedagogikaga XX asrning 70-yillarida kirib kelib, pedagogik texnologiya bu jarayonning mahsulidir.

«Majmular nazariyasi» (teoriya sistem), «Majmuli yondashuv» (sistemalash podxod) va ularga tegishli bo'lgan tushunchalar O'zbekistonga nisbatan yaqinda kirib keldi. Bu tushunchalar O'zbekiston olimlari tomonidan turlicha talqin qilinib ilmiy jamoatchilik orasida «majmuali yondashuv», «tizimli yondashuv» va «majmu yondashuv» kabi atamalar bilan qo'llanib kelinmoqda. Ilmdagi g'oyat murakkab ushbu ijtimoiy voqelikni bu tushunchalarning hammasi ham to'la ifoda etmaydi.

«Majmular nazariyasi» va «Majmuali yondashuv» degan so'z birikmalaridagi «Majmua» tushunchasi biz o'rganayotgan voqelikni mutlaqo ifoda etmaydi. Chunki «majmua» (e'tibor bering, «majmu» so'zidan «a» harfi bilan farqlanadi) so'zi ruschadan «kompleks» degan tushunchani bildiradi. Bunday yondashuv ham as-lida mavjud. Unda ba'zi bir xususiyat va jihatlari, masalan, yoshi, rangi, shakli, tovushi va hokazolar o'xshashligiga qarab birlash-tirilgan narsa va hodisalar yig'indisiga aytiladi.

«Tizimli yondashuv» degan tushuncha, majmu (sistema)ni klassik yoki arifmetik talqinni ifodalaydi. Holbuki, majmular nazariyasi (ya'ni, teoriya sistem)da «tizim» tushunchasi tizimli majmui (ya'ni, «lineynaya sistema») mazmunini berib, majmuning ming turidan bir turini ifodalaydi xolos. «Majmui» deb, o'zaro funksional aloqadorlikda bo'lib, bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar birikmasiga aytiladi. «Funksional aloqadorlikda bo'lgan» deb, majmuini tashkil qiluvchi qismlarning tadrijiy rivoji natijasida ularning ichki zaruriyatidan kelib chiqqan bog'liqliklarga aytiladi.

Har qanday majmu ikki va undan ortiq qismlardan tashkil topgan bo'lib, ayni vaqtda, o'zi ham o'zidan yuqori pog'onadagi majmuga qism bo'lib kiradi. Uning qismlari ham bir pog'ona pastdagi majmular hisoblanib, ular ham bir necha qismlardan iborat bo'ladilar. Bu hodisa chekli bo'lishi va cheksiz davom etishi mumkin.

Masalan: odamning ko‘zi bir butun narsa — majmu. U ko‘z olmasi, gavhari, kipriklar, qovoq va hokazo bir necha qismlardan tashkil topgan. Ko‘z olmasi yoki kiprigi, o‘z navbatida, majmu bo‘lib, bir necha qismlardan tashkil topadi. Ko‘zning o‘zi mustaqil majmu bo‘la turib, o‘zidan bir pog‘ona yuqori turgan yuz degan majmuga qism bo‘lib kiradi va hokazo. Yoki avtomashinaning g‘ildiragini olib ko‘rsak, u bir butun narsa — majmu bo‘lib, o‘zaro funksional bog‘liq bo‘lgan bir necha qismlardan iborat, shu bilan birga o‘zi mashinaning bir bo‘lagi, qismi hisoblanadi. Ijtimoiy hodisalardan misol keltiradigan bo‘lsak, «to‘y» degan majmu bir butunlikni tashkil qilishi bilan birga, bir necha — to‘y taraddudi, to‘yning boshi, avji va oxiri degan o‘zaro funksional bog‘liq qismlardan iborat. Bu qismlarning har biri majmu hisoblanib, o‘z navbatida, bir necha qismlardan tashkil topadi. Shu bilan bir galikda to‘yning o‘zi milliy urf-odatlar va an‘analar degan ijtimoiy hodisaning bir qismidir va hokazo. Yer yuzi hamda Koinotdagi barcha narsa, elektrondan tortib, samodagi Somon yo‘ligacha hamda butun hodisalar, oddiy kayfiyatingizdan tortib, jahon urushigacha majmu sifatida yondashish lozim. Shuning ichiga, avval kuzatganimizdek, ta‘lim-tarbiya jarayoni ham kiradi. Yuqorida qayd qilinganidek, majmuni tashkil qiluvchi qismlar deb, faqat o‘zaro uzviy, ya‘ni funksional aloqadorlikda bo‘lgan qismlarga aytiladi. Chunki narsa va hodisalarda funksional aloqador bo‘lmagan bog‘liqliklar ham juda ko‘p. Ilmning vazifasi ana shu funksional aloqadorliklarni boshqa turdagi bogliqliklardan ajratib berishdan iborat. Funksional aloqadorliklar narsa va hodisaning tarxiy rivojining ichki zaruriyatidan kelib chiqib, majmuni tashkil qiluvchi qismlaridan birining xususiyati o‘zgarsa, boshqa qismlarining ham xususiyati o‘zgarishga uchraydi. Buni funksional aloqadorlik deyiladi. Majmular zamon va makonda mavjud bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan majmuning ba‘zi bir xususiyatlari ham o‘zgaradi. Majmularning har biri faqat o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bir-biridan shu xususiyatlar yig‘indisi bilan ajralib turadi. Majmuning xususiyati faqat majmular bilan aloqalarda namoyon bo‘ladi. Aloqadorlik deb, majmu xususiyatini paydo qiluvchi uzviylikka aytiladi. borliqlilik esa faqat ularning namoyon bo‘lishidir. Har qanday sog‘liq zahirida aloqadorlik yotavermaydi. Yashi xususiyatni yaratuvchi

aloqadorlik funksiya deyiladi. Narsa va hodisalarning funksiyaga bo'lgan nisbati funksiya namoyon bo'lishining asosi, majmu ajralmas qismidir. Funksiyalar orqali majmular holati aniqlanadi. Majmu holatining ketma-ket namoyon bo'lishi jarayon deyiladi. Majmu, uni tashkil qiluvchi qismlar, faqat o'z pog'onasidagi majmular orasidagi aloqadorliklarda namoyon bo'ladi.

Bir majmuning tashkil qiluvchi qismlarning birontasi o'z pog'onasidagi majmu qismlari bilan barobar boshqa pog'onadagi majmu qismlari bilan aloqadorlikda bo'lsa, u bir vaqtning o'zida boshqa majmuni tashkil qilishda ishtirok etgan bo'ladi. Chunki har qanday majmu asosini aloqadorlik tashkil qiladi deb aytiladi. Aloqadorliklar narsa va hodisalarning tabiiy tadrijidan kelib chiqib, kishi ixtiyoridan tashqarida mavjuddir.

Sub'ektiv, ya'ni inson xohish istagidan kelib chiqqan va kishi tasavvurida namoyon bo'ladigan sun'iy aloqadorliklar ham mavjud. Bunday aloqadorliklar *antropogen aloqadorliklar* deyiladi. Bunday aloqadorlikka asoslanib shakllangan majmu ham sun'iy bo'ladi.

Sun'iy aloqadorliklar ob'ektiv qonuniyatlardan kelib chiqib, qismlar tadrijini ichki zaruriyatidan paydo qilingan bo'lsa, ular amaliyotda haqiqiyga aylanadi. Har qanday oddiy mashina va imoratdan tortib, murakkab harakatlarni bajaruvchi robot va kosmik kemalar bunga misol bo'la oladi. Aksincha, sun'iy aloqadorliklar va ular asosida shakllantirilgan narsa va hodisalar ob'ektiv konuniyatlarga zid holda yaratilgan bo'lsa, ular amaliyotda o'z tasdig'ini topa olmay, inson tafakkurida xayoliy narsa yoki hodisa bo'lib qolaveradi. Uni majburiy ravishda amalga oshirilsa, u muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Bunga bitgandan keyin qulab tushgan inshoot hamda xayoliy g'oyalarga asoslanib qurilgan va keyin inqirozga uchragan kommunizm jamiyati misol bo'la oladi.

Majmular o'z asoslariga, funksional aloqadorliklar proeksiyasi shakliga ko'ra quyidagi guruhlarga ajraladi: **tartibli va tartibsiz**. Masalan, muayyan daraxt bargining tuzilishi yoki arifmetik raqamlar tartibi, barglarning daraxt shoxlariga joylanishi tartibsiz; **tezlikka ega va sust** — misol uchun jonli narsalar tezlikka ega, tog'u tosh sust majmularda; **ikki qarama-qarshi va ko'p tomonlama** — masalan,

daryo ikki qarama-qarshi tomonli, ko‘l esa ko‘p tomonlama majmu; **nuqtaviy va tizimli** — bir hujayrali mikroorganizmlar nuqtaviyga, yo‘l, raqamlar tartibi tizimlikka misol bo‘ladi; **tiklanuvchi va tiklanmaydigan** majmular: doim avvalgi holiga qaytib keladigan — kecha-kunduz, fasllar va hokazo tiklanuvchi; vaqt, umr esa tiklanmaydigan majmularga misol bo‘la oladi; **oddiy va murakkab** — vodorod, kislorod, toza suv, sof temir, sof oltin oddiy; jinslar, eritmalar, qotishma, polimer va jonzoqlar murakkablariga kiradi; **markazlashgan va markazlashmagan** — agar majmu qismlari orasidagi bog‘liqlik vektorlarining hammasi bir asosiy qismda kesishsa, unday majmular markazlashgan bo‘ladi. Misol uchun Sharqda oilada hamma ishlar ota bilan bog‘liq, u bilan barcha oila a‘zolari bog‘liqlikda. Yoki dars degan majmuni misol qilib oladigan bo‘lsak, u o‘qituvchi, o‘quvchi, dastur, darslik va didaktik materiallar, o‘qitishning usul va uslublari va o‘qitishning texnik vositalari, degan qismlardan iborat. Ular o‘zaro bogliqlikda bo‘la turib, barcha aloqalar o‘quvchi degan qismda kesishadi, o‘quvchi talaba majmuning markazida. Shuning uchun bu majmu markazlashgan. Majmudagi qismlar teng huquqqa ega bo‘lib, bir-biri bilan boshqa qism orqali emas, to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liqlikda bo‘lsa, markazlashmagan majmu bo‘ladi, misol uchun, do‘stlar davrasi. Bir va ko‘p pog‘onali qamish, jo‘xori poyasi, qavatli uylar, davlat qurilmasi ko‘p pog‘onali majmu, oila bir pog‘onali va hokazo.

Yana majmularni holatiga qarab quyidagi guruhlariga ajratsa bo‘ladi: **birlamchi** majmular muayyan xususiyatlarga azaldan ega bo‘lganda; **ikkilamchi** majmu bo‘lib shakllangandan keyin muayyan xususiyatga ega bo‘lganda; **tugallangan va tugallanmagan** majmular — tugallangani o‘ziga yanga qismlar qo‘shilishiga yo‘l qo‘ymaydi, tugallanmagani bunga yo‘l qo‘yadi; **immonent va immonentsiz** majmular — birinchi turi o‘zini tashkil qiluvchi qismlar bilan uzviy aloqadorlikda, ikkinchisi shu bilan barobar boshqa majmular qismlari bilan ham aloqadorlikda bo‘lishga yo‘l qo‘yadi; **minimal** majmular ham bo‘ladi, ular o‘zini tashkil qiluvchi qismlarning birontasi yo‘q bo‘lganda o‘zi ham yo‘q bo‘lib ketadi; **turg‘un va turg‘un bo‘lmagan** majmular — tuzilishiga o‘zgarishlar kiritilganda o‘zgarmaydigan majmular turg‘un, o‘zgarish kiritilganda o‘zgarib ketadiganlari

turg'un bo'lmagan hisoblanadi; **gomogen** majmular deb, bir xil xususiyatli qismlardan iborat majmularga aytiladi; **geteroge** majmu deb, har turli xususiyatlarga ega qismlardan iborat majmularga aytiladi; **qaytarilib turuvchi** va **qaytarilmaydigan** turlari ham mavjud, ularning birinchisi — majmu bir qonuniyat asosida o'zgarib, yana avvalgi holatiga qaytib kelib turadi, ikkinchisi — tinmay o'zgarib, avvalgi holatiga hech qaytib kelmaydi; **qadrli va qadsiz** majmular, birinchisining tashkil qiluvchi qismlarini har birining boshqa qismlar bilan aloqadorligi ikkitadan oshmaydi, ikkinchi turiniki oshadi; **chala va tuliq** — chala majmuda aloqadorlikda turgan ob'ektlar bilan ularning hamma xususiyatlari o'zaro aloqalar o'rnatmagan bo'ladi; to'liq majmuda uning aksi — aloqadorlikda bo'lgan qismlarning hamma xususiyatlari orasida uzviy aloqalar o'rnatilgan bo'ladi; **variativ** majmular deb, aloqadorlik faqat muayyan majmuni tashkil qiluvchi qismlar orasida mavjud bo'lmay, boshqa majmular qismlari bilan ham uzviy aloqalar o'rnatishga yo'l qo'yilgan majmularga aytiladi; **variativsiz** deb, boshqa majmularning qismlari bilan aloqadorlikka yo'l qo'ymaydigan majmularga aytiladi. Ko'rib turganimizdek, majmular nazariyasi ancha murakkab va yaxshi taraqqiy etgan nazariy bilimlar majmui. Bu yerda biz, faqat majmuni eng umumiy belgalariga qarab guruxlashtirdik, xolos. Bu bizning maqsadga, ya'ni o'quv jarayonini ifoda etishga mos keladi. Kosmonavtika, kibernetika, astronomiyada majmular nazariyasi juda murakkab tus olgan. Majmular nazariyasidan umumiy tushunchangiz bo'lishi uchun undan bir shingil bilim berildi, xolos.

Har bir ishda majmular nazariyasidan kelib chiqish, birinchidan, ishni bir necha o'n barobar osonlashtiradi va tezlashtiradi. Ba'zi murakkab ishlarda, masalan — kibernetika va kosmonavtika majmular nazariyasini egallamay turib, o'sha ishni bajarib ham bo'lmaydi; ikkinchidan, ular har qanday faoliyatni to'g'ri amalga oshirish garovi bo'lib hizmat qiladi; uchinchidan, muayyan narsa va hodisani boshqalarga tushuntirishni osonlashtiradi hamda berilgan bilimni tez va to'g'ri o'zlashtirib olishga hizmat qiladi. Chunki inson ongi va tafakkuri majmular nazariyasi qonuniyatlariga mos ravishda shakllangan. Biroq noto'g'ri bilim berish va tarbiya natijasida ob'ektiv borliqni majmu sifatida ko'rishni unutib

yuborganmiz. Majmu yondashuv qonun qoidalari inson uchun yangi emas, uni bilib olish ya'ni to'g'ri fikrlashga qaytish demakdir.

Har qanday ishda majmular nazariyasidan kelib chiqib harakat kilishni majmuli yondashuv tamoyili deyiladi.

O'quv jarayoniga majmu sifatida yondashadigan bo'lsak, u o'zining asosiga ko'ra (proeksiya shakliga) tartibli, chunki u avvaldan rejalashtiriladi, darsni tashkil qiluvchi qismlarining aniq joylari mavjud; ikki qarama-qarshi tomonga ega — ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi; tezlikka ega — u doimo rivojlanib, takomillashib, o'zgarib turadi; chiziqli — aniq maqsadga yo'nal-tirilgan; tiklanuvchi — muayyan darsni istagan vaqtda qaytarib o'tsa bo'ladi; murakkab — ikkitadan ortiq qismlardan iborat; geterogen — har turli xususiyatga ega qismlardan iborat; markazlashgan — barcha qismlarining vektor chiziqlari o'quvchi degan qismda kesishadi; ko'p pog'onali — dars boshi, avji va xulosa degan pog'onali modullardan iborat.


Uni holatiga qarab quyidagicha tasniflasi bo'ladi: o'quv jarayoni ikkilamchi, tugallanmagan, immonentsiz, turg'un, kuchli, geterogen, qaytarilib turuvchi, qadrsiz, to'liq va variativ majmudir. Endi pedagogika fanlar majmui masalasiga qaytib kelimiz.

Pedagogika fanlar majmui. Pedagogika turkumiga kiruvchi barcha fanlarni 4 yirik guruhga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq. Bular: barcha pedagogikaga oid fanlarga asos bo'lgan guruh — **pedagogika tarixi va nazariyasi**. Bu guruhga pedagogika tarixi, didaktika va umumiy pedagogika kiradi.

Umumiy pedagogika guruhi — uzluksiz ta'lim jarayonining har bir bosqichidagi pedagogik jarayonning o'ziga xosligini asoslab beruvchi — oila pedagogikasi, maktabgacha tarbiya pedagogikasi, maktab pedagogikasi, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi va kattalar pedagogikasi degan tarmoqlarga bo'lingan. Undan tashqari, sezgi a'zolarining biron - bir turi ishlamaydigan kishilarga bilim berishning o'ziga xos tomonlarini o'rganuvchi **maxsus pedagogika guruhiga** — **surdopedagogika, tiflopedagogika va oligafrenopedagogikalar kiradi.**

Butun pedagogik jarayonni amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatib beruvchi **uslubiyat** (metodika) fani ham, o‘z navbatida, maktabgacha ta’lim uslubiyati, umumta’lim uslubiyati, hunar ta’limi uslubiyati, maxsus ta’lim uslubiyati, oliy ta’lim uslubiyati va malaka oshirish uslubiyati, degan tarmoqlardan iborat. Bu pedagogik fanlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, biri birini taqozo etadi, biri birini to‘ldiradilar (5-rasm).

Pedagogika tarixi va nazariy asosini tashkil qiluvchi birinchi guruhning uchta pedagogik fan tarmoqlariga umumiy tasnif beradigan bo‘lsak, bularning uchalasi boshqa pedagogik fan tarmoqlariga asos bo‘lib, o‘zaro uzviy bog‘liqdirlar.



1-rasm. **Pedagogik fanlar majmui.**

Didaktika va umumiy pedagogikada ishlab chiqilgan asosiy prinsiplar, qoidalar va maxsus tushunchalar maktab hamda maxsus pedagogika guruhlaridagi pedagogik fan tarmoqlari, didaktika prinsiplari va umumiy pedagogikadagi qonun-

qoidalarini, ta'lim tarbiya berishning o'ziga xosligidan kelib chiqib o'zgartiradilar va o'z sohasiga moslashtiradilar.

Pedagogik fan tarmoklari to'rt yirik guruhining biri uslubiyatni oladigan bo'lsak, u ham maxsus va ta'lim bosqichlaridagi pedagogikalar kabi, ta'limning o'ziga xos turidan kelib chiqqan holda, didaktika prinsiplari va umumiy pedagogikadagi qonun qoidalarini o'z sohasiga moslashtiradi va soha uslubiyatini yaratadi.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan munosabatlari. Pedagogika fanlari turkumidan tashkil topgan pedagogika fanlar majmui, avvalom bor, falsafa bilan chambarchas bog'liq. Falsafa barcha pedagogik fanlarning metodologik asosini tashkil etibgina qolmay, ta'lim-tarbiyaning maqsadi, kishi dunyoqarashining shakllanishi, komil inson siymosi va shu kabi umumiy masalalarni pedagogikaga yechib beradi.

Pedagogika bola tarbiyasida uning yosh, individual va hududiy xususiyatlarini hisobga oladi. Shu bois u **psixologiya, sotsiologiya va sotsial geografiya** bilan uzviy aloqada ish olib boradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagog o'quvchi va talabalarning diniy e'tiqodini, siyosiy qarashlarini, milliy xususiyatlarini ham hisobga olishi kerak. Undan tashqari, bolalarning har turli diniy oqimlarga, ayniqsa, diniy ekstremistik oqimlariga kirib ketmasligi uchun pedagogika dinshunoslik bilan ham uzviy bog'liq.

Inson biologik evolyusiyaning mahsuli bo'lganligi tufayli va tarbiyalanuvchining biologik xususiyatlarini bilish zaruriyati pedagogikani **odam anatomiyasi va fiziologiyasi** degan fanlar bilan bog'laydi.

Pedagogika **tarih etnografiya** va **etnopedagogika** bilan ham uzviy bog'liq.



2-rasm. **Pedagogikaning boshqa fanlar bilan oloqadorligi.**

Keyingi vaqtlarda pedagogikaning **kibernetika** bilan bog‘lanishi ko‘zga tashlanmoqda. Bu holni kibernetikaning umumiy g‘oyalaridan ta’lim-tarbiyada foydalanish tajribalarini pedagogik texnologiya misolida ko‘rish mumkin (6-rasm).

Inson aqlini naqadar ishlatganligining belgisi, uning egallagan bilimining hajmi bilan aniqlanadi, deb yuqorida aytiladi. Kishi qancha aqlini ko‘p ishlatrsa, bilimi shuncha ko‘p va ijtimoiy mohiyati yuqori bo‘ladi. Undan tashqari inson boshqa mahluqotlardan ko‘pgina ikkilamchi xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Insonning boshqa mavjudotlardan ikkilamchi farqlaridan biri, uning ma’lum bir maqsad sari harakat qilishidadir. Kishi maqsadga yetishish jarayonida bir qator tabiiy va sun’iy to‘siqlarni bosib o‘tadi. Bu to‘siqlarni bartaraf qilish uchun u bir qancha tadbir va choralarni qo‘llaydi. **Maqsadga yetishishda muayyan to‘siqni yengib o‘tish uchun qo‘llaniladigan tadbir-choralar majmui usul (ruscha — metod)** deyiladi. Maqsadga yetishishda, kishi bir necha, goho o‘nlab, yuzlab to‘siqlarni yengishiga to‘g‘ri keladi. Bu to‘siqlarni yengish uchun tegishli usullarni ma’lum bir tartibda qo‘llaydi. **Maqsadga yetishishdagi qo‘llaniladigan usullar tizimini uslub yoki yo‘l (ruscha — metodika) deyiladi.**

Usullarning ma’lum bir tartibda qo‘llanish jarayonida har bir harakat maqomi kishining oldiga qo‘yilgan maqsad ko‘rsatkichlari hamda o‘sha jarayonda hukm suruvchi qonuniyatlardan kelib chiqib, amalga oshiriladi. **Kishi maqsad sari qilgan harakatida unga tamoyil bo‘lib hizmat qiladigan maqsad ko‘rsatkichlari bilan shu harakat davomida amal qilishi shart bo‘lgan**

qonuniyatlar majmuiga metodologik asos deyiladi. Masalan: faraz qilaylik, siz o'zingizga ko'ylak tikib kiyishni maqsad qilib qo'ydingiz. Buning uchun, avval matoni xarid qilasiz bu maqsadga yetishning birinchi usuli, so'ng uni bichib, tikish, dazmollash va kiyish degan usullarni qo'llashingiz kerak bo'ladi. Bu usullar ma'lum bir ketma-ketlikda, ya'ni ma'lum bir yo'l, uslub, ya'ni metodika orqali amalga oshiriladi. Ammo uslubning usullari ichidagi tadbirlarni bajarishda, siz har bir harakat maqomingizni ko'ylakning fasonidan, o'lchamlaridan hamda tikuvchilikda mavjud qonun qoidalarga bo'ysungan holda amalga oshirasiz. Buni harakat metodologiyasiga bo'ysunish deyiladi. Bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Ammo hammasida ham usullar, usullar tizimi — uslub qo'llanilib, uning metodologiyasi bo'ladi. Metodologiyaning eng umumiy, umumiy va xususiy degan turlari mavjud.

Odamlar faoliyat ko'rsatish jarayonida eng umumiy, umumiy va xususiy metodologiyalardan birday kelib chiqqan holda o'z ishlarini amalga oshiradilar, aks holda harakatlari zoe ketishi mumkin.

Odam tug'ilishi bilan o'zida ijtimoiy sifatlarni shakllantira boshlaydi. Bu sifatlarni shaxsiy xarakter, mijoz, hissiyot, diqqat, idrok va xotira ta'siridan o'tib, shaxsiy sifat tusini ola boshlaydi. Inson sekin asta shaxs degan maqomga ega bo'ladi. Shaxslar egallagan bilimlari hajmi va odamlar taqdirini o'zgartira olish doirasiga qarab oddiy, kuchli va buyuk shaxslar toifasiga bo'linadilar.

Shaxsning kamolotga erishish jarayoni murakkab bo'lib, u kishining irsiy birliklaridagi dasturi (taqdiri azal), shaxsiy shijoati va tashqi tabiiy va ijtimoiy muhit hamda maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonlari ta'siri ostida kechadi.

Inson bioijtimoiy mavjudot sifatida ijtimoiy rivojlanishi davomida sifat o'zgarishlariga duch kelib, biologik tur vakilidan shaxs darajasigacha ko'tariladi. Bunda ijtimoiy rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuch hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Inson ijtimoiy rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch deb, kishi ehtiyojlari ta'sirida yuz beradigan ob'ektiv omillarni, odamlarning oddiy, biologik va

jismoniy (moddiy) ehtiyojlaridan boshlab, oliy (ma'naviy va ruhiy) ehtiyojlariga qadar bo'lgan ehtiyojlar majmui hamda ularni qondirish imkoniyatlari orasidagi munosabatlarga aytiladi.

Ehtiyojlar u yoki bu faoliyatning sabablarini vujudga keltiradi. O'zining ehtiyojlarini qondirish uchun kishi vosita va manbalar qidiradi. Ehtiyojni qondirish imkoniyatlari mavjud bo'lganda, kishi o'zini baxtiyor his etadi. Aks holda, o'zini baxtsiz deb bilib, unda harakatlantiruvchi kuch paydo bo'ladi.

Agar odamning axloqiy tarbiyasi to'g'ri bo'lsa, u ijtimoiy rivojlanadi. Axloqiy tarbiyasi nosoz odamning ijtimoiy sifatlari nuray boshlaydi va ijtimoiy illat (o'g'rilik, nashavandlik, yolg'on so'z, firibgarlik va hokazo) larga duchor bo'ladi. Axloqiy tarbiyasi yaxshi odam ehtiyojini qondirishning to'g'ri yo'llarini izlaydi hamda odamlar bilan muloqotda bo'lib, yaxshi ijtimoiy sifatlari takomillashib boradi.

Bunday o'zaro ta'sirlardan paydo bo'lgan kuchdan samarali foydalanish uchun yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sirning muvaffaqiyatli bo'lishi yetakchi o'rinni egallaydi.

Yoshlarni hayotga tayyorlash uchun mutasaddi kishilar (shular jumlasiga o'qituvchilar ham kiradi) balog'atga yetmaganlar dunyoqarashini shakllantirishda jamiyat oldida mas'ul hisoblanadilar.

Har qanday jamiyat a'zolarining eng umumiy maqsadi bo'ladi deb yuqorida qayd qilib o'tgan edik. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining eng asosiy maqsadi huquqli va demokratik davlat qurish hamda adolatli va fuqarolar jamiyatini shakllantirishdir. Bunday davlat va jamiyatning ko'rsatkichlari majmui bo'ladi. Uni milliy mafkura deyiladi. **Milliy mafkura mamla-katning barcha fuqarolarining harakatiga eng umumiy metodologik asosning birinchi qismi bo'lib hizmat qiladi.**

Shu bilan birgalikda har qanday ijtimoiy guruhlarining o'ziga xos maqsadlari ham mavjud. Bu maqsad ko'rsatkichlari shu sohada faoliyat ko'rsatayotganlarga **umumiy metodologik asosning birinchi qismini tashkil qiladi.**

Har bir shaxsda turli ijtimoiy sifatlar va shunga yarasha ehtiyojlar tizimi bo'lganligi sababli odamlarning shaxsiy maqsadlar yig'indisi ham turlichadir. Ular shu shaxsning harakati uchun **xususiy metodologik asosning birinchi qismi rolini o'ynaydi.**

Maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda jamiyat oldiga qo'yilgan oliy maqsad metodologik asos vazifasini o'tar ekan, jamiyatning ko'pchilik a'zolari o'zaro maqsad qilib olgan va erishishi shart bo'lgan ma'lum g'oyalar majmuiga Oliy maqsad deyiladi. Har qanday millatda Oliy maqsadning asosiy ko'rsatkichlari bo'ladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, butun tarixiy taraqqiyot davrini, xalqimizga mansub va ajdodlarimiz tomonidan e'zozlangan milliy g'oyalarni, shuningdek, hozirgi rivojlangan mamlakatlar qadriyatlarini o'rganib, istiqbolga mo'ljallangan milliy Oliy maqsad va mafkurani ishlab chiqdi.

Maqsadimiz O'zbekiston hududida huquqiy va demokratik tamoyillarga asoslangan buyuk davlat qurish hamda erkin va farovon fuqarolik jamiyatini barpo qilishdir. Bu Oliy maqsadning har birining aniq ko'rsatkichlari bo'lib, ularning yig'indisi milliy mafkurani tashkil qiladi. Milliy mafkura, avval aytganimizdek, O'zbekistondagi barcha fuqarolar harakati metodologik asosining birinchi qismini tashkil qiladi. Bugungi kunda butun dunyoda Arastu va Forobiy aytib ketgan va Hegel tomonidan rivojlantirilib, falsafaning eng umumiy qonuni sifatida e'lon qilingan **dialektikaning uch asosiy qonuni tan olinib, o'zining harakat jarayoniga, eng umumiy metodologik asosning ikkinchi qismi sifatida qabul qilganlar.**

Aslida dialektika rivojlanish ma'nosini bildiradi, butun borliq — tabiat, jamiyat va ong tinmay harakat jarayonida bo'lib, bir turdan ikkinchi bir turga o'tib turadi.

Bunday rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuch qayoqdan paydo bo'ladi? degan tabiiy savol tug'iladi. Hegel bu kuch qarama-qarshi tomonlar birligi va kurashidan paydo bo'ladi, dedi va uni dialektikaning asosiy qonuni deb nomladi.

Darvoqe, butun borliq, avval qayd qilib o'tganimizdek, cheksiz katta va cheksiz kichik, kelib chiqishi jihatidan turli tuman majmulardan tashkil topgan bo'lib, har bir majmu o'zining antipodiga, ya'ni qarama-qarshi tomoniga ega. Mutlaqo yolg'iz va bir tomonlama majmuni, ya'ni narsa va hodisani topa olmaymiz. Bu qarama-qarshi tomonlar bir-biriga tinmay intilib, bir butunni tashkil qiladi. Shu bilan birgalikda ular qarama-qarshi tomon, ya'ni qarama-qarshi kuch bo'lib qolaveradi.

Bu voqelik narsa va hodisalar (tadriji)ning ichki zaruriyatidan kelib chiqqan qonuniyat bo'lib, butun borliq shu qonuniyatga bo'ysunadi.

Shuning uchun ham uni rivojlanishning eng asosiy qonuni deb yuritiladi. Bu holni har qadamda ko'rishimiz, sezishimiz mumkin. Masalan, atom qarama-qarshi ko'rsatkichlarga ega bo'lgan elektron va protonlardan iborat yoki kecha-kunduz, oq-qora, past-baland, og'ir-yengil, o'ng-chap, yaxshi-yomon, ayol-erkak va hokazo. Bu lar cheksizdir. Bu hol jamiki narsa va hodisalarda o'z ifodasini topgan. Bunday qarama-qarshi tomonlar bir vaqtning o'zida bir-biriga intilib, shu vaqtning o'zida bir-biriga qarshi kuch bo'lib qolaveradilar. Bunday ichki tortilish va itarilish natijasida narsa yoki hodisa ichida kuchlanish paydo qiladi. U ma'lum bir vaqtdan keyin, miqdor jihatidan me'yoriga yetganda, narsa yoki hodisada harakat paydo bo'ladi va o'zining avvalgi holatini o'zgartirib, yangi bir holatga o'tadi. Bu holatlarni ifodalovchi dialektikaning yana ikki qonuni bor. Bular — mikdorning sifatga o'tishi va inkorni inkor qonunlaridir. Bu qonunlar borliqning har bir majmuida o'z kuchini ko'rsatganligi uchun har bir ishda, jumladan, ta'lim-tarbiya ishida ham bu qonunlarni hisobga olmaslik va ulardan eng umumiy metodologik asosning ikkinchi bo'lagi sifatida kelib chiqmaslik, harakat jarayonimizni noto'g'ri tashkil qilganimizni bildiradi va bunday harakat maqsadga olib bormaydi. Chunki bu g'ayritabiiydir.

Bu qonunlarning ma'rifiy jarayonda namoyon bo'lishini ko'rib chiqamiz.

Pedagogik jarayonni ko'z oldimizga keltirsak, u bir butunlik, ya'ni ta'lim-tarbiya majmuidan iborat bo'lgani holda ikki qarama-qarshi — «ta'lim-tarbiya

beruvchi» va «ta'lim-tarbiya oluvchi» tomonlardan, boshqacha aytganda, qarama-qarshi kuchlardan tashkil topganligini ko'ramiz. Dialektika qonunlariga binoan, ular bir vaqtning o'zida bir-birlariga intiladilar va bir-birlaridan qochadilar.

Ma'rifiy jarayonni hosil qilish uchun bu qarama-qarshi tomonlarning bir-biriga intilish kuchini oshirib, bir-biriga qarshi kuchlarni so'ndirish yo'lidano borish kerak. So'ndirganda ham zo'rlab emas, murosa va muomala yo'li bilan so'ndirish kerakli natijani beradi. Zo'rlab qarama-qarshi kuchlarni so'ndirish yoki ular mavjud bo'lsada, ko'rib ko'rmaslikka olish qarama-qarshi kuchlarning kuchayishiga va ma'rifiy jarayonning to'xtashiga, ba'zan uning teskari samara berishiga olib keladi.

Ta'lim-tarbiyada yoshlarning berilayotgan bilimga qiziqishi bir-biriga intiluvchi kuch bo'lib hizmat qiladi. Shuning uchun pedagogikaning asosiy qonunlaridan biri ham berilayotgan bilimga qiziqtirish yo'li bilan bolalar diqqatini darsga jalb etish hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya beruvchi ta'lim oluvchiga berayotgan bilim mohiyatini ochib, qiziqtirib, tushuntirish paytida mikdor yig'ilib sifatga o'tishi uchun uni tarbiyalanuvchiga bir necha bor takrorlashi shart bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, berilgan bilim ta'lim oluvchining miya qobig'ida o'z aksini topishi uchun uni kamida 3— 5 marotaba, murakkab mavzularni o'tayotganda yoki diqqati sust bolalar bilan ishlayotganda esa 7—9 marotaba takrorlash kerak ekan. Shundagina miqdor sifatga o'tib, talabalardagi «bilmaslik» holati «bildi» holati bilan almashinadi. Miqdor sifatga o'tadi. Bola avvalgi «bilimi yo'q» holatini inkor qilib, «bilimli» degan sifatga ega bo'ldi. Bu — dialektikaning qonunlari ishladi, deganidir.

Dars berishda, bu qonunlarga amal qilmaslik ma'rifiy faoliyatning eng umumiy metodologik asosining ikkinchi qismiga suyanmaslik bo'lib, harakatdan ko'zlangan maqsaddan chekinishga olib keladi.

Eng umumiy metodologik asosdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida yana umumiy va xususiy metodologiyalar ham mavjud ekanini aytgan edik.

Ta'lim-tarbiya tizimi oldiga qo'yilgan maqsad ko'rsatkichlari bilan didaktika tamoyillari pedagogik faoliyatning umumiy metodologiyasidir.

O'zbekiston jahondagi iqtisodiy taraqqiy etgan, xalqining ma'naviyati yuqori mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun butun aholisining kasbiy va axloqiy ma'naviyatlarini ko'tarish yo'lidan borishi lozim. Chunki yaqin o'tmishimizda ishlab chiqarish vositalari ish kuchidan begonalashtirilib, ishchining ishlab chiqargan mahsulotiga egalik qila olmasligi hamda mehnatkashlarning ish haqlari ular sarf qilgan aqliy va jismoniy kuchlaridan ancha past miqdorda belgilanganligi va boshqa bir qancha sabablarga ko'ra aholi o'z ishiga loqayd, hech narsaga qiziqmaydigan, yalqov va yolg'onni ko'p ishlatadigan kishilarga aylanib qolgan. Mustaqillikka erishgach, bu hol o'zgarib, ishlab chiqarish vositalari yer, suv va boshqa tabiiy boyliklar, ish qurollari, ko'chmas mulk ular bilan tinmay aloqada bo'ladiganlar qo'lga, ya'ni asl egasiga topshirildi. Ishlab chiqargan mahsulotni qaerda, kimga va qaysi narxda sotish tamoyili va boshqa bir qancha iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar odamlarni jonlantirib, harakatga solib qo'ydi. Ayniqsa, yerning dehqonga berilishi, tadbirkorlik va hunarmandchilikka keng yo'l ochilishi, qishloqqa sanoatning kirib borishi, o'rta va kichik biznesga e'tibor qaratilishi odamlarda mulkka munosabatni, qolaversa, tafakkurda ijobiy siljishlarni boshlab berdi.

Ammo bu demokratik tamoyil va bozor munosabatlariga mos ma'naviyatni odamlarda yoshligidan shakllantira borish zarur. Bu sho'rolar davrida yaratilgan ta'lim-tarbiya tizimi va mazmunini tezroq isloh qilishni taqozo etadi. Aynan mana shu maqsadda Respublika Oliy Majlisi o'zining tarixiy IX sessiyasida «Ta'lim go'g'risida» gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dastur»ini qabul qildi. «Dasturning asosiy maqsadi — deyilgan ushbu hujjatda, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir». So'ng ushbu dasturning maqsadini ro'yobga chiqarish bo'yicha hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalar va bu vazifalarni amalga oshirish tadbir-choralari

aniqlab berilgan. Bunday tadbirlardan biri — «Kadrlar tayyorlash tizimini va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish haqida»gi tadbir ishlab chiqildi. Bu tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun O'zbekistonning aholisi XXI asrdagi qanday ma'naviyatga ega va qaysi fazilatlar sohibi bo'lishlari kerak? degan savolga javob topishimiz zarur. Ya'ni mustaqil mamlakat aholisining axloq kodeksini yaratish lozim. Chunki **bu axloq kodeksi jamiyatning ta'lim-tarbiya tizimiga qo'ygan buyurtmasi bo'lib, ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchilar umumiy metodologiyasining birinchi qismini tashkil qiladi.** Darslikning keyingi sahifalarida bu masalani yechish uchun alohida mavzu ajratilgan.

Ta'lim-tarbiya sohasi umumiy metodologiyasining 2-qismiga didaktikaning umumiy tamoyillari kiradi. Bularga pedagogik jarayonda har bir bilimni ilmiy asoslab berish; bilim berishda ta'lim oluvchining imkoniyati va yosh xususiyatlaridan kelib chiqish; mumkin qadar ko'proq ko'rgazma vositalaridan foydalanish; muntazamlilik va davomiylikni saqlash; mehnat jarayonida o'quvchilarning faolligi va ongliligini ta'minlash; ta'lim va tarbiyaning tizimli, izchil bo'lishi va uning birligi prinsiplari kiradi.

Bilim berishning ilmiylik tamoyili deb, beriladigan har bir bilimni, avvallari bir necha bor tajribadan o'tgan va o'quvchilarga yaxshi ma'lum bo'lgan bilimlardan kelib chiqqan holda tushuntirishga aytiladi. Bu tamoyilda, yangi berilayotgan bilimni ilmiy asoslab berish bilan birga uning mantiqi, tarixiyligini ham izohlash, tahlil etish talab qilinadi.

Ta'lim oluvchilar imkoniyati va yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyili. Fiziologiya va ruhshunoslik ilmlarining ta'kidlashlaricha, inson hech qachon birday iqtidorli bo'lib tug'ilmaydi, uning bilimlarni qabul qilish, tushunish va xotirasida saqlab qolish qobiliyati har turli bo'ladi. Bunday imkoniyatlar har kimda har xil bo'lib, ular yosh qo'shilishi bilan o'zgarib, maxsus mashklar orqali ularni takomillashtirsa bo'ladi. Shu fikrlardan kelib chiqsak, dars berishdan oldin har bir o'qituvchi ta'lim oluvchilar ruhiyatida kechayotgan jarayonlarni yaxshi

bilishi shart. Undan tashqari, u har bir bolaning bilimlarni qabul qilish va xotirasida saqlab qolish qobiliyatini, shu kungacha to'plagan bilimlarining turi va hajmidan xabardor bo'lishi lozim. Shundagina uning o'quvchilarga ko'rsatgan pedagogik ta'siri samara beradi.

Ta'lim va tarbiyada ko'rgazmalilik tamoyili. Bu tamoyilga amal qilinganda kishining eshitish a'zolari bilan bir qatorda ko'rish a'zolari ham ishtirok etadi. Jahon olimlarining tadqiqotlariga ko'ra, insonning sezgi a'zolari orqali olinadigan bilimlarning xotirada saqlab qolish darajasi quyidagicha: eshitish a'zolari orqali olingan bilimlarning 15—20 foizi esda qolsa, ko'rish orqali olingan bilimlarning 80—85 foizi esda qolar ekan. Shuning uchun ham ko'rgazmalilik tamoyili o'quv-tarbiya jarayonining eng asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Xalqimizning «yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal» degan maqoli ham buni tasdiqlaydi. Ammo ko'rgazmalilik yaxshi samara beradi deb, uning me'yori buzilsa, ya'ni ko'rgazma materiallari haddan ziyod ko'p bo'lib ketsa, ta'lim oluvchilar diqqati yoyilib, ularning fikri darsning asosiy mazmunidan chalg'iydi.

Muntazamlilik va davomiylik tamoyili. Bu ta'lim va tarbiyadagi zarur fiziologik-psixologik qonuniyat hisoblanib, bilimni mantiqiy bog'liklikda o'rganishni ta'minlab beradi. Bu tamoyil har bir fan bo'yicha tuzilgan o'quv reja va dasturlarda, darslik va uslubiy tavsiyanomalarni yaratishda tatbiq etiladi. Amaliyotchi o'qituvchi o'quv reja va dasturdan chetga chiqmasligi lozim. Bu qonuniyat tushunchalar, dalillar va boshqa fikrlar orasidagi, ularning tadrijidan kelib chiqqan aloqadorliklar — qonun va qoidalar bilan amaliy ishlarni bajarish o'rtasidagi mantiqiy bog'likliklarni o'rnatish orqali amalga oshiriladi. Bu qonuniyat o'qish faoliyatini tashkil etishning asosi hisoblanadi. Unga amal qilmaslik o'quvchilar tafakkurida o'zaro bog'liq bo'lmagan uzuq yuluq bilimlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday bilimlardan kishining ijtimoiy mohiyatiga naf bo'lmaydi, ular tafakkurni charchatadi, xolos.

Ta'lim-tarbiyani hayot bilan bog'lash tamoyili, deb tarbiyani hayot bilan va ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog'lab olib borishlikka aytiladi. U

didaktikaning asosiy va yetakchi qoidalaridan biri bo'lib, bilim faoliyatining ruhiy asoslaridan kelib chiqqan.

Bu tamoyil ta'limning boshqa tamoyillari bilan, jumladan, ilmiylik tamoyili bilan ham uzviy borlikdir. O'qish jarayonida olingan nazariy bilimlar amaliy ehtiyoj tufayli kashf qilinganligini anglab yetishga qaratilgan.

Ta'lim bilan amaliyot birligi tamoyili — o'quv fanining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq holda o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Bu birlik bilimlarni puxta o'zlashtirish va uni amalda qo'llay olish, shuningdek, uni mustahkamlash kabi ruhiy hodisalar bilan bir butun ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qiladi.

Ta'limda onglilik va faollik tamoyili. O'quvchilar olayotgan bilimini hayotda qo'llay bilishlari uchun ta'lim berish jarayonini faol fikrlashga aylantirish kerak. Bunda o'qitishni shunday tashkil etish kerakki, ta'lim oluvchilar bilimlarni mashg'ulotlarda ongli va faol qatnashib egallab olishsin. Shunda talabalarda ong o'sib, ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik tarkib topadi.

Ta'lim-tarbiyaning onglilik tamoyili o'quvchilarda ta'rif, tushuncha va qoidalarni yodlash va esda saqlash bilan ularni egallash emas, balki bu bilimlarni hayotiy hodisalar, jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan mazmunini ham tushunishlarini talab etadi.

Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish o'quvchilarda bilimlarga nisbatan ma'lum munosabat hosil qilishni, hissiy kechinmalar uyg'otishni ham o'z ichiga oladi.

Bu tamoyil tafakkurni shakllantiruvchi qoida bo'lganligi uchun muammoni mustaqil hal qilish maqsadida darsda o'quvchilarga muammoli vaziyatlar yaratishni taqozo etadi.

Ta'lim-tarbiyaning tizimli va izchillik tamoyili. Ta'lim-tarbiyada qat'iy izchillikka rioya qilish kerak, toki butun o'rganilgan bilimlar kecha o'rganilganlaridan kelib chiqsin, ularni mustahkamlasin va ertaga o'rganiladiganlariga zamin hozirlasin.

Tizimli va izchillik tamoyili o'qitish jarayonida didaktikaning umumiydan xususiyya va xususiyydan yana umumiyga qoidasini hamda o'quv fanlarining biri biri bilan uzviy bog'liq bo'lishini ham ta'minlaydi.

Ta'lim va tarbiyaning birligi tamoyili — kishilarga bilim berish va bu bilimlarni hayotda qo'llay olishga o'rgatish hamda o'quvchilarning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirishni taqozo etadi.

Bir butun ta'lim-tarbiya jarayonida ikki o'zaro bokliqlik — bilim berish va bu bilimlar asosida harakat qilishga o'rgatish, bu ob'ektiv borliqdagi qonuniyatni bilish va uning amaliy munosabatini tarkib toptirishda namoyon bo'ladi. Bu jararayonda ta'lim yetakchilik qiladi. Chunki bilim bermay turib, insonni bu bilimlarni hayotga tatbiq qilishga o'rgatib bo'lmaydi. Bilim berishdan maqsad ham bu bilimni hayotda qo'llashlikdir. Shuning uchun ta'lim berish ketidan, albatta, bu bilimni amalda ishlatishga o'rgatish, ya'ni tarbiya jarayoni ham bo'lishi shart.

Ta'lim-tarbiya sohasining eng umumiy va umumiy metodologik asosidan tashqari xususiy metodologiyasi ham bor deb bir necha bor ta'kidlaganmiz. Bunday metodologik asosga har bir darsning oldiga qo'ygan maqsadi va muayyan mavzuni o'tish qoidalari hizmat qiladi. Chunki ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan kelib chiqish shart.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Ijod deganda nimani tushunasiz?
2. Fan va ijodning nisbati sanday?
3. Ilmiy bilish va ijodda falsafa sanday urin tutadi?
4. Ilmiy ijod metodologiyasining predmet sifatidagi mo-uhiyati nimada?
5. Ilmiy metod deganda nimani tushunasiz?
6. Insonning boshqa jonzotlardan ikkilamchi farqi nimada?
7. Usul tushunchasini ta'riflab bering.
8. Uslub nimani bildiradi?
9. Metodologiya tushunchasini shakllantirib bering.
10. Eng umumiy metodologiya nima?

11. Pedagogik faoliyatning umumiy metodologiyasi qaysilar?
12. Pedagogik faoliyatning xususiy metodologiyasini ko'rsating.
13. Insonning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar?

PEDAGOGIK FANLAR MAJMU'I


Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Inson ta'lim-tarbiyani ona qornida ekanligidan boshlab, to qabrga kirgunga qadar olishi kerak. Demak, ta'lim-tarbiya birinchidan, jarayon, ikkinchidan, u uzluksiz, shuning bilan bir qatorda u bir butun. Aynan shu uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonini pedagogika ilmi o'rganadi. Shu sababdan umumiy pedagogika ilmining tadqiqot ob'ekti rasmiy uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonidir (3-rasm).

Umumiy pedagogikaning tadqiqot ob'ekti rasmiy uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayoni ekan, uning tadqiqot predmeti nima bo'lishi mumkin? Ilmshunoslik fani bizga har qanday ilmning tadqiqot predmeti uni tadqiqot ob'ektini bir butun qilib turuvchi qismlari orasidagi aloqadorliklari bo'ladi, deb o'rgatadi.


Shu qoidadan kelib chiqib fikr yuritadigan bo'lsak, umumiy pedagogika ilmining **tadqiqot predmeti** pedagogik jarayonni bir butun qilib turuvchi asosiy elementlari bo'lgan ta'lim beruvchining o'quv dastur va darslik, o'qitishning usul va uslublari hamda o'qitishning texnik vositalari yordamida ta'lim oluvchi, ya'ni o'quvchi va talabalar bilan bilim berish hamda bilim olish maylida kechadigan munosabatlardir. Ular pedagogik munosabatlar deyiladi (4-rasm).

Умумий педагогиканинг tadqiqot ob'ekti



3-rasm. Rasmiy uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayoni.

Umumiy pedagogika ilmining tadqiqot predmeti



$\longleftrightarrow$ Umumiy pedagogikaning tadqiqot predmeti. $\square$ Boshqaruvchi element. $\triangle$ Boshqariluvchi element.

○ Ishtirok etuvchi elementlar.

4-rasm. **Darsning bir butunligi.**

Pedagog va talaba orasida kechadigan pedagogik munosabatlarni tadqiq qiluvchi ilm-fanni alohida nom bilan didaktika deyiladi. Didaktikaga darsligimizning keyingi sahifalarida batafsilroq to'xtalamiz.

Pedagogikaning ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilar orasidagi munosabatlarni tadqiq qilishdan yagona **maqsad**, bunday munosabatlarning kechish qonuniyatlarini aniqlashdir. Pedagogik munosabatlarning kechish qonuniyatlarini bilgandan keyin, bu qonuniyatlardan kelib chiqib, dars berish usul va uslublarini yaratiladi. Pedagogikaning bu tomonini esa uning metodik (uslubiyat) degan tarmog'i tadqiq qiladi. Umumpedagogik usul va uslublarini muayyan fanga moslashtirib, uning ta'lim va tarbiya berish xususiy usullarini yaratuvchi yana fan tarmoqlari mavjud. Natijada pedagogika fanlarining majmui paydo bo'lgan. Bu masalaga keyin batafsil to'xtalamiz.

Pedagogika o'z tadqiqotlarini olib borish jarayonida quyidagi an'anaviy tadqiqot usullari hisoblanuvchi — tarixiy va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish; o'quv uslubiy hujjatlarni o'rganish; fanlardan bilim berish amaliyotini kuzatish; pedagogik tajribalar olib borib, ularning yakunini sintezlash; maqsadli suhbat; qiyosiy tasnif; taqqoslash; statik va boshqa usullardan foydalanadi. Shu bilan birgalikda, pedagogika tadqiqotning nisbatan yangi hisoblanuvchi — majmuyondashuv; modellashtirish, shu jumladan, matematik modellashtirish; grafoanalitik; sotsiologik tadqiqot usullari va boshqalardan unumli foydalanadi.

TA'LIM-TARBIYA JARAYONI

Uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayoni va pedagogikaning asosiy tushunchalari

Rasmiy ta'lim-tarbiya bog'chadan boshlanib, malaka oshirish bilan tugashi bizga ayon bo'ldi. O'zini haqiqiy inson va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis sifatida ijtimoiy mohiyatini yo'qotib qo'ymasligi uchun, har bir odam o'zini uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonida doimo tutib turishi kerak bo'ladi.

Rasmiy ta'lim-tarbiya davlat tomonidan tashkil qilinib, moddiy tomondan kafolatlangan hisoblanadi. Bu ta'lim-tarbiya tizimining boshqa ta'lim-tarbiyalardan asosiy farqi, u jamiyat talabidan kelib chiqqan asosiy maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, davlat tomonidan tasdiqlangan dastur va ishchi reja asosida amalga oshiriladi. Rasmiy talim-tarbiyaning birlamchi asosi dars hisoblanadi.

Dars, o'z navbatida, bir butunlik bo'lib, quyidagi qismlardan tashkil topgan: ta'lim-tarbiya beruvchi; **ta'lim-tarbiya oluvchi; dastur va darslik, o'quv-uslubiy qo'llanma hamda didaktik materiallar; pedagogik usul va uslublar; o'qitishning texnik vositalari**. Darsning bu besh qismi o'zaro funksional bog'liqlikda bo'lib, bir butunlik, ya'ni dars degan majmuni tashkil qiladi. Birining mavjudligi boshqasining mavjudligini taqozo etib, birining yo'q bo'lishi boshqa barcha qismlarining faoliyatini yo'qqa chiqaradi. Bu qismlarning har biri, o'z navbatida, bir butunlik (majmu) bo'lib, bir necha qismlardan tashkil topgan.

Uzluksiz rasmiy ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshiruvchi darsni bir butun qilib turuvchi qismlar tasnifini **ta'lim-tarbiya beruvchidan** boshlashimiz mantiqan to'g'ri bo'ladi. Uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonining bosqichlarida ta'lim-tarbiya beruvchi, avval ham aytib o'tganimizdek, turlicha atalib **murabbiy, ustoz, o'qituvchi, pedagog, assistent, katta o'qituvchi, dotsent, professor va ma'ruzachi** deb yuritiladi.

Bularning vazifasi davlat tomonidan tasdiqlangan dastur asosida darsni **tashkil etish** va ishchi rejada ko'rsatilgan bilimlarni, ta'lim oluvchilarga didaktikaning barcha tamoyillaridan kelib chiqib, bir qator pedagogik usullardan va o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib yetkazib berishdir.

Hozirgi kundagi uzluksiz rasmiy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya sinf-dars shaklida olib boriladi. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, ta'limni tashkil etish shakllari jamiyatning taraqqiyot bosqichlariga mos ravishda amalga oshirilganini ko'ramiz.

Dastlabki davrlarda ta'lim berish ishlari faqat odamlarning mehnat faoliyati, kundalik turmushi bilan uzviy bog'langan hamda bilim berish, o'rgatish yakka

tartibda olib borilgan. Ta'lim-tarbiyaning bunday yo'nalishi hozir ham oila sharoitida olib boriladi.

Davr o'tishi bilan ko'pchilikka bilim berish ehtiyoji paydo bo'la boshlagan. Ta'lim tizimining mazmuni, bilimlarning murakkablashuvi, bolalarni guruh-guruh qilib o'qitishni taqozo qilgani holda, ta'lim bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, o'qituvchilarni tayyorlash zaruriyati kelib chiqqan. Shu davrda o'qitishning tashkiliy shakllari paydo bo'la boshladi. Buning natijasida sinf-dars tizimi paydo bo'lgan. Xalq ichida hayotiy tajribaga, bilim va tarbiyaga ega kishilar murabbiy, o'qituvchi bo'lib faoliyat ko'rsata boshladilar.

O'rta Osiyo tarixiga nazar solar ekanmiz, eramizdan ilgarigi minginchi yillarda Zardushtlik otashxona ibodatxonalarida yoshlarni to'plab, qohinlar tomonidan ularga bilim berish bilan shug'ullanganliklari «Avesto» va boshqa tarixiy manbalardan bizga ma'lum. Shunga o'xshash bolalarni to'plab o'qitish qadimgi Yunonistonda ham olib borilganligini darsligimizning avvalgi sahifalaridan bildik. Ammo qadim davrlarda ta'limni qat'iy chegaralangan vaqtda, bir xil yoshdagi bolalar bilan olib borish, ta'lim mazmunini bosqichma-bosqich berish masalalariga aniqlik kiritilmagan edi.

Ta'limning tashkiliy masalalari Al-Forobiyning «Fan va aql-zakovat» asarida o'quv fanlarini guruhlariga bo'lib o'qitish, ularning tarbiyaviy mohiyatini ochish masalalariga e'tibor berilgan. Bu masalalar Ulug'bek davrida ham ko'tarilib, ma'lum darajada amalga ham oshirilgan.

Pedagogika tarixida, ta'lim-tarbiyani tashkil etishning asosiy shakli sinf-dars tizimini birinchi bor chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592—1670) ishlab chiqqan va amaliyotga joriy etgan.

Dars — aniq maqsadni ko'zlab, berilgan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchi-yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulot.

Darsning maqsadi, mazmuni, hajmi ta'lim standartlari (o'quv dasturi, reja, darslik) asosida belgilanadi. O'qituvchi uchun dars o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan, u bu jarayonda:

- 1) har bir sinfda o'quvchilarning yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lishiga;

- 2) dars qat'iy jadval bo'yicha belgilangan aniq muddatda olib borilishiga;
- 3) dars o'qituvchi rahbarligida butun sinf bilan va alohida o'quvchilar bilan ishlash shaklida olib borilishiga;
- 4) dars o'quv fanining xarakteri, o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab turli usullar va vositalar yordamida olib borilishiga va uzluksiz ta'lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim berilishiga va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratishiga qattiq rioya qilishi shart.

Shuni unutmaslik kerakki, o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya ishlari faqat sinf-dars shaklida olib borilmay, balki amaliy mashg'ulotlar, tajriba ishlari shaklida ham amalga oshiriladi. Bu mashg'ulotlar sinfdan va maktabdan tashqarida bo'lishi ham mumkin.

Dars — ta'limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo'lishi, bilimlar mustahkam o'zlashtirilishi, o'quvchi-talabaning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan holda tashkil etilishi shart.

Pedagogika fani dars oldiga bir qator didaktik talablarni qo'yadi. Jumladan:

Har bir dars aniq maqsadni ko'zlagan holda puxta rejalashtirilmog'i yoki loyihasi tuzilmog'i lozim. Bu jarayonda o'qituvchi darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi. Dars bosqichlarini, ya'ni qanday boshlash, yangi materialni qanday o'tish, qanday tamomlash, ko'rgazmali va boshqa didaktik materiallardan qanday foydalanish kabilarni oldindan hal qilib oladi.

Har bir dars aniq g'oyaviy izlanishga ega bo'lishi lozim.

Har bir dars maktabning ijtimoiy muhit imkoniyatini hisobga olgan holda amaliyot bilan bog'lanmog'i, ko'rgazmali vositalar bilan jihozlanmog'i lozim.

Har bir dars, dars xarakteriga mos usul va uslublardan samarali foydalanilgan holda tashkil etilishi lozim.

Dars uchun ajratilgan vaqt va uning daqiqalaridan tejamkorlik va unumli foydalanish lozim.

Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'zaro faol munosabatda bo'lishi shart, o'quvchi-talaba passiv tinglovchiga aylanmasligi kerak.

Mashg'ulotlar butun sinf bilan va har bir o'quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda olib borishni yuqori samara beradi.

Darsning mazmuni va xarakteriga qarab xalqimizning boy ma'naviy merosidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdirdir.

9. O'tilayotgan mavzuning mazmuniga bog'liq holda mustaqil O'zbekistondagi o'zgarishlardan o'quvchi va talabalarni xabardor etish lozim.

Dars bolalarga bilim berish va berilgan bilimni ularning ko'nikmasiga aylantirishda asosiy rol o'ynaydi. Shu sababli o'quv mashg'ulotlarida ajratilgan vaqtning asosiy qismi dars o'tish uchun sarflanadi.

Ta'lim tizimida tajribadan o'tgan dars turlari quyidagilardan iborat:

Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.

O'quv materiallarini mustahkamlash darsi.

Takrorlash va bilimlarni umumlashtirish darsi.

O'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish va baholash.

Uyg'unlashgan darslar.

Ta'lim jarayonida eng ko'p qo'llaniladigan dars yangi bilimlarni bayon qilish darsidir. Bu darsning tuzilishi quyidagicha:

- darsni tashkil etish;
- yangi bilimlarni bayon qilish;
- yangi bilimlarni mustahkamlash;
- yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish;
- yangi bilimlarga bog'liq uy mashg'ulotlarini berish.

Darsni tashkil qilish. Uy vazifasining bajarilishini nazorat qilish va baholash. Yangi mavzuni bayon qilish. Yangi mavzuning mustahkamlash. Uyga topshiriq berish. Darsni yakunlash.

Ta'lim tizimida, takrorlash va bilimlarni mustahkamlash darslari ham ko'p qo'llaniladi. Bunday darslar o'qituvchi dasturning ma'lum bir qismini, yirik mavzularni o'tib bo'lganidan so'ng uyushtiriladi. Bu dars bilimlarni oraliq iazorat orqali baholashda ham hizmat qiladi. Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mashg'ulotni to'g'ri tashkil qilishga bog'liq. Bu davrda sinfning tayyorgarligini

sinchiklab kuzatish, bolalarning darsni tinglashga ruhiy jihatdan tayyor ekanligini o'rganish darkor. Shundan so'ng, mahoratli pedagog fursatni qo'ldan bermay, o'quvchilar diqqatini chalg'itmay, darsning asosiy qismini boshlab yuboradi. Chunki o'quvchilarining tezlik bilan mashg'ulotga faol kirishishlari ta'minlanmasa, dars samarali o'tishi amri mahol. Dars yangi materialni bayon qilishga qaratilgan bo'lsa, dars mavzusi e'lon qilinadi. Rejada mo'ljallangan o'quv materiali o'tib bo'lingach, u albatta yakuilanishi, xulosalar chiqarilishi kerak. Dars o'qituvchi va o'quvchining ijodiy hamkorligiga asoslanishi lozim. Shundagina o'quvchilar mustaqil fikrlay oladilar, irodalari tarbiyalanadi, nutq madaniyati rivojlanadi.

O'quv mashg'ulotlarining sinfdagi shaklidan tashqari yana qo'shimcha qator ta'lim shakllari mavjud: amaliy-tajriba mashg'ulotlar, qo'shimcha darslar, fakultativ darslar, ekskursiya kabilardir. Bular darsda berilgan bilimlarni to'ldirish, mustahkamlash, amaliyot bilan bog'lash, ko'nikma va malakalarga aylantirish uchun xizmat qiladi. Bulardan tashqari, o'quv yurtlari tajribasida fan to'garaklari, ishlab chiqarish amaliyoti, o'yin shaklidagi mashg'ulotlardan ham foydalaniladi. Bu turdagi mashg'ulotlar darsdan olgan bilimlarini malaka va ma'naviyat darajalariga ko'tarishda as qotadi. Uzluksiz ta'limning hamma bosqichlarida ta'limning o'ziga xos tashkiliy shakllari mavjud. Jumladan: ikki bosqichli oliy ta'lim tizimida o'ziga xos ta'lim shakllari mavjud bo'lib, ma'ruzalar, seminar va amaliy mashg'ulotlar, kafedra o'qituvchilarining ochiq ma'ruzalarida qatnashish, ma'ruza matnini tayyorlash va muhokama qilish kabilar shular jumlasiga kiradi. Oliy ta'lim tizimida ma'ruza o'quv jarayonining ham usuli, ham shakli hisoblanib, u orqali talabalarga fan asoslarini og'zaki, uzviy va muntazam singdirishga xizmat qiladi. Ma'ruza orqali talaba shu fanning mohiyatini tushunib boradi hamda mustaqil fikrlashga va ular ustida o'ylashga majbur etadi. Shu sababli ma'ruza ilmiy tafakkurni rivojlantirishning o'ziga xos maktabiga aylangan. Ma'ruzani shunday o'qish lozimki, bolalarda milliy e'tiqod va milliy mafkura asoslari shakllansin. Buning uchun o'rgatuvchi har bir ma'ruzaning mazmunini hayotdagi va fandagi yangiliklar bilan boyitishi lozim. Ma'ruza ijodiy hamkorlikda tashkil

qilingandagina samara beradi. Buning uchun ma'ruza jarayonida ham ta'limiy, ham tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofikdir. Buning yo'llaridan biri o'qituvchi bilan talabalar o'rtasida do'stona munosabatlarning tiklab olinishidan iborat. Buning uchun esa, talabalarning o'quv jarayonidagi ruxiy holatini hisobga olish lozim bo'ladi.

Ta'limni samarali tashkil etishda dars ma'ruza va o'qitishning boshqa shakllaridan o'rinli foydalanishlari uchun, shubhasiz, o'qituvchining pedagogik saviyasi, pedagogik madaniyati, o'z predmetini puxta bilishi va o'quvchi talabalarni psixologik holati bilan tanish bo'lishi hamda ular bilan til topa olishligi g'oyat katta ahamiyatga ega.

Dars degan bir butunlikni tashkil etuvchi asosiy qismning biri ta'lim-tarbiya oluvchilar, ya'ni o'quvchi va talabalaridir. Ta'lim-tarbiya jarayoni samarali o'tishi uchun ta'lim oluvchilar quyidagi narsalarni bilib olishlari shart:

Birinchidan, o'qishdan maqsad yoshlar o'zlarining Konstitutsiyaviy huquqlaridan, ya'ni aqliy-amaliy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual rivojini ta'minlash, o'zi xohlagan kasbni tanlash va uni mukammal egallab, shu sohada baxtiyor faoliyat ko'rsatish uchun ijtimoiy mohiyatini shunga yarasha rivojlantirish imkoniyatidan to'la foydalanish.

Ikkinchidan, o'quvchi o'quv muassasasiga kelganida amal qilishi shart bo'lgan qoidalarni yaxshi bilishi va ularga rioya qilishi shart. Bu qoidalarga: maktabda, sinfda, laboratoriyalarda, sport zal va maydonlarida o'rnatilgan maxsus tartiblarga to'la rioya qilish; o'rganish sub'ekti sifatida bilish jarayonida faol qatnashish; o'qituvchi darsda bergan bilimidan tashqari o'zi mustaqil ravishda bilim olishga mashq qilish va o'rganish; kutubxonadan foydalanish va kitob o'qishga mehr qo'yish; maktabdoshlari va o'qituvchilari bilan xushmuomalada bo'lib, uni tarbiyalab, maktab yoshiga yetkazgan ota-onasiga rahmatlar keltirish.

Uchinchidan, har bir o'quvchi va talaba o'qish davridagi burch hamda mas'uliyatini bilishi kerak. Ular quyidagilardan iborat: o'qish jarayonidagi muqarrar qiyinchiliklarni bartaraf etish va ularni yengishdan quvonish; hamma fanlar bo'yicha muvaffaqiyatli o'qishning shaxsiy ahamiyatini tushunib yetish va

unga amal qilish; o'qish va o'rganish jarayonida bilimni ko'nikmaga va ko'nikmadan malakaga aylantirishning mohiyatiga yetib borish va kundalik amaliyotda foydalanish; dars va seminar mashg'ulotlari davomida so'zga chiqib, o'zida nutq madaniyatini o'stirish; o'qituvchi dars davomida fan bo'yicha keltirib chiqargan muammoli vaziyatlardan chiqib ketishga harakat qilib, mustaqil fikr yuritishga o'rganish; o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarda bor irodasini ishga solib, reyting baholarini yuqoriga olib chiqishga faol qatnashish (kamtarlik qilish va uyalish bu yerda o'rinsiz); o'qituvchining pedagogik usul sifatida qo'llagan maqtov va dalda berishlariga taltaymaslik; ayb ish qilib qo'yganda o'rtoqlari yoki o'qituvchilari, yoxud ota-onasidan uzr so'rashga tayyor turish; qilib qo'ygan gunoh ishlariga tavba qilib, ularni boshqa qaytarmaslikka tirishish.

Darsni bir butun qilib turuvchi qismlaridan biri — bu namunaviy o'quv dasturi, ishchi va taqvimiy rejalar hamda darslik, o'quv qo'llanma va didaktik materiallar. Butun dunyoda buni *kurrukl'yuum* deyiladi.

Namunaviy o'quv dasturi Pedagogik ilmiy tadqiqot institutlarida yoki o'quv muassasalaridagi yirik olimlar tomonidan ishlab chiqiladi. U oliy o'quv yurtini bitiruvchilarga qo'yiladigan kasbiy tasnifidan kelib chiqib, yuz foiz Davlat standarti asosida tuziladi. Uni tuzishda didaktikaning barcha tamoyillaridan foydalanib, u fanning o'qitilishidan ko'zlangan asosiy maqsadga mos ravishda bo'ladi.

Ishchi dastur — namunaviy dasturdan kelib chiqib, muayyan oliy o'quv yurtining kasbiy yo'nalishidan hamda ushbu fanni o'qiydigan pedagogning imkoniyatidan kelib chiqqan holda, pedagog tomonidan tuziladi va avval institutning Ilmiy kengashi, so'ng tarmoq vazirligi tasdig'idan o'tadi.

Taqvimiy reja — oliy o'quv yurtida tuzilgan jadval va ishchi dasturida ko'rsatilgan mavzular asosida tuzilib, pedagogning dars o'tishi yoki ma'ruza o'qish va amaliy mashg'ulotlarni olib borishining oy va kunlar bo'yicha tartibini ko'rsatadi.

Darslik — yuqori malakali va tajribali olim va pedagoglar tomonidan tuzilib, yuz foiz namunaviy dasturdagi g‘oyalardan hamda didaktika tamoyillaridan kelib chiqib yaratiladi. Darslik o‘qituvchi pedagoglarga va talabalarga asosiy o‘quv quroli hisoblanib, oddiy va hammaga tushunarli adabiy tilda yoziladi. Darslik barchaga umumiy yoki oliy o‘quv yurtining xususiyatlaridan kelib chiqib maxsus bo‘lishi mumkin.

O‘quv qo‘llanmalar, asosan, tajribali pedagoglar tomonidan yozilib, faqat o‘qituvchi va pedagoglarga qo‘shimcha o‘quv quroli bo‘lib xizmat qiladi.

Didaktik materiallar, pedagog tomonidan har bir darsga alohida tayyorlangan bo‘lib, u dars mazmunini to‘la ifodalash va o‘quvchi-talabalar dars mazmuniga yaxshi tushunib yetishlari uchun xizmat qiladi. Bularga har turli ko‘rgazmali qurollar, turli muammoli vaziyatlarni yaratuvchi moslamalar, o‘yinlar va hokazolar kiradi. Didaktik materiallar ham didaktikaning tamoyillariga mos ravishda yaratiladi.

Dars jarayoni faqat pedagogik usul va uslublar orqali amalga oshirilib, darsning ajralmas qismi hisoblanadi. Pedagog siz va talabasiz hamda o‘quv dastur va rejasiz dars o‘tib bo‘lmagani kabi, pedagogik usullar va uslublarsiz darsni amalga oshirib bo‘lmaydi.

Ta’lim usullari — o‘qituvchi va o‘quvchining tartibga solingan o‘zaro aloqadagi faoliyatidir. Usul deb, ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan chora-tadbirlar tushunilsa, uslub deganda shu ta’lim-tarbiya usullarining qo‘llanish tartibi tushuniladi.

Ta’lim-tarbiya faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayoni uzatish, qabul qilish, anglash, o‘quv axborotni esda saqlashni hamda olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llay olishni nazarda tutadi.

Ta’lim jarayoni o‘quv axborotni va uni mantiqiy o‘zlashtirishni anglashni tashkil qilishni ko‘zda tutadi. Bilimni uzatish va uni ko‘nikmaga aylantirish usullaridan tashqari, o‘quv faoliyatini rag‘batlantirish hamda ta’limga burch va mas’uliyatni asoslash usullari ham mavjud.

Shu bilan bir qatorda, ta'lim jarayonini nazorat qilish va ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish usullari ham mavjud bo'lib, ularsiz ham ta'lim-tarbiyani amalga oshirib bo'lmaydi va nihoyat, o'qituvchi tomonidan yetkazib berilgan bilimlar, o'quvchi va talabalarning qanchalik o'zlashtirib olganligini aniklovchi usullar bo'lib, ularni darsligimizning navbatdagi sahifalarida batafsil ko'rib chiqamiz.

Yoshlarni tarbiyalash jarayonida ma'naviy-intellektual rivojlanish sifatlarini aniqlashning aniq maqsad va vazifalari ishlab chiqilgan. O'quvchi va talabalarning ma'naviy-intellektual shakllanish sifatlaridagi yutuq va kamchiliklarini rag'batlantirish, tuzatish, tarbiya mazmunini, usul, uslub va tashkiliy shakllarini yaxshilashga mos tuzatishlar kiritilishi ko'zda tutiladi.

O'quvchi va talabalarning bilimini, aqliy kamolotlarini nazorat qilish va baholash davlat miqyosidagi muhim masala hisoblanadi. Shu bilan birga, nazorat va baholash jarayoni o'quvchi bilimini boyitishga, ular shaxsini rivojlantirishga va tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bilimlarni nazorat qilishda qo'yiladigan ball va baholar o'quvchi va talabada qanday taassurot qoldirganini, o'rtoqlarining o'qishidagi yutuq va kamchiliklariga qanday munosabatda bo'lishlarini doim kuzatib borish uchun kerak. O'quvchi va talabalar bilimini nazorat qilish hamda baholash o'quv yili davomida har doim va muntazam amalga oshirilishi uchun reyting tizimi joriy qilinib, tartibli va doimiy baholash uchun imkoniyatlar ochib berildi.

Pedagogika fani bilimlarni o'z vaqtida nazorat qilish va baholashning uchta vazifasi borligini ko'rsatadi:

O'zlashtirishni nazorat qilish va baholash natijalariga qarab Davlat ta'lim standartlari qanday bajarilayotganini nazorat qilib, tahlil etish va vazifalarni belgilash.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash natijasida o'quvchi va talabalarda bilimlar yanada kengayadi. Bu bilan o'quv yurtlari oldida turgan ta'limiy maqsad bajariladi.

Ta'lim sohasidagi yaxshi natijalar yoshlar tarbiyasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ularda ko'tarinki ruh, o'z kuchiga bo'lgan ishonch va qiziqishlar paydo bo'ladi. Shuning uchun ham o'zlashtirishni nazorat qilish ta'lim tizimining ajralmas qismidir. Nazorat jarayonida yozma, og'zaki va amaliy usullardan foydalaniladi.

Bu jarayonda og'zaki so'rash orqali o'zlashtirishni nazorat qilish, ayniqsa, maktablarda keng tarqalgan. Bu asosan savol-javoblar orqali olib boriladi. Bunda yakka so'rash, frontal so'rash kabi turlardan foydalaniladi.

Bu turdagi nazorat usuli juda ko'p vaqt talab qilganligi sababli, nazorat jarayonini faollashtirishda kam vaqt ichida ko'p sonli talabalarni nazorat qilish maqsadida bir qancha ratsional uslublar, jumladan, texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Chet el tajribalari va o'zimizdagi ko'plab tajribalar natijasida **reyting uslubi** bugungi kunning nazorat mezonini deb qabul qilingan.

Reyting — baholash, tartibga keltirish, tasniflash, biror hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash. Reyting yordamida sotsial-psixologik ob'ektlarni (o'quvchi-talabalarni) ular uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning yorqin darajasiga qarab dastlabki tasniflash amalga oshiriladi.

Shkalalash — aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish. Ularning turli uslublari — sifat, tavsif miqdoriy uslublaridan iborat. Reyting nazoratida test ham samarali qo'llaniladi.

Test deganda, aniq vazifani takomillashganlik darajasini aniklashda sifat va miqdoriy o'lchamlarini belgilash imkonini beradigan, faollikning biron shaklini, biron aniq topshiriq shaklidagi sinov quroli tushuniladi.

Testning afzalligi quyidagilardan iborat:

- nazorat uchun kam vaqt sarflanadi;
- nazariy va amaliy bilimlar darajasini ob'ektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi;
- ko'p sonli talabalar bilan bir vaqtning o'zida nazorat olib borish mumkin;
- bilim natijalari o'qituvchi tomonidan tezkorlik bilan tekshiriladi;
- barcha talabalarga bir xil qiyinlikdagi savollar berilib, bir xil sinov o'tkaziladi.

Hozirgi kunda uzluksiz ta'limning umumiy ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim bosqichlarida o'quvchi-talabalar bilimi reyting tizimida baholanadi. Baholashning bunday shakli o'quvchi-talabalarning butun o'qish davomida o'z bilimlarini oshirish uchun muntazam ishlashni hamda o'z ijodiy faoliyatini takomillashtirishini rag'batlantirish g'oyasiga asoslanadi.

Reyting nazorat tizimi asosida o'quv rejasiga kiritilgan har bir fan bo'yicha talaba o'zlashtirishining sifat ko'rsatkichlarini ballar bilan baholash yotadi.

Har bir chorak va semestrda fanlardan to'plangan ballar yig'indisi talabaning kurs reytingini tashkil etadi.

Har bir fan bo'yicha o'quvchi va talabaning o'zlashtirishini baholash chorak va semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi nazorat turlari orqali baholanadi: joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy nazorat.

Joriy nazorat — bu o'rganilayotgan mavzularni o'quvchi va talabalar tomonidan qanday o'zlashtirilayotganligini muntazam ravishda dars jarayonida nazorat qilishdan iborat. Bu nazorat o'qituvchi tomonidan o'tkazilib, talabaning bilim darajasini shu fanning har bir mavzusi bo'yicha aniqlanib borishini ko'zda tutadi. Bu esa o'quvchining uzluksiz bilim olishi va natijasini muttasil nazorat qilib borishni nazarda tutadi.

Oraliq nazorat — bu mazkur fan bo'yicha o'tilgan bir necha mavzularni o'z ichiga olgan bo'lim yoki qism bo'yicha talabaning bilimini aniqlash demak. Oraliq nazorat darsdan tashqari vaqtda o'tkaziladi va talabalarga o'zlashtirish ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beradi.

Yakuniy nazorat — bu nazorat semestr uchun belgilangan mavzular to'liq o'qitilib bo'lingach, o'tilgan mavzular bo'yicha olinadi. Semestrda reyting bahosi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarda to'plangan ballar bo'yicha aniqlanadi.

Har bir fan bo'yicha maksimal reyting bali shu fan uchun o'quv rejasida ajratilgan umumiy dars soatlari miqdoriga teng deb hisoblanadi.

Maksimal ballning 70 % miqdori joriy va oraliq nazorat jarayonida, 30% miqdori yakuniy nazoratda to'planishi tavsiya etiladi.

Semestr davomida mazkur fan bo'yicha to'plangan ballar talaba bilimiga nisbatan quyidagicha baholanadi:

86 — 100 % — «a'lo»;

71 — 85 % — «yaxshi»;

56 — 70 % — «qoniqarli»;

50 va undan kam «qoniqarsiz».

Nihoyat, **dars** deb atalgan bir butunning ajralmas qismlaridan yana biri, **o'qitishning texnik vositalaridir**. O'qitishning texnik vositalariga: o'quv binosi, sinf va auditoriyadagi talabalar o'tirindig'i, doska va o'qituvchining stol-stuli, o'qitishning zamonaviy texnik vositalaridan epideyaskop, kodoskop, televizor, kompyuter va boshqalardan tortib, laboratoriya va ustaxonalarning jihozlari kiradi.

Pedagogikaning asosiy tushunchalari. Pedagogika ham boshqa faoliyat sohalari singari o'zining maxsus tushunchalariga ega, ilmiy tilda uni kategoriyalar deyiladi.

Ma'rifat (pedagogika) — bu ta'lim va tarbiyani amalga oshiruvchi insonning faoliyat sohasi. Bilimga ega va uni boshqalarga o'rgatish istagi bo'lganlar «ta'lim-tarbiya beruvchi»lar — bog'cha tarbiyachisi, o'qituvchi, pedagog, katta o'qituvchi, assistent, dotsent, professor, ma'ruzachi deb nomlanadi. Bilimga talabgorlar — «bilim oluvchilar» — bog'cha bolalari, o'quvchilar, talabalar, tinglovchilar va shogird deb ataladi. Ta'lim-tarbiya muassasalariga bog'cha, maktab, akademik litsey, kollej, institut, universitet, akademiya kabilar kiradi. Ko'rib turibsizki, pedagogikaning bir qator tushunchalari mavjud ekan. Bu ijtimoiy voqelikning asosiy maqsadi bilim berish — ta'lim va tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Shunday ekan, maxsus pedagogik tushunchalarga ta'rif berishni aynan ana shu atamadan boshladik.

Bilim — bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi ularning tadrijiy rivojining ichki zaruriyatidan kelib chiqqan aloqadorlik. Uni qonuniyat deb ham yuritiladi. Bu zaruriy bog'liqlik narsa va hodisalarning tabiatidan kelib chiqib, bizning ixtiyorimizdan tashqarida. Uni o'zgartirib bo'lmaydi. Bilib, uning xususiyatidan kelib chiqib, ish yuritiladi. Bilim kishidan kishiga ma'lumot

(axborot) orqali o'tadi. Bilimlar tushuncha, ta'rif va tavsiflar orqali o'zini namoyon qiladi.

Ma'lumot — u ikki ma'noda ishlatilib, ikkisi ham pedagogikaga oid. 1. Xabar — o'qish jarayonini amalga oshiruvchi vosita. Bilimli kishining vazifasi bilimini unga talabgor bo'lganlarga yetkazish, ma'lum qilish, til va ko'rgazmalar yordamida muayyan aloqadorlik (bilimni boshqalarga bildirish) dan iborat. 2. Bichim darajasi, o'qish, bilish, ya'ni borliqdagi ob'ektiv qonuniyatlarni his qilish natijasida olingan bilimlar yig'indisi. Masalan, past ma'lumotli, o'rta va yuqori ma'lumotli va hokazo.

Ta'lim — ma'lumot, bilimni ma'lum bir tartibda berish va uni olish jarayoni. Bu jarayon bir qator pedagogik usul va uslublar orqali amalga oshiriladi. Ta'lim turlari ko'p: ahloq-odob ta'limi, tabiiy bilimlar bo'yicha ta'lim, texnik ta'lim, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, siyosiy ta'lim, huquqiy ta'lim va hokazolar.

Tarbiya — keng qamrovli tushuncha bo'lib, uning uch xil talqini mavjud.

1. Bolani boqib, voyaga yetkazish.
2. Parvarish-qarov.
3. Olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish.

Pedagogikaga uning uchinchi talqini mos keladi. Masalan: odob va axloqqa o'rgatish axloqiy tarbiya; kasb-hunarga o'rgatish hunar tarbiyasi; islom aqidalari va shariat qoidalariga o'rgatish diniy tarbiya va hokazo. Tarbiya ta'limsiz amalga oshmaydi. Ta'lim (bilim) berishdan maqsad, uning ketidan tarbiya berishdir, ya'ni ta'lim orqali egallagan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga o'rgatish. Ta'lim va tarbiya tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq. Ta'lim — bilim berish va uni egallash bilan bog'liq bo'lsa, tarbiya olgan bilimi bo'yicha harakatlar qilib, uni ko'nikmaga aylantirishdir.

Shaxs shakllanishi — inson bioijtimoiy mavjudot bo'lganligi tufayli, biologik rivoji bilan bir qatorda u ijtimoiy rivojlanib ham boradi va kamolotning ma'lum bir bosqichida shaxsga aylanadi. Kishida bir qator ijtimoiy sifatlar tarkib topib, ilmiy asoslangan mustaqil fikr shakllanadi.

Ijtimoiy taraqqiyot — tashqi va ichki, boshqariladigan va boshqarilmaydigan omillar bilan kishiga ijobiy ta'sir etish, ya'ni shaxsning shakllanish jarayoni. Insonning ijtimoiy taraqqiyotida maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya yetakchi o'rinni egallaydi.

Pedagogik faoliyat — jamiyatning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida umuminsoniy sifatlar va fazilatlarni shakllantirishni ilmiy asoslangan reja-dasturga muvofiq amalga oshirish, ya'ni avlodni hayotga tayyorlaydigan ijtimoiy zarur faoliyat turi.

Pedagogik jarayon — o'qituvchi yoki tarbiyachi, o'quvchi yoki tarbiyalanuvchi orasidagi bilim berish va bilim olish, o'rgatish o'rganish, tarbiyalash maylida kechadigan munosabatlar tizimi.

Pedagogik tamoyil (prinsiplar) — o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat orqali beriladigan bilim turi, hajmi va mazmuni, shuningdek, o'quv qurollari va tarbiyalanuvchilarning ruhiy xususiyatlari o'rtasidagi zaruriy bog'liqliklardan kelib chiqqan qonuniyatga amal qilish.

Pedagogik tajriba — ta'lim-tarbiya beruvchi tomonidan pedagogikaning tamoyillari va ta'lim-tarbiya berishning muayyan usul va uslublarini to'liq o'zlashtirib hamda ularni amalda qo'llashdagi real shart-sharoitlarni, bolalar jamoasi va har bir bolaning o'ziga xosligini hisobga olgan holda amaliyotda tatbiq etish.

Ilg'or pedagogik tajriba — o'qituvchi tomonidan pedagogika tamoyillari hamda ta'lim-tarbiya berishning usul va uslublarini yaxshi o'zlashtirib, ularga ijodiy yondashgan holdatga nisbatan samaraliroq usul yoki uslub yaratish.

Shaxsning har tomonlama kamolga yetishi — ma'lum bir tarixiy shart-sharoitlardagi individ qobiliyati va iqtidori, uning bioijtimoiy mohiyatlarini tashkil qiladigan hamma kuchlarni to'liq rivojlantirishdan iborat.

Pedagogik muhit — ta'lim-tarbiya maqsadlariga muvofiq ravishda tuzilgan shaxslararo (o'qituvchi-o'quvchi hamda o'quvchilar orasida) munosabatlar majmui.

Ijtimoiy muhit — kishi shaxsini shakllantiruvchi ijtimoiy munosabatlar majmui. Ijtimoiy tafakkur, turmush tarzi va shaxslararo, guruhlararo hamda millat va xalqaro munosabatlarning o‘zaro muvofiq kelishi va bir-birini boyitish.

Ichki muhit — kishining o‘ziga xos hayotiy faoliyati, xarakterining o‘ziga xosligi, hayotiy tajriba va irsiy tafakkur ko‘nikmalari majmui, odatdagi ruhiy holatlarda o‘zini namoyon etadigan ta’sirchanlik va voqelikka munosabatlarning o‘zaro bir-biriga muvofiq kelishi, bir-birini to‘ldirishi va boyitishi.

Irsiylik — kishining o‘ziga xosligini belgilab beradigan anatomik, fiziologik, psixologik, tashkiliy jihatlar, ota-ona tomonidan irsiy birliklar orqali o‘tadigan belgilar.

Ruhiyat — shaxsning sub’ektiv qiyofasi, kishining vujudi va yuqori darajada tashkil etilgan materiya — ongi hamda ruhning birgalikdagi harakat mahsuli.

O‘z - o‘zini anglash — kishining o‘ziga va o‘z faoliyatiga bir jamoa yoki butun jamiyat nuqtai nazaridan baho bera olish.

Faoliyat — qandaydir shaxsiy, guruh, milliy yoki umuminsoniy ehtiyojlarga javob beruvchi maqsad sari yo‘naltirilgan harakat.

Ta’lim-tarbiyaning insoniyli — pedagogik jarayonni, ya’ni ta’lim-tarbiya beruvchi bilan o‘quvchi orasidagi pedagogik munosabatlar oqimini o‘ta insoniy (o‘zaro izzat-hurmat va muhabbat) ruhda amalga oshirish.

Ta’limni demokratlashtirish — muayyan jamiyat va konkret shaxs ehtiyoji va imkoniyatidan kelib chiqib, ma’lum bilimlar turi va hajmini erkin holda tanlab olish.

Maqsad — har qanday harakatni boshlashdan oldin harakat yakunida erishiladigan narsa yoki hodisaning butunligicha hamda uning asosiy ko‘rsatkichlari bilan kishi tasavvurida paydo bo‘lishi. Maqsad real va xayoliy bo‘lishi mumkin. Real maqsad ilmiy asoslangan bo‘lib, ob’ektiv borliqda sodir etiladigan narsa va hodisalarni o‘zida namoyon etadi. Xayoliysi uning aksi.

Aqliy tarbiya — tabiatdan berilgan aqliy kuch, sezgi, ruhiy holat, biluvchanlik va faoliyat erkinligini rivojlantirish natijasida insonda mustaqil fikr

yuritib, oldiga maqsad qo‘ya olish hamda ko‘zlagan maqsadiga yetish qobiliyatini shakllantirish.

Axloqiy tarbiya — oilada, mehnat jamoasi hamda keng jamoatchilik o‘rtasida, umuman, hamma hududda, millatda, davlatda qabul qilingan qonun-qoida va tartiblarga bo‘ysungan holda ularga rioya qilish hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan axloq va odob qoidalarini o‘zlashtirish.

Jismoniy tarbiya — insonning hamma jismoniy xususiyatlarini; anatomik, fiziologik majmularini har tomonlama rivojlantirish, sog‘lom hayot kechirishning afzalliklarini targ‘ib qilish va jismoniy ma‘naviyatning zaruriy asoslarini shakllantirish.

Huquqiy tarbiya — insonda huquqiy bilimlarni oshirish, qonunlarni yaxshi o‘zlashtirib, ularga to‘liq rioya etish ko‘nikmasini hosil qilish.

Estetik ta‘lim-tarbiya — insonda zavq uyg‘otuvchi va uni harkat, shijoat va qahramonliklarga undovchi barcha turdagi ko‘rinishlar, holatlar, hodisalar va badiiy estetik tafakkurni shakllantirish.

Iqtisodiy tarbiya — ishlab chiqarishning jamiyatda tutgan o‘rni, ishlab chiqarish vositalari va ish qurollarining mohiyati, ular orasidagi uzviy aloqadorlikni o‘rgatish va odamlarda shu bilimlarga ko‘nikma hosil qilish.

Ekologik ta‘lim-tarbiya — ekologik bilimlarni berish, ularda tashqi muhit va vujud orasidagi uzviy bog‘liqlik mavjudligini his ettirish, tabiiy va ijtimoiy muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini hosil qildirish.

Pedagogik muloqot — ta‘lim-tarbiya bilan bog‘liq muloqot turi.

Mahorat — o‘zlashtirilgan bilim va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy harakatlarni (shu jumladan, dars berishni) kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish.

Malaka — kishi egallagan bilimlarni ko‘nikma bosqichidan o‘tib, doimiy (avtomatlashgan) harakat turiga aylanishi, mahorat hosil qilishi. Malaka — past, o‘rta va yuqori bo‘lishi mumkin.

Diqqat — faoliyat ko‘rsatish maqsadida tanlangan ob‘ektga (jumladan, muayyan fanga) ongning jamlanish holati.

Tafakkur — bilish va anglashning yuqori shakli bo‘lib, ongning o‘zida ob‘ektiv borliqdagi narsa va hodisalarni tashkil qiluvchi qismlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklarni aks ettirish.

Kasbga yo‘naltirish — jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan holda, tarbiyalanuvchiga ma‘lum bir kasb-hunar o‘rgatishning ma‘rifiy jarayoni.

Bunday tushunchalar talqinini yana davom ettiraverishimiz mumkin, ammo yuqoridagi tushunchalar pedagogikaning umumiy tushunchalari bo‘lib, uning alohida tarmoqlarida qabul qilingan tushunchalar bilan talabalarga mavzularni tushuntirish davrida tasnif berib ketamiz.

Mavzu bo‘yicha nazorat savollari

1. Ta‘lim-tarbiya jarayonining yaxlit bir butunlik qilib turuvchi qismlarini aytib bering.
2. Dars deb nimaga aytiladi?
3. Darsning turlarini sanab bering.
4. Darsni tashkil qiluvchi asosiy elementi nima deyiladi va uning vazifalari nimada?
5. Dars degan bir butunlikning ikkinchi asosiy elementi nima va uning vazifasi nimada?
6. Darsni amalga oshirishning tamoyillari nimada o‘z ifodasini topgan?
7. Dars jarayonini amalga oshirishning usul va uslublari qanday guruhlashtiriladi?
8. Darsni tashkil etuvchi o‘qitishning texnik vositalariga nimalar kiradi?
9. Pedagogikaning asosiy tushunchalariga nimalar kiradi?

PEDAGOG VA UNGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Darslikning avvalgi sahifalaridan ma‘lum bo‘ldiki, inson bioijtimoiy mavjudot bo‘lib, uning ijtimoiy mohiyatini bilim tashkil qilar ekan. Kishi bilimlar turini o‘z maqsadidan va tanlagan kasbidan kelib chiqib, kuchi yetgan hajmda

o'zida jamlaydi. Umri davomida yig'gan bilimlarining majmui uning ijtimoiy mohiyati deyilar ekan.

Insonning ijtimoiy mohiyatini jamiyat talabiga mos ravishda shakllantiruvchi soha xalq ta'limi tizimi deb atalib, uni amalga oshiruvchi shaxs o'qituvchi yoki muallim deyiladi.

O'z oldiga yosh avlodni tarbiyalashni maqsad qilib olgan kishining ijtimoiy mohiyati, ya'ni o'qituvchi-muallimlarning ijtimoiy sifatleri qanday bo'ladi? degan savolga quyidagicha javob qaytarishimiz mumkin.

O'qituvchi-muallimlarning shaxsiy ijtimoiy sifatlariga azal-azaldan e'tibor qaratib kelingan va har bir zamon talabidan kelib chiqib, pedagogga qo'yiladigan talablar takomillashib, murakkablashib boravergan.

Zardusht ta'limotida, «muallim — kohinlarning burchlari bolalarga bilimlarni yaxshilik yo'sinda o'rgatib, ularni yaxshi bilan yomonni ajratadigan qilib tarbiyalash va to'g'ri yo'lga hidoyat etishdir. Kimdakim aqlu farosat bilan yomonlikka qarshi kurashsa, u Ahura Mazda yo'lini tutgan bo'ladi», — deyilgan. «Avestoning «yasht» larida bolalar ruhiyatiga rost so'z, pok aqida, halol niyatni singdiradigan ustoz-muallimlar peshvosi madh qilinadi.

Shuningdek, «Avesto» ning «yasht» larida tanballigi, befarkligi, mas'uliyatsizligi, loqaydligi, farosatsizligi, uquvsizligi, bilimi va malakasini takomillashtirmasligi oqibatida bolalar zehnini, ularning mustaqil tafakkurini o'tmaslashtiradigan, ayni chog'da, yoshlarning aqlini zanglatadigan, hayotga, mehnatga munosabatlarini susaytiradigan, imon-e'tiqodini zaiflashtirib, ma'naviy jihatdan qashshoklashtiradigan «yomon ustozlar» qattiq qoralanadi.

Zardushtning Oliy Tangri Ahura Mazda bilan muloqotida ham yaxshi va yomon ustozlar haqida shunday deyiladi: «noshud, yomon muallim o'quvchi qalbidan hunarmandchilikni yo'qotar ekan, ey Yazdon, yomon ustozdan o'zing asra».

Talabalarga bilim berish o'qituvchining mas'uliyatli burchidir, deb **Ibn Sino** o'qituvchining shaxsiyati qanday bo'lishi kerakligi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo‘lish;
- beriladigan bilimni talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berish;
- ta’limda turli usul va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- fanga qiziqтира olish;
- berilgan bilimlarning eng muhimini ajratib o‘qitish;
- bilimlarni talabalarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so‘zning bolalar hissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish zarur.

Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek davrida ilm-fan, adabiyot va san‘at, ma’rifatchilik tez taraqqiy etgan. Shuningdek, o‘qitishning sinf tizimlari, bolalarni yoshi bo‘yicha tabaqalashtirib o‘qitish, o‘quv-tarbiya ishlarining aniq bir muddatini belgilab qo‘yish kabi g‘oyalar ilgari surilgan va ma’lum darajada amalga oshirilgan. Shu bilan birga Ulug‘bek o‘qituvchi va mudarrislarning insoniy xislatlariga, bilimi va mahoratiga katta ahamiyat bergan. Ularning moddiy ehtiyojlari davlat ta’minotidan qondirilishini yo‘lga qo‘ygan, eng mahoratli ustozlarni e’zozlagan. Ayni paytda, u mudarrislarning dars berishdan tashqari ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etishlarini talab qilgan.

Shunga o‘xshash fikrlarni buyuk G‘arb pedagoglari ham aytib ketishgan. Jumladan, Disterverg: «Yaxshi o‘qituvchi o‘zining tarbiya prinsiplaridan hech qachon qaytmaydi. O‘qituvchi o‘z ustida doimo mustaqil ishlashi lozim. Yomon o‘qituvchi haqiqatni aytib qo‘ya qoladi, yaxshi o‘qituvchi esa bolalarga haqiqatni topishga o‘rgatadi».

O‘tgan Sharqallomalari-yu, G‘arb pedagoglarining fikri hamda ko‘p yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar o‘qituvchi va pedagog, ya’ni o‘ziga yosh avlodni tarbiyalashni kasb qilib, tanlagan inson quyidagi ijtimoiy sifatlarga ega bo‘lishi shart ekanini ko‘rsatdi.

Birinchidan, pedagog pedagogik kasbning jamiyat hayotidagi o'rnini, uning paydo bo'lish tarixini yaxshi bilishi kerak. Pedagogika tarixini o'rganish jarayonida kishi pedagogik faoliyatning insoniyat hayotidagi o'rnini, pedagogikadagi asosiy qonun-qoida va tamoyillar hamda asosiy tushunchalarning shakllanish tarixini bilib oladi.

Umrini o'qituvchilikka bag'ishlagan kishi, pedagogika nazariyasini, ya'ni **didaktikani** juda yaxshi bilishi kerak. Chunki didaktika o'qituvchini pedagogikaning nazariy asoslari bilan qurollantirib, bilim berish va uni hayotda qo'llashga o'rgatish jarayonini amalga oshirishning asosiy tamoyillariga amal qilishlikni ilmiy tomondan asoslab beradi. Shuningdek, didaktika pedagogika kasbida qo'llaniladigan asosiy tushunchalarning ishlatilish o'rnini, qoidasi, ya'ni kategorial apparatini tushuntirib beradi.

Didaktika bilan bir qatorda, pedagogik kasbni tanlagan kishi, didaktika tamoyillaridan kelib chiquvchi umumiy pedagogikaning tadqiqot ob'ekti, predmeti va maqsadini ko'rsatib beruvchi hamda pedagogikaga oid barcha umumiy masalalarni yechib beruvchi «**Umumiy pedagogika**»ni yaxshi bilishi shart. Shu bilan bir qatorda didaktika tamoyillariga suyanuvchi va umumiy pedagogikaning barcha qonun qoidalaridan kelib chiquvchi **xususiy pedagogikaning** o'ziga xosliklari hamda didaktika tamoyillarini o'zi tanlab olgan xususiy fanda qo'llashni to'liq bilishi kerak. Bolalarga bilim bermoqchi bo'lgan o'qituvchi dars berish usullarining majmuini va tartibga keltirilgan dars berish yo'li (metodika) ni mukammal egallab olgan bo'lishi lozim. Dars berish uslublari va usullarini bilmagan pedagog dars o'tolmaydi. U didaktikaning barcha tamoyillariga suyanagan holda, umumiy pedagogikaning qonun-qoidalarini o'zi o'tayotgan fanda ko'llashni yaxshi bilishi, pedagogikada mavjud usullar ichidan o'ziga moslarini tanlab olishi, dars jarayonida o'z o'rniga qo'ya olish yo'li bilan o'z uslubi (metodikasi)ni tuza oladigan kishi bo'lishi lozim.

Ikkinchidan, pedagog didaktika, umumiy va xususiy pedagogika hamda metodikalardagi bilimni to'liq egallab olganidan keyin, muayyan fandan bilim berish uchun, shu fandagi bilimlarni puxta egallagan bo'lishi shart. O'z fani

bo'yicha bilimlarni yaxshi o'zlashtirmagan kishi, pedagogika nazariyasi va amaliyotini qanchalik yod olgan bo'lmasin bolalarga to'liq bilim bera olmaydi. O'qituvchi o'qitayotgan predmetini va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqarli qilib o'quvchi va talabalarga yetkaza olishi ularning shu predmetga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bu esa o'qituvchi obro'sini ko'taradi.

Uchinchidan, o'qituvchi falsafani yaxshi bilishi shart. Chunki falsafa odamga abstrakt fikr yuritishni o'rgatadi. O'qituvchi sinf yoki auditoriyaga kirganda, unda abstrakt tafakkur sust rivojlangan bo'lsa, o'zini yo'qotib qo'yadi. Sinf va auditoriyadagilar diqqatini o'ziga qaratib olishi uchun, kishida abstrakt tafakkur yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak.

Undan tashqari, falsafa dars paytida kechadigan bilish jarayonini o'rgatadi. Bilish jarayonini, ya'ni gnesologini bilmagan o'qituvchi dars o'tishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelib, darsni amalga oshira olmaydi, oshirganda ham noto'g'ri dars o'tadi.

Shu bilan bir qatorda falsafaning asosiy qonunlari insonning barcha amaliy faoliyatida, shu jumladan, pedagogik faoliyatida ham umumiy metodologik asos vazifasini o'taydi. Bizda chop etilgan pedagogik adabiyotlarda, aynan shu masalaga kam e'tibor berib kelinayotganligi sababli falsafaning asosiy qonunlarini dars jarayonida qo'llashni tahlil qilib chiqamiz. Ma'lumki, dialektikaning uchta asosiy qonuni mavjud bo'lib, ular har bir joyda, har bir sharoitda istisnosiz qo'llaniladi. Dialektikaning birinchi va asosiy qonuni «Qarama-qarshi tomonlar birligi va kurashi» qonunidir. Bu qonunga ko'ra yer yuzidagi barcha narsa va hodisalar o'zining qarama-qarshi tomoniga, ya'ni qarama-qarshi kuchiga ega. Masalan: baland — past, o'ng — chap, yaxshi — yomon, shimol — janub, manfiy — musbat, erkak — ayol va hokazo, bularni falsafa fani orqali yaxshi bilamiz. Ularning ta'lim-tarbiya jarayonida namoyon bo'lishini taxlil qiladigan bo'lsak, dars bir butun bo'la turib, qarama-qarshi — ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi degan, kuchlardan tashkil topganligini ko'ramiz. Bu qonun bo'yicha, ular bir vaqtning o'zida bir-biriga intilib, shu vaqtning o'zida bir-biridan qochadilar. Ya'ni ular qarama-qarshi kuch bo'la turib, bir butunlikni tashkil etadilar. Ularning birisiz

boshqasining mavjud bo'lishi mumkin emas. Mumkin bo'lgan taqdirda ham boshqa sifatda mavjud bo'lishi mumkin. Darsda esa, ularning biri bo'lmasa, dars degan bir butunlik mavjud bo'lmaydi.

Har bir o'quvchi o'qituvchiga intilishi barobarida, u aytgan so'zlarni qilgisi kelmay, uning yo'liga yurgisi kelmay turadi. Chunki u qarama-qarshi kuchni tashkil qiladi. Bu qonunni bilmagan va uning mohiyatini tushunib yetmagan o'qituvchining diqqati oshib, nega ular aytganimni qilmaydi deb, xafa ham bo'lishi mumkin. Aslida bu holat tabiiy holdir. Buni bizga falsafa o'rgatadi. Dialektikaning qolgan ikkiki qonuni — «Miqdorning sifatga va sifatning miqdorga o'tishi» hamda «Inkorni — inkor» qonunlari ham shunga o'xshab, bizning ixtiyorimizdan tashqari, ta'lim-tarbiya jarayonida ish beradi. Bolalardagi bilmaslik holatini bildi holatiga keltirish uchun, berilayotgan bilim bir necha bor, kamida besh-yetti marotaba qaytarilishi shart bo'ladi. Shunda miqdor sifatga o'tib, bolalardagi bilmaslik holati bildi holati bilan almashinadi. Bilmaslik holati bildi holati bilan almashinish jarayoni bolalar bilmaslik holatini inkor etib, bildi holatiga ega bo'lishlari uchun, «Inkorni — inkor» qonuni ishga tushishi va berilayotgan bilimning qaytarilish miqdori kerakli miqdorga yetishi shart.

To'rtinchidan, o'qituvchi va pedagog bolalarga bilim berishni amalga oshirayotganda, muayyan yoshdagi bolalar vujudida sodir bo'layotgan fiziologik va ruhiy hodisalarni yaxshi bilishi lozim. Aks holda, o'zini ham, bolalarni ham qiynab, dars oldiga qo'yilgan maqsadiga yeta olmaydi. Buning uchun pedagog bolalar **anatomiyasi va fiziologiyasi hamda psixologiya** fanlaridan to'liq bilimga ega bo'lishi kerak. Aks holda, bolalarning asabi buzilishiga sababchi bo'lishi mumkin. Maktabda uchrab turadigan bunday hodisalar, o'qituvchilarning bola fiziologiyasini yoki yosh psixologiyasini yaxshi bilmaganidan kelib chiqadi.

Beshinchidan, O'zbekiston Konstitutsiyasi bo'yicha din, davlat ishlariga aralashmaydi. Shunga qaramay, u ijtimoiy hayotdan chetlatilgan emas. Din kundalik xayotimizda muqim rol o'ynab kelmoqda. Dinni yaxshi bilmagan yoshlar ba'zan diniy ta'limotga zid bo'lgan, oilasi hamda jamiyat tinchligini buzuvchi turli diniy oqimlarga kirib qolmoqdalar. Ularni bu yo'ldan qaytarib, to'g'ri yo'lga solib

yuborish uchun o'qituvchining o'zi dinni yaxshi bilishi shart. Shuning uchun ham pedagog dinining asl maqsadi, uning qonun-qoidalarini batafsil bilmog'i kerak. Buning uchun esa u dinshunoslik fanini o'qigan bo'lishi lozim.

Oltinchidan, o'qituvchi bolalarga o'z fanidan bilim berish jarayonida, ularni muayyan jamiyat va unda olib borilayotgan siyosat bilan tanishtirib borishi shart. Shu sababli o'qituvchi va pedagoglar **siyosatshunoslik** bilimlarini puxta egallab, ularni hayotda qo'llay olishlari lozim. Endi qisqacha bo'lsa ham siyosat tushunchasi va uni amalga oshirish yo'llari bilan sizni tanishtirib o'tamiz.

Siyosat — bu ijtimoiy jarayon bo'lib, hokim guruhlarining ularga qaram bo'lgan ijtimoiy guruhlar orasidagi, ularni tinchlik va farovonlikka boshlash maqsadida qilingan munosabatdir. Hokim guruhlar deganda oila boshlig'idan tortib, sinf rahbari, maktab direktori, tuman va viloyat hokimlari hamda davlatning birinchi rahbarigacha bo'lgan kishi va ijtimoiy guruhlariga nisbatan qo'llaniladi. Demak, siyosat, avvalambor, munosabat va faqat boshqaruv hamda tinchlik va farovonlikka boshlash maqsadida qilingan munosabat ekan. Siyosat munosabat bilan bog'liq ekanligini bildik. Endi bu munosabatlar oddiy ijtimoiy munosabatlar emasligini, ya'ni bir darajadagi ijtimoiy guruhlar orasidagi munosabat emasligini anglasak, haqiqiy siyosat tushunchasiga yaqinlashgan bo'lamiz. Siyosat — bu jamiyatda turli martabalarga ega bo'lgan ijtimoiy guruhlar orasidagi munosabat ekanligi ma'lum. Endi qanday darajadagi guruhlar orasidagi munosabat haqida gap bormoqda? degan savol tug'iladi. Bu savolga javob berish uchun, siyosat nima maqsaddagi munosabat ekanligini bilib olishimiz kerak. Ma'lumki, har qanday siyosatning maqsadi boshqarishdir. Shundan kelib chiqib, siyosat — boshqarishga qurbi yetadigan, ya'ni hokimlik qilish qo'lidan keladigan shaxs yoki ijtimoiy guruhning boshqa ijtimoiy guruhlar bilan, ularni boshqarish maqsadida qiladigan munosabatidir, desak xato qilmagan bo'lamiz. Ammo bu yerda qayoqqa boshqarish maqsadida? degan yana bir savol tug'iladi. Har bir inson, har qanday ijtimoiy guruh, butun jamiyat, agar ular ijtimoiy sog'lom bo'lsalar, so'zsiz, tinch va farovon hayotga intiladilar. Ijtimoiy nosog'lom odamlar urush-to'polonga moyil bo'ladilar. Shunday qilib, «siyosat» tushunchasining uchinchi elementi — «tinch

va farovon hayot» kelib chiqdi. Jamiyat a'zolari, o'zlarining tinch va farovon hayotini tashkil qilib berish vazifasini tarixan ixtiyoriy ravishda «davlat» deb nomlangan ijtimoiy ustqurmaga topshirganlar. Davlatning qiladigan ishi jamiyatni boshqarish bo'lganligi tufayli, uni «boshqaruv organlari» yoki «hokim guruhlar» deb yuritiladigan bo'lgan. O'qituvchi mana shu, siyosatning asl mazmunini, uning turlarini va muayyan siyosat yuritilgan jamiyatdagi davlat tuzumini bilib olishi, o'quvchi va talabalarga tushuntirib berishi zarur bo'ladi.

Yettinchidan, pedagog muayyan jamiyatda tarixan shakllangan ijtimoiy guruhlardan ham talabalarni xabardor etmog'i lozim. Buning uchun o'qituvchi va pedagog **sotsiologiya** bilimlaridan xabardor bo'lib, ulardan pedagogik amaliyotda foydalana olishi kerak. Shuning uchun o'qituvchi sotsiologiya fanini puxta egallagan bo'lishi shart.

Shu bilan bir qatorda, o'qituvchi bolalarga madaniyat to'g'risida boshlang'ich tushunchalar berib, ularda madaniyat elementlarini shakllantirib borishi lozim. Buning uchun o'qituvchining o'zi **madaniyatshunoslik** bilimlarini egallagan va ularni pedagogik amaliyotida qo'llay oladigan bo'lishi kerak. Adabiyotlarda «madaniyat» tushunchasi ham turlicha talqin qilinganligi bois madaniyat tushunchasiga ta'rif berib o'tamiz.

Lug'atlarda, madaniyat — jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy hayotida qo'lga kiritilgan yutuqlari majmui. Biror ijtimoiy guruh, sinf yoki xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan shunday yutuqlari darajasi deyiladi. Bu ta'rif rus tilidagi «kultura» tushunchasining lug'aviy mazmuniga mos. Lotin tilidagi «kultura», ya'ni yetishtirish, tarbiyalash, rivojlantirish ma'nosidan olingan bo'lib, konkret jamiyatning muayyan davrda erishgan ma'naviyatini, qisqasi, hayot tarzini ifodalaydi. Bizning fikrimizcha, o'zbek tilidagi «madaniyat» tushunchasi rus tilidagi «kultura» tushunchasining mazmunini bermaydi. Rus tilidagi «kultura» atamasi bizdagi hayot tarzi, ya'ni «ma'naviyat» degan tushunchani ko'proq ifoda etadi. *Madaniyat — insonning egallagan bilimlari va hosil qilgan tajribalariga asoslangan malakali harakatlari yoki mehnat faoliyatining mahsulidan bunyod bo'lgan narsalar boshqalarda zavq uyg'ota oladigan ijtimoiy hodisadir.* Kishining

har bir harakati yoki faoliyatining mahsuli madaniyat darajasiga ko'tarilishi mumkin. Misol uchun, odamning yurish turishi, so'zlashi yoki ro'zg'or yuritishi boshqalarni zavqlantirsa, bu uning shu yumushlarni madaniyat darajasiga ko'targanligini bildiradi.

Sakkizinchidan, yosh avlodga muayyan fan bilimlarini o'rgatuvchi pedagog, ularni axloq va odobga ham o'rgatishi shart. Bu o'qituvchi va pedagoglarning burch va mas'uliyatiga kiradi. Buning uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi axloqiy tarbiyalangan bo'lishi lozim. O'qituvchining yuksak ma'naviyati, uning teran bilim doirasi, ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng xalqimiz tarixini, madaniyatini va urf odatlarini chuqur bilishi ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Hozirgi zamon o'qituvchisi, ayniqsa, guruh murabbiysi milliy qadriyatlarimizni bilibgina qolmay, keng ota-onalar jamoatchiligi ichida, sinfda uning otashin targ'ibotchisi ham bo'lishi kerak.

Odob to'g'risida ham odamlar turli tushunchaga ega bo'lganliklari uchun, odob to'g'risida bir oz to'xtalib o'tishni ma'qul topdik. Kishi qanchalik bilimli bo'lmasin, u qanchalik faol va halol, qanchalik mard va saxovatli bo'lmasin, agar odobi bo'lmasa, uning barcha ijobiy ijtimoiy sifatlari yo'qqa chiqadi. Chunki inson ijtimoiy mohiyatining ustki qobig'ini uning odobi tashkil qiladi.

Odobli degan ijtimoiy sifat inson fazilatlaridan hisoblanib, kishi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy qadriyatlarni hamda qabul qilingan axloq va odob normalarini yaxshi bilishi va ularga rioya qilishi taqozo etiladi.

Umuminsoniy qadriyatlarga yashash, mehnat qilish, sevish va sevilish, bilim egallash, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga va ayollarga izzat ko'rsatish, rost so'zlash va shunga o'xshash hamma inson uchun hayotiy zarur va qadrli bo'lgan ma'naviyatlar kiradi.

Muayyan bir xalqda asrlar davomida shakllangan va ularning qadriyati bo'lib kelgan ma'naviyatlar milliy qadriyatlar hisoblanadi. Bularga bayram va to'ylarni o'tkazish, quda-anda hamda boshqa mehmonlarni kutish odobi, ro'zg'or

tutish, kiyinish, salomlashish va hokazo muayyan millatga xos qadrli ma'naviyatlar kiradi.

Shuningdek, ovqatlanish, so'zlashish, jamoat joylarida o'zini tuta bilish kabi bir qator ijtimoiy hayotda mavjud harakat normalariga amal qilishlik ham odob hisoblanadi.

Odobsizlik esa, butun insoniyat yoki bir millat qadriyat deb qabul qilgan narsa va hodisalarga behurmatlik ko'rsatish, muayyan jamiyatda urf bo'lgan axloq va odob normalariga rioya qilmay, ularni mensimay, oyoq osti qilishdir. Masalan, umuminsoniy qadriyat hisoblangan mehnat qilishni inkor etib, beish yurish yoki ish bo'lganda ham, dangasalik qilib ishlamaslik katta odobsizlik hisoblanadi. Yoki bilim egallash umuminsoniy qadriyat. Sharoiti bo'la turib, ota-onasi va boshqalarning: «Ey inson, o'qisangchi, bilim olsangchi», — deganiga qaramay bilim olmasligi benihoya odobsizlikdir. Odobsizlikning kechirib bo'lmaydigan va eng vahshiy ko'rinishi, sevishganlarni g'ayrilik qilib, ularga qarshilik ko'rsatish yoki undan ham jirkanchlisi, ularni badnom qilib, beebro' qilishga urinishdir. Bilim olaman degan odamga qarshilik ko'rsatish, islomga nisbatan isyon bo'libgina qolmay, inson huquqini poymol qilish hamdir. Kattalarga behurmatlik, yosh bolalar va ayollarni hafa qilish ham o'ta odobsizlik bo'lib, insoniyat tomonidan hech bir vaziyatda kechirilmaydi. Shunga o'xshash milliy qadriyat, urf odat va an'analarni behurmat qilish millatga nisbatan odobsizlikdir.

Ba'zi o'rinda milliy qadriyatlar yoki urf-odatlar umuminsoniy qadriyatlarga zid kelib qolishi mumkin. Masalan, musulmon mamlakatlarida xotin-qizlar ishlamay, uy bekasi bo'lib o'tirishi urf bo'lgan. Bu muayyan xalqning milliy qadriyati bo'lgani bilan umuminsoniy qadriyatga ziddir. Komillikka intilgan kishi, albatta, umuminsoniy qadriyatlarni ustun qo'yishi lozim, garchi o'z hududida bu odobsizlik bo'lib hisoblansa ham. Umuminsoniy qadriyatlar ming yillar davomida butun insoniyatning tanqid elagadan o'tib kelgan ma'naviyatning bir ko'rinishi ekanini unutmaslik kerak. Sevgi masalasida ham shunday. Ba'zi tor doiraga qamalib qolgan xalqlarda, ikki yoshning sevishib yurishi ayb, umuminsoniy nuqtai nazaridan esa, bu juda yuqori qadriyat. Bilim olishda ham shuni aytish muki.

Garchi, bilim olishga qarshilik ko'rsatuvchi odamning o'zi yer yuzida qolmagan bo'lsa ham, oz bo'lsada, «qiz bolaning o'qigani qayoqqa borardi, bo'ldi o'qimaysan, seni turmushga berib yuboraman» degan gaplar quloqqa chalinadi. Bu o'ta odobsizlik hisoblanib, nafaqat umuminsoniyatga, nafaqat islomga behurmatlik, balki inson huquklariga ham ochiqdan-ochiq qarshi chiqishlikdir. Bu odobsizlik hisoblanibgina, qolmay millatni tubanlikka tortadi.

O'qituvchining asl fazilatlaridan yana biri, u kimni, qanday odamni shakllantirayotganligini to'liq bilibgina qolmay, o'qitayotgan bolasi shunday ijtimoiy sifatlarga albatta ega bo'lishiga chin dildan ishonishi kerak. Shu bilan bir qatordagilarni xalq pedagogikasi durdonalari bilan tanishtirib milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalashi, nutqi ravon, tili boy bo'lishi, ifoda usuli va tasvir vositalarining adabiy til uslubi va me'yorini to'la egallagan bo'lishi zarur.

O'qituvchilik kasbiga xos bo'lgan bunday fazilatlarni undagi pedagogik odob shakllantiradi. Pedagogik odob bu o'qituvchining yuksak kasbiy fazilatidir. U o'qituvchiga sabotli bo'lish, o'z hissiyotini idora qila olish bolalarga pedagogik ta'sir o'tkazish vosita va me'yorini belgilash, aniqlashda yordam beradigan fazilat hisoblanadi. Yuksak pedagogik odobga ega bo'lgan o'qituvchigina sinfda mo'tadil psixologik muhit o'rnatiladi, bolalar qalbiga tez yo'l topa oladi.

O'z xizmati xususiyatiga ko'ra o'qituvchi tashkilotchilik fazilatiga ham ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun o'qituvchi tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib, har doim tetik, g'ayratli, o'z kuchi va imkoniyatiga ishongan bo'lishi kerak. Tashabbuskor va g'ayratli o'qituvchigina bolalarni o'z ortidan ergashtira oladi, o'quvchilar esa unga ergashadi.

O'qituvchilik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun uning salomatligiga ham ma'lum talablar qo'yiladi. O'qituvchining ovoz paychalari rivojlangan, ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lishi kerak, uzoq vaqt tikka tura olish, ko'p yurish, epchil harakat qilish kabi fazilatlarga ega bo'lmog'i shart.

To'qqizinchidan, ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi, so'zsiz, estetik tarbiyalangan bo'lishi shart. Estetik tarbiyaning jamiyat taraqqiyotida naqadar muhim rol o'ynashi hammaga ma'lum. Estetik tarbiya ma'naviy tarbiyaning

muhim va tarkibiy qismi ekanini unutmaslik kerak. Estetik didning pastligi ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga salbiy ta'sir o'tkazadi. Jumladan: ba'zi yosh oilalarda iqtisodiy kamchilik tufayli emas, balki ma'naviy, asosan, estetik didning pastligidan buzilib ketish hollari kam emas. Tuyg'ularning pastligi, qashshoqligi, go'zallikni seza bilmaslik, qadrlay olmaslik kabi omillar er-xotin o'rtasidagi munosabatlarga putur yetkazmoqda.

Estetik did deganda ixcham, nafis, chiroyli kiyinishga o'rganish, uy-joyni saranjon-sarishta va ozoda tutish, hayotdagi go'zalliklarni, san'atdagi nafosatni tez ilg'ab olish va unga intilish, undan ta'sirlanish, yuksak, sof tuyg'ularga to'lib-toshib yashash tushuniladi.

Estetik didning shakllanishi davr xarakteri bilan bog'liq. Har bir davr estetikaga qo'yadigan talabiga mos holda estetik didning yangi-yangi mezonlarini vujudga keltiradi. Bu yangi mezonlar barcha kishilar tomonidan o'zlashtirilguncha ancha vaqt o'tadi. Bizning davrimiz ham bu jihatdan o'z xususiyatlariga ega. Davrimiz murakkab, shunga ko'ra, estetik tarbiyaning ham shakllanishi silliq va oson kechmaydi.

Jamiyat taraqqiyotida ma'naviy va iqtisodiy tomonlar hamma vaqt ham bir xilda shakllanib bormaydi. Ba'zan ma'naviy tomon o'zib ketsa, ba'zan iqtisodiy tomon o'zib ketadi. O'zbek xalqi o'tmishida iqtisodiy tomonga nisbatan ma'naviy tomonlarning ko'proq shakllanib ketgan davrlari ko'p bo'lgan. Jamiyat a'zolarining ma'naviy tarbiyalanganlik darajasiga o'qituvchi va pedagoglar mas'uldir.

Estetik kamolot ma'naviy hayotning eng nozik, shu bilan birga, murakkab ko'rinishlaridan biri. Inson shaxsiyatida estetik didning shakllanishi asta-sekin davom etadigan uzoq jarayondir. Estetik ko'nikmalar inson vujudiga singib, uning e'tiqodiga aylana borishi zarur. Bu borada ma'lum tadbir asosida ish ko'rilmasa, estetik tarbiya sohasidagi barcha harakatlar zoyo ketadi.

Go'zallik bilan yaxshilik qondosh egizak, ular doim bir-birini taqozo etgan, bir-birini to'ldirgan. Qadimgi yunonlarda bu ikki tushuncha bir butunning ikki tomoni sifatida qaralgan. Hozirgi paytda ham etika bilan estetikaning birligi

kishilar hayoti uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chin insoniy axloq normalarini rivojlantirish chin estetik didni shakllantirishni talab etadi. Odobli, axloqli, vijdonli kishi estetik jihatdan tarbiyalanmagan bo'lsa, bunday kishini yetuk inson deb bo'lmaydi. Odob-axloqli kishida estetik did shakllangan bo'lsa, u har tomondan rivojlangan shaxs hisoblanadi. O'qituvchi va pedagog faqat har tomonlama rivojlangan shaxs bo'lishi kerak.

Yuqorida tavsiflab o'tilgan bilimlarning asosiy to'qqiz turini o'zida jamlab, ularni ko'nikma va malaka bosqichlaridan o'tkazib, ma'naviyatiga aylantirib ulgurgan kishigina o'qituvchilik va pedagoglik amaliyoti bilan shug'ullanishga haqli.

O'qituvchining kasbiy shakllanishi oliygoh dargohida kasbiy ta'lim olish jarayonida boshlanadi. Pedagogika oliy o'quv yurtlarining o'quv reja va fanlar bo'yicha dasturlarida bo'lajak o'qituvchilarga shu kasbning sir-asrorlarini o'rgatish, ilmiy bilimlar berish, o'qituvchi kasbi haqida ma'lumot berish va ko'nikma hosil qilish nazarda tutiladi.

Ta'lim jarayonida fanlar bo'yicha amalga oshiriladigan seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlashga hamda ularni ko'nikmaga aylantirishgagina emas, balki ularni amaliy ish jarayonida qo'llashga ham imkon beradi. Bunday mashg'ulotlar tanlagan kasbi to'g'ri ekaniga ishonch hissini uyg'otadi.

Oliygoxdan keyingi davrdagi o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayonida maktab rahbariyati, ayniqsa, ilmiy mudir hamda pedagogik jamoatchilik katta rol o'ynaydi. Yosh o'qituvchilarga tajribali o'qituvchilarni biriktirib qo'yish, ularning darslarini kuzatish, uslubiy ishlarga jalb etish maktab rahbariyatining vazifasidir. O'qituvchi o'z kasbini sekin-asta o'zlashtirib borishi bilan birga ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib etadi. Shu yo'l orqali ham kasbiy shakllanishi takomillashib boradi.

O'qituvchilik kasbini va pedagogik mahoratni egallash jarayoni, uni maktab o'qituvchilar jamoasiga kirishib, unda o'z o'rnini topib keta olishiga bog'liq. Jamoaning yordamidan yuz o'g'irmaslik, qiyinchiliklarga duch kelganda ruhan

tushmay, o'z xatolarini ko'ra bilish va uni bartaraf etish uchun harakat qilish uning o'qituvchi bo'lib shakllanishidan darak beradi.

Shu bilan birga, o'qituvchining kasbiy shakllanishi o'z-o'zini tarbiyalab borishga, o'z ustida tinmay ishlashga va o'z vaqtida malakasini oshirib borishga uzviy bog'liq. Bularning hammasi kasbiy fazilatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

«O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'limi muassasalari pedagog kadrlarining attestatsiyasi to'g'risida» Nizom ishlab chiqilgan va bu Nizom 1993 yil 12 avgustda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan. Bu attestatsiya o'qituvchilar, tarbiyachilar va boshqa pedagoglarga mehnatining pirovard natijasiga ko'ra ish haqi olish imkonini, agar pedagog ta'lim va tarbiya jarayonida yaxshi ishlasa, uning mehnati e'tibordan chetda qolmasligiga kafolat beradi.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1.O'qituvchining ijtimoiy sifatlariga qachondan boshlab e'tibor berila boshlagan?

2.Zardusht ta'limotida o'qituvchi-qohinlar ijtimoiy sifatleri to'g'risida nima deyilgan?

3.Ibn Sino dars beruvchining sifatleri to'g'risida nima degan?

4.Ulug'bek mudarrislariga qanday talab qo'ygan?

5.Pedagog bo'laman degan inson birinchi navbatda qanday bilimiga ega bo'lishi shart?

6.O'qituvchi va pedagog uchun zarur bo'lgan bilimlar turining ikkinchi va uchinchlari qanday?

7.Ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi shaxs to'rtinchi va beshinchi o'rinda qanday bilimlarni bilishi kerak?

8.Yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullanadigan kishi oltinchi va yettinchi o'rinda qaysi bilimlarni egallashi lozim?

9.O'zini bola tarbiyasi uchun bag'ishlagan inson sakkizinchi va to'qqizinchi o'rinda qanday bilimlarga ega bo'lishi kerak?

O'QUVCHI VA TALABALARDA SHAKLLANTIRILISHI LOZIM BO'LGAN IJTIMOIIY SIFATLAR

Uzluksiz ta'lim-tarbiya yakunida tarbiyalanuvchilarda jamiyat talabiga mos bo'lgan ijobiy ijtimoiy sifatlar, ya'ni fazilatlar shakllangan bo'lishi shart. Bu ta'lim-tarbiya sohasi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma bo'lib, bu buyurtma davlat tomonidan moliyalashtirilganidan keyin davlat buyurtmasiga aylanadi. O'ziga pedagogik faoliyatni kasb qilib tanlagan har bir kishi bu buyurtmani bajarishi shart.

Tarixan ta'lim-tarbiya maxsus inson faoliyati sifatida shakllanib borishi barobarida, ta'lim-tarbiya yakunida tarbiyalanuvchining sifatlari, ya'ni ta'limiy maqsadlar ham aniqlanib bordi.

Gerodotning «Tarix» kitobida: «Qadimgi saklar, forslar va massagetlar insondagi eng sharaflaydigan sifat — jasurlik», — deyilgan. Shunga ko'ra, ular o'g'il bolalarni besh yoshdan yigirma yoshgacha faqat uch narsaga: otda yurish, kamondan otish va adolatli bo'lishga o'rgatishgan.

Xitoyning Samarqanddagi elchisi Vey-Szining hisobotlarida: «Samarqand aholisi mohir savdogarlardir. O'g'il bola besh yoshga to'lar ekan, unga savod o'rgata boshlaydilar», — deb qayd qilingan.

Zardushtlik dinining muqaddas kitobi «Avesto» da ham ta'lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan. Unda «Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi, tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash lozimki, u, avvalo, yaxshi o'qishni, keyin esa yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'taril-sin»,² — deyilgan.

O'rta Osiyoga islom kirib kelganidan keyin yerli xalqlarda islom ma'naviyati shakllanib, mustahkamlanib borgan. Qur'onda imonning o'ziga xos mezoni sanalgan quyidagi ijtimoiy sifatlar targ'ib qilinadi: saxovat, mehmonnavozlik, jasorat, sabr-qanoat, to'g'rilik vafodorlik, adolat, tenglik, tinchlik va boshqa ijobiy sifatlar.

² А. О. Маковельский. Авесто. Боку. «Азербайжан», 1960, 18-бет.

Imom al-Buxoriyning tarbiya haqidagi qarashlarida jaholat kishiga o'lim keltiruvchi fojia sifatida qoralanadi. U odamlarni to'g'ri so'zli bo'lishga, vadaga vafo qilishga da'vat etib, munofiq kishining uchta belgisi borligini ko'rsatadi, ular: yolg'on gapirish, va'daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytadi. U insonning kuch qudrati jismonan pahlavonlikda emas, balki jahl chiqqanda o'zini tiya olishda, deb hisoblaydi.

Imom Al-Buxoriyning ta'lim-tarbiya xususidagi ta'limotida axloqiy qarashlar muhim o'rinda turadi. Uning uqtirishicha, baland tovush bilan o'rinsiz ko'p kulish boshqalar diliga ozor beruvchi xislatdir. Xalqqa yoqimli va ehtiromli bo'lib, uning muhabbatiga sazovor bo'lishni go'zal axloqlik, deb biladi alloma. Mutafakkir asarlarida kichiklarga shafqatli, kattalarga hurmatda bo'lish zarurligi alohida ta'kidlanadi.

Abu Iso At-Termiziy «Sog'lom tanda sog' fikr bo'ladi» degan xalq maqolidan kelib chiqib, yoshlikdanoq sog'liqni saqlashga, vaqtni bekor o'tkazmaslikka da'vat etadi: «Ikki narsa borkim, ko'pchilik ularning qadriga yetmaydi: biri sog'liq, ikkinchisi bo'sh vaqt». Imom at-Termiziy to'plagan hadislar orasida bolalarni axloq - odob, marhumlarga hurmat ruhida tarbiyalash targ'ib etiladi.

O'rta asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Forobiy nomi bilan bog'liq bo'lib, uning inson kamoloti haqidagi ta'limoti ta'lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun hizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat, deb bilgan va tarbiyalanganlikning o'ziga xos mezonini ishlab chiqqan.

Forobiydan keyin Ibn Sino, Beruniy, Mahmud Koshgariy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Umar Xayyom va boshqalar tarbiya yakunida erishiladigan ijtimoiy sifatlar to'g'risida fikr yuritganlar.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ma'rifiy asarlarida har bir inson aqlli, axloqli, bilimdon, oqil, dono, sofdil, saxovatli, sabr-

qanoatli, adolatli, muruvvatli, kamtar, mard va jasur bo'lmog'i lozim deb ta'kidlagan.

Shaxsning shakllanishida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida katta rol o'ynaydi. Shaxsning ijobiy yoki salbiy xislatlari asosan oilada tarkib topadi va umrining oxirigacha uning ruhiyatida saklanadi.

Maktabgacha tarbiya yangi jamoada vujudga kelgan xislatlar bilan boyitiladi. Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida yetuklik ko'lamida bilim va ko'nikmalar shakllanishi bilan birga ijobiy fazilatlar sayqal topadi.

Oliy o'quv yurti va undan keyingi yuqori o'quv yurtlari (aspirantura va dokgorantura)da barcha ijobiy ijtimoiy sifatlar maromiga yetkazilib, fazilat darajasiga ko'tariladi.

Rasmiy ta'lim-tarbiya tizimidan tashqari madaniy-ma'rifiy muassasalar — radio, televidenie va ommaviy axborot vositalari ta'sirida shaxsiy xislatlar jamiyatga, atrof-muhitga muvofiqlashtiriladi.

Ma'lum maqsadga yo'naltirilgan tarbiya faoliyatida san'at, adabiyot, madaniyat muassasalari, ijtimoiy tashkilotlar va uyushmalarning faoliyatlaridan foydalaniladi.

Bunda maqsadga yo'naltirilgan rasmiy ta'lim-tarbiya shaxs rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekistonda olib borilgan ko'p yillik tadqiqotlar va mumtoz adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, erkin va fuqarolik jamiyati hamda huquqli va demokratik davlat fuqarolari quyidagi ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishlari kerak:

Aqllilik. Bu tushunchaning lug'aviy ma'nosi — fikr yuritmoq, bilmoq degan mazmunni bildiradi. Shunday ekan, kishi qancha-lik ko'p fikr yuritib, ko'p bilimga ega bo'lsa, shunchalik aqlli hisoblanadi. Lekin odam chuqur fikr yuritmay boshqalardan ko'rgan, eshitganlarini, kitoblardan o'qiganlarini hamda ustoz muallimlar aytganini esda saqlab qolib, shu yo'llar bilan olingan bilimlarga amal qilib yurishi ham mumkin. Bunda ham aql ishtirok etadi, ammo bu holda aql yordamchi vazifani bajarib, kishi ko'p ham intellektual kuchini sarflamaydi. Doim shunday hayot kechirib yurgan odamni aqlli deb bo'lmaydi.

Lekin ba'zi kishilar, o'qituvchi va pedagoglarning aytganiga va kitoblarda yozilganiga qaramay, har bir narsaning negiziga o'zlari yetib borishni istaydilar va tayyor andozalar turganda, ularga amal qilmay, har bir narsaga o'zlari mustaqil fikr yuri-tib yetishga harakat qiladilar. Bunday kishilar aqlli hisoblanadi. Ular mustaqil bilim topish jarayonida anchagina aqliy quvvat va vaqtlarini sarflaydilar.

Bunday aqliy harakat ko'pchilikka malol kelgani uchun aksariyat odamlar akliy kuchquvvat va ma'lum vaqt sarflashdan qochib, tayyor bilimlarni o'rganib olib qo'ya qoladilar. Natijada ancha bilimga ega kishi bo'lib hisoblanadilar. Ba'zida fan nomzodi va goh fan doktori ham bo'ladilar. Biroq bu bilan ular aqlli bo'lib qolmaydilar.

Aqlli bo'lish uchun kishi o'z zimmasiga ancha qiyinchiliklarni olib, har bir narsa ustida mustaqil fikr yuritib, mustaqil tadqiqotlar olib borish yo'lida harakat qiladi. Onadan kishi aqlli bo'lib tug'ilmaydi. Hamma odamlar birday, aqlini ishlatishga moyilligi bor bo'lib tug'iladi, xolos. Bir kishida bu moyillik yuqori, boshqasida u kam bo'lishi mumkin, bu tabiiy hol. Odam tug'ilganidan so'ng, aqlini qanchalik ko'p yoki kam ishlatishi, dastavval, uning ota-onasi, aka-opalari, qarindosh-urug'lari, so'ng murabbiy va o'qituvchilarning sa'y-harakatiga bog'liq.

Kundalik hayotda bola aqlini ishlatishi uchun sharoit quyidagicha: ota va onalar (ba'zilar bundan mustasno) bolasining to'g'ri yo'ldan og'ib ketmasligi uchun, undan aytganlarini og'ishmay bajarishni talab qiladilar. G'ururi kuchli bola, tashqaridan qilingan bunday «g'ayri tarbiyaviy» ta'sirga qarshilik ko'rsatadi. Yuvosh bola bo'lsa, bir necha yillar mobaynida unga o'tkazilgan bunday tarbiyaviy tazyiq natijasida, mo'min va itoatkor bo'lib yetishadi. Bunday bolani «yaxshi bola» deb ham yuritiladi. Bola maktabga borganida o'qituvchilar ham undan, o'zlariga so'zsiz bo'ysunishni, bergan bilimni mulohazasiz qabul qilishini, o'qituvchining aytganini bajarishini talab qiladilar (ba'zi o'qituvchilar bundan mustasno). Natijada ota-onasi va o'qituvchilarining so'ziga kirgan bola ko'p bilim hamda axloqqa ega bo'lib yetishadi. Ammo aqlli bo'lmaydi. Uning aksi, g'ururi bor bola, o'z shaxsini muhofaza qilib, kattalarning so'ziga kirmay, bilimga ham, odobga ham ega bo'lmay, «yomon bola» bo'lib qoladi. Ammo ikkalasi ham aqlini

ishlata olmaydigan bo‘lib yetishadi. Ularning farqi nimada? Birinchisi, umr bo‘yi yaxshi farzand bo‘lib, aqlsiz o‘tib ketadi, chunki uning aqli kishanlangan. Ikkinchisining aqli bo‘lishga imkoni qolgan bo‘ladi, chunki u o‘z shaxsini saklab qolgan va uning aqli kishanlanmagan bo‘ladi.

Ta’lim va tarbiya bshan shug‘ullanuvchi kishilar bolalarga bilimni berib qo‘ya qolmay, bilimni mustaqil izlab topishga o‘rgatishlari kerak.

Odoblilik — ijtimoiy sifat bo‘lib, inson fazilatlaridan hisoblanadi. Odobli kishi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy qadriyatlarni yaxshi bilgan va ularni e’zozlagan hamda jamiyat ichida qabul qilingan barcha axloq normalariga rioya qiladigan odamdir.

Odobsizlik — butun insoniyat yoki bir millat qadriyat deb qabul qilgan narsa va voqeliklarga behurmatlik ko‘rsatish, muayyan jamiyatda qabul qilingan urf-odat va an‘analarga rioya qilmay, ularni mensimaslikdir. Ta’lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi kishilar, bolalarga odob nima ekanini, uning mohiyatini tushuntirib berib, ularda umuminsoniy va milliy qadriyatlarni hurmat qilish, ularni o‘rganish va hayotda amal qilishga o‘rgatishlari kerak.

Bilimlilik. Bilimli kishi ko‘p bilim sohibi hisoblanadi. Ba’zan «bilimli» tushunchasi «aqli» tushunchasi bilan sinonim sifatida qo‘llaniladi. Yana qaytarib aytamizki, aklli odam mustaqil fikr yurita oladi, bilimli odam esa, mustaqil fikr yuritib yoki kitob va ustozlardan olgan bilimlarni yod olish natijasida, yetarlicha bilimga ega bo‘lgan kishi.

Chin ma’nodagi bilimli deganda, narsa va hodisalarning tom ma’no va mazmuniga tushunib yetib, ularni tashkil qiluvchi qonuniyatlarini (bilimlarini) bilib, o‘z tafakkuridan o‘tkazib, tahayyulida saqlabnib, ularni bir necha bor hayotda sinab ko‘rib, ko‘nikma va malakasiga aylantirgan kishiga aytiladi. Kishi o‘zida qanchalik ko‘p bilim to‘plasa, shunchalik bilimli deb hisoblanadi.

Odam bilim to‘plaganda uni ma’lum bir tartibda amalga oshirishni, katta ahamiyatga ega. Chunki tartibsiz yig‘ilgan bilimning foydasi bo‘lmay, inson ijtimoiy mohiyatini oshirmay, aksincha, pasaytirishi muqarrar. Egallangan uzuq-

yuluq bilimlar, inson xotira sandig‘idan o‘rin topolmay miyada aylanib yurib, miya qobig‘idagi bosimning oshishiga va bosh og‘rig‘iga olib keladi.

Mehnatsevarlik tarbiyalanuvchi yoshlarning erishishi zarur bo‘lgan ijtimoiy sifatlardan biridir. Mehnatsevarlik deb, mehnatning turidan — og‘ir mehnatmi yo yengilmi; aqlliymi yo jismoniymi, bundan qat’iy nazar, kishi uni bajarishga jonjaxdi bilan kirishishligiga aytiladi. Mehnat— maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat ekanini eslatib o‘tamiz. Insonda hayot kechirishi jarayonida, bir qator moddiy va ma’naviy ehtiyojlar paydo bo‘lishi tabiiy. Bu ehtiyojlarni qondirish uchun u shunga mos ravishda, o‘z oldiga maqsad qo‘yadi va unga erishish uchun, ma’lum bir tartibda harakat qiladi. Shunda u anchagina jismoniy va aqliy kuch sarflaydi. Buni mehnat deyiladi. Inson o‘z oldiga bilim olishni maqsad qilib qo‘ygan bo‘lsa, unga erishish uchun, asosan, aqlini ishlatib, juda ko‘p intellektual quvvat sarflaydi. Ko‘pchilik bilim olish mashaqqatlarini bilmay, kitob o‘qish, bilim egallash ham mehnatmi deb o‘ylaydi. Ilm bilan shug‘ullanmagan odamga bu ish tashqaridan osondek tuyuladi. Aslida aqliy mehnat juda og‘ir bo‘lib, xalqimiz «Dehqonlar quduqni ketmon bilan, chevarlar igna bilan, olimlar kiprigi bilan qaziydi», deb bekorga aytmagan.

Har qanday mehnat bilan shug‘ullanish og‘ir bo‘lganligi tufayli kishi mehnatsevarlik sifatiga osonlikcha erishavermaydi, Buning uchun inson yoshlikdan, mehnat turidan qat’i nazar, o‘zini uzoq yillar davomida mehnatga o‘rgatishi kerak bo‘ladi. «Mehnat qochmas, katta bo‘lgandan keyin ishlab ulgurar», — degan ba’zi ota-onalarning fikrlari, inson shaxsi rivoji uchun o‘ta zararli hisoblanadi. O‘zini mehnatga o‘rgatish uchun, har bir odam avvalambor, mehnat yakunida keladigan natijani aniq ko‘z oldiga keltirishi va unga mehr qo‘yishi kerak. Bilmagan va suymagan ishiga odam ko‘p ham intilavermaydi. Intilmadimi, mehnat uning uchun azob-uqubatga aylanadi.

Muayyan bir kishi mehnat qilmasa turolmaydigan bo‘lib qolganda, bilingki, mehnat qilish uning ruhiga singib hayot tarziga, ya’ni ma’naviyatiga aylangan deb hisoblanadi.

Salomatlik ham inson ijobiy ijtimoiy sifatlaridan biri bo'lib, uning ijtimoiy mohiyatining ajralmas qismidir. Mutloq sog'lom kishi deb, ham jismonan, ham aqlan, ham ruhan salomat bo'lgan kishiga nisbagan aytiladi.

Jismoniy salomatlik deganda, faqat baquvvat, mushaklari bo'liq va kuchi ko'p odamni tushunilmaydi. Jismoniy sog'lom odam, o'z tanasining egasi bo'ladi. Ya'ny, jismoniy sog'lom odam, barcha a'zolarini o'ziga bo'ysundirib, istagan jismoniy ish va mashqlarni osonlikcha bajara oladi. Jismoniy salomatlikning birinchi belgisi, kishi erta bilan turganda o'zida lanjlik sezmay, unda jismoniy harakatlar qilish ehtiyoji mavjud bo'ladi. Jismoniy sog'lom bo'lish uchun odam tanasi va vujudini toza tutishi hamda shamollashdan saqlanishi kerak. Ko'p biologik kasalliklarning bosh sababchisi ifloslik bilan shamollashdir. Shu bilan birgalikda vujud tozaligi insonning yemoq, ichmoq, yotmoq, turmoqlik tartibi (rejimi) bilan bog'liq.

Aqliy va ijtimoiy sog'lom kishi, erta bilan turib, yuz qo'lini yuvib, batamom uyg'onganidan keyin beixtiyor bir narsalarni o'ylagisi kelib, o'y-tafakkurini ishga soladi. Bunday odam har qanday muammoni aql bilan yecha oladi. Bu esa, maqsadga yetishishda katta omil hisoblanadi. Inson maqsadga erishishda, avval boshdan maqsadga yetish rejasini tuzib oladi.

Ijtimoiy sog'lom bo'lgan inson, tinmay o'z ustida ishlab, doim ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'ladi. Dangasalikni va nafsini yenga olgan odamgina ijtimoiy sog'lomdir.

Ruhiy salomatlik kishi hayotida yetakchi o'rin egallaydi. Kishi ruhi salomat bo'lsa, har qanday qiladigan ezgu ishini poyoniga yetkazadi. Ruhiy salomatlik — kishining qilgan niyatlari va oldiga qo'ygan maqsadlari bilan belgilanadi. Inson yaxshi niyatlar qilib, niyat qilgan yaxshiligini amalga oshirish rejasini tuzib qo'yganining o'zida dili yayrab, ruhi taskin topib, qiladigan ishlarining ham unumi bo'ladi. Agar shu qilgan yaxshi niyatini amalga oshirsa, ko'ngli yayrab mehnat unumdorligi bir necha bor oshib, boshqalarga qilgan yaxshiligiga sarflangan kuch va mablag', bir necha bor ortig'i bilan unga qaytib keladi. Ammo «yaxshilik

qilaman», deb niyat qilib qo'yib, uni amalga oshirmasa, ruh bezovta bo'lib, kishining ruhiy azob chekishiga sabab bo'ladi.

Har bir kishi o'zining ruhini toza, beg'ubor va fe'lini keng tutishida quyidagilar e'tiborga molik. Ruhiy sag'lom odam erta bilan turganda musiqa eshitgisi kelib, bilsa-bilmasa, bir kuyni xirgoyi qilib yuradi. Ko'chaga chiqqanda va ishga borganda, chehrasi ochiq bo'lib, hammani yoqtiradi, ularga salomlar aytib, yaxshi niyatlar bildirib yuradi.

Ruhiy nosog' odam erta bilan o'rnidan tirishib turadi, bo'lar bo'lmasga uydagilarni haqoratlaydi, bir ish qilsa, jahl bilan qilib, ko'chaga chiqqanda va ishga borganda odamlarga xo'mrayib yuradi. Bu hol uzoq davom etaversa, bunday odam, albatta, ruhiy xastaliklar kasalxonasiga a'zo bo'lib qoladi.

Milliy g'urur — insoniyatning har qanday faoliyat jarayoniga rag'bat vazifasini o'taydigan ijtimoiy sifat. Milliy g'ururi yo'q odam har bir ishda loqayd bo'lib, uning qilgan ishining unumi bo'lmaydi. Milliy g'ururga ega inson esa, maqsad qo'ydimi, butun vujudini ishga solib, bu maqsadga erishish uchun g'ayrat qiladi va tezlikda unga yetadi.

Milliy g'urur deb, yashab turgan mamlakatining tarixini, ma'naviyat va madaniyatini yaxshi bilib, uning olimu fozillari va qaxramonlari bilan ich-ichidan mag'rurlanuvchi hamda shu mamlakat rivojiga o'z hissasini faol qo'shib kelayotgan kishi qalbidagi umuminsoniy g'urur negizida paydo bo'lgan ruhiy kayfiyatga aytiladi.

Ammo milliy g'ururni milliy maqtanchoqlikdan farqlash lozim. *Milliy maqtanchoq* deb, boshqa millatlarni kamsitish maqsadida o'z millat tarixini, olim-u qahramonlarini bilib olib, mana biz qanday mamlakatda yashaymiz, mana bizning avlod qanday deb maqtanib, o'zi bu millat ravnaqiga hech qanday ulush qo'shmaydigan, safsataboz kishiga nisbatan aytiladi. Uni millatchi deb ham yuritiladi. Milliy g'urur fazilat bo'lsa, millatchilik ijtimoiy qusurdir.

Odamlarda milliy g'ururni shakllantirish uchun ularga muayyan millatning tarixiy qahramonlari, olimu fozillari, ularning dunyo ma'naviy xazinasiga, ilm-fanga qo'shgan hissalarini haqidagi ma'lumotlarni berish zarur. Shunda kimning

vijdoni toza, o'zi esa mehnatga chanqoq bo'lsa, uning qalbida millati yuzasidan faxr paydo bo'lib, millatining ma'naviy va iqtisodiy salohiyatini oshirishga bel bog'laydi. Odam millatining ma'naviy boyligini oshirishga bel bog'labdimi, bilingki, unda milliy g'urur paydo bo'lgan.

Vatanparvarlik xislati — milliy g'urning taraqqiy etgan varianti bo'lib, vatan ravnaqi uchun rag'bat paydo qiluvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Milliy g'urur negizida odamlarda vatanini sevish kayfiyati paydo bo'lib, millati uchun, yurti uchun, ya'ni vatani uchun fidoyilarcha mehnat qilib, zarur bo'lganda jonini ham fido qilishga tayyor bo'ladi. Buni haqiqiy vatanparvarlik deyiladi.

Odamlarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish uchun, dast-avval, ularda milliy g'urni paydo qilish kerak. Milliy g'urur bo'lmagan kishida vatanparvarlik tuyg'usini paydo qilib bo'lmaydi. Bu isbot talab qilmaydigan haqiqat. Ammo yaqin o'tmishimizda, milliy g'urni millatchilikka yo'yib, bolalarda milliy g'urni paydo qilmay turib, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirmoqchi bo'lganlar.

Vatanparvarlikning aksi, vatan taqdiriga loqaydlikdir. Undan ham yomon ko'rinishi sotqinlik. Ota-bobolari va o'zi tug'ilib o'sgan Vatanni badnom qilib, xorijiy mamlakatlarda o'z mamlakatining kamchiliklarini ko'z-ko'z qilib yuruvchi kishilarni hech narsa bilan oqlab bo'lmaydi.

Baynalmilallik ijtimoiy sifati vatanparvarlik ruhi asosida shakllanib, eng yuqori fazilatlardan hisoblanadi. Odam millatini va vatanini sevish bilan birga boshqa millat tarixini, ma'naviyat va qadriyatlarini o'rgana boshlaydi. Odam boshqa xalklar madaniyatini o'rganish jarayonida, ularda ham juda ko'p qadriyatlar, adabiyot va san'atlari bor ekanini bilib oladi. Shundan keyin yaqin va uzoq xorijdagi xalqlar ma'naviyati va madaniyatini chuqurroq o'rgana boshlaydi. O'rganish jarayonida, ularga mehri oshib, sekin-asta ularni ham, o'z millati qatorida yaxshi ko'radigan bo'ladi. Baynalmilal tuyg'uga ega odam komillikka yetishgan hisoblanadi.

Bu ijtimoiy sifat, yer yuzida haqiqiy tinchlik va totuvlikni o'rnatish, umumjahon iqtisodiyotini taraqqiy ettirish, pirovard natijada dunyoda farovon hayot o'rnatilishining asosiy omili va garovi bo'lib hizmat qiladi.

Baynalmilallikning aksi millatchilikdir. Bu o'ta salbiy insoniy sifat bo'lib, dunyoda millatlararo mojaroni, barcha turdagi urushlarni keltirib chiqaradi. Jahonda bo'lib o'tgan minglab urushlar, milliardlab qurbonlar sababchisi millatlararo, ya'ni davlatlararo urushlardir. Milliy g'urur fazilat bo'lsa, millatchilik razolatdir. Bunga misollar juda ko'p. Yaqin Sharqdagi Falastin bilan Isroil, Livan bilan Suriya, Janubiy Osiyodagi Hindiston bilan Pokiston orasidagi va Shimoliy Kavkazdagi urushlar millatchilik natijasida yuzaga kelgan.

Insonparvarlik (gumanizm). Bu ijtimoiy sifatga ega odam ham umuminsoniy qadriyatlarni tan olibgina qolmay, ularni bor kuchi bilan muhofaza qiladi. Umuminsoniy qadriyatlarga: har bir insonni shaxs sifatida tan olishlik, unga yashash, mehnat qilish, sevilish va sevilish, o'z iqtidorlarini istaganicha namoyon qilish huquqlari kiradi. Insonparvar kishi odamdagi ushbu insoniy huquqlarni tan olib, ularning buzilishiga yo'l qo'ymaydi.

Insonparvar odam butun insoniyatni, shu bilan birga, har bir insonni, uning irqi, millati, yoshi va kelib chiqishidan qat'i nazar, chin dilidan sevadi, unga nisbatan faqat ezgu niyatda bo'lib, yaxshilik qilishga shoshiladi.

Jasurlik. Kishida yuqorida sanab o'tilgan barcha fazilatlar bo'lsa-yu, jasurlik bo'lmasa, bu fazilatlardan hech kimga naf tegmaydi. Chunki kishi qanchalik aqlini ishlatmasin, qanchalik odobli, bilimli, mehnatsevar, sog'lom, vatanparvar va boshqa ijobiy ijtimoiy sifatlarga ega bo'lmasin, qo'rqqoligi tufayli ularni amalda qo'llay olmaydi. Ishlatgan takdirda ham, qo'rqib, ehtiyotkorlik bilan qilgan ijobiy ishlarining unumi ham, samarasi ham bo'lmaydi. Qo'rqqolik imon zaifligini ham bildiradi.

Inson har ishni bajarishda, unga qo'rqmay kirishsa, qilgan harakati yaxshi samara beradi. Shuning uchun jasurlik insonning barcha ijobiy ijtimoiy sifatlari uchun harakatlantiruvchi omil vazifasini o'taydi.

Qoʻrqoqlik kishining barcha fazilatlarini yoʻqqa chiqarishi bilan birga, inson zotiga nomunosib boʻlgan salbiy ijtimoiy sifatdir.

Hayotda bundaylar koʻplab uchraydi, bunday kishilarning soni koʻpaygan sari jamiyat ijtimoiy inqiroz sari yuz tutadi. Bu esa juda achinarli hol. «Boshni kessa ham, mard kessin», degan xalq makrli buni yaxshi ifodalab turibdi.

Kishi aqlini ishlatib, muayyan bir maqsadga yetish rejasini tuzdimi, qoʻrqmasdan uni darrov amalga oshirishga harakat qilishi kerak. Aks holda, qiladigan ishingiz yo bitmaydi, yoki sustkashlik bilan bajarilgan ish hech kimga kerak boʻlmay qoladi.

Shiddatlilik. Bu tushuncha jasurlik tushunchasi bilan hamohang boʻlib, kishi bir ishni boshlasa, unga qoʻrqmasdan, gʻayrat va shiddat bilan kirishib, oxiriga yetgunga qadar astoydil harakat qiladi. Odamda barcha ijobiy ijtimoiy sifatlari, shu jumladan, jasurlik ham boʻlsa-yu, gʻayrati yetmasa, boshlagan ishi oʻlda-joʻlda qolib, ish nihoyasiga yetmasligi mumkin. Bitmagan ishning hech kimga foydasi yoʻq. «Bitgan ishga bek yetmas», degan xalq maqoli ham bor. Aholi ichida gʻayratli va shiddatli kishilar koʻpchilikni tashkil qiladi. Baʼzi aqlli va bilimli insonlar ham xalqiga va vataniga hizmat qilish maqsadida, mehnatdan qochmasdan, milliy gʻurur gʻoyasi asosida shahd bilan bir ishni boshlaydilar, ish yarmiga yetganda yoki oxirlab qolganda, qiyin boʻlar deb, shiddati yetmasdan tashlab qoʻyadilar. Soʻng bu ishni esdan ham chiqarib yuboradilar. Oʻquvchitalabalarni, bir ish boshlagandan keyin sustkashlik qilmasdan, harakat surʼatini pasaytirmay shiddat bilan oxirigacha yetkazishga, koʻzlangan maqsadga yetishga oʻrgatmoq lozim.

Sabr-qanoat insonning yuqori ijtimoiy sifati boʻlib, inson ruhining yuksak darajaga erishganidan dalolat beradi. Odam farovon hayot kechirishi uchun boshpanali boʻlishi, yeyish-ichishi, kiyinishi, bola-chaqa boqishi kerak boʻladi. Hayotiy zarur bu narsalarning turi va sanogʻi juda koʻp boʻlib, odam oʻzining ehtiyoj tizginini qoʻyib yuborsa, bu narsalarning hammasiga toʻlaligicha hech qachon erisholmaydi. Shuning uchun aqli raso inson bu narsalarning eng kamiga

qanoat qiladi. Bunday odamni qanoatli inson deyiladi va uning obro'si xalq ichida yuqori bo'ladi.

Undan tashqari, hayot murakkab narsa bo'lib, kishi hayoti davomida yetishmovchiliklar, kutilmagan qiyinchiliklar yoki undan ham yomoy, turli falokatlar ro'y berib turishi mumkin. Shunda inson faqat sabr-qanoat va chidam bilan «kunning yarmi qorong'u bo'lsa, yarmi yorug' bo'ladi» deb, bu qiyinchiliklarni yengishi mumkin. Bunday insonni sabr toqatli deyiladi. Bu ijtimoiy sifat, maqsadga omon-eson eltuvchi birdan-bir omildir. Ko'pchilik sabr-toqat qilmay, ko'zlagan ezgu maqsadlariga yetolmay yo'lda qolib ketadilar.

Har qanday qiyinchiliklarga sabr qilib, eng oz miqdorga qanoat qilib yurishni, o'zining hayot tarzi qilib olgan odam baxtlidir.

Saxovatlik. Bu xislat insoniyat erishgan eng yuqori ijtimoiy sifat bo'lib, u yuqorida qayd qilingan barcha fazilatlarga erishgan odamda namoyon bo'ladi. Saxovatli kishi hamma odamlarni millatidan, yoshi, irqi va kelib chiqishidan qat'i nazar, chin dildan sevib, yaxshiliklar qilish maqsadida, ularni to'g'ri yo'lga yetaklaydi, o'zidagi bilim va topgan mol-dunyasini boshqalar bilan baham ko'radi. Bu esa insonning o'ta aqllilik va odob belgisi bo'libgina qolmay, uning bilimi ko'p, tani-joni sog' va mard odam ekanligidan dalolat beradi. Saxovatli odam to'liq baxt egasidir.

Saxovatlikning aksi ziqnalikdir. Ziqna odam, o'zida bor bo'lgan va o'zidan ortib-tortib turgan narsalarni ham, boshqalarga ravo ko'rmaydi. Aksar hollarda, bunday odam akli noqis, in-chunun bilimi oz, shuning uchun ham odobsiz, kasalmand, insoniy va milliy g'ururi yo'q, qo'rqqoq va nomard bo'ladi. Bunday xislatga ega odam baxtiqaro hisoblanadi.

Yaxshi ijtimoiy sifatlar o'zaro chambarchas bo'lgani kabi yomon xislatlar ham bir-biri bilan bog'liq. Bitta yomon qiliqqa o'rganildimi, ketidan albatta boshqasini ham qilishga majbur bo'linadi. Chunki ular bir-birini yetaklab yuradi. Yomon xislatni egallagandan yaxshisini egallagan ko'p marotaba foydali bo'lgani uchun, faqat yaxshi ijtimoiy sifatlarga ega bo'lgan ming marotaba afzal.

Ushbu mavzuni tugatar ekanmiz, e'tiboringizni bir narsaga qaratmoqchimiz. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan fazilatli insonning o'n uch sifati, tarbiyalanayotgan yoshlar uchun yo'lchi yulduz bo'lib hizmat qiladi.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Sak, fors va massagetlarning inson sifatlariga qo'ygan talablari to'g'risida Gerodotning «Tarix» kitobida nima deyilgan?
2. «Avesto»da insonning qanday fazilatlar ulug'langan?
3. Islom ta'limotida kishi ijtimoiy sifatlariga qo'yiladigan talablarni sanab bering.
4. Aqlli va bilimli degan tushunchalarni sharhlang.
5. Odobli va mehnatsevar kishi qanday bo'ladi?
6. Sog' va salomat odam deb, qanday kishiga aytiladi?
7. Milliy g'urur va vatanparvarlik xislatlarining uziiyligi va farqlari?
8. Baynalmilal va insonlarpar kishini ta'riflab bering.
9. Jasur va shiddatli kishi qanday bo'ladi?
10. Sabr-qanoatlilik va saxovatlilik fazilatlarini tushuntirib bering.

TA'LIM-TARBIYA JARAYONINING SHAKL VA MAZMUNINI HAMDA USLUBLARINI TADQIQ ETUVCHI ILM-FAN.

Didaktika — ta'lim nazariyasi tushunchasini anglatadi. Ta'lim nazariyasi ta'lim-tarbiya jarayonida amal qilinishi shart bo'lgan tamoyillar, ta'lim usullari, ta'lim-tarbiya shakllari va pedagogikadagi asosiy tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Demak, didaktika yosh avlodni «nimaga o'qitish?», «nimani o'qitish?» va «qanday o'qitish?» kabi savollarga javob beradi. Didaktika o'qitishning umumiy qonun va qonuniyatlarini aniqlab berish bilan birga, har bir o'quv fanining o'qitish usullari uchun asos bo'lib hizmat qiladi.

Didaktika butun pedagogik faoliyat uchun, ya'ni ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchilarning nazariy va amaliy harakatlari uchun metodologik asos vazifasini o'taydi.

Shunday ekan, didaktikaning tadqiqot ob'ekti, predmeti, maqsadi va usullari nimadan iborat? degan savollarga javob topamiz.

Umuman, har qanday ilmning tadqiqot ob'ekti deganda, muayyan ilm sohasi o'z tadqiqotlarini nimaga qaratgan? degan savolga javob topish talab qilinadi.

Didaktikaning tadqiqot ob'ekti ta'lim-tarbiya jarayonidir.

Har qanday ilmning tadqiqot predmeti deganda, muayyan ilm o'z tadqiqotlarini yo'naltirgan ob'ektining nimasini o'rganadi? degan savolga javob beradi. Chunki har qanday oddiy bir ob'ektning ham jabhalari bo'ladi. Tadqiqot ob'ekti nimani o'rganadi? degan savolga javob berilsa, tadqiqot predmeti, shu nimaning nimasini, ya'ni qaysi jabhasini o'rganadi? degan savolga javob berishi shart. Bu ilmshunoslikda qabul qilingan tartib bo'lib, undan chiqib ketishlik mumkin emas.

Didaktikaning tadqiqot predmeti ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi — «ta'lim-tarbiya oluvchi», «ta'lim-tarbiya beruvchi», «o'quv dastur, darslik va boshqa didaktik materiallar» hamda «o'qitishning usul va uslublari», «o'qitishning texnik vositalari» orasidagi funksional aloqadorliklardir.

Maqsadi, shu **aloqadorliklarning** mavjudligi ta'lim-tarbiya **jarayonining ichki qonuniyatidan kelib chiqqanligini isbotlash** va ularni bir-biriga mutanosib ravishda taraqqiy ettirishdir.

Bu degani, ta'lim-tarbiya jarayonida qatnashuvchi biron-bir element o'zgarsa, uning boshqa qismlarini ham shunga moslashtirish zarur ekanini isbotlab berishdir. Masalan, ta'lim-tarbiya jarayoni kechadigan sinf yoki auditoriyadagi pedagog o'zgarsa, ta'lim-tarbiya jarayonini shakllantiruvchi o'qitishning usul va uslublari, texnik vositalardan foydalanish usullari ham o'zgarishi mumkin. Yoki o'qitishning dasturi o'zgarsa, darslik va boshqa didaktik materiallarni hamda o'qituvchi dars berish usullarini bir oz bo'lsada o'zgartirishga majbur. Chunki ular o'zaro funksional bog'liq. Didaktikaning maqsadi mana shu o'zgarishlarni asoslab, ta'lim-tarbiya jarayonini muayyan qonuniyatlar asosida kechishini ilmiy-nazariy tomondan asoslab berishdir.

Didaktika o'z tadqiqotlarini olib borish jarayonida quyidagi an'anaviy **tadqiqot usullaridan** foydalanadi: tarixiy va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, o'quv-uslubiy hujjatlarni o'rganish, fanlardan bilim berish amaliyotini sintezlash, statik usullar, maqsadli suhbat, qiyosiy tasnif, taqqoslash va hokazo. Shu bilan birga, didaktikada nisbatan yangi hisoblanuvchi — majmu yondashuv, grafoanalitik, matematik modellashtirish, sotsiologik tadqiqot usullaridan ham foydalaniladi.

Yaxlit ta'lim-tarbiya jarayonida didaktika fanining vazifalari:

Birinchisi — bilim egallash hamda ularni ko'nikma va malakaga aylantirish qonuniyatlarini aniqlab berish. Bu borada didaktika ancha yutuqlarga erishgan bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishning quyidagi qonuniyatlarini, ya'ni tamoyillarini aniqlagan. Bularga: *bilimni uzatishda ilmiy asoslab berish, ta'lim oluvchilar imkoniyati va yosh xususiyatlaridan kelib chiqish, ko'rgazmalilik, muntazamlilik, ta'lim va amaliyot birligi, onglilik va faollik, tizimlilik va izchillik, ta'lim va tarbiyaning birligi* tamoyillari kiradi. Bular darslikning keyingi sahifalarida batafsil bayon etiladi.

Ikkinchisi — ta'lim mazmunining tuzilishi va hajmini belgilash.

Uchinchisi — ta'lim va tarbiya berishning shakllari va usullarini takomillashtirish.

To'rtinchisi — yaxlit ta'lim-tarbiya jarayonini o'quvchi va talabalarning tarbiyalanganlik holatiga ijobiy ta'sirni ta'minlash. Quyida aynan shu haqda bayon qilamiz.

Bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirish naqadar zarur bo'lsada, hozirgi didaktika ana shu soha bilangina cheklanib qolmaydi.

Endilikda o'quvchilarni kamol toptirishda kerakli natijalar beradigan o'qish jarayonining ilmiy asoslarini ishlab chiqish zaruriyati tug'ildi. O'quvchi va talabalarning kamol topishi ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshishi sababli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik prinsiplar ma'lum natijani beradi. Ammo vazifa faqat qandaydir natijalarga erishish emas, balki talabalarni kamol toptirish uchun o'qitishning eng yuqori samaradorligini ta'minlashdan

iboratdir. Buning uchun esa o'quv jarayonining yangi tuzilishini ishlab chiqish kerak. Mana shunday muhim masalaning ko'rib chiqilishi o'quv muassasasidagi ta'lim-tarbiyaning birligini ta'minlashga hizmat qiladi. O'z-o'zidan ayonki, mazkur vazifani amalga oshirish zaruriy ilmiy asoslarni yaratish sohasi bo'lgan didaktika, ya'ni ta'lim-tarbiya nazariyasiga taalluqlidir.

O'qitish nazariyasi bilimlar, ma'lumotlar va dalillarning katta zaxirasiga ega, ularning bir qismi tizimlashtirilgan, bir qismi majmu asosida tartibga solingan, bir qismi hali anglab yetish jarayonidadir.

O'qitish jarayonidagi ichki tuzilishning tarkibiy qismlari — maqsadli rag'batlantirish, mazmunli o'qitishning shakl va uslublarining ajratilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik yechimlarning tanlash nazariyasini ishlab chiqishning metodologik asosi — o'qitish jarayonida mavjud barcha qonuniyatlarni hisobga olish bilan muntazam aloqada bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'qitish jarayonining mavjud hamma qonuniyatlarini birgalikda hisobga olish bilangina ta'lim masalalarini to'g'ri hal qilish mumkin.

O'qitish qoidadagidek bo'lishi uchun har bir talaba bilimlarni o'zining haqiqiy o'qish imkoniyatlariga muvofiq darajada o'zlashtirishi va tarbiyalanishi kerak bo'ladi.

O'qitish risoladagidek bo'lishi uchun talaba va pedagoglar auditoriya va uydagi ishlar vaqtining o'zlari uchun gigienik va fiziologik jihatdan belgilangan normalariga ega bo'lishlari kerak.

Rejalashtirishni optimallashtirishning asosiy yo'llari o'qitishning vazifalarini, ya'ni ta'lim berish va tarbiyalash jarayonini loyihalashda majmu yondashish tamoyilini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Pedagogik jarayonni rejalashtirishda quyidagi usullardan foydalaniladi: o'qitish mazmunining qo'yilgan vazifalarini eng muvaffaqiyatli hal qilishni ta'minlaydigan o'ziga mos variantini tanlash; o'qitishning qo'yilgan vazifalarni belgilangan vaqt ichida muvaffaqiyatli hal qilishni ta'minlaydigan usullari va

uslublarini tanlash; masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishni, shu jumladan, o'quvchilarga tabaqali yondashishni ta'minlaydigan tashkiliy shakllarini tanlash.

Hozirgi paytda ta'limning muhim jihatlari — ta'lim mazmunini boshqatdan ishlab chiqish, muammoli kamol toptiruvchi o'qitish, talabalarning o'qishini yanada faollashtirish, yangi o'qitish usullarini yaratish, o'quv materialini tashkil qilish va uni strukturalashtirish kabi muammolar jadal o'rganilmoqda.

Ta'lim mazmunining ishlab chiqilgan nazariyasida quyidagi qoidalar talqin qilingan.

Ta'lim mazmunida jamiyatning ma'naviy va moddiy elementlari, shu jumladan, tabiat, jamiyat va inson haqidagi bilimlar, ijodiy faoliyat tajribalari, insonning o'zaro munosabatlari, ularning boshqarish faoliyati, hayoti ifodalanishi lozim.

Ta'limning mazmuni umumiy, politexnik va kasbkorlik komponentlarining birligini aks ettirishi kerak.

Ta'lim mazmuni muayyan yoshga qaratilgan bo'ladi va jamiyatning rivojlanish darajasidan kelib chiqadi.

Ta'lim mazmunidagi ajratilgan to'rt komponent hajmi va mazmuniga ko'ra o'zaro aynan muvofiq bo'lishi kerak.

Ta'lim nazariyasidan muammoli o'qitishni joriy etish, shuningdek, o'quv jarayonini tabaqalashtirish va individuallashtirish yo'llarini izlash bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda.

Muammoli o'qitishning nazariyada ishlab chiqilgan asosiy g'oyalarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

Ta'limiy bilishni ilmiy bilishga muvofiq modellashtirish g'oyasi, ya'ni muammoli vaziyatni vujudga keltirish — gipotezani olg'a surish — gipotezani konsepsiyaga aylantirish — konsepsiyani hal qilish — uni tasdiqlash yoki rad etishdek zarur halqalarni o'z ichiga olgan.

Talabalarning ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda tadqiqotchilikka oid ko'nikma va malakalarni tarbiyalash g'oyasi.

Muammoli o'qitish nazariyasida qator qonuniyatlar ifodalanadi va tajriba yo'li bilan asoslanadiki, ulardan muammoli dars o'tish bilan muammoli o'rgatishning birligi va bir-birini taqozo etishi, talabalarning tayyorlik darajasi bilan muammoli o'rgatish darajasining muvofiqligi kabi qonuniyatlarni ajratish mumkin.

Didaktikada ishlab chiqilgan talabalarning bilish faolligini faollashtirish nazariyasi muammoli o'qitish nazariyasiga juda yaqin.

Faollik nazariyasining asosiy g'oyasi ham maxsus tashkil etilgan ta'lim muhitida talabalarning faolligini tobora oshirib borishdan iborat. Ishlab chiqilgan faollik nazariyasi o'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtirish, ularni qayta ishlash va qo'llash (muammoli va reproduktiv) usullarini o'rganish bo'yicha tashkil etiladigan o'z-o'zini boshqariladigan faollikdan iborat.

Mazkur qonuniyatlar asosida amaliy jihatdan muhim ahamiyatga molik quyidagi nazariy qoidalarni ifodalash mumkin.

Faollashtirish vositalari majmui, ta'limning mazmuni, o'qitishning shakl va uslublari, maqsadga muvofiq o'z-o'zini boshqaradigan jarayon sifatida tashkil qilishni ta'minlashi uchun ular quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- ta'limning hamma bosqichlarida talabalarda o'qitishning ichki motivlarini qo'zg'atish va rivojlantirish;
- talabalarning o'z oldilariga tegishli maqsadlarni qo'yish va kelgusidagi faoliyatlarini rejalashtirishga rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish;
- talabalarda axborotlarni qayta ishlashga doir ta'limiy va aqliy ko'nikmalarning shakllanishini ta'minlash;
- o'quvchi-talabalarning o'rganish-bilish maqsadlariga erishish uchun jismoniy, axloqiy va iroda kuchlarini oshirish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida nazorat va o'z-o'zini boshqarish orqali talabalar o'zlarining o'quv-bilish faolligini baholashini ta'minlash. Shu qoidalarga rioya qilinsa, ta'lim-tarbiya samaradorligi yanada oshadi.

Ta'lim-tarbiya jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy darajasi va madaniyati, uning siyosiy va mafkuraviy tuzilishi mazmunini belgilaydigan masalalarni hal qiladi.

Shuning uchun oiladagi yoki jamoadagi, yoki maktab va ishlab chiqarishdagi maqsadga muvofiq yoki tasodifiy tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy bo'ladi, chunki har qanday tarbiya ijtimoiy munosabatlarning sub'ekti hisoblanadi va kishining ijtimoiy mohiyatini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

«**Ijtimoiy tarbiya**» iborasidan ancha tor ma'noda — shaxsga ta'sir ko'rsatishning maxsus tuzilgan ijtimoiy institutlarda amalga oshiriladigan, oiladagi va yaqin atrof-muhitdagi tarbiyadan farqli jarayonni ifodalash uchun foydalaniladi.

«**Ta'lim**» va «**tarbiya**» tushunchalarining qaysi biri kengroq ma'noga ega ekanligi xususidagi fikrlar, bu atamalarning qaysi ma'noda ishlatilishiga bog'liq. Adabiyotlarda ko'p uchraydigan «ta'lim» va «tarbiya» tushunchalarining pedagogik jarayonning qarama-qarshi tomonlarini ifodalash uchun qo'llanish hollari ham mavjud. Binobarin, ta'lim bilim berishning maqsadga muvofiq jarayoni sifatida doimo muayyan shaxslarni tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Tarbiyaning yo'nalishi esa, hatto, ta'lim mazmuni va saviyasi bilan rasman bir xil bo'lsa ham, prinsip jihatdan turlicha.

Ta'lim-tarbiya muassasalarida amalga oshiriladigan chuqur pedagogik jarayon sifatidagi tarbiya haqida gapirish uning faqat bir tomonini — kasbiy jihatini ko'rsatishni bildiradi.

Tarbiya hamma vaqt xalq orasidagi hodisa, ijtimoiy hayotning doimiy kategoriyasi hisoblangan. Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq yo'sinda shakllantirish, unda fazilatlarni tarkib toptirish jarayonidir. Tarbiya tarbiyani amalga oshiruvchilar kutadigan natija mavjudligini talab qiladi. U ikki turdagi faoliyatni, ya'ni shakllanuvchi va shakllantiruvchi faoliyatni taqozo etadi. Bajaruvchilar tarbiyaning tashkilotchilari, shakllanuvchi faoliyatni bajaruvchilar esa tarbiyaning yolg'iz yoki jamoaviy ob'ektlari hisoblanadi.

Tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari uning ikki tomoni — ob'ekt va sub'ekt jihatlarini mavjudligidir. Uning shakllantiruvchi faoliyatlarini bajaruvchilar o'zlari xohlasa-xohlamasa tarbiyaning ob'ekti ekanligida ko'rinadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ob'ektli shakllanuvchi va shakllantiruvchi faoliyatlar hamda

ularning elementlari o'rtasida, shuningdek, har bir faoliyatning elementlari o'rtasida uzviy bog'lanish mavjudligida namoyon bo'ladi.

Shakllantiruvchi va shakllanuvchi faoliyatning sub'ektiv tomoni u yoki bu faoliyatni bajaruvchi sub'ektlar hisoblanadi va tarbiyaning natijalari ularning ichki holatiga, egallagan shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari hamda qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi.

Tarbiya ba'zan egallangan bilimlarni, faoliyat tajribalarini yosh avlodga berishning yo'li sifatida, ba'zan erishilgan ma'naviy madaniyatni qayta tiklash va rivojlantirishning omili sifatida va ba'zan ijtimoiy munosabatlarning alohida shakli sifatida ta'riflanadi.

Tarbiyaning maqsadi — uning ko'zlangan natijasidir. U jamiyat rivojlanishining ehtiyojlarini o'zida aks ettiradi va jamoatchilik hamda davlat hujjatlarida ifodalanadi, pedagogik ta'limotlar va nazariyalarda muayyanlashtiriladi hamda batafsil yoritiladi.

Tarbiyaning maqsadi — shaxsni har tomonlama va uyg'un kamol toptirish, uning ma'naviy, axloqiy, estetik qadriyatlarini shakllantirish, yuksak darajada uyushgan va shakllangan jamoalarni vujudga keltirishdir. Tarbiyaning maqsadlarini oxirgi va oraliq, umumiy va muayyan, asosiy va yo'l-yo'lakay maqsadlarga tasniflash mumkin. Maqsad bilan bir qatorda hal qilinishi maqsadga erishishni ta'minlaydigan vazifalar ham turadi.

«**Shaxsni shakllantirish va kamol toptirish**» tushunchasi — shaxsning o'sishi, qandaydir yangi xususiyat va fazilatlarga ega bo'lishi jarayonidir. «**Shakllantirish**» tushunchasi «**tarbiyalash**» tushunchasiga nisbatan kengroq bo'lib, u shaxs va jamoaning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadigan hamma narsani, shu jumladan, maqsadga muvofiq jarayonlarni ham, maqsadga nomuvofiq jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. «Shakllantirish» va «tarbiyalash» tushunchalari jiddiy chegaralansa, insonni tabiat hodisalari tarbiyalaydi, deb bo'lmaydi. Insonni faqat kishilar tarbiyalaydi, tabiat hodisalari shaxsni shakllantirishi mumkin, ammo uni tarbiyalay olmaydi.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar, shu jumladan, tarbiya omili, ijtimoiy ishlab chiqarish, madaniy, psixologik omillardan iborat ichki omillarning ta'siri natijasida shakllanadi.

Shaxs shakllanishining asosi uning faoliyati bo'lib, bu faoliyat doimo o'zini vujudga keltirgan yoki tashkil etgan shaxsga nisbatan shakllanuvchi bo'ladi.

Jamoaning shakllanishi ham tashqi omillar — ijtimoiy munosabatlar, tarbiya vositalari va ijtimoiy muhit hamda ichki ijtimoiy munosabatlar ta'siri natijasida amalga oshadi.

Tarbiyalash singari shakllantirishda ham doim shaxsni va jamoani takomillashtirish nazarda tutiladi.

«**Takomillashuv**» — qarama-qarshiliklarning birligi va kurashini taqozo etadi, ana shu birlik hamda kurash natijasida ro'y beradigan kuchlanish, o'z-o'zidan harakatlanishni keltirib chiqaradi.

Shaxs va jamoa takomillashuvining samarasi ularning holatidagi sifat o'zgarishida namoyon bo'ladi.

Shaxs takomillashuvining manbai ehtiyojlar va ularni qondirish yo'llari orasidagi ziddiyatlardir. Jamoa takomillashuvining manbai ham ziddiyatlar hisoblanadi. Psixologlar juda ko'p ziddiyatlarni, shu jumladan, shaxslar va jamoalarning manfaatlari o'rtasidagi, rahbarlarning jamoaga qo'yadigan talablari bilan jamoaning ana shu talablarni bajarish orasidagi ziddiyatlarni aniqlaganlar. Ana shu ziddiyatlar hal qilinganda rivojlanish va takomillashish sodir bo'ladi.

«**O'qitish**» va «**o'qish**» tushunchalari. O'qish so'zini didaktlar va psixologlar ilgaritdan, hozir ham turlicha sharxlaydilar. O'qish maqsad, mazmun va harakatlar bilan bog'liq bo'lib, ular yordamida talabalar ma'lum bilimlarni o'zlashtiradilar, o'qish talabaning faolligi natijasida rivojlanadi, xarakter kasb etadi, u turli shakllarda (mehnat, jamoatchilik faoliyati, kitobxonlik, o'yin va hokazo tariqasida) amalga oshishi mumkin, bilishga tayanadi hamda individual tajribada shaxsning xulqida o'zgarishni vujudga keltiradi.

Ana shu tushuntirishlardan keyin «o'qish» degan tushunchaning ta'rifini keltirish mumkin. Biz o'qish *deganda, talabalar voqelikni bevosita va bilvosita*

bilish davomida ma'lum bilimlar, ko'nikmalar va malakalar rejali o'zlashtirishining maqsadga muvofiq jarayonini tushunamiz. Bunda o'qish jarayoni ma'lum darajada kuchli motivlashtirishdan vujudga keladi va uning natijasi shaxsning qarashlari, e'tiqodi, xatti-harakatlari, umumiy kamolotiga, qisqasi, uning xulqiga ta'sir ko'rsatadigan mavjud bilimlar va ko'nikmalar zaxirasining ortishida namoyon bo'ladi, deb bilamiz.

O'qish iborasi tasodifiy jarayon ma'nosida ham, o'qish jarayoniga muntazam, rejali va bevosita rahbarlik qilish ma'nosida ham qo'llaniladi. Ana shu ikkinchi ma'nodagi o'qish jarayoni nisbatan uzoq vaqt, ba'zan ko'p yillar mobaynida o'qitish jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Shuni hisobga olib mazkur ikkala jarayonni ko'pincha umumiy nom bilan ta'riflaymiz va o'qitish o'qish jarayonlarini ta'lim-tarbiya jarayoni, deymiz. Bu jarayonda faqat o'qish bilan talabalarning ma'lum miqdordagi bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishga yordam beradigan sharoitlarni yaratish bilan bog'liq harakatlar emas, balki ana shu sharoitlardan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish elementlari ham namoyon bo'lib, ular bir butunlikni hosil qiladi.

Pedagog talabalar ishining-borishini kuzatish va ular erishgan natijalarni baholash asosida o'zining ko'rsatmalari, yo'naltiruvchi savollari, tegishli tushuntirishlari va hokazolar bilan ularning o'quv faoliyati jarayoniga tuzatishlar kiritadi. Shunga ko'ra ta'lim birinchidan — o'qishni, ikkinchidan — o'qitishni, ya'ni o'qishni va shu bilan birga uni nazorat qilish hamda tuzatish tadbirlarini o'z ichiga oladi, deyish mumkin.

O'qitish g'oyatda murakkab ish, buning dalili sifatida shuni aytish joizki, pedagogning ta'lim jarayonidagi rahbarlik rolini ta'minlashga urinishi va harakatlarini saqlashga intilishi o'rtasidagi ta'limga xos dialektik ziddiyat aslida yuksalishning manbaidir. Shuningdek, o'qitishda deyarli hamma vaqt uning tarbiyaviy jihatlari yaqqol bilinib turadi.

Ta'lim maqsad, mazmun, o'qituvchining shaxsi, talabalardagi dastlabki bilimlarning xarakteri, o'qitishning moddiy-texnik bazasi va boshqa omillar bilan belgilanadi.

Forobiy o'zining «Ideal shahar aholisining maslagi» nomli risolasida ta'kidlaganidek, fan o'qitish orqali o'zlashtirilsa, fazilatlar tarbiya yordamida egallanadi. O'qitish faqat aylning chiniqishi uchun emas, balki umumiy ma'naviy, shu jumladan, axloqiy kamol topish uchun ham asosdir. O'qitish va tarbiyalash o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, shaxsni ma'naviy kamol toptirishning turli yo'llaridir.

Xalq pedagogikasida inson aqlan barkamol bo'lishining eng muhim sharti uni bolaligida o'qitish va tarbiyalash deb hisoblaydi.

O'qitish ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadi va umumfalsafiy metodologiyaga muvofiq bu qonuniyatlarni ta'lim jarayoni bilan ancha kengroq ijtimoiy jarayonlar o'rtasidagi umumiy, muhim, zarur, barqaror aloqalardan, shuningdek, ta'limning alohida komponentlari, ya'ni uning maqsadi, mazmuni, shakli, usullari va uslublari o'rtasidagi ichki bog'lanishlardan iborat. Aniqlangan didaktik qonuniyatlardan qator asosiy talablar kelib chiqadi, ularga rioya qilish o'qitishning sifatli va samarali amalga oshuvini ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonining natijasi ba'zan faqat talabalarning ma'lum bilimlar va ko'nikmalar tizimini o'zlashtirishidan iborat bo'ladi. Lekin bu jarayon talabalarni har tomonlama kamol toptirishga jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ta'lim jarayoni — murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Rasmiy ta'lim-tarbiyaning nazariyasi, umuman, ana shu jarayonni, uning tarkibiy qismlarini va ularning komponentlarini yoritadi. Tushunchalar, mazmun yordamida ana shu yaxlit jarayonning mavjudligi sababini yoki usullarini bayon qiladi.

«O'quv jarayoni» tushunchasi ta'limning barcha komponentlarini: o'qitish va unda foydalaniladigan vositalarni ham, muayyan vazifalarni hal qilish uchun ta'limning usullarini ham, unda mustaqil ishlaydigan talabani ham, o'quv jarayonida ko'rgazmali va texnik vositalar bilan jihozlashni ham o'z ichiga oladi. Shuning natijasida ta'limning quyidagi qonuniyatlari aniqlangan:

- ta'lim jarayoni qonuniy ravishda ijtimoiy jarayonlardan va jamiyatning ehtiyojlaridan kelib chiqqan;
- ta'lim jarayoni yaxlit pedagogik jarayonga kiradigan o'qish, tarbiyalash va kamol toptirish jarayonlari bilan qonuniy ravishda bog'liq;

- ta'lim talabalar imkoniyatiga qonuniy ravishda bog'liq;
- ta'lim o'zi amalga oshiradigan tashqi ijtimoiy sharoitlarga bog'liq;
- o'qitish va o'qish jarayonlari yaxlit ta'lim jarayoniga qonuniy ravishda bog'liq;
- ta'lim mazmuni qonuniy ravishda jamiyat ehtiyojlarini, fan rivojlanishining daraja va mantiqini, talabalar o'quv imkoniyatlari va ta'lim uchun tashqi ijtimoiy sharoitlarni aks ettiradigan vazifalarga bog'liq;
- o'quv faoliyatini kuchaytirish, tashkil etish va nazorat qilish, qonuniy ravishda ta'lim vazifalari va mazmuniga bog'liq;
- ta'limning tashkiliy shakllari qonuniy ravishda uning vazifalariga, mazmuni va usullariga bog'liq;
- tegishli sharoitlarda o'quv jarayonining barcha komponentlari qonuniy ravishda o'zaro bog'lanishi ta'limning puxta anglangan va amaliy natijalarini ta'minlaydi.

Ta'limning qonuniyatlarini pedagogikaning umumiy asoslarida ifodalangan qonuniyatlar bilan taqqoslansa, ular o'rtasida bog'lanish yaqqol ko'rinadi. Ta'limning qator qonuniyatlari mantiqan pedagogik jarayonning umumiy qonuniyatlaridan kelib chiqadi. Ta'lim qonuniyatlariga amal qilishlik didaktika prinsiplariga amal qilishlik demakdir.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

1. Didaktika deganda nimani tushunamiz?
2. Didaktikaning pedagogik faoliyatda tutgan o'rnini belgilang.
3. Didaktikaning tadqiqot ob'ekti, predmeti na maqsadini aniqlang.
4. Didaktika fanining vazifalarini ko'rsating.
5. Ijtimoiy tarbiyani tushuntirib bering.
6. Ta'lim va tarbiya tushunchalarini sharhlab bering.
7. Shaxsning shakllanishi va kamol topish jarayonini tushuntirib bering.
8. Takomillashish nima?
9. O'qitish va o'qish tushunchalarini sharhlang.

10. O'quv jarayonini tushuntirib bering.

TA'LIM TARBIYA QONUN VA QOIDALARI HAMDATAMOYILLARI

Avval boshdan «qonuniyat», «qonun», «tamoyil», «qoida» degan tushunchalarning tom ma'nosini bilib olaylik.

Qonuniyat — bizning ixtiyorimizdan tashqari ob'ektiv mavjud bo'lgan narsa va hodisalar o'rtasidagi, ularning tadrixiy rivoji (evolyusiyasi) zaruriyatidan kelib chiqqan bog'lanish. Tabiiy fanlarda, u qonun deb ham nomlanadi. Masalan, Yerning tortilish qonuni, Markazdan qochma kuch qonuni, Joul-Lens qonuni va hokazo.

Ta'lim-tarbiya jarayonining qonuniyatlarini tushuntiradigan bo'lsak, ular ta'lim-tarbiya jarayonining tadrijiy rivoji zaruriyatidan kelib chiquvchi ta'lim-tarbiyani bir butun qilib turgan qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklardir. Chunonchi, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi orasidagi zaruriy bog'liqlik yoki ta'lim beruvchi bilan o'quv dastur orasidagi zaruriy bog'liklik va hokazo.

Qonun atamasi aslida insoniyat tomonidan yaratilgan tartib va qoidalarga nisbatan ishlatiladi. Ammo tabiiy fanlarda, ularni o'rganish jarayonida aniqlangan tartiblarni Xudo tomonidan ishlab chiqilgan tartib degan mazmunda, uni qonun deb nomlanib ketgan. Izoxli lug'atlarda bu atamalar sinonim sifatida qo'llanilgan. Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, tabiiy fanlardagi tabiat qonunlaridan tashqari, barcha bizning ixtiyorimizdan tashqarida mavjud bo'lgan va ularning tadrijiy rivoji natijasida paydo bo'lgan bog'liqliklarni qonuniyat deyiladi. Ijtimoiy hayotdagi inson va narsalar orasidagi goho zaruriy, goho nozaruriy (birovning fbydasini ko'zlab) o'rnatilgan bog'liqliklar **qonun** deyiladi.

Tamoyil (prinsip) — bu ob'ektiv mavjud qonuniyatlardan, ya'ni butunni bir butun qilib turuvchi qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklardan kelib chiqib, amal qilinishi lozim bo'lgan harakatlar tushuniladi.

Ta'lim-tarbiyaning tamoyillari o'qish va o'qitish jarayonida ob'ektiv mavjud bo'lgan va uni butun qilib turgan qismlari orasidagi zaruriy bog'liqliklardan kelib chiqib, odamlar tomonidan ishlab chiqilgan va ta'lim-tarbiya jarayonida amal qilishlikka tavsiya etilgan harakatlar tartibining moyilligidir.

Qoida — *bu inson faoliyat tartibining so'nggi bosqichi bo'lib, ob'ektiv qonuniyatlar asosida ishlab chiqilgan tamoyillarning u yoki bu harakatlarini chuqurlashtirib, konkretlashtirib beruvchi chora va tadbir tartibidir.* Qoidalar nazariya bilan amaliyot orasini bog'lab turuvchi vositadir.

Uni pedagogik jarayon misolida ko'radigan bo'lsak, u o'qitish qoidalarida namoyon bo'ladi. O'qitish qoidalarining tipik vaziyatlarda o'qituvchilarning tipik harakati ifoda etilgan. Boshqacha qilib aytganda, didaktik qoidalar tipik pedagogik vaziyatda o'qituvchi va o'quvchi o'zini qanday tutishi kerakligini ko'rsatib beradi. Shuning uchun ular amaliyotga yaqin turadi.

Pedagogik adabiyotda pedagogik qoidalarga ikki xildagi qarash mavjud. Biri, amaliyotchi o'qituvchilarga didaktika qonuniyatlari va tamoyillarini bilish shart emas, ular olimlar tomonidan ishlab chiqilgan dars o'tish qoidalarini o'zlashtirib olsalar, shuning o'zi kifoya, deyдилar. Shu kunda xorijiy mamlakatlarda va Oktyabr inqilobidan oldingi rus pedagogikasida bu fikr ustunlik qilgan. Bu masalaga ikkinchi turdagi qarash ham bor, ular amaliyotchi o'qituvchilarni faqat tayyor o'qitish qoidalariga bog'lab qo'ysak, ularning tashabbuskorligini cheklab qo'ygan bo'lamiz, deyдилar. Ularning ikkalasining fikrlarida ham mantiqbor. Haqiqat, har doimgidek, ikkalasining o'rtasida yotadi. O'qituvchilarni pedagogik qoidalarga qattiq bog'lab qo'yib, ularning erkini cheklash yomon bo'lgani kabi, amaliyotdan uzilgan va juda ham nazariylashgan pedagogik tamoyillar va qonuniyatlarni pedagoglardan talab qilish va pedagogik jarayonni erkin harakatlarga aylantirib qo'yish ham noo'rin. Ta'lim-tarbiyada, boshqa mehnat turlaridagidek, standart holatlar juda ko'p. Bu holda o'qituvchi uchun ko'p ham tashabbus ko'rsatishi shart emas, aks hollarda, o'qituvchining tashabbuskorligi darsni muvaffaqiyatli o'tishiga halal ham beradi. Bu holda, dars o'tganda aynan qoidalarga rioya qilish talab qilinadi.

Qoidalar didaktika tamoyillaridan kelib chiqqani kabi, didaktika tamoyillari o'z ifodasini pedagogik qoidalarda topadi. Biroq qoidalar o'z ichiga yana ko'p sonli o'qituvchi va pedagoglarning ko'p yillik tajribasini ham qamrab olgan bo'ladi.

Dars o'tish qoidalari qancha degan savolga K.D. Ushinskiyning so'zlarini keltirish o'rinlidir. U: «Barcha pedagogik qoidalarni bir varaqqa sig'dirish ham mumkin, ulardan bir necha jildli kitoblar ham yaratish mumkin», — degan ekan.

Odatda, ular tavsiyanoma, qo'llanma va eslatmalar sifatida beriladi.

Ta'lim qonunlari. Ta'lim qonunlari to'g'risida gap borganda, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi mamlakatlarda goho ta'lim tamoyillarini ham, goho ta'lim qoidalarini ham qonun deb yuritilishi kuzatiladi. Shuning uchun, qonun deb aniq aytilgan amerikalik Torndayk maktabi bo'yicha quyidagi qonunlarni qayd qilish bilan cheklanamiz.

O'zaro bog'liqlik qonuni — ta'lim-tarbiya jarayonida **ikkita ruhiy harakatning o'zaro bog'liqlikdagi rivojlanish** qonuni. Bu qonun bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayoni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi ruhining bir yo'nalishdagi harakatini taqozo etadi. Bu qonunga binoan, agar ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qiluvchi ikki shaxsdan birining ruh harakati ikkinchisining bilan mos tushmasa, ta'lim-tarbiya jarayoni sodir bo'lmaydi. Bilim berish jarayoni sodir bo'lishi mumkin, tazyiq yo'li bilan, ammo haqiqiy ta'lim-tarbiya jarayoni amalga oshmaydi. Bu qonunga binoan darsni tashkil qilish va uni amalga oshirish uchun pedagog sinfda yoki auditoriyada bir xildagi ruhiy holatni, ya'ni bilim berish va bilim olish holatini shakllantirishi kerak.

Mashq qonuni — bu qonun bo'yicha, egallangan bilimni ko'nikma, so'ng malakaga aylantirish uchun, **mashq qanchalik tez bo'lsa, qaytar reaksiya ham shunchalik tez bo'lib, bilim o'zlashtirilishi ham tez o'tadi, bu bilimning xotirada uzoq muddatga saqlanishi ham ta'minlanadi.** Bu qonun bo'yicha, bilim egallaganda har kim o'zining qabul qilish tezligi qobiliyatiga binoan egallasa ham, uni ko'nikma va malakaga aylantirishda, mashqni iloji boricha tez amalga oshirishni taqozo etadi.

Intensivlik qonuni — bu qonun bo'yicha ham, mashqlar javobi qanchalik intensiv ravishda bo'lsa, u shunchalik tez o'zlashtiriladi.

Assimilyatsiya qonuni bo'yicha — har bir yangi «turtki» qaytar reaksiyani vujudga keltiradi, deyiladi. Shuning uchun egallagan bilimni qaytarish yo'li bilan «turtib» turish kerak, deyiladi.

Natijaviy qonunda — reaksiya ijobiy bo'lsa, bilim mustahkamlanadi, agar salbiy bo'lsa, xotira uni o'chirib tashlaydi, deyiladi.

Haqiqatan ham bu qonunlar hayotdan olingan bo'lib, amaliyotda minglab marotaba sinalib ko'rilgan. Shuning uchun pedagogik amaliyotda bulardan kelib chiqishlik pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi.

Didaktika tamoyillari (prinsiplari). Didaktika tamoyillarining tarixi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar dars oldidan ko'zlagan maqsadlariga ko'p kuch va vaqt sarflamay aniq yetishlari uchun, bir necha avlod olimlari tinimsiz izlanishlar olib borib, didaktika prinsiplar majmui yaratilishiga sababchi bo'lganlar.

Avval ham aytganimizdek, yaqin vaqtlargacha pedagogikadagi qonun, qonuniyat va tamoyil degan tushunchalar sinonim sifatida ishlatilib yoki bularning bittasiga — yo qonun, yo qonuniyat, yo prinsipga ustunlik berilib kelingan.

Ammo ko'p yillik tajribalar va bu sohadagi izlanishlar shuni ko'rsatdiki, qonuniyat turg'un bo'lib, ular asosida yaratilgan qonun va tamoyillar o'zgarib ham turishi mumkin ekan. Ba'zi eski tamoyillar, masalan, tabiatga mos ravishda rivojlantirish tamoyili yo'q bo'lib ketib, o'rniga yangi tamoyillar kiritilgan.

Tamoyillar to'g'risida didaktikada shunday qoida o'rnashib qolganki, ular tarixiy vaziyatdan kelib chiqib konkret jamiyatning ehtiyojlarini ifoda etar ekan. Ijtimoiy taraqqiyot va ilm-fanning rivojlanishi hamda ta'lim-tarbiya jarayonida yangi qonuniyatlarning aniqlanishi, shuningdek, ilg'or pedagogik tajribalar natijasida pedagogik tamoyillar tizimi boyib boraverar ekan.

Ko'p yillik izlanishlar va bahslar natijasida pedagogikada quyidagi dars o'tishning umumiy tamoyillar tizimi ishlab chiqilgan:

1) onglilik va faollik — bilimni talabalar tomonidan ongli ravishda va faol qatnashib egallashlik;

2) ko'rgazmalilik — «yuz marotaba eshitgandan bir marotaba ko'rgan yaxshi» tamoyilidan kelib chiqib, bilim berishda turli-tuman ko'rgazma qurollardan samarali foydalanish;

3) tizimlilik va muntazamlilik — bilimni ma'lum bir tizimda va uzluksiz ravishda berib borish;

4) mustahkamlik — bilimni tushunarli tilda qayta - qayta takrorlash yo'li bilan berish;

5) tushunarlilik — bilimni hammaga tushunarli va hammabop qilib berish;

6) ilmiylik — bilimni bolalarda avvaldan mavjud bilimlarga berish;

7) nazariya va amaliyot birligi — bilim berishda nazariy bilimlarning amaliyotda ishlashini, ya'ni uni hayot bilan, amaliyot bilan bog'liqligini ko'rsatib berish.

Bu tamoyillar pedagogik jamoatchilik tomonidan umumiy tamoyillar deb qabul qilingan.

Onglilik va faollik tamoyili. Bu tamoyil asosida ilm tomonidan aniqlangan, insonning haqiqiy bilim egallashi uchun, u — bu bilimlarni chuqur anglab yetgan holda aqliy quvvatini intensiv ishlatishi natijasida yetishi mumkin, degan qonuniyat yotadi. Bilimlarni anglaganlik holati quyidagi omillardan kelib chiqadi: o'qishning sababi; talabaning bilish faolligi darajasi; o'quvchi va talabalarning bilish faolligining boshqarilishi va bilim berishni tashkil qilish hamda boshqa omillar. Talabaning shaxsiy bilish faolligi bilib olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Onglilik tamoyilini amaliyotda qo'llash quyidagi qoidalarga rioya qilishni taqozo etadi:

1. Bu bilimning hayotdagi zarurligi va ahamiyatini talaba-yoshlarga tushuntirib, uning istiqbolini ravshan qilib ko'rsatib berish yo'li bilan, ta'lim oluvchilarda aniq maqsad va vazifalarni shakllantirish qoidasi.

2. Talabalarga qanday yo'l bilan bilim olishni tushuntirib, ularda shunday ishonch hosil qilish kerakki, ular hech qachon olinadigan bilimni chuqur anglab yetmay mexanik holda egallamasinlar.

3. O'qitganda barcha bilish shakllaridan: tahlil va sintez; deduktiv va induktiv; taqqoslash va qarama-qarshi qo'yish va hokazolardan foydalanish qoidasi.

4. Bolalardagi mavjud bilim va ko'nikmalariga tayanib, obrazli taqqoslash usulidan foydalanib, har bir so'z va gapning tom ma'nosini ochib berish qoidasi.

5. O'quvchilarning o'zaro o'qitish kuchidan unumli foydalanib, qo'yilgan savollarga jamoa bo'lib javob topish qoidasi.

6. Bugungi faol talaba, ertangi faol ishchi va xizmatchi ekanligini yaqqol bilgan holda, ularni faollashtirishga hech qanday kuchni ayamalik qoidasi.

7. Bolalardagi mavjud bilimlar bilan berilayotgan bilim orasidagi mantiqiy bog'lanish yo'q joyda onglilik bo'lmasligini esda tutgan holda, ularning aqli yetmay turgan joylarni, ulardagi bor bilim bilan mantiqiy bog'lab berish qoidasi.

8. O'quv fanini hech qachon dars markaziga qo'ymay, dars markazida doimo o'quvchi turishini, uning shaxsi shakllanayotganini bilgan holda talabaga ta'limiy ta'sir o'tkazish qoidasi.

9. Talabalar fikrini, hayot bilan nazariy bilimlar orasidagi farqlar borligiga qaratish yo'li bilan, ularning tafakkurini faollashtirish qoidasi.

10. O'qitish jarayoni yanada muvaffaqiyatli o'tishi uchun, har bir tushuncha berilganidan keyin, uni bir necha misollar bilan mustahkamlash qoidasi.

11. O'qitilayotgan fanda asosiy va ikkinchi darajali joylarini ajratish yo'li bilan, talabalarda berilgan bilim ichidagi asosiy o'rinlarini ajrata olishga o'rgatish qoidasi.

12. Hech qachon quruq obro'ga tayanib o'qitmay, faqat aql va his siyotdan kelib chiquvchi dalillarga tayanib o'qitish qoidasi.

13. Bolalarni o'qishga o'rgatish qoidasi.

14. Ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir o'tkazuvchi ichki va tashqi omillarni doimo bartaraf etib borish qoidasi.

15. Talabalarga «nega?» degan savolni tinmay berish yo'li bilan, ularda

sabab va oqibat orasidagi bog‘lanishni bildirib borish qoidasi.

16. Berilayotgan bilimning to‘g‘riligiga, bolalarda hech qanday shubha-gumon qolmasligi va uni esdan chiqmasligi uchun bilimni asos va dalillar bilan berish qoidasi.

17. Haqiqiy bilimga ega bo‘lgan deb, uni qaytarib aytib berganga emas, balki bu bilimni amaliyotda qo‘llay olganga aytiladi, degan qoida.

18. Doimo talabalar qiziqish va ehtiyojlarini o‘rganib borib, ularni jamiyat ehtiyojiga moslashtirib borish.

19. Bolalardagi kuzatuvchanlikni rivojlantirib, hayotdagi voqeliklarni ilmiy asoslab berish yo‘li bilan ularda onglilikni kamol toptirish qoidasi.

20. Talabalarga shunday bilim berish kerakki, bu bilimlar ularda qat’iy ishonch hosil qilib, harakat uchun dastur vazifasini o‘tash qoidasi.

21. Hech qachon o‘qituvchi aytganlarini qaytarish, birovlardan ko‘chirish va aytib turish hollariga yo‘l qo‘ymaslik bilan, o‘quvchi-talabalarni mustaqil fikrlashga va harakat qilishga o‘rgatish qoidasi.

22. Berilayotgan bilimni har tomonlama taxlil qilib berish yo‘li bilan bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish qoidasi.

23. Talabalarni faollashtirish va rag‘batlantirish uchun doimo savollar berib, ularga javobni chidam bilan tinglash qoidasi.

Ko‘rgazmalilik tamoyili. Bu eng hammaga ma’lum va tushunarli bo‘ladigan tamoyillardan biri bo‘lib, u qadimiy zamonlardan qo‘llanilib kelingan. Buning asosida quyidagi qonuniyatlar yotadi: birinchidan, ko‘rish va eshitish orqali olingan axborotlar miyaga turlicha ta’sir etib, turlicha xotirada saqlanadi. Qisqacha qilib aytganda, ko‘z bilan ko‘rganda quloq bilan eshitgandagiga nisbatan besh barobar ko‘p axborot olinib, uning miyada saqlanish darajasi ham yuqori. Ikkinchidan, ko‘zdan borgan axborot qayta ishlashga muhtoj emas.

Ta’lim amaliyoti bu tamoyilni amalga oshirishning bir qator qoidalarini ishlab chiqqan.

1. O‘qitish jarayonida, ko‘rgan narsa eshitganga nisbatan bir necha barobar tez o‘zlashtirilib, uzoq muddatga esda saqlanib qolishligini doimo yodda

tutish qoidasi.

2. Bolalar shakl, rang, his qilish va tovush orqali fikr yuritishlarini bilish qoidasi.

3. O'quvchilarning, kishi nimaiki narsani tasavvuriga keltirish mumkin bo'lsa, ko'ra olsa, eslab ko'rsa, eshita olsa tafakkur qilinadi degan oltin qoidasini bilish.

4. Hech qachon ko'rgazmani asosiy maqsad qilib olmaslik, ko'rgazma maqsad emas, maqsadga yetish vositasi sifatida bilish qoidasi.

5. Bilim berish va bu bilimlarni bolalar ko'nikmasiga aylantirish jarayonida, barcha tushuncha va mavhumliklar, ular tafakkuriga faqat asos, dalil, misol, timsol va qiyofalar orqali tez yetib borishini anglash qoidasi.

6. Ko'rgazmalardan, faqat narsalarni ko'rsatish uchun foydalanmay, ulardan muammoli vaziyatlarni shakllantirishda ham foydalanish qoidasi.

7. Ko'rgazma faqat axborot beribgina qolmay, o'rganilayotgan narsa va hodisa to'g'risida to'g'ri tasavvur hosil qilishligini bilish qoidasi.

8. Ko'rgazmani ko'rsatayotganda ma'lum bir tartib bilan ko'rsatish yaxshi natija berishini tushunib yetish qoidasi.

9. Ko'rgazmani ko'rsatayotganda avval butunlay, so'ng ularni qismlarga bo'lib ko'rsatib, undan keyin yana butunlay ko'rsatishga e'tibor berish qoidasi.

10. Turli ko'rgazmali qurollardan foydalanish yaxshi, ammo ularning miqdori haddan ziyod bo'lib ketsa, bolalar xayolini yoyib yuborishligini bilish qoidasi.

11. Ko'rgazmani ko'rsatayotganda bolalarning avvaldan egallagan hissiy bilimlaridan unumli foydalanish qoidasi.

12. Eng yaxshi ko'rgazma bolalar o'zi tayyorlagan ko'rgazma ekanligini bilgan holda ko'rgazmani iloji boricha bolalar bilan birga tayyorlash qoidasi.

13. O'zingiz yaxshi bilmagan narsani hech qachon bolalarga ko'rsatmaslik qoidasi.

14. Yangi texnik vositalar — o'quv televideniyesi, video, kompyuter va boshqalardan foydalanilayotganda, avval o'qituvchining o'zi uni yaxshi

o'zlashtirib olishlik qoidasi.

15. Ko'rgazmali qurollardan foydalanilayotganda, bolalar diqqatini, fikrlash madaniyatini, konstruktiv fikrini va o'qishga qiziqishini tarbiyalash qoidasi.

16. Qo'rgazmani, nazariy bilimni hayot bilan bog'lashda foydalanish qoidasi.

17. Kabinet tizimidan foydalanilayotganda ko'rgazma usulidan foydalanish imkoni kengayadi, shuning uchun ko'rgazmalarni ko'rsatish tartibini albatta rejalashtirish qoidasi.

18. Ko'rgazmali qurollardan foydalanilayotganda, bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqish qoidasi.

19. Ko'rgazma juda ham kuchli ta'sir etuvchi vosita bo'lib, u bolalar xayolini o'ziga qattiq jalb qilib, dars mavzuining asosiy maqsadidan chalg'itishi mumkinligini anglash qoidasi.

20. Ko'rgazmadan haddan ziyod foydalanish, bolalarda abstrakt tafakkur rivojiga to'siq ham bo'lishi mumkinligini bilishqoidasi.

Tizimlilik va muntazamlilik tamoyili. Bu tamoyil quyidagi ob'ektiv qonuniyatlarga suyanadi:

- inson, faqat tashqi dunyoni o'z tafakkurida aniq aks ettirgandagina, haqiqiy va faol bilimlarga ega bo'la oladi;

- kishi tafakkurida ilmiy bilimlar tizimini shakllantirishining asosiy usuli, maqsadga yo'naltirilgan rasmiy ta'limning tashkil qilinishi;

- rasmiy ta'limning tashkil qilinish tartibi, o'quvchilar imkoniyati va beriladigan bilimning ichki mantiqiy tuzilishidan kelib chiqqanligi;

- bilim berish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi tufayli, bilim berish samarasi, bu bosqichlar orasidagi vaqtning qanchalik qisqa bo'lishligiga bog'liq, bosqichlar orasi dagi masofa vaqt jihatdan haddan oshib ketsa, bilim berish samara bermaydi;

- agar bilim va uning negizida shakllangan ko'nikmalar mashq orqali takrorlanib turilmasa, bilim va ko'nikma yo'qolib ketadi;

- bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatilgan bo'lmasa, ular doimo fikr yuritishda qiyinchiliklarga duch keladilar;

- o'qitishda tizimlilik va muntazamlikka amal qilinmasa, ta'lim-tarbiya jarayoni susayadi.

Pedagogik amaliyotda bu tamoyilning ishlashi quyidagi qoidalar orqali amalga oshiriladi.

1. O'quvchilar tomonidan bilimlar tizimi to'liq o'zlashtirib olinishi uchun beriladigan bilimlarni mantiqiy tugallangan bilim bo'laklariga ajratib o'qitish.

2. Mazmunini to'liq ochib berishga ko'zingiz yetmagan biron-bir savol va muammoni dars rejasiga kiritmaslik.

3. Mantiqiylikni hech qachon buzmaslik, buzilgan taqdirda o'zlashtirilmaslikning oldini olish uchun uni darrov bartaraf etishlik.

4. O'quv fani — katta bir fanning kichraytirilgan modeli ekanini tushuntirib, fanlararo bog'liqlikni ko'rsatib berishlik.

5. Nazariy bilimlarning o'zlashtirilishi to'g'ri ketayotganini doimo tekshirib borishlik: o'rganilayotgan ob'ekti, predmeti, nazariy asoslari, asosiy tushunchalari, nazariyasi va uning qo'llanishi chegaralarini doimo eslatib, ularning bajarilishini tekshirish.

6. Doimo esda tutish lozimki, kunda eshitib, go'yoki yaxshi bilgan narsani tushuntirib, ilmiy asoslab berish qiyin bo'ladi. Shuning uchun bolalardagi avvalgi bilimlari va mantiq usullaridan doimo foydalanish zarurligi.

7. Boshlang'ich, umumta'lim va oliy ta'lim bosqichlaridagi bilim mazmuni va uni berish usullari orasidagi muvofiqlikni saqlash.

8. O'qitishning ilg'or usullaridan doimo foydalanish.

9. O'qitishda tizimlilikni va muntazamlilikni saqlash uchun, avval o'tilgan bilimlarni doimo qaytarib turish.

10. O'tgan bilimlarni qaytarish usulidan, faqat dars boshida va uni yakunlayotganda foydalanib qolmay, har bir bilimni tushuntirilayotganda ham undan foydalanish.

11. O'tgan bilimlar bilan tez kirishib ketuvchi yangi gaplardan boshqa yangi fikrlarni bildirmaslik.

12. O'quvchilar til savodxonligini faqat til o'qituvchilari kuzatib boribgina qolmay, barcha o'qituvchilar ham bu ishni bajarishlari lozimligi.

13. Sabr va chidam bilan hamda uzluksiz ravishda bodalarni mustaqil fikr yuritishga va bilimlarni mehnat qilib topishga o'rgatish.

14. Bolalarga o'qishning istiqbolini doimo eslatib turish.

15. Har bir bo'lim oxirida, albatta, umumlashtiruvchi mashg'ulotlarni amalga oshirish.

16. Bolalar javobida uchrab turadigan xatolarni doimo tuzatib borish.

17. Charchab qolgan bolalar faoliyatini hech qachon sun'iy ravishda faollashtirishga harakat qilmaslik, faollashtirishda bolalar jismoniy va aqliy imkoniyatidan kelib chiqish.

18. Bolalardan egallagan bilimiga ko'nikma va malaka hosil qilishni talab qilish.

19. Esda saqlash lozimki, majmuga tushgan bilim esdan chiqmaydi. Esdan chiqib qolsa, majmu orqali uni darrov esga tushirish oson.

20. Ya.A. Komenskiyning — hamma narsa uzluksiz ketma-ketlikda olib borilishi kerak, bugungi aytganlaringiz kechagisini mustahkamlashi va ertangi aytganingizga yo'l ochib berishi kerak— degan nasihatini unutmazlik qoidasi.

Mustahkamlik tamoyili. Bu tamoyilda barcha ilg'or o'qituvchilar va pedagog olimlarning ko'p yillik izlanishlari o'z ifodasini topgan. Unda nazariy bilimlar bilan emperik bilimlar birlashib mustahkamlangan.

Bilimlarni mustahkam egallash jarayoni juda murakkab bo'lib, keyingi yillardagi tadqiqotlar bu jarayonga o'zgarishlar kiritdi. Bilimni mustahkam egallash jarayonini shu kundagi tushunilishi, bu jarayonga quyidagi yangi qoidalarni kiritishni taqozo etdi.

1. Bugungi kungi ta'limda fikr yuritish eslab qolishdan ustunlik qilishi isbotlangan. Shuning uchun bolalar aqliy quvvatini tejash maqsadida, ulardan keraksiz va kam e'tiborli narsalarni eslab qolishiga kamroq e'tibor berib, uning

hisobiga fikr yuritishga ko‘proq kuch sarflashiga yordam berish.

2. Bolalar tushunib yetmagan yoki noto‘g‘ri tushunib qolgan narsalarni eslab qolmasliklariga e‘tibor berish lozim. Bola faqat yaxshi tushunib yetib, uning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilgan narsasini xotirasida saqlash.

3. Bola xotirasini kam e‘tiborli axborotlarni eslab qolishdan holi qilish maqsadida, ularni turli lug‘at va ensiklopediyalardan foydalanishga o‘rgatish.

4. Eslab qolinadigan narsalarni nihoyatda qisqa qilib, yod olishga oson bo‘lishi uchun, ravon, iloji bo‘lsa she‘r vazniga solib turib esda saqlashga bolalarni o‘rgatish.

5. Esdan chiqarish bilimni egallab olgandan keyin tez kechishini hisobga olgan holda, ularni psixologiya fanining esda saqlash qoidasi asosida xotirada saqlashga yoshlarni o‘rgatish.

6. Yod olishni uyga vazifa qilib bermay, uni shu narsaga qiziqtirib qo‘yish va vaqti-vaqti bilan bu qiziqishni yangilab turish.

7. Takrorlash mashqlarini bola yangi bilimni egallagan paytdan boshlash. Chunki bu narsalar keyin esdan chiqib ketishi aniq.

8. Bola diqqatini susaytiruvchi ichki va tashqi omillar faoliyatiga yo‘l qo‘ymaslik. Dangasalik kasali bilan tinmay kurash olib borish, bilim olish sur‘atini pasaytirmaslik.

9. Beriladigan bilimga qiziqish va ijobiy munosabatni shakllantirmasdan turib, yangi bilim berishni boshlamaslik. Zo‘rlab berilgan bilim bola xotirasida uzoq saqlanmasligini unutmaslik.

10. Bilimni egallash sur‘ati pasaya boshlashi bilan uning sababini aniqlash va bartaraf etish. Odatda, bilim olish sur‘atining pasayishi charchagandan keyin paydo bo‘ladi.

11. O‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda darsni qaytarish eslab qolishning muhim omili ekanini unutmaslik va o‘zini o‘zi tarbiyalashga katta e‘tibor qaratish.

12. Qaytarish darslarini shunday tashkil qilish kerakki, u faqat bilimni xotirada tiklashga hizmat qilmay, fikr yuritishga ham foydasi bo‘lsin. Shuning

uchun qaytarish darslarini asosiy dars tizimida o'tmay, uning hajmini yo ko'paytirish, yoki kamaytirish.

13. Berilgan bilim xotirada mustahkam saqlanishi uchun, uni qiziqarli qilib, ko'rgazmali qurollardan foydalanib turib berish.

14. Yangi beriladigan bilim xotirada mustahkam qolishi uchun, uni avvalgi bilim bilan bog'lab berish.

15. Bilimni mantiqan bir butun qilib berishga o'rganish.

16. Oson va bir turdagi topshiriq berishdan tiyilish, ular bolalarga qiziq bo'lmay ularni toliqtiradi.

17. Mashqlar o'tkazishdan oldin, ularning bajarilish tartibi va natijasi to'g'risida ma'lumot berish.

18. Mashq davrida bolalarni charchab qolishdan saqlash.

19. Hozirgi zamon nazorat usullaridan to'g'ri foydalanish.

20. Bolalarni o'z mehnatini nazorat qilish va baholashga o'rgatish.

Tushunarlilik tamoyili. Bu tamoyil bir tomondan, didaktikaning boshqa tamoyillarining talablaridan, ikkinchi tomondan, talabalar yosh xususiyatidan, uchinchi tomondan, ko'p yillik pedagogik tajriba asosida yaratilgan.

Bu tamoyil zaminida tezaurus qonuni yotadi. Bu qonun bo'yicha — kishiga bilim faqat uning tezaurusiga mos kelganigina tushunarli bo'ladi. Tazaurus lotinchada «xazina»ni bildiradi. Ma'nosi, ***kishining to'plagan bilimi, ko'nikma va fikrlash uslubi uning tezaurusini tashkil qiladi.***

Boshqa qonuniyatlarni ham ko'rsatishimiz mumkin: beriladigan bilimning tushunarliliigi, uni egallayotgan bolaning yoshi individual xususiyatlariga bog'liq; tushunarlilik bilim berishni tashkil qilishga va unda qo'llaniladigan bilim berish usul va uslublariga bog'liq; bilimning tushunarliliigi o'quvchining saviyasiga va bilim sifatiga bog'liqligi; bilimni tushunarliliigi uni berilish sur'atiga bog'liqligi va hokazo.

Ya. A. Komenskiy shakllantirgan quyidagi qoidalar mavjud: osondan qiyinga, ma'lumdan noma'lumga va oddiydan murakkabga. Shu zamonning

pedagogik nazariya va amaliyoti tushunarlik tamoyilini qo'llanish qoidalarini kengaytirdi va boyitdi. Ular quyidagilar:

1. Bilimni bolaning yoshiga qarab berish.
2. Bola tafakkuri berilayotgan bilimga tayyorlangan bo'lishi shart.
3. O'qitayotganda bolaning tayyorgarlik va rivojlanganlik darajasiga qarab bilim berish.
4. Bolaning individual qobiliyatidan kelib chiqib bilim berish.
5. Bilim berish sur'ati o'rtacha olib borilishi shart.
6. Bilim berishda, muayyan kuchlanishning hosil bo'lishini esda saqlash. Bu kuchlanish oshib ketsa, bolalar toliqib, kuchlanish pasayib ketsa, bolalar zerikib qolishini bilish.
7. Psixologiya va pedagogikaning yangi kashfiyotlaridan unumli foydalanish, kichik qadamlardan asta-sekin katta qadamlarga o'tish yo'li bilan ta'lim jarayonini intensivlashtirish.
8. Yangi dars o'tishda bilimi kuchli talabalardan va darsni mustahkamlayotganda bilimi o'rta va kuchsiz talabalardan foydalanish.
9. Berilayotgan bilimlarning qarama-qarshi tomonlarini ham tushuntirib, talabalarining bilim olishini osonlashtirish.
10. Talabalarga eng qiyin singadigan bilimlar tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonunlaridir. Shuning uchun muayyan fanni o'qitayotganda ustalik bilan ularni qo'shib tushuntirib ketish.
11. Sekinlik bilan shoshish! Ta'lim-tarbiya jarayonini asossiz tezlashtirmaslik va susaytirib yubormaslik.
12. Talabalarning oraliq-yakuniy fikrlarini «bildi»ga yo'ymasdan, ulardan fikrni davom ettirish uchun foydalanish.
13. Tushunarlik o'qituvchining so'zlarini yuqori hissiyot va har bir so'zni asoslab berilganligi bilan ham belgilanganligi.
14. Uzoq maruzalardan qochish.
15. O'qitishning bosh qismida faqat asosiylarini aytib o'tish bilan kifoyalanish.

16. «Yomon o'qituvchi haqiqatni aytib qo'ya qoladi, yaxshi o'qituvchi bu haqiqatni topishni o'quvchilarga o'rgatadi» iborasini unutmaslik.

17. Tushunarli qilib dars o'tish, butun bilimni talabalarga sodda tilda tushuntirib berish yoki bu bilimlarni topishni tushunarli qilib aytib berishda emas, balki kalavaning uchini ushlatib qo'yib, bilimni sekin-asta chiqib kelishini ko'rsatish, ularni rag'batlantirib turish va hokazo tadbirlarga aytiladi.

Ilmiylik tamoyili. Bu tamoyil asosida bir qator qonuniyatlar yotadi. Jumladan:

- dunyoni o'rganib bo'ladi va insoniyat aniqlagan va amaliyotda sinab ko'rilgan qonuniyatlarni o'rgansa bo'ladi;
- ta'lim-tarbiya jarayoni — ilmiy faoliyat orqali to'plangan, ob'ektiv olam to'g'risidagi ma'lumot tizimini o'sib kelayotgan avlodga bildiradi;
- ilmiylik — beriladigan bilimlar ma'lum bir ketma-ketlikda berilishini taqozo etadi;
- ilmiylik yana berilayotgan bilimning hozirgi zamon ijtimoiy va ilmiy-taraqqiyot darajasiga mosligi bilan hamda tuzilgan dastur va ishchi rejaga mos bo'lishligi bilan ham belgilanadi.

Didaktika bu tamoyilni amaliyotga qo'llashlikning bir qator qoidalarini ishlab chiqqan.

1. Pedagogik amaliyot bilan shug'ullanganda pedagogika, psixologiya hamda dars berishning usul va uslublarining eng ilg'orlaridan foydalanish.

2. Hozirgi zamon didaktika va psixologiya fanlarining ko'rsatmalari bo'yicha dars berganda, mantiqning faqat induktiv usulidan foydalanibgina qolmay, deduktiv usulidan ham bema'lol foydalanish.

3. Boshdanoq o'quv fanining ichki mantig'ini ochib berishga intilish.

4. Talabalalarda narsa va hodisalarga dialektik yondashuvni shakllantirish maqsadida, har bir bilimni berishda uning ichki dialektikasiga ahamiyat berish.

5. «Qaytartarilmasa esdan chiqadi», degan qoidadan kelib chiqib, har bir darsda yangi bilimni takrorlab turish.

6. Qonuniyatlarni tushuntirayotganda, ularni tashqi — muhit, vaqt, eskilik va yangilik orasidagi tafovut hamda ichki sharoitlarga bog‘liqlikda tushuntirish.

7. O‘qitganda izlanuvchanlik hissiyotini rivojlantirish.

8. Muayyan qonuniyatni tushuntirishda, uni kashf etgan olimning qisqacha tarjimai holini gapirib berish.

9. Bilim berishda, uning tadqiq qilingan usullarini ham aytib, bolalarda tadqiqot usullaridan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

10. Dars o‘tganda atama, ta’rif va tushunchalarning eskilariga tanqidiy yondashib, eng yangilaridan foydalanish.

11. Bilim berishda tarixiylik qoidasidan kelib chiqib, berilayotgan bilimning kashf qilinish tarixini aytish.

12. Fan bilimlarini berishda, ular ichidan asosiylarini ajratib, fandagi ustuvor yo‘nalishlarini ham ko‘rsatib o‘tish.

13. Yuqori sinf, akademik litsey, kollej, va ayniqsa, oliy o‘quv yurtlarida fandagi bahsli o‘rinlarini aylanib o‘tmaslik.

14. Bolalarning tadqiqotchilik faoliyatini rag‘batlantirib borish.

15. Yangilik topishga keng imkoniyat yaratib berish.

Nazariya va amaliyot birligi tamoyili. Bu tamoyil falsafaning bilish nazariyasining markaziy qoidasiga asoslanadi. Unda, bilishning birinchi va asosiy nuqtai nazari — bu hayotning va amaliyotning nuqtai nazaridir, deyiladi. U quyidagi qonuniyatlardan kelib chiqadi:

- har qanday bilimning to‘g‘riligi amaliyotda sinalib, tasdiqlanadi;
- amaliyot — haqiqat mezon, bilishning manbai va tadqiqot natijalarining qo‘llanish ko‘lami;
- to‘g‘ri tashkil qilingan ta’lim-tarbiya hayotdan kelib chiqadi;
- ta’lim-tarbiyaning samaradorligi uning amaliyot bilan qanchalik bog‘liqligi bilan belgilanadi;
- bilim berishning samaradorligi. uning politexnik ta’lim bilan bog‘liqligi bilan belgilanadi;

- berilayotgan bilim hayot bilan qanchalik bogʻlansa, bolalardagi bilim egallash shunchalik ongli kechadi.

Bularning amaliyotda qoʻllanishi quyidagi qoidalar orqali kechadi.

1. Bilim va tarbiya berishda, bola ularning, oʻz hayotiga naqadar zarur ekanini bilib borishi.
2. Bilim berishda hayotdan bilimga yoki bilimdan hayotga qarab borish.
3. Bilim berishda, bu bilim hayotda zarur boʻlgani uchun kashf qilinganligini taʼkidlash.
4. Bolalarni eng yangi mehnat qurollari va mehnat munosabatlari bilan tanishtirib borish.
5. Bolalarning olgan bilimlarini amaliyotda albatta sinab koʻrishlarini talab qilish.
6. Maktabning ishlab chiqarish bilan bogʻliqligini amalda koʻrsatish.
7. Bilim berish jarayonini ishlab chiqarish yutuqlaridan misollar keltirish yoʻli orqali bilimni amaliyot bilan bogʻlash.
8. Dars berishda, bolalarning mehnat tajribalaridan kelib chiqish.
9. Ijtimoiy mehnat faqat dars jarayonidagi asosida amalga oshirilishi.
10. Aqdiy mehnatni jismoniy mehnat bilan olib borish.

Mavzu boʻyicha nazorat savollari

1. Pedagogikadagi qonuniyatlarni aytib bering.
2. Pedagogik qonunlarni aytib bering.
3. Pedagogik tamoyillar va qoidalar deb nimalarga aytamiz?
4. Onglilik va faollik tamoyilini sharqlang.
5. Koʻrgazmalilik tamoyilini tushuntirib bering.
6. Tizimlilik va muntazamlilik tamoyili nimani talab qiladi?
7. Mustahkamlik tamoyilini tushuntiring.
8. Tushunarlilik tamoyili nima va unda qancha qoidalar bor?
9. Ilmiylik tamoyilining asosini nima tashkil qiladi?
10. Nazariya va amaliyot birligi tamoyilini tushuntirib bering.

TA'LIMNING USUL VA USLUBLARI HAMDA DARSNI AMALGA OSHIRISHDA ISHTIROK ETADIGAN TEXNIK VOSITALAR

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi, u oldiga ma'lum maqsad qo'yib, so'ng unga tomon harakat qilishligini bilamiz. Kishi maqsad sari qiladigan harakati jarayonida muayyan tabiiy va sun'iy to'siqlarni, ya'ni qarshiliklarni yengib o'tadi. Bu to'siqlarni bartaraf etish uchun, u bir qator tadbir va choralardan foydalanadi. Demak, **maqsadga yetishishda qo'llaniladigan tadbir va choralar usul deyiladi**, deb qabul qilsak bo'ladi. Lug'atlarda ham shunday.

Maqsadga yetishda muayyan to'siqni yengib o'tish uchun qo'llaniladigan usullar bir qancha bo'lishi va ular ma'lum bir tartibda qo'llanishi ham bizga ma'lum. Shundan kelib chiqib, **maqsadga yetishda qo'llaniladigan usullar tartibini yo'l — uslub**, desak mantiqqa to'g'ri bo'ladi. Barcha lug'atlarda ham bu ta'rif shunday berilgan. Ammo pedagogik adabiyotlarda usul, uslub, metod va metodika tushunchalari tartibga keltirilgan bo'lmay juda erkin qo'llanilmokda.

Ta'lim-tarbiya uslub (metodika) larini tavsif qiladigan bo'lsak, u o'qituvchi bilan o'quvchi hamda o'quv dasturi va darslik, shuningdek, o'qitish vositalari orasida bilim berish va bilim olishni amalga oshiradigan o'zaro munosabatlarni tizimga soluvchi pedagogik tadbiridir.

O'qitish uslublari o'quv jarayonining tashkil qilishning asosiy qismi hisoblanadi. Tegishli uslublarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi.

Uslublar bilimlarni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab uchga bo'linadi: so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliy. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilish faolligiga munosib ravishda quyidagi uslublarni qo'llanishi mumkin: tushuntirish — illyustrativ (axborotli retseptiv), reproduktiv, muammoli bayon, xususiy izlanish yoki evrestik hamda yarim tadqiqot uslublari.

Talim faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayoni bilimni uzatish, uni qabul qilish, anglash, esda saqlash va amalda qo'llay olinishi nazarda tutadi.

Ta'limini og'zaki uslublari: hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar. Bu uslublarni qo'llashda o'qituvchi so'z vositasida o'quv materialini bayon qiladi, tushuntiradi, o'quvchilar esa tinglash, eslab qolish orqali qabul qiladilar.

Hikoya. Ushbu uslubda o'quvchilarga beriladigan bilim mazmunini og'zaki bayon qilish nazarda tutiladi.

Hikoyaning bir necha turi mavjud: hikoya muqaddima, hikoya bayon, hikoya-xulosa. Birinchisining maqsadi — o'quvchilarni suhbat orqali yangi bilimni qabul qilishga tayyorlash. Hikoyaning bu turi nisbatan qisqaligi, yorqinligi, qiziqarliligi va hissiyotga boyligi bilan ajralib turadi, yangi bilim olishga qiziqish uni faol o'zlashtirishga: ehtiyoj uyg'otadi, darsga befarqlik, loqaydlikni yo'qotib, bilim olish maqsadini hosil qiladi. Hikoya-muqaddima vaqtida o'quvchi faoliyatining vazifalari to'g'risida tushunarli shaklda xabar beriladi.

Hikoya bayon davrida o'qituvchi yangi mavzu mazmunini ochib beradi, muayyan rivojlanuvchi reja asosida bilim berib, ichidan muhimlarini ajratib, ko'rgazmali va ishonarli misollar bilan izchil bayon qiladi.

Hikoya-xulosa, odatda, mashg'ulotning oxirida keltiriladi. O'qituvchi bu uslub orqali asosiy fikrni yakunlaydi, xulosalaydi va umumlashtiradi, mazkur mavzu yuzasidan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beradi. Hikoya uslubini qo'llashda muayyan pedagogik usullardan ma'lum bir tartibda foydalaniladi. Bularga: diqqatni faollashtirish, bayon qilish, taqqoslash, asosiylarini ajratish, yakunlash va hokazolar kiradi.

Hikoya uslubining samaradorligining shartlari: rejani yoki loyihani qunt bilan o'ylab tuzish, mavzuning izchil yoritilishini ta'minlash, misol, ko'rgazma va boshqa didaktik materiallarni muvaffaqiyatli tanlash, bayonda kerakli hissiyotga erishish.

Ma'ruza — bilimni so'z bilan ifodalash uslublaridan biri sifatida beriladigan bilimlarni og'zaki bayon qilishni ko'zda tutib, o'z hajmining kattaligi, mantiqiy qurilishi, obrazli isbotlash, tasniflash, ta'riflar berish, tizimga keltirish, umumlashtirish kabi pedagogik usullardan foydalaniladi.

Ma'ruza uslubi, asosan, umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida, akademik litsey, kollej va oliy o'quv yurtlarida qo'llaniladi.

Ma'ruza rejasini aniq o'ylash yoki pedagogik texnologiya zaminida loyihalash talab qilinadi. Reja bndlari modullarining barchasida ularning har

birining maqsad va xulosalarini izchil bayon qilishda mantiqiy uyg'unlik bo'lmog'i kerak. Ma'ruza shunday sur'atda o'qiladiki, o'quvchilar uning muhim joylarini yoza olsinlar. Shuning uchun ham ma'ruzaning yozib olinadigan joylarini aniq ajratish, zarur bo'lsa yozib olishni yengillashtirish uchun hamda o'quvchilar fikrini faollashtirish maqsadida ma'ruza davomida muammoli vaziyatlarni shakllantirish yaxshi pedagogik samara beradi.

Suhbat uslubi atroflicha o'ylangan savollar yordamida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi suhbatni ko'zda tutib, u o'quvchilarning fikrlash tizimini yaygi tushunchalar va qonuniyatlarni o'zlashtirishga olib keladi.

Suhbat uslubini qo'llashda savollar qo'yish (asosiy, qo'shimcha, yo'lovchi va h.k.), o'quvchilarning javob va mulohazalarini muhokama qilish, suhbatdan xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi.

Savollar yaxshi qabul qilinishi uchun yetarli darajada hajmga ega bo'lishi lozim. Mavzuni haddan tashqari mayda savollarga bo'lib yuborish mantiqiy butunlikni buzsa, nihoyatda katta savollar mavzuni mavhumlashtirib, muhokama uchun tushunarsiz qilib qo'yadi.

Suhbat uslubi va unga tarkibiy qism bo'lib kiruvchi usullardan foydalanishda o'qituvchilarning samimiyligi, chehrasining ochiqligi, ruhining ko'tarinkiligi, ovozining yoqimlilik va samimiyligi yetakchilik qiladi.

Ta'limning ko'rgazmali uslubini shartli ravishda ikki kata guruhga ajratish mumkin: ko'rgazmali va namoyish qilish uslublari.

Ko'rgazmali uslub — o'quvchilarga ko'rsatilgan qo'llanmalar — xarita, plakat, doskadagi chizma va rasmlar, allomalarning surati va boshqalarni ko'zda tutadi.

Namoyish qilish uslubi, odatda, qurilma asboblari, tajribalar, turli tipdagi moslamalar va preparatlarni namoyish qilish bilan bog'liq. Namoyish qilish uslubiga, shuningdek, kinofilm, diafilm va boshqa texnik vositalar orqali ko'rsatish ham kiritilgan. Ko'rgazmali uslublarni qo'llashda quyidagi usullardan foydalaniladi: ko'rsatish, yaxshi ko'rinish ta'minlash, texnik vositalar ko'magidan

foydalanish, chizish, o'tkazilgan ko'rsatuvlar natijalarini muhokama qilish va hokazo.

Ta'limning ko'rgazmali uslublarining o'ziga xos xususiyati shundaki, ular yolg'iz o'zi qo'llanmay, so'z bilan ifodalash uslubi bilan u yoki bu darajada uyg'unlashib ketadi. So'z va ko'rgazmalilikning chambarchas bog'likligi shundaki, ob'ektiv borliqdagi qonuniyat va xususiyatlar amaliyotda birgalikda qo'llanilishini taqozo etadi.

Shunday qilib, so'z va ko'rgazmalilik uslublari aloqadorligining xilma-xil shakllari mavjud. Ularning birontasiga ustunlik berish xato bo'lar edi, chunki ta'lim vazifasining o'ziga xos xususiyati, mavzuning mazmuni, mavjud ko'rgazma vositalarining xarakteri, o'quvchilar tayyorgarligi darajasidan kelib chiqib, har bir konkret holatda ularning oqilona qo'shiluvi tanlanadi.

Amaliy uslublar tarbiya (o'rgatish) faoliyatining xilma-xil turlarining keng doirasini qamrab oladi. Unda ta'lim orqali olingan bilimlar hayotda qo'llash yo'li bilan ko'nikmaga aylantiriladi.

Amalda quyidagi usullar qo'llaniladi: vazifa (maqsad)ni qo'yish, uni bajarish uslublarini tanlash, bajarish jarayonini boshqarish, tahlil qilish, kamchiliklar sababini aniqlash, maqsadga to'liq erishish uchun tarbiya jarayoniga tuzatishlar kiritish.

Amaliy uslublarga yozma mashqlar — ona va chet tili, matematika va boshqa fanlar bo'yicha topshiriqni bajarish mashqlari kiradi. Mashq davomida o'quvchi bo'lajak xatti-harakatini faol mushohada qiladi, o'ziga o'zi gapiradi, bo'lajak voqeani sharhlaydi. Harakatni sharxlash o'quvchiga o'zining tipik xatosini anglashga va harakatga tuzatishlar kiritishga ko'maklashadi.

Amaliy uslublarning ikkinchi guruhini laboratoriya tajribalari tashkil qiladi. Shuningdek, amaliy uslublarga ustaxonalarda, o'quv-ishlab chiqarish sexi, o'quvchilar brigadasida mehnat topshiriqlarini bajarish ham kiradi. Bu topshiriqlar surunkasiga bo'lmay, o'quv-mashq xarakteriga ega bo'lishi lozim. Tarbiyaning shunday uslublari qo'llaniladiki, bunda o'quv jarayonida konkret bir korxonaning ishlab chiqarish topshirig'i bajariladi.

Amaliy uslublarga o'rgatuvchi mashinalar, trenajor hamda repetitor mashinalar yordamida mashqlar ham kiradi.

Amaliy uslublar so'z orqali ifodalash va uni ko'rgazmali uslublar orqali mustahkamlash jarayoni bilan chambarchas bog'liqlikda qo'llaniladi. Mashq, tarbiya, mehnat operatsiyasini bajarishdan oldin o'qituvchi ta'limiy tadbir o'tkazib, so'z bilan tushuntiradi va ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan uslublardan tashqari, ularning yig'indisidan tashkil topgan uslublar ham mavjud. Quyida ularning ba'zilarini misol tariqasida keltiramiz.

Muammoli izlanish uslubi muammoli ta'lim jarayonida qo'llaniladi. Bu uslubdan foydalanishda o'qituvchi, avvalo, muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo'yadi, masalalarni, namunaviy topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtiradi, xulosalarning to'g'ri yoki noto'g'riligini tahlil qilib beradi.

O'quvchilarning oldingi bilim va ko'nikmalariga asoslanib, muammoli vaziyatni hal qilish yo'llari to'g'risida takliflarni aytadi, muammoli vaziyatni yechishning eng oqilona yo'lini tanlaydi. Bu uslub o'quvchilarning bilimga qiziqishini oshiribgina qolmay, ularda fikrlash va o'z fikrini aytish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Ta'limning muammoli izlanish uslubi amalda bilimni so'zda ifodalab, ko'rgazmali va amaliy uslublar orqali tasdiqlaydi. Shu bilan birga, bilim olishning muammoli izlanish uslubini ko'llash, amalda tadqiqot ishlarini bajarish, hatto mustaqil tadqiqot tipidagi amallarni olib borish to'g'risida ham so'z yuritish mumkin. O'quv jarayonini muammoli qidiruv uslubi yordamida tashkil qilish, muammoli tuzilgan ma'ruza uslubi orqali bilim bayoni davomida mulohaza yuritish, isbotlash, umumlashtirish, faktlarni tahlil qilish kabi usullardan foydalanishni ko'zda tutadi.

Ta'limni muammoli qidiruv uslubida ko'rgazmali qo'llanmalar esda saqlanishni faollashtirish bilan bir qatorda, darsda muammoli vaziyatni yaratadigan namunaviy masalalarni qo'yish uchun ham ishlatiladi. Muammoli qidiruv uslubi

ko‘proq ijodiy bilim faoliyati ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida qo‘llaniladi. Shu nuqtai nazardan bu uslub o‘zini tadqiqot ishiga bag‘ishlangan yoshlarga bilim berishda as qotadi.

Uslublarning eng yangisi va eng samaradorlisi, bugungi kunda pedagogik texnologiya hisoblanmoqda. Bu uslubni qo‘llaganda dars loyihasi tuzib olinadi. Dars beruvchi loyihaga qattiq rioya qilishi shart.

Pedagogik texnologiya asosida dars loyihasini tuzishda, uning besh tamoyiliga rioya qilinadi.

Pedagogik texnologiya tamoyillarining birinchisi — muayyan o‘quv predmeti, katta modul yoki dars mavzusida kutilgan asosiy maqsadni shakllantirib olish.

Ikkinchi tamoyil — darsning umumiy maqsadidan va mavzuning ichki mazmunidan kelib chiqib, darsni kichik «modullarga» ajratib, har bir modulning maqsadini hamda modullar ichida hal qilinadigan asosiy masalalar tizimini aniqlab olishdir.

Uchinchi tamoyil — modullar ichida ko‘riladigan masalalarning ichidan asosiylarini tanlab olib, ulardan test savollari va ular asosida so‘rov varaqasini tuzib chiqish.

Mavzular asosan besh moduldan iborat bo‘lib, birinchi va to‘rtinchi modul darsni tashkil qilish va xulosalash qismlarini tashkil qilsa, beshinchi modul dars samaradorligini aniqlashdir. Shunda yangi bilimlarni berish 2 va 3 modullar zimmasiga tushmoqda. Ushbu modullardagi bilimlar ichidan muhimroqlarini ajratib olib, test savollari tuziladi.

To‘rtinchi tamoyil — maqsadga yetish uslub va usullarini tanlab, joyini belgilab olish. Pedagogika fani misolidagi mavzular o‘zining umumiyligi bilan ajralib turganligi sababli, unda asosan so‘z bilan tushuntirish va qisman illyustrativ uslublardan, shuningdek, kezi kelganda, muammoli-izlanish usulidan ham foydalaniladi. Muayyan mavzu oldiga qo‘yilgan maqsadlarga yetishish uchun yuqorida qayd qilingan uslublar ishlatiladigan aniq joyini aniqlab qo‘yishdir.

Beshinchi tamoyilda dars ichidagi modullar orasidagi uzviy bog‘liqliklarga hamda dars mazmunining fanlararo aloqalar asosida tuzilishiga e‘tibor qaratilishi shart.

O‘qitish usullari. Pedagogika amaliyotida o‘qitish usullarining juda katta boy merosi to‘plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o‘qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokazolar hisobga olinadi.

Forobiyning «Fan va san’atning afzalligi haqida»gi risolasida o‘quv jarayonini tashkil etishga va o‘qitish usullariga qo‘yilgan talablar ifodalangan. Olim o‘zining o‘qitish usullari haqidagi tushuntirishlarida o‘quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo‘llarini ham ko‘rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga shak-shubhasiz ishonitirish kerakligini uqtiradi.

Barcha alloma olimlar foydalangan o‘qitish usullarini bir necha guruhga ajratish mumkin. Bular: ko‘rgazmali tajriba usullari (Ibni Sino), bilimlarni bayon qilishning savol-javob usullari (Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy), ko‘nikma va malakalarni shakllantirish usullari (Forobiy, Al-Xorazmiy) va boshqalardan iborat.

O‘qitish usullarini tanlash o‘qituvchi darsda hal qilishi mo‘ljallangan masalaga bog‘liq bo‘ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil usullar qo‘llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashgirishtda yana boshqa xil usullar qo‘llaniladi. Darsning turli bosqichlarida puxta o‘ylash va samarali usullarni qo‘llash juda muhim. O‘qituvchi darsning eng boshida 4—5 daqiqa umumiy so‘rashni amalga oshiradi va o‘quvchilarning qaysi guruhi o‘tgan dars bo‘yicha yetarli darajada o‘zlashtirmaganini aniklaydi va keyingi so‘rashda sinfning diqqat etiborini eng avval ana shu masalaga qaratadi. Dastlab, savollarga batafsil javob bera oladigan talabalardan so‘raydi. Natijada sinfning bir qismi uchun murakkablik qilgan material tushunarli bo‘ladi. Bu usul o‘quvchilarning mashg‘ulotlardagi nuqsonlarini aniqlash va shu zahoti bartaraf etishda yordam beradi. Mazkur usulning samaradorligi ham ayni shunda.

Garchi har bir pedagogning ishida anchagina usul va uslublar mavjud bo‘lsada, ularni qo‘llashdan ko‘zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining galmiy

ishlarini faollashtirish bo'lmog'i lozim. O'qituvchi-pedagogning vazifasi samarali usullardan foydalanib, talabalarla faollik sifatlarini tarkib toptirish va qiyinchiliklarni yengishga o'rgatishdir. Bu juda muhim bo'lib, o'quvchilarda o'qitilayotgan fanga bo'lgan, undan esa amaliy faoliyatga aylantiradi va o'qitish jarayonining ishini osonlashtiradi.

Hozirgi o'qitish jarayonida qo'yiladigan talablar va o'quvchilarda darsga qiziquvchanlikni oshiradigan, uni yangilik elementlari bilan boyitish uchun nima qilish kerak?

Hozirgi zamon ta'lim-tarbiya tizimi faqat insoniyat aniqlagan bilimlarni o'zlashtirishnigina emas, balki jamiyat endi hal qilishi hamda bunda bugungi talaba va o'quvchilar qatnashishi lozim bo'lgan masalalar bilan tanishishni ham talab qiladi. Bunday masalalar kosmosni o'zlashtirish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, cho'llarni hosildor yerlarga va bog'-rog'larga aylantirish, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish va hokazolardan iborat bo'lishi mumkin. Xalq xo'jaligi va fanning hamma sohalarida juda katta burilishlar ro'y bermokda va har bir o'qituvchi o'zining tarbiyalanuvchilarini o'zi o'qitadigan fan sohasi bo'yicha navbatdagi qayta qurilishlar va erishilgan yutuqlar bilan keng tanishtirishi kerak. Bu ishni o'quvchilarga mos usulda va o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirishi lozim.

Mazkur talabning ikkinchi xususiyati pedagogning talabalar fikr doirasini kengaytirish to'g'risidagi doimo g'amxo'rlik qilishidir.

Shunday qilib, o'qitish usullari pedagog va talabalar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan tadbirdir. Unga quyidagi muayyan talablar qo'yiladi.

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan usuli o'quvchilarning dialektik qarashlari, ijobiy xususiyatlari va xulqining shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtai nazaridan usul tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.

2. O'qitish usulining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur usul orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal

qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo‘lmasligini ko‘ra oladi.

3. O‘qitishning tizimlilik uning samaradorligini belgilaydi.
4. O‘qitish usulining tushunarligi: o‘qitishning usuli o‘quvchi uchun qabul qilinishi va qo‘llanishi, o‘quv materialini o‘rganishning usuli esa bilimlarni o‘zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo‘lishi shart.
5. O‘qitishning onglik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.
6. Bilimlarning puxtaligi va asosligi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.
7. O‘qitish usulida nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqligiga erishmay ham dars o‘tib bo‘lmaydi.

Har qanday usuldan biror maqsadga erishish ko‘zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo‘yishni, unga erishish bo‘yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. Har qanday faoliyat uning ob‘ektini bilishni talab qiladi. Nihoyat, usul maqsadga olib borishi kerak, aks holda, u qo‘ygan maqsad uchun yaroqsizligi yo bo‘lmasa, bu holatda uning umuman noto‘g‘ri qo‘llanganligani e‘tirof etish lozim. Shunday qilib, har qanday usul uni qo‘llashdan ko‘zlagan maqsadni, shu maqsadni amalga oshirish faoliyatini va faoliyatni bajarish vositalarini talab qiladi. Bu vositalar faoliyat ob‘ektini to‘g‘risidagi predmetli yoki aqliy bilimlar, quyilish maqsadga albatta erishishdan iborat bo‘lishi mumkin. Bularning hammasi xar qanday usulga nisbatan maqsadga muvofiqdir, lekin o‘qitish usullari uchun yetarli emas.

O‘qitish usullarini quyidagilarga bo‘lish mumkin:

- tafakkur, xotira, diqqat na xayolning alohida operatsiyalarini tarkib toptiradigan va faollashtiradigan usullar;
- fikrlash faoliyatida muammoli va izlanishli vaziyatlarni vujudga keltiradigan usullar;
- talabalarning o‘quv materialini o‘zlashtirish bilan bog‘liq kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan usullar;
- nazorat va o‘quvchilarning o‘zini o‘zi nazorat usullari;

- o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o‘zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

So‘nggi yillarda pedagogika fani va pedagogik amaliyotda o‘qitish usullari muammosiga alohida e‘tibor berilmoqda. Shu muammo bo‘yicha anchagina tadqiqotlar olib borilmoqda, ilg‘or pedagogik amaliyotda o‘qitishning samarador usullari va ularning tizimlarini qo‘llashning talaygina yo‘llari topildi. Ammo ta‘lim-tarbiya jarayoniga qo‘yilayotgan yangi talablar o‘qitishning usullarini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

Yuqorida qayd etilganidek, ta‘limning mazmuniga qo‘yilayotgan yangi talablar — yosh avlodga xususiy fanlarning asoslari bo‘yicha yuksak ilmiy nazariy bilimlar berishdan iborat bo‘lib, bu ish nazariy bilish usullariga, shu jumladan, o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash, mantiqiy operatsiyalarni bajarish usullari bilan qurollantirishni tobora kuchaytirishni taqozo etmokda.

O‘qitish usullarining turlari juda ko‘p, ularning sonini aniq belgilab bo‘lmaydi. Ular pedagogik amaliyot davrida tinmay boyib boraveradi. Usullar o‘qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga qarab tasniflanadi.

Pedagogikada o‘qitish usullarini tasniflashga yagona yondashish mavjud emas. Hozirgi didaktikada o‘qitish usullarini bilimlar manbai bo‘yicha, didaktik maqsadlar bo‘yicha, bilish faoliyatining saviyasi bo‘yicha farqlash eng ko‘p tarqalgan.

Mavzu bo‘yicha nazorat savollari

1. Usul deb nimaga aytiladi?
2. Uslub deganda nimani tushunamiz?
3. Ta‘limning og‘aki uslublariga qaysilar kiradi?
4. Hikoya uslubining turlari?
5. Ma‘ruza uslubi qanday va u qaerlarda ishlatiladi?
6. Ko‘rgazmali uslublarni ta‘riflab bering.
7. Amaliy uslublarning turi?
8. Pedagogik texnologiyaning tamoyillari?

9. O'qitish usullari qanday guruhlarga ajraladi?
10. O'qitish usullariga qo'yiladigan talablar?

PEDAGOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI VA METODLARI

Fan yangilik va yangi faktlar bilan boyitib borilgan sari rivojlanadi.

Shuni yodda saqlash kerakki, har qanday fan taraqqiyoti amaliyotga suyangan holda rivojlanadi. Amaliy tajribalarni yangi sharoitga moslashtirishda yangi metodologiya asosida yangi fikrlar, g'oyalar yaratiladi.

Shu sababli:

- Amaliyotdan - nazariyaga
- Nazariyadan - amaliyotga prinsipi qo'llanadi.

Ilmiy tadqiqot ning asosiy kategoriyalari va tushunchalari.

Ilmiy ish - boshqalaridan o'z maqsadiga ko'ra farqlanadi va yangi ilmiy bilimni keltirib chiqaradi. Mana shu jarayonni olib borishda yangilik ishlab chiqiladi va uning nazariy asoslari yaratiladi.

Ammo fanda yangi faktni yaratish ancha qiyinchilikni tug'diradi, yaratilgan faktni nazariy va amaliy ahamiyatini isbotlash va ularni oldindan yangi jarayon ekanligini bashorat qilish ancha qiyinchilik tug'diradi.

Ilmiy ish - bu avvalo qat'iy rejaga asoslangan faoliyatdir. Garchand fanda tasodifiy ochilishlar mavjud bo'lsada, faqatgina oldindan rejalashtirilgan, zamonaviy jihozlar bilan ta'min etilgan tadqiqotlarga tabiat va jamiyatda o'zgarish qonuniyatlarini va chuqur o'zgarishlarni ochib beradi va asoslab beradi.

Ilmiy tadqiqot va uning bosh maqadi nazariyani shakllantirish asosida quyidagi talablarga qaratilishi zarur;

1. Faktlarni tahlillashtirish, klassifikatsiyalash va tizimlashtirish (sintezlashtirish);
2. Tabiatdagi real faktlarni taqdim etish va tushuntirish;

3. Yangi natijalarni oldindan ayta bilish va jarayonni rivojlanishini bashoratlash;

Metodologiya - zamonaviy fanni olib borishda uning qurilish prinsiplari, shakllari, ilmiy bilishning usullari faoliyati tushuniladi.

- Metodologiya – tadqiqot ishlarining komponentlarini shakllantirishda uning ob'ekti, predmeti, vazifalarini belgilash asosida ilmiy tadqiqot ishini ketma-ket olib borish, qo'yilgan maqsadni amalga oshirish vositasidir.

- Tadqiqot metodi (texnologiyasi) - tadqiqotning usullari o'zaro tizimi, metodlardan foydalanish qoidalari, usullari yig'indisi bo'lib, ularni qo'llash asosida pirovard natijalari olinadi.

Metodika o'rganilayotgan ob'ektni xarakteriga, metodologiyasiga, maqsad, ishlab chiqishda ishlatiladigan metodlar va tadqiqotchini umumiy tayyorgarlik darajasiga bog'liqdir.

Pedagogik tadqiqotning metodikasi va metodlar tizimi

Ilmiy izlanishlar olib borishning mantig'iga asosan ilmiy tadqiqot metodikasi ishlab chiqiladi. U o'z ichiga bir qator empirik va nazariy metodlarni oladi. Bir qator metodlardan foydalanish orqali tadqiqotning muammolari yechimida uni barcha aspekti va parametrlarini qamrab oladi.

Pedagogik tadqiqotlarni olib borishdagi metodlar metodologiyadan farq qilib, bu pedagogik jarayonlarni o'zini, u haqida ilmiy axborot olish, bog'liqlik qonuniyatlarini shu asosda ilmiy-nazariy bog'liqlik tizimi, munosabatlari o'rganiladi.

Ularni o'zaro bog'liqligini 3 guruhga bo'lish mumkin:

- Pedagogik tajribalarni o'rganish;
- Nazariy tadqiqotlarni o'rganish;
- Matematik metodlar;

Pedagogik tajribalarni o'rganish metodi

Pedagogik tajribalarni o'rganish metodi juda uzoq vaqtlardan beri o'rganib kelinayotgan metoddur.

U asosan, o'quv tarbiya jarayonida orttirilgan, qo'llanib kelinayotgan, yaxshi natijalar berayotgan metodlardandir.

Ular ilg'or tajriba sifatida o'rganiladi, ilgor tajribali va oddiy o'qituvchilar ishlari tahliliy o'rganiladi.

Ularni pedagogik ish faoliyatlarida o'quv jarayonidagi qiyinchiliklar, ayrim qarama-karshiliklar va mavjud muammolar o'rganiladi.

Ana shu pedagogik tajribalarni o'rganishda kuzatuvlar, suhbatlar, intervyu, anketalar, yozma ishlarni, grafik ishlar, o'quvchilarning ijodiy ishlari, pedagogik o'quv-me'yoriy xujjatlar o'rganiladi.

Kuzatish - pedagogik amaliyotda eng qulay, keng tarqalgan faktlarni aniqlovchi kuzatish **metodidir**.

Tadqiqot ob'ektini maxsus kuzatishlar orqali bo'layotgan jarayonlarni tabiiy holatda amalga oshiriladi.

Ilmiy kuzatuvlarni amalga oshirish oddiy hayotiy xolatlardagidan farq qiladi.

Ilmiy kuzatuv jarayonida:

- Vazifalar belgilanadi;
- Maxsus ob'ekt ajratiladi;
- Kuzatishni amalga oshirish sxemasi tuziladi;
- Kuzatuv natijalari yozib boriladi;
- Olingan natijalar qayta ishlanib, umumlashtiriladi;
- Ilgari olingan ma'lumotlar bilan natijalar solishtiriladi, natijani boshqa metodlarini qo'llab, tekshirib ko'riladi.

Ilmiy kuzatishlarning natijalari samarali kechishi uchun kuzatuv uzaytirilishi, sistemalashtirish, turli yondashuvlar, ob'ektiv umumlashtirilgan xolda qayta tekshirib ko'riladi.

Ammo ilmiy kuzatuvni amalga oshirishda olingan axborotlar doim ham ob'ektivlikni ta'minlayvermaydi. Shu sababli ham ko'pincha ilmiy kuzatuvlar ilmiy tadqiqotni boshlanishida qo'llanilib, uslubchilar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

So‘rov metodi - suhbat, intervyu, anketalashtirishdir. So‘rov - bu mustaqil va qo‘shimcha tadqiqot metodi bo‘lib, zaruriy axborotlarni olish yoki kuzatuv jarayonida to‘liq axborot olinmaganida qo‘llaniladi.

Suhbat ilgaritdan tayyorlangan rejalar asosida, tegishli savollarga, qayta tushuntira olishda ham qo‘l keladi.

U ko‘pincha erkin holda o‘tkaziladi. Javoblar yozib olinmasligi mumkin. So‘rov metodini boshqa ko‘rinishi ham mavjud bo‘lib, uni “intervyu” deb nomlanadi va ijtimoiy sotsiologiyada ko‘proq qo‘llaniladi. Intervyu olishda ilgaritdan tayyorlangan savollar asosida olinib, yozib olinadi.

Anketalashtirish - bu metod yordamida anketalar olinib, ommaviy materiallar to‘plash mumkin. Anketalar tarqatilib, yozma javoblar olinadi. Suhbat va intervyularni «yuzma-yuz», anketalar esa sirtidan olinishi ham mumkin.

Suhbatlar, intervyular, anketalar olish natijalari beriladigan savollarning ma'nosi va strukturasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Umuman suhbat, intervyu, anketalar asosan savollar yig‘indisi, to‘plamlardan iboratdir. Tuziladigan savollar tadqiqot mavzusidan kelib chiqib, uni maqsadi va vazifasi, kutiladigan natijalari xarakteriga moslangan bo‘lishi kerak. Ish davomida savolnomalarga tuzatishlar, o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

O‘quvchilar faoliyatidagi mahsulotlar; yozma ishlar, grafik, ijodiy nazorat ishlar, rasm, chizmalar, ayrim o‘quv predmetlari daftarlari ham katta rol o‘ynaydi. Ular asosida o‘quvchilarning shaxslari, ularni faoliyatdagi erishgan bilim, ko‘nikma, malakalari darajalari haqida ma'lumotlar olish mumkin.

Maktab xujjatlarini o‘rganish: o‘quvchilarning shaxsiy varaqalari, tibbiy xaritalari, sinf jurnallari, o‘quvchilarning kundalik daftarlari, pedagogik kengash rejasi, bayonnoma va uning qarorlari, metod-birlashma ishlari bilan tanishish asosida tadqiqotchi maktabdagi o‘quv jarayonini real xolatini o‘rganish va xulosalarga kelishi mumkin.

Undan tashqari, pedagogik tajriba-sinov, nazariy tahlil, induktiv va deduktiv, matematik-statistik metodlardan ham foydalanish mumkin.

Mavzu bo'yicha o'z-o'zini tekshirish uchun savollar:

1. Ilmiy tadqiqotning kategoriya va asosiy tushunchalarini aytib bering?
2. Ilmiy tadqiqot ni boshqa ishlardan farqlarini sanab ko'rsating?
3. Ilmiy tadqiqot deganda siz nimani tushunasiz?
4. Metodologiya nima, unga ta'rif bering?
5. Tadqiqot metodi deganda siz nimani tushunasiz?
6. Tadqiqot metodlari yo'nalishlarini aytib bering?
7. Tadqiqotni olib borishda pedagogik tajribalar qanday shaklda o'rganiladi?
8. Ilmiy kuzatish metodini mohiyati va mazmunini aytib bering?
9. So'rov metodini o'tkazish qanday tartibda amalga oshiriladi?
10. Anketalashtirish qanday amalga oshiriladi?
11. O'quvchilar faoliyati mahsulotlari qay tartibda o'rganiladi?
12. Maktabda o'quv-me'yoriy xujjatlar qanday o'rganiladi?
13. Pedagogik tadqiqotlarning yana qanday metodlari mavjud?

ILMIY ADABIYOTLARNI O'QISH

O'qishning turlari va qoidalari

O'qish - bu murakkab nutqiy faoliyatdir. Unda:

- Faqat texnik tomonlari - o'qish ko'nikmalarini hosil qilish, tez o'qish, ifodali o'qish, ovoz chiqarib o'qish, xayolan o'qish, ko'nikma-malakalarini hosil qilish.

- Ijodiy o'qish - siz uchun zarur va muhim axborotlarni topa bilish, ola bilish, to'play bilishdan iboratdir.

O'qish turlari: Uning ma'nosiga ko'ra bilish va darajasiga qarab ajratiladi:

- Ko'zdan kechirish orqali o'qish - umumiy tushunchalar hosil qilish uchun;
- Tanishish maqsadida o'qish - umumiy ma'no-mazmunini bilib olish uchun;
- O'rganish, o'zlashtirish uchun o'qish - zaruriy mazmunini yuqori darajada o'zlashtirish uchun.

Koʻzdan kechirish uchun oʻqishda koʻpincha tanishib chiqiladi. Bunda kitobni mazmuni, nomi, boblari, boʻlimlari va uning mualliflari bilan tanishib chiqiladi.

Koʻpincha koʻzdan kechirish uchun oʻqilganda kitobning titul varagʻi, mundarijasi, annotatsiya, ayrim koʻzga tashlangan xat boshilar va ilovalar bilan tanishiladi.

Shu koʻzdan kechirishdayoq u keltirilgan naqadar zaruriy axborot ekanligini belgilab beradi.

Tanishish (saylab) oʻqishlar ayrim savollarga javob olish, manbalarni belgilab olish, ularni boshqa axborotlarga qiyoslash asosida oʻz nuqtai nazaridan imkoniyatini beradi.

Oʻrganish, oʻzlashtirish uchun oʻqish faol oʻqish turi hisoblanadi. Bu jarayon diqqat bilan, toʻxtab-toʻxtab, oʻylab fikr yuritish bilan kechadi.

Oʻrganish uchun oʻqishning maqsadi - matnlardan eng zarur mazmun va fikrlarni oʻrganib olish;

- uning maqsadlarini;
- mantiqiy isbotlash xolatlarini;
- oʻz oldiga qoʻyilgan savollarga javob izlanadi;

Bu turdagi oʻqish, oʻrganish materiallarni mantiqiy ketma-ketlikda

- boʻlimlar;
- boblar;
- qismlar (boʻlaklar) va har biri boʻyicha oʻz shaxsiy fikrlarni hosil qilib,

axborotlarga shaxsiy tanqidiy fikrlarni bildirib borishni talab etadi.

Ilmiy adabiyotlarni oʻqish qoidalari

1. Oʻqish jarayoni fikr yuritish asosida, toʻlaqonli kechishi kerak.
2. Ilmiy adabiyotlarni oʻqish jarayonida quyidagilarga rioya qilinishi kerak;
 - Oʻqiganlarimizni tahlil qilib borish;
 - Sizga tanish boʻlmagan tushuncha va atamalarni ma'nosini tushuntirish;

- Siz uchun muhim bo‘lgan masalalarga javob topish;
- Zaruriy axborotlarga belgilar qo‘yish yoki markirovkalash.

3. Sizni ilmiy tadqiqotingizga as qotadigan materialni yozib olish, qiziq fikr, fakt, raqamlar, turli qarashlarni belgilab olish.

4. Siz tomoningizdan o‘qish vaqtida olingan axborotlarni tanqidiy baholay bilish, undan ilmiy tadqiqot ishingizda foydalanish.

Axborotlarni markirovka qilish yo‘llari

Siz uchun zarur

=> Biror narsani joylash

Axborotni qalam bilan tagiga chizish, izlash, topish

=> Biror belgini qo‘yish

Adabiyotlarni o‘qishdan bosh maqsad sizni tadqiqot ishingiz uchun zarur axborotlarni izlash, topish undan foydalana olish malakasini egallab olishdadir.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Ilmiy adabiyotlarni o‘qishdan ko‘zda tutilgan maqsadlarni sanab ko‘rsating?
2. O‘qish turlarini sanab bering?
3. Ko‘zdan kechirib o‘qishni izohlab bering?
4. Tanishish maqsadidagi o‘qish deganda nimani tushunasiz?
5. O‘zlashtirish uchun o‘qish deganda nimani tushunasiz va uni maqsadlarini sanab bering?
6. Ilmiy adabiyotlarni o‘qish qoidalarini sanab ko‘rsating?
7. Markirovka nima?
8. Biror ilmiy adabiyotni olib, uni strukturasini o‘rganib, o‘z fikringizni bayon eting?
9. Biror ilmiy maqolani (nomi, yo‘nalishi, rubrikatsiyasi, bo‘lim, mavzu, eng muhim masalani ko‘tarilishi, ko‘tarilgan muammolarni tahlil eting).

REFERATNING TUZILISHI.

Mazmuni, turlari, tayyorlash, rejasi, xujjatlashtirish

Maqsad: Referatni tuzish va tayyorlashni o'zlashtirish.

Referat - bir va bir necha manbalar asosida qisqa mazmunini, g'oyalarining yozma ko'rinishi. Manbalardagi materiallarni qiyoslash, taqqoslash asosida turli nuqtai nazardan qarash orqali bayon qilinadi.

Referat - mavjud material va turli manbalarning matnlarini interpretatsiya qilish.

Shu sababli ham referat konspektga nisbatan farq qilib, u yangi va mualliflik matnidir. Uning yangiligi shundaki, unda yangicha bayoniy, materiallar ma'lum tizimga solingan, unda muallif o'z pozitsiyasini turli nuqtai nazardan qarashlar asosida shakllantiradi.

Referatlashtirish - biror keng qamrovli masalani klassifikatsiya qilish, umumlashtirish, tahlil va sintezlashtirishni bir yoki bir necha manbalar asosida xujjatlashtirilishdir.

Referatning o'ziga xosligi:

- O'z ichiga keng qamrovli isbotlash, qiyoslash, muhokama yuritish, baholashni olmaydi.
- Matn mazmunidagi nima yangilikni o'z ichiga qamrab olganligi borligiga javob beradi.

Referatning ko'rinishlari

O'zining to'laqonli bayoniga ko'ra:

- Axborotli referat konspektlar
- Indiaktiv referat rezyume
- Referatlash miqdoriga ko'ra
- Monografik obzorli (umumiy)

Referat strukturasi

Bibliografik ko'rsatgichlar

F.I.O.

Ishning nomi, nashri, nashriyot, yil, sahifasi, soni

Referat matni

Referatlashtirilgan ish.

- Mavzu, muammo, predmeti maqsad va struktura
- Qisqacha mazmuni
- Aniq yakunlari
- Muallif xulosasi
- Ishning qo‘llanish sohalari

Referat yangi ma'lumotlarga e'tiborni qaratib, berilgan boshlang'ich matn axborotlariga suyaniladi.

➤ O‘quv predmetlariga qaratilgan referatlar quyidagi o‘quv natijalariga erishishga mo‘ljallanadi.

➤ O‘quv predmetining muhim nazariy masalalari bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish.

➤ Mo‘ljallangan mavzu bo‘yicha nazariy bilimlarni ijodiy yondashuv orqali amaliyotga tatbiq etish.

➤ Professional yo‘nalish - bunga chet el ilg‘or tajribalarini o‘zlashtirish, ularni o‘zimizni sharoitga moslab ularda amalda foydalanish, uni kelgusi kasbiga yo‘nalishida qo‘llay bilish.

➤ Adabiyotlardan turli manbalarni o‘rgana olish ko‘nikmasini hosil qilish va monografiya, mavsumiy matbuot nashrlarini tahlil qilish asosida o‘zi tanlab olgan mavzu mazmuniga kirita olish, olingan materiallarga tanqidiy qarash va ularning materialini savodxonlik bilan bayon etish, ulardan argumentli xulosalar chiqarish, takliflar kiritish.

➤ Yozma bayon qilish malakasini qo‘llash, ularni to‘g‘ri xujjatlashtira olish ko‘nikmasini rivojlantirish.

Referatda manbadan olingan materiallar aynan takrorlanmasligi, ulardan tayyor holda ko‘chirib olinmasligi kerak. Unda o‘rganilgan barcha manba

materiallari tahlil qilinishi, olingan mavzuga taalluqli materiallarni tanlab olinishi koʻzda tutilishi kerak.

1. Mavzuni tanlash.

Referat ustida ishlash boʻyicha instruksiyalar.

Kafedra tomonidan tayyorlangan mavzular taxminiydir. Siz oʻz shaxsiy qiziqishingiz asosida referat mavzusini mustaqil tanlaysiz. Unda siz oʻzingiz moyilligingizni ham hisobga olish yaxshi natija beradi. Tanlangan mavzuni asosnomasini yozib referat mavzusini taklif etasiz. Uni tasdiqlatishdan avval ilmiy rahbaringiz bilan maslahatlashib keyin taqdim etasiz.

2. Tayyorgarlik ishlari: asosiy manbalarni oʻrganish

Referat mavzusini tanlab boʻlgach quyidagilarni;

- Tanlab olingan mavzu bilan bogʻliq masalalarni oʻrganib chiqish:
- Ma'ruza materiallari bilan tanishish:
- Mavzu bilan bogʻliq adabiyotlarni yana koʻzdan kechirish, tavsiya etilgan adabiyotlarga e'tiborni qaratish, o'quv dasturlarini koʻzdan kechirish:
- Referat mavzu bilan bogʻliq adabiyotlarni institut, fakultet kutubxonasi kataloglaridan va shahardagi boshqa kutubxonalardan aniqlash.

Eng asosiysi mavzuni maqsadi va vazifasini ahamiyatini aniqlashtirib olish. O'quv va ilmiy adabiyotlarni o'rganish bilan birga ommaviy ilmiy davriy, matbuot materiallar bilan tanishib chiqish.

«Xalq ta'limi», «Uzluksiz ta'lim», «Tarbiya», «Pedagogik texnologiyalar», «Ilmiy to'plamlar» va boshqa ilmiy yoʻnalishli axborotlari, internet xabarlarini bilan tanishib chiqish.

Bu ishlar bilan tanishish davrida qonunlar, me'yoriy xujjatlar bilan Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasini mavzuga aloqador qarorlari bilan tanishish zarur boʻladi.

Barcha tanishilgan, oʻrganilgan ilmiy adabiyot, monografiya, xujjatlarni bibliografik koʻrsatgich roʻyxatlari shakllantiriladi.

3. Zaruriy materiallarni konspektlashtirish

Konspektlashtirish, rejalash, matnli, tematik, xronologik, obzorli va erkin ko‘rinishli turlaridan biri asosida amalga oshiriladi.

4. Ilmiy izlanish muammosini mantiqiylikini ishlash, referat rejasini tuzish

Referat rejasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Kirish;
- Asosiy qism;
- Xulosa;
- Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati;
- Ilovalar (referatning shart bo‘lmagan qismi).

Referat rejasi referat mazmunini, undagi muhim masalalarni, mavzuga aloqasi bo‘lgan matnlardan iboratdir.

Bu xolat referatni umumiy yo‘llanmasini, mavzu materialini ketma-ket bayonini, uni to‘g‘ri, mantiqiy mazmunini ochishga e‘tiborni qaratadi.

Yaxshi o‘ylangan reja – tanlangan materialni har bir punkt asosida tanlab olinishi asosida referatni muvafaqqiyatli yozilishiga sabab bo‘ladi.

Referatni asosiy qismini kichik savollarga bo‘lish va uni yoritish orqali aniq, mantiqiy ketma-ketlikda yozilishiga olib keladi.

5. To‘plangan materialni sistemaga keltirish va referat yozish

Referatni kirish qismida mavzuni dolzarbligi, nazariy va amaliy jihatlari asoslanadi.

Referatni maqsadi va vazifalari aniqlanadi. Agar referat monografik ko‘rinishda bo‘lsa (bitta manba yoki avtor matni). Kirish qismida:

1. Muallif haqida qisqa ma'lumot (ilmiy darajasi, uning mutaxassisligi va boshqalar);
 2. Mavzuning qisqa manbalari;
 3. Ishning maqsadi;
 4. Ishning matnini shakllantirish;
 5. Muallifning portreti va boshqalar.
- Asosiy qismda barcha masalalar o‘zining aksini topishi kerak.

- Asosiy qismning matni reja asosida band, kichik bandlar asosida yoritilishi, tushuncha barcha materiallarni mavzu mohiyati ochilishi kerak.

- Masalalar yoritilishida vazifa -> ishlanma -> xulosalar yozilishi kerak.

- Referatning yozilish shakllari:

14. Konspektlashtirish;

15. Fragmentlik;

16. Tahliliy; shakllarda bo'ladi.

Referat matnlarini so'z birikmalari va ayrim jumalari quyidagicha shakllantiriladi:

Ishda uning.....».....tizimi ko'rib chiqilgan.....».

Kitobda (F.I.O. muallif) «_____».....yoritilgan.

Kitobning kirish.....qismida.....ko'rsatilgan va yoritilgan».

Muallif.....deb hisoblaydi».

Muallif quyidagilardan kelib chiqib.....deb xulosalaydi».

Shu bilan birgalikda muallifning fikriga.....qo'shimcha qilish mumkin.

I qism quyidagi masalalarga bag'ishlangan.....

II qismda muallif quyidagi izlanishlarni olib borgan.....

«Muallif quyidagilarni ta'kidlab ularni quyidagicha bo'lishini.....uqtiradi».

«Ishda quyidagi masalalarga e'tiborni qaratadi.....»

Ishda quyidagi masalalarga alohida e'tibor berish zarurligiga to'xtaladi.

Muallif shunday hulosaga keladiki,.....larga e'tiborni qaratadi.

Ishning III bobida «quyidagi tadqiqot ishlariga e'tiborni qaratadi:..... ».

Muallif ish yakunida quyidagi xulosalarni chiqaradi.....».

Umuman referat bayoniy xarakterga ega bo'lmay, unda tahlillar asosida hulosalar, statistik ma'lumotlar, asosan mavzu maqsadi bilan bog'liq holda yoritilishi zarur.

Statistik ma'lumotlar, diagramma, grafiklar, rivojlanish dinamikasi shaklida keltirilishi mumkin.

Referatda keltirilgan barcha jadval, diagramma, grafik, sxemalar aniq nomlanishi va boshqa statistik ma'lumotlar va manbalarni keltirishi kerak.

Referatning qiymati shundaki, unda munozarali masalalarga turli nuqtai nazardan qaralishi, muhokama, hulosalar chiqarishlar olingan ma'lumotlar asosida mualliflarga e'tibor qaratilishi kerak.

Referatning yakuniy qismida aniq hulosalar chiqarilishi, olingan mavzu yuzasidan referatni qarashlari aniq, qisqa, lo'nda bayon etilishi kerak. Mavzu bo'yicha qaysi masala o'z yechimini topdi va yana qaysi masalalar bo'yicha izlanishlar olib borish zarurligiga to'xtalinadi.

6. Hujjatlashtirishni tashkil etish va adabiyotlar ro'yxatini tuzish

Adabiyotlar ro'yxati o'rnatilgan tartibda keltiriladi.

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.

2. Prezident farmon va qarorlari.

3. Vazirlar mahkamasi qarorlari.

4. Normativ akt instruktsiyalar.

5. Adabiyot, maqola, mavsumiy matbuot nashrlari.

6. Internet axborot manbalari. Bibliografik manbalar keltirilganda muallifni familiyasi, initsiali, kitobni nomi, nashr joyi, nashriyotning nomi, yili, agar maqola, jurnal va gazetalarda e'lon qilingan bo'lsa, uni yili va raqami ko'rsatiladi.

7. Matnni muharrirlik tuzatish. Matnni stilistik va savodxonlik holati

Referat savodli, imlo xatolarsiz va ko'rinishli bo'lishi kerak. So'zlarni qisqartirish, imlo, stilistik xatolarga yo'l qo'yilmaydi. Referat ilmiy rahbarga berilishidan avval har tomonlama tekshirilib, qayta ishlanib topshirilishi kerak.

8. Referatni hujjatlashtirish

Ilmiy rahbarga topshiriladigan referat kompyuterga 12 shrift bilan, 1,5 interval, A4 formatdagi standart qog'ozga chap tomondan 2,5 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va past qismi 2 smdan kam bo'lmagan holda kiritiladi.

Matnlar betlari ko'rsatilgan holda sahifalanadi. Sahifalash 3-betdan boshlanadi. 1 va 2 betlar titul varaqlar, ish rejalarini tashkil etadi (ularga raqam qo'yilmaydi).

Referatni hajmi 16-20 betdan oshmasligi kerak.

Referatning strukturasi

1. Titul varag'i;
2. Ish rejasi, har bir savolning hajmi ko'rsatiladi, kichik punktlar ham hisobga olinadi.
3. Kirish;
4. Materialning matn bayoni savollarga ajratiladi (punkt, punkt osti) savollarning javoblari manbalari ko'rsatiladi, mualliflari keltiriladi;
5. Xulosa;
6. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;
7. Ilovalar, jadval, diagramma, grafik, rasm va sxemalar shaklida beriladi. Ilovalar ketma-ketlikda sarlavhalari ko'rsatilib tikiladi.

Referat ilmiy rahbar va kafedra tomonidan tavsiya etilib, mezon asosida baholanadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Referatni maqsadi, mazmuniga qarab tavsiflang.
2. Referatni o'ziga xos tomonlarini sanab ko'rsating.
3. Referat qanday ko'rinishlarda bo'lishi mumkin?
4. Referat strukturasi aytib bering.
5. O'quv predmetlari bo'yicha referatlar qaysi maqsadlarni ko'zda tutadi?
6. Referat ustida ishlash bo'yicha instruksiyalarni aytib bering.
7. Referatning rejasi qanday tuziladi?
8. Referat uchun to'plangan materiallarni sistemaga solish nimalarni o'z ichiga oladi?
9. Referatni hujjatlashtirishga qo'yilgan talablarni sanab ko'rsating.

10. Ilmiy rahbar bilan maslahatlashib, referat mavzusini tanlab, o'rgangan talablaringiz asosida uni yozing va hujjatlashtiring.

ANNOTATSIYA

Annotatsiya nima, uning turlari, bibliografiyasi, shakllantirish.

Annotatsiya - biror nashrni qisqacha ma'lumotnomasi, hujjatni xarakteristikasi, bir qator xujjatlarni qisqacha mazmuni, shakli va nimaga qaratilganligini ko'rsatadi.

Annotatsiya birorta asosiy hujjatni nimalar haqida, nimalarga bag'ishlanganligiga javob beradi.

Annotatsiyalarning turlari

Mazmuni va qaysi maqsadga qaratilganligi

- Ma'lumot ko'rinishida tanqidiy xarakteristikasiz tavsiflash
- Tavsiyanoma ko'rinishida biror matnni xarakteristikasi bo'lib aniq auditoriya ehtiyojiga mo'ljallangan.

Mazmunini to'la qamroviga ko'ra:

- umumiy keng auditoriyaga mo'ljallangan.
- ixtisoslashtirilgan maxsus mutaxassislarga mo'ljallangan.
- guruhlariga (bir qancha bir-biriga yaqin mavzularni) o'z ichiga oladi.

Annotatsiyaning strukturasi

Bibliografik ko'rsatkichlar

2. Matn

F.I.O., ishni turi, nashr joyi, nashriyot, yil, sahifasi soni.

Nashr tipi, maqsadi va vazifasi, muallif tomonidan qo'yilgan maqsad, metodlari. Annotatsiya ishining strukturasi, mavzusi, predmeti, asosiy yo'nalishlari.

Umuman annotatsiyaning matni standartlashtirilmagan. Annotatsiya tuzishga qo'yiladigan asosiy talablar.

1. Boshlanish davridagi matnlar ichki kompozitsiyalarning mantiqiy tuzilishidan farqlanadi.

2. Annotatsiyaning harakteriga qarab axborotlar, ularni joylashtirish, ma'lumotlarni to'plab, jamlab shakllantiriladi.

3. Annotatsiyaning tili mantiqiy ketma-ketlikda, sodda va tushunarli holda yoziladi.

4. Dissertatsiyalarda annotatsiyalar bibliografik kartochkalar maqola tariqasida hujjatlashtiriladi, xat boshisiz beriladi.

5. Uning o'rtacha xajmi 5000 pechat belgida, ko'pincha 8000-10000 pechat belgi bilan belgilanadi.

Annotatsiyalarni tuzishda yo'l qo'yiladigan xato – axborotlarni ko'pligi, jummalarni uzundan-uzoq tuzilishi, davrlarni ketma-ket ko'rsatilishidir.

Kirish so'zlarini cho'zilishiga, uzundan-uzoq gaplar, murakkab tuzilishli fikrlardan kochish kerak.

Annotatsiyalar yozishda quyidagi so'z birikma va gaplardan foydalaniladi:

Masalan: «maqola yoki ishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratilgan.....».

«.....» lar ko'rsatib o'tilgan.

«Ko'p qismini.....» harakteristikasi o'rin olgan.

«Quyidagi masalalar bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan.....».

«Quyidagi masalalarga keng o'rin berilgan.....».

«Tadqiqotlar quyidagi muhim masalalarning yechimiga qaratilgan.....».

«Maqolada.....masalani mohiyati ochilgan.....».

«Muallif 1-marotaba.....ilmiy tavsifini bergan».

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Annotatsiya nima va u nimaga kerak?

2. Annotatsiya turlarini sanab ko'rsating.

3. Annotatsiyani strukturasini aytib bering.

4. Annotatsiyani tuzishga qo'yilgan talablarni sanab ko'rsating.

5. Bitiruv malaka ishiga, biror kitobga, magistrlik dissertatsiyasiga siz o'rgangan talablar asosida annotatsiya tuzing.

MAQOLA

Maqsad: Maqola yozish texnologiyasini o'zlashtirish.

Maqola – bu mustaqil kichik ilmiy asar bo'lib, biror dolzarb masala yuzasidan o'zining fikrlarini bayon qilishdir.

Maqola ustida ishlashning asosiy bosqichlari:

1. Mavzuni aniqlash, uning tahlili, rejasini, tezislarini tuzish.
2. Reja asosida (tezis) maqolani 1-varianti ustida ishlash.
3. Maqolani yozib tugatish, matnni tahlil qilish, tuzatishlar kiritish, takomillashtirish.

Maqola yozishga kirishishdan avval, o'zingizga quyidagi savollarni bering:

1. Materialdan qanday xulosalar chiqarishni ko'zda tutish kerak?
2. Ishning mazmuni nimalarni o'z ichiga qamrab oladi?
3. Maqola nima uchun yozilmoqda?

Siz o'z maqolangizdan nimani ko'zda tutishingiz aniq bo'lsa, masalaning yechimi osonlashadi.

Maqolaning strukturasi

I. Kirish qismi.

Mavzuni asoslash

Mavzuni dolzarbligi

Bosh tezis

Asosiy ilmiy mohiyati

Mavzuga kirish yo'nalishlari:

- Ko'tarilayotgan mavzuni retrospektiv umumlashmasi;
- Hozirgi kun nuqtai nazaridan mavzuny zaruriyati;
- Mavzu yuzasidan asosiy tushunchalar;
- Mavzu bo'yicha kamchilik, xatolarni bayon qilish.

II. Argumentlash, isbotlash, faktlar, ko'tarilayotgan tezisni tasdiqlash.

Mavzu mazmunini, mohiyatini ochish

- Induksiyadan foydalanish, aniq faktordan umumiylikka;
- Deduksiyadan foydalanish, umumiylikdan detallashtirishga o'tish;

III. Yakuniy qism.

Xulosada ko'tarilgan tezisni tasdiqlash yoki qarshi fikrlar bildirish. Bo'lishi zarur bo'lgan konsepsiya.

- Aytilishi zarur bo'lgan fikrlarning tezis shaklidagi bayoni;
- Muammoni qo'llanish sohalari.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Maqola nima?
2. Maqola ustida ishlash bosqichlarini sanab ko'rsating.
3. Maqola yozishga kirishishdan avval o'z oldingizga qaysi savollarga javob izlashingiz kerak?
4. Maqola strukturasini tushuntirib bering.
5. Biror mavzuda maqola yozib, uni matbuotda e'lon qilishga harakat qiling?
6. Biror ilmiy to'plamdagi maqolani o'qib chiqing? Unda:
 - mavzu mazmunga mos keladimi?
 - maqolani asosiy tezisi, uning barcha qismini o'z ichiga olganmi?
 - ularning qismlarini yoritilishi proporsionalmi?
 - mantiqiy buzilishlar mavjudmi?
 - maqola mazmuni ilmiy stilga to'g'ri keladimi?
 - nutqiy kamchiliklar uchraydimi?
 - umumiy savodxonlik darajasi qanday?

MATNLARNI ILMIY STILDA YOZISHGA TAVSIYALAR

Maqsad: Ilmiy matnlarni tuzishni o'rganish.

Tayyorlov bosqichi.

Bu bosqichda:

- Axborotlarni (o'qish, kuzatish, suhbatlar, so'rovlar orqali) to'plash.

- Mavzu yuzasidan materiallarni tahlil etish va asosiy gʻoyalarni tanlash.
- Mavzuni yaxshi yozish boʻyicha klaster tuzish, konseptual sxemalar ustida oʻylash.

1 -bosqich. Ishni boshlangʻich variantini qoralash.

Bu bosqichda quyidagilar:

- Matn dasturini koʻrinishini qoralab chiqish;
- Bunda oʻz gʻoyalari suyanish, matn shakli, orfografiyasini toʻgʻri bayon qilishga shoshilmay ish tutish;
- Matnda qatorlarni tanlab, uning matnini toʻldirishga, toʻgʻirlashga imkon berishni koʻzda tutish.

2-bosqich. Tuzatishlar kiritish.

Bu bosqichda qoralanma matn varianti tuzatiladi. Matnning 1-variantiga maxsus belgilar qoʻyilib, tuzatish kiritiladi.

Tuzatish kiritishda strelkalar, abzatslar orqali har bir varaqlarda tuzatmalar koʻrsatiladi.

Tuzatish kiritishda oʻzingizga quyidagi savollarni bering:

- Matnda bayon qilingan barcha materiallar mavzuga mos keladimi?
- Qoʻshimcha axborotlar bilan toʻldirishga zaruriyat yoʻqmi?
- Asosiy fikrlarni bayon qilishda qoʻshimcha soʻz, iboralar talab etilmaydimi?
- Qaysi fikrlar toʻlaqonli bayon qilinmagan?
- Matn mazmuni mantiqan ketma-ketlikda bayon qilinganmi?
- Kirish qismi aniq, tushunarli asoslanib yozilganmi?
- Xulosa qismi ishonarli, mavzudagi mazmun mohiyatidan kelib chiqqanmi?
- Yakuniy bayonlar mavzuni kirish qismi bilan bogʻlanganmi?

3-bosqich. Muharrirlik va korrektirovka.

Yakuniy bosqich matnini tuzib, 1-variantga tuzatish, qoʻshimchalar kiritib boʻlgandan soʻng boshlanadi. Bu bosqichda matn mazmunidagi orfografik, grammatik, stilistik xatolar tuzatiladi.

Bunda muallif oʻziga quyidagi savollarni berish maqsadga muvofiq:

1. Matndagi barcha soʻzlar toʻgʻri yozilganmi?

Siz ishonch hosil qilmagan soʻzlarni tagiga chizib, lugʻatga solishtirib toʻgʻirlang.

2. Barcha yozilgan gaplar toʻla yakunlangan ma'noga egami?

3. Choʻzib yuborilgan gaplar uchrasa, ularni boʻlib yuborish, ixchamlashtirish talab etiladimi?

4. Gapdagi har bir xat boshi oʻz mazmuni, mantiqiga egami?

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Matnlarni ilmiy stilda yozishning tayyorlov bosqichida nimalarga e'tibor berish kerak?

2. Ilmiy ishni boshlangʻich variantini tayyorlashda nimalarni koʻzda tutish kerak?

3. Ishning muharrirlik va korrektirovkasi qanday amalga oshiriladi?

4. Ilmiy matnni tuzishda koʻpincha qanday qiyinchiliklarga duch kelasiz?

5. Ilmiy ishning kirish qismida uni dolzarbligi, ishlanganlik darajasi matnini yozib koʻring.

ILMIY TADQIQOT ISHINI REJALASHTIRISH

Maqsad: Ilmiy tadqiqot ishning rejasi, dasturi, strukturasini tuzishni oʻrganib olish va oʻzlashtirish.

Ilmiy tadqiqot ish rejasining mazmuni, tushunchasi.

Ilmiy tadqiqot rejasi - uning konsentrlashgan koʻrinishini ifodalaydi. U muallifni aytmoqchi, qilmoqchi boʻlgan ishlarini sxematik koʻrinishdir.

Rejaga tadqiqotni olib borish jarayonida tuzatish, oʻzgartirishlar kiritish mumkin. Ilmiy vazifalarni yangi aspektlari topilishi, uni ob'ektlardagi ayrim holatlar oʻzgartirilishi mumkin.

Rejalar sodda va murakkab koʻrinishlarda boʻladi. Sodda rejalar asosiy masalalarni sanab oʻtish bilan kechadi. Murakkab rejalarda har bir boblar oʻz navbatida boʻlimlarga boʻlinadi. Ayrim hollarda kombinatsiyalashgan shaklda

bo‘lib, bob, bo‘limlarga ajratilib, boshqa holatlarda bo‘limlarga ajratilmay, o‘z holicha qoldiriladi.

Tadqiqot dasturi – aniq mavzu bo‘yicha ishning ma’no va strukturasi qismlar bo‘yicha ko‘rsatgichidir.

1. Faoliyatning imkoniyatlari bir xillik tomonlari foydalanish mumkin bo‘lgan resurslari, istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlari.

2. Faoliyat mazmunini belgilash, ehtiyojlari ma’naviy ibratomuz qoldirishlari, jamiyatni yashash tarzini optimallashtirish. Har bir shaxsni o‘zini-o‘zi rivojlantirishi, yoki bir guruh odamlarni umumiy ehtiyojlarini qondirilishi. Bu jarayonni olib borish uchun ob’ekt va predmetini belgilash. Tanlangan faoliyat mazmunini tanlash.

3. Qo‘yilgan vazifani amalga oshrish ketma-ketligidagi faoliyati (taktikasini topa olish).

4. Olib borilayotgan faoliyatni tarixiy, ko‘p o‘lchovlilikini, an’analar, o‘zaro bog‘lanishlarini, integratsiya, differentsiatsiya, bag‘rikenglik, dialogik insonparvarlik tomonlarini topish.

5. Faoliyatni olib borish yo‘nalishlarini tanlash, ob’ekt va predmetlarni o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, uni o‘zaro ta’sirini har tomonlama o‘rganish.

6. Faoliyat vazifasini shakllantirish; aniq muammo va savollar yechimini hal etish orqali qo‘yilayotgan natijalarni oling va zaruriy strategik mazmundagi yo‘nalishga solish.

Magistrlik dissertatsiyasi rejasini tuzish

Variantlari:

Birinchi - boshlanishida mavzu tanlanib, ishning maqsadi, vazifalari, bob va bo‘limlar shakllantiriladi.

Ikkinchi - to‘plangan materiallar asosida ishni strukturasi belgilanadi.

Uchinchi - aralash holda, birinchi va ikkinchi bandlarni o‘zaro birlashtirishdan shakllantiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasini mazmuniy parametrlari rejasini va strukturasi

Kirish:

Mavzuning asosnoma mazmuni, uning dolzarbligi, nima uchun aynan shu mavzu olingani, «nima uchun aytilgan mavzu tanlangan, u nimasi bilan qiziqish uygʻotadi?». Soʻngra tanlangan mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlili beriladi.

Kirish qismida maqsad aniq belgilanilishi, muallif nima uchun shu maqsadni oʻz oldiga qoʻydi, uni amalga oshirish, uning metodologik hal etilishiga toʻxtaladi.

Asosiy qism 3 boʻlimdan tashkil topadi:

- a). Muammoning nazariy tomonlari;
- b). Empirik bayon, faktik material, ularni asoslash, 1-boʻlimda bayon etilgan nazariyasi, amaliyoti, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati asoslanadi.
- c). Tadqiqotni muammolarini hal etish boʻyicha muallifning tavsiyanomalari.

Xulosa:

Muammoning yechimlari, natijalari, muammoning tadqiqot yuzasidan chiqargan xulosalari, qilingan tadqiqot ishining amaliy ahamiyati va kelgusida tadqiqot uchun muammo boʻlishi mumkinligi keltiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasi rejasiga qoʻyilgan talablar:

- Qoʻyilayotgan masalalar olingan mavzuga mos kelishi va u mavzudan tashqariga chiqmasligi kerak.
- Mavzuning masalalari mantiqan ketma-ketlikda joylashtirilishi kerak.
- Rejaga kiritilayotgan mavzu masalalari tadqiqot natijalarini oʻzida aks ettirish kerak.
- Mavzu atroflicha tadqiqotga tortilishi maqsadga muvofiq.

Magistrlik dissertatsiyasi boʻyicha ilmiy tadqiqot ishining taxminiy rejasi

Kurs ishining bajarilish bosqichlari	Natijalar	Muddat
1.Tadqiqotning predmetini aniqlash	Mavzuni tanlash	Sentyabr

2. (Kutubxona fondi, elektron fondi bilan tanishish, internetga chiqish	Bibliografik ro'yxat tuziladi	Sentyabr
3. Ilmiy rahbar bilan kelishib, mavzuni tasdiqlash	Mavzu tasdiqlandi, ilmiy rahbar tayinlandi	Oktyabr
4. Manbalarni o'rganish, hujjatlarni to'plash	Manbalar, xujjatlar o'rganildi, ro'yxat tuzildi, yozma matn, referat, konspektlar tuzildi	Sentyabr-yanvar
5. Ishning strukturasi aniqlash	Ilmiy ishning rejasi tuzildi	15-oktyabr
6. Ishning ayrim qismlarini yozish	Manbalar tahlili yozildi, adabiyotlardan ishning ayrim qismlari qoralanib chiqildi	Obzor 1 - dekabr 1 bob 1-yanvar II bob 1-fevral III bob 1 - mart
7. Umumiy xulosalarni shakllantirish	Har bir bob bo'yicha va yakuniy xulosalar yozildi	15 -mart
8. Mavzu tezisi, matnini yozish	Mavzu matni va tezlari tuzilib, ilmiy rahbarga topshirildi	15-mart
9. Mavzuning nomi, maqsadi, vazifalari va uni xulosaga mosligini aniqlash	Yozilgan mavzuga kirish qismiga, maqsad vazifalariga ayrim tuzatishlar kiritildi	30-mart

10. Ishning 1-variantini tuzib, ilmiy rahbarga topshirish	Matnni taxminiy yozma varianti yakunlandi	1-aprel
11. O'zgartirish va tuzatishlar kiritish	Ilmiy rahbarning takliflarini hisobga olish	10-aprel
12. Ishni xujjatlashtirish	Ishning oxirgi varianti qayta yozilib, tugatildi	20-aprel
13. Kafedrada, konferensiyada ma'ruza (taqdimot bilan chiqish)	Taqdimot o'tkazildi	20-may
14.1 Ishni topshirish	Ish topshirildi	30-may

Mavzu bo'yicha o'zini-o'zi tekshirish uchun savollar

1. Tadqiqot ishini rejalashtirish mazmuni o'z ichiga nimalarni oladi? Ular qanday ko'rinishda bo'lishi mumkin?
2. Tadqiqot dasturi nima? U o'z ichiga nimalarni oladi?
3. Magistrlik dissertatsiyasini kirish, asosiy qism, xulosalari mazmunini aytib bering.
4. Magistrlik dissertatsiya ishi rejalariga qanday talablar qo'yiladi?
5. Magistrlik dissertatsiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ishining taxminiy kalendar rejasi bilan tanishing.
6. Shu asosida o'zingizning ish rejangizni tuzib chiqing.

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI: UNI SHAKLLANTIRISH.

STRUKTURA VA TEXNOLOGIYASI

Maqsad: Magistrlik dissertatsiyasini texnologiyalashtirishni o'rganib olish.

«Ta'lim to'g'risidagi Qonun», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni amalga oshirishda, kadrlar tayyorlashda uni sifat, samaradorligini oshirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash eng dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ayniqsa, oliy ta'limda ishlash uchun yuqori shaxsiy-kasbiy, ilmiy — pedagogik kadrlarga bo'lgan talab kundalik ehtiyojga aylanmoqda.

Shu munosabat bilan respublikamiz oliy ta'lim o'quv yurtlari qoshida magistraturani kengaytirish va ularni tayyorlashga talablar ham ortib bormoqda.

Magistrlar - bu shunday mutaxassislar, ular fundamental ilmiy bazaga ega, ilmiy ijodiy metodologiyani o'zlashtirgan, hozirgi zamon axborot texnologiyalaridan unumli foydalana oladigan, ularni olish, saqlash, qayta ishlash va qo'llash metodlarini egallab oladilar.

Mana shu sababli ham ular magistrlik dissertatsiyasi mavzularini tanlash, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish texnologiyalarini to'la o'zlashtirib olish, dissertatsiyalar sifatini oshirish, uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini o'zlashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Hozirgi kunda magistrlar tomonidan himoyaga taqdim etilayotgan dissertatsiyalar o'zining dolzarbligi, sifati jihatidan o'sib borayotgan talablarga to'la javob bera oladi, deb aytolmaymiz.

Bunday holatdan chiqish uchun nima qilmoq kerak?

Bu xolatdan chiqishning asosiy yo'li magistrlik dissertatsiyalarining mavzusini dolzarb masalalarni yechimiga qaratish, uning ilmiy yangiligini, ob'ekti va predmetini to'g'ri tanlash, maqsad va vazifalar, ilmiy farazlarini to'g'ri shakllantirish, dissertatsiyalarga qo'yilgan talablariga, uni metodologik apparatiga qat'iy rioya qilish zarurati tug'iladi.

Ya'ni magistrlik dissertatsiyasi va tadqiqotni olib borish texnologiyalarini o'zlashtirib, ilmiy mantiqiy ketma-ketlikka rioya qilishni talab etadi.

Agar dissertatsiya yozishda magistrant metodologik puxta ishlangan ilmiy apparatga ega bo'lmasa, dissertatsiyalarda bir-biriga o'xshashlik, ayrim hollarda bir-biridan ko'chirish xolatlari uchraydi.

Ilmiy tadqiqotlarni olib borishda innovatsion texnologiyalar, ilg'or texnologiya, loyihalashtirish, modellashtirish, algoritmlar, analogiyalar asosida olib borilganda samarali natijalar olish mumkin.

Dissertatsiya strukturalari o'ziga xoslik, ma'lum tartibda ketma-ketlikda ish yuritishni talab etadi. Magistrlik dissertatsiyalarini olib borishda ma'lum bir algoritmnini ishlab chiqish zarur. Shuningdek, magistrlik dissertatsiyasini olib borish, tajriba-sinovlar jarayonida unga suyanish, rioya qilish mumkin bo'lsin.

Magistrlik dissertatsiyalari bilan tanishish, ular bilan qilingan muloqotlar, ekspertlar bilan o'tkazgan suhbatlardan shunday xulosaga kelinadiki, magistrlik dissertatsiyalarini yozishni ilmiy apparatini texnologiyalashtirish mumkin.

Ya'ni magistrlik dissertatsiyasini tizimli yo'nalishga, mantiqiy ketma-ketligi, vositasi yaratilsa, magistrantning ilmiy tadqiqot ishi sifati va samaradorligi oshadi.

Shu asosida:

- Ilmiy ishning mavzusini tanlash;
- «Kirish» qismida ilgari tanlangan mavzu atrofida erishilgan muvaffaqiyatlar va mavzuni dolzarbligini tahlil va faktlar yordamida asoslab berish;
- Shu asosida mavzu muammosini o'rganganlik darajasini aniqlashtirish;
- Tadqiqotning ob'ekti va predmetini ko'rsatish;
- Tadqiqot ishining maqsadlarini shakllantirish;
- Tadqiqotning ilmiy farazi;
- Tadqiqotning vazifalari;
- Tadqiqot metodlari;
- Tadqiqotda ishlatiladigan ilmiy atamalar;
- Tadqiqotni yozishda ketma-ketlik, bosqichma-bosqichligi.
- Tadqiqot natijalarining ishonchliligi;
- Himoyaga olib chiqiladigan holatlar;
- Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati;
- Tadqiqotni olib borishdagi tajriba-sinov ishlari, uni yakunlash, natijalash;
- Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.

Ilmiy tadqiqot ishi kirish, 3 bob (nazariy, amaliy, mazmun, metod, tajriba-sinov ishlari, natijalari, har bir bob bo'yicha va umumiy xulosa, tavsiya, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati) dan iborat bo'ladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. «Ta'lim to'g'risidagi Qonun», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da kadrlarga qo'yilgan talablarni aytib bering?
2. Magistrlar qanday ko'nikma malakalarga ega bo'lishi kerak?
3. Magistrlar dissetatsiyasida qanday tipik kamchiliklar uchraydi?
4. Dissertatsiya mazmunli chiqishi uchun nimalarga e'tibor berish kerak?
5. Dissetatsiyani yozishda qanday innovatsion holatlarga rioya qilish kerak?
6. Magistrlik dissertatsiyasini texnologiyalashtirish deganda nima ko'zda tutiladi?
7. Dissertatsiya strukturasi asosida unda ketma-ket bajariladigan ishlarni sanab ko'rsating.
8. Loyihada keltirilgan ilmiy apparatni tushunib olib, o'z mavzuingizni apparatini shakllantiring.

ILMIY TADQIQOT ISHINING ASOSIY TUSHUNCHA — ATAMALARI

Magistrlik dissertatsiyasini yozishga kirishishdan avval, uni olimlar o'zaro fikr yuritishdagi tilini o'zlashtirib olish zarur.

Ilmiy til o'ziga xos xususiyatga ega. Unda ko'plab tushuncha va atamalar borki, ilmiy ish matnini bayon qilishda keng qo'llaniladi.

Fanning tilini tushuncha va atamalarni o'zlashtirish, magistrantga dissertatsiyani savodli, tushunarli qilib, o'z fikrini bayon qila olishga sabab bo'ladi.

Umuman magistrlik dissertatsiyasini shakllantirishda, tadqiqot mazmunini ilmiy tilda bayon qilishda atama va tushunchalar alohida o'rin tutadi.

Atamalar (kalit so'zlar) orqali dissertatsiya mazmun-mohiyati va uni yoritishda juda muhim hisoblanadi.

Ayniqsa, ilmiy tadqiqot ishiga taqriz va ilmiy xulosalar berishda opponent va retsezentlar uchun qulaylik tugʻdiradi. Atamalarni toʻgʻri tanlash va oʻz oʻrnida ishlatilganda ortiqcha savollarga oʻrin qolmaydi. Koʻpincha dissertatsiyada ishlatilgan soʻzlarni keltirish va ularni ilmiy ishga ilova qilish dissertatsiyaning mazmun-mohiyatini oshiradi.

Atamalar magistrant tomonidan biror ilmiy manbalardan olinishi mumkin. Bu xollarda dissertant u atamani qaysi manbalardan olganini aniq koʻrsatishi va unga ishora qilishi kerak.

Undan tashqari ilmiy ishda transformatsiya qilish orqali atamalar kiritilgan boʻlsa, dissertant kiritilgan atamaga qanday oʻzgartirish kiritib qabul qilganligini va uni olib borilayotgan tadqiqot uchun zarurligini izohlab berishi bilan hal etiladi.

Dissertant shaxsan oʻzi kiritgan tushunchalar, atamalar ham boʻlishi mumkin. Unda yangi tushunchalar, atamalarni ilmiy ishning mazmuniga mohiyatini ochishga zaruriyatini asoslash, isbotlash kerak. Kiritilgan yangi tushuncha va atamalar toʻliq izohlanishi kerak.

Atamalar magistrlik dissertatsiyasining eng muhim elementidir. Uni koʻpincha dissertatsiyaga ilova qilish maqsadga muvofiqdir.

Ish rejasi 2 yilga moʻljallanadi, uni yillik, 6 oylik va choraklarga boʻlish mumkin.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. «Dissertatsiya» soʻzini mazmun mohiyatini aytib bering.
2. «Dissertatsiya» boshqa badiiy asarlardan nimasi bilan farq qiladi?
3. Dissertatsiya nimalarga, qanday tizimlarga suyanib olib boriladi?
4. Magistratura deganda nimani tushunasiz?
5. «Magistr» soʻzining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
6. Pedagogika ixtisosligidagi magistrlarga qanday talablar qoʻyiladi?
7. Magistr ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda nimalarni bilib olishi kerak?
8. Magistrlik dissertatsiyasiga qanday talablar qoʻyiladi?

9. Magistrlik dissertatsiyasi nomzodlik dissertatsiyasidan nimalari bilan farqlanadi?

10. Magistrlik dissertatsiyasini yozishda ilmiy til deganda nimani tushunasiz? Tushuncha va atamalar haqida aytib bering.

11. Umuman ilmiy atama (kalitli soʻz), uning turlari haqida aytib bering.

12. Matnda keltirilgan ilmiy atamalarni mazmun-mohiyatini birma-bir tushuntirib bering?

13. Oʻzingizning ilmiy tadqiqot ishingizni shakllantirishda qaysi atamalardan foydalanmoqchisiz? Ilmiy adabiyotlarni toʻplang, ularni oʻrganing va ishingizga kiriting.

ILMIY TADQIQOT ISHINING NOMI, MAVZUSINI TANLASH, SHAKLLANTIRISH

Magistrlik dissertatsiyasini toʻgʻri va aniq tanlash nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Amaliyotdagi tajribalar shuni koʻrsatadiki, toʻgʻri va aniq tanlangan mavzu dissertatsiyani shakllantirish, yozish, bajarishni muvaffaqiyatli chiqishini taʼminlaydi.

Umuman magistrlik dissertatsiyalarining mavzulari institut, universitet kafedralari tomonidan tuzilib, ularni maxsus banki yaratilib, kafedralarda saqlanadi. Koʻpincha magistrantlar tavsiya etilgan mavzular bankidan tanlab olishlari mumkin.

Albatta mavzuni aniqlashda magistrantning qiziqishlari, psixologik tayyorgarliklari ham hisobga olinishi zarur.

Ammo magistrlik dissertatsiyasining mavzusini tanlashda «nazariyasi», «pedagogik asoslari» soʻzlaridan iloji boricha kamroq ishlatish yoki ularni qoʻllashdan uzoqroq boʻlishi maʼqul.

Chunki bu kabi soʻzlar maʼnolarini har kim har xil tushunadi yoki tushuntiradi.

Masalan asoslar tushunchasi:

Birinchidan, qonuniyatlar, prinsip, kategoriyalari, pedagogikaning metodologiyasiga tegishli, degan fikr bildiriladi. Ayrim hollarda pedagogika fanini tashkil etuvchi komponentlari, umumlashtirilgan nazariy fikrlar yig'indisi deb yuritiladi.

«Asoslari» ilmni boshlang'ich bosqichi yoki uning poydevori deb ham qaraladi. Ya'ni u pedagogika fanidagi tushuncha, qonunlari, metodologiyalari degan fikrni ham berishi mumkin. «Asoslari» goho pedagogik konsepsiya fandagi g'oyalar majmuasi deb ham qaraladi.

Ko'pchilik metodologiya ilmiy ishning mavzusini shakllanishi bilan bog'liq, deb ta'kidlaydi.

Har holda mavzuni shakllantirish ilmiy ishning mazmun-mohiyatidan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir. Shu sababli mavzuni mutaxassislar, amaliyotchilar bilan maslahatlashilsa foydadan holi bo'lmaydi.

Tadqiqot ishi mavzusini tanlashda quyidagilarga e'tiborni qaratish kerak:

- Mavzuni tanlashda biriktirib qo'yilgan ilmiy rahbar bilan maslahatlashish, kengashish va bir to'xtamga kelish;
- Kafedradagi himoya qilingan ish mavzulari bilan tanishish, himoyalangan dissertatsiyalar katalogini o'rganish, tahlil qilish;
- Himoya qilingan dissertatsiyalardagi so'nggi yangiliklar. Mo'ljallayotgan mavzuga yaqin ishlar bilan chuqurroq tanishish;
- Zamon talabi asosidagi yangi texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi yo'nalishlar, muammo, mavzular, yangicha qarashlarni o'rganish;
- Ilmiy ishlarni olib borishdagi ishlab chiqilgan tadqiqot metodlari, prinsiplar, modellar, konsepsiyalar bilan tanishish;
- O'z ilmiy yo'nalishidagi mutaxassisligi bo'yicha adabiyotlar bilan tanishib chiqish, maxsus ilmiy to'plamlar, mavsumiy-davriy nashrlar, internet saytlari bilan tanishib chiqish;
- Amaliyotchi ilg'or o'qituvchilar, yil o'qituvchilari, ko'rik-tanlov g'oliblari, trener-o'qituvchilar bilan suhbatlar o'tkazish va maslahatlarini olish, mavzuni dolzarbligi, uni aniq va lo'ndaligi belgilanadi.

1. Dolzarbligi – yangiligi, jamiyat va pedagogik faoliyat bilan bog‘liqligi, ayrim qarama-qarshiliklarni ilmiy yechimiga qaratilipsh.

2. Aniqligi – qisqa, lo‘nda, aniq muammoni olib, uni atroflicha gorizontal, vertikal va tizimli yechimining tadqiqot etish, izlash.

3. Aniq bir muammoni yechimiga qaratilganligi – bo‘lg‘usi o‘qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash va boshqalar.

4. Mavzuni qisqa va lo‘nda shakllantirish - mavzudagi so‘zlar qancha kam bo‘lsa, shuncha yaxshi. So‘zlarning umumiy soni 10 tadan oshmagani ma'qul.

Ilmiy tadqiqot ish mavzusining turlari:

Amaliyotga bag‘ishlangan mavzular. Ta'lim muassasalari faoliyatini tahlil etish, o‘rganish va rivojlantirish, umumlashtirish orqali amalga oshiriladi;

- Faqat nazariy masalalarga yo‘naltirilgan mavzular. Bu ilmiy tadqiqotlar asosan ilmiy metodik adabiyotlar va boshqa manbalardan foydalanib, amalga oshiriladi.

- Aralash mavzudagi ilmiy izlanishlar. Bu tadqiqotlar amaliy va nazariy aspektlarni o‘z ichiga qamrab oladi, tajriba-sinovlar o‘tkazilib, xulosalar va tavsiyalar beriladi.

Umuman olganda ilmiy tadqiqot mavzulari ma'lum bir mezonlarga mos kelishi kerak. Ta'lim-tarbiya oldida turgan dolzarb masalalarning yechimiga qaratilishi maqsadga muvofiq. Yuqorida keltirilgan fikrlarning tasdig‘i uchun ayrim dissertatsiyalar mavzularini shakllantirish bo‘yicha misollar:

Masalan: «Ta'lim jarayonida harakatli o‘yinlardan foydalanish» (boshlang‘ich sinflarning jismoniy tarbiya misolida). Bu ilmiy tadqiqotning ob'ekti, boshlang‘ich sinflarning jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlardan foydalanish jarayoni.

Uning predmeti etib, boshlang‘ich sinflarni jismoniy tarbiya darslarida harakatli o‘yinlardan foydalanishning yo‘llari, mazmuni, shakllari, metodlari vositalari olingan.

Yana ayrim mavzular:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnlar ustida ishlash orqali erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirish.
2. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarni erkin fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatini didaktik o'yinlar yordamida rivojlantirish va b.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusini aniq va to'g'ri tanlashni nimadan boshlash kerak?
2. Magistrlik dissertatsiyasini mavzusini tanlashda qaysi so'zlarni qo'llamaslikka harakat qilish kerak?
3. Tadqiqot mavzusini tanlashda nimalarga asosiy e'tiborni qaratish kerak (sanab ko'rsating)?
4. Mavzuni shakllantirishda nimalarga e'tibor qaratish kerak?
5. Ilmiy tadqiqot mavzularining turlarini sanab ko'rsating.
6. O'z tadqiqot mavzuingizni shakllantirishga harakat qiling va tuzing?

ILMIY TADQIQOT ISHINING DOLZARBLIGI, YANGILIGI, AMALIY AHAMIYATINI ASOSLASH

1. Ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligini asoslash har qanday dissertatsiyaning bosh tarkibiy qismi hisoblanadi.

Dissertatsiyada «dolzarblik» tushunchasining o'ziga xos xususiyati bor, chunki olib boriladigan tadqiqot bitiruvchini malakaviy ishidir. Muallif mavzuni zamon talabi, ijtimoiy zaruriyatidan kelib chiqib tanlaydi. Bu esa uni ilmiy-kasbiy yetukligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning dolzarbligini yoritish qisqa, mantiqan lo'nda yozilishini talab etadi. Dissertant tadqiqotning dolzarbligini asoslash va yoritish uchun ilmiy metodik adabiyotlar va boshqa manbalarni sinchiklab o'rganadi. Olgan mavzu

bo'yicha ilmiy ishning tarixini o'rganadi, o'zidan avvalgi magistrantlar tomonidan himoya qilingan dissertatsiyalarni tahlil etadi? Olib borilayotgan ilmiy ishga aloqadorlik, o'xshashlik, yaqinlik tomonlarini solishtirish asosida talqin etadi. Shu davrgacha olingan mavzuga yaqin muammolar yechimlarini va boshqa yondashuvlarni birma-bir sanab o'tadi. Ilgari himoya qilingan ilmiy ishlardagi yangilik, yondashuvlar nimalardan iborat ekanligini sinchiklab tahlil etadi va qisqa, lo'nda, tushunarli qilib ilmiy tilda qayd etadi. Ularda qo'llangan metodologiya ilmiy apparatni va avval olingan natijalarni o'rganadi. Bundan maqsad shuki, ilmiy ishning dolzarbligi, ilgari bunday mavzuda yaxlit tadqiqotlar olib borilmaganligini ishonchli qilib, aniq manbalarga suyanagan holda isbotlaydi.

Mavzuning dolzarbligi ilmiy bilish jarayonida ma'lum bo'lsada, yaxlit tadqiqotlar olib borilmaganligini isbotlab berish talab etiladi.

Umuman mavzusini ishlanganlik darajasini o'quvchiga yetkazish uchun ilmiy-metodik adabiyotlarning qisqacha tahlili berilib, ayni olingan mavzu mazmuni yoritilmaganligi (yoki qisman yoritilganligi) sababli u kelgusida ilmiy tadqiqotni olib borish, ishlab chiqilishi zarurligi haqida fikrni ilgari suradi. Agar bunday xulosa chiqarila olinmasa, u o'zini olgan mavzusini ishlashdan mahrum bo'ladi.

Shu sababli ham mavzuni dolzarbligi dissertatsiya ishining sifatini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi.

Tadqiqotning dolzarbligini belgilovchi asosiy xususiyatlar

- Pedagogika fanidagi boror-bir hal etilmagan masalani yechimini to'ldirish yoki boyitish.
- Hozirgi zamon talabi asosida byror muammoni yangicha yechimiga ta'sir etish.
- Ayrim masalalarda 2 xil qarashlar bo'lgan muammolar haqida muhokama yuritish, yangicha yechimi haqida fikr yuritish.
- To'plangan ilg'or tajribalarni ilmiy yondashuvlar asosida umumlashtirish.
- Asosiy masalalar bo'yicha yangi bilimlarni ilgari surish va umumlashtirish.

- Yangi muammolarni qo'yish orqali olimlar va amaliyotchilarni shu masalaga e'tiborini qaratish.

Tanlangan mavzu bo'yicha ilgarigi ilmiy tadqiqot ishlarining qisqacha ma'lumotlari keltiriladi.

Magistrantlar O'zbekistonda va boshqa xorijiy mamlakatlarda ilmiy tadqiqotlar olib borgan, ayniqsa, ular tomonidan qanday yangilik va ilmiy xulosalar olganliklarini ta'kidlab o'tish juda muhim hisoblanadi.

Ilmiy ish yuzasidan beriladigan adabiyotlar ro'yxatiga muallifning aniq familiyasi, ismi, sharifi, ilmiy ishning nomi, e'lon qilingan yili, nashriyoti o'rnatilgan tartibda kiritiladi.

Magistrant o'z ilmiy rahbarining ilmiy ishlari bo'lsa, ularni ham ro'yxatga kiritilishi maqsadga muvofiq.

Shuni unutmaslik kerakki, siz olib borayotgan tadqiqot bo'yicha, ilmiy ishlar mavjud bo'lsa, kafedra professor-o'qituvchilarning ishlarini ham adabiyotlar ro'yxatiga kiritish foydadan holi bo'lmaydi. Agar ilmiy-metodik adabiyotlar, ilmiy ma'lumotlarni yoritishda ayrim qarama-qarshiliklarga, noaniqliklarga duch kelinsa, u muammolarni ham aytib o'tish o'rinlidir.

Shunday qilib, olingan muammolarning yechimini topish maqsadida, ilmiy ishingizni ob'ektini, predmetini aniqlash va uning dolzarbligini aytish orqali shu mavzuga qo'l urganingizni aytib, dissertatsiyaning to'la nomini keltirish bilan yakunlanadi.

2. Tadqiqotning yangiligi

Ilmiy tadqiqot ishining, pirovard natijalari biror innovatsiyani, texnologiyani, loyihalarni, algoritmlarni yoki modellarni taklif etish bilan yakunlanadi.

Tadqiqot natijasida olgan, pedagogika yoki xususiy metodikaga qo'shilgan hissalar bilan belgilanadi.

Yangiliklarni quyidagilar tashkil etishi mumkin:

- Yangi muammolarni qo'yilish va uni yechimlari;
- Yangicha darajalashtirish yoki davrlashtirishning taklif etilishi;

- Tadqiqot jarayonida, tajriba-sinov ishlarini olib borishda yangicha yondashuv va metodlarni taklif etish;

- Yangicha pedagogik yondashuvlarni, hodisalarni ochish, kuzatish orqali favqulotdagi yangiliklarni taklif etilganligi bilan belgilanadi.

3. *Tadqiqotning amaliy ahamiyati.* Tadqiqotning amaliy ahamiyati 2 yoʻnalishda boʻlishi mumkin:

- Nazariy metodologik xarakterdagi tadqiqotlarning ahamiyati;
- Metodik yoki amaliy yoʻnalishdagi tadqiqotlarning ahamiyati. Shunday qilib tadqiqotning nazariy ahamiyati:

- Tadqiqotning asosiy natijalari ilmiy maqola, risola koʻrinishida;
- Tadqiqotning amaliyotga tatbiq etilishi haqida guvohnoma tasdiq etilgan akt koʻrinishida;

- Tadqiqotning natijalarini ilmiy-amaliy, konferensiya va simpoziumlardagi oprobatsiyasi;

- Ilmiy tadqiqot natijalariga koʻra yaratilgan ishlanmalar, oliy va oʻrta maxsus kasb-hunarlar oʻquv jarayonida foydalanilganligi;

- Davlat va regional dasturlarni tayyorlashda ishtirok etganligi;
- Tadqiqot natijalaridan foydalanib, yangi normativ va meʼyoriy-metodik hujjatlar yaratishda ishtirok etganligi.

Metodik va amaliy xususiyatli tadqiqotlar natijalaridan:

- Sotsial ijtimoiy, pedagogik, metodik, didaktik, texnologik, innovatsion tizimlarni rivojlantirish, takomillashtirish uchun takliflar;

- Xalq taʼlimi tizimi va uni boshqaruvi boʻyicha tavsiyalar;
- Davlat boshqaruvlari uchun normativ metodik hujjatlarni takomillashtirish boʻyicha takliflar, tavsiyalar;

- Tadqiqot natijalarining maktab, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey yoki oliy oʻquv yurtlarining oʻquv jarayonida qoʻllanilganligi;

- Davlat taʼlim standartlari yaratilishida ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanilganligi;

- Tadqiqot natijalaridan ta'lim diagnostikasi, monitoringida foydalanilganligi kabilar kiradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Mavzuning dolzarbligi nimani bildiradi?
2. Mavzuning dolzarbligi qanday aniqlanadi va asoslanadi?
3. Mavzuning dolzarbligini qaysi va qanday tartibda yakunlashtiriladi?
4. Tadqiqotning yangiligi deganda siz nimani tushunasiz?
5. Yangilik belgilarini ketma-ket sanab ko'rsating?
6. Tadqiqotning amaliy ahamiyati deganda siz nimani tushunasiz?
7. Tadqiqotning ahamiyatini uning mazmun-mohiyatiga ko'ra necha turga bo'lish mumkin?
8. Nazariy va metodik ahamiyati deganda siz nimani ko'z oldingizga keltirasiz?

ILMIY TADQIQOTNING MAQSADI, VAZIFALARINI QO'YISH, TADQIQOT METODLARINI ANIQLASH

I. «Tadqiqot maqsadi» tushunchasining ma'nosi.

Magistrlik dissetatsiyasining mavzusi bir qator savollarni javobini ta'minlash, u tadqiqot ishini yadrosini tashkil etadi, u o'ziga xoslik, yangilik belgilarini namoyon qiladi.

Tadqiqot maqsadi – tadqiqotchi o'zining ishini tugallagandan so'ng erishadigan oxirgi natijadir.

Qo'yilgan muammoni ilmiy yechimini topish magistrant ishining maqsadidir. Maqsad tadqiqotning o'ziga xos oxirgi yakuniy sababchisi bo'lib, u tadqiqotning borishi, xarakteri va vazifalarini belgilab beradi.

Umuman maqsad tadqiqotning ob'ekti va predmeti aniqlangandan keyin belgilanishi mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Ko'pincha maqsad:

- «.....aniqlash.....».

- «.....o‘rnatilgan tartibda.....».
- «.....asoslash.....».
- «.....ishlab chiqish.....» kabilar bilan belgilanadi.

Masalan: tadqiqotning maqsadi - ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha ilmiy metodik va amaliy tavsiyanoma yaratish.

II. «Ilmiy tadqiqot vazifalari» tushunchasining mazmuni.

Tadqiqotning vazifasi — ilgari surilgan farazlar asosida maqsadga erishish uchun yo‘l-yo‘riqlar va vositalarni tanlash.

Vazifalarni bajarib, maqsadga erishish uchun nima qilish, nimani, qanday erishishni aniqlash va tasdiqlashdan iborat.

Maqsadga erishish uchun vazifalarni kichik bo‘laklarga bo‘lib, uni ijrosini qadam ba qadam ta'minlashdan iborat. Topshirilgan, mo‘ljalga olingan, asoslangan aniq ishlarni amalga oshirish.

Ilmiy tadqiqotning tipik vazifalari.

- Izlanayotgan hodisani tavsiflash;
- Uning sabablari va sharoitlarini aniqlash;
- Sabablarini tushuntirish;
- O‘rganilayotgan hodisani klassifikatsion konsepsiyasini tushunish;
- Qonuniyatini aniqlash va asoslash;
- Ma'nosini tushunish va tushuntirish;
- Aniqlangan hodisani yozma asoslash va tushunchalar nomini keltirish;

Dissertatsiyaning vazifalari 3-4 banddan oshmaydi. Jumladan:

1. Mavzuning vazifalarini o‘rganish va tahlil etish asosida, ilmiy izlanish vazifalari shakllantiriladi.

2. Qo‘yilgan vazifalarni dissertant tomonidan taklif etilgan yechimlari.

3. Qabul qilingan qaror va vazifalar yechimini mantiqiy isbotlanishi.

4. Quyidagi vazifalarning ilmiy yechimi ko‘zda tutiladi:

Birinchi, ikkinchi, uchinchi vazifalarni bajarish shakllantiriladi. Vazifalarni shakllantirishda ilmiy ishning metodlari bilan adashtirib yubormaslik kerak.

III. Ilmiy tadqiqotning metodlari.

Ilmiy tadqiqotning metodologik asosi fundamental ish bo'lib, u tadqiqot metodini tanlab olish, uning natijalarini taqdim etish va boshqa elementlarini yoritilishi bilan, ularning ish faoliyatlaridan farq qiladi.

Ilmiy tadqiqotning metodologik xarakteristikasi ishning kirish qismida quyidagi shaklda keltiriladi:

Keltirilgan konsepsiyada avval falsafiy, aniq fan yo'nalishi, shu sohada ilmiy tadqiqotning maqsadi, ob'ekt va predmetiga to'xtab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Metodologik asoslar keltirilgach, tadqiqot metodlari belgilanadi. Belgilangan metodlar tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarga mos kelishi kerak.

Ilmiy tadqiqotni o'tkazishda ham nazariy ham empirik (kuzatish), tahliliy metodlarni qo'llayvermasdan, ulardan ishda qo'yilgan vazifalariga mosini tanlab, ya'ni tanlangan metodlar qo'yilgan vazifalarga moslangan holda ketma-ketlikda olingani ma'qul.

Masalan: nazariy asoslari; faoliyatga, shaxsga, tizimli yondashuv, modellashtirish, qiyosiy, tarixiy, tahlil, sintezlash, qiyoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish, solishtirish, tushunchalarning tahlili asosida olish mumkin. Yuqoridagi metodlar nazariy holatni interpretatsiya, tahlil va umumlashtirish imkonini beradi.

Empirik metodlarda esa, ma'lum ma'lumotlarni, ilmiy faktorlarni to'plash, pedagogik o'lchov (ro'yxatdan o'tkazish, oranjirovka qilish, shakllantirish, testlashtirish), kuzatuvlar olib borish, faoliyat mahsulotlarini o'rganish, xujjatlarni o'rganish, suhbat o'tkazish metodlari (anketa, suhbat, sotsiometriya va intervyu, xolis xarakteristikalar olish) pedagogik konsiliumlar o'tkazishlarni o'z ichiga oladi.

Tajriba-sinovda tadqiqot farazlari yangiliklari tekshirilib ko'riladi. Ob'ektdagi miqdoriy o'zgarishlar matematik-statistik metodlari orqali ishlov berilib, natijalari olinadi.

Didaktik tadqiqotlarda ko'pincha o'quvchilarning bilim darajalari, tushuncha, ko'nikma, malaka ko'rsatgichlari bilan cheklanadilar. Albatta bu ko'rsatgichlarning tahlili ta'lim darajalarini muhim mezonlari hisoblanadi.

Bunday baholashning qiyinchiligi shundaki, pirovard natijalarni olishda yozma, nazariy ishlar va test sinovlari asosida xulosalar chiqariladi.

Ko'pincha tajriba-sinovda ishtirok etayotgan o'qituvchilar tomonidan qo'yiladigan baholariga suyanadilar va shu asosida xulosa chiqaradilar. Bu yo'l bilan chiqarilgan xulosa va olingan natijalari sub'ektivlikka sabab bo'ladi. Bunday xolatlarida tajriba-sinovlarning boshqa xolatlariga qiyoslash va solishtirishda qiyinchiliklar tug'diradi. Undan tashqari testlarning tuzilishi va murakkabligi turlicha darajada bo'lishi natijasida o'quvchilarning bilim darajasini haqqoniy emasligiga sabab bo'lishi mumkin.

Haqqoniy natijalarni olish uchun standartlashtirilgan yozma ish va testlar yordamida aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Har qanday tadqiqotning yangiligi, odatiy hodisa yoki qabul qilingan tushunchalarni o'zgarishi, o'sishi, yangilanishiga qadam qo'yishdan boshlanadi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda, pedagogik tadqiqotlar jarayonida modellashtirish metodlari keng tarqalgan.

Model shunday narsaki, u konstruksiyalashgan ma'lum belgilar asosida tuzilgan bo'lib, asosan implitatsiya (moslashtirish) qoidalari asosida tuzilganligi tufayli ijodiy fikr yuritishga yordam beradi.

Modellashtirishda ob'ektning tuzilishi, ichki qurilmalari, strukturasi asosida tuziladi. Shular asosida empirik (kuzatish, tahliliy) aniqlangan mazmunlar sintezlanib, tushunishga imkon yaratib beradi.

Hodisa, jarayon va voqealarni tahlil qilish orqali tushunish oson, o'zlashtirish imkonini ochib beradi. Ya'ni olib borilayotgan tadqiqotni texnologiyalashtirish asosida natijalarini olishni osonlashtiradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. «Tadqiqot maqsadi», mazmuni, mohiyatini aytib bering.
 2. Ta'lim maqsadi o'z ichiga nimalarni oladi va qanday shakllantiriladi?
- Ilmiy tadqiqot vazifalari» tushunchasining mazmuni nimani bildiradi?
4. Ilmiy tadqiqotning tipik vazifalari nimalardan iborat?

5. Ilmiy tadqiqot metodi turlarini sanab ko'rsating.
6. Ilmiy tadqiqotning nazariy metodlarini sanab ko'rsating.
7. Ilmiy tadqiqotning empirik metodlarini tushuntirib bering.
8. Umuman ilmiy tadqiqot metodlari qanday tanlanadi va u pirovard natijada nimani aniqlab beradi?

DISSERTATSIYANING ILMIY FARAZINI SHAKLLANTIRISH. HIMOYAGA OLIB CHIQILADIGAN XOLATLAR

«Faraz» tushunchasining mazmuni.

«Faraz» - yunonchadan olingan bo'lib, «asoslari, avvaldan taxmin qilish», nazariy asoslari, taxminan o'rganilgan fakt, hodisa, jarayonlarni ilgari surilayotgan tushuncha bo'lib, uni yoki tasdiqlaydi, yoki inkor etadi.

Inson biror muammoga duch keldimi, miyada uni yechimini qidirish, yo'llarini konstruksiyalash, taxminlar, farazlash tasavvurlarini shakllantiradi.

Ilmiy tadqiqotning farazi – bu ilmiy asoslangan taklif bo'lib, ular bevosita hodisalarni kuzatish, hodisa strukturasini yoki xususiyatlaridagi o'zaro komponentlar aloqasida tug'iladi. Farazlar mavjud faktlar asosida ishlab chiqiladi.

Faraz aqliy faoliyat bo'lib, u ob'ektiv faoliyatni kuzatib, mantiqiy fikr yuritish orqali hodisaning sababini tushuntirib berishda tug'iladi.

Faraz qarama-qarshi qarashlar muammolar yechimini va mavjud vaziyatdan chiqish xolatlarini o'z ichiga oladi. Jarayonga ilmiy-ijodiy yondashish orqali, uning ilmiy yechimini topishga qaratiladi.

Ilmiy faraz – tadqiqotning nazariy tayyorgarlik va uning yakuniy qismidir. U ko'pincha yakuniy maqsadga yetish va uni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Dissertatsiyaning ilmiy farazi quyidagi mezon va talablarga javob berishi kerak:

- Taklif etilayotgan farazni prinsipial tekshirish, nazorat etish mumkinligi;
- Uni maksimal tushunarli, ketma-ketligi;
- Uni amalda ijro etish mumkinligi;

- Mantiqan o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lishi kerakligi;
- Ilgari surilayotgan faraz - mavjud bo‘lgan bilimlar bilan aloqadorligi.

Har qanday ilmiy faraz tadqiqot natijasida o‘z isbotini talab etadi. Ilmiy izlanishda faqatgina muammolarni yechibgina qolmay, ularni ma‘lum qonuniyatlarga bo‘ysunishi talab etiladi.

Ilmiy faraz tadqiqotda qo‘yilgan muammolar yechimigagina qaratilibgina qolmay, uning mantiqiyligini, ilmiy izlanishning maqsadini, qo‘yilgan muammolarning yechimini ko‘zda tutadi. Ilmiy faraz muammolarini ilmiy yechimlariga erishish yo‘llariga qaratiladi. Masalan: «Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini kasbiy-shaxsiy tayyorgarligining texnologik tizimi» mavzusidagi tadqiqotning ilmiy farazini quyidagicha shakllantirish mumkin:

1. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-shaxsiy tayyorgarligi darajasiga tizimli yondashuv;
2. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-shaxsiy tayyorgarligining texnologik asoslari ishlab chiqilsa;
3. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-shaxsiy tayyorgarligini takomillashtirishda samarali omillar ishlanib, ulardan unumli foydalanilsa;
4. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-shaxsiy tayyorgarligini takomillashtirishda pedagogik amaliyotning mavjud faol imkoniyatlaridan tug‘ri va to‘la foydalanilsa;
5. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun malakali pedagoglarni tayyorlashga oid ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqilsa va oliy ta‘lim amaliyotida keng qo‘llanilsa, boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarining kasbiy-shaxsiy tayyorgarligini ta‘minlash jarayonida sifat va samaradorlikka erishiladi.

Yuqorida bayon qilinganlar asosida dissertatsiyani oldiga qo‘yilgan maqsadga ilmiy farazning ijrosini ta‘minlash orqali erishiladi.

Himoyaga olib chiqiladigan xolatlar

Magistrlik dissertatsiyasi himoyasiga olib chiqiladigan xolat g‘oyalarini shunday shakllantirish kerakki, tadqiqot natijasiga ko‘ra uni himoya qilish mumkin bo‘lsin.

Ko‘pincha amaliyotdagi faoliyatdan sekin asta ilmiy yondashuvlar, ilmiy g‘oya va farazlar tomon qadamlar kuyiladi. Ilmiy ishning amaliyotdan nazariy asoslarga o‘tishi yaxshi natijalar beradi, bu ayniqsa pedagogik amaliyot o‘tayotgan magistrnlarga mos keladi.

Magistrlik dissertatsiyalarida quyidagi maqsadlarni hal etish xolatlari ko‘rsatib o‘tiladi:

Birinchi xolat, tadqiqotning 1-vazifasi hal etilgach qisqacha yozib ko‘rsatiladi.

Ikkinchi xolat, tadqiqotning 2-vazifasini hal etish yozib ko‘rsatiladi.

Uchinchi xolat, tadqiqotning 3-vazifasini hal etish yozib ko‘rsatiladi.

Masalan, tadqiqot mavzusi «boshlangich sinf o‘quvchilarida mehnat an'analariga qiziqishni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari» deb olingan bo‘lsa, himoyaga quyidagi holatlar olib chiqiladi:

1. 1-4 sinf o‘quvchilarida mehnat an'analariga qiziqishni shakllantirish bo‘yicha tayyorlangan o‘quv materialarining mazmuni.

2. 1-4 sinf o‘quvchilarida mehnat an'analariga qiziqishni shakllantirishga tizimli yondashuv.

3. 1-4 sinf o‘quvchilarida mehnat an'analariga qiziqtirishni shakllantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalar, pedagogik tajriba-sinov natijalari.

Yuqorida bayon etilgan xolatlar dissertatsiyaning yangiligini tashkil qiladi. Uning ilmiy, nazariy va amaliy natijalari himoyaga olib chiqiladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. «Faraz» tushunchasini mazmun-mohiyatini aytib bering.
2. Ilmiy tadqiqotning farazi o‘z ichiga nimalarni oladi?
3. Tadqiqotning ilmiy farazi qanday mezon, talablarga javob berishi kerak?
4. Siz o‘z mavzuingiz bo‘yicha ilmiy tadqiqotingizning farazini ishlab chiqing?
5. Himoyaga olib chiqiladigan xolatlarni aniq misollar bilan tushuntirib bering.

TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA NATIJALASH

Tajriba sinov nima? U shunday tafakkur va fikrlash jarayoni bo'lib, uning yordamida tabiiy yoki maxsus yaratilgan, nazorat qilinadigan, boshqariladigan pedagogik farazlar, g'oyalar, yangiliklar o'quv jarayoniga tatbiq qilinadi.)

Pedagogik ilmiy farazlar, muammolarni hal qilishning yangicha yo'llari va vositalari izlanadi. Pedagogik tajriba-sinov bu, umummilliy tafakkur jarayoni bo'lib, pedagogik omillar, shart-sharoitlar, jarayonlar o'rtasidagi sabab va oqibatlar bilan bog'liq o'rganiladigan bir yoki bir necha ob'ekt yohud tizimlarni aniq rejalar asosida oydinlashtirish imkonini beruvchi jarayondir. Tajriba-sinov ishlari asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki yangicha usullarning tadbiqiy jarayonlarini sinash, tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Pedagogik tajriba-sinovlar o'tkazishning asl mohiyati amaldagi pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga olib boradigan tadqiqotlar va ularning farazlariga muvofiq ravishda aniq maqsad sari yo'naltirilgan, mutlaqo yangicha muhit olib kirishdan iborat. Ta'lim-tarbiya jarayonining takomillashib borishi va natijalarni oldindan ko'ra bilish imkoniyatlarini beradi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlariga qo'yiladigan talablar

1. Ishning ilmiy jihatdan asoslangan farazini aniqlash va kutilishi lozim bo'lgan natija uchun reja belgilash;
2. Tajriba-sinov uchun aniq ob'ekt belgilash;
3. Tajriba-sinov o'tkazish vaqti va muddatini, sinflarini belgilash;
4. Tajriba-sinov uchun kerakli vositalar, asbob-uskunalar, material, matnlar, anketalar va boshqa zaruriy narsalarni tayyorlash;
5. Tajriba-sinovni olib borishda tadqiqotchi, magistrant va tajriba-sinovni olib boruvchi o'qituvchi tadqiqot materiallari, olib borish yo'llarini, kutilayotgan natijalarini aniq belgilab olish va hamkorlikda ish yuritishi;
6. Tajriba-sinovning borishi va natijalarning aniq yozilishi, tahlil qilinishi, tegishli xulosalar chiqarilishi va tavsiyalar berib borilinishi talab etiladi.

Tajriba-sinovlarni o'tkazishdan oldin shu sohaga doir eng maqbul ishi olib borish texnologiyasi, metodini belgilash ham ko'zda tutiladi. Ular 2 yo'nalishda olib borilishi mumkin.

Birinchi, empirik (kuzatuv, tahliliy metod).

Ikkinchi, nazariy metod.

Biz bu haqida 13-mavzuda to'xtalgan edik.

Tajriba-sinov yakunida qanday maqsad va vazifalar ko'zda tutilmasin, tajriba-sinov diqqat markazida o'quvchining rivojlanishi, xohish istaklari, ehtiyojlari, qiziqishlari, ijodiy mustaqil fikr yuritishlari ko'zda tutilishi kerak.

Sinov ishlari shunday tashkil etilishi kerakki, o'quvchiga shunday muhit, shart-sharoit yaratilishi kerakki, u o'z xohishi bilan o'qisin, materialni esda saqlab qolsin, o'zlashtirsin, olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olsin va nihoyat o'zi mustaqil xulosa chiqarsin.

Xulosa qilib aytganda, tajriba-sinov ta'lim standartlarini to'la o'zlashtirish va uni sifat samaradorligini oshirishga qaratilmog'i kerak.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Tajriba-sinov nima, izohlab bering.
2. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazishga qanday talablar qo'yiladi?
3. Tajriba-sinov qanday yo'nalishlarda olib boriladi?
4. Tadqiqotning empirik metodi o'z ichiga nimalarni oladi?
5. Nazariy metod tarkibiga nimalar kiradi?
6. Tajriba-sinov olib borishda qanday qoidalarga rioya qilish kerak?
7. Tajriba-sinovga jalb etilgan magistrant va o'qituvchi nimalarni bilishi va nimalarga rioya qilishi kerak?
8. Tajriba-sinov natijasida o'quvchilarda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishi kerak?

ILMIY TADQIQOTNING MAZMUNINI SHAKLLANTIRISH VA UNI TIZIMI

Magistrlik dissertatsiyasiga material tayyorlash va uni matnlari, mazmunini yaratish bosh va murakkab masala bo'lib, u nihoyatda ijodkorlikni, sabr-toqatni, tinimsiz mehnatni va zehnni talab qiladi.

Dissertatsiyaning kirish kismi. Bu qismda avvalo dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, ishlanganlik darajasi, maqsadi va qo'yilgan vazifalarining mazmuni ochib beriladi.

Shundan so'ng tadqiqotning ob'ekti va predmeti shakllantiriladi. Keyin esa tadqiqot uchun tanlangan metodlar ko'rsatiladi, shu asosida ishning nazariy ahamiyati ishdan olingan natijalarning amaliy ahamiyati va himoyaga olib chiqiladigan xolatlar bayon qilinadi. Umuman dissertatsiyaning kirish qismi eng ma'sulli qism bo'lib, u magistrantni kelgusida tadqiqot mazmunini keng ochishga imkon berib, uning kvalifikatsion xarakteristikasini ko'rsatib beradi.

Shu sababli ham dissertatsiyaning dolzarbligini asoslashga alohida e'tibor qaratiladi. Shuni yodda saqlash kerakki, dissertatsiyaning zarur elementlaridan biri uning metodlarini ko'rsatib o'tishdir, chunki u faktik materiallarni qo'yilgan maqsadga ko'ra to'plash imkonini beradi.

Kirish qismida ilmiy jarayonni qanday amalga oshirilgani, qaysi manbalarga suyanilgani ham aytib o'tiladi. Shu o'rinda olingan asosiy axborotlar (qaysi rasmiy, ilmiy, adabiy, bibliografik) manbalarga ishora qilinib, uning metodologik manbalari ham ko'rsatiladi.

Dissertatsiya ishining asosiy bob va qismlarida ularning mazmuni qo'yilgan mavzuga to'liq mos kelishi kerak. Har bir bob qisqa, lo'nda, mantiqan bog'langanlikda, faktlarga asoslangan xolda, ular dissertatsiyaga qo'yilgan me'yoriy xujjatlarga moslashtiriladi.

Dissertatsiyaning boblarini yozishga kirishishdan avval, uni boblar va bo'limlar asosida strukturik ketma-ketlikni ko'z oldiga keltirish kerak.

Boblar, bo‘limlarni mazmunini mantiqan ketma-ketlik bilan o‘zaro bog‘liqlikda, uni qismlarini o‘zaro bir-biri bilan bog‘lab, olib borish umumiy mazmun, matnni shakllantirishni ta'minlaydi. Uni ilmiy tilda o‘ziga xos mualliflik usulida bayon qilinadi.

Dissertatsiyaning navbatdagi bo‘limini yozishda uning nomini, maqsadini, dissertatsiyada tutgan o‘rniga, boshqa bo‘limlarga aloqadorligi xususiyatidagi strukturasiga e'tibor qaratish kerak.

Har bir bo‘limni, qo‘yilayotgan masalalarni shartli strukturasini tuzib, dissertant quyidagi savollarni o‘z oldiga keltirish kerak:

1. Ushbu bo‘lim predmeti bo‘yicha boshqa tadqiqotlardan nimalar ma'lum, bu haqida avvalgi bo‘limlarda nimasi yoritilgan, shundan kelib chiqib, nimani, qaysi fikrni bayon qilish kerak?

2. Umumiy konsepsiyadan kelib chiqqan xolda, yoritilayotgan bo‘limda ko‘zda tutilgan masala bo‘yicha sizning shaxsiy nuqtai nazaringiz qanday?

3. Yozish uchun mo‘ljalga olingan variantingizni bo‘limdagi predmetiga uzviy bog‘liqligi?

4. O‘z nuqtai nazaringizni qaysi faktlar asosida isbotlash mumkin?

5. Keltirilgan holatlarga qanday e'tirozingiz yoki shubhalarizingiz bor? Nima mos keladiyu yoki mos kelmaydi?

6. Dissertatsiyada ko‘zda tutilgan ilmiy muammolarning yechimiga keltirilayotgan xolatdagi mazmunlar qanchalik hissa qo‘sha oladi?

7. Ilmiy ishning to‘laqonli mazmunini yoritish uchun, bo‘lim mazmunini yana nimalar bilan boyitish mumkin?

8. Bo‘limda keltirilgan xolatlar tadqiqotning keyingi mazmunini yoritishga qanchalik ta'sir etadi va tadqiqotning qolgan qismini davom ettirishga ta'sir etadi?

9. Bo‘lim mavzusini, mazmunini yanada to‘lakonli bo‘lishi uchun yana nimalar bilan to‘ldirishi mumkin?

Shunday qilib, dissertatsiyaning asosiy boblarida hodisa va faktlar to‘liq ko‘rib chiqiladi va tahlil qilinadi. Har bir bobdagi mavzuni aniq, qisqa va lo‘nda bo‘lishi dissertatsiya matni mazmunini mantiqan ochib beradi.

Har bir bobda nimalarni bayon qilinishiga to'xtalamiz:

I bob – bu bobda mavzudagi muammoni umumnazariy mazmuni, unda ko'zda tutilgan nazariy va amaliy yechimlari, qay darajada hal qilinganligi, u haqda chet ellik olimlar tajribalarining qanchalik ko'zlangan muammo va yechimlariga munosabatlari haqida fikr yuritiladi. Bu bobda deduksiya usulidan foydalanib, dissertant umumiylikdan xususiylikka, yoki bir qator xususiy voqealardan umumiylikka o'tishni o'zaro bog'liqligiga to'xtaladi.

II bob – bu bobda dissertant magistrlik dissertatsiyasi olib borilayotgan ta'lim muassasini qisqacha xarakteristikasini keltiradi. Ishni olib borish jarayonida nima o'zgardi, o'zgarishlarni tahlil etadi, umumlashtiradi, o'zgarish sabablarini, unga nima ta'sir ko'rsatgani haqida to'xtaladi. Shu asosida umumlashtirish va tahliliy xulosalarni keltiradi. Bobning tegishli qismida mantiqiy ketma-ketlikda tadqiqotning funksiyasi, vazifalari, tadqiqotning ob'ekt yo'nalishi, tashkiliy tuzilishi, boshqaruv tizimi, uning ichki va tashqi faktorlari, ob'ektning texnika va iqtisodiy ko'rsatgichlari keltiriladi. O'tkazilgan tahlillarga suyangan xolda ob'ektdagi mavjud kamchilik va muammolarga to'xtalinadi.

Shu asosda o'rganilayotgan hodisa va faktorlar to'la ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi. Tadqiqotning texnika va metodikasi yozma xolda keltiriladi. Shu o'rinda faktlarni qayta ishlash va sistemaga solishga alohida e'tibor beriladi.

Faktlar «faktik bilimlar» tariqasida tadqiqotning mantiqiy-ilmiy asoslari keltiriladi. Faktlar qo'yilgan vazifalarning yechimini hal etish uchun to'planadi. Shuning uchun ham to'plangan faktlar optimal miqdorda bo'lishi talab etiladi.

Faktlarni tahlil qilishning borishi – bu xulosalarning uzluksiz zanjiri bo'lib, ular o'zaro birlashib, ma'lum manzarani shakllanishiga olib keladi. Shularning umumlashishi asosida dissertatsiyaning predmeti, mazmuni va mohiyati ochiladi.

Har bir bobda yozilgan materiallar asosida xulosalar berib boriladi.

III bob - o'rganilgan tizim asosida o'tkazilgan tahlillar natijasiga ko'ra, ob'ektning iivojlanishi, samaradorligi keltiriladi. Qo'yilgan maqsadga ko'ra, model yoki sxemalar asosida ishning pedagogik yechimi va yangiliklari keltiriladi.

Bu bobda o'tkazilgan tahlillar asnosida ishning ma'naviy, ma'rifiy, tarbiyaviy, iqtisodiy samaradorligi takliflari keltiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, asosiy qism dissertatsiyaning mavzu-maqсадlariga mos kelishi kerak. Xulosalari qo'yilgan maqsadlarini yechimiga mos kelishi, qancha paragraflar bo'lsa, shuncha vazifalar hal qilinishi kerak.

Xulosa. Odatda dissertatsiyalar xulosalar bilan yakunlanadi. Xulosa olib borilgan tadqiqot ishining yakuni sifatida qabul qilinadi. Xulosalar har bir bob yakunida berib borilib, ishning yakunida umumiy xulosalar shakllantiriladi. Umumiy olingan natijalari umumlantirilgan xolda amalga oshirilishi mumkin. Har bir bobda hal etilgan vazifani bajarilganligini sintezi sifatida ham shakllanishi mumkin.

Dissertatsiyaning xulosasi shunchaki olingan natijalarni ro'yxatidan iborat bo'lib qolmay, balki ishni xulosaviy sintezi va olingan yangiligi sifatida yoki uning natijasi sifatida qabul qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. Adabiyotlar ro'yxati dissertatsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuningdek, dissertatsiyaning mustaqil, ijodiy ishining ko'rsatgichidir.

Ishga kiritilgan ilmiy-adabiy manbaalar dissertatsiyada o'z ifodasini topish kerak. Dissertant keltirgan fakt yoki sitatani kimning asari ekanligiga ishora qilib ko'rsatishi kerak.

Lekin ensiklopediya, spravochniklar, ilmiy ommabop kitoblar va gazetalarni adabiyotlar ro'yxatiga kiritish tavsiya qilinmaydi. Agar dissertatsiyada ulardan foydalanilgan bo'linsa, matn ichidagi qatorlarga ishora qilib, o'sha betda ko'rsatiladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Dissertatsiyaning kirish qismida nimalar haqida fikr yuritish va yozma bayon qilish kerak?
2. Dissertatsiyaning boblari va bo'limlari mazmunini bayon qilishda nimalarga, qanday rioya qilish kerak?

3. Umuman dissertatsiyaning mazmunini yoritishda, dissertant o'z oldiga qanday savollarni qo'yishi kerak?
4. Dissertatsiyaning I bobida qaysi masalalar, qanday yoritilishi kerak?
5. Dissertatsiyaning II bobida qaysi masalalar, qanday yoritilishi kerak?
6. Dissertatsiyaning III bobida qaysi masalalar, qanday yoritilishi kerak?
7. Dissertatsiyaning xulosasi qanday shaklda yoziladi?
8. Dissertatsiyada adabiyotlardan foydalanilganda qanday tartibda keltiriladi?

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Magistrlik dissertatsiyasi-dissertatsion ilmiy ishlarning aloxida turi hisoblanadi. Boshqa dissertatsion ilmiy ishlarda o'ziga xos ilmiy yo'nalishdir.

Bu ishni alohidaligi shundaki, u bitirganlik haqidagi, bitirish kvalifikatsiyasi uchun bajariladigan "Mustaqil bajariladigan ilmiy izlanish hisoblanib ilmiy rahbarligida olib boriladi (agar u ikki mutaxassislik kesishuvida bajarilsa, ikki, bir yoki ikki konsultantlar rahbarligida olib borilishi mumkin).

Magistratura - magistrlar tayyorlash ilmiy izlanishlar, ilmiy-pedagogik tayyorlashni birinchi pog'onasidir. Undan so'ngra doktoranturaga kirish imkoni tug'iladi. Magistrlik dissertatsiyalari o'quv yurtlarida ikkinchi bosqichda magistraturada amalga oshiriladi.

Magistrlik darajasi u ilmiy daraja huquqini bermaydi, balki u akademik darajada va birinchi navbatda oliy o'quv yurtini ikkinchi bosqichini tugatgan oliy ma'lumotli, yuqori malakali mutaxassis bo'lib, u ilmiy ish ilmiy pedagogik faoliyatni olib borish bilim va malakasiga ega bo'lgan shaxsdir.

Magistrlik dissertatsiyasi shunday ko'rinishda taqdim etiladiki, unda ilmiy izlanishni mazmuni, uni to'laqlonligi, ko'zda tutilgan maqsad, vazifalari, xulosa va tavsiyalarni to'la tavsiflashga va ular to'g'risida xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi.

Ayniqsa, yarim yangiligi, natijalarini ilmiy izlanuvchanligi, ilmiy izlanish qobiliyati borligini namoyish etishi kerak.

Doktorlik dissertatsiyasi jiddiy ilmiy muammolarni hal etish, biror yangilikni eksperimental sinovdan o'tkazish isbotlashga bag'ishlanadi.

Magistrlik dissertatsiyasi mustaqil bajarilgan ilmiy izlanish bo'lib, u o'quv jarayonini ilmiy yondashuvlari bo'lsada, ilgaritdan masalani yechish bo'yicha modellashtirilgan ma'lumotlarga tayanadi.

Magistrni ilmiy izlanishlari o'quv jarayoni dasturlari doirasida olib borilishi maqsadga muvofiq.

Magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish tartibi xam ancha soddalashtirilgan xolda olib boriladi.

Ularga maxsus opponentlar biriktirilmaydi. Ammo magistrlik dissertatsiyasi retsenziya qilinib, u ham ilova tariqasida beriladi.

Dissertatsiya 3 bo'limdan 70-80 bet atrofida bo'lishi maqsadga muvofiq. Uning kirish qismida (5-10 betda) quyidagilar ko'zda tutilgani ma'qul.

- Mavzuning dolzarbligi
- Mavzuning ishlanganlik darajasi.
- Mavzuning ilmiy yangiligi
- Ilmiy ishning ob'ekti
- Ilmiy ishning metodlari
- Dissertatsiyaning maqsad va vazifalari
- Ilmiy ishning ishonchliligi
- Ilmiy ishning farazi
- Ilmiy natijalarning ahamiyati
- Olingan natijalar qo'llanish sohalari
- Tajriba-sinov ishlari, uning natijalari va validliligi (ishonchliligi).

Dissertatsiyada orfografik, punktuatsion xato va g'aliz gap buzilishi, fikrlarga yo'l qo'yilmaydi. Turli mahalliy shevalarda yozilishi mumkin emas. U toza badiiy – adabiy tilda bayon qilinishi kerak.

Magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish tartibi:

Davlat attestatsiyasi komissiyasiga taqdim etiladigan asosiy xujjatlar.

Magistrlik dissertatsiyasi tayyor bo'lgach, ilmiy rahbarga taqdim etiladi. Rahbar ishni yana bir marotaba to'la ko'zdan kechirib, oxirgi taklif va mulohazalarini yozma bayonda izohlaydi, tayyorlaydi. Yozma taqriz o'z fikrni erkin bayon qilish orqali amalga oshiradi. Shu bilan ishni umum maqsad, yo'nalish mazmuni va nazariy, amaliy tomonlari bayon qilinadi.

Rahbar o'z xulosasida umum mazmuni magistrni ixtisoslashayotgan sohasi, fan yo'nalishi dissertatsiyaning to'la talablarga mosligi aytib o'tiladi.

Ilmiy rahbar qilingan ishlar qisqacha xarakteristikasiga to'xtaladi. Ishning dolzarbligi, ishni nazariy va amaliy tomonlari, uni zaruriyati, to'laqonliligi, mazmunining chuqurligi va o'ziga xos yechimi topilganligini aytadi. Ilmiy ishga baho beradi. Ilmiy rahbarning ilmiy ishga berilgan xulosasi o'qiladi, u magistrlik dissertatsiyasi talablariga javob berilishi ta'kidlanadi.

Himoya qilishdan oldin magistrlik dissertatsiya albatta retsenziyadan o'tkazilishi kerak. Retsenzent dissertatsiya mavzusi bo'yicha ishlayotgan mutaxassislar jalb etiladi.

Retsenzent retsenziya etilayotgan dissertatsiyani ishni mustaqil bajarilgan, ishning mavzui dolzarbligini, asosiy maqsad va vazifalarni to'g'ri hal etilganini yuqori saviyada tahlil etishi kerak.

Undan tashqari u o'z shaxsiy fikr va mulohazalarini, dissertatsiya xulosa va tavsiyalari asoslanganlik darajasini qayd etilishi kerak. Ayniqsa, olingan natija va yangiliklarning amaliy ahamiyatini ko'rsatish maqsadga muvofiq. Albatta, dissertatsiyani ijobiy tomonlarini ko'rsatish bilan birgalikda kamchiliklari ham ko'rsatilishi kerak. Ayniqsa, ishni mavzuga mosligi, mantiqiy, ilmiy, imlo xatolari haqida fikr bildirilsa, yana ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Retsenziya ikki va besh sahifada bo'lishi mumkin.

Retsenziyada bayon etilgan ijobiy va ko'rsatilgan xato va kamchiliklar Davlat attestatsiya komissiyasiga o'qib eshittiriladi va ular dissertatsiya xulosalarini chiqarishda hisobga olinadi.

Alabttta, retsenziya dissertatsiya muallifi avvaldan xabardor qilinadi. Chunki u ko'rsatilgan xato va kamchiliklarga va taklif – mulohazalarga argumentli javoblar berishi talab etiladi.

Tugallangan magistrlik dissertatsiya.

Individual kasbiy yo'nalishi bo'yicha rejalarni bajarganligi haqidagi ma'lumotnoma, magistrant ilmiy rahbarining xulosasi, mutaxassisning retsenziyasi davlat attestatsiya komissiyasida ko'rib chiqish. Xulosalash uchun taqdim etiladi.

Davlat attestatsiyasi komissiyasi majlisiga magistrantni chiqishini tayyorlash

Magistrantni davlat komissiyasida so'zga chiqishi uchun dissertatsiyasi yuzasidan olgan tushuntirish konspekti tayyorlanadi. Komissiya yig'ilishida shu tayyorlangan konspekt o'qib beriladi (yoki og'zaki so'zlab beradi). Mana shu tayyorlangan xujjati asosida Davlat attestatsiya komissiyasi a'zolari dissertatsiya yuzasidan xulosa qiladilar. Dissertatsiya yuzasidan so'zga chiqish xujjati bu dissertatsiyani qisqartirilgan, ko'chirilgan holati bo'lmay, unda dissertatsiyani avtoreferati, tushuntirish matni, uni mohiyatini ochib beradigan holatida bo'lishi kerak.

Dissertatsiyani mantiqiy ketma-ketligi, tahlili, axborotlarni sintezlashi kerak. Uni umumlashtirilgan holda, hajm jihatidan kichik mazmuni ken yoritilishi va 5 sahifada dissertatsiyani mohiyati qisqa, lo'nda ochib berilishi kerak. Mazmunda maxsus bloklarda rubrikalarga ajratib, har bir blok alohida mazmunini yoritishi, umumiy mazmun bo'la yoritilishiga erishilishi kerak.

Tushuntirish matnini birinchi qismi dissertatsiyani kirish qismini to'la yoritadi. So'ngra mavzuni dolzarbligi ilmiy muammo yoritiladi, uning mavzusini va maqsadi yoritiladi.

Ikkinchi qismi (3-3,5 bet) o'tkazilgan tajriba sinov ishlari, har bir bo'limdagi o'z yechimi topgan masalalar kiritiladi.

Bu qismda soʻnngi olingan natijalarga alohida eʼtibor qaratiladi. Bunda tanqidiy tahliliy xulosalar aytilib baho beriladi. Tushuntirish maʼruza darsi maʼlumot yakunida dissertatsiya xulosalari keltiriladi. Unda umumiy xulosalar va umumlashtirilgan tavsiyalar asosida uni oʻquv jarayoni sifati va amaliyotga foydasi bilan yakunlanadi.

Tushuntirish matnida magistrant soʻzi yakunida dissertatsiya adabiyotlar roʻyxatida—adabiyotlarilovalardan iboratligi keltiriladi.

Tushuntirish matniga qoʻshimcha materiallar ilova qilinadi (sxema, tablitsa, rasm, diagrammalar) ilova qilinib, u dissertatsiyada ilgari surilgan gʻoya va chiqarilgan xulosa, tavsiyalar keltiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash jarayonidagi kalitli soʻzlar.

Magistratura – magistrnlarni tayyorlash shakli, ularni ilmiy tekshiruv va ilmiy – pedagogik faoliyatga tayyorlaydi. Bakalavrdagi kechgan bosqich bshlib, unda akademik bilimga, yuqori darajadagi bilim egasi.

Magistr – bular shunday mutaxassiski, fundamental ilmiy bazaga ega, ilmiy fundamentla ijodkorlik metodologiyasini oʻzlashtirib olgan, zamonaviy axborot texnologiyasini egallagan va axborotni olish, qayta ishlash va saqlash koʻnikmasiga ega.

Magistrlik dissertatsiyasi – ilmiy ishlarning alohida turi yoki ilmiy asardir. U ilmiy izlanish ilmiy rahbarligida olib boriladi. Bu mustaqil bajarilgan ilmiy ish Davlat attestatsiya komissiyasiga himoya qilinadi va davlat akkreditatsiyasidan oʻtkaziladi.

Individual reja – ilmiy ishni olib borish. Ishlarni vaqtida ketma-ket olib borish algoritmidir. Individual reja –magistrantni ish olib borishidagi rahbarlik xujjatidir. Unda ishning yoʻnalishi, mazmuni, hajmi, oʻqish va ijro muddati, bajariladigan ilmiy asarning anshri ham belgilanadi. Ish rejasi 2 yilga moʻljallanadi. Uni yillik, 6 oylik va kvartallarga boʻlish mumkin.

Maqsad – juda muhim, bosh masala, asoslangan, ilmiy, amaliy, aniq, real, koʻrilgan, topshirilgan.

Vazifa – birinchi navbatdagi yaqin oradagi, so‘nggi, topshirilgan, mo‘ljalga olingan, asoslangan, alohida, aniq, ma’lum yo‘nalishlik.

Yo‘nalish – olib boruvchi bosh yo‘nalish, hal qiluvchi, asosiy, nihoyatda muhim. To‘g‘ri, xato, tanlangan, mo‘ljalga, ko‘rsatilgan, navbatdagi.

O‘rganish – asoslangan, tajriba-sinov, nazariy, amaliy, qiyosiy, tajriba suyanilgan, bevosita, maxsus, uzoq muddatli, doimiy, tizimli, navbatdagi, chuqur, jadallashgan, atroflicha, detallashtirilgan, diqqat bilan, e’tiborli.

Ilmiy izlanish – ilmiy, ob’ektiv, nazariy, tajriba-sinovli, tajribali, umumiy, aniq, fundamental, chuqurlashtirilgan, atroflicha, har tomonlama, to‘liq, faol, jiddiy, murakkab, himmatli.

O‘rganish yo‘llari – oddiy, murakkab, noto‘g‘ri, ratsional, optimal, tajriba yo‘li bilan, chuqur tasavvur, uzoq muddatli, atroflicha kuzatuv.

Eksperiment – lotincha so‘z bo‘lib, “sinab ko‘rish”, “tajriba qilib ko‘rish” ma’nosini bildiradi. Analog asosida o‘xshashligini, tekshirishga asoslanish yangilikni, qiziq fakti nihoyatda yanlilik ekanligini, ishonarligini, opxodimligini, mo‘ljallanganligini, ilgaritdan olingan mo‘ljalni sinash. Asosan ta’lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tatbiq jarayonini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Analiz – ilmiy, haqqoniyligini, aniqliligini, atroflicha, o‘tkazilgan, to‘liq, to‘laqonli, detallashtirilgan, qiyosiy, diqqat bilan, aniq, chuqur.

Material – ilmiy, eksperimental, ma’lumotli, statistik, faktik, umumlashgan, tizimlashtirilgan, olingan, mavjud bo‘lgan, mavjud, foydalanilgan, katta, boy, kengaytirilgan, turlicha, yetarli, ishonchli, mos kelmaydigan.

Fakt – real, aniq, ma’lum bo‘lgan, ishonchli manbani, hech qanday isbot talab qilmaydigan, ishonchli.

Axborot – aniq, to‘laqonli, to‘la, atroflicha, to‘plangan, asoslangan, qimmatli, zaruriy, olingan, tezkorlik, belgilangan, yetarlicha, yangi, mavsumiy, kundalik.

Mavzuning dolzarbligi – davrga nisbatan yoki shu kungacha zarur yoki muhimligi. Mavzuning shu shu kun ta’limi sifatini ko‘tarish yoki o‘quv jarayonini takomillashishi uchun muhimligi.

Ilmiy ish farazi – ilmiy taxmin etilayotgan u yoki bu hodisani ilgari surilayotgani.

Deduksiya – umumiy aqliy xulosalardan xususiylikka, bir qancha xususiyl voqealardan umumlashdirib ularni o‘zaro ta’siri asosida xulosa chiqarish.

G‘oya (ideya) – turli qarashlar asosida ahvolni aniqlash. Boshqa bilim fikrlash formalari tushuncha, g‘oyalari: g‘oya shu bilan farqlanadiki, unda nafaqat o‘rganish ob’ektigina tushunilmaydi. Qarashlari maqsadlar, uni istiqbollari, amaliyotda tatbiqiy o‘zgarishlar ham ko‘zda tutiladi.

Induksiya – ilmiy izlanish, mulohaza yuritishning uslub va metodlari. Ammo umumiy xulosalar chiqarishda shaxsiy yakka qarashlar asosida xulosalar chiqariladi.

Ilmiy tadqiqot – yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni bo‘lib, qiziqishning bir turidir. U o‘zining ob’ektivligi, qayta ishlanishi, isbotlanishi va aniqligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot topshirig‘i – ilmiy tadqiqot olib borishni tashkil etish konspekti. Uning muddati aniq ko‘rsatiladi. U mavzuning olib borilishi bilan belgilanadi.

Konsepsiya – biror narsaga tizimli yonodshuv, asosiy fikr ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalari qaratilib, uni olib borish yo‘llari ko‘rsatiladi.

Tadqiqot metodi – olingan, erishilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni olish yoki hosil qilish.

Tadqiqotning metodikasi – konkret uslublar tizimi yoki biror tadqiqotni olib borish uslub, amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlari.

Ilmiy bilishning metodologiyasi – ilmiy-tadqiqot faoliyatni olib borishning formasi, yo‘llari va prinsiplari.

Modellashtirish – ob’ektning (originalini) u ayni kopiyasini (model) xolatda o‘rganish xolati. Originalning o‘rnini bosuvchi, aniqlashni atroflicha o‘rganish,

o'rganilayotgan ob'ekt – ob'ektning xususiyatlarini saqlagan holda amalga oshiriladi.

Kuzatish – borliqni ob'ektiv maqsadli qabul qilish, ob'ektni tashqi qiyofasi, xususiyatlarini, ob'ektga munosabatlarni ob'ektivligin ta'minlaydi.

Ilmiy mavzu – ilmiy xarakterga ega bo'lgan vazifa bo'lib, u ilmiy-tadqiqot olib borishni talab etadi. Ilmiy tadqiqotni rejali asosda olib borish ko'rsatgichidir.

Umumlashtirilgan – fikrlash uslubi va uning natijasida o'rganilayotgan ob'ektni belgilari va xususiyatlarini belgilab beradi.

Tadqiqot ob'ekti – jarayon yoki hodisa bo'lib, o'rganish uchun tanlangan va muammoli vaziyatni vujudga kelishidir.

Tushuncha – predmetlarni farqlantiruvchi, o'zaro munosabatlarni bildiruvchi fikr, yaxlitlash.

Tadqiqotning predmeti – ilmiy tadqiqot chegarasidagi o'rganish uchun olingan ob'ektdir.

Bashorat qilish – biror-bir hodisani istiqboldagi rivojini maxsus ilmiy tadqiqot etish.

Tajriba-sinovni olib borish materiali – tajriba-sinov materiali ilmiy izlanuvchi tomonidan tayyorlanadi. Ilmiy rahbar bilan kelishiladi. Tajriba ob'ektidagi rahbar va o'qituvchilar roziligi olinadi.

Tajriba-sinov sinfi – tajriba-sinov ishlari aniq bir sinfda sinf rahbari va dissertant hamkorligida olib boriladi. Tajriba-sinov sinfiga teng tayyorgarlikka ega parallel sinf tayyorlanadi. Tajriba-sinov ishlari natijalari har ikki sinfda bir-biriga taqqoslanib, natijalar chiqariladi.

Tajriba-sinov ishlarini natijalash – tajriba- sinov ish borishi boshlang'ich natijalari har chorakda yakunlab boriladi. Yo'l-yo'lakay ayrim zarur hollarda tuzatishlar o'rganilgan tartibda kiritilib boriladi. Ish yakunida o'quvchilarni o'zlashtirish, tarbiya topganlik dinamikasi ko'rsatidaji. Natijalari matematik-statistik hisoblar asosida yakunalanadi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va natijalash

Tajriba-sinov nima?

Bu shunday tafakkur va fikrlash jarayoni bo'lib, uning yordamida tabiiy yoki maxsus yaratilgan, nazorat qilinadigan, boshqariladigan pedagogik farazlar, g'oyalar, yangiliklar o'quv jarayoniga tatbiq qilinadi. Pedagogik ilmiy farazlar, muammolarni hal qilishning yangicha vositalari izlanadi.

Pedagogik tajriba-sinov bu, umummilliy tafakkur jarayoni bo'lib, pedagogik omillar, shart-sharoitlar, jarayonlar o'rtasidagi sabab va oqibatlar bilan bog'liq o'rganiladigan bir yoki bir necha ob'ekt yohud tizimlarni aniq rejalar asosida oydinlashtirish imkonini beruvchi jarayondir. Tajriba-sinov ishlari asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki yangicha usullarning tatbiqiy jarayonlarini sinash, tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Pedagogik tajriba-sinovlar o'tkazishning asl mohiyati amaldagi pedagogik jarayonlarni takomillashtirishga olib boradigan tadqiqotlar va ularning farazlariga muvofiq ravishda aniq maqsad sari yo'naltirilgan, mutlaqo yangicha muhitni olib kirishdan iborat.

Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirib borishi va natijalarini oldindan ko'ra bilish imkoniyatlarini beradi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda o'ziga xos talablar mavjud:

- ishning aniq, ilmiy jihatdan asoslangan farazini aniqlash va kutilishi lozim bo'lgan natija uchun reja belgilash;
- tajriba-sinov uchun aniq ob'ekt belgilash;
- tajriba-sinov o'tkazish vaqti va muddatini, sinflarni belgilash;
- tajriba-sinov uchun kerakli vositalar, asbob-uskunalar, material va matnlar, anketalar va boshqa zaruriy narsalarni tayyorlash;
- tajriba-sinovni olib borishda tadqiqotchi va tajriba-sinovni olib boruvchi o'qituvchi tadqiqot materiallari, olib borish yo'llarini, kutilayotgan natijalarni aniq belgilab olish, hamkorlikda ish yuritishi;
- tajriba-sinovning borishi va natijalarini aniq yozib borish, tahlil qilish, tegishli xulosa chiqarish va tavsiyalar berib borishlari talab etiladi. Tajriba-

sinovlarni o'tkazishdan oldin shu sohaga doir eng maqbul ishni olib borish texnologiyasi, metodini belgilash ham ko'zda tutiladi. Qo'llaniladigan texnologiya va metodlar asoslangan bo'lib, u ikki yo'nalishda olib borilishi mumkin.

Birinchidan, empirik metod hozirgacha tajriba-sinov mavzusiga oid qanday adabiyotlar, qo'shimcha manbalar, g'oyalar, tajribalar ma'lumotini o'rganib chiqish, tajriba-sinovga oid barcha farazlar, modellar, bajarilishi kerak bo'lgan ishni loyihalash asosida belgilash metodidir.

Shu bilan birga tajriba-sinov mavzusiga oid muammoga bog'liq barcha normativ va metodik hujjatlar, tavsiyalar, yo'riqnomalarni o'rganib chiqish ham muhimdir. Ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatiga doir turli hujjatlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuvlar olib borish, og'zaki va yozma so'rovlar o'tkazish, anketa va test savollariga javob olish, turli innovatsion ilg'or tajribalarni o'rganish va umumlashtirish ishlarini amalga oshirish ham pedagogik tajriba-sinovlarni muvaffaqiyatli o'tishiga olib keladi.

Ikkinchi, nazariy metod tarkibiga modellashtirish, texnologiyalashtirish, tabaqalashtirish, qiyoslash, umumlashtirish, tasavvur qilish, loyihalashtirish, bir tizimga keltirish, integratsiyalashtirilgan tizim va tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Tajriba-sinov ob'ekti, predmeti, maqsadlari, vazifalari, vositalari, mezonlari, muddatlari bo'yicha kutilayotgan natijalari, tajriba-sinov natijalarini amaliyotda qo'llash mumkinligi tadqiqotchi va tajriba-sinov olib boruvchi o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi talab etiladi.

Shu sababli tadqiqotchi va tajriba-sinov olib borgan o'qituvchilar:

- tajriba-sinov jarayoniga mas'uliyat bilan yondoshishi;
- tajriba-sinov olib boruvchi tadqiqotchi, tadqiqotchi-o'qituvchi ekanligini his etishi;
- sinov natijalari bo'yicha adolatli ishonchli xulosa chiqarishi mas'uliyati va burchi ekanligini his qilishi kerak.

Tajriba-sinov ishiga jalb etilgan o'qituvchi quyidagilarni yaxshi bilishi kerak.

- sinovga qo'yilgan materiallarning mazmun-mohiyatini o'zlashtirib, ishni to'g'ri tashkil etish va tadqiqotga ijodiy yondoshish;

- nazorat sinflarda tashkil etilayotgan dars jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan, metodlardan hamda axborot texnologiyalaridan unumli, keng qamrovli foydalanish;

- eksperimental materiallarni o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zlashtirish imkoniyatlarini, jismoniy rivojlanishlarini hisobga olib (ilmiy rahbar, tadqiqotchi, tajriba-sinov o'qituvchisi bilan maslahatlashib) ayrim o'zgartirish va tuzatishlar kiritishlari mumkin.

- Tajriba-sinov natijalari bo'yicha kuzatuv daftarini izchil va to'g'ri yuritish ham muhim ahamiyatga ega.

- Har chorak yakunida tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish.

- Tajriba-sinov o'tkazilayotgan sinf bilan nazorat sinfi o'quchilarini o'zlashtirish, rivojlanish, fikrlash darajalarini qiyoslash va taqqoslab berish.

- Tajriba-sinov natijalari bo'yicha xulosa, mulohazalarni ilmiy rahbar, tadqiqotchi va tajriba olib boruvchi o'qituvchi bilan muhokama o'tkazish.

Tajriba-sinov yakunida qanday maqsad va vazifalarni ko'zda tutmasin, tajriba-sinov diqqat markazida o'quvchining rivojlanishi, xohish-istaklari, qiziqishlari, mustaqil fikr yurita olishlari yotadi.

Sinov ishlari shunday tashkil etilishi kerakki, o'quvchiga shunday muhit-sharoit yaratilishi kerakki, u o'z xohishi bilan o'qisin, esda saqlab qolsin, o'zlashtirsin, olgan bilimni amaliyotda qo'llay olsin va nihoyat o'zi xulosa chiqarsin.

Vaholanki, barcha tajriba-sinovlar o'quvchi shaxsini rivojlantirish va faollikka qaratilgan bo'ladi. Xulosa qilib aytganda ta'lim standartlarini to'la o'zlashtirish, uni sifat va samaradorligini oshirishga qaratiladi.

Magistrlik dissertatsiyalari uchun mavzularning ayrim namunalari
(boshlang'ich ta'lim metodikasi va pedagogikasi misolida)

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari
2. Boshlang'ich sinflarda o'quv-predmetlarini o'qitish jarayonida huquqiy madaniyatni shakllantirish.
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida samimiy do'stona munosabatlarni shakllantirishning shart-sharoitlari.
4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish.
5. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash.
6. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bo'sh vaqtini mazmunli va maqsadli o'tkazishda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik asoslari.
7. O'quv-bilish jarayoni samaradorligini oshirishda o'quvchi mustaqil ishlarini tashkillashtirish (boshlang'ich sinflar misolida).
8. O'quvchilarni she'riyat olamiga olib kirish orqali umumrivojlanish, savodxonligini oshirish.

Mavzular

- Boshlang'ich maktab o'quvchilarini mustaqil she'rlar yod olishini tashkil etish orqali umumsavodxonligini oshirish.
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ertaklarni muntazam o'qishi orqali xotirada saqlash ko'nikmalarini oshirish.
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnlar ustida ishlash orqali erkin fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish.
- Badiiy kitoblar o'qish ko'nikmasini hosil qilish orqali—tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirish (boshlang'ich sinf o'quvchilari misolida).
- Matnlarni o'qishda esda qolishini shakllantirish orqali og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish.
- Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali o'quvchilarni umum savodxonligini oshirish.
- Interfaol ta'lim o'quv jarayoniga qo'llash orqali o'quvchilarni standartlarni to'la o'zlashtirishini shakllantirish.

- O'quvchilarni qiziqtirish motivatsiya orqali o'quv-bilish mas'uliyatini oshirish.
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida samimiy do'stona munosabatlarni shakllantirishning shart-sharoitlari.
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash.
- Bolang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish ilmiy-pedagogik imkoniyatlar.
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning shart-sharoitlari.
- Boshlang'ich sinflardagi o'quv-predmetlarini huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi imkoniyatlari.
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda sinfdan va maktabdan tashqari amalga oshirish.
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'quv-biluv jarayonining samaradorligini oshirish mustaqil mutolani imkoniyatlari.
- Maktab oldi tajriba-sinov uchastkasini tashkil etish asosida o'quvchilarda iqtisodiy tushunchalar hosil qilishning pedagogik asoslari.
- O'quvchilarni ertaklar dunyosiga olib kirish orqali xotirada saqlash qobiliyatlarini o'stirish.
- O'quvchilarni so'z va matnlar ustida ishlash ko'nikmalarini hosil qilish orqali erkin fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish.
- O'quvchilarni mustaqil bayonlar yozish ko'nikmalarini shakllantirish orqali og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish.
- O'quvchilarni badiiy adabiyotlar orqali erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.
- Interfaol ta'lim-ta'lim sifati va samaradorlik omili (boshlang'ich sinflar misolida).
- O'quvchilarni darslarga qiziqtirish va motivatsiya orqali o'quv-biluv mas'uliyatini oshirish.

- Boshlang'ich sinf o'qituvchilari orasida ijodiy muhitni yaratishning shart-sharoitlari.

- O'zbekistonda mustaqillik yillarida boshlang'ich maktablar ta'lim mazmunini takomillashtirish tendensiyalari.

Darsni kuzatish, tahlil qilish va natijalash

Dars va olib borilayotgan o'quv mashg'ulotlari o'quv ishini tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi. Magistrant dars kuzatish orqali ta'lim-tarbiyaviy ishlarni maqsad, mazmun, mohiyatini bilib oladi. Bu boradagi mavjud kamchiliklarni o'rganadi, o'ziga tegishli xulosalar chiqaradi. Ikkinchidan dars va mashg'ulotlarni kuzatish orqali o'qituvchining umum saviyasi, madaniyati, kasbiy va metodik mahorati, o'quvchilarning aqliy mehnatlari qay darajada tashkil etilishiga e'tibor beradi. O'quvchilarni darslarda u yoki bu fanlar asosidan qay darajada bilim olayotganliklari, darslarda ta'limni ma'aviy-ma'rifiy ishlarga bog'lab olib borish ishlari qay darajada va uslublarda olib borishlariga e'tibor berayotganliklarini bilib oladi.

Agar magistrant o'qituvchining darsini kuzatishda o'z oldiga aniq maqsad qo'yib olsa, uni ilmiy, metodik va pedagogik jihatlarini diqqat bilan o'rgansa, yaxshi natijalarga ega bo'ladi. Bu uning kelgusidagi imliy-pedagogik ishlariga yaqindan yordam bo'ladi.

Magistrant darslar, mashg'ulotlarga nima uchun qatnashishi kerak?

- Davlat dasturlarini amalda bajarilishi;
- Davlat ta'lim standartlariga amal qilinishi;
- O'qitishning metodik darajasi;
- Materiallarni tushunarli bayon qilish va o'quvchilarni bu jarayonda faol qatnashishi;
- Dars jarayonida fan yutuqlari, zamonaviy pedagogik texnologiya va innovatsiyadan foydalanishi;
- O'quv-biluv mehnatini tashkil etilishi;

- O'quvchilarni mustaqil ishlashlarini (yakka, juft, kichik guruhda) tashkil etilishi;

- Har bir tahlil qilingan dars va mashg'ulotdan o'z bilim va tajribalarini boyitib va ilmiy-pedagogik mahoratlarini oshirishlari, ularni almashtirishga harakat qilishlari ko'zda tutiladi.

Darsni kuzatishga tayyorgarlik ko'rish:

- fan dasturi, mavzu, maqsad va rejalashtirish bilan tanishish;
- fan bo'yicha darslik va metodik adabiyotlarni o'rganish;
- o'qituvchi bilan dars maqsadi, asosiy standart talablar (bilim, ko'nikma, tushuncha, malakalar) haqida suhbatlashish;
- tahlil qilinayotgan sinf tarkibini tahlil qilish;
- darsga kirish va tahlil qilishdan maqsad tajriba o'rganish ekanligini bayon qilish;

Darsni tahlil qilish jarayonida;

- dars jarayonida barcha o'quvchilarning bilim egallashida faol ijodiy ishlashi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning bilimlarini orttirish faoliyatini rejalashtirish;

- o'qituvchi, o'quvchilarning ijodiy, mustaqil fikrlash faoliyatini qay darajada tashkil etgan;

- dars jarayonida o'quvchilarni ko'pincha manbalardan foydalanish darajasi;

- darsda, o'quv faoliyatining mantiqiyliigi va didaktik prinsiplarga bo'ysunishi;

- o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning bilim, o'zlashtirish jarayonini boshqarishga;

- dars jarayonida o'quvchilarni mustaqil ishlar (yakka, juft, guruhlarda) jalb qilinishi;

- dars jarayonida mahalliy materiallardan, qo'shimcha adabiyotlar, axborot texnologiyalari va boshqa texnik vositalardan foydalanishi;

- o'quv daftari, darsliklar, didaktik tarqatma materiallardan foydalanishi;

- o'quvchiga individual va differensial yondoshuv.

Magistrant o'tilgan mavzuni so'rash shakllari:

Yakka, guruh, aralash, dasturlangan, o'yin, taqdimot, xisobot shakllariga e'tibor beradi.

Turlari: og'zaki, yozma, doskada frontal, test, muammoni hal qilish uchun ijodiy topshiriqlarni bajarish, ma'lumotlar asosida so'rash, mavzuning hammasini yoki qisman so'rash, algoritmlardan foydalanilishini kuzatib, o'ziga foydali tomonlariga e'tiborni qaratishi zarur.

Yangi mavzu bayonida esa:

№	Darsda bajarilgan ishlar tahlili	Bajarilgan ishlar ma'lumot
1.	Darsda foydalanilgan ko'rgazma, texnika va boshqalar.	
2.	Darsning maqsad va vazifalari, mavzuning bayon qilinishi.	
3.	Mavzuni bayon qilishda o'quvchilarga ta'sirchanlik darajasi va qo'llanilayotgan metod, uslublar xilma xilligi.	
4.	Matnni bayon qilishda muammoli vaziyatni vujudga keltirish va uning yechimi.	
5.	O'quvchilarni mavzu bayonida asosiy bilim, tushuncha, ko'nikmalarni tushunish va o'zlashtirish.	
6.	O'quvchilarning mustaqil ishlashlarini tashkil etish va unga rahbarlik qilish.	
7.	Muammoli masalalarni hal qilinishining samaradorligi.	
8.	Darsda qo'llanilgan muloqot turlari.	
9.	O'quvchilarni dars davomidagi qiziqish, xohish, istak va faol qatnashishlari.	

Ilmiy-pedagogik faoliyatni olib borishda zamonaviy dars va uning tizimi

Hozirgi davr pedagogika fanida zamonaviy dars iborasi tez-tez tilga olinmoqda. Zamonaviy dars qanday dars? U qanday tashkil etiladi?

Zamonaviy dars—shunday darski, unda o‘qituvchi mavjud imkoniyatlardan uddaburonlik bilan foydalanib, o‘quvchini aqliy layoqatini ishga solib, rivojlanib borishini ta’min etadi. O‘quvchi o‘z navbatida bilimlarni chuqur tushungan holda o‘zlashtiradi va u borgan sari barkamollik va ma’naviy yetuklik sari qadam qo‘yadi.

Ilmiy pedagogik nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, dars ta’lim berish, tarbiyalash va rivojlantirish kabi yaxlit bir butunlikdan iborat.

Bunday hollarda nimalar ko‘zda tutiladi;

- o‘quvchini chuqur va puxta bilim bilan qurollantirish, tushunib eslab qolish, o‘zlashtirib olish orqali shaxsning rivojlantirishini ta’minlash
- bilimni olish va o‘rganishda shaxsiy faollikni tashkil eta olish;
- o‘quvchining mustaqil o‘qishi, shaxsiy faolligini takomillashtirish, o‘z-o‘zini tarbiya toptirish motivlarini vujudga keltirish;
- o‘quvchini ongli rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsata olish;
- o‘quvchida o‘zini har qanday vaziyatda tuta olish, qat’iyatlik motivlarini shakllantirish;
- o‘quvchilarda shaxsiy axloqiy faoliyatni shakllantirish va uni umummadaniy madaniyat va qadriyatlar bilan uyg‘unlashtira olish;
- umummadaniy rivojlanish, tarbiyalanganlikni kamol toptirish.

Dars yuqorida keltirilgan uch yagona maqsad oldindan rejalashtiriladi. Ular quyidagilar:

1. — qiziqtirish
 2. — tarbiyalash
 3. — rivojlantirishdir.
1. Qiziqtirish.

- har bir o‘quvchini mustaqil bilim olishga o‘rgatish;
- bilim olishning eng muhim talablarini egallash to‘liqligini, puxta ongli tushungan xolda bilimlarni egallash;
- darsda aniq natijani bilib olishni shakllantirish;
- darsning ta’limiy maqsadlarini belgilashda bilim, ko‘nikma, malakalarning qanday darajada o‘zlashtirishini oldindan rejalashtirish zarur.

2. Rivojlantirish.

Darsning rivojlantiruvchi aspekti bir necha bloklardan tashkil topadi.

- nutqni o‘stirish
- fikrni o‘stirish
- sensorik o‘stirish
- harakatlantiruvchi sferasini rivojlantirish.

3. Darsning tarbiya toptiruvchi aspekti.

- Dars o‘rganiladigan materiallar o‘qitish metodlari o‘quvchilarning xohish-istak, ehtiyoj-qiziqishlarini e’tiborga olgan xolda o‘quvchini axloqiy, estetik, ekologik jihatdan tarbiya toptirishga qaratiladi. Ularga Vatanga sadoqat va e’tiqod, o‘z xalqiga muhabbat, mehnatni ulug‘lash kabi umuminsoniy, madaniy va milliy qadriyatlar singdirib boriladi.

- Dars jarayonida uchraydigan turli hodisalar, atrof-muhit, hayotda uchraydigan voqealarga munosabat bildirib boriladi.

- Bolalar orasida hamkorlik, hamjihatlik, do‘stona va samimiy munosabatlar shakllantirib boriladi.

Xulosa shuki, dars o‘quv jarayonining bir etapi, bo‘g‘ini, elementi: Ma’no jihatdan tugallangan, tashkiliy hamda vaqt jihatdan cheklangan davr.

O‘quv jarayoni — o‘rganish, mashqlar bajarish orqali o‘z faoliyatini bajara olish asosida yangi intilish, erishish.

Darsga qo'yiladigan didaktik talablar

- o'quv maqsadlarini aniq va ravon belgilash, dars bosqichlarining ketma-ketligi, jarayonning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini ta'min etish;
- ta'lim mazmunini optimal aniqlash, uning o'quv dasturlari, standart me'yorlariga moslash, o'quvchilarni dars jarayoniga tayyorgarligi;
- bilimlarni, ko'nikma va malakalarni, vositalarni tanlay olish, shu orqali o'quvchilarni xohish va qiziqishlarini singdirish, yakka va jamoa tartibda ijodiy ishlash muhitini yaratish;
- dars jarayonida turli didaktik prinsiplardan keng, o'rinli foydalanish;
- o'quvchining muvaffaqiyatli o'qishi uchun ijodiy muhit yaratish eng muhim omillardan biridir.

O'quvchi shaxsiga qaratilgan ayrim dars shakllari:

Sho'ng'ish (g'arq bo'lish) darsi—ma'lum bilimlarni egallash uchun eng qulay muhitda bo'lish yoki shunday muhit yaratish orqali mavzuni o'quvchilar faolligida o'rganish mashqlaridan iborat.

Musobaqa darsi — o'quvchilarning o'zaro musobaqalashuvini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqlari.

Konsultatsiya darsi — dars jarayonida o'quvchilarning o'zaro hamda o'qituvchilarning konsultatsiyalarini tashkil etish orqali dars mazmunini o'zlashtirish mashqi.

Ijod darsi — o'quvchilarning mustaqil ijod etishlarini tashkil qilish darsi.

Sinov darsi — o'quvchilarning dars mavzu mazmunlarini o'zlashtirganliklarini (savol-javob, test, davra suhbatlari va b) turli shakllarda sinovlar tashkil etish.

Shubha bildirish darsi — yoki tanqidiy fikr dars mavzusi bo'yicha qoidalar, xulosalarni agar noto'g'ri deb hisoblasa, nimalar bo'lishi mumkin yoki qanday bo'lishi mumkinligi haqida qiziqarli bahs va tahlillar o'tkazish orqali yangi mazmunni tushuntirish darsi.

Ijodiy xisobotlar (taqdimot) darsi — o‘quvchilarning ayrim mavzular bo‘yicha mustaqil mutolaa orqali o‘rgangan bilimlari va xulosalarini taqdimot etish.

Umumlashtirish darsi — ilgari o‘zlashtirilgan mavzular bo‘yicha olingan bilimlarni umumlashtirish mashqlari (ayniqsa ayrim boblar, o‘quv yili yakunida qaytarish davrida) ni o‘tkazish darslari.

Haqiqatni izlash darslari — dars mavzusiga doir ayrim masalalar yuzasidan o‘quvchilarning mustaqil fikrlar bildirishini tashkil etish orqali haqiqatni aniqlash va mavzuni o‘zlashtirishlarini ta‘minlash darslari.

“Parodoxlar” darsi — o‘quvchilarni faolliklari va qiziqishlarini oshirish maqsadida o‘rganilayotgan mavzu har turli “parodoxlarga” bog‘lab bayon qilish hamda tegishli tahlillar o‘tkazish asosida to‘g‘ri xulosalarni chiqarish darsi.

Seminar darsi — yangi dars mavzusiga doir savollar bo‘yicha o‘quvchilarga oldindan berilgan topshiriqlarni bajarish natijalari to‘g‘risida ma‘lumotlarni tinglash orqali sinfdagi barcha o‘quvchilar darsni o‘zlashtirishlarini va bilimlarini mustahkamlashni ta‘minlash darslari.

Ekskursiya darslari — o‘quvchilar turli ob‘ektlar: muzey, ziyoratgoh, kichik korxonalar, fermer xo‘jaliklari, ustaxona, tabiat, ilmiy muassasa, kasb-hunar kolleji, akademik litseylar va boshqalar bilan tanishtirish orqali ularning bilimlarini hayot bilan bog‘lash va kasbiy faoliyatga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirib borish ta‘minlanadi. Bunday tashkil etilgan darslarni ayrim pedagogik adabiyotlarda ochiq havo qo‘ynidagi tashkil etilgan mashg‘ulotlar deb nomlaydilar.

Yuqoridagi bayon etilgan dars shakllaridan tashqari, didaktik o‘yin texnologiyalari asosida amalga oshiriladigan dars shakllari ham mavjud. Quyida shunday dars shakllariga to‘xtalamiz:

Ishchanlik o‘yin darsi — dars mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirokini ta‘minlash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirishga asoslangan mashqlar.

Rolli o'yin darsi — dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni o'zaro faollikda bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars — dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha emotsional, ta'sirchan, chuqur va aniq ma'lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi — tegishli o'quv fani bo'yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimediya, virtual o'quv kursi va shu kabilar) asosida o'rganiladigan dars.

Kim oshdi savdosi darsi — o'quv fani ayrim bo'limlari bo'yicha bilim, ko'nikma, tushuncha va malakalarni har bir o'quvchi qanchalik ko'p o'zlashtirib, bilimini namoyish etish darsi.

Yarmarka darsi — dars mavzusini bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirgan o'quvchilarning o'zaro muloqoti asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o'tiladigan dars.

Formulalar darsi — o'quvchilarning formulalarni puxta o'zlashtirishlari bo'yicha turli o'yinlar shaklidagi mashqlar o'tkazish darslari.

O'yin darsi — dars mavzusiga mos o'yin orqali o'quvchilarning o'zlashtirganliklarini tashkil qilish darsi.

“Sud” darsi — o'quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini imitatsiya qilish orqali tashkil etilgan, yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Konsert darsi — dars mavzusini sahnalashtirilgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash imkonini berish darslari.

“Tergovni bilimdonlar olib boradi” darsi — dars mavzusini oldindan puxta o'zlashtirgan o'quvchilar yordamida qiziqarli savol-javoblar, tahlillar asosida isbotlanib tushuntirish mashqlari bo'lib, o'quvchilar dars mavzusini o'zlashtirib, eslab qolishlari uchun qulaylik yaratiladi.

Integral (integratsiyalashgan) dars — bir necha fanlarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil etilgan dars bo'lib,

o‘quvchilarning turli fanlarga ishtiyoq va qiziqishlarini orttirib, ta’lim jarayonidagi o‘zaro faollikni orttiradi.

Bunday darslar o‘quvchilarga fanlararo bog‘liqligini o‘rgatish orqali ularda olam tuzilishining ilmiy asoslarini to‘liq idrok etish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

“Mo‘jizalar maydoni” darsi — o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan qiziqarli ishchanlik o‘yini bo‘lib, turli savollarga belgilangan vaqt davomida to‘g‘ri javoblar topish va g‘oliblarni rag‘batlantirish orqali o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, topqirlik, ziyraklik, zukkolik va bilimlarini kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi.

Yuqorida biz zamonaviy dars shakllarini sanab o‘tdik va ular qanday maqsadlarni ko‘zda tutishiga to‘xtaldik.

Endi yuqorida zikr etilgan darslar qanday tayyorlanadi va qanday tashkil etilishi haqida fikr yuritamiz.

Zamonaviy dars qanday tayyorlanadi va o‘tkaziladi?

Dars o‘quv jarayonining asosiy qismidir. O‘qituvchi va o‘quvchilarning pedagogik faoliyati aksariyat darsda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham o‘qituvchi faoliyatining sifati darsga qay darajada tayyorgarlik ko‘rganligiga bog‘liq. Uning samarasi darsning mazmuni, o‘tkazish metodlari va darsni qanday tashkil etish muhitiga bog‘liq. Dars o‘z mazmuni va mohiyatiga ko‘ra puxta o‘ylanib, o‘quvchining ehtiyoji, xohish va qiziqishlarini inobatga olgan holda o‘quvchini jalb eta olish zarur.

Zamonaviy darsni tayyorlash va o‘tkazish uchun nima ishlar qilinishi kerak?

Darsni shunday tayyorlash va o‘tkazish kerakki u o‘quvchiga faqat bilim, ko‘nikmalar berib qolmay, uni erkin fikrlashi orqali uni ijodkorlikka, tanqidiy tahlil eta olishga undasin.

Shunday zamonaviy darslarni tahlil eta olishga undasin.

Shunday zamonaviy darslarni tayyorlash uchun o‘qituvchilarga quyidagi metodik tavsiyalarni keltiramiz.

1. Darsga tayyorgarlik nimadan boshlanishi kerak?

- darsning mavzusini aniqlash va uni shakllantirish;
- o'quv jarayonida mavzuning o'rni va rolini belgilash;
- darsni olib borishdagi tayanch so'z, atamalarni aniqlab olish asosida darsning ketma-ket rivojini aniqlash.

2. Darsning ketma-ketligi nima uchun zarur?

Ketma-ketlik asosida darsdan ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalari izchillikda amalga oshiriladi.

3. O'quv materialini rejalashtirish.

Buning uchun:

Mavzu bo'yicha adabiyotlarni to'plash, darslik, metodik qo'llanma, dastur, standart, ensiklopedik nashrlar, monografiya va boshqalar.

Shulardan eng qulay, sodda, yangi, aniq faktlarni olish orqali darsning mazmuni, matnini shakllantirish.

O'quv materiallarini tanlab olishda, uning maqsadi qilib;

- yangi material bilan tanishish;
- uni qaytarish;
- yangi materialni o'rganishda olingan bilimlardan foydalanish;
- olingan, o'rganilgan bilimlardan yangi vaziyatda foydalanish;
- mavzu materialini soddadan murakkabga prinsipi asosida tartibga keltirish;

- o'quvchining yodida qolishi zarur bo'lgan topshiriqlarni tanlash;
- o'quvchiga ongli ravishda o'zlashtirishi zarur bo'lgan topshiriqlar berish;
- olingan bilimlarini mustahkamlovchi topshiriqlar tayyorlash;

4. Darsning "eng dolzarb" tomonlarini o'ylash:

Ya'ni, har bir dars o'quvchini hayajon, hayratga solgan holda yodida qolsin. Bu o'rinda qiziqarli fakt, voqea, kutilmagan topilma, chiroyli tajriba nostandart yondoshuvlarga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

5. To'plangan o'quv materiallarini tartibga tushirish.

To'plangan materiallarning ketma-ketligi oldindan rejalashtirib olinadi. Bunda o'quvchining qiziqish, xohishini orttirish, o'quv materialini o'zlashtirishda befarqlik, sustkashlikka yo'l qo'ymaslikni nazarda tutiladi.

6. Darsda o'quvchi faoliyatini nazorat etishni rejalashtirish.

Buning uchun:

- nimani nazoratga olish kerak;
- nazoratni qanday tashkil etish kerak;
- nazorat natijalardan qanday foydalanish kerak.

Dars nazoratini olib borishda tartib, ketma-ketlik va tezkorlikka rioya qilish maqsadga muvofiq.

7. Darsni jihozlash.

Dars uchun zaruriy jihoz, o'quv ko'rgazmadi qurollar, texnika vositalari, asbob-uskunalar, didaktik va tarqatma materiallar, o'quvchining ko'rishi,. O'qishi va o'rganishiga qulay bo'lishi kerak.

8. Uyga vazifa o'ylab, o'quvchiga qulay xolda berilishi kerak. Uning vaqti, hajmi me'yorida bo'lmog'i lozim. Ayrim holda uy vazifalarini bajarishda nimalarga e'tibor berilishi kerakligini o'quvchilarga tushuntirish kerak.

9. Tayyorgangan dars konspekt ko'rinishida shakllantiriladi.

Konspekt nimalarni o'z ichiga olishi kerak?

Konspekt uch qismdan iborat bo'ladi;

- rasmiy qism;
- mazmuniy qism;
- didaktik qism;

Rasmiy qismda;

Dars №.

Mavzu:

Maqsad:

Vazifalari:

- ta'limiy;
- rivojlantiruvchi;

- tarbiyalovchi.

Darsning ketma-ketlik etaplari; darsning mazmuniy qismi — ikki qismdan iborat;

1. Topshiriqlar, matnlar, yangi o‘quv material, masala, mashqlar yechish, uy vazifasi bo‘yicha topshiriqlar.

2. Darsning qaysi etapida o‘qituvchi va o‘quvchi nima ish bajaradi.

Magistratura mutaxassisliklarining ilmiy-pedagogik ish dasturida, ilmiy-pedagogik ish mazmuni yo‘riqnomasi va ularning shaxsiy ish rejasida ma’ruza matnlarini tayyorlash, tuzish, ma’ruzani sanali o‘tkazish ko‘zda tutilgan. Shu munosabat bilan ma’ruza tayyorlash mezonlari va uni o‘tkazish haqida to‘xtalamiz.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. “Magistrlik dissertatsiyasi” va “magistr darajasi” so‘zlariga izoh bering.
2. Himoya tartibining alohida jihatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?
3. Dissertatsiyani yozishda kalitli so‘zlardan foydalanish qoidalarini yoriting.
4. Tajriba-sinov ishlari nimalarni qamrab olishi kerak?

MA’RUZA TAYYORLASH MEZONLARI

Hozirgi pedagogik texnologiyalar tizimida ma’ruza o‘ziga xos modul, uni tayyorlash va o‘tkazish esa kichik pedagogik texnologiya jarayonidan iborat.

Bu jarayon dastlab ma’ruza uchun materiallarni to‘plash, o‘rganish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, tegishli amaliyot vazifalarni belgilash va ularni sifatli amalga oshirish yuzasidan tavsiyalarni shakllantirish bosqichlaridan iborat bo‘ladi.

Yuqoridagi ishlar bajarilgach, ma’ruza matnini tayyorlashga kirishiladi.

Ma’ruza matnlari kursning o‘quv-mavzu rejasida ko‘rsatilgan mavzular bo‘yicha tayyorlanadi. Shu mavzularni tegishli tinglovchilar guruh bilan o‘rganishdan ko‘zda tutilayotgan maqsadlar belgilanadi. Bunda mavzuning dolzarbligini aniq ko‘rsatib berish, unga tegishli muammolarni hal qilish yo‘nalishlarni belgilab berish va shunga muvofiq ilmiy, metodik va amaliy xulosalarni sharhlash. Ularni tatbiq etish yuzasidan zarur tavsiyalar berish nazarda tutiladi.

Ma'ruza mazmuni uning mavzusini to'liq qamrab olishi zarur shartlardan hisoblanadi. Buning uchun ma'ruza materialini odatda, asosiy tarkibiy bloklarga ajratish yaxshi natija beradi. Natijada ma'ruza matnini tayyorlashda ham va ma'ruzani guruhlarda o'tkazishda ham zaruriy tartib hamda mantiqiy izchillikka erishiladi.

Ilmiy-pedagogik mavzulardagi ma'ruzalar materiallarining tarkibi quyidagi bloklardan tashkil topadi:

- nazariy blok — bunda tinglovchilarni mavzuni ilmiy-nazariy assolari, qonuniyatlari va qoidalarini bilan tanishtiriladi, ya'ni nimani o'rganish kerak degan savolga javob deb belgilanishi mumkin;

- metodik blok — mavzuning qonun-qoidalarini o'rganish, qo'llanish, foydalanish masalalarini o'zlashtirish, ya'ni qanday bajarish kerak degan savolga javob deb belgilanishi mumkin;

- amaliy blok — ma'ruza davomida o'rganilgan ma'lumotlarni “qaerda, qachon, nima maqsadda, qanday vositalar orqali qanday me'yorlarda qo'llash” bilan tanishtirish, ya'ni “nima uchun kerak” degan umumiy savolga javob deb belgilanishi mumkin;

- xulosalar bloki — nazariy, metodik, amaliy bloklar bo'yicha umumlashtiruvchi natijalarni ifodalashga xizmat qiladi va “nima qilish kerak?” degan savolga javob belgilanishi mumkin;

- nazorat bloki — tinglovchilarning o'zlashtirishlarini ma'ruza davomida tezkor nazariy qilishga xizmat qiluvchi har turli didaktik materiallardan iborat bo'lib, “tushunarlimi” degan savolga javob belgilanishi mumkin.

- tavsiyalar bloki — ma'ruza mavzusi bo'yicha xulosalarni har turli real sharoitlarda amalga oshirish yuzasidan tinglovchilarning fikr-mulohaza va takliflarini hisobga olgan xolda hamkorlik va hamfikirlikda belgilangan asosiy yo'l-yo'riqlardan iborat bo'lib, navbatdagi hamda kelgusi vazifalarni belgilab beradi. Uni majoziy ma'noda “ma'qulmi” degan savolga javob deb belgilanishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan tarkibiy bloklarni shartli ravishda quyidagi sxema ko'rinishida ifodalash mumkin.

Ma'ruzaning tarkibiy bloklari va shartli savollar

Nazariy	Metodik	Amaliy	Xulosa	Nazorat	Tavsiya
Nimani o'rganish kerak?	Qanday bajarish kerak?	Nima uchun kerak?	Nima qilish kerak?	Tushunar limi?	Ma'qulmi

Ma'ruzaning ushbu bloklarini hosil qiluvchi materiallar o'ziga xos modullar va algritmlarni hosil qiladi.

Shu bilan bir vaqtda ushbu bloklarning o'zi ham ularga nisbatan yirik modullar hisoblanadi. Har bir yirik blok o'z navbatida tarkibiy kichik bloklardan, ular esa kichik birlamchi bloklardan tashkil topadi.

Ma'ruzani shunday tarkibiy bloklar asosida tashkil qilish, albatta uning pishiq-puxta va sifatli bo'lishini ta'minlaydi.

Ma'ruzaning tarkibiy bloklari bo'yicha alohida ko'rgazmali qurol, tarqatma, didaktik materiallar tayyorlash va amalda ularni qo'llash mashg'ulotning ta'sirchanligini oshiradi.

Bunda aytib o'tilgan har bir blok hajm jihatdan bir xil bo'lmasligi mumkin. Ma'ruza hajmning asosiy qismini, odatda nazariy, metodik, amaliy bloklar tashkil qiladi. Xulosa qismi eng qisqa blok bo'ladi.

Nazorat bloki ko'pincha ma'ruza jarayonidagi og'zaki savol-javoblar shaklida bo'lib, bunda ma'ruzachi tomonidan ularning qanchalik tushunayotganligini aniqlovchi savollar berib, javoblar olishdan iborat bo'ladi.

Shu bilan birga tinglovchilar ma'ruzachiga savol berishlari ham mumkin. Bunday savollar odatda, ular tushunolmagan hollarda hamda mavzu bilan bog'liq ko'pincha ma'lumotlarga qiziqish paydo bo'lganda beriladi.

Buning natijasida esa shu savollar ham tinglovchining o'zlashtirishlarini hamda qiziqishlarini nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Tavsiyalar bloki asosan pedagog-xodimlar va tadqiqot olib boruvchi magistrantlarga qo'llaniladi va u katta hajmni egallaydi.

Shuni eslatish joizki, har bir ma'ruzada shu bloklarning hammasi doimo uchramasligi mumkin. U zaruriyatga qarab belgilanadi.

Magistrantlar tizimidagi ma'ruzalar davlat standartlarini to'liq bajarilishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi talab etiladi.

Ma'ruza matni talaba uchun asosiy axborot manbai hisoblanadi. U navbatdagi ma'ruzani eshitishdan oldin uning matni bilan tanishadi. Ma'ruza matnlari va ularning elektron variantlari universitet kutubxonasi va kafedrada talabalarining yakka tartibd foydalanishlari uchun qulay sharoitda qo'llaniladi. Buning natijasida ma'ruzani o'zlashtirish darajasi hamda talabalarining faolliklari oshiriladi.

Ma'ruza matnini bayon etishda zamonaviy pedagogik, psixologik, didaktik qoida va talablar hisobga olinadi. Ma'ruza matnlari faqatgina bayoniy axborotlardan iborat bo'lmay, undagi savollar, muammolar, yechimlar asosida muammoli vaziyat keltirib chiqarishi matnni mustaqil mutolaa qilishga, erkin fikrlashga undashi kerak.

Ma'ruza matnlarida mavzu bayoni mamlakatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar va vatanimiz taraqqiyotining yuksalishi jarayoni, jo'shqin, farovon, ozod, obod hayot tarzi, ilg'or fan va texnika, texnologiya yutuqlari bilan chambarchas bog'lanishi kerak. Mustaqillik yillarida qo'lga kiritilayotgan yangilik, bunyodkorliklar, jahonshumul muvaffaqiyatlar aniq dalillar asosida keltiriladi.

Ma'ruza matnida talabalarining DTS asosida qanday tushuncha, malaka, bilimlarni o'zlashtirishlari zarurligini nazarda tutish talab etiladi.

Tayanch so'zlar, signal, sxema, digramma, tasviriy ko'rgazma, didaktik materiallarga alohida e'tiborni qaratish yaxshi natijalar beradi, ularni ta'sirchanlik, qiziqishini oshiradi.

Har bir mavzu bo'yicha o'quv rejada ma'ruzaga ajratilgan soatlarga mos ravishda uning hajmi, nazariy, amaliy, metodik yo'nalishlari yoritilishi kerak.

Ayniqsa, materiallarni hayotiy misollar asosida tayyorlash zarur, oliy ta'lim tizimida milliy g'oya, madaniy, ma'naviy, tarixiy, milliy qadriyatlarni talabalarga singdirish orqali ularni vatanparvarlik, insonparvarlik, fuqarolik ruhida va chin e'tiqodli qilib tarbiyalashga erishish lozim.

Ma'ruza mazmunini yoritish rejasi uning mavzusi bilan bog'liq kichik mavzucha, savollar, mulohaza asosida ketma-ket bog'liq xolda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Ma'ruzachi manba sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, mustaqillik yillarida chop etilgan darslik, ilmiy-uslubiy qo'llanma va xrestomatik adabiyotlarga, mavzuga oid, integrnet xabarlariga aslanishi kerak.

Chet el ilg'or tajribalari, adabiyotlari, zamonaviy texnologiya, innovatsiyalar, davriy matbuot materiallariga, suyanish maqsadga muvofiq.

Ma'ruza matni so'ngida "o'zingizni sinab ko'ring" testlari savollar berilsa yanada ma'qul bo'ladi.

Ma'ruza matni vaqti-vaqti bilan yangi axborotlar bilan boyitib boriladi.

Ma'ruza matnlari quyidagi tartibda rasmiylashtiriladi:

Tayyorlanayotgan ma'ruza matnlari magistrantni ilmiy rahbari bilan hamkorlikda ko'rib chiqiladi. Ilmiy rahbar takliflari asosida tuzatishlar kiritadi. Magistrant o'z xisobotlarini tekshirishida uni ilova tariqasida kafedra mudiriga topshiradi.

Ma'ruzani o'tkazish texnologiyasi

Quyida ma'ruzaning o'zaro faol usuli, o'tkazish texnologiyasi to'g'risida fikr yuritamiz. Har qanday yuqori saviyada o'tkaziladigan, garchand u faktlarga boy bo'lsa ham, uzoq vaqt bir maromda davom etaversa, talabaning eshitish qobiliyati susayadi, zerikadi va charchash alomatlari seziladi. Bu holat uni loqayd

eshituvchiga aylantiradi. Ma'ruza qancha uzoq davom etsa, uni samaradorligi shuncha kamayib boradi.

Ma'ruzani samarali, ta'sirchan o'tkazish uchun nima qilmoq kerak?

Buning uchun ma'ruzani o'ziga xos modul, algoritmlash, kichik pedagogik texnologiya darajasida tashkil etish talabalar uchun qulaylik keltiradi.

Bu degani ma'ruzachi o'z ma'ruza matnini bir necha bloklarga bo'ladi. Har bir blokni 15-20 minut davomida bayon qiladi va har bir blokdan keyin to'xtab, mavzu bilan bog'liq qisqa savol-javob, fikr almashuv olib boradi. Talabalarni o'tirgan joylarida kichik guruhlariga bo'lib, muhokama, munozara tashkil etadi.

Ma'ruza davomida ayrim muammolarni munozara uchun o'rtacha tashlaydi. Shu vaqt oralig'ida bu muammoga talabalarning munosabatini aniqlaydi, ularning fikr-mulohazalarini eshitadi. Har bir fikr bildiruvchi o'z fikrini bayon qilishga imkoniyat yaratadi. Ammo ularni tanqid ostiga olmay, boshqalarning fikrlarini ham diqqat bilan tinglaydi. Bu holat talabalarni ma'ruzaga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi, ma'ruzaga befarq bo'lmaslikka sabab bo'ladi, talabalar orasida o'zaro faollik paydo bo'ladi.

Muhokama etilayotgan mavzu bilan bog'liq muammolarga ehtiyoj va qiziqishi ortadi. Shu asosda talabalarni yakka tartibda suhbatga tortish 5 minutgacha davom etishi mumkin.

Ma'ruzachi talabalarning qiziqishi, intilishi, ehtiyoji, mas'uliyati oshib borishini kuzatib boradi.

Ma'ruza davomida muntazam faol ishtirok etuvchilar, teran fikr bildiruvchilar, erkin fikr yurituvchilar ma'ruzachining tayanchiga aylanadi va o'zaro faollik asosida qizg'in bahslar, munozaralarda faol ishtirokchilar rag'batlantirib boriladi.

Ma'ruza davomida mavzuni asta-sekin talabaning kundalik faoliyatiga doir misollar bilan bog'lab boriladi va qisqa vaqtli mulohazalar orqali tegishli yechimlar topiladi va bundan esa o'z navbatida talaba ma'ruza mazmunining kundalik hayotda naqadar zarurligini his etadi.

Shu xolda kechgan ma'ruzalarda talabalar vaqt qanday o'tganini sezmay qoladilar. Ma'ruzadan qoniqish hosil qilib, uni yana davom etishini xohlab, befarqlik o'rnini xushyorlik, xohish-istak, ichki intilish yechim qidirish egallaydi. O'zlari ham muammoning yechimini topishda shaxsan ishtirok etib, hissalarini qo'shishga intiladilar va ular ma'ruzaning mazmunini o'zlari duch kelgan misollar orqali yoritishda ishtirokchilarga aylanadilar.

Bunday holatda kechgan ma'ruzalar har ikki tomonning o'zaro faolligini oshiradi, vaqt o'tganini sezmay qoladilar, navbatdagi munozaralarga oshiqadilar.

Natija shu bilan tugaydiki, talabada bu mavzu bo'yicha qiziqish paydo bo'lib, kutubxonaga kirib ilmiy-pedagogik, metodik adabiyotlar, uslubiy qo'llanma, davriy matbuot nashrlari bilan tanishish istagi, mustaqil mutolaa qilishga ehtiyoj paydo bo'lishi hamda talabani doimo o'z ustida ishlash ko'nikmasining shakllanishiga sabab bo'ladi.

Ma'ruzada tinglovchiga ma'lumotni faqat tayyor xolda beraverish maqsadga muvofiq emas, chunki, bunda uni mustaqil fikrlashga o'rgatish yetarli e'tibor berilmay qoladi.

Shuning uchun turli muammolarni amaliyotga mos xolda hal eish, savollarga hayotiy javobni mustaqil ravishda tan olish bo'yicha ularni o'zaro faollikka , o'ylashga, fikr yuritishga yo'naltirish kerak. Har qanday ma'ruzaning samaradorligi ma'ruzachining mahoratiga, matnni tuzish san'atiga, ijodiy yondoshuviga, yuksak muloqot madaniyati, notiq kabi yoqimli ovoz sohibi sifatida o'zini namoyon qilishiga, talabalarni o'z mavzusiga qiziqтира olishiga bog'lanib qolaveradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ma'ruzaning tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
2. Ma'ruzani o'tkazish texnologiyasini yoriting.

TA'LIM JARAYONIGA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

Endi magistrant dasturda ko'zda tutilgan ilg'or pedagogik texnologiyalar nima? Uning asosiy mohiyati nimada? Pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga qanday tatbiq etish mumkin degan savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Magistrant pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etishda quyidagi ishlarni amalga oshirishi kerak;

- pedagogik texnologiya amaliyoti va nazariyasini o'qib, o'zlashtirib olishi kerak;
- pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonida o'rganish, kuzatish, nazorat etish prinsiplari bo'yicha konspekt tuzish, algoritmlash, loyihalash, modullar asosida aniq mavzular bo'yicha dars ishlanmalari ishlab chiqish;
- pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish bo'yicha maktab, tuman, viloyatlarda tashkil etilgan seminar, trening, amaliy konferensiyalarda ishtirok etish;
- pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilg'or tajribalarni to'plash, tanlash, qo'llash bo'yicha tegishli ma'lumotlar bankini yaratish, ularni tahlil etish orqali, o'ziga moslarini darslarda qo'llash bo'yicha ilmiy izohli ish, tajriba-sinovlar olib bori;
- tajriba-sinovda olgan pirovard natijalarni tahlil qilish, tanqidiy yondoshib navbatdagi vazifalarni aniqlash.

Keyingi vatlarda o'quv jarayonini tashkil etishning eng samarali usuli sifatida pedagogik texnologiya deb tan olinmoqda. Keyingi vaqtlarda professor-o'qituvchlar orasida "Ta'lim texnologiyasi", "Pedagogik texnologiya" tushunchalari tez-tez yodga olinmoqda. Pedagogikada shu narsa ma'lumki, o'quv rejalari, dasturlari, standartlar, darsliklar va boshqa vositalar ilm-fanning eng so'nggi yutuqlari asosida qanchalik takomillashtirilmasin, pirovard natijaga erishish, chuqur puxta bilim berish, ta'lim standarti talablarini amalga oshirish

ta'lim olib boruvchi o'qituvchining mahorati va malakasiga, ijodkorligiga, faolligiga bog'liq bo'lib qolaveradi.

Didaktik talablarga muvofiq darsda o'quvchini mustaqil mutolaa qilish, o'z-o'zini o'qitishi, o'zi o'zlashtirib ongli mushohada yuritishi, mustaqil fikrlay olishi va tafakkurining rivojlanishi muhim omil bo'lib qolaveradi.

Shuning uchun ta'lim texnologiyasi jarayonida o'qituvchi rahbarligida o'quvchi mustaqil bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi.

O'quv materialini o'zlashtirish o'quvchi mas'uliyati va zimmasida kechadi. O'qituvchi o'quvchini o'quv-biluv jarayoniga zaruriy muhit yaratadi, yordam beradi. Xulosa shuki, o'qituvchi o'quvchini o'qitishdan ko'ra, o'zini o'qishiga o'rgatadi. Tayyor bilimlarni berishdan ko'ra ularni manbalar, darsliklardan olishga o'rgatadi.

Pedagogik texnologiyaning asosiy jarayoni quyidagicha kechadi:

- tashkil etish;
- hamkorlik, hamijodkorlikda ish olib borish;
- takomillashtirish, rivojlantirish;
- tahlil qilish, tanqidiy qarash;
- qiyoslash;
- umumlashtirish;
- xulosa chiqarish;
- jarayonni boshqarish;
- nazorat etish;
- baholashlarni o'z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llashni loyihalashda quyidagilarni nazarda tutish kerak:

- talabaning faolligini oshirish va uni hamkorlik, hamijodkorlikka chaqirish;
- o'quv rejada ko'zda tutilgan dastur, qo'llanma, ma'ruza matnlari bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish;

- ta'lim mazmunini, matnlarini mustaqil mutolaa qilish ko'nikma, malakalarini shakllantirish;

- talabaning o'z fikrini bildirish olish, himoya qilish, isbotlab olishga o'rgatish.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga qo'llashda motivlarni vujudga keltirishlik hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Ya'ni, ularning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, qiziqish-xohishlari bosh mezon bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyalar asosini modullar, algoritmlar, loyihalashtirishlar tashkil etadi.

Shunday qilib pedagogik texnologiya nima degan savolga qisqacha shunday ta'rif berish mumkin.

Pedagogik texnologiya deb – o'quv jarayoni bo'lmish darsni modullashtirish, algoritmlash, loyihalashtirish asosida, o'quvchilar faol ishtirokida, ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishni kafolatlashga aytiladi.

Xulosalar:

1. Talaba o'qitilmaydi, uni manbalar, matnlar, adabiyot, darsliklar asosida mustaqil o'qish, o'rganish, o'zlashtirishga o'rgatiladi.

2. Talabaga bilimlar tayyor xolda berilmaydi, ularning bilimlarni manbalardan o'lashtirishga o'rgatiladi.

3. Barcha talabalarning o'z qobiliyatlari darajasida albatta o'zlashtirishlari kafolatlanadi.

4. Barcha magistrantlar pedagogik texnologiya mexanizmini deyarli bir xil ijobiy natijalar olishga erishadilar.

Pedagogik texnologiya samaradorligi monitoringini olib borish egallangan tushuncha va malakalarni o'zlashtirish bosqichlarini quyidagi jadvaldagi shaklda ko'rsatish mumkin.

Pedagogik texnologiya monitoringi jadvali

I bosqich	O‘rganish	Esda saqlash
II bosqich	Tushunib olish	O‘zlashtirganini aytib bilish (isbot)
III bosqich	Tatbiq eta olish	Qoida, qonunni bilib olish, undan foydalanish
IV bosqich	Tahlil eta olish	Qiyoslash, taqqoslash, bir-biriga bog‘lash
V bosqich	Sintez	Axborotni ijodiy qayta ishlata olish
VI bosqich	Baho olish	Keyingi bilimga qadam qo‘yish

Xulosa shuki, o‘quv jarayonining samaradorligini ta’min etuvchi asosiy omili talabanning faolligiga, mas’uliyatini his qilishiga bog‘liq.

Pedagogik texnologiyalar amaliyotga magistrantlar tomonidan joriy etiladi. Shu boisdan u nchog‘liq texnologiya mazmun-mohiyati, uning ilmiy asoslarini tasavvur etishi, ularni ta’lim-tarbiya sharoitlariga moslashtirish ko‘nikma va malakasini egallashi yoki mutaxassislik o‘quv predmetlari bo‘yicha texnologiyalarni loyihalash, modullashtirish ta’lim jarayoni sifati va samaradorligini kafolatlaydi. Shuning uchun zamonaviy texnologiyani tatbiq etish ta’limda sifat-samaradorlik kafolatidir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Pedagogik texnologiya nima?
2. Magistrlik dissertatsiyasini yozishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati qanday?

3. Pedagogik texnologiyadan dars jarayonida foydalanishning afzallik va kamchiliklari nimalardan iborat, deb o'ylaysiz?

4. Pedagogik texnologiya monitoringini izohlang.

MUSTAQIL TA'LIM

Magistrantlarning Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Nizomi va shaxsiy ish rejalarida mustaqil ta'lim alohida yo'nalish sifatida ko'rsatilgan. Shuning uchun magistrant o'z mustaqil ta'limini qaysi yo'nalishlarda qanday tashkil etadi, shaxsiy ish rejalarini to'la bajargandan keyin u nimalarni bilib olish, qanday ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi kerak degan savollarga javob beramiz.

Mustaqil ta'lim olish shu kungacha ta'lim yo'nalishlari ichida eng maqbuli va samarador usulidir. Dunyoga mashhur daholar asosan mustaqil mutolaa natijasida fanda yangiliklarni ochilishiga, olamshumul kashfiyotlarni ixtiro qilishiga sabab bo'lgan.

Mustaqil ta'lim olish uchun magistrant o'z kasbiy, pedagogik faoliyatni tahlil etadi. O'zini o'zi yutuq-kamchiliklarini tahlil qiladi, tanqidiy yondoshib mustaqil ta'lim yo'nalishlarini, kalendar rejasini tuzib oladi, kundalik daftarga qilayotgan ishlarini qayd qilib boradi.

Mustaqil ta'lim quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Kasbiy mahoratini oshirish bo'yicha mustaqil tahsil olish.

Magistrant o'z kasbi bo'yicha o'quv rejalar, dastur va boshqa-boshqa me'yoriy xujjatlarni o'rganadi. Mavjud bo'lgan takomillashtirilgan dastur, standartlarni ilgarilariga taqqoslaydi, undagi yangiliklarning mazmun-mohiyatini, o'zgarishlarni o'rganadi. Mutaxassislik predmetlari kesimida ulardagi matnlar mazmuni, mohiyatini o'rganadi. Yaratilgan yangi avlod darsliklari, xrestomatiya, qo'llanmalarni o'qib o'rganib konspektlar, tezislar, qiyosiy materiallar tuzib boradi.

Ensiklopediyalar, lug'atlarni o'rganadi.

2. Metodik ko'nikma, maqola, mahotarinini oshirish.

Zamonaviy dars, shaxsga yo'naltirilgan dars, tabaqalashgan ta'lim, inklyuziv ta'lim, innovatsiyalar, zamonaviy texnologiyalar, ta'lim jarayoni modullari, muammoli ta'lim, kuzatuv ta'lim, energetik ta'lim, kompyuterli, axborot texnologiyalari asosidagi ta'lim, didaktik o'yin orqali tashkil etiladigan ta'lim, interfaol ta'lim, loyihalashtirilgan ta'limlarni o'qish o'rganish. Interfaol va boshqa manbalardan respublika va jahon ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni boshini yaratish, ta'lim jarayoniga tadbqiq etish kabilar.

3. Pedagogik va psixologik bilimlarini takomillashtirish, rivojlantirish.

O'qish jarayonida o'quvchida motivatsiya hosil qilish, his-tuyg'ularini uyg'otish, uning qiziqishi, xohishi va qobiliyati moyilligiga xos xususiyatlari va ulardan ta'lim-tarbiya maqsadlarida samarali foydalanishga doir zaruriy ma'lumotlarni yangi nashr etilgan adabiyotlardan o'rganish.

Ayniqsa o'quvchilarni mustaqil mutoala qilish, o'z kuchiga ishonish, uni xarakteridagi ijobiy tomonlarini rivojlantirish, ularga yakka tartibda yondashuv bo'yicha mavjud ilg'or tajriba va boshqa ma'lumotlarni o'rganish. Ota-ona, mahalla, maktab hamkorligini yo'lga qo'yish bo'yicha dasturlarni o'rganish. O'quvchi shaxsini rivojlanishi tarbiya topganligini aniqlovchi mezonlarni o'rganib, ularning intellektini testlar orqali aniqlab choralar ko'rib borishni o'rganish.

4. Milliy g'oya ma'naviyat-ma'rifat, milliy qadriyat, mohiyat mezonlarini tinimsiz o'qib o'rganish, o'rganganlarini o'quv jarayoniga joriy etishni o'rganish: mustaqil ta'lim olish davrida magistrant birinchi manbalar, xristomatiyalar, spravochnik va boshqa qaror me'yoriy hujjatlar bilan ishlaydi.

Shu bilan birga Respublikamizda nashr etilayotgan "Xalq ta'limi", "Boshlang'ich ta'lim", "Uzluksiz ta'lim", "Ta'lim taraqqiyoti", "Tarbiya menejmenti", "Ma'rifat" va boshqa jurnal va gazetalarni mutolaa qilib boradi.

Yil davomida magistrlik dissertatsiyasi mavzu ustida ilmiy tadqiqot, pedagogik izlanish tajriba-sinov ishlarini olib borishini o'rganadi. Mustaqil ta'lim davomida ilmiy maqola tavsiya ishlanma, ma'ruza yozib pedagogik kengash va boshqa anjumanlarda kafedra yig'ilishlarida ijodiy tadqiqotlar o'tkazadi. Magistrant mustaqil ta'lim jarayonida mustaqil mutaola ko'nikmasiga tinimsiz

o'qish, izlanish, yaratuvchanlik, buyodkorlik, yaratuvchanlik, yangicha pedagogik jarayon, yangicha ishlash, uning shaxsiy holat va fazilatiga aylanadi. Zamonaviy o'qituvchi sifatida shakllanadi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. "Mustaqil ta'lim" deganda nimani tushunasiz?
2. Mustaqil ta'limning qaysi yo'nalishlarini bilasiz?
3. Ensiklopediyalar, lug'atlarni o'rganish mustqil ta'limning qaysi yo'nalishiga kiradi?

INTERFAOL TA'LIM

Interfaol usullarini o'quv jarayoniga qo'llash ta'lim tizimida keng tarqalmoqda. Bu o'z navbatida o'quv jarayonini liberlizatsiya qilish, demokratlashtirish, hamkorlik va hamjihatlikda, hamjihat va ham ijodkorlikda tashkil etishni taqozo qilmoqda. Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak o'quv jarayoni markazida o'quvchi bo'lmog'i lozim va o'quv jarayoni unga qaratilishini yo'naltirilgan bo'lishini talab etmoqda.

Didaktikani so'ngi yutuqlaridan biri sifatida shaxsga qaratilgan ta'lim o'quvchining o'quv bilim mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi, qiziqishi ehtiyoji va xohish istaklarini ro'yobga chiqaruvchi kuch bo'lib qolmoqda.

Bu zaylda tashkil etilgan ta'lim o'qituvchi va o'quvchiga doimiy ilmiy ijodiy, uzluksiz o'z ustida ishlash imkoniyatini beradi. Bunda xolatning ta'lim jarayoniga, uning ijodiy muhitini yaratadi va sifat samaradorlik kafolatlanadi. Interfaol ta'lim zamonaviy darsdan boshlanadi. Boshqacha qilib aytganda darslarni tashkil etishga mas'uliyat bilan yondashadigan yuqori kasbiy malakali va bilimdon metodik mahotarga ega, zamonaviy interfaol texnologiyalarni mukammal o'zlashtirib olgan innovatsion faoliyatda ta'limni tashkil etadigan o'quvchilarga talab oshib bormoqda. Interfaol ta'limda jarayon individuallashtirilgan holda kechadi. Ta'lim jarayonida o'quv faol ishtirok etadi. O'quv bilim jarayoniga katta hissa qo'shadi. Jarayonni olib borishda o'quvchilarning shaxsiy xususiyat tayyorgarlik darajasi hisobga olinadi.

Interfaol asosda dars jarayonini tashkil etilganda:

- o'quvchining o'zaro faolligini oshadi;
- o'quvchida o'quv reja, dastur, darsliklar, standart me'yorlar asosida mavzu mazmunini o'zlashtirib olish malakalari shakllanadi;
- ta'lim mazmunini, matni, mashq masalalarini mutaola qilish, ishlash, o'zlashtirish ko'nikmalari o'qituvchini kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi, ularni mas'uliyati oshadi;
- o'quvchi erkin fikr bildirishi, o'z shaxsiy fikrini himoya qilish, isbotlay olishga odatlanadi;
- eng muhimi o'quv jarayonida didaktiv motivlar vujudga keladi. O'z navbatida darsni qiziqarli bo'lishiga olib keladi. Ya'ni bu jarayonda o'quvchini ehtiyoji, xohish, istaklari qondiriladi. Eng muhimi o'quv materialini o'zlashtirish kafolatlanadi.
- o'qitish usullari ta'lim jarayonida turli xil ko'rinishlarda (yakka, juft, kichik guruh va katta guruhlarda) kechadi.

Bunday tarzda tashkil etilgan darslarda o'quvchi ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining mehnat va tanqidiy fikrlarini ham rivojlantiradi.

Nihoyat o'quvchi o'z kuch va imkoniyatlari ishonch bilan qaraydi.

Bizga ma'lumki, ta'lim modeli o'z ichiga:

- passiv ta'lim
- faol ta'lim
- interfaol ta'limlarni oladi.

Shulardan interfaol ta'lim esa o'z navbatida:

- muammoli ta'lim
- loyiha asosidagi ta'lim
- kreativ ta'lim
- evristik ta'lim
- faol o'yin asosidagi ta'lim
- AXT ta'limlarini alohida

Yuqorida nomlari keltirilgan ta'lim usullarida o'zaro faollik, harakat, ta'sirchaklik, o'quvchi va o'qituvchi muloqatlarida sodir bo'ladi. Interfaol ta'limning bosh asosiy maqsadi o'quv jarayonida o'quvchi uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishga muhit yaratadi. U o'zini intellektual salohiyatini to'la namoyon etadi va o'quv sifati va samaradorligini oshiradi.

Boshlang'ich maktablarda interfaol pedagogik didaktik o'yinlar keng qo'llaniladi;

Ishchanlik o'yinlari darsi – dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarni oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustaxkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha guruhga aniq ma'lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi – tegishli o'quv predmeti bo'yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari, multimediya, virtual o'quv kursi va boshqalar vositasidagi o'tiladigan darslar.

Kim oshdi savdosi darsi – elementlarini ayrim bo'shliqlari bo'yicha bilimlarni har bir o'quvchi qanchalik ko'p bilishini namoyish etish darsi.

Yarmarka darsi – dars mavzusi bo'laklar bo'yicha oldindan o'shirlashtirilar o'quvchilarning o'zaro muloqoti asosida sinfga qiziqarli ma'lumotlar orqali o'tiladigan dars.

Formulalar darsi – o'quvchilarning formulalarni puxta o'zlashtirishlari bo'yicha turli o'yinlar shaklida mashqlar o'tkazish darsi.

O'yin darsi – dars mavzusiga mos o'yin orqali o'quvchilarning o'zlashtirilganliklarini tashkil qilish darsi.

“Sud” darsi – o'quvchilar bilan dars mavzusiga mos “sud” jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Konsert darsi – dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi konsert shaklda ifodalash mashqlari bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va bilimlarini mustaxkamlash darsi.

“Tergovni bilimlardan olib boradi” darsi – dars mavzusini oldindan puxta o‘rgangan o‘quvchilar sudlashadi, qiziqarli savol-javoblar, texnologiyalar asosida isbotlab tushuntirish mashqlari bo‘lib, ularning eslab qolishlariga qulaylik tug‘diradi.

Integral dars – bir nechta predmetlarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo‘lgan mavzular bo‘yicha tashkil qilingan dars bo‘lib, o‘quvchilarni turli predmetlarga qiziqishlari ortadi, faollik muhiti paydo bo‘ladi.

Mo‘jizalar maydoni darsi – o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan qiziqarli o‘yin bo‘lib, turli savollarga belgilangan vaqt orasida to‘g‘ri javoblar topish va g‘oliblarni rag‘batlantirish orqali o‘quvchilarga erkin fikrlash, topqirlik, ziyraklik, zukkolik va bilimlarni atroflicha kengaytirish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Xulosa shuki, magistr pedagogik faoliyatni olib borishda inrerfaol guruhlarni o‘rganib, o‘zlashtirib, dars imkoniyatlari yaratib amaliyotga tadbiq qilsa, uni ish samarasi shunga yaxshi natijalar beradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Interfaol ta’lim nima?
2. Interfaol ta’limning kelib chiqish tarixini yoriting.
3. Interfaol ta’limning darni tashkil etishdagi ahamiyati
4. Interfaol talimni tashkil etishda qanday ta’lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq?

INNOVATSIYALARNI TA’LIM JARAYONIGA JORIY ETISH

Ta’limning samarali natijalar berishi eng avalo o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro munosabat va muloqotlariga , qo‘llaniladigan ta’lim usullariga, yangiliklar asosida zamonaviy darslar tashkil etishlari o‘quvchiga zavq bag‘ishlaydi. Shuning uchun ham ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikda, hamjihatlikda, hamijodkorlikda, hamfikrlikda ahamitya ko‘rsatishi, o‘zaro bir birini tushunish va ijodiy muhitni vujudga yaratishag, natijada ta’lim sifati va samaradorligi ta’minlanadi.

Hozir Respublikamizda ta'limda ulkan o'zgarishlar bo'lmoqda bu o'z navbatida ta'lim mazmuniga, o'quv biluv jarayoniga ham o'zgartirishlar, yangiliklar kiritilishi talab etiladi. Yangicha ilmiy pedagogik qarashlar, ilg'or tajribalar, innovatsiya va yangi texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish talab etiladi.

Keyingi vaqtlarda pedagogikamizga innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta'limda innovatsion jarayonlarni boshqarish kabi tushunchalar kirib kelmoqda.

I.Shumnatev va M.Kondratovlar "Innovatsiya" tushunchasini ilk va ulkan nazariyotlari hisoblanadilar. K.Ariongelskiy, V.Slosbenin va V.Soxobobchinovlar o'z ilmiy tadqiqotlarida innovatsion faoliyat pedagogik faoliyatning alohida shakli ekanligini isbotlashga harakat qildilar va bu borada muayyan natijalarga erishgan olimlar deb tan olindilar.

Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan o'zaro bog'liq. Shu sababli bu tushunchalar mazmunini izohlamasdan turib, innovatsion mazmunini anglash mumkin emas. Innovatsiya inglizcha innovation – yangilik kiritish, tizim ichki tuzilishini o'zgartirish deb ta'riflanadi.

Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning xarakter tizimidir.

Bu g'oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va darajalar mavjud bo'lib, uning mohiyati borasida yagona fikr mavjud emas.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan masalaga yangicha yondashuvdir. Ular tashabbuskor va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqboli hisoblanadi. Shuningdek, umuman ta'lim rivojiga, takomillashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsiya - ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yengish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha yuqori muvaffaqitga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan pirovard natijadir.

Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagiyaa ta'riflash ma'qullanmoqda:

- Faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi).
- Kiritilgan o'zgartirishlarning ta'rifiga ko'ra (radikal, modifikatsiyalashgan, kombinatsiyalashgan)
- O'zgarishlar qo'llashga ko'ra (lokal, modulli, tizimli).
- Kelib chiqish manbasiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan).

Innovatsiyaning maqsadi – sarflangan mablag' yoki kuchdan yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman, o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangilaklardan farqli o'laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazoratqiluvchi o'zgarishdar mexanizmini tashkil etadi.

Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'laolmaydi. Shu sababli “novatsiya” va “innovatsiya” tushunchalari o'rtasidagi farqlarni bilib olish zarur. Buning uchun isloxat faoliyatining aniq shakllari, mazmuni va ko'lami asos bo'lib xizmat qiladi. Faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatigi ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqatgina ba'zi elementlarni o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz innovatsiya bilan muloqot qilayotgan bo'lamiz.

Agar faoliyat ma'lum konsentual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olish mumkin.

Novatsiya amaldagi nazariya doirasida, qo'llash va vaqt bo'yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va uning natijasi avvalgi mavjud bo'lgan tizimni takomillashtiradi.

Innovatsiya esa, tizimli yaxlit va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot sub'ktlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi. bunda faoliyatning yangi yo'nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatda yangi sifat natijalarga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

Innovatsiyani amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi.

Innovatsion jarayon deb – innovatsion jarayon o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni amalga oshirish jarayoniga aylanadi.

Ta’lim jarayonidagi innovatsion o‘zgarishlar, ta’lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi.

Innovatsion faoliyat pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a boshlavchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Innovatsion faoliyatni ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos-xosligi, yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorning mavjud me’yor bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan mohiyatli muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir.

Innovatsion faoliyat uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ilmiy pedagogik izlanish bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O‘qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlarini o‘rganib chiqqan pedagog, metodistlar, fasilitatorlar fikrlariga tayangan holda quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblashimiz mumkin.

- ijodiy (kreatik) falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini puxta o‘rganish, o‘zlashtirish va egallash;
- mualliflik konsepsiyalarini yaratishga ega bo‘lish;
- innovatsiya bo‘yicha ilg‘or o‘qituvchi tajribalari, tuman, viloyatlar yangiliklarini internet orqali izlab topish, ularni to‘plash, bankini yaratish;
- maktabda metod birlashmalar tartibidan ekspert guruhlarini tuzish, ular bilan hamkorlikda, maktabga xos va moslarini yaratilgan bankdan tanlab olish;
- ularni mazmun mohiyatini seminar-treninglar, o‘quvchilarni tuzish, ular yordamida tashkil etish;
- tajriba-sinov ishlari nazariyasi, amaliyotini va texnologiyasini o‘zlashtirib, ularni reda asosida amalga oshirish;
- o‘zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo‘llay olish;

- hamkasblar bilan hamkorlikda, hamjihatlikda, hamijodkorlikda ishlashni yoʻlga qoʻyish;

-vaqti-vaqti bilan hamkorlikda bir-biriga metodik yordam koʻrsatish.

Yuqoridagi qadamma – qadam tizim asosida innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar tom maʼnoda taʼlim jarayoniga kirib keladi.

Xulosa shuki, innovatsiyalarni pedagogikjarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Muammoni tahlillar asosida aniqlash.
2. Moʻljallanayotgan taʼlim tizimini loyihalash, algoritmash, texnologiyalash.
3. Oʻzgarish va yangiliklarni rejalashtirish.
4. Oʻzgarishlarni taʼlim amaliyotiga kiritish.

Bu yerda eng innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad – oʻqituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil oʻz ustida ishlash koʻnikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashgʻulotlarni oʻtkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.

Yuqorida keltirilgan ishlarni yoʻlga qoʻyish orqali har bir taʼlim muassasasida innovatsion pedagogik mezey yaratish mumkin. Bu holatni vujudga keltirish har bir pedagogni ijodiy ishlashga, yangiliklarni izlab topishga, oʻz pedagogik faoliyatiga kiritish muxiti shakllanadi. Bir soʻz bilan aytganda maktabda ijodiy, innovatsion tizim yaratiladi. Uning natijasida ilgʻor oʻqituvchilardan – ilgʻor pedagogik jamoa shakllanadi, taʼlimni sifatli va samaradorligi kafolatlanadi.

INTERFAOL OʻQITISH METODLARI

Interfaol oʻqitishning metodologik prinsiplari

Interaktiv oʻqitish jarayoni anʼanaviy (doska yonidagi) oʻqitishdan farqli oʻlaroq bir qancha metodololik qirralar ustunligiga ega. Bu avvalom bor,

ishtirokchilarning o'yin qoidalarini ishlab chiquvchi muallim va bir - biri bilan faol, emotsional tusdagi munosabatlariga asoslanadi.

Muallimning interaktiv o'qitish jarayonida ishning samarasi bir qancha shartlarga bog'liq :

Birinchi - o'quvchi imkoniyatlarining berilgan texnologik (o'yin, trening, mashq) maqsad va vazifalariga mutunosibligi. Tanlangan texnologiyaning maqsadiga qarab muallim u yoki bu vazifani bajaradi tashkilotchi-sardor, kommunikator yoki kelishmovchiliklarni bartaraf qiluvchi, fasilitator.

Ikkinchi - guruh ishtirokidagi o'zaro munosabatlarni hal etishdagi muallimning professional tajribasi. Buning uchun u dialog hamda mul'tilog, ya'ni turkumlashgan professional tajribasi. Buning uchun u dialog xamda multilog, ya'ni turkumlashgan dialog san'atini egalagan bo'lishi zarur. Dialog ko'rinishidagi muloqat psixologiyada ahamiyatli hisoblanadi, chunki an'anaviy "sub'ekt-ob'ekt" munosabadiга zid ravishda "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlarini ifodalaydi.

Dialog doimo har - hil fikrlar va ularni ko'rinishlarini, shuningdek, barcha interaktiv o'zaro aloqa katnashchilarining qo'yilgan muammoni birgalikda muvaffaqiyatli qilishini va yechimni topishni nazarda tutadi. Qatnashchilarning faolligi o'quvchilarning shaxsiyatiga emas, balki o'zaro muloqatga, qo'yilgan vazifaga yo'naltiriladi. Dialogdagina qatnashchilar qo'yilgan masalaga turli nuqtai-nazarlar orqali yondashish bilan bir birini o'zaro boyitishadi. Muallim va o'quvchilarning munosabatlaridagi teng xuquqlik, aks aloqa (joyida va ayni vaqtda) ning amalga oshirishi, katta yoshdagi o'quvchilar intilishlarining ro'yobga chiqarib, muammoning yagona izoxini talab etadigan umumiy kommunikativ va ma'no maydonini yaratadi. Zamonaviy muammolar tartibli tufayli ularni tushunishda sistema ma'nosini beradigan til zarur.

Interaktiv o'qitish samarasining uchunchi sharti muallimning shaxsiy yo'nalishi bilan bog'liq. Ba'zan yangi texnologiyaning ishtiyoq ishtirok bilan olgan muallim keyinchalik, birinchi aprotatsiyadan so'ng, undan voz kechishi mumkin. Odatda, bu holat muallim o'zining professional va shaxsiy obro'sini diskretitatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan hadiksirashga aloqadordir.

Bu hadiksirash tipik qiyinchiliklar tufayli kelib chiqan bo'lib, shaxsiyat va o'quv sharoitida sodir bo'ladigin munosabatlar stereotiplari bilan bog'liq bo'ladi va o'zoro aloqa o'yini qatnashchilarining avtoritar, zo'rma-zo'raki shablonlarga, manitor uslubiga, leksion va monologik muloqat janriga qaytishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bo'nday qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun muallimning shaxsi o'zi o'lin qoidalarini ishlab chiquvchi muallimlar va shaxsiy o'sish: peshqadamlilik, shaxslar aro munosabatlar, raqobat va b.q treninglarida qatnashishi lozim.

Rahbar va mutaxassislar, shuningdek, o'yin qoidalarini ishlab chiqaruvchi muallimlarning malaka oshirish va qayta tayyorlash amaliyotida quyidagi o'quv natijalarining ro'yhati keng tarqagan. Bularni o'quv maqsadi sifatida belgilash mumkun: tanishish (discovery); fanning ma'lum sohasiga tegishli asosiy tushunchalar va vazifalar bilan tanishish asosiy mazmunni o'zlashtirish (literasy): asosiy tushunchalar va vazifalarni tariflab berishga layoqatlilik; uddalomoq (fiterasy): asosiy tushunchalar va vazifalarni faninig ma'lum sohasiga samarali tatbiq etish; to'liq egallash-mohirlik (mastery): fanning ma'lum sohasiga tegishli asosiy tushunchalar va vazifalarini samarali qo'llash hamda o'zgalarga bu masalada yordam berish. Yuqorida sanab o'tilgan o'quv maqsadlari turli-tuman interaktiv texnologiyalarda keng qo'llaniladi.

Ta'lim nuqtai nazaridan interaktiv texnologiyalar-bu ishtirokchilarining shahsiy maqsadlari aks etgan kontekstda voqelik imkoniyatlarini ko'pchilik tomonidan dialogik izlanishiga asoslangan o'yinlardir.

O'quv jarayonida mutaxassislar uchun noreal (taqlidiy yoki tashkiliy-harakatli) sharoit yoki vaziyatda qaror qabul qilish o'yinlari, shuningdek, real professional muhitga (amalliy yoki rolga mansub) moslashishga yordam beruvchi o'yinlar qo'llaniladi. O'quv jarayonida, ko'pincha, atrof muhitga, aniq professional faoliyatiga, insonlarga moslashishni o'rgatuvchi o'yin modellari qo'llaniladi.

Amaliy yoki taqlidiy o'yin yoki vaziyatlar analizi usulini kommunikativ aspektlarining modellarining jarayoni sifatida ko'rib chiqadigan bo'lsak, u quyidagi xususiyatlar tufayli bor o'quv-rivojlantiruvchi jarayonga yangi sifat olib keladi:

- professional faoliyat imitatsion modeli ko‘rinishida kommunikativ-interaktiv o‘quv materiallarining mohiyati tizimi.

- o‘rgatuvchi o‘yin modelidagi sheriklar bilan professional faoliyatni turli funksional bo‘g‘inlaridagi amaliy o‘zaro munosabatlar strukturasi tiklamoq;

- ta’lim olayotgan rahbar va mutaxassislarni professional va kommunikativ omilkorlik va uni amaliy qo‘llanishi ehtiyojini qondirishga yaqinlashtirmoq. Bu bilan bilimni anglashga, o‘rganuvchilarni shaxsiy faoliyatiga, anglashdan professional motivatsiyaga o‘tishga sharoit yaratadi;

- o‘rgatuvchi va rivojlantiruvchi ta’sirlar majmui;

- malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida muallim faoliyatini tashkil va regilirovka qilishdan rahbar va mutaxassislarning kommunikativ - interaktiv faoliyatini regulyatsiya va tashkil etishga o‘tishi uchun sharoit yaratish;

Yuqorida hamma sanab o‘tganlar quyidagilarga imkoniyat yaratadi;

1. Mutaxassislarda professional va kommunikativ omilkorlik, uning dinamikasi va real faoliyatidagi o‘rni haqida yaxlit tassavur yaratish;

2. Faoliyatni taqlid qiluvchi materiallar asosida sotsial tajriba, jumladan kollektiv qaror qabul qilish uchun kerakli bo‘lgan shaxslar va guruh lararo munosabatlar va hamkorlikni amalga oshirish;

3. Professional psixologik nazariy va amaliy fikrlashni rivojlantirish;

4. Bilim o‘rttirish motivatsiyasini tashkil etish, shaxsiy psixologik qo‘llanma va motivatsiyaga sharoit yaratish;

5. Amaliy muloqot doirasida bilimlarni mustahkamlash, kommunikativ omilkorlikni shakllantirish.

Interaktiv mashg‘ulotlar o‘tkazishi jarayonida muallim tinglovchilarning intellektual uslublari, ma’naviy-axloqiy rivojlanishi va harakterologik xususiyatlarini saviyasi haqida ma’lumot oladi. Bu unga kerak bo‘lganda tinglovchilarni psixologik-pedagogik korreksiyalash va ularga psixologik yordam berishini amalga oshirishiga imkoniyat tug‘diradi.

Shunday qilib, tinglovchilar interaktiv texnologiyalar yordamida rahbar va mutaxassislarda real professional faoliyatiga mansub bo‘lgan sotsial - psixologi va

tipik boshqaruv muammolari yechimlarini topishga jalb qiladilar. Malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash kurslari qatnashchilari, turli boshqaruv va intellektual qurollarni (menedjer, metodist yoki aktiv tomoshabin va x.k) o'ynab, ularni o'zlashtiradi. Bu qatnashchilar turli vaziyatlarda ularning hati - harakatini xaqqoniy va maqsadga muvofiqligi bilan tanishadilar.

O'yin, trening yoki vaziyat analizi paytida berilgan rollarga muvofiq boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Turli rollar maqsadlari bir biriga to'g'ri kelmasligi, o'yin qatnashchilari ko'pincha konflikt vaziyatda qaror qabul qilishga majbur bo'ladilar va natijada konfliktni o'rganadilar.

O'yin mashg'ulotlari tenglovchilarni komanda a'zolari o'rtasida yuzaga keladigan holatlarga va ularning emotsional reaksiyasiga nisbatan sezgirligani oshiradi. O'yin orqali o'qitish jarayonida tinglovchilarda o'zini anglash va boshqalarga yoqish extiyojni rivojlanadi.

Har bir o'yin ishtirokchisi kollektiv foaliyat mexanizmning qanday ishlashini ko'rish imkoniyatiga ega. O'yin va treninglarda aks ta'sir (o'zgalar tomonidan reaksiya va baholash jarayoni) signalari yanada aniq anglanadi, noverbal kommunikatsiya doirasida omilkorlik aktualashtiriladi, ya'ni interaktiv texnologiyalar kommunikativ va psixologik omilkorlikni xamda shaxsiy madaniyatni va u bilan bog'liq bo'lgan amaliy munosabatlarni rivojlantirishga turtki bo'ladi. Modomiki o'yinlar o'rta keskin vaziyatda o'tar ekan, bu qatnashchilardan ma'lum emotsional madaniyat saviyasini, stressga nisbatan bardoshlik hamda psixologik himoya usullaridan xabardor bo'lishlikni talab qiladi. Bundan tashqari o'yin mashg'ulotlari katnashchilar o'rtasida sog'lom raqobatchilikni keltirib chiqaradi. Bu esa ularning raqobatiga bardoshini, o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi hamda o'zini qadirlashni o'rgatadi.

Interaktiv mashg'ulotlar maksimal darajada o'quv jarayonini individuallashtiradi. Bu esa har bir ishtirokchiga aqliy va ijodiy potensialini namoyon qilishga imkoniyat beradi.

Yuqorida aytilganidan ma'lumki, interaktiv texnologiyalar tatbiq qilingan mashg'ulotlarda ma'lumotni o'zlashtirish an'anaviy o'qitishga qaraganda (bu

to'g'rida ko'p izlanishlar natijalari guvohlik beradi) ancha samaralidir. Bu yerda bir paytning o'zida professional fikrlash diapazonining kengayishi, o'quvchilar ijodiy potensialining rivojlanishi, odamlar bilan ishlash mahoratining egalanishi hamda sotsial tajribani orttirish sodir bo'ladi.

Shuni aytish lozimki, interaktiv o'zaro aloqa rejimida o'qitish jarayonida rahbar va mutaxassislarda shaxsiy dunyoqarashning o'zgarishi yuz beradi. Bunda muloqatlar yangi, yanada insoniy va ahloqiy ma'noga ega bo'ladilar.

Va nihoyat, interaktiv o'yinlarda tez-tez qatnashish rahbar va mutaxassislarga verbalitsiya ko'nikmalarini hosil qilishni, suxbatdoshni tinglashni, to'g'ri savol-javob olib borishni, ommaviy tarzda axborotni yetkazishni o'rgatadi.

Shunday qilib, yuqorida aytilgandan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni qilish mumkin, ya'ni interaktiv texnologiyalar rahbar va mutaxassislar davr talabidan kelib chiqib, yuzaga kelib muammolarni yechim qobilyatini rivojlantiradi. Bunda amaliy faoliyat sharoitda yuzaga keladigan: ishlab chiqarish, sotsial, amaliy va shaxslar aro munosabatlarning tartiblanishi ko'zda tutiladi

INTERAKTIV O'QITISH METODLARI VA UNI O'QUVCHILAR BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH

"Pedagogik texnologiya-bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs rusurslari va ularning aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir»

Zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish, ta'limni takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir.

Mustaqil O'zbekistonimizda uzluksiz ta'lim tizimni islox qilishni yangi Davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga qaratilgan hozirgi kunda o'qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor berilmoqda. Ta'lim jarayonida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning pedagogik fikrlashida o'rin ola boshlagan pedagogik

texnologiyani dars jarayonida qo'llashga oid tavsiyalar o'qituvchilar uchun juda zarur. Ayniqsa hamkorlikka asoslangan, o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan o'quvchilarni boshqalarni fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o'zgaralar manfaatlari bilan hisoblashishi, ularga o'rgatish, ta'sir qila olish o'zining va boshqalarning "men"ligini sezish, xis qilish, o'zini boshqarish, fikrini aniq, lo'nda va puxta bayon eta olishga, ishlatishga qaratilgan "interfaol" o'qitish usullari tez sur'atlar bilan rivojlanib ijobiy samara bermoqda. O'qitishda foydalanib kelinayotgan interfaol metodlar o'quvchilar o'rtasida raqobat muhitini vujudga keltirib, o'quvchilarni harakatchanlikka boshlab ruxlantiradi natijada o'quvchilar hamkorlikka o'rgana boshlaydi. Har qanday interfaol metod to'g'ri va maqsadli qo'llanilganda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Yangi pedagogik texnologiya ta'lim tizimining ratsional yo'llarini ishlab chiqaruvchi jarayon bo'lib, unda o'qituvchi asosiy ma'sul shaxs hisoblanadi. Chunki uning asosiy vazifasi axborotni o'quvchilarga tez, aniq va tushunarli tarzda yetkazib berishidan iboratdir. O'quvchilarni yangiliklarni qabul qilishlari, va bunga moyilliklari hamda fe'l-atvori har-xil bo'lishiga qaramay o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mushoxada qilish, xulosa chiqarishga o'rgatish lozim. Bunda o'quvchi asosiy harakatlanuvchi kuch bo'lib, o'qish, mutoala qilish, chizma chizish, proeksiyalarni, formulalarni tushunib, asboblarni ishlata olishi, bir birlari bilan do'stona munosabatda bo'lib oldilariga ko'yilgan muammolarni yechishda bir birlariga yordam berish ularning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Ta'lim tazimida sodir bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlar o'quvchilarga yangi bilim, ko'nikma va malakalarini berish bilan bir qatorda, yoshlarimizni o'ziga va boshqa insonlarga, jamiyatga, davlatga, tabiatga nisbatan o'zgarishini, vatanparvarlik g'oyalarini ongiga va qalbiga singdirishini ham ko'zda tutadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi pedagogka qo'yiladigan zamon talablari majmuini belgilaydi, bir biriga bog'liq bo'lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini va unga asosan quyidagi asosiy talablarni ifodalaydi:

- ta'lim berish mahorati;

- tarbiyalay olish mahorati;
- o'quv tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiy fazilatlarini;
- ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati;

Demak, o'qituvchi - pedagog o'z oldiga qo'yilgan murakkab, ma'suliyatli va dolzarb vazifalarni bajarish uchun hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarni shakllantirishi uchun quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak;

- zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning mohiyatini chuqur tushuna bilishi;

- dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini chuqur va keng nuqtai nazarda anglashi;

- axborot ta'lim texnologiyalarini va o'qitish vositalarini ta'lim berishda tatbiq etishi;

- internet tarmog'i to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi va undan o'z bilimini oshirishda foydalana olishi;

- pedagogik mehnatining samaradorligini tahlil etish yo'llarini bilishi va o'ziga o'zi baho bera olishi;

- oilaviy ta'lim tarbiya muammolari bo'yicha tassavurlarini rivojlantirishi;

- umuminsoniy hamda milliy madaniyat va qadriyatlar;

- milliy g'oya va milliy mafkura iqtisodiy islohatlar mohiyatini tushunib olishi;

- dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish yo'llarini bilishi;

- o'quvchilarning fikrlashlari va bir-birlari bilan fikr almashishlari hamda do'stona muhit yaratish uchun sharoit yaratishi;

- darsning samaradorligini oshirish uchun laboratoriya jihozlaridan foydalanish va mashg'ulotlar o'tkazishni o'zlashtirib olgan bo'lishi;

- texnik vositalar va o'quv vositalardan foydalanish yo'llarini bilishi;

- bolalarning barkamol inson bo‘lib yetishishida o‘zining izlanishlari, ijodkorligi, tashabbuskorligi, hamda betinim mehnatlari orqali ta’lim-tarbiya berish kabilardir.

- Yuqoridagi pedagogka qo‘yiladigan zamon talablari mazmuini amalga oshirish uchun har bir o‘qituvchi yangicha fikrlash tafakkurini o‘stirishi, pedagogik texnologiyalari mustaqil o‘rganishi, uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat ekanlini chuqur bilib olishi kerak.

- Yangi pedagogik texnologiya nima va biz uni qanday tushunamiz?

- An’anaviy texnologiyadan farqli jihatlari nimada?

- Yangi pedagogik texnologiya darslarining an’anaviy darslardan farqi shuki, bu darsda o‘quvchiga erkinlik muhitini yaratib berib, unga o‘z fikrini erkin bayon etishga imkon yaratib berishdir. Bu imkoniyat qanday yaratiladi? O‘quvchiga hech qanday tazyiq o‘tkazmasdan, uni shaxsiyatiga tegmasdan savollar berish orqali do‘stona munosabatdagi o‘quv muhiti yaratiladi.

- O‘quvchini ishlatish deganda, bir necha o‘quvchiga mavzularni bo‘lib berish orqali dars o‘tish emas, balki hamma o‘quvchilarni birgalikda ishlatishni tushunamiz. O‘quvchilarni birgalikda ishlatish uchun o‘quv jarayonida interfaol metodlardan foydalanamiz.

Interaktiv o‘qitish shakllari

Operatsion komponentlar innovatsiya faoliyatida innovatsiya o‘yinida aniq ko‘rinadi. Innovatsion o‘yin ijtimoiy texnologiyasini maxsus ko‘rinishidek quriladi, o‘ziga muammolar yechimining dasturini kiritadi, tashkilotning, ishtirokchilarning rivojlanishini tekshiradi.

Dasturning o‘yinlari o‘ziga innovatsiya ishlab chiqarish qarorlarini, (echimini) yangiliklar loyihalarini, joriy etish dasturi, tashkilotlarning o‘qishi, o‘yinning tekshirilishi olib kiradi,.

Birinchi bosqichda qarorlar ishlab chiqariladi. Asosiy maqsad bu tashkilotning innovatsiya kunini ishlab chiqarish, bir necha muammolarning yechimi, chiqarilgan qaror samarali tarzda bajariladigan bo‘lishi lozim.

Tashkilot metodlari ko‘pincha, bu talablarni qoniqtirmaydi, Shuning uchun qaror qilish uchun, ko‘pchilikning ishi olinadi, standartsiz qarorlarga yo‘lantiriladi.

Muqobil turlarning ko‘pligi, yangiliklar bu metodlarni sifatli ishlatishga yuboriladi. Ko‘pchilikning ishi muammolar yechimini oliy darajada hal etish darajasida bo‘lib chiqadi.

Ikkinchi bosqichda innovatsion muammolarning yechimlari loyihalashtiriladi. Ob‘ektning xohlagan holatini loyihalarda ishlab chiqarilgan va rivojlantirishga istiqbolini ochib beradi. O‘yinda eng kamida ikkita loyiha ishlab chiqarilgan. Bu loyihalarni alohida guruhlar bajaradi. Loyihada so‘nggi momentlar: muammo, maqsad, funksional maxsusfizika, muammolarni amaliy hal etish uchun qurollar, ob‘ektning natijali holati, bazaning material sharti, o‘z shakllanishning mexanizmi va effektning o‘lcham vositalari asoslab beriladi.

Keyingi bosqich dasturning holati, yangiliklar. Dastur o‘ziga shu bosqichlarning yozilishi va kiritilishini ta‘minlaydi.

Kelajak harakatning yozilishi uchun muammo ajratilib chiqadi va maqsad quyiladi, keyin yangilikning har qadami, kelajak natijalari hamda loyihaning joriy qilinishi, qo‘llanilishi shrganib boriladi.

Mualliflar har bir maktabning yangilanishida universal texnologiyadagi eksperimentlar turadi, deb hisoblaydilar.

Olimlar tashkilot boshqarmasining jihatlari sifatida va innovatsiyali ishlab chiqarish, o‘zlashtirishni so‘nggi: diagnostik, prognostik, tashkil etuvchi mashg‘ulotlar va umumlashtiruvchi bosqichlarga bo‘ladilar. Pedagogning innovatsion ishining konteksti mantiqan shunday: muammoni tanlash, mavzuni shakllantirish, dolzarblik tushunchasi, maqsad quyish, nomini o‘zgartirish, masala, faraz ustida o‘ylash, bosqichlarning bazasi, mezonlar muddati, yo‘lini tanlash, natijani va jarayonni kuzatish eksperimentlari amalga oshiriladi.

Masala mohiyatining prinsipial muhim qismlarinigina berdik, chunki innovatsiya faoliyati bu faqatgina o‘qish emas, balki ularni egallab olishdir, pedagogik innovatsiyaning qabul qilinishi, innovatsiyani kiritilishining

yechimi, qarorning qabul qilinishi, psixologik jihatdan innovatsiyali faoliyatga tayyorlikdan iborat. Ko'pincha, qarorni qabul qilish, deb jarayonning bir muqobil turini bir nechtasidan olish, ularda pedagogning o'zi faoliyatchi bo'lib chiqadi. Bir xollarda birinchi rejaga shunday psixologik hollar jarayon yechimiga kiradi, yechimning motivatsiyasining yechimi, qabul qilingan qarorga javobgarlik bo'lish, tanlash huquqiga ega bo'lish, tushunchasiga ega bo'lish, qarorlarni baholash va h.k. Shunda pedagog bir nechta pedagogik faoliyatlariga ega bo'lishi mumkin va shulardan birini tanlashi mumkin, yoki muomalani yechimini topishi kerak.

Faoliyati tasdiqlangan norma usulini o'zlashtirib, ob'ektiv shartlariga suyanib pedagog o'zi qiladi, o'zini faoliyati ishlatilishini usullarini qabul qiladi.

Hamda pedagogning ijodiy jarayon so'nggi bosqichlari tavsiya qilingan:

1. Muomalani tushunishi

a) Bor faktorlarni tushunishi;

b) muomalani paydo bo'lishi;

v) savol qo'yilishi.

2. Muammoni yechimi

a) Gipotezini ishlab chiqish;

b) yechimning rivojlanishi;

v) prinsipni ochib tashlash;

g) to'plangan yechim va mulohazani ishlab chiqish.

Xulosani tekshirish: Umuman o'qituvchining innovatsion yechishi umumiy psixologik qonunshunosligi negizida, har qanday inson harakati uchun harakterli bo'lgan ba'zi bir pedagog yechish asosida qurilgan. Evristik jarayon ijodiy harakat izlanuvi, aniq markazni tashkil etadi. Bu jarayon innovatsion harakatning ba'zi bir etapialorida ishtirok etadi: qachonki o'qituvchi bolaga bilim va tarbiya berishning umumiy konsepsiyasi ma'lum bo'lganda va qachonki yangi konsepsiya qurish talab etilganda birinchi holda pedagog aniq manbalarga murojat qilib, variatsiyaning barcha imkoniyatini hisobga olgan

holda, ularning ma'nosini harakat izchilligining ma'lum yechimini o'zgartirish. Faqat shunday sharoitdagi moslashuv mashhur pedagogik masalalar, yechim bo'lishi mumkin, aks holda u absamot standart holatga moslashgan qarama-qarshi qabul qilishga o'rin beradi. Yangi konsepsiyaning shakllanishida o'qituvchi har doim noaniq muammoli sharoitini yengib chiqishda reja sifatida foydalanadi.

Sub'ektiv noaniqlik sharoitdagi harakat, innovatsion xulqning harakterli xususiyati masalaning ob'ektiv noaniqlik sifatida ham, aniqlik sifatida ham yechimi sifatida namoyon bo'ladi. Faoliyatning shu jihatiga asoslanib, evristik jarayon boshqaruvini va ularning shakllanishini amalga oshirish mumkin. Mualliflik programmasi yaratilishining birinchi etapida yoki konsepsiyaning noaniqlik sharoitida fikrning intuitiv yurish qidiruvning yo'nalishini aniqlash mumkin. Programmaning qurilish o'lchamiga ko'ra qidiruv doirasi qisqarib, aniqroq bo'lib boradi va «o'rniga» intuktiv harakatlar bilan aqlan nazorat qilingan logik fikrlash ular uchun maqsadga muvofiq bo'lgan chegaralar vujudga keladi. Shundan qilib chiqib, formal operatsiya shuningdek evristik qidiruvda ham ishtirok etadi, lekin formal bo'lmagan komponent yechimini bosa olmaydi, u va bu yechimga ega bo'lgan aniq funksiya va o'zining munosabatini tatbiq qilishni ta'minlaydi.

Asosiy pedagogik faoliyat, professional faoliyatdagi maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi har doim ijodiy masalalarni hal qiladi. Shuning bilan birga qanday qilishi keraklicha haqida harakat qilib qaror qabul qiladi. Shulardagi har bir savol o'zining faktor ko'rinishiga ega.

Har xil ma'nodagi harakat o'zining har xil talablariga ega bo'lgan strukturaga individual psixologik sifat, shuningdek masala yechimidagi jarayonga o'zining munosabatini ko'rsatadi. Bu yerda ma'nolar kurashidagi yuzaga kelayotgan qurilmalar, emotsional munosabatdagi psixologik Tusiyyq katta rol o'ynaydi. Masala yechishidagi sifat sub'ekt faoliyatining ko'p jihatlarini aniqlaydi. Harakat faoliyatining ichki sharoitida doimiylik qoplaydi,

faoliyatning nafaqat operatsion tomonlari o'zgaradi, balki psixologik mexanizm o'zgarishiga, professional imkoniyatlarining rivojlanishiga olib keladi.

Shuning uchun o'qituvchi ongli ravishda yoki o'z-o'zidan o'zining bebaho ishining sifat uchun qo'llaydi, shuning bilan bir vaqtda individual ish faoliyatini izchil qiladi. «Ushbu o'qituvchi uchun qaytarilmas variant sifatida qo'llaniladi».

Pedagogik faoliyatning o'ziga hosligi umuman o'qituvchidan o'zining individual stiliga ega bo'lishini, yangi sharoitda uning chegaralanganligini talab qiladi. O'qituvchining innovatsion yechish qabul qila olishi, ba'zan tavakkal qilish, mojaroli masalalarni muvaffaqiyat bilan hal qilish innovatsion to'siqni olib tashlay olish pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli tatbiqi zarur sharoit yaratadi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, juda ko'p bo'lmagan o'qituvchilar ma'noli va yuqori pog'onadagi har narsani o'z joyiga ishlatish va interaktiv usullarni qo'lga kiritganlar, shuning uchun innovatsion komponentlar faoliyati, aniq psixologik mexanizm rivojlanishi va qidiruv texnologiyasi pozitiv ta'sir qilishi kerak.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. "Interaktiv o'qitish" deganda nimani tushunasiz?
2. Interaktiv o'qitishning metodologik prinsiplarini izohlang.
3. "Interaktiv o'qitish metodlari"ni izohlab, metodlarni qo'llashni ishlab chiqing.
4. Interaktiv o'qitish shakllariga nimalar kiradi?

METODOLOGIYA VA METODOLOGIK PRINSIPLAR HAQIDA TUSHUNCHA

Fan doimo yangi va yangi faktlar bilan to'ldirilib turgandagina rivojlanishi mumkin. O'z o'rnida, ularni yig'ilishi uchun nazariy prinsiplar yig'indisiga bog'liq bo'lgan ilmiy asoslangan tekshiruvlar zarurdir, bu fanda «metodologiya» nomini olgan. Nafaqat pedagog-amaliyotchilar, balki tekshiruvchilar ham ko'p holatlarda

«metodologiya» tushunchasi orqasida real hayot va o'qituv amliyotlaridan uzoq bir abstrakt holatni ko'rishadi. Bu orada metodologiya-teorektik va amaliy faoliyatni tashkillashtirish va qurishning prinsipial tizimidir.

Metodologik prinsiplarning yana bir asosiysi bo'lib tizimli yondashish deb tan olingan, uni borligi shundaki, alohida komponentlar izomerlangan holatida ko'rilmay, balki boshqalar bilan tizimdagi aloqasi holatida ko'riladi. Tizimli yondashish alohida elementlarni sifat belgilari va umumiy tizimli xususiyatlarni bilishga yordam beradi.

Tizimli yondashishda pedagogik tizim, quyidagi bir-biriga bog'liq komponentlarning yig'imi sifatida ko'riladi: o'qitish maqsadlari, pedagogik jarayon sub'ektlari (o'quvchi va pedagog), ta'lim ko'rinishida (umumiy, bazali va professional madaniyat), pedagogik jarayonni metod va farmonlari va oxiri material (moddiy) baza.

Aniq-ilmiy metodologiya har bir fanda va shu bilan bog'liq qaysi amaliyot foydalanilayotganiga qarab, spesifik va nisbatan alohida prinsip va yondashuvlar orqali ochilib beradi. Bu - shaxsiy, faoliyatni, polisub'ekt, madaniy, etnopedagogik, antropologik yondashuvlar hisoblanib, ular metodologik prinsiplarni ko'rsatib beradi.

Faoliyatli yondashuv. Faoliyat - shaxsni rivojlanishi uchun asosiy sharoit, imkoniyat va asos deb hisoblanadi. Bu fakt ilmiy pedagogik izlanish va amaliyotni shaxsiy faoliyat yondashuv bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatib beradi. Faoliyat - bu atrof-muhitni maqsadli ravishda inson tomonidan o'zgartirishdir. Bunday o'zgartirishning negizi bo'lib mehnat hisoblanadi. Insonni barcha moddiy va ma'naviy faoliyati, mehnat oqibati hisoblanib, o'zida asosiy ijodiy maqsad atrofidagi olamni o'zgartirishni olib boradi. Tabiatni o'zgartirib inson o'zini ham o'zgartiradi. Ammo shaxsiy faoliyat shakllanadi va namoyon bo'ladi degani, hali faoliy yondashuv degani emas. Oxirgisi bola faoliyatni tashkillashtirish va tanlashda alohida ish talab etadi, shuningdek, uni mehnat va muloqot, bilish pozitsiyasiga o'tishini aktivlashtiradi. Bu o'z o'rnida bolani maqsadni tanlashga, faoliyatini rejalashtirishga, uni tashkillashtirish va nazorat qilishga, o'zini analiz

qilishga va faoliyati natijalarini taqqoslashga o'rgatadi. Shaxs o'zini gumanistik va insoniy jihatlarini boshqalar bilan muloqotda orttiradi.

Bu aloqada shaxs atrofidagi odamlar bilan muloqot natija va hosilidir. Shuning uchun shaxs o'ziga xos muloqotlar tizimi ko'riladi. Insonni ichki dunyosini bu «Dialogik» fakti yaqin vaqtgacha pedagogik tekshiruvlarda juda kam hisobga olingan. Dialogik yondashuv shaxsiy va faoliy yondashuvlar bilan birgalikda olinganda gumanistiki pedagogika mag'zini hosil qiladi. Bu prinsiplarni qo'llash, sub'ektlarni psixologik birligini yaratishga imkoniyat beradi, buning yordamida «ob'ekt» ta'sir o'zini rivojlantirish va o'zaro rivojlanish ijodiy jarayonlarga o'zini beradi.

Madaniy yondashuv - aniq ilmiy metodologiya va real pedagogik o'zgarish sifatida o'z asosi deb, qadriyatlar bilimi, ya'ni aksiologiya va dunyoni qadriyatli tuzilishini oladi. Madaniy yondashuv insonning madaniyatni qadriyatlar tizimi sifatida ob'ektiv aloqasiga uzviy bog'liq. Inson o'z ichiga madaniyatning bir qismini oladi. U nafaqat o'zlashtirgan madaniyat asosida rivojlanadi, balki unga prinsipial yangiliklar kiritadi, ya'ni madaniyatni yangi elementlarni yaratuvchisi deb hisoblanadi. Shunga ko'ra madaniyat, qadriyatlar tizimi siftida o'z ichiga birinchidan, insonni o'zini rivojlanishi, ikkinchidan uni ijodiy shaxs sifatida namoyon bo'lishini o'z ichiga oladi.

Etnopedik yondashuv, bola aynan bir aniq sotsial madaniy muhitda yashab o'qiydi va ma'lum bir etnosga taalluqli bo'ladi. Milliy urf-odatlar, xalq madaniyati, milliy-etnik udumlarga asoslanib tarbiyalash, etnopedagogik yondashuvni shart-sharoitidir.

Milliy madaniyat turli o'qitish muassasalari ishlaydigan muhitda alohida spesifik kaloritni berib turadi. Pedagogik maqsadi shundaki, bir tomondan bu muhitni o'rganib shakllantirish bo'lsa, ikkinchi tomondan uning tarbiyaviy mohiyatidan maksimal foydalanishdir.

Antropologik yondashuvni ilk bora Ibn Sino asoslagan. Uning targ'ibotida - inson haqidagi barcha ma'lumotlarni tizimli ishlatish va pedagogik jarayonni amalga oshirish vaqtida bu ma'lumotlarni hisobga olishdir. Beruniy shuni

takidlaganki, ilm-fan bu insonni barcha tirik mavjudotlardan ustunligini va butun hayot davomida o'z prinsiplariga egaligidir.

Yuqorida aytilgan barcha pedagogik yondashuvlar birinchidan, pedaogogikaning barcha muammolarini yuzaga chiqarib, ularning strategiyasini aniqlab, bu muammolarni hal qiladigan barcha asosiy olimlarni aniqlash, ikkinchidan barcha ta'limot muammolarini analiz qilib, ularni muhimlik ketma-ketligini o'rganishga imkoniyat beradi. Va uchinchidan, berilgan metodologik prinsiplar pedagogikani umumiy ko'rinishda prognozlash imkoniyatini beradi.

4. Pedagogik tekshiruvni tashkillashtirish metodlari. O'qituvchi faqatgina shu holatda kuchli ishlashi mumkin, qachonki u nafaqat dars berib, balki o'z o'quvchilarini imkoniyatlari va xususiyatlarini nazorat qilsa, shuningdek qo'llanilayotgan pedagogik metodlarni effektivlikni kuzatsa. Shuning uchun maktab, gimnaziya yoki litseyda ishlaydigan har bir o'quvchi pedagogik izlanishlarni asosiy metodini bilmog'i kerak. Pedagogik izlanishlar metodi deb pedagogik ko'rinishlarni o'rganish usullari ataladi. Barcha metodlarni ko'p qirraligini 3 ta turga bo'lish mumkin:

- Pedagogik amaliyotni o'rganish metodlari;
- Nazariy tekshiruv metodlari;
- Matematik metodlar.

Pedagogik amaliyotni o'rganish metodlari.

Bu ta'limot jarayonlarini tashkillashtirishning real usullaridir. Ilg'or tajribalar sifatida o'rganiladi, ya'ni ilg'or o'qituvchilar tajribasidan qanday o'rnak olinsa, shunday oddiy o'qituvchilar tajribasidan ham foydalaniladi. Ularni qiyinchiligi ko'pincha pedagogik jarayonning ziddiyatlarini namoyon qiladi, bir yoki bo'lg'usi muammolari. Pedagogik amaliyotni o'rganishda quyidagi metodlardan foydalaniladi: kuzatish, so'zlashuv, intervyu, anketalashtirish, pedagogik xujjatlar va o'quvchilarni yozma, grafik va ijodiy ishlarni o'rganish.

Kuzatish - qaysi bir pedagogik ko'rinishni maqsadli ravishda qabul qilish, bu jarayonda tajribachi aniq bir doimiy ashyo oladi. Bu vaqtda kuzatuvlar yozmasi

(protokol) olib boriladi. Kuzatuv kuzatish uchun aniq bir ob'ektlarni oldindan qilingan reja asosida olib boriladi.

Kuzatuv etaplari:

- maqsad va masalalarni aniqlash (nima uchun va qanday maqsadda kuzatuv olib borilishi);
- ob'ekt, holatini tanlash (nimani kuzatish);
- kuzatuv usulini tanlash, ya'ni kuzatilayotgan ob'ektga eng kam ta'sir etib, eng ko'p informatsiya yig'ishga imkoniyat beruvchi usul (qanday kuzatish);
- natijalarni registratsiya qilish usulini tanlash (yozuvlarni qanday olib borish);
- olingan ma'lumotni qayta ishlash va tahlil qilish (natija qanday).

Kuzatuv yoqilgan, ya'ni tekshiruvchi kuzatilayotgan guruh a'zosi sifatida va yoqilmagan, yondan qarab kuzatish; ochiq va yopiq (inkognito); umumiy va tanlangan bo'lishi mumkin.

Kuzatuv bu juda oson usul, ammo u o'z kamchiliklariga ega, ya'ni natijalarga kuzatuvchilikning shaxsiy xususiyatlari ta'sir etishi mumkin (qiziqishlari, psixik xolati).

So'zlashuv - alohida yoki qo'shimcha usul, kuzatish davomida aniqlana olinmagan ma'lumotlarni belgilaydi. So'zlashuv oldindan tushuntirishni talab etadigan savollarni, belgilangan reja asosida namoyon kilish orqali o'tkaziladi. So'zlashuv erkin holatda, tekshiruvchining so'zlarini yozmasdan olib boriladi. Intervyulash - bu so'zlashuvni sotsiologiyadan pedagogikaga o'tkazilgan bir turi. Intervyulash oldindan belgilangan bir aniq ketma-ketlikda qo'yilgan savollar yordamida o'tkaziladi. Intervyu vaqtida javoblar ochiqchasiga yozib olinadi.

Anketalashtirish - bu anketa yordamida ma'lumotni ommaviy ravishda olish metodidir. Anketa egalari, yozma ravishda savollarga javob yozadilar. So'zlashuvni va intervyuni yuzma-yuz so'roq, anketalarini ko'rmasdan turib so'roq deb nomlashadi. So'zlashuv, intervyu va anketalashtirish natijalari berilayotgan savollarni ma'nosi va tuzilishiga juda ham bog'liq.

Pedagogik testlash - Ingliz tilidan tarjimada «test» soʻzi masala, tekshiruv degan maʼnoni bildiradi.

Testlash - jiddiy nazorat sharoitida oʻtkaziladiga har bir tekshiruvchi uchun bir hil maqsadlangan tekshirishdir. U pedagogik jarayonni obʼektiv holatda baholashga imkoniyat beradi. Qolgan usullardan testlash aniqliligi, soddaligi, avtomatlashtirilganligi, imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Testlash-milliy pedagogikada soʻnggi vaqtlargacha koʻp qoʻllanilmagan, lekin anchadan beri maʼlum tekshirish usulidir. Tekshiruvchilar oʻtgan asrni 80-90 yillaridanoq insonlarni individual har xilligini oʻrganishni boshlashgan. Bu oʻz oʻrnida tekshiruv eksperimentlarini yaralishiga olib keldi. (Testlar yordamida tekshirish A.Dalton, A.Kettel va boshqalar tomonidan oʻrganilgan). Testlarni qoʻllash psixometrik usulni rivojlanishiga turtki boʻldi, B.Anri va A.Binelar bunga asos solishdi. Maktab ilgʻorlanish, intellektual rivoj va boshqa xususiyatlarni shakllanish darajasi, testlar yordamida keng oʻquv-tarbiyaviy amaliyotni ajralmas qismiga aylandi. Psixologiya, pedagogikaga analizlash uchun yoʻl koʻrsatib, bir-biri bilan chambarchas bogʻlanib ketdi (baʼzan pedagogik testlashishni psixologiyadan ajratib boʻlmaydi). Elementar bilim, oʻqish, yozuv, sodda arifmetik hisobotlar uchun testlar koʻp va keng qoʻllaniladi, shuningdek oʻquv darajasini tashhislash, bilimni oʻzlashtirish darajasini aniqlash, hamma fanlar boʻyicha bilimni aniqlash uchun xilma-xil testlar ishlatiladi. Koʻpincha testlash tekshiruv usuli sifatida kundalik oʻqish darajasini testlash, bilim darajasini aniqlash, oʻqitilayotgan materialni sifatli oʻzlashtirishni nazorati bilan uygʻunlashib ketadi. Katta tekshiruv testi oʻz ichiga juda koʻp savollarni kiritib, oʻquv dasturining katta qismini oʻzlashtirganligini tekshirish uchun oʻtkaziladi. 2 xil test mavjud: vaqt bilan belgilangan va kuchli testlar. Tezlik boʻyicha tekshiruv asosan hamma savollarga javob berishga vaqt ziqligi bilan ajralib turadi, kuch boʻyicha testlar bunday imkoniyat, yaʼni har bir insonda bemaʼlollik bor. Ammo koʻpchilik testlar bu 2 chegaralar orasida turadi. Testlardan farqli ravishda, test tili sifatidagi masalalarda kundalik nazorat uchun boʻlib, oʻz ichiga kam savollarni oladi. Koʻpincha bunday masalalarda 5 tadan 10 tagacha savol boʻladi.

Amaliyotda test masalalarining ko'p turlari mavjud. Nazariy pedagogika kursi bo'yicha misol keltiramiz, savollarni analiz qilib to'g'ri javob berishga harakat qiling:

1. Aniq, qisqa javob talab etuvchi savollar, «kim», «qaerda», «nima», «nima uchun», «qanday» va h.k.. so'zlaridan boshlanuvchi masalalar. Aqliy rivojning koefitsientini nima ko'rsatadi?

2. Bo'shliqlarni to'ldirish kerak bo'lgan masalalar. Misol: Testlash... Tekshiruv, quyidagilarda o'tkaziladigan..., imkoniyat beradi...

3. Jaobni tanlaydigan test masalalar.

Misol: Pedagogik testlashni psixologiyadan ajratib bo'ladimi? Javoblar: 1. Ha; 2. Yo'q; 3. Bilmayman.

4. Javob tanlovi murakkablashgan masalalar.

Misol: Bilim darajasini tashhislash uchun qaysi testlar xizmat qiladi?

Javob: 1. Intellektual; 2. Diagnostik; 3. O'rgatuvchi;

4. Klassifikatsion; 5. Analitik.

5. Test masalalarini boshqa usullari ham mavjud, bulardan: to'g'ri kelishlikni va ketma-ketlikni aniqlash masalalari; berilgan ob'ektni ajarata olish, topish, berilgan belgilar bo'yicha klassifikatsiyalashni bilish masalalari va h.k.

Kollektivlashgan ko'rinishlarni o'rganish usullari

Tarbiya → ta'lim o'qish → jarayonlarini kollektiv (guruhli) xarakterga ega. Ularni o'rganishning eng ko'p tarqalgan usuli - o'tayotgan jarayon qatnashchilarini ommaviy, aniq bir reja asosida o'tkazilgan so'roqlash usulidir.

Anketalashtirish - anketa deb nomlangan, maxsus tuzilgan savollar yordamida materialni yig'ishning ommaviy usuli. Anketalashtirish javob berayotgan inson berilayotgan savollarga haqqoniy javob beradi degan, taxminga asoslangan.

Hozir pedagogikada quyidagi anketalar turi keng tarqalgan: ochiq -javobni o'zi tuzishni talab qiladigan, va yopiq - bunda o'quvchilarga tayyor javoblardan

bittasini tanlashni talab etadigan; nomli, ya'ni tekshirilayotgan shaxsni familiyalarini ko'rsatib beradigan; anonim, familiyani ko'rsatmaydigan; to'liq va qisqa; propedevtik va nazoratli va h.k. Keng qo'llaniladigan anketalardan biri «polyar» ball baho qo'yiladigan. Uni prinsipi bo'yicha so'roq varaqalari o'zini va o'zgalarni baholashdan iborat. Misol uchun shaxsiy sifatlarni aniqlash uchun varaqlarga 5 balli shkalani kiritiladi: ,

Mehnatkash 54321 Dangasa;

Intizomli 54321 Intizomsiz;

Ilg'or 54321 Bajaruvchi.

Bunday anketalarda ballar soni har xil bo'lishi mumkin. Ko'pincha 12 ballik shkaladan foyda, 6 ta ijobiy va oltita salbiy; eng past -6 -5 -4 -3 -2-1 -0 eng yuqori +1 +2+3 +4 +5 +6. so'ralayotgan inson kerakli balni dumaloq qilib chizadi. Misol 5- juda intizomli, 4- intizomli, 3- ko'proq intizomli, intizomsizga ko'ra, 2- intizomsiz, 1- juda intizomsiz.

Sifatli anketalarni eng yirik muammosini, quyidagicha belgilaydi: qanday savol - shunday javob. Misol uchun o'quvchiga to'g'ridan-to'g'ri kundalikda uyga vazifa uchun qancha vaqt ajratasan deganda, anketa tuzuvchi ma'lum bir javob turiga undaydi: Past qo'yiladigan o'quvchilar o'z dangasaligini qaysi biri bo'yniga olib to'g'ri javob qiladi? Ko'pincha real javob emas, balki o'zi xohlaydigan, o'qituvchilarga yoqadigan javobni tanlaydi. Shuning uchun to'g'ri javob olish uchun, to'g'ridan-to'g'ri emas, balki o'ralgan holatda savol berish kerak. Bu esa anketani juda ham kengaytirib yuboradi va kamdan-kam odam bunga javob bergisi keladi; 2-chidan bu anketalar berilgan mavzuga inshoni eslatib yuboradi. Anketalar tekshirish ham qiyinlashib, bu usul o'z imkoniyatlarini yo'qotadi. Professional tekshiruvchilardan tashqari, anketalardan turli xil savollarga javob topish uchun o'qituvchi va sinf rahbarlari ham foydalanadi. Ammo o'zi tuzgan, kamchiligi bor anketalardan ko'ra, professional tuzilganlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Guruhli differentsiatsiya (sotsiometrik usul) o'rganish usulidan ham juda keng foydalaniladi. Bu kollektiv ichidagi munosabatlarni aniqlashga yordam beradi. Misol uchun savol: Kim bilan sen xohlarding? (imtihonga tayyorlov,

poxod, bir partada o‘tirish, bir komandada o‘ynash va h.k.). Har bir savolga uchta tanlov: 1. Kim bilan eng ko‘p xohlarding... 2. Agar birinchi bilan bo‘lmay qolsa, kim bilan... 3. Xuddi shu sharoit yana takrorlansa, kim bilan...; Natijada guruhni ba’zi a’zolarida ko‘proq tanlov, ba’zilarida kamroq bo‘ladi. Har bir o‘quvchining o‘rni, roli, statusi haqida tushuncha yaratib beradi; guruh ichidagi guruhchalar va ularni boshliqlarini aniqlashga imkoniyat beradi.

O‘qituvchi bilan tuzilgan anketani analiz qiling, O‘zingizni variantingizni taklif qiling.

Qaysi savollar ortiqcha?

1. Qaysi maktabda o‘qiysan?
2. Qaysi kinoni so‘nggi marta ko‘rding?
3. Seni harakatlaringa nima sabab?
4. Tishlaringni necha bor tozalaysan?
5. O‘qituvchilik kasbi yoqadimi?
6. Geografiya fanini yoqtirasanmi?
7. Bir oyda nechta kitob o‘qiysan?
8. Fizikadan vazifalarni bajarishga qancha vaqt ketadi?
9. Seningcha 1 chi dars nechada boshlanishi kerak?
10. Maktabdan keyin nima bilan shug‘ullanasan?

Pedagogikadagi sonli usullar

Sifat - bu har bir jismning ko‘rinishi, nimaligi, nima uchun kerakligi haqidagi xususiyatlarni majmuasidir. Son ko‘rsatkichlari jismning o‘lchamlari, umuman sonlar orqali amalga oshiriladi; sifat belgilarni tariflash bilan birgalikda yoritib beradi. Sifatni analiz qilganda, tekshiruvchi, berilgan jism qaysi bir ma’lum ko‘rinishlar sinfiga taalluqli va uni maxsusligi nimada ekanligini aniqlash mumkin. So‘ng ko‘rinishlararo sababli bog‘liqliklarini aniqlaydi. Sonli analizning maqsadi aniqlangan xususiyatlarni hisobi va o‘lchovlarini aniqlashdir. Olamni o‘zlashtirish sifat belgilarini o‘rganishdan boshlangan. Inson qiyinchiliksiz jismlarni sifat

xususiyatlarini o'rgangan, olingan bilimlardan foydalangan. Ammo tez orada amaliyot ba'zi o'xshash narsalarda turli xil o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash kerakligini taqozo qildi va ularni bir-biridan har xil sifat kattaliklari, umumiy xususiyatlarini farqlash, solishtirish talab etdi. Shunday qilib o'lchov va hisobotlar zarurligi aniqlandi. Pedagogikani sonli usullaridan foydalanishda 2 ta asosiy yirik yo'nalishlar mavjud: birinchisi - olingan natijalarni qayta ishlash, kuzatuv va eksperimentlarni tahlil qilish; ikkinchisi - o'quv-tarbiyaviy jarayonni modellashtirish, tashhishlash, kompyuterlash uchun. Birinchi guruh usullari yaxshi tanish va keng qo'llaniladi. Tekshiruvchilar bilan o'zlashtirilgan statistik usul birinchilikni qo'lga kiritgan. Uni ichida bir qancha aniq usullardan foydalaniladi:

Registratsiya - berilgan sinfda aniq bir xususiyatni aniqlash va berilgan sifat bo'yicha bor yoki yo'qligini sonini hisoblash (misol, yetakchi va qoloq o'quvchilar soni va h.k.).

Zanjirlash - olingan ma'lumotlarni bir ma'lum ketma-ketlikda joylashtirish (berilgan ko'rsatkichlar bo'yicha ko'payishi yoki kamayishi bo'yicha), o'rganilayotgan ob'ektlarni bu qatorda o'rnini belgilash (misol, qo'yib yuborilgan darslar bo'yicha o'quvchilar ro'yxatini tuzish va h.k.)

Shkalalashtirish - o'rganilayotgan xarakteristikalar bo'yicha, ball ko'yish yoki boshqa bir sonli ko'rsatkichlarni belgilash. Bu bilan katta aniqlik kiritiladi. 4 xil o'lchov shkalalari mavjud: 1) nomlanish shkalasi; 2) ketma-ketlik yoki toifali shkalalar; 3) interval shkalalar; 4) munosabatlar shkalasi.

Nomlanish shkalalari eng «kuchsiz» dir. Chunki son va boshqa belgilar bo'nda shunchaki simvolik ishlatiladi. Ular o'zicha ma'lum bir ob'ektlar sinfini nomlanish ko'rinishida bo'ladi. Ularni yagona matematik xarakteristikasi u yoki bu tekshirilayotgan ob'ekt berilayotgan sinfga taalluqli yoki yo'qligidir. Nomlanish shkalasiga misol qilib bir qancha xususiyatlar bo'yicha klassifikatsiyalash: - fanlar ro'yxati, o'quvchilar xarakteristikasini nomlash, qoloqlik sabablarini belgilash va h.k. Ketma-ketlik shkalalarida «ko'proq», «kamroq» ketma-ketligi belgilanadi. Misol uchun; bo'y balandligi bo'yicha ranglash; ko'proq besh baho bo'yicha, «kamroq dars qoldirish» va h.k.

Kuchli shkalalarga - munosabatlar shkalasi va interval shkalalash kiradi. Termometr, voltmetrlar shkalasi albatta kuchliga kiradi.

Pedagogik izlanishlarni yana bir kuchli usuli bo'lib modellashtiruv hisoblanadi.

Modellash - bu modellarni tuzish va o'rganish usuli. Modellashni asosiy yutug'i ma'lumotni to'liqligida. Modellash sintetik yondashishga asoslanadi: butun tizimlarni ajratib, ularni funksiyasini o'rganadi.

Hozirgi vaqtda tuzilgan pedagogik modellarning ko'pchiligi didaktik ko'rinishlarga mansub.

Didaktikadagi modellashtirish quyidagi muhim masalalarni yechish uchun muvaffaqiyatli qabul qilinadi:

- o'quv material strukturasi optimallashtirish;
- o'quv jarayonini rejalashtirishni yaxshilash uchun;
- bilim faoliyatini boshqarish uchun;
- ta'limni tashhishlash, proektlash, prognozlash uchun. Modellashtirish nihoyatda ser natija, ammo shu bilan birga aldamchidir. Umuman olganda u uchta foydali maqsadga xizmat qiladi.

Evrestik - yangi qonunlarni klassifikatsiyalaydi, topadi va belgilaydi, yangi teoriyalarni tuzadi.

Xisobli - modellar yordamida hisobot muammolarini yechadi.

Eksperimentli - emperik tekshiruv muammolarini yechadi. Uning aldamchiligi shundaki, hamma afzalligiga qaramasdan, tizimni butunlay qamrab olishiga qaramasdan, shartli belgilar sxemasi, juda ko'p taxminlarga duchor kelinadi. Natijada, modellangan borlikdan, keskin farq qiladigan modellar vujudga keladi. Ularni o'rganish bekor kuch sarf qilishdir, avval modelni haqqoniyligini asoslab berish kerak.

Pedagogikani matematikallashtirish juda katta ahamiyatga ega. U ilmni bir tamonlama belilashdan tashqari, yetilgan natijalarga jiddiy reviziya ham qiladi, buning uchun tekshiruvni ob'ektiv metodlari va mukammal tilni namoyon qiladi.

Shakllangan pedagogik teoriyalarni tuzish uchun bugungi kunda matematikani yangi bo'limlaridan qo'llaniladi: faktli va matrik analiz; o'yinlar teoriyasi, ommaviy xizmat, murakkab tizimlar boshqaruvi, dinamik programmashtirish, mikroanaliz.

Aniq emas ko'paytiruvchilar teoriyasi o'tgaz yil avval, amerikalik olim L.Zade tomonidan ishlab chiqariladi. Masalan, yangi toq ko'paytiruvchilar nazariyasi quyidagicha yoziladi: $=0,2/15+0,9/20+1/25+0,7/3,0+0,2/40+0,1/50$. sonlar 15,20,30,50 yoshni bildiradi. Yoshga 15,20 yoki 50 yosh bo'lishi ham mumkin. Har bir yoshga yaqinlik o'lchovlari belgilangan. 15 yil uchun o'lchov kichik - atigi 0,1 xuddi 50 uchunday. U juda yosh = yosh 2 (yosh o kvadrat) ammo juda yosh va uncha qarimas = ¹ (qari), sulqillagan - juda qari = (qari). L.Zade algebrasi o'z qoidalariga ega, uning yordamida qo'shuv va ayiruv, elementlar konsentratsiyas va parchalanish, noaniqliklar kamayishi va ko'payishi kuzatiladi. Uni tilda turli hil pedagogik tasdiqlarni aniqlash mumkin.

1) 5 balli shkala maktab baholarini qaysi shkalasi hisoblanadi?

1. Naminal; 2. Rang bo'ycha; 3. Intervalli; 4. Munosabatlar shkalasi.

2) «Undosh so'zlarni to'g'ri yozish» mavzusini kompyuterda o'rganishni effektivligini tekshirish uchun qaysi ilmiy tekshiruv usulidan foyda?

1. Kesim usuli; 2. Suhbat; 3. Lobarator usul; 4. Faktli analiz; 5. Tarixiy usul; 6. Kuzatuv; 7. Statistik metod; 8. Maktab xujjatlarini o'rganish; 9. Noaniq ko'paytiruv usuli; 10. O'quvchilar ijodi natijalarini o'rganish; 11. Operatsiyalarni o'rganish; 12. Modellashtirishni boshini o'rganish; 13. Amaliy analizm; 14. Tabiiy ekperiment.

To'g'ri javoblar: 1 chi

Nazorat varaqasi

1. Ilmiy tekshiruv metodi bu nima?

2. Pedagogik jarayonlar qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?

3. Ilmiy qonun bu nima?

4. Qonundan qonuniyat nimasi Bilan farq qiladi?

5. Ilmiy qonun va qonuniyat qanday klassifikatsiyalanadi.

6. Pedagogik kuzatuv negizi nimada, qaysi usullar pedagogik-an'anaviylarga kiradi?

7. Pedagogik eksperiment bu nima?

- yuqoridagiga yaqin mazmunli savollar tuzish;
- savollar to'plami oldingi qator savollarini tuzish;
- savollar to'plamini boshlang'ich va so'nggi tuzatilishi.

So'ralayotgan odamni shaxsiyati haqida faktik ma'lumotni aniqlab beradigan (buni savollarni oxirida qilish ma'qulroq); bo'layotgan ko'rinishlar, voqealarga nisbatan tekshiruvchining munosabati (bunda javoblarda haqiqatdan boshqacharoq javob) ni ko'rsatib beradigan; teshiruvchilarning harakatini aniqlaydigan savollar turlarini farqlashadi. Bunga qo'shimcha bo'lib yanada aniq ma'lumot olish uchun boshqa insonlarni ham aniqlanayotgan va o'rganilayotgan ko'rinish haqida fikri ham katta ahamiyatga ega.

Anketalashtirish, intervyulashni o'tkazishdan oldin so'roq maqsadi haqida kirish qilinib, uning anonimligiga garantiya beriladi. Bosh savollar qiziq va muloqotsiz bo'lishi kerak. Keyingi savollar sekin-sekin murakkablashib boradi. Intim xarakterli so'roqli oxirida bo'ladi. Oxirgi savollar oldinglarga aniqlik kiritadi. So'rok o'tkazish vaqti 15 dan 25 minutgacha bo'lishi kerak.

Pedagogik tekshiruvlarda alohida o'rin tutadigan eksperiment ahamiyatga ega - u yoki bu usulni tekshirish uchun ataylab tashkillashtirilgan tekshiruvdir. Pedagogik eksperiment tekshiruv faoliyati pedagogik ko'rinishlardagi sabab - natijaviy bog'lanishlarni o'rganish maqsadida, quyidagilarni taxmin qiladi:

- pedagogik ko'rinishi tajribali modellashtirish va uni o'tishini shart-sharoitlari;
- tekshiruvchining pedagogik ko'rinishiga aktiv ta'siri;
- pedagogik ta'sir va bir-biri bilan bog'lanish natijalari haqida javoblarini o'lchash;
- pedagogik ko'rinish va jarayonlarni ko'p marta qaytalashishi.

\

Eksperimentning - 4 etapi mavjud.

- nazariy-muammoni qo'yish; maqsadni aniqlash (tekshirilayotgan ob'ekt va jismni), uni masalalari va gepotezalari;
- metodik-programmalarni tekshiruv metodikalari va rjasini ishlab chiqarish, olingan natijalarni qayta ishlash usullari;
- eksperimentni o'zim - tajribalar seriyasini o'tkazish (eksperimental holatlarni tuzish; tajribani kuzatish va boshqarish va tekshirilayotganlarni reaksiyasini o'lchash);
- analitik, - sonli va sifatli analiz, olingan faktlarni tahsil qilish, xulosa va amaliy tavsiyalarni shakllantirish.

Tashkillashtirish sharoiti bo'yicha tabiiy (oddiy o'quv jarayonida) va laborator (tekshirish uchun u yoki bu o'qitish usulini sun'iy tashkil qilish) u uzoq va qisqa muddatli bo'lishi mumkin. So'nggi mahsulotlarga ko'ra eksperiment ta'kidlovchi, (jarayondagi ishlarni faqat real xolatini aniqlovchi) va rivojlanuvchi (ishlarni shart-sharoitlarini maqsadga muvofiq tashkil etish),

Rivojlanuvchi eksperiment takoslash uchun kontrol guruhlarini tashkil etishni talab etadi. Eksperimental usul qiyinchiliklari, tekshiruvchini eksperiment o'tkazish texnikasini bilish, ajralib turuvchi dilikatlik, taktga ega bo'lishni talab etadi, tekshiriluvchi bilan aloqa bog'lashni qiyin kechishi.

Yuqorida sanab o'tilgan usullar pedagogik ko'rinishlarni empirik metodlar bilan o'rganish demakdir. Ular ilmiy xizmat qiladi. Shuningdek nazariy tahlilga duch keladi.

Nazariy tekshiruv metodlari. Nazariy tahlil o'tkazish davrida asosan alohida tomonlar, belgilar, pedagogik ko'rinishlar xususiyat va o'ziga xosligin ajratib ko'rib chiqiladi. Alohida faktlarni analizlash, guruhlariga ajratish va tizimlash vaqtida tekshiruvchilar ularda umumiylik va o'ziga xosligini ajratib ulardan umumiy prinsip yoki qoidani ishlab chiqariladi.

Nazariy tekshiruvlarda induktiv va deduktiv usullardan foydalaniladi.

Bu empirik yo'l bilan olingan faktlardan logik metodi deb hisoblanadi.

Induktiv metod fikrni shaxsiy fikrdan umumiy xulosa tomon yo‘nalishini deduktiv metod aksincha, umumiy fikrlashdan shaxsiy xulosa tomon yo‘naladi.

Nazariy usul muammoni anihlash uchun, gepotezani shakllantirish uchun va yig‘ilgan faktlarni baholash uchun zarur. Nazariy usullar adabiyotlarni o‘rganish bilan bog‘liq: Mumtoz yozuvchilar mehnatlari orqali insonni bilish aynan pedagogika savollariga javob topishdir; pedagogikani umumiy va maxsus ishlari; tashxis pedagogik ishlar va xujjatlarni o‘rganish uchun; tasviriy adabiyot, maktab tarbiya o‘qituvchi haqida ma’lumot olish uchun; ma’lumotli pedagogik adabiyot; o‘quv qo‘llanma, metod qo‘llanma, pedagogika va murakkab fanlarni o‘rganish uchun. Adabiyotni o‘rganish, qaysi tomon muammolar yetarli darajada o‘rganib bo‘lingan. Qaysilari bo‘yicha ilmiy muxokamalar olib borilayapti, qaysilari eskirgan va qaysi savollar xali xal etilmaganligini bilish uchun imkon beradi. Adabiyot bilan ishlash quyidagi metodlarni o‘z ichiga oladi: tarjimai holni tuzish - ma’lumotnomani ketma-ketligini tuzish -referatlarni (saralash) - asosiy ishni ma’nosini bayonlash - konspektlashtirish, asosiy g‘oya va ishni asos qilib olgan aloxida axamiyatga ega joylarni oq qog‘ozga tushirish - sitatalash adabiy ma’lumotnomada bor. Fakt yoki sonli beriluvchilarni so‘zma-so‘z yozuvchi - anketalash kitob yoki maqolani umumiy ma’nosini qisqacha yozish.

Matematik metodlar so‘rovnoma orqali eksperimental faktlar orqali olingan ma’lumotlarni qayta ishlash, shuningdek o‘rganilayotgan ko‘rinishlar orasidagi sonli bog‘liqlikni namoyon qilish uchun ishlatiladi. Ular olingan natijalarni baholashga, xulosalarni aniqliligini oshirishga yordam beradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Qaysi ilmiy tekshiruv prinsiplarini bilasiz?
2. Ilmiy pedagogik tekshiruvlarni tashkillashtirishda qaysi prinsiplarga tayanish kerak?
3. Asosiy ilmiy-pedagogik tekshiruv metodlarini aytib, ularni ma’nosini aytib bering?
4. Pedagogik tekshiruvni eng yangi metodlari haqida nimalarni bilasiz?

5. Statistik metodni qo'llanilishini (nima uchun) tushuntirib bering?
6. Pedagogikaning asosiy metodologiyasi qaysilar?

TA'LIMNING USUL VA USLUBLARI HAMDA DARSNI AMALGA OSHIRISHDA ISHTIROK ETADIGAN TEXNIK VOSITALAR

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi, u oldiga ma'lum maqsad ko'yib, so'ng unga tomon harakat qilishligini bilamiz. Kishi maqsad sari qiladigan harakati jarayonida muayyan tabiiy va sun'iy to'siqlarni, ya'ni qarshiliklarni yengib o'tadi. Bu to'siqlarni bartaraf etish uchun, u bir qator tadbir va choralardan foydalanadi. Demak, maqsadga yetishishda qo'llaniladigan tadbir va choralar usul deyiladi, deb qabul qilsak bo'ladi. Lug'atlarda ham shunday.

Maqsadga yetishda muayyan tusiqni yengib o'tish uchun qo'llaniladigan usullar bir qancha bo'lishi va ular ma'lum bir tartibda ko'llanishi ham bizga ma'lum. Shundan kelib chiqib, maqsadga yetishda qo'llaniladigan usullar tartibini yo'l — uslub, desak mantiqqa to'g'ri bo'ladi. Barcha lug'atlarda ham bu ta'rif shunday berilgan. Ammo pedagogik adabiyotlarda usul, uslub, metod va metodika tushunchalari tartibga keltirilgan bo'lmay juda erkin ko'llanilmokda.

Ta'lim-tarbiya uslub (metodika) larini tavsif kiladigan bo'lsak, u o'qituvchi bilan o'kuvchi hamda o'quv dasturi va darslik, shuningdek, o'qitish vositalari orasida bilim berish va bilim olishni amalga oshiradigan o'zaro munosabatlarni tizimga soluvchi pedagogik tadbiridir.

Uqitish uslublari o'quv jarayonining tashkil kilishning asosiy kismi hisoblanadi. Tegishli uslublarsiz pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi.

Uslublar bilimlarni uzatish va qabul kilish xarakteriga qarab uchga bo'linadi: so'z orqali ifodalash, ko'rgazmali va amaliy. Ta'lim mazmunini o'zlashtirishda o'quvchilarning bilish faolligiga munosib ravishda quyidagi uslublar qo'llanishi mumkin: tushuntirish — illyustrativ (axborotli retseptov), reproduktiv, muammoli bayon, xususiy izlanish yoki evrestik hamda yarim tadqiqot uslublari.

Ta'limniig muammoli qidiruv uslubida ko'rgazmali ko'llanmalar esda saqlanishni faollashtirish bilan bir qatorda, darsda muammoli vaziyatni yaratadigan namunaviy masalalarni quyish uchun ham ishlatiladi. Muammoli qidiruv uslubi ko'proq ijodiy bilim faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida qullaniladi. Shu nuqtai nazardan bu uslub o'zini tadqiqot ishiga bag'ishlangan yoshlarga bilim berishda as qotadi.

Uslublarning eng yangisi va eng samaradorlisi, bugungi kunda pedagogik texnologiya hisoblanmoqda. Bu uslubni qo'llaganda dare loyihasi tuzib olinadi. Dare beruvchi loyihaga qatgiq rioya qilishi shart.

Pedagogik texnologiya asosida dare loyhasini tuzishda, uning besh tamoyiliga rioya qilinadi.

Pedagogik texnologiya tamoyillarining birinchisi — muayyan o'quv predmeti, katta modul yoki dare mavzusida kutilgan asosii maqsadni shakllantirib olish.

Ikkinchi tamoyil — darsning umumiy maqsadidan va mavzuning ichki mazmunidan kelib chikib, darsni kichik «modullarga» ajratib, har bir modulning maqsadini hamda modullar ichida hal qilinadigan asosiy masalalar tizimini aniqlab olishdir.

Uchinchi tamoyil — modullar ichida ko'riladigan masalalarning ichidan asosiylarini tanlab olib, ulardan test savollari va ular asosida surov varakasini tuzib chikish.

Mavzular asosan besh moduldan iborat bo'lib, birinchi va to'rtinchi modul darsni tashkil qilish va xulosalash qismlarini tashkil qilsa, beshinchi modul dare samaradorligini aniklashdir. Shunda yangi bilimlarni berish 2 va 3 modullar zimmasiga tushmoqda. Ushbu modullardagi bilimlar ichidan muhimroqlarini ajratib olib, test savollari tuziladi.

To'rtinchi tamoyil — maqsadga yetish uslub *shl* usullariya *tjx^ shoim* belgilab olish. Pedagogika fani misolidagi mayazular o'shiig ztpishyiii bilan ajralib turganligi sababli, uyada asosai so'» bilaya *tushushtirish* n qisman illyustrativ uslublardan, shuningdek, kezi «yagaida, iushshshs

izlanish usulidan qam foydalaniladi. Muayyai mashu oldixa *ko'yiyansh* maqsadlarga yetishish uchun yukorida kayd kilingan usyaublar ishlatiladixai aniq joyini aniqlab ko'yishdir.

Beshinchi tamoyilda dars ichidagi modullar orasidaga ueaayay bog'liqpiklarga hamda dars mazmunining fanlararo alokalar asesida tuzilishiga e'tibor qaratilishi shart,

Uqitish usullari. Pedagogika amaliyotida *o'ttish usuyalarinivg* juda katga boy merosi to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o'kvatalayotgan fanning xarakteri, bolalarning yesh xususiyatlari, *olshyagi* tayyorgarlig darajasi va xokazolar hisobga olinadi.

Forobiyning «Fan va san'atning afzalligi haqida»g'v risolasida o'juv jarayonini tashkil ztishga va o'kitish usullariga ko'yyalgaya talablar ifodalangan. Olim o'ziyaing o'qitish usullari haqidagi tushuntirshplarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaknl xolla bilim olish yo'llarini xam ko'rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga shakshubxasiz ishontirish kerayushgini ukgiradi.

Barcha alloma olimlar foydalangan o'kitish usullarini bir necha guruhga ajratish mumkin. Bular: kurgazmali tajriba usullari (Ibi Sivo), bilimlarni baen kilishning savol-javob usullari (Abu Rayxon Verxniy, Aya-Xorazmiy), ko'nikma va malakalami shakllantirish usullari (Forobiy, Al-Xorazmiy) va boshkdlardan iborat.

O'qitish usullarini tanlash o'qituvchi darsda xal kilishi muljalyaajgaz masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni baen ztishla bir xil usullar qo'llansa, uni mustaxkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashgirishda yana boshqa xil usullar ko'llaniladi.

Garchi har bir pedagogning ishida anchagina usul va uslublar mavjud bo'lsada, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining galimiy ishlarini faollashtirish bo'lmog'i lozim. O'qituvchi-pedagogning vazifasi samarali usullardan foydalanib, talabalarla faollik sifatlarini tarkib toptirish va qiyinchiliklarni yengishga o'rgatishdir. Bu juda muqim bo'lib, o'quvchilarda o'qitilayoggap fanga bo'lgan, undan esa amaliy faoliyatga aylantiradi va o'qitish jarayonining ishini osonlashtiradi.

Hozirgi o'qitish jarayonida qo'yiladigan talablar va o'quvchilarda darsga qiziquvchanlikni oshiradigan, uni yangilik elementlari bilan boyitish uchun nima qishshsh kerak?

Hozirgi zamon ta'lim-tarbiya tizimi faqat insoniyat aniqlagan bilimlarni o'zlashtirishnigina emas, balki jamiyat endi hal qilishi hamda bunda bugungi talaba va o'quvchilar qatnashishi lozim bo'lgan masalalar bilan tanishishni ham talab qiladi. Bunday masalalar kosmosni o'zlashtirish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, cho'llarni hosildor yerlarga va bog'-rog'larga aylantirish, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish va hokazolardan iborat bo'lishi mumkin. Xalq xo'jaligi va fanning xodima sohalarida juda katta burilishlar ro'y bermokda va har bir o'qituvchi o'zining tarbiyalanuvchilarini o'zi o'qitadigan fan sohasi bo'yicha navbatdagi qayta qurilishlar va erishilgan yutuqlar bilan keng tanishtirishi kerak. Bu ishni o'quvchilarga mo'v usulda va o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirishi lozim. Mazkur talabning ikkinchi xususiyati pedagogning talabalar fikr doirasini kengaytirish to'g'risidagi doimo gamxo'rlik qilishidir.

Shunday qilib, o'qitish usullari pedagog va talabalar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan tadbirdir. Unga quyidagi muayyan talablar ko'yiladi.

1. Uquv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan usuli uquvchilarning dialektik qarashlari, ijobiy xususiyatlari va xulqining shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqgai nazaridan usul tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.

2. Uqitish usulining ilmiy asosi yakkol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina ukituvchi mazkur usul orqali qanday masalalar ko'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal kilib bo'lmasligini ko'ra oladi.

3. Uqitishning tizimlilik uning samaradorligini belgilaydi.

4. Uqitish usulining tushunarlilik: o'qitishning usuli o'quvchi uchun qabul qilinishi va ko'llanipsh, o'quv materialini o'rganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lipsh shart.

5. O'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarning puxtaligi va asosiligi ham hal qiluvchii ahamiyatga ega.

7. O'qitish usulida nazariy va amaliy hodisalarning muvofikdigiga erishmay ham dars o'tib bo'lmaydi.

Har qanday usuldan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beraradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. Har qanday faoliyat uning ob'ektini bilishni talab qiladi. Nihoyat, usul maqsadga olib borishi kerak, aks holda, u qo'ygan maqsad uchun yaroqsizligi yo bo'lmasa, bu holatda uning umuman noto'g'ri qo'llanganligani e'tirof etish lozim. Shunday kilib, har qanday usul uni qo'llashdan ko'zlagan maqsadni, shu maqsadni amalga oshirish faoliyatini va faoliyatni bajarish vositalarini talab qiladi. Bu vositalar faoliyat ob'ektini tugrisidagi predmetli yoki akliy bilimlar, kuyilish maqsadga albatta erishishdai iborat bo'lishi mumkin. Bularning hammasi xar qanday usulga nisbatan maqsadga muvofiqdir, lekin o'qitish usullari uchun yetarli emas. O'qitish usullarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

- tafakkur, xotira, diqqat na xayolning alohida operatsiyalarini tarkib toptaradigan va faollashtiradigan usullar;

fikrlash faoliyatida muammoli va izlanishli vaziyatlari vujudga keltiradigan usullar;

- talabalarning o'quv materialini o'zlashtirish bilan bog'liq kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan usullar;

- nazorat va o'quvchilarning o'zini o'zi nazorat usullari;

- o'qitish jarayonida o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

So'shti yillarda pedagogika fani va pedagogik amaliyotda o'qitish usullari muammosiga alohida e'tibor berilmoqda. Shu muammo bo'yicha anchagina tadqiqotlar olib borilmokda, ilgor pedagogik amaliyotda o'qitishning samarador usullari va ularning tizimlarini ko'llashning talaygina yo'llari topildi. Ammo ta'lim-tarbiya jarayoniga kuyilayotgan yangi talablar o'qitishning usullarini yanada takomillashtirishni talab kilmokda,

Yuqorida kdyd etilganidek, ta'limning mazmuniga kuyilayotgan yangi talablar — yosh avlodga xususiy fanlarning asoslari bo'yicha yuksak ilmiy nazariy bilimlar berishdan iborat

bo‘lib, bu ish nazariy bilish usullariga, shu jumladan, o‘quvchilarni mantiqii fikrlash, mantiqii operatsiyalarni bajarish usullari bilan kurollantirishni tobora kuchaytirishni takozo ztmokda.

O‘qitish usullarining turlari juda ko‘p, ulaming sonini anik belgilab bo‘lmaydi. Ular pedagogik amaliyot davrida tinmay boy i b boraveradi. Usullar o‘qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga qarab tasniflanadi. Pedagogikada o‘qitish usullarini tasniflashga yagona yondashish mavjud.

PEDAGOGIKANING METODOLOGIK ASOSLARI

Inson aqlini naqadar ishlatganligining belgisi, uning egallagan bilimining hajmi bilan aniqlanadi, deb yuqorida aytiladi. Kiish kancha aqlini ko‘p ishlatrsa, bilimi shuncha ko‘p va ijtimoiy mohiyati yuqori bo‘ladi Undan tashqari inson boshqa mahluqotlardan ko‘pgina ikkilamchi xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Insonning boshqa mavjudotlardan ikkilamchi farqlaridan biri, uning ma‘lum bir maqsad sari harakat qilishidadir. Kishi maqsadga yetishish jarayonida bir qator tabiiy va sun‘iy to‘siqlarni bosib utadi. Bu to‘siqlarni bartaraf qilish uchun u bir qancha tadbir va choralarni ko‘llaydi. Maqsadga yetishishda muayyan to‘siqin yengib o‘tish uchun qo‘llaniladigan tadbir-choralar majmui usul (ruscha — metod) deyiladi. Maqsadga yetishishda, kishi bir necha, goho o‘nlab, yuzlab to‘siqlarni yengishiga to‘g‘ri keladi. Bu to‘sikdarni yengish uchun teplili usullarni ma‘lum bir tartibda qo‘llaydi. Maqsadga yetishishdagi qo‘llaniladigan usullar tizimini uslub yokn no‘l (ruscha — metodika) deyiladi.

Usullarning ma‘lum bir tartibda kullanish jarayonida har bir harakat maqomi kishining oldiga kuyilgan maqsad ko‘rsatkichlari hamda o‘sha jarayonda xukm suruvchi qonuniyatlardan kelib chiqib, amalga oshiriladi. Kishi maqsad sari qilgan harakatida unga tamoyil bo‘lib hizmat qiladigan maqsad kursatknchlarn bilan shu harakat davomida amal qilnshn shart bo‘lgan qonuniyatlar majmuiga metodologik asos deyiladi. Masalan: faraz qilaylik, siz o‘zingizga ko‘ylak tikib kiyishni maqsad qilib ko‘ydingiz. Buning uchun, avval matoni xarid kilasiz bu maqsadga yetishning birinchi usuli, so‘ng uni bichib, tikish, dazmollash va kiyish degan usullarni qo‘llashingiz kerak bo‘ladi. Bu usullar ma‘lum bir ketma-ketlikda, ya‘ni ma‘lum bir yo‘l, uslub,

ya'ni metodika orqali amalga oshiriladi. Ammo uslubning usullari ichidagi tadbirlarni bajarishda, siz har bir harakat maqomingizni ko'ylakning fasonidan, o'lchamlaridan hamda tikuvchilikda mavjud konun qoidalarga bo'ysungan holda amalga oshirasiz. Buni harakat metodologiyasiga bo'ysunish deyiladi. Bundam misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Ammo hammasida xam usullar, usullar tieimi — uslub kullanilib, uning metodolognyasi bo'ladi. Metodologiyaning **eig** umumiy, umumiy va xususiy degan gurlari mavjud.

Odamlar faoliyat ko'rsatish jarayonida eng umumiy, umumiy va xususiy metodologiyalardan birday kelib chikkan xolla o'z ishlarini amalga oshiradilar, aks holda harakatlari zoe ketishi mumkin.

Odam tugilishi bilan o'zida ijtimoiy sifatlarni shakllantira boshlaydi. Bu sifatlal shaxsiy xarakter, mijoz, xissiyot, dikkat, idrok i xotira ta'sirndan o'tib, shaxsiy sifatl tusini ola boshlaydi. Inson sekin asta shaxs degan makomga ega bo'ladi. Shaxslar egallagan bilimlari xajmi va odamlar taqdirini o'zgartira olish doirasiga qarab oddiy, kuchli va buyuk shaxslar toifasiga bo'linadilar.

Shaxsning kamolotga erishish jarayoni murakkab bo'lib, u kishining irsiy birliklaridagi dasturi (takdiri azal), shaxsiy shijoati va tashkl tabiiy i ijtimoiy muhit hamda maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarasnlari ta'siri ostida kechadi.

Inson bioijtimoiy mavjudot sifatida ijtimoiy rivojlaiishi davomida sifatl o'zgarishlariga duch kelib, biologik tur vakilndan shaxs darajasigacha kutariladi. Bunda ijtimoiy rivojlanishni xarakatga keltiruvchi kuch hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Inson ijtimoiy rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch deb, kishi extiyojlari ta'sirida yuz beradigan ob'ektiv omillarni, odamlarning oddiy, biologik va jismoniy (moddiy) ehtiyojlaridan boshlab, oliy (ma'naviy va ruxiy) extiyojlariga qadar bo'lgan ehtiyojlar majmui hamda ularni kondirish imkoniyatlari orasidagi munosabatlarga aytiladi.

Extiyojlar u yoki bu faoliyatning sabablarini vujudga keltiradi. O'zining extiyojlarini qondirish uchun kishi vosita va manbalar kidiradi. Ehtiyojni qondirish

imkoniyatlari mavjud bo'lganda, kishi o'zini baxtiyor his etadi. Aks holda, o'zini baxtsiz deb bilib, unda harakatlantiruvchi kuch paydo bo'ladi.

Agar odamning axloqiy tarbiyasi to'g'ri bo'lsa, u ijtimoiy rivojlanadi. Axloqiy tarbiyasi nosoz odamning ijtimoiy sifatlari nuray boshlaydi va ijtimoiy illat (o'g'rilik, nashavandlik, yolg'on so'z, firibgarlik va hokazo) larga duchor bo'ladi. Axloqiy tarbiyasi yaxshi odam ehtiyojini qondirishning to'g'ri yo'llarini izlaydi hamda odamlar bilan muloqotda bo'lib, yaxshi ijtimoiy sifatlari takomillashib boradi.

Bunday o'zaro ta'sirlardan paydo bo'lgan kuchdan samarali foydalanish uchun yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sirning muvaffaqiyatli bo'lishi yetakchi o'rinni egallaydi.

Yeshlarni hayotga tayyorlash uchun mutasaddi kishilar (shular jumlasiga o'qituvchilar ham kiradi) balog'atga yetmaganlar dunyoqarashini shakllantirishda jamiyat oldida mas'ul hisoblanadilar.

Har qanday jamiyat a'zolarining eng umumiy maqsadi bo'ladi deb yuqorida qayd qilib o'tgan edik. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining eng asosiy maqsadi xuquqli va demokrati davlat qurish hamda adolatli va fuqarolar jamiyatini shakllantirishdir. Bunday davlat va jamiyatning ko'rsatkichlari majmui bo'ladi. Uni milliy mafkura deyiladi. Milliy mafkura mamla-katning barcha fuqarolarining harakatiga eng umumiy metodologik asosning birinchi qismi bo'lib hizmat qiladi.

Shu bilan birgalikda har qanday ijtimoiy guruhlarining o'ziga xos maqsadlari ham mavjud. Bu maqsad ko'rsatkichlari shu sohada faoliyat ko'rsatayotganlarga umumiy metodologik asosning birinchi qismini tashkil qiladi.

Har bir shaxsda turli ijtimoiy sifatlari va shunga yarasha ehtiyojlar tizimi bo'lganligi sababli odamlarning shaxsiy maqsadlar yig'indisi ham turlichadir. Ular shu shaxsning harakati uchun xususiy metodologik asosning birinchi qismi rolini o'ynaydi.

Maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda jamiyat oldiga qo'yilgan oliy maqsad metodologik asos vazifasini o'tar ekan, jamiyatning ko'pchilik a'zolari o'zaro maqsad qilib olgan va erishishi shart qarshi tomon, ya'ni qarama-qarshi kuch bo'lib qolaveradi.

Bu voqylik narsa va hodisalar (tadriji)ning ichki zaruriyatidan kelib chiqkan qonuniyat bo'lib, butun borliq shu qonuniyatga bo'ysunadi.

Shuning uchun ham uni rivojlanishning eng asosiy qonuni deb yuritiladi. Bu holni har qadamda ko'rishimiz, sezishimiz mumkin. Masalan, atom qarama-qarshi ko'rsatkichlarga ega bo'lgan elektron va protonlardan iborat yoki kecha-kunduz, oq-qora, past-baland, og'ir-yengil, o'ng-chap, yaxshi-yomon, ayol-erkak va hokazo. Bular cheksizdir. Bu hol jamiki narsa va hodisalarda o'z ifodasini topgan. Bunday qarama-qarshi tomonlar bir vaqtning o'zida bir-biriga intilib, shu vaqtning o'zida bir-biriga qarshi kuch bo'lib qolaveradilar. Bunday ichki tortilish va itarilish natijasida narsa yoki hodisa ichida kuchlanish paydo qiladi. U ma'lum bir vaqtdan keyin, miqsor jihatidan me'yoriga yetganda, narsa yoki hodisada harakat paydo bo'ladi va o'zining avvalgi holatini o'zgartirib, yangi bir holatga o'tadi. Bu holatlarni ifodalovchi dialektikaning yana ikki qonuni bor. Bular — mikdorning sifatga o'tishi va inkorni inkor qonunlaridir. Bu qonunlar borliqning har bir majmuida o'z kuchini ko'rsatganligi uchun har bir ishda, jumladan, ta'lim-tarbiya ishida ham bu qonunlarni hisobga olmaslik va ulardan eng umumiy metodologik asosning ikkinchi bo'lagi sifatida kelib chiqmaslik, harakat jarayonimizni noto'g'ri tashkil qilganimizni bildiradi va bunday harakat maqsadga olib bormaydi. Chunki bu g'ayritabiiydir.

Bu qonunlarning ma'rifiy jarayonda namoyon bo'lishini ko'rib chiqamiz.

Pedagogik jarayonni ko'z oldimizga keltirsak, u bir butunlik, ya'ni ta'lim-tarbiya majmuidan iborat bo'lgani holda ikki qarama-qarshi — «ta'lim-tarbiya beruvchi» va «ta'lim-tarbiya oluvchi» tomonlardan, boshqacha aytganda, qarama-qarshi kuchlardan tashkil topganligini ko'ramiz. Dialektika qonunlariga binoan, ular bir vaqtning o'zida birlariga intiladilar va bir-birlaridan qochadilar.

Ma'rifiy jarayonni hosil qilish uchun bu qarama-qarshi tomonlarning axloqiy ma'naviyatlarini ko'tarish yo'lidan borishi lozim. Chunki yaqin utmishimizda ishlab chiqarish vositalari ish kuchidan begonalapggirilib, ishchining ishlab chiqargan mahsulotiga egalik qila olmasligi xamda mehnatkashlarning ish haqlari ular sarf qilgan akliy va jismoniy kuchlaridan ancha past miqsorda belgilanganligi va boshqa bir qancha sabablarga kura aholi o'z ishiga loqayd, hech narsaga qizikmaydigan, yalqov va yelg'onni kup ishlatadigan kishilarga aylanib qolgan. Mustaqillikka erishgach, bu hol o'zgarib, ishlab chiqarish vositalari yer, suv va boshqa

tabiiy boyliklar, ish kurollari, kuchmas mulk ular bilan tinmay alokada bo'ladiganlar kuliga, ya'ni asl egasiga toppshildi. Ishlab chiqargan maxsulotni qayerda, kimga va qaysi narxda sotish tamoyili va boshqa bir qancha iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgaripshar odamlarni jonlantirib, xarakatga solib qo'ydi. Ayniqsa, yerning dehqonga berilishi, tadbirkorlik va hunarmandchilikka keng yul ochilishi, kishloqqa sanoatning kirib borishi, o'rta va kichik biznesga e'tibor qaratilishi odamlarda mulkka munosabatni, kolaversa, tafakkurda ijobiy siljishlarni boshlab berdi.

Ammo bu demokratik tamoyil va bozor munosabatlari uchun moe ma'naviyatni odamlarda yoshligidan shakllantira borish zarur. Bu sho'rolar davrida yaratilgan ta'lim-tarbiya tizimi va mazmunini tezroq isloh qilishni takozo etadi. Aynan mana shu maqsadda Respublika Oliy Majlisi uzining tarixiy DC sessiyasida «Ta'lim tizimida» gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dastur»ini qabul kildi. «Dasturning asosiy maqsadi — deyilgan ushbu xujjatda, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarkitlardan tula xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axlokiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir». So'ng ushbu dasturning maqsadini ro'yobga chiqarish bo'yicha hal kilinishi lozim bo'lgan vazifalar va bu vazifalarni amalga oshirish tadbir-choralari aniklab berilgan. Bunday tadbirlardan biri — «Kadrlar tayyorlash tizimini va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy tarakkiyoti istiqbollariidan, jamiyat xilqilaridan, fan madaiyat, texnika yee texnologiyalarning zamonaviy yutuqlariidan ksilib chiqqai xolda kayta surish xaqida»gi tadbir ishlab chiqildi. Bu tadbirlari muvaffakiyatli amalga oshirish uchun Uzbekistoning aholisi XXI asrdagi qanday ma'naviyatga ega va qaysi fazilatlar sohibi bo'lishlari kva? degai savolga jayub topishimiz zarur. Ya'ni mustaqil mamlakat aholisiniig axloq kodlari yaratish lozim. Chunki bu axloq kodlari jamiyatniig ta'lim-tarbiya tizimiga ko'ygai buyurtmasi bo'lib, ta'lim-tarbiya bilan shugullanuvchilar umumiy metodologiyasining birligiini tashkil qiladi. Darsliklari keyingi sahifalarida bu masalalarni yechish uchun alohida mavzu ajratilgai.

Ta'lim-tarbiya soxasi umumiy metodologiyasiiig 2-qismita didaktikaning umumiy tamoyillari kiradi. Bularga pedagogik jarabnda har bir bilimni ilmiy asoslab berish; bilim berishda ta'lim oluvchiiiig imkoniyati va yosh xususiyatlaridan kelib chiqish; mumkin qadar ko'proq ko'rgazma vositalaridan foydalanish; muntazamlilik va davomiylikni saqlash; mahiat jaraynida o'quvchilarning faolligi va ongliligini ta'minlash; ta'lim va tarbiyaning tizimll| izchil bo'lishi va uiig birligi priitsiplari kiradi.

Bilim berishning ilmiylik tamoyili deb, beriladigan xdr bir bilimni, avvallari bir mecha bor tajribadan o'tgai va o'quvchilarga yaxshi ma'lum bo'lgan bilimlardan kelib chiqqan holda tushuntirishga aytiladi. Bu tamoyilda, yaigi berilayotgan bilimni ilmiy asoslab berish bilan birga uiing mantiqi, tarixiyligini xdm izoxdash, taxdil etish talab qilinadi.

Ta'lim oluvchilar imkoiityati va yosh xususiyatlarii qisobga olish tamoyili. Fiziologiya va ruhshunoslik ilmlarining ta'kidlashlaricha, insoi xech qachoi birday iqtidorli bo'lib tug'ilmaydi, uiing bilimlarni qabul kili sh, i ushu ni iii va xoti ras i da saklab qolish qobiliyati har turli bo'ladi. Bunday imkoniyatlar xdr kimda har xil bo'lib, ular yosh qo'shilishi bilan o'zgarib, maxsus mashklar orqali ularni takomillashtirsa bo'ladi. Shu fikrlardan kelib chiqsak, dare berishdan oldin qar bir o'qituvchi ta'lim oluvchilar ruhiyatida kechayotgan jarayonlarni yaxshi bilishi shart. Undan tashqari, u har bir bolaning bilimlarni qabul qilish va hotirasida saqlab qolish qobiliyatini, shu kungacha to'plagan bilimlarining turi va hajmidan xabardor bo'lishi lozim. Shundagina uning o'quvchilarga ko'rsatgan pedagogik ta'siri samara beradi.

Ta'lim va tarbiyada ko'rgazmalilik tamoyili. Bu tamoyilga amal qilinganda kishining eshitish a'zolari bilan bir qatorda ko'rish a'zolari ham ishtirok etadi. Jahon olimlarining tadqiqotlariga ko'ra, insonning sezgi a'zolari orqali olinadigan bilimlarning xotirada saqlab qolish darajasi quyidagicha: eshitish a'zolari orqali olingan bilimlarning 15—20 foizi esda qolsa, ko'rish orqali olingan bilimlarning 80—85 foizi esda qolar ekan. Shuning uchun ham ko'rgazmalilik tamoyili o'quv-tarbiya jarayonining eng asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Xalqimizning «yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan

afzal» degan maqoli ham buni tasdiqlaydi. Ammo ko'rgazmalilik yaxshi samara beradi deb, uning me'yori buzilsa, ya'ni ko'rgazma materiallari haddan ziyod yuqutib bo'lib ketsa, ta'lim oluvchilar diqqati yoyilib, ularning fikri darsning asosiy mazmunidan chalgiydi.

Muntazamlilik va davomiylik tamoyili. Bu ta'lim va tarbiyadagi zarur fiziologik-psixologik qonuniyat xisoblanib, bilimni mantiqiy bog'liqliqsa o'rganishni ta'minlab beradi. Bu tamoyil har bir fan bo'yicha tuzilgan o'quv reja va dasturlarda, darslik va uslubiy tavsiyanomalarni yaratishda tatbiq etiladi. Amaliyotchi o'qituvchi o'quv reja va dasturdan chetga chiqmasligi lozim. Bu qonuniyat tushunchalar, dalillar va boshqa fikrlar orasidagi, ularning tadrijidan kelib chiqqan aloqadorliklar — qonun va qoidalar bilan amaliy ishlarni bajarish o'rtasidagi mantiqiy bog'likliklarni o'rnatish orqali amalga oshiriladi. Bu qonuniyat o'qish faoliyatini tashkil etishning asosi hisoblanadi. Unga amal qilmaslik o'quvchilar tafakkurida o'zaro bog'liq bo'lmagan uzoq yuluq bilimlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday bilimlardan kishining ijtimoiy mohiyatiga naf bo'lmaydi, ular tafakkurni charchatadi, xolos.

Ta'lim-tarbiyani hayot bilan bog'lash tamoyili, deb tarbiyani hayot o'rganiladiganlariga eamin ho'ir lasin.

Tizimli va izchillik tamoyili o'qitish jarayonida didaktikaning umumiydan xususiyga va xususiydan yama umumiyga koidasiii xamda o'ku* fanlarining bir-biri bilai uzviy bog'liq bo'lishiii qam ta'miilaydi.

Ta'lim va tarbiyaning birligya tamoyili - - kishilarta bilim berish va bu bilimlarni xayotda qo'llay olishga o'rgatish xamda uhuvchilyaryaiig umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirishni takoyu tgadi.

Bir butun ta'lim-tarbiya jarayonida ikki o'earo bokliklik bilim berish va bu bilimlar asosida xarakat qilishga o'rgatish, bu ob'ektiv borliqdagi qonuniyatni bilish va uning amaliy munosabatini tarkib toptirishda namoyon bo'ladi. Bu jararayonda ta'lim yetakchilik qiladi. Chuiki bilim bermay turib, insonni bu bilimlarni hayotga tatbiK kilishga o'rgvtib bo'lmaydi. Bilim berishdan maqsad ham bu bilimii xyaotda ko'llaishikdir. Shuning uchun ta'lim berish ketidan, albatta, bu bilimni amalda ishlatjsa o'rgatish, ya'ni tarbiya jarayoni ham bo'lishi shart.

Ta'lim-tarbiya sohasining eig umumiy va umumiy metodologik asosilari tashqari xususiy metodologiyasi ham bor deb bir necha bor ta'kidlagaimiz. Bunday metodologik asosga har bir darsning oldiga qo'ygan maqsadi va muayyan mavzuni o'tish qoidalari xizmat qiladi. Chunki ta'lim-tarbiya jarayonida ulardan kelib chiqish shart.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari

Insonning boshqa jonzorlardan ikkilamchi farqi nimada?

Ush tushunchasini ta'riflab bering.

Ushlub nimani bildiradi?

Metodologiya tushunchasini shakllantirib bering.

Eng umumiy metodologiya nima?

Pedagogik faoliyatning umumiy metodologiyasi qaysilar?

Pedagogik faoliyatning xususiy metodologiyasini ko'rsating.

Insonning shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar?

Interfaol o'qitish metodlari

Interfaol o'qitishning metodologik prinsiplari

Interaktiv o'qitish jarayoni an'anaviy (doska yonidagi) o'qitishdan farqli o'laroq bir qancha metodologik qirralar ustunligiga ega. Bu avvalom bor, ishtirokchilarning o'yin qoidalarini ishlab chiquvchi muallim va bir - biri bilan faol, emotsional tushdagi munosabatlariga asoslanadi.

Muallimning interaktiv o'qitish jarayonida ishning samarasi bir qancha shartlarga bog'liq :

Birinchisi - o'quvchi imkoniyatlarining berilgan texnologik (o'yin, trening, mashq) maqsad va vazifalariga mutanosibli. Tanlangan texnologiyaning maqsadiga qarab muallim u yoki bu vazifani bajaradi tashkilotchi-sardor, kommunikator yoki kelishmovchiliklarni bartaraf qiluvchi, fasilitator.

Ikkinchi - guruh ishtirokidagi o'zaro munosabatlarni hal etishdagi muallimning professional tajribasi. Buning uchun u dialog hamda mul'tilog, ya'ni turkumlashgan professional tajribasi. Buning uchun u dialog hamda multilog, ya'ni

turkumlashgan dialog san'atini egalagan bo'lishi zarur. Dialog ko'rinishidagi muloqat psixologiyada ahamiyatli hisoblanadi, chunki an'anaviy "sub'ekt-ob'ekt" munosabadiga zid ravishda "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlarini ifodalaydi.

Dialog doimo har - hil fikrlar va ularni ko'rinishlarini, shuningdek, barcha interaktiv o'zaro aloqa qatnashchilarining qo'yilgan muammoni birgalikda muhokama qilishini va yechimni topishni nazarda tutadi. Qatnashchilarning faolligi o'quvchilarning shaxsiyatiga emas, balki o'zaro muloqatga, qo'yilgan vazifaga yo'naltiriladi. Dialogdagina qatnashchilar qo'yilgan masalaga turli nuqtai-nazarlar orqali yondashish bilan bir birini o'zaro boyitishadi. Muallim va o'quvchilarning munosabatlaridagi teng xuquqlik, aks aloqa (joyida va ayni vaqtda) ning amalga oshirishi, katta yoshdagi o'quvchilar intilishlarining ro'yobga chiqarib, muammoning yagona izoxini talab etadigan umumiy kommunikativ va ma'no maydonini yaratadi. Zamonaviy muammolar tartibli tufayli ularni tushunishda sistema ma'nosini beradigan til zarur.

Interaktiv o'qitish samarasining uchunchi sharti muallimning shaxsiy yo'nalishi bilan bog'liq. Ba'zan yangi texnologiyaning ishtiyoq ishtirok bilan olgan muallim keyinchalik, birinchi aprobatsiyadan so'ng, undan voz kechishi mumkin. Odatda, bu holat muallim o'zining professional va shaxsiy obro'sini diskretitatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan hadiksirashga aloqadordir.

Bu hadiksirash tipik qiyinchiliklar tufayli kelib chiqan bo'lib, shaxsiyat va o'quv sharoitida sodir bo'ladigin munosabatlar stereotiplari bilan bog'liq bo'ladi va o'zaro aloqa o'yini qatnashchilarining avtoritar, zo'rma-zo'raki shablonlarga, manitor uslubiga, leksion va monologik muloqat janriga qaytishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bo'nday qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun muallimning shaxsi o'zi o'lin qoidalarini ishlab chiquvchi muallimlar va shaxsiy o'sish: peshqadamlilik, shaxslar aro munosabatlar, raqobat va b.q treninglarida qatnashishi lozim.

Rahbar va mutaxassislar, shuningdek, o'yin qoidalarini ishlab chiqaruvchi muallimlarning malaka oshirish va qayta tayyorlash amaliyotida quyidagi o'quv natijalarining ro'yhati keng tarqagan. Bularni o'quv maqsadi sifatida belgilash

mumkun: tanishish (discovery); fanning ma'lum sohasiga tegishli asosiy tushunchalar va vazifalar bilan tanishish asosiy mazmunni o'zlashtirish (literacy): asosiy tushunchalar va vazifalarni tariflab berishga layoqatlilik; uddalomoq (fiterasy): asosiy tushunchalar va vazifalarni faninig ma'lum sohasiga samarali tatbiq etish; to'liq egallash-mohirlik (mastery): fanning ma'lum sohasiga tegishli asosiy tushunchalar va vazifalarini samarali qo'llash hamda o'zgalarga bu masalada yordam berish. Yuqorida sanab o'tilgan o'quv maqsadlari turli-tuman interaktiv texnologiyalarda keng qo'llaniladi.

Ta'lim nuqtai nazaridan interaktiv texnologiyalar-bu ishtirokchilarining shahsiy maqsadlari aks etgan kontekstda voqelik imkoniyatlarini ko'pchilik tomonidan dialogik izlanishiga asoslangan o'yinlardir.

O'quv jarayonida mutaxassislar uchun noreal (taqlidiy yoki tashkiliy-harakatli) sharoit yoki vaziyatda qaror qabul qilish o'yinlari, shuningdek, real professional muhitga (amaliy yoki rolga mansub) moslashishga yordam beruvchi o'yinlar qo'llaniladi. O'quv jarayonida, ko'pincha, atrof muhitga, aniq professional faoliyatiga, insonlarga moslashishni o'rgatuvchi o'yin modellari qo'llaniladi.

Amaliy yoki taqlidiy o'yin yoki vaziyatlar analizi usulini kommunikativ aspektlarining modellarining jarayoni sifatida ko'rib chiqadigan bo'lsak, u quydagi xususiyatlar tufayli bor o'quv-rivojlantiruvchi jarayonga yangi sifat olib keladi:

- professional faoliyat imitatsion modeli ko'rinishida kommunikativ-interaktiv o'quv materiallarining mohiyati tizimi.

- o'rgatuvchi o'yin modelidagi sheriklar bilan professional faoliyatni turli funksional bo'g'inlaridagi amaliy o'zaro munosabatlar strukturasini tiklamoq;

- ta'lim olayotgan rahbar va mutaxassislarni professional va kommunikativ omilkorlik va uni amaliy qo'llanishi ehtiyojini qondirishga yaqinlashtirmoq. Bu bilan bilimni anglashga, o'rganuvchilarni shaxsiy faoliyatiga, anglashdan professional motivatsiyaga o'tishga sharoit yaratadi;

- o'rgatuvchi va rivojlantiruvchi ta'sirlar majmui;

- malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida muallim faoliyatini tashkil va regilirovka qilishdan rahbar va mutaxassislarning kommunikativ - interaktiv faoliyatini regulyatsiya va tashkil etishga o'tishi uchun sharoit yaratish;

Yuqorida hamma sanab o'tganlar quyidagilarga imkoniyat yaratadi;

1. Mutaxassislarda professional va kommunikativ omilkorlik, uning dinamikasi va real faoliyatidagi o'rni haqida yaxlit tassavur yaratish;

2. Faoliyatni taqlid qiluvchi materiallar asosida sotsial tajriba, jumladan kollektiv qaror qabul qilish uchun kerakli bo'lgan shaxslar va guruh lararo munosabatlar va hamkorlikni amalga oshirish;

3. Professional psixologik nazariy va amaliy fikrlashni rivojlantirish;

4. Bilim olttirish motivatsiyasini tashkil etish, shaxsiy psixologik qo'llanma va motivatsiyaga sharoit yaratish;

5. Amaliy muloqot doirasida bilimlarni mustahkamlash, kommunikativ omilkorlikni shakllantirish.

Interaktiv mashg'ulotlar o'tkazishi jarayonida muallim tinglovchilarning intellektual uslublari, ma'naviy-axloqiy rivojlanishi va harakterologik xususiyatlarini saviyasi haqida ma'lumot oladi. Bu unga kerak bo'lganda tinglovchilarni psixologik-pedagogik korreksiyalash va ularga psixologik yordam berishini amalga oshirishiga imkoniyat tug'diradi.

Shunday qilib, tinglovchilar interaktiv texnologiyalar yordamida rahbar va mutaxassislarda real professional faoliyatiga mansub bo'lgan sotsial - psixologi va tipik boshqaruv muammolari yechimlarini topishga jalb qiladilar. Malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash kurslari qatnashchilari, turli boshqaruv va intellektual qurollarni (menedjer, metodist yoki aktiv tomoshabin va x.k) o'ynab, ularni o'zlashtiradi. Bu qatnashchilar turli vaziyatlarda ularning hati - harakatini xaqqoniy va maqsadga muvofiqqligi bilan tanishadilar.

O'yin, trening yoki vaziyat analizi paytida berilgan rollarga muvofiq boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Turli rollar maqsadlari bir biriga to'g'ri kelmasligi, o'yin qatnashchilari ko'pincha konflikt vaziyatda qaror qabul qilishga majbur bo'ladilar va natijada konfliktni o'rganadilar.

O'yin mashg'ulotlari tenglovchilarni komanda a'zolari o'rtasida yuzaga keladigan holatlarga va ularning emotsional reaksiyasiga nisbatan sezgirligani oshiradi. O'yin orqali o'qitish jarayonida tenglovchilarda o'zini anglash va boshqalarga yoqish ehtiyojini rivojlanadi.

Har bir o'yin ishtirokchisi kollektiv foaliyat mexanizmning qanday ishlashini ko'rish imkoniyatiga ega. O'yin va treninglarda aks ta'sir (o'zgaralar tomonidan reaksiya va baholash jarayoni) signalari yanada aniq anglanadi, noverbal kommunikatsiya doirasida omilkorlik aktualashtiriladi, ya'ni interaktiv texnologiyalar kommunikativ va psixologik omilkorlikni xamda shaxsiy madaniyatni va u bilan bog'liq bo'lgan amaliy munosabatlarni rivojlantirishga turtki bo'ladi. Modomiki o'yinlar o'rta keskin vaziyatda o'tar ekan, bu qatnashchilardan ma'lum emotsional madaniyat saviyasini, stressga nisbatan bardoshlik hamda psixologik himoya usullaridan xabardor bo'lishlikni talab qiladi. Bundan tashqari o'yin mashg'ulotlari katnashchilar o'rtasida sog'lom raqobatchilikni keltirib chiqaradi. Bu esa ularning raqobatiga bardoshini, o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi hamda o'zini qadirlashni o'rgatadi.

Interaktiv mashg'ulotlar maksimal darajada o'quv jarayonini individuallashtiradi. Bu esa har bir ishtirokchiga aqliy va ijodiy potensialini namoyon qilishga imkoniyat beradi.

Yuqorida aytilganidan ma'lumki, interaktiv texnologiyalar tatbiq qilingan mashg'ulotlarda ma'lumotni o'zlashtirish an'anaviy o'qitishga qaraganda (bu to'g'rida ko'p izlanishlar natijalari guvohlik beradi) ancha samaralidir. Bu yerda bir paytning o'zida professional fikrlash diapazonining kengayishi, o'quvchilar ijodiy potensialining rivojlanishi, odamlar bilan ishlash mahoratining egalanishi hamda sotsial tajribani orttirish sodir bo'ladi.

Shuni aytish lozimki, interaktiv o'zaro aloqa rejimida o'qitish jarayonida rahbar va mutaxassislarda shaxsiy dunyoqarashning o'zgarishi yuz beradi. Bunda muloqatlar yangi, yanada insoniy va ahloqiy ma'noga ega bo'ladilar.

Va nihoyat, interaktiv o‘yinlarda tez-tez qatnashish rahbar va mutaxassislariga verbalitsiya ko‘nikmalarini hosil qilishni, suxbatdoshni tinglashni, to‘g‘ri savol-javob olib borishni, ommaviy tarzda axborotni yetkazishni o‘rgatadi.

Shunday qilib, yuqorida aytilgandan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni qilish mumkin, ya’ni interaktiv texnologiyalar rahbar va mutaxassislar davr talabidan kelib chiqib, yuzaga kelib muammolarni yechim qobiliyatini rivojlantiradi. Bunda amaliy faoliyat sharoitida yuzaga keladigan: ishlab chiqarish, sotsial, amaliy va shaxslar aro munosabatlarning tartiblanishi ko‘zda tutiladi.

Interaktiv o‘qitish metodlari va uni o‘quvchilar bilimlarini rivojlantirish

"Pedagogik texnologiya-bu butun o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini o‘z oldiga ta’lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo‘yuvchi texnik hamda shaxs rusurslari va ularning aloqasini hisobga olib yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli metodidir»

Zamonaviy bilimlar sari keng yo‘l ochish, ta’limni takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir.

Mustaqil O‘zbekistonimizda uzluksiz ta’lim tizimni islox qilishni yangi Davlat ta’lim standartlari asosida ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etishga qaratilgan hozirgi kunda o‘qituvchi faoliyatiga, uning pedagogik mahoratiga alohida e’tibor berilmoqda. Ta’lim jarayonida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarning pedagogik fikrlashida o‘rin ola boshlagan pedagogik texnologiyani dars jarayonida qo‘llashga oid tavsiyalar o‘qituvchilar uchun juda zarur. Ayniqsa hamkorlikka asoslangan, o‘quvchilarning faolligini oshirishga mo‘ljallangan o‘quvchilarni boshqalarni fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o‘zgalar manfaatlari bilan hisoblashishi, ularga o‘rgatish, ta’sir qila olish o‘zining va boshqalarning "men"ligini sezish, xis qilish, o‘zini boshqarish, fikrini aniq, lo‘nda va puxta bayon eta olishga, ishlatishga qaratilgan "interfaol" o‘qitish usullari tez sur’atlar bilan rivojlanib ijobiy samara bermoqda. O‘qitishda

foydalanib kelinayotgan interfaol metodlar o'quvchilar o'rtasida raqobat muhitini vujudga keltirib, o'quvchilarni harakatchanlikka boshlab ruxlantiradi natijada o'quvchilar hamkorlikka o'rgana boshlaydi. Har qanday interfaol metod to'g'ri va maqsadli qo'llanilganda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Yangi pedagogik texnologiya ta'lim tizimining ratsional yo'llarini ishlab chiqaruvchi jarayon bo'lib, unda o'qituvchi asosiy ma'sul shaxs hisoblanadi. Chunki uning asosiy vazifasi axborotni o'quvchilarga tez, aniq va tushunarli tarzda yetkazib berishidan iboratdir. O'quvchilarni yangiliklarni qabul qilishlari, va bunga moyilliklari hamda fe'l-atvori har-xil bo'lishiga qaramay o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlash, mushoxada qilish, xulosa chiqarishga o'rgatish lozim. Bunda o'quvchi asosiy harakatlanuvchi kuch bo'lib, o'qish, mutoala qilish, chizma chizish, proeksiyalarni, formulalarni tushunib, asboblarni ishlata olishi, bir birlari bilan do'stona munosabatda bo'lib oldilariga ko'yilgan muammolarni yechishda bir birlariga yordam berish ularning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Ta'lim tazimida sodir bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlar o'quvchilarga yangi bilim, ko'nikma va malakalarini berish bilan bir qatorda, yoshlarimizni o'ziga va boshqa insonlarga, jamiyatga, davlatga, tabiatga nisbatan o'zgarishini, vatanparvarlik g'oyalarini ongiga va qalbiga singdirishini ham ko'zda tutadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi pedagogka qo'yiladigan zamon talablari majmuini belgilaydi, bir biriga bog'liq bo'lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini va unga asosan quyidagi asosiy talablarni ifodalaydi:

- ta'lim berish mahorati;
- tarbiyalay olish mahorati;
- o'quv tarbiya jarayonida inson omilini ta'minlovchi shaxsiy fazilatlar;
- ta'lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati;

Demak, o'qituvchi - pedagog o'z oldiga qo'yilgan murakkab, ma'suliyatli va dolzarb vazifalarni bajarish uchun hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarni shakllantirishi uchun quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak;

- zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning mohiyatini chuqur tushuna bilishi;
- dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini chuqur va keng nuqtai nazarda anglashi;
- axborot ta'lim texnologiyalarini va o'qitish vositalarini ta'lim berishda tatbiq etishi;
- internet tarmog'i to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi va undan o'z bilimini oshirishda foydalana olishi;
- pedagogik mehnatining samaradorligini tahlil etish yo'llarini bilishi va o'ziga o'zi baho bera olishi;
- oilaviy ta'lim tarbiya muammolari bo'yicha tassavurlarini rivojlantirishi;
- umuminsoniy hamda milliy madaniyat va qadriyatlar;
- milliy g'oya va milliy mafkura iqtisodiy islohatlar mohiyatini tushunib olishi;
- dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish yo'llarini bilishi;
- o'quvchilarning fikrlashlari va bir-birlari bilan fikr almashishlari hamda do'stona muhit yaratish uchun sharoit yaratishi;
- darsning samaradorligini oshirish uchun laboratoriya jihozlaridan foydalanish va mashg'ulotlar o'tkazishni o'zlashtirib olgan bo'lishi;
- texnik vositalar va o'quv vositalardan foydalanish yo'llarini bilishi;
- bolalarning barkamol inson bo'lib yetishishida o'zining izlanishlari, ijodkorligi, tashabbuskorligi, hamda betinim mehnatlari orqali ta'lim-tarbiya berish kabilardir.
- Yuqoridagi pedagogka qo'yiladigan zamon talablari mazmuini amalga oshirish uchun har bir o'qituvchi yangicha fikrlash tafakkurini o'stirishi, pedagogik texnologiyalari mustaqil o'rganishi, uning maqsad va vazifalari nimalardan iborat ekanlini chuqur bilib olishi kerak.
- Yangi pedagogik texnologiya nima va biz uni qanday tushunamiz?
- An'anaviy texnologiyadan farqli jihatlari nimada?

- Yangi pedagogik texnologiya darslarining an'anaviy darslardan farqi shuki, bu darsda o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib berib, unga o'z fikrini erkin bayon etishga imkon yaratib berishdir. Bu imkoniyat qanday yaratiladi? O'quvchiga hech qanday tazyiq o'tkazmasdan, uni shaxsiyatiga tegmasdan savollar berish orqali do'stona munosabatdagi o'quv muhiti yaratiladi.

- O'quvchini ishlatish deganda, bir necha o'quvchiga mavzularni bo'lib berish orqali dars o'tish emas, balki hamma o'quvchilarni birgalikda ishlatishni tushunamiz. O'quvchilarni birgalikda ishlatish uchun o'quv jarayonida interfaol metodlardan foydalanamiz.

Interaktiv o'qitish shakllari

Operatsion komponentlar innovatsiya faoliyatida innovatsiya o'yinida aniq ko'rinadi. Innovatsion o'yin ijtimoiy texnologiyasini maxsus ko'rinishdek quriladi, o'ziga muammolar yechimining dasturini kiritadi, tashkilotning, ishtirokchilarning rivojlanishini tekshiradi.

Dasturning o'yinlari o'ziga innovatsiya ishlab chiqarish qarorlarini, (echimini) yangiliklar loyihalarini, joriy etish dasturi, tashkilotlarning o'qishi, o'yinning tekshirilishi olib kiradi,.

Birinchi bosqichda qarorlar ishlab chiqariladi. Asosiy maqsad bu tashkilotning innovatsiya kunini ishlab chiqarish, bir necha muammolarning yechimi, chiqarilgan qaror samarali tarzda bajariladigan bo'lishi lozim.

Tashkilot metodlari ko'pincha, bu talablarni qoniqtirmaydi, Shuning uchun qaror qilish uchun, ko'pchilikning ishi olinadi, standartsiz qarorlarga yo'lantiriladi.

Muqobil turlarning ko'pligi, yangiliklar bu metodlarni sifatli ishlatishga yuboriladi. Ko'pchilikning ishi muammolar yechimini oliy darajada hal etish darajasida bo'lib chiqadi.

Ikkinchi bosqichda innovatsion muammolarning yechimlari loyihalashtiriladi. Ob'ektning xohlagan holatini loyihalarda ishlab chiqarilgan

va rivojlantirishga istiqbolini ochib beradi. O'yinda eng kamida ikkita loyiha ishlab chiqarilgan. Bu loyihalarni alohida guruhlar bajaradi. Loyihada so'nggi momentlar: muammo, maqsad, funksional maxsusfizika, muammolarni amaliy hal etish uchun qurollar, ob'ektning natijali holati, bazaning material sharti, o'z shakllanishning mexanizmi va effektning o'lcham vositalari asoslab beriladi.

Keyingi bosqich dasturning holati, yangiliklar. Dastur o'ziga shu bosqichlarning yozilishi va kiritilishini ta'minlaydi.

Kelajak harakatning yozilishi uchun muammo ajratilib chiqadi va maqsad quyiladi, keyin yangilikning har qadami, kelajak natijalari hamda loyihaning joriy qilinishi, qo'llanilishi shrganib boriladi.

Mualliflar har bir maktabning yangilanishida universal texnologiyadagi eksperimentlar turadi, deb hisoblaydilar.

Olimlar tashkilot boshqarmasining jihatlari sifatida va innovatsiyali ishlab chiqarish, o'zlashtirishni so'nggi: diagnostik, prognostik, tashkil etuvchi mashg'ulotlar va umumlashtiruvchi bosqichlarga bo'ladilar. Pedagogning innovatsion ishining konteksti mantiqan shunday: muammoni tanlash, mavzuni shakllantirish, dolzarblik tushunchasi, maqsad quyish, nomini o'zgartirish, masala, faraz ustida o'ylash, bosqichlarning bazasi, mezonlar muddati, yo'lini tanlash, natijani va jarayonni kuzatish eksperimentlari amalga oshiriladi.

Masala mohiyatining prinsipial muhim qismlarinigina berdik, chunki innovatsiya faoliyati bu faqatgina o'qish emas, balki ularni egallab olishdir, pedagogik innovatsiyaning qabul qilinishi, innovatsiyani kiritilishining yechimi, qarorning qabul qilinishi, psixologik jihatdan innovatsiyali faoliyatga tayyorlikdan iborat. Ko'pincha, qarorni qabul qilish, deb jarayonning bir muqobil turini bir nechtasidan olish, ularda pedagogning o'zi faoliyatchi bo'lib chiqadi. Bir xollarda birinchi rejaga shunday psixologik hollar jarayon yechimiga kiradi, yechimning motivatsiyasining yechimi, qabul qilingan qarorga javobgarlik bo'lish, tanlash huquqiga ega bo'lish, tushunchasiga ega bo'lish, qarorlarni baholash va h.k. Shunda pedagog bir nechta pedagogik

faoliyatlariga ega bo'lishi mumkin va shulardan birini tanlashi mumkin, yoki muomalani yechimini topishi kerak.

Faoliyati tasdiqlangan norma usulini o'zlashtirib, ob'ektiv shartlariga suyanib pedagog o'zi qiladi, o'zini faoliyati ishlatilishini usullarini qabul qiladi.

Hamda pedagogning ijodiy jarayon so'nggi bosqichlari tavsiya qilingan:

1. Muomalani tushunishi

a) Bor faktorlarni tushunishi;

b) muomalani paydo bo'lishi;

v) savol qo'yilishi.

2. Muammoni yechimi

a) Gipotezini ishlab chiqish;

b) yechimning rivojlanishi;

v) prinsipni ochib tashlash;

g) to'plangan yechim va mulohazani ishlab chiqish.

Xulosani tekshirish: Umuman o'qituvchining innovatsion yechishi umumiy psixologik qonunshunosligi negizida, har qanday inson harakati uchun karakterli bo'lgan ba'zi bir pedagog yechish asosida qurilgan. Evristik jarayon ijodiy harakat izlanuvi, aniq markazni tashkil etadi. Bu jarayon innovatsion harakatning ba'zi bir etapialorida ishtirok etadi: qachonki o'qituvchi bolaga bilim va tarbiya berishning umumiy konsepsiyasi ma'lum bo'lganda va qachonki yangi konsepsiya qurish talab etilganda birinchi holda pedagog aniq manbalarga murojat qilib, variatsiyaning barcha imkoniyatini hisobga olgan holda, ularning ma'nosini harakat izchilligining ma'lum yechimini o'zgartirish. Faqat shunday sharoitdagi moslashuv mashhur pedagogik masalalar, yechim bo'lishi mumkin, aks holda u absamot standart holatga moslashgan qarama-qarshi qabul qilishga o'rin beradi. Yangi konsepsiyaning shakllanishida o'qituvchi har doim noaniq muammoli sharoitini yengib chiqishda reja sifatida foydalanadi.

Sub'ektiv noaniqlik sharoitdagi harakat, innovatsion xulqning harakterli xususiyati masalaning ob'ektiv noaniqlik sifatida ham, aniqlik sifatida ham yechimi sifatida namoyon bo'ladi. Faoliyatning shu jihatiga asoslanib, evristik jarayon boshqaruvini va ularning shakllanishini amalga oshirish mumkin. Mualliflik programmasi yaratilishining birinchi etapida yoki konsepsiyaning noaniqlik sharoitida fikrning intuitiv yurish qidiruvning yo'nalishini aniqlash mumkin. Programmaning qurilish o'lchamiga ko'ra qidiruv doirasi qisqarib, aniqroq bo'lib boradi va «o'rniga» intuktiv harakatlar bilan aqlan nazorat qilingan logik fikrlash ular uchun maqsadga muvofiq bo'lgan chegaralar vujudga keladi. Shundan qilib chiqib, formal operatsiya shuningdek evristik qidiruvda ham ishtirok etadi, lekin formal bo'lmagan komponent yechimini bosa olmaydi, u va bu yechimga ega bo'lgan aniq funksiya va o'zining munosabatini tatbiq qilishni ta'minlaydi.

Asosiy pedagogik faoliyat, professional faoliyatdagi maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi har doim ijodiy masalalarni hal qiladi. Shuning bilan birga qanday qilishi keraklicha haqida harakat qilib qaror qabul qiladi. Shulardagi har bir savol o'zining faktor ko'rinishiga ega.

Har xil ma'nodagi harakat o'zining har xil talablariga ega bo'lgan strukturaga individual psixologik sifat, shuningdek masala yechimidagi jarayonga o'zining munosabatini ko'rsatadi. Bu yerda ma'nolar kurashidagi yuzaga kelayotgan qurilmalar, emotsional munosabatdagi psixologik Tusiyy katta rol o'ynaydi. Masala yechishidagi sifat sub'ekt faoliyatining ko'p jihatlarini aniqlaydi. Harakat faoliyatining ichki sharoitida doimiylik qoplaydi, faoliyatning nafaqat operatsion tomonlari o'zgaradi, balki psixologik mixanizm o'zgarishiga, professional imkoniyatlarining rivojlanishiga olib keladi.

Shuning uchun o'qituvchi ongli ravishda yoki o'z-o'zidan o'zining bebaho ishining sifat uchun qo'llaydi, shuning bilan bir vaqtda individual ish faoliyatini izchil qiladi. «Ushbu o'qituvchi uchun qaytarilmas variant sifatida qo'llaniladi».

Pedagogik faoliyatning o'ziga hosligi umuman o'qituvchidan o'zining individual stiliga ega bo'lishini, yangi sharoitda uning chegaralanganligini talab qiladi. O'qituvchining innovatsion yechish qabul qila olishi, ba'zan tavakkal qilish, mojaroli masalalarni muvaffaqiyat bilan hal qilish innovatsion to'siqni olib tashlay olish pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli tatbiqi zarur sharoit yaratadi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, juda ko'p bo'lmagan o'qituvchilar ma'noli va yuqori pog'onadagi har narsani o'z joyiga ishlatish va intiraktiv usullarni qo'lga kiritganlar, shuning uchun innovatsion komponentlar faoliyati, aniq psixologik mexanizm rivojlanishi va qidiruv texnologiyasi pozitiv ta'sir qilishi kerak.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. "Interaktiv o'qitish" deganda nimani tushunasiz?
2. Interaktiv o'qitishning metodologik prinsiplarini izohlang.
3. "Interaktiv o'qitish metodlari"ni izohlab, metodlarni qo'llashni ishlab chiqing.
4. Interaktiv o'qitish shakllariga nimalar kiradi?

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ILMIY ASOSLARI

Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda **pedagogik texnologiya** tushunchasi ta'lim amaliyoti va nazariyasi ilmdan mustahkam o'rin egalladi, lekin uni pedagogikaning mukammal lug'atlari (tezaurus)dagi o'rni hali noma'lumligicha bo'lmay qolmoqda.

Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo'lgan: u texnik vositalar haqidagi ta'limot deb hamda o'qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan. Hozir pedagogik texnologiyalarning bir qancha ta'riflari mavjud.

V.P. Bespalko pedagogik texnologiyani *amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi* sifatida belgilaydi. U pedagogik tizim texnologiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'лади, deb hisoblaydi. Bunda asosiy diqqat o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratiladi, **didaktik vazifa va o'qitish texnologiyalari** tushunchasidan foydalaniladi. Shu tariqa V.P. Bespalko o'quv jarayonini loyihalash g'oyasini ilgari suradi, afsuski, pedagogik **texnologiya va loyiha** tushunchalari haqida aniqlik yo'q.

Pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga jadallik bilan kirib borayotgan bo'lsa ham, uning maqomi noaniqligicha qolib ketmoqda. Tadqiqotchilarning ishlarida fan va amaliyot oralig'idan o'rin egallamoqda.

N.F.Tal'yzina har bir pedagog real pedagogik jarayonni tashkil etishdan oldin o'quv jarayoni haqida *texnologik darajada bilimlar tizimini bilib olgan bo'lishi shart* deb hisoblaydi. U fan va amaliyot oralig'ida tamoyillarni olg'a suruvchi, metodlar ishlab chiquvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi -alohida fan bo'lishi kerak, deb hisoblaydi, ularsiz pedagogik jarayon asoslanmay qoladi (texnologiya real o'qitish jarayoni sifatida).

Ayrim mualliflar o'qitish texnologiyalariga fan va san'at oralig'idagi fan deb qaraydilar, boshqalari uni loyihalash bilan bog'laydilar.

Shunday qilib, bir yondashuvda o'qitish texnologiyalari o'qitishning barcha vositalarini qamrab olgan qandaydir jihozlash sifatida ham belgilanadi. Unda texnologiya o'quv jarayonini texniklashtirishni taqozo qiladi.

Boshqa yondashuvda texnologiyaga ta'lim amaliyotini yangi yoki zamonaviylashtirilgan bilimlar bilan ta'minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta'limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tatbiq etish sifatida qaraladi.

Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G'arbiy Yevropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blui, J. Koroll, P.Ya.Galperin, V.I.Davydov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmykova, L.I. Zankov texnologiyalari mashhur. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespalko, N.F.Tal'yzina, L.M.Fridman, Yu.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy,

T.V.Kudryavsev, A.M. Matyushkin, M.I.Maxmutov, A.Saidaxmedov, Z.T.Nishanova, J.G'.Yo'ldoshev kabi aksariyat psixolog va didaktikachilarga taalluqlidir.

Texnologik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat o'qitish texnologiyalari bo'sh texnologiyalanganligi bo'yicha qolib ketmoqda. Bir qator texnologiyalarda nazariy asoslar kuchaytirilgan, amaliy tomoni u qadar oydinlashtirilmagan.

T.A.Ballo texnologiyaning bir tomonini, ya'ni o'qitishda topshiriqli yondashuvni yoritadi. Boshqalarida yo kompyuter orqali dasturlashtirilgan o'qitish yoki o'qitishning muammoli tuzilmasi ajralib turadi.

L.V. Zankov, T.Ya.Galperin, V.I.Davidov tadqiqotlarida bosqichli o'qitishning yaxlit texnologiyalari haqida fikr yuritiladi.

1. Pedagogik texnologiyada hali ko'p aniqlanmagan masalalar bor. bu muammoni tadqiq etish o'qitish texnologiyasining tushunchasi va metodologik mohiyatini aniqlash bilan bog'liq.

Pedagogik texnologiya o'ziga xos va potensial yaratiladigan pedagogik natijalarga erishish uchun pedagogik tizimning barcha tashkiliy tomonlariga aloqador nazariy va amaliy (ta'lim tizimi doirasida) tadqiqotlar sohasi sifatida belgilanadi.

Pedagogik texnologiya mohiyatini yoritish uchun pedagog-didaktikachilar tomonidan berilgan ta'riflarga to'xtalishni maqsadga muvofiq deb topamiz.

«Pedagogik texnologiya – psixologik va pedagogik o'gitlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi» (B.Lixachev).

«Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi» (V.P. Bepalko).

«Pedagogik texnologiya – rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi» (I.P. Volkov).

«Texnologiya – ishlov berish, holatni o‘zgartirish san’ati, mahorati, malakasi va metodlar yig‘indisi» (V.M. Shepel).

«Pedagogik texnologiya – talaba va o‘qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o‘quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o‘tkazish bo‘yicha ular pedagogik faoliyatining har tomonlama o‘ylangan modelidir». (V.M.Manaxov).

«Pedagogik texnologiya – bu ta’lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko‘zlagan o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir» (YuNESKO).

«Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo‘lishning tizimli yig‘indisi va tartibini bildiradi» (M.V.Klarin).

«Pedagogik texnologiya – o‘zida turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta’riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi». (G.K. Selevko).

Bu ta’riflar tahlilidan pedagogik texnologiya natijani qo‘lga kiritish uchun ta’lim doirasida zarur bo‘lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tatbiq etish degan xulosaga kelish mumkin.

Ta’lim texnologiyasi deganda ta’limning belgilangan maqsadi va talabaning bilim darajasiga ko‘ra o‘quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyihasi va pedagogik tizimning amalda bo‘lishini ta’minlovchi zarur vositalar tizimi tushuniladi.

O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiya biror nazariya va maqsad asosida ishlab chiqiladi. Pedagogik tizimning amalda bo'lishi, uning moslanuvchanligi hamda talabaning shaxsiy xususiyatlari, ularning texnologik va individual me'yorlari bilan bog'langan. Bunda ushbu texnologiyalarning moslashuvchanligi, ularning variativligi, talaba xatti-harakatlarining bosqichlilik muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qitish texnologiyasi sathida o'quv jarayonining barcha komponentlari yoritiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiya asosida talabalarning intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, ta'lim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini ta'minlash, faollikni oshirish, o'z-o'zini anglash va mustaqilligini shakllantirish yotadi.

Bu tadqiqotlarni tahlil qilgan holda ushbu ta'rifni berish mumkin:

Pedagogik texnologiya ta'lim maqsadlariga erishish va shaxsning rivojlanishiga qaratilgan pedagogik faoliyatni muttasil ravishda rivojlantirish tizimi loyihasidir.

Oliy ta'limni isloh qilish bu masalalarga ilmiy asoslangan nuqtai nazardan yondashishga majbur etadi. Har qanday loyihalash, o'qitishning ilmiy asoslangan vositalari bo'lgani holda uning texnologikligi hisoblanmaydi.

Loyihalash metodologik funktsiya bajaradi. U talabaning psixik rivojlanish qonuniyatlari, o'quv jarayonining rivojlanish xususiyatlari va pedagogik boshqaruv usullarining tadqiqot vositasi sifatida maydonga chiqadi.

Oliy o'quv yurtida ta'limni takomillashtirish maqsadida pedagogik muloqotning yangi shakllari, axborotlarning tarkibiy qismlarini qayta ishlab chiqish, o'quv faoliyatini boshqarishning yangi shakllari talab qilinadi.

Texnologik taraqqiyot bugungi kunda ijtimoiy jarayonlarni kuzatib borishga qodir eng muhim komponentlardan biridir. Pedagogik ta'lim texnologiyasini yaxshilash jamiyat madaniy saviyasini va uning iqtisodiy qudratini shakllantirish shartidir.

O'qitish texnologiyasi ta'limning faoliyatini ta'minlaydi, bilimlarni mehnat jarayoniga tatbiq etishni ta'minlaydi, pedagogning ongliligini qolipga tushiradi, uning jadal harakat qilishiga va hayot yo'liga ta'sir ko'rsatadi.

Kasbiy o'qitish texnologiyasi shaxsni intizom, iroda va ixtisoslikka bo'lgan qiziqishni yuzaga keltiradi. Mutaxassisga bo'lgan har tomonlama talabni qanoatlantirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalari pedagog va talabaning hamkorligiga tezlikda moslangan psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirishga yo'naltiradi.

Mutaxassislarni kasbiy tayyorlash texnologik tamoyili bo'lajak kasbga qaratilgan maqsadlar, mazmun funksiyalari, o'qitish metodlaridir. Shundan kelib chiqqan holda pedagogik texnologiyalar ishlab chiqiladi.

Pedagogik texnologiyalar ta'riflariga bo'lgan turli yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, haqiqatdan ham o'qitish texnologiyalari fan va ishlab chiqarish hamda o'quv-pedagogik jarayon oralig'idan o'rin oladi. Bu kasbiy didaktik tayyorgarlik tizimidagi bilimlarning mustaqil sohasi bo'lib, u o'qitishning didaktika nazariyasi va amaliyoti bilan chambarchas bog'langan. U o'quv faoliyatini boshqarish jarayonini loyihalash va konstruksiyalash funksiyalarini o'zida qamrab oladi.

O'qitish texnologiyasi tarkibiga o'quv jarayonini boshqarishning aniq usullari, boshqarish va o'qitishning ayni istiqbolli tadbirlari haqidagi ham nazariy, ham amaliy bilimlar kiritiladi. o'quv jarayonining borishi sharoitlariga mos ravishda ularning izchilligi belgilanadi.

O'qitish texnologiyasi, o'qitish nazariyasi, o'qitish texnikasi. Ular o'quv faoliyatini boshqarish haqidagi pedagogik sohalardir, ular umumlashtirilgan darajasiga ko'ra amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiya ta'lim istiqbolining jarayonlashtirilgan aspektidir.

O'qitish texnologiyasini belgilash – bu kasbiy faoliyat sohasidagi ta'limiy va takomillashish samarasini ta'minlovchi o'quv jarayonini me'yoriy boshqarib turishdir.

Ilmiy adabiyotlarda **pedagogik texnologiya**ning uch aspekti to'g'risida fikr yuritiladi: *ilmiy, tavsifiy, amaliy*.

Ilmiy aspektda o'qitishning maqsadi, mazmuni va metodlari ilmiy asoslanadi, pedagogik jarayon loyihalashtiriladi.

Tavsifiy aspektda rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishishning maqsadi, mazmuni, metodlari va vositalarining ishtiroki asosida algoritm jarayoni ishlab chiqiladi.

Amaliy aspektda pedagogik texnologiya jarayoni amalga oshiriladi.

Ta'lim amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiya uch sathi belgilanadi: *umumpedagogik, xususiy metodik, lokal (modul)*.

Umumpedagogik texnologiya yaxlit ta'lim jarayonini ifoda qiladi.

Xususiy metodik texnologiya bir fan doirasidagi o'quv -tarbiya jarayonini amalga oshirish metodlari va vositalaridan iborat bo'ladi.

Lokal (modul) texnologiya o'quv tarbiya jarayonining maxsus bo'limlariga texnologiyani tatbiq qilishni ifoda qiladi. Bu texnologiya xususiy didaktik va tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga qaratiladi.

Pedagogikada o'qitish texnologiyalari bilan birga ta'limiy texnologiyalar ham o'rin olgan. Ta'limiy texnologiyalar mazmun-axborot aspektini bildirsa, o'qitish texnologiyasi jarayonga aloqador deb hisoblanadi, ya'ni ular orasida hali ham aniq farqlar belgilanmagan.

Pedagogik texnologiya talabalarning tayyorgarlik darajasiga, ularning axborotlar bilan tanishgashshk va amaliy tayyorgarligiga moslangan bo'lishi lozim.

Kasbiy ta'lim tizimida o'qitish texnologiyalari fundamental va amaliy bilimlarning o'zlashtirilishini, harakatlarning reflektivligani aks ettiradi va o'z kasbiy faoliyatini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiya o'qituvchi va talaba faoliyati bilan belgilanadi. Faoliyatning bunday turlariga ko'ra pedagogik texnologiya tuzilmasi aniqlanadi.

Pedagogik texnologiya tuzilmasi. *U konseptual asos, ta'lim jarayoni mazmuni, texnologik jarayondan iborat bo'ladi.*

Har bir pedagogik texnologiya **muayyan ilmiy konsepsiyaga** asoslanadi.

Pedagogik texnologiyaning **ilmiy konsepsiyasi** ta'lim maqsadlariga erishishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy-pedagogik va didaktik asoslashlarni qamrab oladi.

Ta'lim jarayoni mazmuni ta'lim jarayonining umumiy va aniq maqsadlari, o'quv material mazmunidan iborat bo'ladi.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI VA MA'RIFATPARVAR PEDAGOGLARI ASARLARIDA O'ZIGA XOS PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ELEMENTLARI

Pedagogik texnologiyalarning dastlabki elementlarini hosil bo'lishi va takomillashuvini tasavvur etish, o'tmish ildizlariga bugungi ta'lim texnologiyasi talablari jihatidan yondashish eng dolzarb vazifalardandir.

Ta'limni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillash-tirish xususida so'z yuritish ekanimiz, ajdodlarimiz o'zligini anglash uchun tinmay aqliy kurash olib borganligini ko'ramiz. Umuman, Sharqning bu-yuk allomalari Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Abulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy, Ahmad Yas-saviy, Shayx Najmiddin Kubro, Hoja Bahouddin Naqshband, Sulaymon Boqirg'oni, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Za-hiriddin Muhammad Bobur, shuningdek, o'z zamonasining eng ilg'or ma'rifatparvarlari Roqim, Ogahiy, Munis, Feruz, Dilshod otin, Anbar otin, Ahmad Donish, Furqat, Komil Xorazmiy, Avaz O'tar o'g'li, Munavvar qori, Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Is'hoqxon Ibrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatilla Rahmatullayev, Saidahmad Siddiqiy, Saidrasul Aziziy hamda boshqa pedagogik fikr namoyandalari o'z asarlarida, maktab va madrasalarda mudarris, ustoz-murabbiy sifatida, insonni aqliy kamolot-ga yetkazishda o'qitishning turli usullari va vositalaridan foydalanishga katta ahamiyati berdilar, muallim va ustoz-

murabbiyning pedagogik ma-horati hamda eng qulay ta'lim usullarini amaliyotda qo'llash yo'llarini bayon etishga harakat qildilar.

Darhaqiqat, jahon ilm-ma'rifatining buyuk namoyandasi Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850) matematika fani sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi va pedagog uslubiyatchi olim sifatida "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr valmuqobala" («Al-jabr muqobala hisobi haqida qisqacha kitob») asarida matematika fanida abstraksiya (mavhumiy-lik) tushunchasini kengaytirdi. Induksiya yo'li bilan umumiy yechish usul-larini hal etdi, deduksiya yo'li bilan umumiy usullar yordamida turli xususiy masalalarni yechdi.

Buyuk mutafakkir Muhammad Muso al-Xorazmiy ta'lim texnolo-giyasida bilimlarni egallashda ko'rgazmali vositalardan foydalanish, ta'-limda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish, sa-vol-javob, bahs-munozara kabi ta'lim usullaridan keng foydalangan hol-da talabalarda mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularda olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish malaka va ko'nikmalarini tarkib toptirish to'g'risida to'xtalib: "... sezgi orqali bilish, bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bayon, aqliy bilish esa haqiqiy bilishning muhim tomo-nini bayon etadi.

...insonning xulq-atvori, xatti-harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin “, – deydi S.Hasanov o'zining “Xorazm ma'naviyati darg'alari” kitobida.

Amaliy bilimlar sohasida yunon olimi Batlimus (Ptolemey)dan ke-yin ikkinchi o'rinda turgan Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq (taxminan 935-yilda G'aznada vafot etgan) arifmetika, geometriya, astronomiya fan-lari va ta'lim texnologiyasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi va ularni o'qitish usullariga ham alohida ahamiyat berdi. Ibn Iroqning fikricha, arifmetika (riyoziyot)ni o'qitishdan asosiy maqsad talabaning aql-idroki va tafakkurini shakllantirishdan iborat"...riyoziyot aqlni charxlaydi va tasavvurni mustahkamlaydi. Bu fan tugallanmagan fikrni tushunib olish-ga o'rgatadi, chunki uning boshlang'ich

qoidalari ma'lum, isbotlar esa oson. Unda ziddiyat kam bo'lib, aqlga ko'maklashadi, yagona g'oyani ilgari suradi”³.

Mashhur yunon faylasufi Arastudan keyin Sharqda o'z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan “Sharq Arastusi” yoki “Al-muallim as-soniy” (“Ikkinchi muallim”) nomlariga sazovor bo'lgan Abu Nasr al-Forobiyga ko'ra (870-950) ta'lim texnologiyasining bosh g'oyasi talim-tarbiyaning maqsadi hamda o'qitishning vosita va usullariga borib taqaladi. Uning fik-richa: “Ta'lim degan so'z xalqlar va shaharliklar o'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish, degan so'zdir.

Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir”.

Demak, Forobiyning ta'lim texnologiyasida barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinishi asoslab beriladi.

Bu muhim vazifa tajribali ustoz-tarbiyachilar tomonidan ta'lim-tarbiyaning turli usullari yordamida amalga oshiriladi. Forobiy ta'lim texnologiyasini o'qitishning eng oson va qulay vosita hamda usullarini aniq ko'rsatib bergan:

“Amaliy fazilatlar va amaliy san'at (kasb-hunar)lar hamda ularni ba-jarishga odatlanish masalasi”ga kelganda, bu odat ikki yo'l bilan hosil qilinadi: bulardan birinchisi-qanotbaxsh so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odatdagi g'ayrat, qasd-intilish harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo'l (yoki usul) –majbur etish yo'li. Bu usul gapga ko'n-maydigan qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan qo'llaniladi. Chunki ular o'z istaklaricha, so'z bilan g'ayratga kiradiganlar-dan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni egallashga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo'ladi. Kasb-hunarlarini va juz'iy san'atlarni egal-lashga intilish bo'lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. Chun-ki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularni fazilat egasi qilish va san'at ahllariga aylantirishdir”.

³ Qarang: Hasanov S.Xorazm ma'naviyati darg'alari.-T.:Adolat, 2001.78-103-107-betlar.

Abu Rayhon Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048)ning ta'lim va tarbiya texnologiyasida o'qitishda talabani ze-riktirmaslik va xotirasini toliqtirmaslik uchun o'rganiladigan fanlarni tez-tez almashtirib turish zarurligi va o'qitishda turli ta'lim uslublardan foydalanish haqidagi ilg'or fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir.

Beruniy o'qitish vositasi va usullari haqida fikr yuritarkan, "Biz-ning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir, hadeb bir narsani o'qiyverish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'-rog'-larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bag'ishlaydi", – deydi.

Beruniyning "Minerologiya" asarida bayon etilgan hunarmandchilik texnologiyasi, ayniqsa, ayollar uchun zeb-ziynat buyumlari yasashda xotin-qizlarning faol ishtiroki, ularning zargarlik san'atidagi qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o'rgatish uslublari haqidagi teran fikrlari juda ham qimmatlidir: "Marvaridning bahosini kim yaxshi bilsa, u kishi uni teshish va silliqlash ishlari bilan o'zi shug'ullanmay, bahosini bilmaydigan shogirdlariga topshiradi. Bunda shogirdlarining qo'llari qaltiramaydi, qo'rqmay ish-laydilar. Agar bu ish xavfsirash, qo'rqish bilan bajariladigan bo'lsa, mar-varidlar sinib, parchalanib isrof bo'lishi mumkin. Ba'zan usta shogird-lariga shapaloq tushurib turadi, sabab, ularni xavfsirash yo'llaridan xalos etib turishdir. Marvarid teshilib, sayqal berilib bo'linganidan so'ng, har qanday xavf yo'qoladi".

Sharqda "Shayx-ur rais" ("Olimlar raisi") unvoni bilan mashhur bo'lgan al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sinoning (980-1037) "Tadbir ul-manozil" asarida bayon etilgan o'qitish usullari hozirgi davr ta'lim tamoyillariga mos kelishi ham nazariy, ham amaliy jihatdan qimmatlidir: "Bola baquvvat bo'lib, so'zlashuv nutqini yaxshi tushuna boshlangandan so'ng u savod o'rganishga qobil bo'ladi, shundan so'ng sa-vodga o'rgata borish mumkin.

Avvalambor, axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan iro-dali, dono, g'amxo'r va dinga ishongan o'qituvchi va tarbiyachi tanlash ke-rak bo'ladi. U sog'lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi mu-nosabatda bo'la oladigan tarbiyachi bo'lishi kerak".

Ibn Sino talabaga bilim berishda o'qituvchining pedagogik mahorati va mas'uliyatli burchi masalasiga alohida to'xtalib, o'qituvchi bolalarga bilim berishga kirishishdan avval, ularning xulq-atvorini o'rganishi va bi-limlarini tekshirib ko'rishi, qiziqishini, nimaga qodir ekanligini aniqlashi, so'ngra unga hunar yoki ilm turini egallashni tavsiya etishi kerakligi ha-qida fikr yuritar ekan, o'qituvchiga shunday yo'l-yo'riqlar beradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq-jiddiy bo'lish, berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish;
- ta'limda turli o'qitish usullari va shakllaridan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xusu-siyatlarini bilish;
- fanga qiziqтира olish;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish zarur".

Ibn Sino maktabda bolalarni alohida-alohida o'qitishdan ko'ra ja-moa, sinf tartibida o'qitishni afzal deb biladi va bu uslubning ustunligi quyidagilardan iboratligini ta'kidlaydi: "O'quvchilar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O'z bilimlari bilan g'ururlanadi-lar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. G'urur va o'ziga e'tibor tarbiyalanuvchilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi.

O'quvchilar birga bo'lganda, doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o'z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar".

Umuman, ibn Sinoning ta'lim texnologiyasida o'qitish jarayonida qaysi uslublardan foydalanilmasin – og'zaki ifodami, bilimlarni tushun-tirishmi, turli ko'rinishlardagi suhbatmi, tajribalarmi, baribir, talabada haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish, olgan bilimlarni amaliyotga tat-biq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo'lgan.⁴

Movarounnahrda va butun musulmon olamida naqshbandiya ta'li-motining buyuk namoyandalaridan biri Hoja Bahouddin Naqshband (1318-1389) o'z shogirdlari orasida bot-bot takrorlaydigan quyidagi jumla ta'lim maqsadi, vositasi va o'qitish uslublariga xos noziklik o'z ifodasi ekanligi shubhasizdir:

“Nabini, vaqti suftan mardi haqnok, Ba shogirdon dixel durri xator-nok”. Mazmuni: “Ko'rmaysanmi, durga shakl beruvchi usta durni tesha-yotgan paytda xatarnok (nozik va qimmatbaho) durni teshishni shogir-diga topshiradi”. Haqiqatan ham, bunday ta'lim uslubini qo'llashda shogir-di ham ta'lim subyektiga aylanadi.

Muhammad Tarag'ay Ulug'bek (1394-1449) Movarounnahr shahar-larini, xususan, Samarqand va Buxoroni ilm-ma'rifat dargohiga aylanti-radi, madrasalarning peshtoqiga esa:”Bilimga intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir”. (ya'ni: ”Bilim olish har bir musulmon erkak va ayolning burchidir”) degan hadis-dagi hikmatni yozdirib qo'yadi. Madra-salardagi o'quv tizimini isloh qilib, falakiyot, matematika, geografiya kabi aniq fanlarni o'qitishni joriy etdi, ta'lim mazmunining sifatini oshirdi va o'qish-o'qitish uslubini yaxshilashga jiddiy e'tibor berdi. Ulug'bek bunyod etgan madrasa bilan rasadxona orasida mustahkam aloqa bor edi. U madrasada berilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish maqsa-dida mudarris-lardan talabalar bilan rasadxonada amaliy mashg'ulotlar o'tkazishni talab etib, bunga bevosita o'zi rahbarlik qiladi, mudarris-lar-ning mas'uliyatini va pedagogik mahoratini oshirishga intiladi. Ulug'bekning fikricha, talabalarning bilim olishni istamasligi va zerikishi mu-darris-larning uquvsizligidandir, chunki bunday mudarris-tarbiyachilar ta'-lim usullarini noto'g'ri qo'llash bilan talabalarning

⁴ Qarang: Rasulova F., Do'sjanov, Hasanov S. Xorazm Ma'mun akademiyasining olis va yaqin yulduzlari. -T.:2005, 31-44- betlar.

bilimga qiziqishini soʻndiradi. Mudarris, avvalambor, oʻzini tarbiyalashi, bilim va mudar-rislik malakalarini egallashi lozim. Shu bois Ulugʻbek mudarrisni oʻz us-tida tinmay ishlashga, bilimlarini takomillashtirib borishga, har bir dars-da beriladigan bilimning yuqori saviyada boʻlishiga eʻtibor berishga daʻvat etgan. Shundagina mudarrislar talabalarda ijodkorlikni, mustaqil mu-tolaa qilish malakasini oʻstirishga, ularning bilimga qiziqishlarini kuchay-tirishga, dars paytida eʻtiborsizlik va tartibsizlik qilmasliklariga erishadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Ulugʻbek taʼlim texnologiyasida madra-salarda oʻqitiladigan darsliklarning mazmuniga va oʻqitish uslubiga alo-hida eʻtibor beradi va mualliflarning oldiga jiddiy talablarni qoʻyadi. Uning taʼkidlashicha, madrasalar uchun yozilgan darsliklar yangi maz-mun bilan boyitilishi kerak. Darsliklarda qaysi fan, voqea va hodisa aks ettirilishidan qatʼiy nazar, hayot haqiqatidan uzoq boʻlmasligi darkor. Avvalo, darsliklar sodda va tushunarli, arab tilining murakkabliklaridan holi tarzda yozilishi kerak. Shuningdek, Ulugʻbek darsliklar qanchalik mazmunli va tushunarli boʻlmasin, taʼlim jarayonida oʻqituvchi asosiy oʻrinda turishi, oʻz pedagogik mahorati bilan namuna boʻlishi kerakli-gini alohida taʼkidlaydi. Demak, Ulugʻbek oʻz hayoti va ilmiy-pedago-gik (mudarrislik) faoliyatida yetuk, bilimdon va yuksak mahoratli olim-ustoz sifatida ilmiy farazlarni emas, balki bu bilimlardan maqsad nima ekanini aniq anglab, oʻz bilimlarini takomillashtirib borish, ularni hayotga tatbiq etish yoʻllarini koʻrsatib berishdek bugungi zamonaviy taʼlim tex-nologiyalaridan farq etmaydigan mukammal amaliy taʼlim texnologiyasi shaklini yaratadi.

Alisher Navoiy (1441-1501) oʻzi barpo etgan “Ixlosiya” madrasasi-da oʻz zamonasining yetuk mudarrislarini yigʻdi va ilm izlagan har bir talabaning aqliy kamolotga yetishida ilm-fanning ahamiyatini koʻrsatib oʻtish bilan birga jamiyat taraqqiyotining asosi sanalgan ilm ahli, ilmni tarqatuvchi olim-u fozillarni hurmat qilishlarini, eʻzozlashlarini uqtiradi:

Haq yoʻlida kim senga bir harf oʻqitmish ranj ila,
Aylamak boʻlmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Alisher Navoiyning asarlarida maktab va madrasalardagi ta'lim-tarbiya usullari, ta'lim olish tamoyillari, talabalarga bilim beradigan muallimlar, mudarris va ustoz-murabbiylarning o'zlari bilimli, dono va tarbiyali, yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarurligi g'oyasi ta'lim texnologiyasida yetakchi o'rinlarni egallagan.

Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) inson aqlini haqiqat mezonini si-fatida ta'riflab, o'zining komil insonga xos bo'lgan konsepsiyasini va ta'lim texnologiyasi g'oyasini ilgari suradi. U har bir ishning muvaf-faqiyatini bilimlarni amalga qo'llanishi bilan bog'lab, tushuntiradi. Bun-da u inson aqlini ijodiy faoliyatining asosi sifatida talqin etib, o'z nav-batida bu ijodiy faoliyat yangi bilimlar va tajribalarning paydo bo'lishi-ga sabab bo'ladi deydi va bu ilmiy pedagogik fikri bilan o'z safdoshla-ridan ancha ilgari ketdi.

Voiz Koshifiy bilimga komil insonni shakllantirish mezonini sifatida qaraydi. Shuning uchun ham, bolaga ta'lim-tarbiya beradigan muallim-ning o'zi ham bilimli, dono, axloqan yuksak bo'lishi kerakligini tushun-tiradi hamda asosiy mezonlarni ko'rsatib beradi. Shuningdek, har bir muallim muloyim, xushfe'l bo'lishi, ta'lim-tarbiya uslubini yaxshi bilishi zarurligini ta'kidlaydi.

Voiz Koshifiy muallim va ustoz-murabbiyning pedagogik mahorati haqida to'xtalib: "Murabbiy bolaga nasihat va ta'lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi kerak. Ko'pchilik oldida bolaga pand be-rilmaydi, unga muloyimlik bilan pand-nasihat qilish lozim," – deydi.

Voiz Koshifiyning ta'lim-tarbiya uslubida ilm o'rgatgan, fikrlash qo-biliyatini o'stirgan ustozlarni hurmat qilish, e'zozlash g'oyasi muhim o'rinda turadi:

Faromush qilmag'ilsan haqi ustod,
Ki ongingdin durur ilmingga bunyod.
Agar ustodingga mehring yo'q o'ldi,
Degilkim ilmim mani mahv o'ldi.
Kishikim qildi ustodiga xizmat,
Zamon o'tmadi, topti ul izzat.

Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530) ta'lim texnologiya-sidagi bosh masala inson kamoloti uchun ilmning naqadar zarurligidir. Shu bois u ilmi toliblar astoydil qiziqish, intilish, mashaqqatli mehnat bi-langina ilm olishi mumkinligini qayta-qayta ta'kidlaydi:

Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,
O'rgangali ilm tolibi ilm kerak.
Men tolib-u ilm-u tolibi ilme yo'q,
Men bormen ilm tolibi ilm kerak.

Ilm va ma'rifatning tolmas targ'ibotchilaridan bo'lgan Roqim (1742-1814) o'z davrining yetuk murabbiysi sifatida yoshlarni har bir mushkulini hal eta oladigan qobiliyatga ega bo'lish uchun ilm-u hikmat o'rganishga va ustoz-u donishmandlar suhbatidan bahramand bo'lishga, muttasil dars tayyorlashga da'vat etadi: uning ta'kidlashicha, ta'limning eng muhim vositasi-olgan bilimlarni qayta-qayta takrorlashdir:

Ato qilsa sizlarga ilm-u amal,
Ko'tarmang o'qimoqdin, albatta, bosh.
Qilib g'ayrat-u nang-u nomus-u or,
Eting ilm tadsini ixtiyor...
Qilib sayr, kezmak havas aylamang,
Zamoni o'qumoqni bas aylamang.
O'zingizga rohatni aylab xarom,
Bo'lunglar riyoziyat bila suhu shom.
Bilib darsingiz aylab abzar o'qung,
O'qunglar, o'qunglar, o'qunglar, o'qung.
Havo-u havaslarni aylab raho,
Saboqlarni takror eting barho.

Masaldur, saboh bir agar bo'lsa harf,
O'qumoq kerak oni har kunda alf.
Keling barho sa'y birla jadal,
G'animat mahaldur, g'animat mahal,
Xayol aylamanglar, o'qung muttasil.

Munis Xorazmiy (1778-1829) "Savodi ta'lim" asarida ilmning qud-ratli kuch ekanligi, maktab va madrasalarda o'qitiladigan fanlarning mo-hiyati to'g'risida to'xtalib, har bir talabaning ilmga bo'lgan e'tiqodi uning husnixatida aks etishini ta'kidlaydi. Shuningdek, arab alifbosidagi "to", "sod", "ro", "re", "ibo", "fo", "ho", "lo", "yo" kabi harflarning yozi-lishida ustozlarning turli-tuman fikrlari borligini alohida qayd etadi, xat-ni chiroyli, husndor va xatosiz yozish uslubini ta'lim texnologiyasi nuq-tayi nazaridan sodda va aniq qilib tushuntirib beradi:

"To" zikrida dedi ba'zi ustoz,
Zebo alifi-yu, avvali "sod".
Bu nuqtaga men qilurman inkor,
"Sod" osti erur satbar bisyor,
Ta'lim budur, qilurman imo,
"Ro" favqida tutsa yer nechun "ro".
Tutsa "alif" ustida nishiman,
Mingan kishidek samandi tavsan.
Bir nuqtaga "alif"ning ittisoli,
To "re" so'ngikim, bor erdi xoli.
"Ro" qomati ikki nuqtayi , ammo,
Boshi biyik o'ylakim "zo".
"Zo" uch nuqtau lok sarkash,
Qilsa bo'lur oni qushg'a o'xshash.
"Qof" avvali "fo" boshig'a monand,
"Nun" xalqasining valek payvand.

“Vov” avvali “fo” boshig‘a monand,
Bir nuqtani “ho”g‘a ayla afsar.
“Lo” avvali bir “alif” tahi “ro”.
So‘ngra yana bir “alif” qil insho.
“Lo” uch “alif” qatoru mulsah,
“Yo” boshidur uch nuqta muayyan.
Har harfkim munda bo‘lmaydi zikr,
Ta’limini qil nazaridin fikr.

O‘z davrining iste’dodli shoiri, tarixchi, tarjimon va ustoz-murabbiysi Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1874) ta’lim va tarbiya birligini e’tirof etib, dars jarayonida ustoz-murabbiylar bolani zeriktirmaslik uchun qunt va ixlos bilan “ustodi hunar shior komil”ga qat’iy amal qilgan holda, o‘z bilimi va pedagogik mahoratini muttasil oshirib borishini ta’kidlaydi:

Ey ko‘ngul, gar xurram o‘lmoq istasang bo‘l hoksor,
Kim, ko‘karmak mumkin ermas yerga tushmay donadin.
Oqil ersang, naqdi umring qilmog‘il behuda sarf,
Kim bu ish ermas munosib hech bir farzonadin.

O‘z davrining peshqadam, ma’rifatparvar shoirasi va tajribali murabbiylaridan bo‘lgan Jahon otin-Uvaysiy (VIII asrning 80-yillarida tug‘ilib, 65 yoshlarida vafot etgan) o‘zi tashkil etgan qizlar maktabi tolibalariga boshlang‘ich ta’lim berib, arab grafikasida yozish va o‘qishni o‘r-gatibgina qolmay, balki qizlarga musiqa va she’r san’atidan dars berib, tez fikrlash, chiroyli so‘zlash, nazirago‘ylik, radifgo‘ylik, muammo, mu-vashshah va chiston-topishmoq yaratish uslublarini ham o‘rgatgan. Bu ta’lim usullari shogird qizlarning kuchli fikrlash mushohadasini o‘sti-rishga, tevarak-atrofdagi narsalarga e’tibor bilan qarashga, zehnli, nafis ta’bli san’atkor sifatida shakllanishiga yordam berishida Jahon otin – Uvaysiyning o‘ziga xos o‘qitish uslubi bo‘lganligidan dalolatdir.

Ahmad Donish (1827-1897) ning o'qituvchilik kasbi va uning axlo-qiy qiyofasi, yoshlar dunyoviy bilimlarni egallashi zarurligi va o'qitish uslublari haqida bildirgan fikrlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, u go'zal axloq va chuqur bilimdonlikni o'qituvchining go'zal fazilati deb bilga-nini ko'ramiz. Shu bilan birga, o'qituvchi talabalarga ko'p bilim berish, bilimini oshirish va chuqurlashtirish uchun o'z ustida ko'p ishlashi lo-zimligini aytadi. Ahmad Donishning o'qitish uslubi haqidagi fikrlari ham g'oyat muhimdir: "Yoshlar bilimlarni bevosita kuzatish yo'li bilan ongli ravishda egallashi, o'z fikri va bilimining haqiqiyligiga ishonch hosil qilishi kerak: o'rganiladigan hodisaning mohiyatini bilib olib, eng asosiy masalaga e'tibor berib, ikkinchi darajalilarini chiqarib tashlamo-g'i lozim. Har bir odam bilimni shunday egallashi kerakki, har qanday qarshilik va e'tirozlar uning bilimga bo'lgan ishonchini yo'qqa chiqara olmasin, fikri haqiqatan to'g'ri bo'lsa, odamlarning kelisha olmasligidan xafa bo'lmasin".

Bundan ko'rinadiki, har bir odam u yoki bu hodisani va bir hil ma'-nodagi fikrni turlicha tushunadi va talqin qiladi. Bu albatta, odamlarning turmush tajribasi, qiziqishi va bilim darajasi bilan bog'liq. Odamning turmush tajribasi qanchalik boy, hodisa va bilimga qiziqishi qanchalik kuchli bo'lsa, bilimni shunchalik chuqur o'zlashtiradi, hodisani to'liq va to'g'ri qabul qiladi.

Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat (1852-1909)ning ta'lim-tarbiya texnologiyasida tushuntirish, ko'rsatish, ishonch hosil qilish va ishontirish usullari asosiy o'rin tutadi. Zero, ta'lim-tarbiyaning asosiy uslubiga ishon-tirish qiziqtirish, og'zaki aytish, tushuntirish, hayotda bor misollarni ko'r-satish, unga izoh berish, anglatish kiradi. Demak, Furqat jonli va faol o'qi-tish uslublari tarafdori bo'lganligi uchun ham ko'ngillarga surur bag'ish-lovchi, jamiyatni obod qiluvchi dunyoviy ilm kishini ma'naviy ko'rkam, boshqalar oldida yoqimli, qadrli va e'tiborli qiladi, deb hisoblaydi:

"Odamzotning ko'ngli misol bir ma'dandurkim, ul ma'dandin oltin va kumush chiqadur. Va ba'zi ko'ngil bir ma'dandurkim, andin mis va qalay chiqadur. Man o'ylaymanki, agar iksir ilmidin bahra topsa, aning sharofati birla mis va qalaylik martabasidan chiqib, tillo va kumushlik darajasiga yetadur. Munga

o‘xshash ilmsiz ko‘ngildan kishiga naf yet-maydur. Agar yetsa ham, oz yetadur. Agar o‘shanda ko‘ngilga riyozat vositasi birla ilm hosil qilsalar, bu past martabadan chiqib, a‘lo darajaga yetib, mis va qalaydan oltun va kumush bo‘lgani kabi ko‘p foydalik va quvvatlik bo‘lur”.

Munavvar Qori Abdurashidxonov (1878-1931) “Usuli jadid” mak-tablari uchun yangi tovush usulida yozgan “Adibi avval” (“Birinchi adib”) darsligida bolalarni savodxon qilishga qo‘yilgan talablari asosida ularning aqliy va amaliy faoliyatini rivojlantirish kabi g‘oyalar alohida o‘rin egallaydi.

– har harfni ta’lim berganda kafaga moyilroq qisqa ovoz ila ta’lim bermoq ham har qaysi harfni o‘z mahrijidin chiqarib aytirmoqqa diqqat qilmak;

– har saboqni qora taxtaga oq bo‘r ila yozib bermak, bolalarga shu tax-taga qarab barobar ovoz ila bir soat takror qilmoqni buyurmoq;

– bir soatdan so‘ng bolalarning holiga qarab shul saboqni 10 yo 15 marta kitobdan ko‘chirib yozmoqg‘a buyurmak, ertasiga saboq bermas-dan avval buyurilgan miqdorda yozgan-yozmaganlarini daftardan ko‘rib, kamroq yozganlar bo‘lsa maktabda bolalardan keyin qoldirmoq jazosi ila tarbiya qilmoq;

– saboq beruridan oldin kechagi saboqlarni yoddan yozdirib, yozganlari-ni birin-ketin ko‘rib, g‘alatilari bo‘lsa, o‘zlariga ko‘rsatib tashih etmak...,

– bolalarga xushxulqlik, shirinso‘zlik ila muomala qilmoq, har kun ozod qo‘yar vaqtida muomalat axloq-odoblarini va izza tariqa ila o‘rgat-moqdir”.

Saidahmad Siddiqiy (1864-1927) o‘z pedagogik faoliyatida o‘qitish-ning yangi uslubini ilmiy, ongli, tushunib o‘qitish prinsiplarini eskicha hijjalab o‘qitishga qarama-qarshi qo‘ydi. U mohir va uslubiyotchi o‘qi-tuvchi sifatida darslarni qat’iy tartib, dars jadvali asosida tashkil etib, tabiatshunoslik va geografiya darslarida mashg‘ulotlarni Bulung‘ur dar-yosi yonida, ochiq havoda amaliy mashqlar bilan o‘tishga erishgan. Shu ta’lim usuli bilan bolalarni fan, jamiyat, tabiat qonunlarini, sirli vo-qealarning asl mazmunini tushunib olishlariga alohida diqqat qilgan.

Sadriddin Ayniy (1878-1954) o‘zining “Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar” asarida eski maktabda: “Ta’lim uslubi juda buzuq, aynigan edi. Biz

hammamiz qoida va metodni bilmasdan qiynalar edik. Bizni bolalarga ta'lim berishni isloh qilish muammosi qiziqtirardi", – deb yozgandi. U ta'lim uslubiyatiga katta mehr bilan munosabatda bo'-lib, Abduqodir Shakuriyning yangi usul maktabidagi o'qish-o'qitish tartiblarini zo'r havas bilan o'rgandi. Bu maktabda o'qish-o'qitish usul-lari va imtihon natijalari Sadriddin Ayniyda yaxshi taassurot qoldiradi, savodga o'rgatishning eng qulay, oson usullarini tanlab oldi va o'zi ochgan yangi usul maktabida qo'llay boshladi. Shuningdek, yangi usul maktablari uchun "Torti-ul Qur'on" (Qur'onni to'g'ri o'qish haqida) "Zaruriyati diniya" ("Diniy yo'l-yo'riqlar"), "Taxzib-us-sibiyon" (Yoshlar tarbiyasi) kabi darsliklarni, qizlar maktabi uchun "Qiz bola yoki Holida" o'qish kitobini yaratdi.

Abdulla Avloniy (1878-1934) bola tarbiyasi haqida fikr yuritib, tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir, deb hisoblaydi. Ayni za-monda u ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq ekanini ta'kidlab: "Dars ila tarbiya orasida biroz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur", – deydi.

Abdulla Avloniy bolalarning aqliy ta'limiga alohida e'tibor beradi va inson aql yordamida ilm egallashi, ilm tufayli dunyoni boshqarishini aytadi: "Aql-insonlarning piri komili, murshidi yagonasidur, ruh ishlov-chi, aql boshlovchidur... insonni hayvonlardan so'z va aql ayirmishdur. Lekin inson aql va idroki soyasida o'ziga keladigan zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo'ynidan boylab, iplari-ning uchini qo'llarga bergan insonlarning aqlidur.

Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari natojitidur. Agar aqling qo'li nafsing jilovini ushlasa, sani yomon yo'llarga kirmoqdan saqlar. Har narsa ko'p bo'lsa, bahosi arzon bo'lur, ammo aql esa ilm va tajriba soyasida qan-cha ko'paysa, shuncha qimmatbaho bo'lur.

Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g'o-yat oliy, muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, ha-rakatimizni oyna qilib ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o't-kur qilur..."

Abdulla Avloniyning fikricha, bolalarning aqliy fikrining “quvvati, ziy-nati, kengligi” ko‘p jihatdan muallimlarning “diqqatlariga suyalgan, vijdon-lariga yuklangan muqaddas bir vazifadur...”

Abdurauf Fitrat (1886-1931) aqliy ta’lim-tarbiyaning maqsad-vazifasi, uni amalga oshirish yo‘llari haqida to‘xtalib, aqlning rivojlanishida muho-kamaning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi va ijtimoiy, ilmiy, dunyoviy fanlarni maktab dasturlariga kiritish kerak, degan xulosaga keladi:

“Fikr va aql insonni kamolotga yetkazadi va o‘qish, o‘rganish qobi-liyati uni saodatmand qiladi. Insonning komil aqli yaxshilik muhoka-masidir. Muhokama nima? Muhokama ikki qismga bo‘linadi: birinchisi kaziyyatxon ma’lum (ma’lum bo‘lgan hukm, voqea va hodisalar), ikkin-chisi kaziyyatxon majhul (noma’lum voqea va hodisalar)dan xulosa chi-qarilishidir.

Masalan, “Vatan xizmati vojibdur” (shartdir). Bu hukm noma’lum (majhul)dir. Bu hukmga yana boshqa ikki ma’lum hukm lozimdir, ya’ni “Vatan bizning valine’matimizdir” (sahovatmandimiz, ne’matlar bilan ta’minlovchimiz”dir. “Har bir valine’mat (oliy himmat inson)ning Vatan uchun xizmati vojibdur”, bas “Vatan xizmati vojibdur” degan yuqoridagi ikki ma’lum kaziyyatlar bilan ochiladi.

Boshqa misol: “butun insonlar o‘rtasida mehribonlik va muhabbat lozimdir”, ya’ni bu kaziyyati majhul bo‘lib, bunga ikki ma’lum hukm lozimdirki, birinchisi “butun insoniyat bir-birlari bilan birodardirlar, ik-kinchisi esa birodarlar orasida muhabbat va mehribonlik lozimdur”.

Demak, muhokama uch qismdan tashkil topib, avvalgi hukm noma’lum bo‘lib, qolgan ikki qismi avvalgisini to‘ldiradi va kazi(y)yati ma’lum, deb ataladi. Demak, inson muhokama orqali kamolotga yetadi. Mu-hokama aniq va ravshan bo‘lishi uchun uch narsa zarur hisoblanadi.

1. Isobot. 2. Istiqomat. 3. Sur’at.

Isobot deb ma’lum kaziyyati hukmning to‘g‘riligiga, bexatoligiga ayti-ladi. Istiqomat ma’lum voqea-hodisalarning, hukmning barqarorligi, sur’at esa to‘xtovsiz, tezlik bilan tartib berilishi demakdir.

Avvalo, bolalarni isbot sohibi bo'lishlarida bir voqea va hodisa usti-dan fikr yuritganlarida ularga to'g'ri, bexato ma'lumotlar beraylik, chun-ki xato fikrlar ularni xatolarga, xatarli yo'llarga olib borishi tabiiydir. Asossiz muhokama bolalar tarbiyasiga katta ziyon yetkazadi. Keyin bo-lalarni istiqomat sohibi qilib, fikr yuritishlariga ahamiyat berishimiz ke-rak, ularni ma'lum aziyatlarni noma'lum kaziyyatlardan to'g'ri, aniq ajrata oladigan holatda tarbiyalash lozim, ya'ni har bir masala sohasidagi ma'lumotlarni g'alati tushunmasliklari uchun bolalarni muhokama qi-lishga odatlantirish kerak. Yomonning yomonligini, yaxshiligini muho-kama orqali tushuntiring, doimo shunga diqqat qilingki, bolalar hech narsani ko'r-ko'rona taqlid sifatida qabul qilmasinlar. Madaniyatli ak-vomlar (qavmlar, xalqlar) o'z maktablarida hisob, tarix madaniyat, fizika, jug'rofiya, ashyovi darsi va boshqa maxsus fanlarni yuqoridagi ikki maqsad – (Isobot va Istiqomat maqsadlari)ga jalb qilish uchun o'qitadilar”.

Fitrat o'quvchi shaxsini hurmat qilish zarurligini ta'kidlab, unga be-riladigan bilim uning yoshi va bilish darajasiga mos bo'lishini, qiyinlik qilmasligi va zo'riqtirmasligi, agar beriladigan bilim juda oson yoki juda qiyinlik qilsa, bola bilim olishdan bezib qolishi, beriladigan bilimni o'quvchi ongli o'zlashtirish, muallim berilayotgan bilimning bola uchun moddiy va madaniy jihatdan foydali ekanligini tushuntira olishi kerak, deydi. U o'z fikrini isbotlash uchun Imom Ismoil al-Buxoriyning asar-laridan birida keltirilgan Muhammad payg'ambarimiz salallohu alayhi vassalamning quyidagi hadisini keltirishni lozim topadi: “Bilim ta'limini oson qiling, qiyin qilmang, oldindan aytib bering (ya'ni har bir beradi-gan ta'limingiz moddiy va ma'naviy jihatdan foydali bo'lsin, bu narsa-larni ularga tushuntiring) va ularni ta'limdan bezor qilmang. Qachonki, bolalarda isbot va istiqomat fikri hosil bo'lsa, surat muhokamasi ham muvaffaqiyatli bo'ladi”.

Fitrat bilim va iqtidor inson uchun zarur ekanligini, buning uchun u doimo faol intilish, harakat qilishi lozimligi, doimo o'z oldiga maqsadlar qo'yishi va unga yetishish uchun kurashishi kerakligini, hech bir baxt yoki boylik ham inson intilmasa, o'z-o'zidan kelmasligini uqtirib o'tadi va bu o'rinda Qur'oni Karimdan

quyidagicha misol keltiradi: "Inson har nima topmasin o'zining intilishidan topadi, intilmas ekan, hech narsaga erisha olmaydi".

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929) ta'lim va mustaqil o'qish bilan hosil qilinadigan bilimlar turli-tuman va mukammal bo'lishini istagan holda, o'smir aqlining o'sib borishi uchun xilma-xil ma'naviy oziq olishi, fanning turli sohalaridan xabardor bo'lishi zarur, bu esa uni mah-dudlikdan saqlaydi, unda dunyoqarashning tarkib topishiga ko'makla-shadi, deb hisoblaydi.

Hamza aqliy tarbiya haqida so'z yuritarkan, aqliy tarbiya orqali tabiat va jamiyat qonunlarini, tabiat hodisalarini, ular o'rtasidagi bog'-liqlikni bilib, amaliyotda qo'llay oladigan yoshlarni tarbiyalab, yetishtirishga da'vat etadi.

Hamzaning fikricha, bolalarni aqliy va amaliy jihatdan barkamol ki-shi qilib yetishtirish uchun o'qituvchining o'zi chuqur bilim va yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan, ma'naviyatli, qobiliyatli va go'zal ax-loqiy fazilatli bo'lishi kerak.

Yuqoridagi aytilgan fikrlardan shunday xulosaga kelishimiz mum-kinki, Sharqning buyuk allomalari va Turkistondagi ma'rifatchilik hara-kati darg'alari o'z asarlarida va pedagogik faoliyatlarida talabanning aqliy faolligini ta'minlaydigan, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini kafo-latlaydigan dunyoviy bilimlarni o'qitish uslublarining yangicha shakl-larini yaratish va ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llash g'oyasini ilgari su-rishgan. Shuningdek, mutafakkirlar va ma'rifatparvar pedagoglar tomo-nidan yaratilgan pedagogik asarlar va tuzilgan alifbolar, o'qish kitoblari hamda darsliklarda maktab va madrasalarda foydalanilib kelingan sa-vol-javob usuli asosida talabalarda aqliy faollik, ziyraklik, hozirjavoblik sifat-lari hamda go'zal nutq tarkib toptirilgan. Bundan esa, Sharqdan g'arb-ga siljigan sharqona ta'lim texnologiyasi, g'oyasi pedagogik texnologi-ya shaklida g'arbdan sharqqa qaytib kelgan degan xulosa kelib chiqadi. Bu borada yaqin o'tmishimizga nazar tashlasak, ko'p narsa ravshan bo'-lib, bir qator tushunmovchiliklar oydinlashadi.

Movarounnahr-ga ta'lim nazariyasi qayerdan kelgan? G'arbdanmi? Ko'p sonli tadqiqotlarga, tarixiy manbalarga asoslanib, shuni aytish mum-kinki, ta'lim

nazariyasining ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli va uslublari-ning asosiy jihatlari Sharqda ishlab chiqilib, Yevropa orqali o'zgarib, ri-vojlani b yana Movarounnahr ga qaytib keldi.

Bunday fikrni tasdiqlash uchun bir necha dalillarning o'zi kifoya. Dunyo pedagogik tarixiy jarayonida umuminsoniylik va milliy masala-larni tahlil qilish hozirgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Bu bora-da Sharq ulug' mutafakkirlarining g'oyalari alohida ahamiyatga molikdir. Al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, al-Forobiy va boshqalarning g'oyalari dunyo ijtimoiy-pedagogik jarayoniga ko'p jihatdan ta'sir etib, ma'lum da-rajada Uyg'onish davrining asosiy shart-sharoitlarini yaratib bergan.

Sharq mutafakkirlari xulosalarining o'ziga xosligi shundaki, ular il-gari surayotgan pedagogik g'oyalar bevosita o'rganilayotgan pedagogik texnologiya fani mantiqidan ajratilmagan. Ta'lim-tarbiya maqsadi, prin-siplari mazmuni va uslublari ga xos g'oyalar alohida kitoblarda beril-may, balki bevosita amalda, bironta fanda aniq bilim, iqtidor va ko'nik-malarni shakllantirish jarayonida yoritiladi. Qomusiy olimlar asarlari lo-tin tilida o'rta asr Yevropa universitetlarida o'quv qo'llanmalari sifatida qo'llanilgani aniq. Ya'ni bu asarlar tabiiy va ijtimoiy ilmlar bilan bir qa-torda umumpedagogik va xususiy uslubiy ilmlarni rivojlantirish uchun asos bo'lgan. Abu Ali ibn Sinoning pedagogik g'oyalarga to'la "Ziyrak-li-Tirik o'g'lon" asari ispaniyalik adib ibn Tufaylaning "Yakzon o'g'li Xayya" haqidagi qissasining yozilishiga asos bo'ladi. Bu asarlar lotin ti-lida nashr qilingan bo'lib, J.J. Russoga tanish edi. U o'zining "Emil yoki tarbiya haqida" asarini yozishda yuqoridagi kitoblardan foydalangan. Is-paniyaning pedagog olimi Gundisalva (XII asr) "Falsafaning bo'linishi" asarida al-Forobiyning "Fanlar sanog'i" asarini lotinchaga ijodiy tarjima qi-ladi. Gundisalva fikricha, ilmiy bilish borliqni tajriba asoslarida o'rganish-dan keyin gipotetik taxminlarga induktiv yoki deduktiv xulosalar chiqarilib, tajribada sinaladi. Ya'ni yana amaliyotga qaytiladi.

Oksford universitetining professori Rodjer Bekon (XII asr) al-Fo-robiy va ibn Sinolarning xulosalarini chuqurlashtirib, o'zining "katta", "o'rtacha" yoxud "kichik" qomusiy kitoblarini yozadi. Bu asarlar Yevro-pada tarqaladi va ma'lum

darajada XV-XVI asrlarda pedagogikadagi pansofik harakatga turtki beradi. Pansofik harakatining yorqin namoyan-dalaridan biri chex pedagogi Yan Amos Komenskiy edi. XVI asrda ya-shab, ijod qilgan Ya.Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida pedagogika-ning didaktikasini rivojlantirishga, ta'limda mas'ul o'quv rejasi, o'quv yili, sinf-dars tizimini tatbiq etishga katta hissa qo'shgan. Albatta, hozirgi mutaxassislarni ommaviy tayyorlash sharoitida ta'limni tashkil etishning sinf-dars tizimidan boshqa shakli taklif etilgani yo'q. Lekin Sharqda IX asrda hali Yevropaning ko'p joylarida, jumladan, Rossiyada husnixat ishlatilmagan bir vaqtda u Xorazm hududida tashkil etilgan. Ma'mun akademiyasida qancha-qancha tibbiy, tabiiy, astronomiya, ma-tematika, koinot ilmlari bo'yicha yirik fan namoyandalarini al-Beruniy rahbarligida sinf-dars tizimisiz tayyorlanganligi kishini hayratga soladi. XIX asrda Rossiya Turkistonni o'z mustamlakasiga aylantirganidan bosh-lab bizning maktab va madrasalarimizda o'ziga xoslik yo'qoldi. O'zbek maktabi "Kodiminskaya shkola"ga aylandi, rus-tuzem maktablari ko'k-larga ko'tarilib, uning namoyandalari "o'zbek xalqining milliy iftixori" ga aylantirildi.

Nima uchun hozir ham din namoyandalari va'z qilganida hamma hayratda, jim quloq beramiz? Nima uchun va'xonlikda, so'zamollikda institut o'qituvchisi yosh mullavachchaga bas kelolmaydi? Chunki o'sha "eski" deb nomlangan maktabda nutq madaniyatini o'stirishga alohida ahamiyat beriladi, domladan ko'ra talaba-o'quvchining ovozi tahsil da-vomida ko'proq eshitiladi. Uning nutq madaniyati ortadi, ma'ruza davo-mida fikrlash malakasi paydo bo'ladi.

Masalaning yana bir muhim tomoni – nutq madaniyati, ya'ni notiq-lik muammosidirki, yoshlarimiz, ayniqsa, balog'at yoshidagi o'spirinlar nafaqat murakkab bahsda, oddiy sharoitlarda ham, bir-ikki so'z alma-shuvidan keyin baland ovozga, keyin haqoratga, keyin esa kuch ishla-tishga o'tib ketishadi. Yosh o'tavergani sari ovoz bo'shliqlari "qota bo-radi", odam tajang bo'la beradi, tashqi ta'sir tezda ruhiy holatga ta'sir etadigan bo'lib qoladi.

Qur'oni Karim va Hadislar butun musulmon mamlakatlari kabi biz-da ham yaqin o'tmishimizgacha ta'lim-tarbiyaning asosi qilib olingan. Bunday yondashish

haqli ravishda o'zini oqlab kelgan. Komil inson shax-sining umuminsoniy qadriyatlari yoki ijobiy xislatlari nechta? O'zbek xarakteridagi ijobiy xislatlarni shakllantirish va rivojlantirish texnologiyasi qanday tuziladi?

To'g'ri tarbiyaga molik umuminsoniy ijobiy xislatlarni olti qirrali deb tasavvur etish mumkin.

Birinchidan, shaxsning umumiy xislatlari: yoqimlilik, ko'rkamlilik, jo-zibadorlik, fusunkorlik, basavlatlik, salobat, rivojlanganlik, hurmatga sazo-vorlik, shoirlik, ruhlanganlik, ulug'sifatlik, o'ziga xoslik, yetuklik, jiddiylik, madaniyatlilik, tarbiyalanganlik va boshqalar.

Ikkinchidan, shaxsning axloqiy xislatlari: insonparvarlik, do'stlik, g'am-xo'rlik, jonkuyarlik, samimiylik, kuyunchaklik, odamiylik, bolajonlik, imonlilik, fidokorlik va xushmuomalalik, boadablik, iltifotlilik, ochiq yuzlik, ke-chirimlilik, mehmondo'stlik, xushaxloqlik, hamjihatlik va boshqalar.

Uchinchidan, ishbilarmonlik xislatlari: ishchanlik, tirishqoqlik, serhaf-salalik, serharakatlik, mas'uliyat, halollik, insofililik, malakalilik, bekami-ko'stlik, sifatlilik, epchillik, uddaburonlik, saranjom-sarishtalik, batartiblik, tadbirkorlik, aniqlik, tejamkorlik, barkamollik, ta'masizlik va boshqalar.

To'rtinchidan, zukkolik, idroklilik xislatlari: zehnlilik, ba'manilik, xotirjamlik, sog'lom fikrlilik, donishmandlik, farosatlilik, sezgirlik, zakovat, topqirlik, lo'ndalik, dadillik, omilkorlik, savodxonlik, qiziquvchanlik, ishqi-bozlik va boshqalar.

Beshinchidan, sobitlik xislatlari: faollik, qat'iyat, tezkorlik, kuydi-pishdilik, jo'shqinlik, sabotlilik, bir so'zda turish, barqarorlik, botirlik, dovyuraklik, intizomlilik, erksevarlik, jiddiylik, nafsini tiyish, o'zini yo'-qotmaslik, sovuqqonlik, o'ziga talabchanlik, kamsuqumlik, odamoxunlik, o'zini iroda eta bilish va boshqalar.

Oltinchidan, ehtiroslilik xislatlari: nekbinlik, ko'tarinkilik, tantanavorlik, xushchaqchaqlik, hazinlik, ishonuvchanlik, xayolchanlik, kelajakka ishonch, ezgulik, kek saqlamaslik, mushfiqlik, olijanoblik, otashinlik, nozik tabiatlilik, uyatchanlik, hijolatlilik, iffatlilik va boshqalar.

Hammasi bo'lib ijobiy xislatlar soni mingdan ortiq. Ta'lim-tarbiya nazariyasining maqsadi mana shu xislatlarni shakllantirishdan iborat. Buning uchun o'quv-tarbiya jarayoni, hadislar, oila, mahalla, an'anaviy udumlar, to'y, aza, ma'raka va boshqa kam guruhli va ko'p sonli odamlar ishtirok etadigan yig'inlar, sayillar, mehmondorchilik, mehmon ku-tish, ommaviy axborot vositalari, afsonalar, romanlar va boshqalar vosita bo'lishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan shaxsiy xislatlarni shakllantirish o'quv-tarbiya ishlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Hamma mamlakatlar ham ana shu ijobiy xislatlarni o'z xalqida shakllantirishga harakat qiladi. Ana shu ma'noda zamonaviy pedagogik texnologiyalar jarayonida yagona maqsadga – umuminsoniy xislatlarni shakllantirishga qaratiladi. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi maqsadlariga qanday vositalar bilan, qanday ketma-ketlikda va qaysi ma'noda erishishga bog'liq. Bir mamlakat zamonaviy ta'lim va tarbiya texnologiyasining bir shaklini tanlasa, ikkinchisi o'zga-charoq, uchinchisi yana bir boshqacha yo'l tutadi. Shu jumladan, xalqning, elatning o'z udumi, odati, turmush tarzi bor. Mana shu o'ziga xos shakl, vosita va uslublarni xalqning umumiy pedagogik madaniyati belgilaydi.

Al-Xorazmiy, al-Beruniy, al-Forobiy, ibn Sino va boshqa mutafakkirlarning boy merosini o'rganar ekanmiz, ta'lim-tarbiya texnologiyasi g'o-yasining bironta joyida, bironta so'zida bu xislatlar o'zbek, eron, tojik yoki boshqa millatgagina xos yoki mos, degan fikrni topa olmaymiz. Shuning uchun ham, butun dunyo xalqlari ularning merosidan foydalanishadi, ular avlodlar xotirasida barhayotdir.

IJODIY TAFAKKUR METODOLOGIYASI

Fan va ijod

Ilmiy ijod tushunchasi va uning ilmiy jarayondagi o'rni

Bugungi kunda, uchinchi to'liq sivilizatsiyasi, postindustrial, axborot jamiyati davrida fan va ilmiy-texnika taraqqiyoti jamiyat rivojlanishini, shu jumladan uning moddiy, iqtisodiy negizi – ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishini belgilovchi omillar hisoblanadi.

«Falsafa fanlari ensiklopediyasi»da Hegel fan tizimli xususiyatga ega ekanligini ko'rsatar ekan, shu jumladan: «Fan moxiyat e'tibori bilan tizimdir, chunki haqiqiylik konkretlik kabi o'z ichida avj oluvchi birlikdir, ya'ni bir butunlikdir», deb qayd etadi Hegel¹.

Ilmiy fakt, g'oya, gipoteza, konsepsiya, nazariya, ilmiy qonun ilmiy bilish tizimining tarkibiy elementlaridir. Ilmiy ijod fan tizimidagi barcha tarkibiy elementlarning mazmunini rivojlantiradi va boyitadi. Bu yerda ijod tizim⁵ sifatida ishtirok etadi va fan tizimi osha nur taratib turadi. Ilmiy ijod – bu olim, tadqiqotchi, yaratuvchining qobiliyatlari va mahoratining, irodasi, tirishqoqligi va qat'iyatining, yakuniy maqsad - yangi haqqoniy ilmiy bilim olishga intilishining ifodasidir. Chinakam olim borligining moxiyati ijodiy intilishda, muttasil ilmiy chanqoqlikda o'z aksini topadi.

Fan — bu rivojlanuvchi, o'suvchi bilim tizimi, insonning atrof olamni surunkali o'zlashtirishiga, o'zini qurshagan voqelikning borligi haqida aniq va teran axborot olishi, bunday axborotni saqlash, qayta ishlash vavundan foydalanishiga yo'naltirilgan ijtimoiy aloxida shaklidir.

Bugungi kunda fan ijtimoiy ong shakli sifatida hozirgi zamon postindustrial, axborot jamiyatining arxetipidan mustaxkam o'rin olgan. Hozirgi zamon ijtimoiy borliqdagi jadal rivojlanayotgan ijtimoiy institutlardan biri sifatida fan k o'plab ijtimoiy muhim rollar o'ynamoqda, evristik, epistemologik, axborot, amaliy, texnikaviy-texnologik funksiyalarni bajarmoqda.

Bozor iqtisodi rivojlangan, ilg'or texnologiya va infratuzilmali mamlakatlarda ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanish juda obro'li va foydalidir: ilmiy bilishni o'stirishga intellektual va moddiy resurslarni joylashtirish juda katta dividendlar keltiradigan foydali biznesdir.

Hozirgi zamon jamiyati uchun fan ulkan ijtimoiy qimmatga ega. Gap shundaki, turmushni tashkil qilishning ijtimoiy darajasi yuksak darajada ratsionalligi bilan ajralib turadi. Butun insoniyat, tabiiy resurslari cheklanganligiga

⁵ Гегель Г. Энциклопедия философских наук. Т. 1. М.: Мысль, 1974, с. 100.

qaramay, fanga investitsiyalarni muttasil oshirib borayotganligi kishilik jamiyatining ijtimoiy ongi ilmiy bilimni uzluksiz o‘stirishdan manfaatdor ekanligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda fan butun jamiyatni bilish faoliyati - ijodiy faoliyatga jipslashtiruvchi baynalmilal ijtimoiy institut ekanligi hech kimga sir emas.

Inson ilmiy tadqiqotlar yordamida o‘zini qurshagan olamga epistemologik jihatdan muttasil ravishda chuqur va keng kirib boradi. O‘tib boruvchi ilmiy bilishning epistemologik jihatdan bunday faolligi murakkab, kompleksli hodisadir. Bu hodisaning bir ma’noli talqinini berish juda qiyin.

Fanning epistemologik sabablari orasida insoniyatning o‘z hayotiy faoliyatining tashqi sharoitlariga moslashish borasidagi faoliyatini tilga olish o‘rinli bo‘ladi. Insoniyat tabiat quynida vujudga kelgan, yashaydi va rivojlanadi. Atrof-muhit, bir tomondan, insoniyat mavjudligining zarur va yetarli sharti bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tabiatning o‘zi eng maqbul xolatda insonga befarq, eng nomaqbul holatda esa unga nisbatan dushmanona kayfiyatdadir. Yashab qolish uchun insoniyat murakkab, ba’zan o‘ziga nisbatan dushmanona kayfiyatdagi tashqi sharoitlarga moslashishi zarur, shuning uchun xam u ilmiy bilimni tabiatga ijtimoiy qalqon, tabiatning so‘qir va ayovsiz kuchlaridan o‘ziga xos himoya vositasi sifatida qarshi qo‘yadi. Fan bu yerda butun kishilik jamiyatining rivojlanish, moslashish va yashab qolish jarayonida himoya vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy bilish ob’ektiga epistemologik jihatdan chuqur kirib borish uchun fan ijtimoiy institut sifatida ilmiy kadrlar bilan uzluksiz to‘ldirilib borilishi kerak. Shuning uchun ham u jamiyatda ma’rifiy, o‘qituvchilik funksiyasini bajaradi, zotan, olimlarning o‘sishi, shakllanishi aynan ilmiy jamoalarda sodir bo‘ladi. Bu yerda, shuningdek, ilmiy xodimlarning qobiliyati, bilimi va ko‘nikmalariga qarab saralab, tanlab olish ham sodir bo‘ladi. M.Polani qayd etib o‘tganidek: «Fanni mahoratli odamlar yaratadi».

Jamiyatning ma’naviy madaniyati elementi sifatida fanning epistemologik funksiyasi jamiyatning ilmiy bilim bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlari, maqsadlari,

manfaatlarini jamlab borishni nazarda tutadi. Fan odamlarga o'z kuchiga, inson zakovatining bilish qudratiga ishonch tuyg'usini beradi.

Fan ijtimoiy institut sifatida hozirgi zamon jamiyati hayotida muhim rol o'ynaydi va ko'plab funksiyalarni bajaradi. Bu funksiyalar orasidan quyidagilarni qayd etish mumkin:

- fanning moslashtiruvchi funksiyasi hayotiy faoliyatning tabiiy va ijtimoiy sharoitlariga moslashish qobiliyatini shakllantiradi;
- fanning faollashtiruvchi funksiyasi jamiyatda tabiatga nisbatan amaliy o'zgartiruvchi faoliyatga moyilliklarni shakllantiradi;
- fanning variativ funksiyasi o'zini qurshagan muhitga nisbatan jamiyatning maqbul xulq-atvorini shakllantiradi;
- fanning monitoring funksiyasi tabiatni kuzatish va nazorat qilish global tizimini, masalan, ekologik laboratoriyalar, meteorologik stansiyalar va y o'ldoshlar, astrofizik observatoriyalar, har xil qo'riqxonalar va hokazolarni barpo etishni nazarda tutadi;
- fanning informativ funksiyasi odamlarga atrof-olam haqida yangi ilmiy bilimlar, aniq ilmiy axborot beradi.

Insoniyat yangi-yangi ilmiy bilimlarni umuminsoniy madaniyat xazinasiga kiritib, K.Popper ta'biri bilan aytganda, «bilishdan lazzat oladi». Binobarin, fan gedonistik ijtimoiy funksiyani ham bajaradi. Buning ustiga, har bir insonda bo'lgani singari, jamiyatga ham qiziquvchanlik xosdir. Fan mana shu ijtimoiy ehtiyojni qondiradi.

Hozirgi zamon jamiyatida fan nafaqat odamlar, balki butun sayyoraning hayoti uchun ijtimoiy mas'uldir, zotan, ilmiy bilimning o'sishi qanday oqibatlarga olib kelishi hanuzgacha ko'p jixatdan mavhum va xatarlidir.

Jamiyat hayotining barcha sohalarida globalizatsiya jarayonlari sodir bo'layotgan hozirgi zamon sharoitlarida ilmiy bilimning notekis, eksponensial o'sishi ilgari kuzatilmagan yangi bir paradigmani – fanning rivojlanish paradigmasini vujudga keltirdi. Ilgari ilmiy bilish jarayoni ozmi-ko'pmi bir maromda kechgan, ya'ni adiabatik xususiyatga ega bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda

vaziyat butunlay o'zgardi. Fanning o'sishi jiddiy noadiabatik, sakrovchi, notekis xususiyatga ega bo'lib, epistemologik vaziyat keskin, kutilmaganda o'zgaradi.

Bunday g'ayrioddiy sharoitlarda hozirgi zamon olimi nafaqat chuqur ilmiy bilim va ko'nikmalarga, balki teran va serqirra hayot tajribasiga ega o'tkir zehnli odam bo'lishi kerak. Ilm-fan taraqqiyoti – bu butun ijtimoiy taraqqiyotning ajralmas qismidir.

Ijod deganda keng ma'noda shaxs yoki jamiyatning tabiiy, ijtimoiy va ma'naviy olamni insonning maqsad va vazifalariga, uning extiyohlari, istaklari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda o'zgartirish borasidagi bunyodkor faolligi tushuniladi. Sub'ektning borliqda faol va izchil tarzda yangilik yaratish irodasining ta'siri ijodiy faoliyatda o'z aksini topadi. Odamlar ongi ijod orqali bizni qurshagan olamni kuzatibgina qolmay, balki uni faol yaratadi ham.

Shaxs erkinligi, ijodiy izlanishlar va ijod natijalarining tanqid uchun ochiqligi, ijod atrofida fikrlar va goyalar kurashi ilmiy, badiiy, texnikaviy ijod rivojlanishining zarur shartidir. Ijod – bu shakllangan stereotiplar, odatlar, an'analar va shartliliklar doirasidan ongli ravishda chiqish demakdir, zero, sub'ekt ijod jarayonida taraqqiyot yo'lida to'g'anoq bo'lgan eski narsalarni ongli ravishda chetga uloqtiradi. Ijodiy faoliyat tufayli yangi g'oyalar, qarashlar, nazariyalar odamlarning qalbi va aqlida hukm sura boshlaydi, bu esa ijtimoiy taraqqiyotga olib keladi.

Har xil dogmatizm, stereotiplar, noxolislik, dunyoqarashning torligi ijodga mutlaqo yotdir. Har qanday shaxsning ichki ma'naviy salohiyati faqat sifat jihatidan yangi narsani vujudga keltiradigan ijod jarayonida o'zini to'liq namoyon etishi mumkin.

Inson ijodi xilma-xildir. U badiiy, ilmiy tadqiqot, konstruktorlik, siyosat sohalarida namoyon bo'lishi mumkin. Bemorda o'ziga xos jarrohlik operatsiyasini amalga oshirgan vrach ham, ratsionalizatorlik taklifini kiritgan ishchi ham ijodkor shaxslardir. Shuningdek, laboratoriyada murakkab tadqiqotlar o'tkazgan olimni ham, yangi roman va she'rlar yozgan yozuvchi, shoirni ham, betakror musiqa asarlari yaratuvchi bastakorni ham ijodkor shaxslar deb atash mumkin.

Ijod – bu sub’ektning tafakkuri, aqli va idroki nazorat qiluvchi, tartibga soluvchi, yo’naltiruvchi, shu bilan birga ijtimoiy amaliyotga muvofiq ravishda muttasil o’zgarib boruvchi ob’ektiv olamning sub’ekt ongidagi faol in’ikosidir.

Badiiy, texnikaviy va ilmiy ijod tafovut etiladi. Ilmiy ijod – bu olimning bilimlari, qobiliyatlarining oliy ifodasi, o’rganilayotgan hodisalarning o’zagiga, mohiyatiga chuqur kirib borishga bo’lgan uning istagidir.

Ilmiy faoliyat ijod bilan chambarchas bog’liq. Ilmiy xodimning bilimi, iste’dodi, qobiliyati, ko’nikmalari, ilmiy haqiqatning tagiga yetishga bo’lgan intilishlari ilmiy ijodda o’z aksini topadi. Ilmiy kashfiyot, fanda yangi nazariya yoki yo’nalish yaratish ijodning fandagi oliy ifodasidir. Ilmiy tadqiqotlar sohasida yuksak natijalarga erishgan olimlar daho deb atalishi bejiz emas.

Masalan, A.Eynshteynning ilmiy faoliyati ulkan darajada ilmiy faolligi bilan ajralib turadi. Uning ilmiy kashfiyotlari nafaqat hozirgi zamon fizikasining qiyofasini, balki dunyoning hozirgi zamoy manzarasini ham o’zgartirib yubordi. Eynshteynning kashfiyotlari natijasida hozirgi zamon olimlari ilmiy faoliyatining ruhi, xususiyati ham o’zgarib ketdi.

Ilmiy ijod ilmiy muammoni qo’yishdan boshlanadi. Ilmiy tadqiqotning maqsadi – yuzaga kelgan muammolarni hal qilish, olingan yechimlardan voqelikni amaliy-ijodiy o’zlashtirishda, borliqning mohiyatini yanada teran bilish, tushunish va anglab yetishda foydalanishdir.

Yangini kashf etish, atrof-olam haqida shu paytgacha ma’lum bo’lmagan axborotni olish bilan bir qatorda, ilmiy ijod mavjud ilmiy bilimni egallash, uni ijodiy o’zlashtirish, ilmiy kashfiyotlar, eksperimentlar, kuzatishlarning natijalaridan faol foydalanishni ham o’z ichiga oladi.

Olimning ijodiy fantaziyasi, olim aqlining faolligi ilmiy abstraksiyalar yaratishda namoyon bo’ladi. Ilmiy abstraksiyalar o’rganilayotgan hodisalarning shu paytgacha ma’lum bo’lmagan yashirin mohiyati haqida to’g’ri bilimlar beradi. Ilmiy abstraksiyasiz o’rganilayotgan faktlar va jarayonlarning biror-bir jihatini bilish, tushunib yetish mumkin emas. Olim faqat ilmiy abstraksiya yordamida ob’ektning mohiyatiga kirib borishi mumkin va lozimdir. Shunday ilmiy bilish

jarayonida mazkur ob'ektning mohiyatini ijodiy tiklaydi va unga xos bo'lgan qonunlarni, ob'ekt borlig'ining ichki mantig'ini kashf etadi.

Abstraktlashtirish yoki mavhumlashtirish ijodiy jarayon sifatida fanda ilmiy bilishning nazariy bosqichida yorqin namoyon bo'ladi. Bunda olimning tafakkuri ilmiy bilimni to'liq egallagandan so'ng uni yangilik yaratish uchun amalda ijodiy qo'llash maqsadida jonli mushohadadan abstrakt tafakkur darajasiga ko'tariladi.

Eksperiment ilmiy ijodning o'ziga xos vositalaridan biri hisoblanadi, zotan, u ham ilmiy ijod vositasi, ham uning real ifodasidir. Eksperiment o'tkazuvchi o'ziga xos eksperimental g'oyani ilgari surishi uchun undan juda katta ilmiy quvvat, koshiflik, mehnat, sabr-toqat talab etiladi. Shundan so'ng u eksperimentni yo'lga qo'yish, kalibrlash, o'tkazish bo'yicha zahmat chekadi va nihoyat, uzoq kutilgan ilmiy natijalarni oladi, ularni qayta ishlaydi, talqin qiladi va ilmiy maqola, hisobot, preprint va hokazo ko'rinishida e'lon qiladi.

Eksperimentning ijodiy xususiyati shunda namoyon bo'ladiki, u qat'iy ishlab chiqilgan rejaga ko'ra amalga oshiriladi, ma'lum maqsadga erishishga – mavjud farazlar va nazariyalarni tekshirishga yoki mavjud nazariy qoidalarni boyitishga yo'naltiriladi.

Ilmiy eksperiment – bu maxsus ilmiy asbob-uskunalaridan mazkur fanning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ijodiy foydalanish jarayonidir. Eksperimentning ijodiy roli ilmiy faktlarni olish, jamlash, olimning ixtiyorida mavjud farazlar, konsepsiyalar va nazariyalarni tekshirishdan iborat. Eksperimentda olingan ma'lumotlar, faktlarni anglab yetish ilmiy ijodning muhim jixatlaridan biridir. Masalan, yapon eksperimentchi-fizigi L.Esaki o'zining yarim o'tkazgichlarni o'rganish borasidagi eksperimentlarining natijalarini to'g'ri tushunish va tavsiflashga muvaffaq bo'ldi hamda «tunnel diodlari» (yoki «Esaki diodlari») turkumini kashf etdi. Mazkur kashfiyoti uchun olim fizika sohasida Nobel mukofoti bilan taqdirlandi.

Yangi ilmiy bilimni ma'lum ilmiy tizimga kiritish ilmiy ijodning muhim jixatlaridan biridir. Ilmiy nazariyalar yordamida bilimlarni tizimga solish – yangi bilim elementlarini mexanik ravishda qo'shish emas, balki ularni ijodiy sintez

qilish, dialektik sakrash, bilishning yangi sifatiga, mazkur bilimni tushunishga o'tish demakdir.

Ilmiy nazariya ilmiy bilim tizimida ilmiy gipotezaning shakllanishi, rivojlanishi va tasdiqlanishi natijasidir. Ilmiy gipoteza ilmiy muammodan kelib chiqadi: ilmiy muammo – bu hali bilinmagan va bilish lozim bo'lgan narsa haqidagi bilim bo'lsa, gipoteza - bu extimol tutilgan bilim, bilimdan oldingi bilim, ilmiy muammoni hal qilishning extimol tutilgan yo'llari haqidagi ozmi-ko'pmi asoslangan, dalillangan ilmiy farazdir. Olimning ijodi mana shu yo'llarni tug'ri tanlashda namoyon bo'ladi. Agar gipoteza ilmiy tadqiqot jarayonida tasdiqlangan, uning to'g'riligi va mavjud ilmiy faktlarga zid emasligi isbotlangan bo'lsa, u to'laqonli ilmiy nazariyaga aylanadi. Gipoteza va nazariyalar ishlab chiqish ilmiy ijodning muhim jihatidir. Olimlarning ijodiy qobiliyati mazkur fanning ichki mantig'iga va ilmiy izlanish ehtiyojlariga javob beruvchi asoslangan, teran, dalillangan gipotezalar yaratishga ular qay darajada qodirligi bilan tekshiriladi.

Gipotezadan o'usib chiquvchi ilmiy nazariya – ilmiy ijodning yakuniy natijasi va shu bilan bir vaqtda, yangi ijodning, olimlarning kelgusi ijodiy faoliyatining boshlang'ich nuqtasidir.

Ilmiy ijod ham xuddi badiiy ijod singari, tadqiqotchi olimning ilhomi, fantaziyasi, umumiy madaniyati, shuningdek, ilmiy xodim ijodkor shaxs sifatida ega bo'lgan ma'naviyat darajasi bilan chambarchas bog'liq. Ichki erkinlik, shaxs dunyoqarashining dogmalardan xoliligi unumli ilmiy ijodning zarur shartidir. Ilmiy ijod sohasida erkin bo'lish - moneliqsiz ijod qilish, birovning qolipiga tushmaslik, yangi ilmiy bilimlarni olish va qayta ishlashda ob'ektiv va xolis bo'lish demakdir. Fanda ijod erkinligi deganda tabiatda, jamiyatda va tafakkurda o'rganilayotgan hodisalarning teran mohiyatini ochib berishga muttasil intilish tushuniladi. Kon'yunktura, sub'ektivizm ilmiy ijod ruhiga batamom yotdir. Ilmiy bilish, ilmiy ijodga teranlik, realizm, ob'ektivlik va har tomonlama o'rganish, shuningdek, olingan yoki olinayotgan ilmiy bilimga tanqidiy yondashuv xosdir.

Ilmiy ijod ilmiy tadqiqot ning ilmiy metodi, metodologiyasiga ongli ravishda tayanadi. Falsafa chinakam ilmiy ijod uchun mana shunday metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijodning falsafiy negizi

Falsafa uzining nazariy-bilish, gnoseologik funksiyasida ijod jarayonining metodologik asosini tashkil etadi. Gnoseologiya ijodga sub'ektning faol, mutlak o mak.sadga yunaltiril-gan faoliyati deb karaydi. Mazkur faoliyat ayni muayyan ijtimoiy-madaniy kontekstda mutlako yangi, ijtimoiy axamiyatga ega natijalarga erishadi va shaxsning uzini uzi ruyobga chi karp shi-ga, uning qobiliyati va yaratuvchilik saloxiyatini rivojlanti-rishga x.ar tomonlama kumaklashadi. Ijod deganda falsafiy nuqtai nazardan eng unumli, ijtimoiy axamiyat va kimmata ega faoliyat u suli tushuniladi.

Bilishda ijod ma'naviy faoliyat xakikatning tagiga yetish-ga ongli ravishda yunaltirilgan paytda boshlanadi. Urganilayotgan ob'ektning jixatlarini, xossalarini, uning teran mohi-yatini tulik., chuk.ur va tugri bilish bunday ijodning max.suli-dir. Bilishda ijod bu tadmik.otchining mutlako yangi bilimga erishishga yetaklaydigan noan'anaviy tafakkur tarzi, bilish-ning ahamiyatli va haqqoniy natijalarini olishga ongli ravishda kilingan muljaldir.

Ilmiy bilishning tabiatini, bilimning vokelikka nisbati-ni, bilish jarayonining umumiy (tabiiy va ijtimoiy) shart-sharoitlarini urganuvchi, uning xakdoniyligining zarur va yetarli shartlarini aniklovchi ilmiy bilishning metodologiyasi va epi-stemologiyasi ijodni falsafiy urganishda alohida urin tuta-di. Fan metodologiyasi ilmiy tadqiqot ning tuzilishi, mantiqiy tashkiloti. metodlari, vositalari, usullarn va algoritmlarini tadmik, kiladi, ilmiy bilish jarayonida ijodiy faollikning kup kiralari tomonlarini urganadi va xozirgi zamoy postklassik falsafa fanining muhim element hisoblanadi. Metodologiya ijodiy ilmiy tadqiqotfaoliyatining falsafiy negizlari haqidagi tasavvurlar majmuini kamrab oladi, bilimning ijodiy tashkilotining ichki mexanizmini va harakat mantiqini kuribchikada.

Kreativlikni, ya'ni bilish sub'ektining xam tabiatni, xam ijtimoiy tartibni, odamlarning ijodiy faoliyati jarayonida sivilizatsiya madaniyati ni sifat jixatidan uzgartirishga yunaltirilgan ijodiy-yaratuvchi qobiliyatini urganish ilmiy bilishning x.ozirgi zamon falsafiy epistemologiyasining mux.im jixatlaridan biridir.

hozirgi zamon ilmiy ijod epistemologiyasi bilishda ijodning faoliyat kursatish va rivojlanish mexanizmini, ilmiy tasavvurlar va nazariyalarning vorisiylik va almashish K.onunlarini, ilmiy ijodga nisbatan xar bir tarixiy davrda mavjud stereotiplar, paradigmalar, klassik, postmodernistik sivilizatsiyaning «uchinchi tulqini» (E. Toffler, S. Xantington), hozirgi zamon postindustrial axborot jamiyati sharoitlarida rivojlanayotgan hozirgi zamon ilmiy bilishining metodologik xususiyatlarini ochib berishga harakat qiladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Nima uchun fan bugungi kunda shubhasiz ijtimoiy kim-matga ega?
2. Fanning epistemologik funksiyasining mohiyati nimada?
3. Ilmiy ijod jarayoni nimadan boshlanadi?
4. Ilmiy ijod jarayonida ilmiy bilishning sayis shakl va usullaridan foydalaniladi?
5. Ilmiy ijodning falsafiy negizlari nimalarda uz aksini topadi?

IJOD JARAYONINI IFODA ETISH SHAKLLARI, METODLARI VA USULLARI

Ijod shakllarining xilma-xilligi

Avvalgi ma'ruzalarda insoniyatning ma'naviy madaniyatida ijodning roli ni batafsil analizdan utkazib, biz ijodga ob'ek-tning mutlako yangi, ilgari kurilmagan x.olatini (yangi narsa-lar, hodisalar, jarayonlarni) vujudga keltaruvchi inson - insoniyatning atrof-olam bilan faol uzaro ta'sirga kirishishi shak-li deb ta'rif berdik.

Insonning ijodiy faolligi uning xayotiy faoliyatining rang-barang, ba'zan kutil magan, bir karashda jumbokli sohalarida namoyon bo'ladi.

Kundalik x.ayot, oddiy ong darajasida insonning ruzgorda, uyda, chorbogda, dala x.ovlidagi ijodi haqida gapirish urinli bo'ladi, zotan, inson bu yerdauzining xayotiy faoliyati maydoni-ni ijodiy uzlashtiradi, uzgartiradi, kayta tuzadi.

Ishlab chikarishda, uz mex.nati predmstiga izchil ta'sir kursatish borasidagi mehnat faoliyati jarayonida insonning ijodiy qobiliyati xar xil kurinishda namoyon bo'ladi. Ishlab chikarishdagi ijod jarayoni xilma-xildir. Masalan, sexda, za-vodda yangi texnologik jarayon, yangi ishlab chikarish siklini yaratish - ijod, yangi mexanizmlar va mashinalarni loyix.alash xam - ijod, yangi binolar, xatto shaharlar va posyolkalarni loyihalash, zurish- bu ijodning qurilish va me'morchilikda-gi kurinishlaridir.

Agar vrach bemorni davolashga uziga xos tarzda, tibbiyotning eng yangi yutuklarini jalb etgan xoldayondashgan bulsa, bu yerda tibbiyotdagi ijod xak.ida gapirish urinli bo'ladi. Ishchi, mu-x.andis, konstruktor katta ik.tisodiy samara beradigan, ishlab chik.arish unumdorligini oshiradigan ratsionalizatorlik tak-lifini kiritgan bulsa, bu yerda biz uz kasbiga tom ma'noda ijodiy yondashuvning guvoxi bulamiz.

Qishlok,xujalik ekinlarining yuk.ori hosil beradigan yangi navlarini, k.oramol va parrandalarning max.suldor zotlarini agrosanoat kompleksiga joriy etish - bu x.am odamlarning kish-lok. xujaligidagi ijodidir.

Badiiy ijodning turlari juda xilma-xildir. Bastakor-ning ijodi - bu yangi musik.a - qo'shiklar, simfoni5tar, opera-lar va x.okazolar yaratish demakdir. Yozuvchi, shoir, dramatur-gning ijodi - bu talant bilan yozilgan k.issalar, romanlar, x.ikoyalar, dostonlar, she'rlar, pesalardir. Rassom va hay-kaltaroshning ijodi - bu ajoyib rasmlar, freskalar, ofort-lar, x.aykallar, bareleflar va hokazolardir. Aktyorning ijodi - bu teatr da, kinoda, televidenieda maromiga yetkazib uynalغان roldir.

Insonning faoliyati bir kolipga tushib dolgan, bir yoklama xususiyat kasb etgan joyda ijodga urin xam bulmaydi. Inson uz ishiga, uz kasbiga butun k.albini, iste'dodini, qobiliyatini baxsh etgan, odamlarga imkon k.adar kuprok. fonda keltirishga intil-gan joyda esa, aksincha, ijodiy, norasmiy, ilx.om bilan yonda-shish

x.ollariga duch kelamiz. Ijodkor shaxs gayrat-shijoat, bilan, ba'zan dam olish va uyquni unutib, uzi x.ak.ida, uzining foydasi va manfaati haqida emas, bopuqalar, uz iste'dodi va ijodini kimga baxshida etayotgan bulsa, usha odamlar haqida uylab ijod k.iladi.

Insonning tabiatni bilish jarayonida, biluvchi sub'ekt ta-biatning jozibali, sirli, jumbokli, ba'zan x.atto xavfli kuch-lari bilan yakkama-yakka k.olganida odamlarning ijodiy kobi-liyatleri, aynik.sa, york.in namoyon bo'ladi. Bilish jarayonidagi ijodda insonning barcha ma'naviy kuchlari: ong, akl-idrok, ta-savvur, fantaziyalar, xotira, intuitsiya, soglom fikr va x.ayotiy tajriba bevosita faol ishtirok etadi.

Borliqning sirini bilishga intilishda insonning maxora-ti, tog'uirligi, ustomonligi va uddaburonligi bilish jarayonidagi ijodning kurinishlarini tavsiflaydi. Odamlar ob'ekt-ning u yoki bu jixatlari va xossalari haqida yangi bilim olib, bilish jarayonidan va uning natijalaridan behad lazzatlana-dilar, ularda bilish jarayonining natijalarini ijodiy analizdan utkazib, tushunib yetib va ulardan uz amaliy faoliyatida faol foydalanib, olga xarakatlanish istagi tugaladi. Sub'ek-tning bilish qobiliyatining ijodiy salox.iyati cheksiz, ijodiy bilish jarayonining uzi esa kupgina odamlar, ayniksa, ijodkor, faol yoshlar uchun bex.ad k.izik.arlidir.

Bilish jarayonidagi ijodda odamlarning qobiliyati, iste'dodi, xatto dax.osi york.in namoyon bo'ladi, yangi bilim olish jarayonining uzi xam, bilish faoliyatining natijalarini mushoxada qilish, te ran va anik, tushunib stish xam ijodiy jarayondir.

Sub'ektning ijodiy-bilish bilan boglik. faolligidan bi-lim olish, uni uzlashtirish, oshirish, inson extiyojlari uchun undan foydalanish tizimiga utadigan bulsak, ijodning son ji-xatidan yangi bosqichiga kutarilamiz - bu fan emas, balki ilmiy bilishdir. Fan deganda muttasil, faol va ijodiy ravishda jgi bilimlar ishlab chikaradigan ijtimoiy institut tushuniladi, olimlar, ilmiy xodimlar, oliy ma'lumotli mutaxassislar esa - bu ilmiy bilish bilan shugullanuvchi odamlardir. Muttasil ijodiy izlanish, bilimga intilish, uz ilmiy tadqiqot faoliya-tida halollik va xolislik chinakam olimning zarur sifatidir. Chinakam olim, ijodkor fanda bitta mak,sadga -

ob'ektiv x.akikatga, anik., tug'ri, mukammal va teran bilimga erishishga xizmat k.iladi.

Metod va metodologiya

Olimlar va tadqiqot chilar uz ilmiy ijodida juda kup ilmiy tadqiqot mstodlaridan foydalanadi- Metod - bu bilimga erishish usuli, olimning ma'lum tarzda tartibga solingan, on-gli va izchil faoliyatidir. Grekchadan suzma-suz tarjimada «metod» biror narsaga olib boradigan yulni anglatadi. Metod bilish usuli sifatida urganilayotgan ob'ektning jix.atlari va xossalarini laboratoriyada, ilmiy tadqiqot moslamasida, si-nov stendida, shuningdek, tadqiqotchining miyasida aks ettirish usulidir. Ilmiy bilishning epistemologiyasi va metodologiyasi ilmiy bilishning zarur sharti sifatida ilmiy asoslangan me-todlardan tadqiqot chilik faoliyatida ongli ravishda foydala-nishga xizmat kiladi.

Metodologiya - bu fanda foydalaniladigan bilish vositala-ri, usullarining majmui, shuningdek, fanning ijodiy bilish va amaliy-uzgartirish faoliyatini tashkil etish vositalari, shart-sharoitlari vaprinsiplarini urganuvchi ilmiy-falsafiy bilim soxasidir. Ilmiy bilish ob'ektiv vokelik olamini mexanika, fizika, astronomiya, kimyo, biologiya, ijtimoiy bilish konunlari kurinishida ijodiy yaratadi.

Fan metodologiyasi va mantiga yangi bilim olish shartlari va usullarini urganadi. Fan metodologiyasi (epistemologiyasi) bu yangi bilim tuzish prinsiplari va bunday bilimni olish usullarining falsafiy analizi, ilmiy bilishning umumiy va max-sus metodlari tizimidir. Fan metodologiyasi ilmiy ijod uchun, yangi x.ak.koniy bilimni ongli ravishda va izchil olish uchun zarur bo'lgan ilmiy bilish apparata, mexanizmining asoslarini ishlab chikishni uz oldiga maqsad k,ilib qo'yadi- Fan metodologiyasi va epistemologiyasi u yoki bu jamiyatdagi dunyokarash, fanning gnoseologik, etik, x.atto estetik qoidalari va an'analari aso-siga k.uriladi.

Hozirgi zamon fan metodologiyasi va epistemologiyasi ilmiy bilishning tabiatini, uning genezisini, tarixini va x.ozirgi x.olatini, ilmiy bilishning xakdoniyligi asoslari va mezonla-rini urganadi- Uchinchi tulkin sivilizatsiyasi hozirgi zamon po-stmodernistik falsafasining xar bir yunalishi uz epistemolo-

giyasiga ega, ammo hozirgi zamon ssientistik yunalishlari (neopozitivizm, hermenevtika, tankidiy ratsionalizm, neorealizm, fan falsafasi)da epistemologik tadqiqot larning axamiyati an-tissientistik yunalishlar (ekzistensializm, falsafiy antropologiya va boshqalar)dagidan ancha kattadir.

Fan metodologiyasi va epistemologiyasi ilmiy bilish va ilmiy ijodni, ya'ni ilmiy-tadqiqot faoliyatini urganadi. Har qanday ilmiy yutuk, yoki kashfiyot nafaqat muayyan predmet mazmuniga, balki metodologik jihatga xam egadir, zero, u fanda ilgari olingan axborotni tankidiy kayta kurish, fanning tushunchalar apparata va tadqiqot negizini muttasil yangilash (yangi metodlar, usullar va yondashuvlar - bu yangi apparatura, yangi institutlar va laboratoriyalar demak) bilan boglikdir. Shunday kilib, fanning uziga nisbatan metodologiya va epistemologiya fanning uzini uzi bilish va uzini uzi anglash shakllaridan biridir. Ilmiy ijod metodologiyasi olim shaxsining yangi bilim olish va uni amalda sullash sohasidagi ijodiy salohiyati-ni ochib beradi va analizdan utkazadi.

Sub'ektning ob'ektga faol munosabati sifatidagi bilishning eng umumiy jihatlarini analizdan utkazuvchi gnoseologiyadan farkli ularok., metodologiya bilishning bu jihatlari va tomonlari bilish bilan bogliq, muayyan vaziyatlarda va bilishning sohalarida, ma'lum ijtimoiy-iktasodiy, texnikaviy-texnologik va tarixiy sharoitlarda qanday uz ifodasini to'pishiga e'tiborni k.aratadi. Hozirgi zamon fan metodologiyasi ilmiy faoliyatning ma'nosini, uning ijod, amaliyot, ijtimoiy borliqning ma'naviyat sohasi, kengroq. aytganda, butun madaniyat bilan alokasini aniklaydi. Shundan sung metodologiya ilmiy tadqiqot larni takomillashtirish, ratsionalizatsiya kilish, makbulashtirish va samaradorligini oshirish muammolarini urganadi.

Ilmiy tadqiqot bosqichlarini tavsiflash va analizdan utkazish, hozirgi zamoy kompyuterlashtirilgan fanining tizimini analizdan utkazish, ilmiy tadqiqotning alohida tartibi va usullarini qo'llash mumkin bo'lgan sohalarni aniklash ham ilmiy bilish metodologiyasining vakolatlari jumlasiga kiradi. Fan - bu usib boruvchi bilim tizimi bulib, k.uyidagi komponentlarni uz ichiga oladi: ilmiy

faktlar, maxsus ilmiy tushunchalar, atamalar va sxemalar, goyalar, gipoteza-lar va nazariyalar, shuningdek, fan qonunlari va ilmiy bilish metodlari.

Ilmiy bilish metodlari - bu ob'ektni urganishning asos-langani izchil usullari va koidalari. Muayyan fanlarning umumilmiy, xususiy va maxsus metodlari tafovut etiladi. Ta'biyki, fan epistemologiyasida ularning dastlabki ikkitasi bevosita kuzatish uygatadi.

Bilimning empirik va nazariy darajalari

Insonning uzini qurshagan olamni bilishi - bu sub'ekt (inson, kishilik jamiyati) va ob'ekt (butun atrof-olam yoki uning bulagi)ning murakkab, dialektik jihatdan ziddiyatli faol uzaro ta'sirga kirishish jarayoni, butun borlikning mavjudligi, rivojlanishi va uzgarishi k, onuniyatlarining odamlar ongida aks etishidir. hozirgi zamon nemis ekzistensialist-faylasufi va germeneytigi Martin Xaydegger: «Bilish tadqiqot sifatida borlik,ni hisobot berishga chorlay-di», deb juda uxshatib aytgan.

Sub'ektning ob'ektni, uning tomonlari, sifatleri va xos-salarini bilishi ikki darajada- empirik va nazariy darajalarda sodir bo'ladi. Ilmiy bilish xam ayni holda bundan mustasno emas. Bilishning vazifasi va maqsadi xalqning tagiga yetishdan, turli xodisalarni urganish yuli bilan ularning mohiyatini, teran, barqaror va muhim tomonlari va jihatlari tushunib yetishdan iborat. Antik falsafada sofistlar va Sokrat dunyoni tushunishning bosh masalasini insonning tabi'atiga, sub'ektning ob'ektga, tafakkurning borliksamunosaba-ti deb ta'riflab bergan edi.

Vokelikning hodisalari va jarayonlarini bilish jarayonida olimning tafakkuri xodisa xakida dastlabki taassurot, xodisani xalqiy idrok etishdan xodisani, uning asoslari va mohiyatini yanada teran tushunish sari xarakat kiladi. Amalda bu sub'ektning bilish faoliyati dastlab empirik darajada boshlanishi, shundan keyingina kurib chikilayotgan ob'ektning mohiyatini bilishning nazariy darajasida ilmiy umumlishtirish va tushuntirish bosqichiga kutarilishini anglatadi.

Tadqiqotning empirik darajasi bevosita ob'ektga yunaltiriladi xamda kuzatishlar, tajribalar va eksperimentlarning natijalariga tayanadi.

Ilmiy tadqiqot ning navbatdagi, yanada teran bosqichi nazariy darajada sodir boʻladi. Bunda subʼektning akl-idroki mantiliy mushoxada yuritish, empirik bilimlarni teran analizdan utkazish, hodisaning barcha ikkinchi darajali va axamiyatsiz to-monlarini mavhumlashtirish yordamida mazkur bilish obʼekti-ning mohiyatini teran tushunib yetishga yaqinlashadi.

Empirik bilish kuzatishdan, yaʼni subʼektning taʼmimi olamni maxsus analizdan utkazilgan, maʼsadga muvofik, va anglan-gan tarzda, izchil idrok etishdan boshlanadi. Bu obʼekt, uning tomonlari va xossalari haqida dastlabki, «xomaki» axborot beradi. Ilmiy tadqiqot kuzatishlardan boshlanadi. Kuzatuvchi muljallangan kuzatish obʼekti xasida anik, va katʼiy tasav-vurga ega bulishi, bor dik.katini obʼektni kuzatishga k.arati-shi, ishga ijodiy yondashishi, kuzatuvni rejalashtirish va uni bevosita amalga oshirishda uzining bor mayorata va isteʼdodi-ni ishga solishi kerak. Masalan, kosmik obʼektlar, quyosh tuti-lishi, yulduzlar, asteroidlar va shu kabilarni urganishda kuzatuvchi teleskop bilan 1\$urollanishi, mikroblar, viruslar, bir xujayrali organizmlarni kuzatish uchun zsa mikroskopdan foy-dalanishi shart. Kuzatish asboblari, uskunalari va mexanizm-lari kupincha olimning kuzatishga nisbatan ijodiy yondashuvi max.suli bulib, uzining murakkabligi bilan ajralib tu radi. Masalan, G. Galiley bir xil radius va xajmli, ammo har xil materiallar (suyak, gips, bronza, temir va x.okazo)dan yasalgan sharlarning tushishini kuzatib, jismlarning erkin tushishi k.onunini kashf etdi va klassik mexanikaning empirik asosla-rini yaratdi.

Kuzatish - bu bilishning shunday bir metodiki, bunda subʼekt (tadkik.otchi) obʼektning tuzilishi va rivojlanishiga aralash-maydi. U tadk.ik,ot obʼekta mavjud boʻlgan sharoitlarni uzgar-tirmaydi, chunki unga hech qanday taʼsir kursatmaydi. Asbob-lar, ilmiy moslamalar va mexanizmlar olimlarga ularning kuzatishlarida yordam beradi xamda extimol tutilgan kuzatish-lar doirasini kengaytiradi, masalan, infrakizil teleskoplar va radioteleskoplar yordamida astrofizik olimlar yulduzli os-monni nafaqat kurinadigan holatda, balki elektromagnit tulkinlar doirasining infrakizil va radiochastotali soxala-rida x.am kurishga muvaffak, buldilar.

Kuzatishning ilmiy bilish metodi sifatida afzalligi shun-daki, u urganilayotgan hodisaning ancha ob'ektiv manzarasini berishi mumkin. Ilmiy kuzatish - bu chinakam ijod, hak.ik.iy max.orat va san'atdir, zotan, kuzatish ob'ekta uzining barcha xossalari va sirlarini kuzatuvchiga oshkor etishga intilmay-di. Shuning uchun xam olim kuzatish jarayonida yangi, kizikarli va xadi bilinmagan narsani kurish uchun uz akl-idroki, xotira-si, intuitsiyasi va sezgisining bor ijodiy imkoniyatlarini sa-farbar etadi. Xrr bir fanda ob'ekt hak.ida imkon kadar kuprok. x.ak,k.oniy ma'lumotlar va faktlar tuplash uchun uz kuzatish me-todlari ishlab chikiladi. Kuzatish jarayonida olimning faoli-yati ikki yoklama xususiyat kasb etadi: u ob'ektga nisbatan passiv, kuzatish jarayonini tashkil etish, buning uchun muvofik. shart-sharoitlar yaratashga nisbatan esa faol, ijodiy bo'ladi.

Eksperiment va tajriba — ob'ektni va uning xulk.-atvorini kuzatishni zarur komponent sifatida uz ichiga oluvchi, ammo ob'ektning belgilari, tuzilishi va funksiyalarini urganish maqsadida unga faol ta'sir kursatishni nazarda tutuvchi ilmiy bilish metodlari. Tajriba va eksperimentlar jarayonida olimlar eksperimental moslamalarda ilmiy tadm,ik.ot maqsadlari-ni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni ongli ravish-da yaratadi, modellashtiradi, urganilayotgan hodisaning oqimi-ni uzgartiradi va mazkur tajriba uchun zarur yunalishga bura-di. Eksperiment jarayonida ob'ektning mavjudlik shart-sharo-itlari faol uzgarib boradi.

Eksperiment tadm_ik_otchiga bilish uchun kuzatashga k.aragan-da kengrok. imkoniyatlar ochadi. Olimlar eksperiment utkazib, ob'ektga dadil va ijodiy yondashib, tajriba ob'ektini teran tushunib yetadi, uning xossalarini va ob'ekt mavjud bo'lgan muxitni uzgartiradi.

Kuzatishlar, tajribalar va eksperimentlar jarayonida olin-gan ob'ekt haqida ma'lumotlar puxta kayta ishlanadi va sara-lab olinadi, shundan sung olingan ma'lumotlarni tavsiflash bosqichi boshlanadi. Olingan empirik axborotni tavsiflash - bu ilmiy ijodning uta mas'uliyatli va kizik.arli bosqichidir. Xush, ob'ektning xossalarini k.anday tavsiflash, tavsiflashga K.anday yondashish kerak, tavsiflashda tadqiqotchi k.aysi mezon-larga tayanadi? Bu yerda olimning ijodiy faolligi,

fikrlash uslubi, yuksak darajadagi ilmiy maxorati va umumiy madan pyati, uning xolisligi va ob'ektivligi katta rol uynaydi.

Tavsiflash turlari xilma-xildir.)har bir fan uz tavsiflash turlariga ega bulib, bunda uz tushunchalar apparati va me-todologiyasiga tayanadi. Jumladan, tavsiflashning k.uyidagi turlarini ajratish mumkin: tartibsiz va izchil; tulik. va notu-lik.; sifati va soniga k.arab tavsiflash; tuzilishiga k.arab tavsiflash; funksional, genetik tavsiflash va h.k.

Tavsiflash tavsiflanuvchi xossalarni tizimga solish va turkumlashni nazarda tutadi. Bunda ob'ektning urganilgan xossalarini k.abul k,ilingan tadqiqotdasturi va tamoyillariga muvofik. tartibga solish va dastlabki anglab yetish amalga oshiriladi. Bundan empirik darajada olingan ilmiy ma'lumotlarni yaxshirok. va teranrok. tushunib yetish mak.sadi kuzlanadi. Tizimga solish deganda, masalan, botanikada usimliklarning xossalarini, kimyoda kimyoviy elementlarning xossalarini (D.I. Mendeleevning kimyoviy elementlar sistemasi), mikro-olam kvant fizikasida elementar zarralarning xossalarini tartibga solish tushuniladi.

Shundan sung ob'ektning tavsiflangan xossalari va belgilari turkumlanadi. Mazkur xossalar va belgilar tanlangan yondashuvga muvofik. guruhlariga, turkumlarga ajratiladi. Tur-kumlash tavsiflash usuli sifatida vok.elik hak.ida oddiy tizimga solishga k.araganda kuprok. bilim beradi.

Tushuntirish ilmiy bilish va ijodning tavsiflashga k.araganda yuqori bosqichidir: tavsiflash ob'ekt qanday, qanday tuzilishga ega va k,ay tarzda mavjud degan savollarga javob ber-sa, tushuntirish ob'ektga yanada chuqurrok_ kirib boradi va ob'ekt nega shunday, u yoki bu hodisaning sababi nimada, degan savollarni quyadi. Ijodiy fikrlaydigan tadqiqotchi odatda ob'ektni tavsiflash bilan cheklanmaydi, balki ilmiy tadki-kot ob'ektini tushuntirish va tushunishga yanada chuqurroq kirib boradi.

XX asrning maisur faylasufi, postpozitivizmdagi tan-kidiy ratsionalizm asoschisi Karl Popper tushuntirishning uz notrivial, ijodiy original sxemasini taklif k_ilgan. Boinga kupgina neopozitivistlar va postpozitivistlar k.atori K. Popper xam ilmiy va noilmiy bilimni chegaralash yoki demarkatsiya kilish muammosi bilan

faol shugullangan. Neopozitivistlar bunday demarkatsiya kilishda verifikatsiya (lotin-cha verus - x_akikiy va facere - qilish) atamasidan foydalana-di. Tushuntirish, basharti u faktlar bilan qullab-quvvat-langan bulsa, haqqoniydir. Neopozitivistlarning Vena tuga-ragi vakillari M. Shlik, O. Neyrat, G. Reyxenbah R. Karnap ilmiy bilishning xak.koniyligi vatugriligini tajriba, eksperiment tekshiradi, verifikatsiya kiladi, deb hisoblagan. Analitik falsafa vakillari J. Mur, G. Frege, B. Rassel, L. Vitgenshteyn ham fanda tushuntirish muammosiga shunga yakin nuqtai nazardan karagan. Ammo postpozitivist K. Popper ilmiy bilishni «Verifikatsiya qilish imkoniyatiga emas, balki falsifikatsiya kilish imkoniyatiga demarkatsiya mezoni deb sarash kerak», deb x.isoblaydi.

K.Popper epistemologiyaga ilmiy bilimni boshqa har kan-day bilimdan ajratishni nazarda tutadigan falsifikatsiya (lo-tincha falsificare - salbakilashtirish) tushunchasini kiritadi. Uning fikricha, eksperiment yo nazariyani tasdiklash, mustax.kam-lashga, yo uni falsifikatsiya kilish, bilimning asossizligi, xa-toligini kursatishga kodir. Ilmiy bilimning noilmiy bilimdan farki mana shundadir, zotan, noilmiy bilim ishonch va so-glom fikrga asoslanadi, demak, uni falsifikatsiya kilish mum-kin emas. Binobarin, falsifikatsionizm sub'ektga haqoniy ilmiy bilimni kursatib beradi, ilmiy bilim bilan noilmiy bilim urtasida chegara utkazadi.

K. Popperring ilmiy tushuntirish sxemasiga kura, falsifikatsiya kilish metodi fanga bir muammodan ikkinchi muammoga, teran muammodan yanada teranroq muammoga rivojlanish imkonini beradi. K. Popper konsepsiyasi bo'yicha tuzilgan bi-limning usishi modeli quyidagi kurinishga ega:

- fan muammodan boshlanadi;
- gipotezalar muammolarni ilmiy tushuntirishga xizmat kiladi;
- gipoteza, basharti uni falsifikatsiya qilish mumkin bulsa, ilmiydir;
- gipotezalarni falsifikatsiya k_ilish aniklangan xatolar-ni bartaraf etish imkonini beradi;
- tanqidiy munozara jarayonida yangi va yanada teran muammo-lar va gipotezalar ilgari suriladi;

- muammolar va gipotezalar (nazariyalar)ning teranlashishi ilmiy bilimning barkaror usishini ta'minlaydi.

Poppoerning ilmiy tushuntirish modeli, mox.iyat e'tibori bilan, ilmiy bilishni ob'ektiv x.akikatga asta-sekin, kadam-bakadam (step by step), izchil yakinlashtirish metodi va an'anasi-ni ilmiy ijod epistemologiyasida 1\$ullash demakdir.

Fanda empirik bilimlarni tushuntirish tu shunishning epi-stemologik muammosining k.uyilishiga olib keladi. XX asrda falsafiy germenevtika vakillari V. Diltey, G. Gadamer va M. Xaydegter mana shu muammoni chuk.ur ishlab chikish bilan shugullangan.

Ilmiy bilishda tushunish muammosi ilmiy ijod metodo-logiyasini ilmiy tadk.ik.otning yanada yuqori pogonasiga, fanda kuzatish, tajriba, eksperimentdan bilishning nazariy da-rajasiga kutaradi. Agar empirik darajada biz predmet x.odi-sasini, ya'ni yuzada turgan narsani urgansak, nazariy bilish predmet va x.odisaning mohiyatini tushunib yetishni nazarda tutadi. Mox.iyat esa hodisaning tubida yotadi, tashqi nigoh-lardan yashirin bo'ladi.

Nazariy bilishning maqsadi urganilayotgan ob'ektning konu-ni, konuniyatlarini ochib berishdir. Ilmiy eksperimentlarning natijalarini tavsiflash, tushuntirish, talkin k_ilish nazariy umumlashtirishlarga olib boradi, bilishni x.odisalarni kuza-tishdan ularning mohiyatini tushunib yetish va analizdan utka-zishga yunaltiradi. Hodisalarning mohiyatini bilish - bu ilmiy bilishdagi tushunish demakdir, ya'ni biluvchi sub'ekt tomo-nidan vokelikni uzlashtirishning bilish predmeti yoki ob'ektining ma'no-mazmunini ochib berish va aks ettirishni nazarda tutadigan shaklidir. Tushunish tufayli insonni qurshagan pred-metlar va hodisalar ma'no va mazmun kasb etadi.

Fanda nazariy bilish bilishning umumfalsafiy metodlari: induksiya va deduksiya, analiz va sintez, umumlashtirish va tak.-k.oslash, abstraksiya, analogiya, modellashtirish bilan chambar-chas boglshuur.

Ilmiy bilishning umumfalsafiy va xususiy metodlari va shakllari

Ilmiy bilim olish metoda - induksiya, ya'ni alohida, parcha-langan, tizimga solinmagan ma'lumotlardan umumlashtirish-larga, ilmiy gipotezalar, nazariyalar, konuniyatlar tuzishga utish yakka ilmiy faktlardan ularni tushunish va tushuntirish-ga utishni ta'minlayda. Yangi davr falsafasi va fanining asos-chisi, ingliz mutafakkiri F.Bekon uz ijodida induksiya metodi-ni faol rivojlantirdi. U fanning tabiat ustidan insonning hukmronligini oshirish qobiliyatini bilimning maqsadi deb e'lon qildi. Ilmiy ijodda mushoxada yuritish va akliy xulosa chikarish xususiydan umumiy, yaxshi rivojlanmagan ilmiy bi-limdan teran, yanada rivojlangan ilmiy bilim sari induktiv xulosa chikarishga asoslanadi.

F.Bekondan farkli ularok,, XVII asrda yashab utgan buyuk fransuz faylasufi va olimi R.Dekart ilmiy bilishda deduksiyaga yoki nazariylashtirish, umumiydan xususiyga qarab mushoxada yuritish shakliga alox.idae'tiborni karatdi. Lotincha deductio atamasi «keltirib chikarish» degan ma'noni bildiradi. Episte-mologiyada va fanda kupincha deduksiya deganda nazariyadan fak-tlarga utish, umumiy (universal) ilmiy tasavvurlardan xususiy mulox.azalarni keltirib chikarish tushuniladi. Binobarin, metodologiyada deduksiya deb ilgari olingan umumlashtiruvchi bilimlardan yangi bilimlarni mantikiy keltirib chikarishga aytiladi.

Deduksiya ilgari olingan bilimda yashirin axborot resursla-rini aniklash imkonini beradi. Masalan, astronom V. Gershel I. Nyutonning butun olam tortishish konunidan deduktiv akliy xulosalar chikarish orqali Neptun sayyorasi mavjudligi va uning joylashgan urnini bashorat k.ilgan. Deduksiya yordamida xuddi shu konundan Yer va Oy gravitatsiya maydonlarining uzaro ta'siri natijasi sifatida dengiz suvining bostirib kelishi va kaytishi nazariyasi olingan.

Ilmiy ijodda deduksiyadan foydalanish darajasi u yoki bu muayyan fanning rivojlanganligi, yetukligi kursatkichi bulib xizmat kiladi: fan gipotezalar, nazariyalar, ilmiy qonunlar va tizimlar, ta'riflar, turkukshashlar shaklida haqqoniy bilimning yetarli darajada katta yigandisiga ega bo'lgan taqdirdagi-na deduksiyadan keng foydalanish mumkin.

Real ilmiy ijod jarayonida induksiya va deduksiya uzaro bog'lanadi x.anda bir-birini tuldirdi. Bundan tashkari, ular analiz va sintez kabi umumfalsafiy va umumilmiy metodlar bilan ham boglangandir.

Ilmiy tadqiqotning barcha bosqichlarida analiz va sintezdan foydalaniladi. Analiz - bu bilish predmetini fikran qismlarga ajratish, uning aloqalarida tomonlari, xossalari, belgilarini, ular ortasidagi munosabatlarni ajratish, ob'ektning mohiyatini anglab yetish masalasida uning tur xillarini va hokazolarni aniqlash demakdir. Sintez - bu predmetning bilingan tomonlari, belgilari, xossalari va hokazolarni fikran birlashtirish, ob'ektning tuzilishini uning barcha aloqalari, munosabatlari, rivojlanishi vafaoliyati-ga boglab tushunib yetishdir.

Ilmiy bilishda analiz nima va qanday masaladan analizdan utkazilayotganiga qarab tur xil shakllarda kechadi.

Analizning quyidagi asosiy shakllari tafovut etiladi:

- yaxlit predmetni qismlarga ajratish, qismlarning tuzilishi, funksiyalari va alokalarini urganish;
- predmetning belgilari, xossalarni ajratish, ular ortasidagi munosabatlarni urganish;
- predmetlarning tuplamlarini kichik tuplamlarga va guruhlarga ajratish, tuplamning tur bir elementi unini x.anda kichik tuplamlar va guruhlar ortasidagi munosabatlarni aniqlash.

Analizsiz sintez, sintezsiz esa analiz bulmaydi. Sintez analiz natijalarini umumlashtiradi. Olimning chinakam ijodiy qobiliyati va mahorati analiz jarayonida olingan ilmiy axborotdan bilimlarni uziga xos tarzda, turan va yangicha sintez kila olishida kurinadi. Bilishda analiz va sintez sub'ektni urganilayotgan ob'ektning mohiyatiga yakinlashtiradi, uning mavjudligi konuniyatlarini aniklaydi, ob'ekt-dagi zaruriylik va tasodifiylikni, individuallik va umumiylikni ajratadi, ob'ektni uning rang-barang ichki va tashqi aloqalarida, murakkab, dialektik jihatdan ziddiyatli birlik sifatida kurib chikadi.

Induksiya va deduksiya bir tomondan hamda analiz va sintez ikkinchi tomondan ilmiy bilishda tug'ri umumlashtirish va xulosalar chikarish,

urganilayottan ob'ektlarni u yoki bu mezonlar va belgilarga qarab tavsiflash, ob'ekt haqidagi bilimlarni turkumlash, tizimga solish, tartibga keltirish va anglab yetish imkonini beradi.

Bundan tashkari, ilmiy bilish va ijodning mazkur metod-lari yuksak darajada abstraktlashtirish imkonini beradi, falsafiy va umumilmiy tushunchalarni shakllantirishga kumaklashadi. Abstraktlashtirish deganda bilish ob'ektini teran va izchil urinish uchun uni fikran ajratish tushunila-di. Iqtisod nazariyasining tovar, bozor, qiymat, ishlab chikarish usuli, ishlab chikaruvchi kuchlar, ishlab chikarish munosabatlari, rakobat, daromad singari tushunchalari abstraktlashtirishning mahsuli va kurinishlaridir. Abstraktlashtirish tabiiy, texnikaviy, ijtimoiy va gumanitar fanlarning bo-shqa sohalariga ham xosdir. Mantik, va matematika eng «abstrakt» fanlar jumlasiga kiradi.

Formal mantik. fikrlashning sof shakllarini urinadi. Bunda u mazkur fikrlash shakllarida aks etuvchi real alokalar va tuzilmalarga e'tibor bermaydi. Matematika esa predmet-larning moddiy mavjudligidan ajratib olingan miqdoriy munosabatlari va tizimdagi alokalarini urinadi.

Ilmiy ijodda analogiya deb ataluvchi nazariy metod katta rol uynaydi. Analogiya tak.k. o'slash va modellashtirish bi-lan uzviy bog'lik.. U yoki bu jarayon, yoki hodisani urinishda uning boshk.a fan sohasidagi analogi, ya'ni uxshashini to-pish evristik jihatdan muhim va unumlidir. Masalan, E.Re-zerford Quyosh sistemasining tuzilishi bilan OFHP, musbat zaryadli yadro va uning atrofida aylanuvchi yengil, manfiy zaryadli elektronlardan tashkil topgan atom tuzilishi urta-sidagi analogiya metodiga tayanib, metall folgada alfa zarralarning tark.alishi haqidagi uz kashfiyotini yaratdi, bu kashfiyot esa, uz navbatida, kvant fizikasining jadal ri-vojlanishiga turtki berdi.

Urganilayotgan ob'ektning u yoki bu tomonlari bilan uning modeli urtasida analogiyalarning mavjudligi bilishning tur-laridan biri - modellashtirishning rivojlanishiga olib kel-di. Modellashtirish - bu bilish ob'ektining har xil modellari yaratish va undan ilmiy ijodda foydalanish imkonini beruvchi ilmiy metoddir.

Masalan, radiotexnikada real matematik mayatnik va uning uygun mexanik tebranishlari oddiy tebranma konturning modeli va analogidir.

Modellashtirish metodida ob'ekt urniga uning modeli urganiladi. hozirgi zamon iqtisod nazariyasida bozorning rivojlanishi, talab va taklif, tovarning ishlab chikaruvchidan iste'molchiga tomon xarakatlanishi va hokazolarning sifat jihatidan xar xil modellaridan foydalaniladi. Bundan tashkari, hozirgi zamon iqtisod nazariyasida Amerika, Shveysiya, Yaponiya modellari, Gonkong, Singapur, Tayvan, Janubiy Koreya singari yangi industrial mamlakatlarning iqtisodiy modellari mavjud.

Jumladan, Amerika modeli tadbirkorning shaxsiy tashabbusini ragbatlantirish, uning ijodkorligi, tavakkalchiligi va tovar ishlab chikaruvchilar urtasida keskin rakobat, omma-ni mehnatning yuksak darajada unumdorligi va buning nati-jasi uparok., yuksak turmush darajasiga erishishga yunaltirish asosiga k. urilgan. Iqtisodiy rivojlanishning yapon modeli mehnat unumdorligining usishidan aholi turmush darajasining ma'lum darajada ortda k. olishi bilan ta'riflanadi. Buning xisobiga mahsulot tannarxini kamaytirish va uning raqobatbardoshligini keskin oshirishga muvaffak. bulinadi. Ikkala model ham iqtisodiy rivojlanishda minimum resurslar va maksimum malaka talab k. iluvchi eng yangi texnologiya-lar amalga joriy k. ilingan sohalarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beradi.

Shvedcha «aralash» iqtisod modeli alohida e'tiborga molikdir. U kuchli ijtimoiy siyosat bilan fark. kiladi. Bunda jami mulkning atigi 4% iga egalik kiluvchi davlat milliy daromadning kariyb 70% ini davlat byudjeta orqali kayta taksimlaydi, davlat xarajatlarning yarmi esa ijtimoiy muammolarni X.al kilishga yunaltiriladi.

Uzbekiston Respublikasi Prezidenta I.A. Karimovning asarlarida bozorga utirishning «uzbek modeli» ijodiy ishlab chikilgan. Ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodi mazkur modelning negizini tashkil etadi. Bunda utirish davrida davlat faol rol uynashi, bozorga asta-sekin, tadrijiy xarakat kilish, Uzbekiston aholisining

ijtimoiy muammolarini bi-rinchi uringa kuyish nazarda tutiladi. Bu model butun jaxon-da yalpi e'tirof etildi va mutaxassislar tomonidan yuksak baholandi.

Tizimli yondashuv fan metodologiyasida katta evristik, ijo-diy-kreativ ahamiyatga ega. Uning asosiy vazifasi murakkab ob'ektlar - xar xil tip va turkumga mansub tizimlarni urga-nish va tuzish metodlarini ishlab chikishdan iborat. Biologiya, psixologiya, ijtimoiy fanlardagi kup pogonali, ierarxik, uzi-ni uzi uyushtiruvchi ob'ektlarni bilish, urganishda mazkur me-todsan, ayniksa, keng vasamarali foydalaniladi.

Tizimli yondashuvning muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

- bilish ob'ektini yaxlit, murakkab uyushgan tizim sifatida kurib chikshp;
- tizimning umumlashtirilgan modelini, uning aloxida kis-mlari va jixatlarining modellarini tuzish;
- tizimlar nazariyalari xamda xar xil tizim nazariyalari va ishlovlarining tuzilishini va samaradorligini urganish.

XX asrning ikkinchi yarmida epistemologiyada tizimlar umu-miy nazariyasi vujudga keldi. U tizimli yondashuv goyalari va prinsiplarining bilishda muayyanlashtirilgan mantikiy-meto-dologik ifodasi bunda. Tizimlar umumiy nazariyasi muayyan ta-biiy, texnikaviy, ijtimoiy fanlarning urnini bosmay, xar qanday tizimli tadqiqotning umumiy metodologik prinsipla-rini ta'riflab beradi.

Mazkur ma'ruzada kurib chikilgan, sintezda, dialektik bir-likda, murakkab uzini uzi rivojlantiruvchi tizim sifatida olingan ilmiy bilishdagi ijod jarayonining empirik va naza-riy shakllari, metodlari va usullari bizga ilmiy ijodning xrzirgi zamon metodologiyasining umumiy manzarasini beradi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ijodning mysi shakllarini bilasiz?
2. Ilmiy metod deganda nimani tushunasiz?
3. Bilimning empirik va nazariy darajalarining birligi va farki nimada?
4. Ilmiy bilishning yana qanday shakllari va metodlarini bilasiz?

5. Ilmiy bilishning umumfalsafiy va xususiy metodlari va shakllarining farki nimada?

ILMIY PROGNOZ KILISH IJODIY JARAYON SIFATIDA

Ilmiy bilishda prognoz qilishning urni

Kursimizningavvalgi mavzularini kurib chikishda biz in-son ijodiga jamiyatda va tabiatda yangi, ilgari kurilmagan nar-salarni yaratash borasidagi faol uzgartirish faoliyati deb ta'rif berdik.

Bilishning ijodiy faolligi, bizningcha, ikki uzaro boglan-gan intensiyaga, bilish jarayoni sub'ekta bo'lgan insonning ijodiy va bilish k,obiliyatlarini ruyobga chikarishning ikki yunali-shiga ega. Birinchidan, bilish jarayonidagi ijod ilmiy bilimni muttasil tuldirish, oshirishga yunaltirilgan, ikkinchidan, ijodiy faollik mavjud ha*;koniy bilim asosida tabiat va ja-miyatning bulgusi rivojlanishini ozmi-kupmi anik, bashorat kilish imkonini beradi.

Inson akl-idrokining kelajakni bashorat qilish k,obiliya-tida inson aklining evristik, ijodiy-bunyodkor kudrati tula qonli namoyon bo'ladi.

Insoniyat hamisha kelajakni bashorat k.ilishga ex.tiyoj sez-gan. Xozirgi zamon postindustrial axborot jamiyati jadal va ziddiyatli rivojlanayotgan bugungi kun sharoitlarida bunday extiyoj yanada ortdi. Xayotning uzi, ijtimoiy taraqqiyot, fan, texnika, zamonaviy texnologaya va ishlab chikarishlarning hozirgi zamon darajasi kelajakni x.arxil tomondan urganish,tadqiq kilishga majbur etmokda.

Tabiat va jamiyat rivojlanishining ob'ektiv qonunlari va tendensiyalarini ijodiy bilish asosidagina kelajak x.odisalarini to'g'ri bashorat k.ilish mumkin. Tabiat va jamiyat konunla-rini ijodiy uzlashtirish olam va inson x.akidagi bilimlari-mizdan ijtimoiy tarak.kiyot manfaatlarida foydalanish imkonini beradi.

Moddiy olamning kelajakdagi taraqqiyotini prognoz k.ilib biz insonning utmish va bugungi kun x.akidagi mavjud x.ak.k.oniy bilimini noma'lum kelajakka ongli ravishda ekstrapolyatsiya k.ilamiz. Bunga bizning bilish sohasidagi ijodiy qobiliyati-miz, kuzatuvchanligimiz, mantiliy fikrlash x.amda kuzatish va mushohada yuritish ork.ali tugri va teran xulosalar chik.arish **QOBILIYAT**imiz kumaklashadi.

Masalan, kup aerlik x.ayotiy tajriba asosida odamlar u yoki bu tabiiy x.odisalar kundalik x.ayotda k.onuniy takrorlanishi-ni anglab yetdilar x.amda ularni bir-biriga tak.K.oslashni urgan-dilar. Jumladan, k.aldirgochlar yer bagirlab uchea, ob-xavo tez orada yomonlashishini kutish kerakligi ma'lum. Oddiy odamlarning kuzatuvchanligi, ijodiy zexni kelajakni prognoz bilishning uziga xos shakli - xalk. alomatlarida uz ifodasini topadi. Odamlar ob-x.avodagi uzgarishlarni va ularning hosil -ga ta'sirini aerlar osha kuzatib keladilar, x.ayvonlar, k.ush-lar, k.urt-k.umurskalarning ma'lum xulk.-atvoriga, kunchik.ar va kunbotar max.allarda k.uyoshning tusiga, bulutlarning shakli, shamol yunalishi va x.okazolarga k.arab ob-havoni bashorat K,ilishga odatlanganlar. Tabiiyki, bunday prognozlarning anik.lik darajasi uncha katta emas, ammo fanning prognostik funksiyasi, ilmiy bashorat aynan insonning kundalik x.ayotiy tajribasidan va kuzatuvchanligidan, sodir bulayotgan x.odisa-larni ijodiy analizdan utkazish, tushunib yetish qobiliyatidan kelib chik.adi.

Antik Gresiya falsafasi va fanining asoschisi Fal yee milod-dan avvalgi VI aerda k.uyosh tutilishini tugri bashorat kilgan. Urta aerlarning buyuk astronomi al-Fargoniy uzok, kuzatishlar va x.isob-kitoblar asosida uzining «Zij» asarida samo sox.asi-dagi yuzlab yulduzlarning x.olatini tugri aytib bergan. Fan ta-rixidan bunday anik, va tugri prognoz kilishga misollarni ko'plab keltarish mumkin.

Ijtimoiy tarakdiyyotningxilma-xil jarayonlari ziddiyatli rivojlanishini kuzatib, ijodkor inson aerlar osha jamiyat-ning, uning turli sox.alari: siyosat, ik.tisod, ma'naviyat va ma-daniyatning kelgusi rivojlanishini bashorat k.ilishga intilib kelgan. Masalan, x.ozirgi zamon iqtisod nazariyasi ik.tisodiy prognoz kilishda matematika, ex.timollik nazariyasi, matematik va iktasodiy statistika, kompyuterlarda murakkab x.isob-kitoblar k.ilish va x.okazolarning kuchli tadk.ik.ot apparati-dan foydalanadi.

Ijtimoiy tizimlarning rivojlanishini ilmiy prognoz va bashorat k.ilish uzining teranligi, murakkabligi va betakrorligi bilan ajralib turadi. Jamiyat tarixida ikkita mutlaqo bir xil hodisa bulishi mumkin emas. Xar bir tarixiy hodisa uziga xos va betakrordir. Kishilik jamiyatining tarixiy ta-rak.kiyotini prognoz kilishda ilmiy

ijodning vazifasi tarixiy faktlarning tartibsiz uyumi orasidan takrorlanuvchi x_olatlar, k.onuniyatlarni aniklash, ajratib olish, x.odisaning moxiyat-mazmunini aniklash va tushunishga xarakat kilish, sung tugri va teran ijtimoiy prognoz k,ilishdan iboratdir. To'g'ri bashorat va prognoz kilish uchun tugri axborotga ega bulish-ning uzi kifoya emas, axborotni mayorat bilan, ijodiy k,ayta ishlash, uni umumlashtirish, abstraktlashtirish, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, kuzatish va tizimga solish singa-ri umumilmiy metodlar bilan olingan ma'lumotlar bilan tuldirish zarur.

Ilmiy bilishning barcha shakllari, usullari va vositala-ridan foydalanib fanda ilmiy bashorat kilish ilmiy bilishning zarur jixatlaridan biridir. Shu bilan bir vaktida, ta-biat va jamiyat rivojlanishining teran mohiyati, k.onuniyat-larini bilmasdan tugri, unumli ilmiy bashorat kilish mumkin emas.

U yoki bu x.odisaning moxiyatini, uning mavjudligi va rivoj-lanishini boshqaruvchi konunlarni bilish ilmiy prognoz va bashorat kilishning epistemologik negizini tashkil etadi. Ilmiy bashoratning teranligi va tugriligi darajasi predmetlar, jarayonlar, hodisalarni bilishning teranligi darajasiga be-vosita bogliqdir. Xozirgi zamon postpozitivistik falsafasi-dagi tankidiy ratsionalizm yunalishining yirik vakili K. Pop-per kelajak bizga kay darajada boglik, bulsa, uni shu darajada bashorat k.ilish mumkin, degan edi. U yoki bu jarayonning moxiya-tini va sodir bulishi k.onuniyatlarini, muayyan tarzda—jarayon sodir bulishining tarixiy shart-sharoitlarini bilgan xolda, uning rivojlanish tendensiyalari va yakuniy natijalarini bashorat va prognoz kilish mumkin.

Fanda yangi bilimni ijodiy, teran bashorat k.ilishning yorq,-in misollarini kurish mumkin. Masalan, buyuk ximik D.I. Mendeleev kimyoviy elementlarning davriy sistemasini kashf etib, usha davrda fanga ma'lum bulmagan kupgina elementlarning xossalarini tavsiflab berdi. «Davriy konun ma'lum vo-kelikka javob beribgina k.olmay, kimyoviy elementlarning noma'lum moxiyatini ozgina bulsa xam tushunish imkonini bera-di», deb yozgan edi u¹.

Yangi elementlarning xossalarini ilmiy bashorat k.ilishda D.I. Mendeleev ilmiy bilishning taqqoslash metodidan ijodiy va juda samarali foydalandi.

Elementlarning xossalari davrlar bo'yicha tak, K. oslab, u galliy, germaniy kabi elementlarning mavjudligini bashorat kildi, uranning atom ogirligini ikki baravar oshirdi, indiy va seriyning atom ogirliklariga aniklik kiritdi, kimyo fanining keyingi rivojlanishi jarayonida tula tasdiqlangan boshqa bir qator bashoratlar kildi.

Fanda bir olim tomonidan kilingan prognoz kupincha boshqa olimlarning tajribasi va eksperimentidauz tasdigani topa-di. Masalan, XIX asrning urtalarida ingliz fizigi D.K. Maksvell uzi yaratgan elektrodinamika negizida radiotulkinlarning xamda kattik, jismlar va gazlarga yoruglik bosimining ta'siri hodisasi mavjudligini bashorat kildi. Oradan bir necha un yil utgach, boshqa fiziklar Maksvellning mazkur bashorati-ni tasdikladi. G. Gers radiotulkinlarni kashf etdi, P.N. Lebedev esa yoruglik bosimini eksperimental anikladi. Natijada Maksvellning bashoratlari anik, tasdiqlangan ilmiy faktlar-ga aylandi va ilmiy bilim tizimidan urin oldi.

XX asrning boshida E.Rezerford atomning yadrolar va ular atrofidaaylanuvchi elektronlardan iborat tuzilishi modeli-ni yaratdi. Uz modeli asosida u 1920 yili yangi elementar zarra - neytronning mavjudligini bashorat kildi. Oradan 12 yil utgach, bu zarralarni D. Chedvik va F. Jolio-Kyuri eksperimental anikladi. Ilmiy bashorat prognozlar va fanda prognoz kilish bilan chambarchas boglik.. «Prognoz» tushunchasi grekcha «prognosis» ata-masidan kelib chik. kan bulib, bashorat kilish, biror narsani oldindan kura bilish degan ma'noni bildiradi. Maxsus fan soxasi- prognostika xaedoniy ilmiy prognozlar tuzish metod-larini urganadi.

Ilmiy bilishda prognoz kilish -urganilayotgan ob'ektning rivojlanish istikbollarini maxsus urganuvchi ilmiy bashorat shakli prognoz bilan bog'liq. Ijtimoiy fan sohalari: sotsiologiya, politologiya, iktasod nazariyasida prognoz kilish ijtimoiy boshqaruvning fundamental negizini tashkil etadi va har xil ijtimoiy tizimlarning extimol tutilgan rivojlanishi ssena-riylarini rejalashtirish, dasturlashtirish, loyuqalashtirish-ni uz ichiga oladi. Masalan, mintaqani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning prognostik modelini tuzish dolzarb vazi-fadir. Ijtimoiy-

iqtisodiy ilmiy prognozlar k.iska va urta muddatli istikbolga tuziladi xamda asosan sanoat, kishlok, xujaligi, infratuzilma, yonilti-energetika kompleksi va xokazolarni optimal boshqarish yullarini aniklash bo'yicha taktik xususiyatga ega bo'ladi.

Uzok, muddatli prognoz kilish davlat yoki mamlakatlar guru-xini rejalashtirish va boshqarish bo'yicha strategik vazifalar-ni olisistik.bolgabelgilaydi. Xozirgi globalistika davrida demografik jarayonlar, ekologik istikbollar, ozik,-ovkat ta'-minoti va shu kabilarni, umumbashariy mikyosdagi ijtimoiy hodisalarni global prognoz kilish haqida gapirish urinli bo'ladi. Jumladan, 2002 yilning sentyabrida Janubiy Afrikaning Yoxannesburg shax_rida BMT xomiyligida sayyoramizdagi ekologik axvolni yak,in 10 yilga prognoz kilish bo'yicha barcha dav-latlarning sammita bulib utdi.

Ilmiy ijodda izlanish yusinida prognoz k,ilish va normativ prognoz kilish tafovut etiladi.

Izlanish yusinida prognoz kilish rivojlanishda kuzatila-yotgan tendensiyalarni davom ettirish, kelajakka ekstrapolyatsiya K,ilishga asoslangan. Bunda ijtimoiy boshqaruv vositalari mazkur tendensiyalarni yakin kelajakdauzgartirmaydi, deb shartli ravishda faraz qilinadi. Izlanish yusinida prognoz kilish, ilmiy izlanish, urganilayotgan ob'ektning monitoringini yuritishning maqsadi istikbolli muammolarni xamda ularni hal qilishning makbul, eng samarali va tejamli yullarini aniqlashdan iborat.

Ijtimoiy fanlarda normativ prognoz kilish oldindan yuk-langon mezonlar asosida ob'ektning makbul xolatiga erishish mak.sadida muammolarni xal qilishning yullarini aniklashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy x.odisalarni prognoz qilishning mazkur shakllari-ni taedoslash boshqaruvning samaradorligini oshirish uchun tav-siyalar va metodik kursatmalar ishlab chikish imkonini beradi.

PEDAGOGIKA VA FAN TARIXIDA IJOD MUAMMOLARINING ISHLAB CHIQILISHI

Antik davr. Insonning atrof-olamni uzgartirish, ob'ektiv reallikning mavjudligi va rivojlanish qonuniyatlarini bilish borasidagi ijodiy faolligining ildizlari hozirgi zamon odamlarining ibtidoiy ajdodi kundalik amaliyot va shaxsiy x.ayotiy tajriba asosida borlikning tuzilishi, inson paydo bulishi bilan butun dunyo ikki kismga ajralgani: birinchi olam - «Men» deganda sub'ektning ichki, ma'naviy dunyosi, uning goyalari, fikrlari, istaklari, um id va fantaziyalari, orzu-umidlari tushunilishi, ikkinchi olam - «Men emas» deganda insonga botik, bulmagan X.olda ob'ekt sifatidauzining ichki qonunlari va koidalariga kura yashaydigan ulkan, sirli, dushmanonakayfiyatdagi, joziba-li atrof-olam tushunilishi haqida sodda va mubham taxminlar yuzaga kela boshlagan kadimgi davrga borib takaladi.

Bunday ajratish vakt utishi bilan avval ibtidoiy jamiyat-da, sung esa antik quldorlik, sinfiy jamiyatida sub'ekt-ob'ekt murakkab tizimining vujudga kelishiga olib keldi. Bu munosa-batlar orasida insonning uzini qurshagan olamni bilishi mu-X.im rol uynay boshladi.

Fan, ilmiy bilish va ijodni uz ichiga olgan ijtimoiy institut sub'ektning tobora ortib borayotgan ijodiy bilish faolligini k.ondirishga xizmat kila bopshadi. Antik davrda vujudga kelgan fan inson faoliyatining atrof-mux.it haqidagi tug'ri, x.ak.k.oniy, ob'ektiv bilimlarni ishlab chiqish va nazariy tar-tibgasolish, saklash, olish va ular dan foydalanish borasidagi uziga xos sox.asidir. Ijod - bu ilmiy bilishning mox.iyatini ifoda etuvchi immanent xossa, uning ajralmas jixatidir, zo-tan, ilmiy ijodning maqsadi-tiriklik qonunlarini, vokelik jarayonlari va hodisalarining uzgarishi, rivojlanishi, vujudga kelishi va yukolishini kuzatish, kashf etish, tushuntirish va bashorat kilishdir.

Ilmiy ijodning ildizlari bevosita inson amaliyotiga borib takaladi. Inson amaliyoti deganda ijodiy, ma'rifiy va uzgartiruvchi jix.atlarning birikmasi tushuniladi(Antik davrdagi dastlabki bilimlar amaliy xususiyatga ega bo'lgan va inson faoliyatining muayyan turlariga doyr metodik kullanmalar va kursatmalar vazifasini bajargan. Usha dav-rda 1qadimgi Shark, mamlakatlarida (Bobil, Misr,

Assiriya, Xitoy, Hindistonda) juda kup bilimlar jamlangan. Mazkur bilimlar fanning shakllanishi uchun muhim zamin hozirlangan. Usha davrda ijod, bilish mifologiya bilan uzviy bog'lik bo'lgan. Mifologiyada inson ilk bor atrof-olam haqidagi ta-savvurlarning yaxlit, kamrovli tizimini yaratishga xarakat qilgan. Ammo bu primitiv, yarim fantastik, mifologik ta-savvurlar tom ma'nodagi ilmiy ijoddan ancha uzok, edi) Bu-ning ustiga, fanning shakllanishi mifologik goya va tasavvurlarning kattik, tankid kilinishi, inkor etilishi va chetga surilishi, mifologik dunyokarashning yemirilishi bilan bog'lik, edi.

Antik davr sharoitlarida fanning vujudga kslishi uchun ma'lum ijtimoiy shart-sharoitlar: ishlab chikarish va ijtimoiy munosabatlar ancha yaxshi rivojlangan bulishi talab etil ar -di, zero, bu akliy va jismoniy mehnatning ajralishiga olib kelar, fanda surunkali ijod bilan shugullanish imkonini be-rardi. Fan turli xalklar va madaniyatlarning yutuklarini ong-li idrok etishni nazarda tutadigan boy va keng madaniy an'ana-lar negizida shakllana boshladi.

Bunday shart-sharoitlar miloddan avval Kadimgi G re si yada ham vujudga keldi. Bu yerda, mifologiyadan farkli ularok., vo-kelikni tabiiy asoslar orqali tushuntiruvchi birinchi n az ariy tizimlar yuzaga keldi. Mazkur nazariy tizimlar naturfalsafa goyasini il gari surardi, chunki fan va falsafani uzida mujas-samlashtirgan edi. Bu nazariy bilim tizimlari ob'ektivlik va mantikan ishonarlilik asosiga *surshuqh*

Qadimgi Gresiya fan i tabiat, jamiyat va tafakkur konuniyat-larining ilk tavsiflarini berdi. Tabiiyki, bu tavsiflar kup jihatdan nomukammal va sodda edi, ammo shunga karamay, ular epistemologiyada katta rol uynadi, chunki fikrlash faoliyatiga umuman dunyoning tuzilishiga taadlukli bo'lgan abstrakt tushu n-chalar tizimini amalga kiritdi] borlikning ob'ektiv, tabiiy konunlarsh qidirishni ilmiy ijodning barkaror an'anasiga aylantirdi va material ni bayon etishning dalillashga asoslan-gan usuliga asos soldiki, bu ilmiy bilimni tuzish ichki manti-ganing negiziga aylandi.

Qadimgi Gresiyada tarixan birinchi naturfalsafa maktabi miloddan avvalgi VII-VI aerlar oraligida Miletida - greklar-ning Kichik Osiyodagi yirik koloniyasida

vujudga keldi. Fales (miloddan avvalgi VII aerning oxiri VI aerning birinchi yarmi), Anaksimn (miloddan avvalgi 528-524 yillar atrofida vafot etgan), Anaksimandr (taxminan miloddan avvalgi 610 yildatu-galغان) Milet maktabining vakillari edil,

Fales uz ijodida amaliy ko'nikmalarni tabiatni chuk.ur urganish bilan birlashtirdi. U savdogar va sayox_atchi bulib, Shark. mamlakatlarining bilimlar tizimi bilan yaxshi tanish edi. Fales greklarning Kichik Osiyodagi koloniyalarini fors-larning istilosi tax_didiga karshi ittifok.k.a birlashtirish goyasini ilgari surdi. U miloddan avvalgi 589 yilda uzining astronomiya soxasidagi bilimlarini ishga solib, k,uyosh tutili-shini bashorat kildi va Gresiyada dovruk. k.ozondi. Fales barcha mavjudotlar qandaydir birlamchi namlikdan yoki suvdan bino bo'lgan deb faraz k.ilar edi. Falesning karashlari - sodda ma-terializmdir.

Anaksimandr ustozl Fales kabi olamning tuzilishi, geografiya, mexanika, fizika, hayot va insonning kelib chikishi masalalari bilan shugullandi. Anaksimandr ilmiy ijodi-ning max.suli «Tabiat x.akida» asari bulib, undan bizgacha faqat bir nechta kichik parchalar yetib kelgan. Anaksimandr birinchi bulib jugrofiy xaritalar tuzdi va ilk fazoviy glo-busni yasadi. Anaksimandr olam cheksiz noanik, birlamchi mod-da bilan tula, degan farazni ilgari surdi. Bu moddani u «apeyron» («cheksiz») deb atadi. Uning fikricha, Yerda x.ayot serbalchik, dengiz tubida vujudga kelgan, barcha tirik mavjudotlar- baliklar, qushlar, xayvonlar dengiz tubidagi bal-chiqdan bino bo'lgan edi.

Anaksimn xavoni birlamchi moddadeb kursatdi.)havo siy-raklashib olovga aylanadi, k_uyuklashib esa sekin-asta suvga, yerga va nihoyat, toshlarga aylanadi. Havo moddaning birlamchi asosigina bulib kolmay, xayot va ruhiyat manbai xamdir: inson ruxi - bu xavoning «nafasi», epkinidir. Anaksimn umumiy uzgaruvchanlik xaqidagi tasavvurdan kelib chikdi: barcha mod-dalar xar xil shakllarga kirishga, hamma joyda ta'sirga kiri-shadigan k.uyuklashish va siyraklashish jarayoni orqali zarra-larni birlashtirish va ajratishga kodirdir.

Shundan sung falsafiy va ilmiy qarashlarni efeslik Geraklit rivojlantirdi (miloddan avvalgi 530-470 yillar). Uning fikricha, muttasil uzgaruvchi olamning

negizi olovli-gicha k.olar, dunyoni «logos», ya'ni qonun, zarurat boshqarar edi. Parmenid Geraklita ing karashlari va goyalarini tankid kilib, original ontologiya yoki borlik. x.akidagi ta'limotni rivojlantirdi; Zenon uzining aporiyalari va isbotlari bilan x.ara-katsizlik va harakatning nisbiyligini, ularning uzaro alo-k,asi va birligini kursatib berdi. Suqrot uzining falsafa tabiatni shunchaki ilmiy kurib chikmaydi, falsafa qanday yashash kerakligi x.akidagi ta'limotdir, degan uziga xos va te-ran goyasini ilgari surdi. Sukdeotning fikricha, inson faqat uz XJKMH ostidagi narsalarni bilishga kudir bulib, tashki tabi-at ham, olam ham emas, ruh insonning hukmi ostida edi,' Shu-ning uchun ham inson faqat rux. x.akida x.ak.qoniy bilimga ega bulishi mumkin, bilishning asosiy vazifasi esa uzini uzi bi-lishdir: «uzingni uzining bilgin». Uz etikasida Suk.rot insonning xulk.-atvori botirlik va ezgulik tushunchalari bilan bel-gilanmaydi, donishmandlik esa bu mukammal bilim, oliy fa-zilatdir, deb kursatdi.

GModdaning atom tuzilishi nazariyasini yaratgan Levkipp va Demokrit odamlar b il im i va dunyokarashini rivojlantirishga ulkan x.issa k.uııdı. Levkipp dunyoda x.amma narsalar mayda aj-ralmas zarralar_(atomlar) va bu shliklardan tarkib topgan, degan goyani ilgari surdi. Demokritning fikricha, barcha atomlar bir-biridan shakli, tartibi va x.olatiga kura fark. kilar edi. Bunday boshlangich tafovutlar barcha kuzatiluvchi tafovutlar asosida yotadi va ularning birortasi x.am sababsiz bulmaydi/ Shunday k.ilib, atomistikadan universal sababiyatni e'tirof etish goyasi kelib chikadi: Demokrit sababsizlikni inkor etadi va vokepikning xar qanday x.odisasi ta'sir kursatuvchi sabab tufayli sodir bo'ladi, deb kursatadi qadimgi Rim faylasufi Tit Lukresiy Kar atomlar haqidagi ta'limotni rivojlantirdi va uzining «Narsalar tabiati x.akida» nomli ulmas dostoni-ni atomistik, kazual va materialistik falsafaga bagishladi.

(Antik dunyokarashda miloddan avvalgi V asrgacha sodda materializm yetakchilik k.ildi. Platon (miloddan avvalgi 427-347 asrlar) uz dunyoni tushunishini materializmga karshi k,uydi. Buning asoslarini u usmirlik paytida uz ustozi Suk.rotndan olgan edi- Platonning ta'limotiga kura, xissiy narsalar olami chinakam borlik. olami emas: x.issiy narsalar tinymsiz vujudga keladi va xalok

boʻladi, x.arakatlanadi va uzgaradi, ularda mu-stax.kam va xakikiy x.ech narsa yuk.. Akl bilan idrok etiladigan tanasiz, sezgisiz shakllar narsalarning asl mox.iyati, ularning sabablaridir. Bu sabablarni Platon turlar («eydoslar») deb atadi. Eydoslar deganda x.issiy narsalarning sabablari va na-munalari, xissiy idrok etiladigan olamdagi mavjudotlar in-tiladigan mak.sadlar, narsalarning u mumiy asosi xak.idagi tu-shunchalar, goyalar tushuniladi.

Platonning bilish nazariyasi juda kizikarlidir. Uning fikricha, bilim eslatish demakdir: ulmas rux. tana k.obigiga kirib joylashgunga kadar chinakam borlikni kuzatadi, ammo tana k.obigiga kirib joylapganidan sung bilgan x.amma narsasini unuta-di, shundan keyingi bilish ilgari bilingan, ammo unutilgan narsalarni eslash demakdir.

Platonning fikricha, kundalik tasavvurlarda yoki karash-larda zoxir ziddiyatlarni aniklash orqali ijodiy fikrlash san'-ati «dialektika» san'atidir.

Platon barkamol dav lat- Respublika goyasini ilgari surdi. «Respublika» atamasi suzma-suz tarjimada «ommaviy x.okimi-yat» degan ma'noni bildiradi. Davlat erkin fukarolar urtasi-da mex.natning bulinishi negiziga quriladi. Bu x.okimiyatning barkarorligini ta'minlaydi va butun jamiyatga maksimal foy-da keltiradi. Uzining ideal davlat (shax.ar) rejasida Platon erkin fukarolarning (ammo k.ullarning emas) umumiy yashash joyi, bolalarni davlat tomonidan tarbiyalash goyasini ilgari suradi. Urushlarga Platon dax.shatli ijtimoiy yovuzlik deb karaydi, ammo ularning sodir bulishini mukarrar deb biladi, shuning uchun x.am davlat maxsus ukitib urgatilgan, qurollan-gan odamlar yoki jangchilar tabakasiga ega bulishi kerak, zotan, urush insoniyat ibtidoiy x.olatdan chik.kanidan keyin uning aba-diy x.amrox.iga aylandi.

Antik davrning buyuk mutafakkiri Aristotel (miloddan avvalgi 384-322 yillar) uz ustozlari Platonning karashlari va ta'limotlarini ijodiy rivojlantirdi. Inson ijodini yangi bilim olish sharti sifatida urgangan Aristotel fikrlash, xulosa chikarishning tug'ri, x.akk.oniy metodlari va usullari x.akidagi fan - mantik. x.akida ta'limot yaratdi. Mantik.ni

Aristotel «organon» - x.ak.koniy bilimning universal qiroli deb atadi.

Aristotelning falsafiy tizimi uning uzi va shogirdlari tomonidan amalga oshirilgan tabiiy ilmiy va ijtimoiy-siyosiy tadqiqotlar bilan uzviy alokada shakllandi. Aristotelning kizikishlari doirasiga mantiq, psixologiya, bilish nazariyasi, ontologiya, kosmologiya, fizika, zoologiya, siyosat, etika, iqtisod, pedagogika, estetika, ritorika masalalari kiradi.

Aristotelning fikricha, har bir real narsa ko'rib qolgan, passiv, uziga nisbatan befarq. materiya bilan faol, xarakatchan, tirik shaklning birligi demakdir. Shakl, ijodiy, faol negiz sifatida, ko'rib qolgan, inert materiyaga ta'sir kursatadi, uni shakllanti-radi, rasmiylashtiradi, materiyaga tegishli bo'lsa bo'ladi, eng yuksak shakl yoki shakllar shakli, bo'linishning yetakchisi esa Xudodir. Shu-ning uchun ham Aristotelning falsafasi ob'ektiv idealizmdir.

Aristotelning fikricha, insonni ko'zlagan olam uning bilish, urinish, tadqiq qilish ob'ektidir.

Iqtisodchi sifatida Aristotel qiymat shaklini tahlildan utkazdi va tovarning pul shakli qiymatning oddiy shaklining rivojlangan kurinishi, ya'ni bir tovar qiymatining boshqa bi-ron-bir tovardagi ifodasidir, deb kursatdi.

Uygonish davri va Yangi davrda ilmiy ijodning rivojlanishi

Yevropada Rim imperiyasi parchalanishi natijasida antik davr urniga urta aerlar keldi. Bu davrda din hukmron dunyoka-rash va mafkura vazifasini bajardi. «Falsafa - iloxiyot gu-mashtasi» degan ibora teolog-olimlarning karashlarinigina emas, real ahvolni ham ifoda etar edi.

Bu davrda ijod, erkin yaratuvchilik butun bo'linishning yara-tuvchisi Xudoga xosdir, iloxiy ijod yuklikdan bo'liniqni paydo K,iluvchi irodaning max.suli deb suzeiz e'tirof etildi-

Avliyo Avgustin iroda va ijodiy negizning inson shaxsidagi roliki e'tirof etdi, zotan, inson tarix ijodkoridir, zero, ta-rixiy kilmishlar, axlok., din, ma'naviyat odamlarning ijod so-hasidir.

Ming yil davom etgan urta aerlar urniga kelgan Uygonish davri insonning ulkan ijodiy imkoniyatlari pafosi bilan sugorilgan edi. Bu davrda asosan mohiyati

ijodiy mushohada yuri-tishdan iborat deb karalgan badiiy ijod rivojlandi. Ijodiy asos tashuvchisi sifatida dax.o shaxsiga siginish shakllandi, tarixga esa sof insoniy ijod mahsuli deb karaldi. Jumladan, Uygonish davrida yashab ijod qilgan italiyalik faylasuf J. Viko insonni til, axlok., urf-odatlar, an'analar, san'at va falsafa ijodkori deb e'tirof etdi.

Uygonish davrining falsafasi va fan i insonparvarlik, ilmiy tafakkur, fan va falsafaning ijodiy sinteziga yorqin mi-sol bula oladi. Bu davrda Leonardo da Vinchi (mexanika, fizika, gidravlika), Nikolay Kopernik (1fyosh sistemasi tuzilishi-ning geliotsentrik nazariyasi), Iogann Kepler (astronomiya, kosmologiya, samoviy mexanika konunlari) singari mutafakkirlar uzlarining genial tabiiy ilmiy asarlarini yaratdilar.

XVI -XVII aarlarda Rarbiy Yevropada yangi burjua, bozor ishlab chiqarish munosabatlarining jadal rivojlanishi fan (matematika, mexanika, fizika, optika, gidrodinamika) va tex-nikaning faol rivojlanishiga olib keldi. Bu davrda G.Galiley, I. Nyuton, R. Guk, L. Eyler va boshqa olimlarning dah o asarlari va betakror ijodiy faoliyati natijasida izchil, mantiliy, tajribalarda kup karrauz tasdigini topgan klassik mexanika vujudga keldi.

Yangi davrning dah o faylasuflari F. Bekon, T. Gobbs, J. Lokk, D. Yum ijodga inson tomonidan yangi mexanizmlar, mashi-nalar, qurilmalar va agregatlarning kashf etilishi deb kara-di. Fan va texnika yutuklari va kashfiyotlari falsafa va fanda dunyoning mexanistik manzarasi, metafizik dunyokarash hukmron-lik kilishiga olib keldi.

Buyuk fransuz faylasufi R. Dekart materiya mustaqil ijodiy kuchga ega deb e'tirof etdi, mexanik xarakatga esa borlis, bilish va ijodning negizi bo'lgan materiya x.ayotining ifodasi deb karadi. R. Dekart metod muammosiga alohida e'tibor ber-di, ratsionalizmni, tafakkurning anik, va qat'iyligini bilimning x.akdoniyligi sharti deb e'tirof etdi. Uningcha, bilish va ijodda sezgi va x.is-tuygular emas, akl, idrok, mantik. yetakchi rol uynaydi. Uzining «Metod x.atsida mushox.adalar» asarida Dekart quyidagi talablardan kelib chikadi: faqat aklga anik, va kat'iy bulib kuringan, x.ak.k.oniyligiga xech qanday shubha tugalishi

mumkin bulmagan koidalarnigina xaodoni deb olish; xar bir murakkab muammo yoki masalani tarkibiy kislarga, nisbatan sodda muammo va masalalarga ajratish; ma'lum, is-botlangan va bilingan narsalardan noma'lum, isbotlanmagan va bilinmagan narsalarga metodik ravishda utish; urganish va isbotlashning mantiqiy buginlarida birorta xam buganni utka-zib yubormaslik.

F.Bekon va Dekart ortidan B. Spinoza ham tabiat ustidan hukmronlikni egallash va insonning uzini barkamo llashtirish-ni falsafiy ijodning maqsadi deb e'tirof etdi. Shaxs erkin-ligi bilish va ijodning zarur shartidir. Spinozaning bilish nazariyasi materialistik va ratsionalistik xususiyatga egadir. U tabiatni-substansiyani uzini uzi yaratuvchi sabab deb e'lon kildi.

XV asr oxiri XIX asrning birinchi choragida insoniyat ta-rixidagi buyuk mutafakkirlardan biri Immanuel Kant (1724-1804) asos solgan nemis klassik falsafasining ijodiy faolligi oshdi. Buyuk nemis faylasufi eng yangi davr falsafasining asoslarini klassik idealizm shakliga soldi. I. Kantning ijodiy dastur nafaqat falsafada, balki fanda ham namoyon buldi. U Quyosh sistemasi ulkan gaz tumanligidan vujudga kelgan, degan ajoyib kosmogonik konsepsiyani yaratdi. Bu konsepsiya hozirgi zamon astrofizikasida ham uz ahamiyatini yukotgani yuk. Bundan tashkari, u xayvonlarning kelib chikishi tartibiga kura taksimlash goyasini, shuningdek, inson irklarining tabiiy kelib chikishi goyasini ilgari surdi. Geometriya, matematika va mexanika soxalaridagi ko'plab original foanap ham Kantga tegishlidir.

I.Kant sub'ektning xisssiy taassurotlari bilan aql-idrok tushunchalarining bir ligi urtasida boglovchi bug'in bo'lgan ta-savvurning unumli qobiliyati haqidagi ta'limotida ijodiy faoliyatni maxsus analizdan utkazdi. Uning fikricha, ijodiy tasavvur ham tasavvurning kurgazmaliliga, ham tushunchaning sintezlovchi kuchiga ega, binobarin, ijod mushoxada yuritish, faoliyat kursatish va bilishning umumiy negizi bulib xizmat kilar edi. Kant bilish metodologiyasini haqqoniy bilimni uyushtirish, tizimga solish va olish shakli sifatidagi gnoseologiyadan ajratib, uningaloxida maqomini asoslab berdi.

GY. Kantdan sung buyuk nemis faylasufi - idealist va dialektik G. Gegel (1770-1831) bilishni uzining alohida ichki tashkiloti metodlari, usullariga ega bo'lgan uziga xos faoliyat si-fatida analizdan utkazishni ijodiy davom ettirdi. Gegelning falsafiy tizimi deganda moxiyat e'tibori bilan absolyut rux.-ning ijodiy-yaratuvchilik faoliyatining hamda uning hosilasi bo'lgan inson bilimining ijodiy faoliyati metodologiyasi tu-shuniladi. Ilmiy ijod metodologiyasi sohasida Gegelning aso-siy xizmati shundaki, u dialektikani bilish va umuman ma'na-viy faoliyatning umumiy metodi sifatida har tomonlama, chu-K,ur kurib chikdi.

XGX aerda va XX aerning birinchi yarmida fan va ijod, fal-safa va ilmiy bilish epistemologiyasi jadal rivojlandi. Dialektika, ilmiy analiz ob'ektining uzgaruvchanligi, karama-kar-shiliklar birligi va kurashi orqali rivojlanish, son va sifat uzgarishlarininguzaro utishi goyalari, dialektik inkor etish-ning sintez deb olinishi, uzgaruvchi ob'ektdan ziddiyatlarning olib tashlanishi tabiatshunoslikda va umuman fanda chinakam inkilob yasadi.

Bu davrda fizikada energiyaning saklanish va bir turdan ik-kinchi turgautish konuni (Joul, Gelmgols, Mayer), biologiya-datirik organizmlarning xujayratuzilishi (Shleyden, Shvann), kimyoda davriy k,onun (D.I. Mendeleev) kashf etildi, Ch. Darwin biologiyadaturllarning tabiiy kelib chikishi nazariyasini ilgari surdi.

XX asr boshida fizika, ayniksa, jadal rivojlandi. M. Plank kvantlar haqida genial gipotezani taklif kildi, A. Eynshteyn esa maxsus (keyinchalik umumiy) nisbiylik nazariyasini yaratdi. Bu va boshk_aatokli fiziklarning (N. Bor, L. de Broyl, V. Gey-zenberg, P. Dirak, E. Shredinger, V. Pauli, E. Fermi, R. Feyn-man, J. Uiler va xozirgi zamon fizikasining boshqa yaratuvchila-rining) metodologik goyalari dunyoning xozirgi zamon kvant-relya-tivistik ilmiy manzarasining shakllanishiga olib keldi.

Yjtimoiy va gumanitar fanlar sohasida K. Marks, O. Kont, G. Spenser, J.St. Mill va boshqa atokli olimlar faoliyat kursatdi. Ularning ilmiy bilish metodologiyasi, iqtisod nazariyasi, sotsiologiya, ijtimoiy falsafa soxasidagi asarlari ij-timoiy-iqtisodiy fanlarning k.iyofasini batamom uzgartirib yubordi. S. Kerkegor,

A. Shopengauer, F. Nisshening transsen-dental, irratsional falsafasi kupgina falsafiy, etik, diniy muammolarga yangi kuz bilan k,arashga majbur kildi.

XX asrning boshida 3. Freyd, K. G. Yung inson ruxiyagi, ongi, ong osti x.amda ongsiz sox.ani teran urgandi. JY.P. Pavlov uz ilmiy ijodini inson va hayvonlarning oliy nerv faoliyati fi-ziologiyasini anal izdan utkazishga bagishladni

Bu kabi ko‘plab ilmiy va texnikaviy kashfiyotlar, yangilik-lar XX asrning ikkinchi yarmida fan-texnika inkilobiga olib keldi. Bu davrda fan va *ilmiy* ijodning mutlako yangi turlari: kvant fizikasi, kibernetika va informatika, molekulyar genetika va gen injeneriyasi, relyativistik astrofizika vujudga keldi. Fan hozirgi zamoy axborot davrining kiyofasini belgilov-chi bevosita ishlab chikaruvchi kuchga aylanmokda.

Xozirgi zamon ilmiy bilimining mutlako yangi soxasi - globalistika (T. de Sharden, A. Pechchei va u tashkil etgan Rim klubi x.amda boshqalarning goyalari va karashlari) vujudga keldi va jadal rivojlandi.

Xozirgi zamon ilmiy-texnikaviy tarakkiyotning bu va boshqa ko‘plab yutuklari negizida xozirgi zamon ilmiy ijodi metodo-logiyasida va fan epistemologiyasida ssientizm va postpozitivizm singari yunalishlar vujudga keldi.

Xozirgi zamon fan metodologiyasi ssienistik yunalishining vakillari xozirgi zamon fani hozirgi zamonning asosiy ijti-moiy muammolari: ekologik, demografik, ozik.-ovkat va boshqa muammolarni ijobiy hal kilishga kodir, degan goyani ilgari suradi. Tanikli iqtisodchi, Nobel mukofoti soxibi J. Gelb-reyt x.amda ijtimoiy tarakkiyotning x.ozirgi zamon bosqichini postindustrial jamiyat davri deb ta’riflagan garvardlik sotsiolog D. Bellning asarlarida ssienistik karashlar uzining yorkin ifodasini topgan. D. Bellning ssienistik karashlariga kura, x.ozirgi zamon davlatlarida siyosiy xokimiyat siyosatchilar va biznesmenlar 1\$ulidan asta-sekin ilmiy-tadqiqot tashkilot-lari kaliga utishi, hozirgi zamon ijtimoiy-siyosiy boshqaruv tizimiga fan faol jalb etilishi lozim.

Ssientizmning boshqa bir yunalishi - x.ozirgi zamon neopo-zitivistik fan falsafasi fanga madaniy dunyokarash andozasi deb karaydi. Postpozitivizm hozirgi zamon fan falsafasidagi muhim yunalishdir. Uning tanikli vakillari K. Popper, T.

Kun, M. Polani, I. Lakatos, P. Feyerabend, St. Tulmin va boshqa-lar x.ozirgi zamon metodologik konsepsiyalari va yondashuvlari-ni ijodiy va faol rang-baranglashtirdi. Postpozitivizmning asosiy metodologik vazifasi quyidagi savollarga javob to-pish ork.ali ilmiy bilimning rivojlanishi va usishini tushu-nib yetishdir: yangi nazariya qanday vujudga keladi? U qanday kilib uzining e'tirof etilishiga muvaffak, bo'ladimi? Rak.obat-lashuvchi ilmiy nazariyalarni takdoshlash va tanlashning mezon-lari qanday? Bundan tashkari, postpozitivistlarning fikricha, falsafa va fan urtasida chegara omonat, uzgaruvchan, shartli va nisbiydirU

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Dastlabki ilmiy bilimlarni ijodiy rivojlantirishda kadimgi mutafakkirshir sanday rol uynagan?
2. Antik falsafa va ilmiy bilimlarni rivojlantirishga Platon va Aristotel kushgan ijodiy xissa.
3. Jaxon madaniyati va fanining rivojlanishida Uyg'onish davrining buyuk axamiyati nimalarda kurinadi?
4. Fan va ijodning tarakkietida Yati davr qanday axami-yatga ega bo'lgan?
5. Xozirgi zamon fan-texnika tarakkiiyotining moxiyati ni-mada?

FANDA BASHORAT IJOD SHAKLI SIFATIDA

Ilmiy bashoratni sub'ektning borlik. sirlarini va urganilayotgan ob'ektning rivojlanish mexanizmlarini uzlashtirish borasidagi ijodiy faolligining shakli sifatida kurib chik.-masdan ilmiy ijod metodologiyasini tadkik, qilish mumkin emas. Epistemologik vagnoseologik jumatlardan bashorat tuzilishi-ni ilmiy bilish shakli sifatida, bashorat metodlarining xususiyatlarini va ilmiy bilishning usishiga ularning ta'sirini falsafiy analizdan utkazish e'tiborga molikdir.

Bugun, insoniyat kalam kuygan yangi ming yillik va yangi XXI asrning boshida kishilik jamiyatining progressiv tarak,kiyoti-ni ilmiy tushuntirish va ilmiy prognoz-siz tasavvur kilish ham mumkin emas. Olim ilmiy bashorat soxasida ijodiy faoliyat bilan shugullanar ekan, ijtimoiy tarak.kiyot kaerga, kay yuna-lishda

xarakat kilyapti, bu harakatning sur'atlari qanday, ularni qanday yaxshilash, jadallashtirish (yoki, aksincha, sustlashti-rish), makbullashtirish kerak va nix.oyat, mazkur rivojlanish-ning yaqin tarixiy istikboddagi yakuniy maqsadi qanday, degan savollarga javob topishgaharakat kiladi.

Xozirgi zamon olamining kiyofasi shu kadar jadal uzgarmok,-daki, ijtimoiy x.ayotning barcha sox.alarida yalpi globalizatsiya jarayonlari sodir bulayotgan bugungi kun sharoitlarida hap k.anday ilmiy prognozlar kilish alox.ida olimlar xamda ilmiy ja-moalar, maktablar va institutlar ijodining kdoikarli uyini-ga aylanadi.

Ilmiy bilishning hozirgi zamon epistemologiyasi ilmiy ba-shoratga bizni kiziktirayotgan hodisalar va jarayonlarning mohiyati xamda ularning kelgusida rivojlanish tendensiyalari X.akidagi tugri bilimga asoslangan noma'lum narsa tugrisida bilim deb karaydi. Ilmiy bashorat bu bulgusi x.odisalarni, shuningdek, u yoki bu x.odisalar, vok.ealar, jarayonlarning ok,ibat-lari xususiyatini (kaytariladigan yoki kaytarilmas, foydali yoki zararli, xavfli va h.k.) oldindan aytib berish real imkoni-yatidir. Ilmiy prognoz xisoblangan fanda bashorat ilmiy fak-tlarga, barcha xolatlar va shart-sharoitlarni k.at'iy e'tiborga olish negiziga k.uriladi. Ilmiy bashorat jarayoni kelajakda sodir bulishi mumkin bo'lgan vokealar, hodisalarni oldindan aytib berishni uz ichiga oladi.

Ilmiy bashorat bilishning uzigaxos shaklidir. Utmish yoki bugungi kunning vokea-hodisalari xaqidagi ma'lumotlardan iborat oddiy bilimlardan farkli ularok,, ilmiy bashorat ke-lajakda sodir bulishi yoki kashf etilishi mumkin bo'lgan narsa-lar haqidagi axborotni ifoda etadi. Binobarin, u extimoliy xususiyatga egadir. Bu bilish ob'ekta - xali kelmagan kelajak-ning xususiyati bilan belgilanadi. Kundalik xayotiy tajribaga, sogpom fikrga, xar xil hodisalarni oddiy kuzatishga yoki dashiy e'tikodga asoslangan diniy bashoratlar va empirik farazlar-dan farkli ularoq, ilmiy bashorat tabiat va jamiyat hak.idagi ilmiy bilimni ob'ektiv, teran va x.ar tomonlama analizdan utkazishga asoslanadi.

Tabiiy va ijtimoiy hodisalarni urganishda ilmiy basho-ratni tafovut etish zarur. Tabiat insonga xam, insoniyatta xam bogatok, bulmagan k,onunlarga kura,

ob'ektiv rivojlanadi, shu-ning uchun ham bu yerda bashorat ozmi-kupmi bir ma'noli xususiyatga ega bo'ladi. Ijtimoiy jarayonlar sohasida ilmiy bashorat-da butunlay boshqa vaziyatga duch kelish mumkin. Birinchidan, ijtimoiy tarak_kiyotning ob'ektiv konuniyatlari muayyan odam-larning sub'ektiv niyatlari bilan tuk.nashadi va ixtilofga ki-rishadi xamda bunday tuknashuv jarayonida bu niyatlarga tuza-tish kiritiladi, binobarin, ilmiy prognozning ruyobga chikishi imkoniyatlari bu yerda omonat, muttasil uzgaruvchandir. Ikkin-chidan, jamiyat xayotini urganayotgan shaxsuzi bu jamiyatning a'zo-si bulib, urganilayotgan jarayonlar, ob'ektiv va sub'ektiv omil-larning bevosita ta'sirini uzida muttasil x.is etadi, bu esa unga uz tadqiqotchilik va prognostik ijodiy faoliyatida tulik. ob'ektiv bulishiga xalakit beradi.

Ilmiy ijodda bashorat gipotezalarni va ularni tekshirish metodini shakllantirish usuli sifatida ishtirok etadi, zotan, bu gipotezalarning tugri yoki notug'riligini kelajakning uzi tasdiklaydi. Birinchi x.olda gipoteza ilmiy nazariyaga, ikkinchi holda esa yanglishish va xatoga aylanadi.

Ilmiy bashorat bugungi kunda informatika va elektronika, global kompyuter tarmogi va globalizatsiya asri insoniyat oldi-ga kuyayotgan kupgina muammolarni xad k.ilishga qodir. Ilmiy bashorat va prognoz yordamida inson xayotiy faoliyati rivojla-nishining nomak.bul, zararli,xavfli, boshi berk yunalishlari-ni oldindan aytib berish, shuningdek, ularning oqibatlarini yumshatish yoki tuliq bartaraf etish mumkin. Hodisalarni bashorat k.ilish, ularni ilmiy tushuntirish, x.odisalarning teran alokasi va mox.iyatini ochib berish, ijtimoiy amaliyotga xizmat kilish k;obiliyati—bu fanning ijodiy, /.rognostik imkoniyatla-rining kurinishlaridir, zero, ilmiy bilishning asosiy vazifa-si tabiiy va ijtimoiy muxitda insonga yul kursatish va uni bu muhitga moslashishiga yordam berishdan iborat. Bashorat — bu odamlarning bilish va amaliy uzgartirish faoliyati urtasida boglovchi bugin, jamiyat xayotini tashkil etish va boshk.arish vo-sitasi bulib xizmat k,iladi.

Ilmiy bashorat bugungi kundan kelajakka, ma'lumdan no-ma'lumga yunaltirilgan bulib, bu gnoseologik noanik.likni vujudga keltiradi, binobarin, ilmiy ijod jarayonida ilmiy bilish va prognoz kilish amalga oshiriladigan tizimlarning

rivojlanish yullari prinsipial xilma-xil bulishini nazarda tutadi. Shuning uchun ham bashorat ilmiy bilishda kelajakni mutlak.o anik, bilishni da'vo k.ilmaydi. X.^oD^{is}al^aR^{ning} jushqn-ligi, uzgaruvchanligi, rivojlanishning yunalishi va sur'atlarini u yoki bu tomonga ogdiruvchi fluktuatsiyalarning mavjudligi ilmiy bashorat aytilgan muddatdan oldin yoki keyin sodir bulishi, yo umuman sodir bulmasligiga sabab bulishi mumkin.

Ilmiy bashoratning ruyobga chikish yullari har xil bulishi mumkin. Bu yerda ilmiy prognoz k.iluvchi tadqiqotchilar tafak-kurining uziga xosligi, ularning ijodkor shaxs sifatidagi xususiyatlari yorq,in namoyon bo'radi. Bu yerda umumiy mushoxada-lardan xususiy mushox.adalarga (deduksiya) va xususiydan umumiyga (induksiya) utish, tavgdoshlash, solishtirish, ekspert baho-lash, analiz va sintez kilish mumkin. Ilmiy rejalar va pro-gnozlar tulik, yoki kisman uz ifodasini topadigan odamlar ama-liyoti ilmiy bashorat va prognozning tug'riligi mezonib bulib xizmat k.iladi.

Ilmiy bilishning evristik-prognostik funksiyasi mavjud ilmiy bilimning kimmatini va butun insoniyat uchun ahamiyati-ni oshiradi, zotan, ilmiy bashoratning ruyobga chikarish, uni potensial imkoniyatdan dolzarb vokelikka aylantirish inson akl-zakovati ijodiy faoliyati imkoniyatlarining cheksizligi va bitmas-tuganmasligiga bo'lgan insonning ishonchini mustahkam-laydi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ilmiy izlanishda prognoz kilish qanday rol uynaydi?
2. Fundamental ilmiy yoki texnikaviy kashfiyotlarga oliv kelgan ilmiy bashoratlar (prognozlar)ga misollar keltiring?
3. Ilmiy fantastika bilan real ilmiy bashoratning uzaro alokasi va uzaro boglikligini ochib bering.
4. Iqtisodiy tadqiqotlarda ilmiy ijod va bashorat metodologiyasi qanday rol uynaydi?
5. I. Karimov tomonidan bozorga utishning «Uzbek modeli» -ning ishlab chikilishi ilmiy bashoratning yorqin namunasi sifa-tida.

TALABALARNING IJODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

«...XXI asr sivilizatsiyasiga yo‘l boshlovchi ilmiy— texnika jarayoni kimdakin o‘zining intellektual imkoniyatlarini tahlil qilish, sintezlash, baholash, shuningdek moslanuvchan aqliy va ijodiy qobiliyatlarini boshqalarga nisbatan yaxshi rivojlantira olsa o‘shanga ish va mansab in’om etadi — bu deyarli 20 yil avval yozilgan bashoratli satrlar, zamonaviy mutaxassislar tayyorlashga qo‘yilayotgan talablarni juda aniq belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi bilan ta’lim muassasalarining barcha turlarida, jumladan oliy o‘quv yurtlarida ham, o‘quv-metodik adabiyotlarni, moddiy-texnik bazani, professor-o‘qituvchilar tarkibini, mutaxassislar tayyorlash strukturasini yangilashga qaratilgan qayta qurish boshlandi.

Lekin strukturani yangilash bilan bir qatorda ta’lim jarayonini mazmungan yangilashni ham qo‘shib olib borish zarur. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy hayotidagi o‘zgarishlar mutaxassislarning yangi avlodi egallashi zarur bo‘lgan bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarga yangi-yangi talablarni keltirib chiqarmoqda. Bu birinchidan ilmiy bilimlarni ko‘p talab qiladigan texnologiyalarni keng tarqalishiga taalluqli bo‘lsa, ikkinchidan, ishni tashkil qilishdagi o‘zgarishlar va o‘qitish jarayonining natijalariga tegishlidir.

Uzoq vaqtlar davomida ijod — bu insonga tabiat ehson etgan noyob qobiliyat, u har kimga ham berilmaydi, — deb xisoblanib kelingan. Tajribali pedagog-psixologlarning ilmiy—tadqiqot ishlarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, ijodiy qobiliyatga hamma ham ega ekan, lekin uning namoyon bo‘lishi, ro‘yobga chiqishi real hayotiy sharoitga va individning psixologik holatiga bog‘liq ekan.

Zamonaviy ta’lim tizimida ijodiy fikrlashni rivojlantirishning o‘ta muhimligini eng kamida ikkita asosiy sabablari bor.

Birinchidan, oliy o‘quv yurti akademik ta’limining haqiqiy hayot talablaridan ajralib qolganligi, berilayotgan «tayyor» umumiy va kasbiy bilimlarning xayot amaliyotiga mos kelmasligi talabalarning o‘qishga bo‘lgan

qiziqishlarini susayishiga sabab bo'ldi. Va buning oqibatida olingan bilimlarning sifati pasaydi. Bu bilimlarning o'zlari ham ko'pincha ma'lumot xarakteriga ega bo'lib, o'zlashtirishning reproduktiv darajasigagina taalluqli bo'lib qolmoqda. Vaholanki, hayot «...fanlarni kognitiv o'zlashtirish bilan chegaralanmaslikni talab qiladi. Yangi pedagogik va didaktik yondashuvlarga va ularning rivojlanishiga sharoit yaratish zarur. Chunki, aynan, shular kommunikatsiyaga, ijodiy va tanqidiy tahlil, mustaqil fikrlash (mualliflar tomonidan belgilangan) va ko'p madaniyatli mazmunda jamoatchilik mehnati bilan, qachonki ijod ham an'anaviy yoki milliy bilim va ko'nikmalarni zamonaviy fan va texnika yutuqlari bilan uyg'unlashuviga asoslanganida, «munosib malakalarni egallashga, bilimdonlik va qobiliyatlilikni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadilar» .

Ikkinchidan, o'zbek xalqiga xos mentalitet—kattalarni irodasiga bo'ysunish, o'qituvchi o'rgatgan narsaga so'zsiz ishonch hosil qilish, xayotiy masalalarni xal qilishda samarasyaz bo'lsada, eng oson yo'l tanlash, amaliy ziddiyatlarni mumkin qadar chetlab o'tish kabi qator qonimizga singib ketgan odatlarimiz ko'p hollarda ijodiy fikrlashni cheklanib qolishiga sabab bo'ladi.

Shuning uchun ham, kelajakda buyuk taraqqiyotga ega, huquqiy davlat qurishni maqsad qilgan vatanimiz yoshlarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish, ularning yangilik yaratishga bo'lgan xohish va istaklarini imkon darajasiga ko'tarish ko'zlangan maqsad va ezgulik yo'lidagi ta'lim tizimining asosiy tadbirlaridan biri hisoblanishi lozim.

Bilimlarni shakllanishida fikrlashning roli

O'qitishga an'anaviy yondoshuvda “tayyor” bilimlarni uzatib berish modeli asosiy o'rin egallagan. Bilim insondan insonga, suvni bir idishdan ikkinchi idishga quygandek uzatiladi. Shiddat bilan o'zgaruvchi hozirgi zamon jamiyatida esa bunday yondashuvni qo'llab bo'lmaydi. O'zgarishlarga moslashuvchan bo'lish uchun asosiy va hayotiy zarur talab sifatida o'qishga qobiliyat xizmat qiladi. Ya'ni, bunda o'qishga tayangan, ta'lim jarayonining markaziga talabani qo'yadigan ta'lim

modeli namoyon bo‘ladi. Ushbu modelda bilim dinamik ko‘rinishga, mazmun nuqtai nazaridan o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega tushunchadir. Biz barchamiz noldan boshlashimiz va g‘ildirakni qaytadan ixtiro qilishimiz kerak, deb o‘ylash, turgan gapki haddan tashqari sodda o‘ylashdir. Biz yangi bilimlarni yaratish uchun ilgari kimdir yaratgan bilimlarga tayanamiz.

Psixologiya akademik fan sifatida paydo bo‘lgan 100 yildan ortiq muddat davomida fikrlash jarayonini o‘rganish bilan shug‘ullanganiga qaramay, kognitiv psixologiya, ya’ni psixologiyaning fikrlash tabiati va bilimlarni o‘rganish sohasi, keyingi 20 yil davomida ilmiy psixologiyada haqiqatdan ham hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Uning namoyondalari masalalarni hal qilishda, mulohaza yuritishda va qarorlar qabul qilishda foydalaniladigan texnika va strategiyalarni o‘rganish vazifasini o‘z oldilariga qo‘yadilar. Bundan tashqari bu qobiliyatlarni intellektga qanday bog‘liqligi masalasi ham ularni qiziqtiradi. Fikrlash jarayoniga bunday jiddiy qiziqish, psixologiyaning “kognitiv jarayonlarga o‘rgatish” deb nom olgan yangi sohasini paydo bo‘lishiga olib keldi. Uning vazifasi – insonlarga o‘z fikrlash qobiliyatlarini yaxshilashga yordam berish uchun inson fikrlashi jarayonlari va mexanizmlari haqidagi biz to‘plagan bilimlarni qo‘llash imkonlarini topishdan iborat. Bu sohada to‘plangan bilimlar, xaritalarni o‘qishni harbiy malakalardan tortib, to qulay va tushunishga oson bo‘lgan kompyuter dasturlarini ishlab chiqishgacha bo‘lgan jarayonda amaliy masalalarni hal qilishda qo‘llana boshlandi.

Zamonaviy tadqiqotlar ta’kidlashicha, fikrlash aqliy qobiliyatlarga bog‘liq emas va murakkab muammolarni hal qilish zarurati ta’sirida rivojlanmaydi. Intellekt bilan fikrlash orasidagi bog‘liqlik mashina bilan uning haydovchisi orasidagi bog‘liqlikka o‘xshash: yuqori quvvatli mashinani ukuvsizlik bilan, kamtarona avtomobilni esa mohirlik bilan boshqarish mumkin. Quvvat mashinaning salohiyati bo‘lganidek, intellekt — aqlning salohiyatidir. Lekin mashinaning harakatlari esa boshqaruvchining mohirligiga bog‘liq. Fikrlashni ketma-ket bosqichlar seriyasi sifatida amalga oshiriluvchi axborotni uzatish va qayta ishlash jarayonidan iborat, deb tasavvur qilish mumkin.

XX asr boshlarida psixologlar fikrlash inson ongida qator. obrazlarni kombinatsiyalash yo‘li bilan ro‘y beradi, deb tushunar edilar. Keyinchalik boshqa psixologlar fikrlash—bu so‘zlari ovoz chiqarib aytilmaydigan, o‘z-o‘zi bilan gaplashishga o‘xshash «ichki nutq», degan gipotezani ilgari surdilar. Biz ko‘p hollarda, fikrlashimiz jarayonida, nimalar bo‘layotganligini butunlay yoki deyarli anglamaymiz.

Albert Eynshteyn o‘zining o‘ta murakkab masalalarni hal qilish qobiliyatlarini ko‘pincha, har doim tasavvur yordamiga murojaat qilishidan, — deb bilar edi. Shaxsiy tasavvurdan foydalanishning yorqin misoli sifatida kimyogar Kekule bilan ro‘y bergan hodisani keltirish mumkin.

Hozirgi vaqtda keng tarqalgan, inson fikrlashini tushunishga yo‘naltirilgan yondashuv, fikrlash jarayonlarini kompyuterlarning ishlash prinsiplariga o‘xshash tarzda modellashtirishdan iborat. Psixologlar va ularning yondashuvlari ma’qul bo‘lgan boshqa olimlar (muxandislar, tilshunoslar, tibbiyot sohasi mutaxassislari) foydalangan yo‘llardan biri, qandaydir masalani yechishda hisoblash mashinasida bo‘lib o‘tadigan jarayonlar va operatsiyalar inson fikrlashini imitatsiya qiluvchi holatlarni yaratishdan iborat.

Odamlarni qanday fikrlayotganligini bilish uchun, ular qandaydir bir masalani yechayotganlarida xayoliga kelgan barcha narsalarni ovoz chiqarib aytishni so‘rash kerak. Bunda tajriba o‘tkazuvchilar «ovoz chiqarib fikrlash bayonnomasi»ni tuzadilar. Bayonnoma sinaluvchining masalani hal qilish ustida ishlayotgan vaqtida nimalar qilayotganligini bildiruvchi o‘z og‘zidan so‘zma—so‘z olingan yozuvdan iborat bo‘ladi. Fikrlash bayonnomasi fikrlash jarayonlarini tushunish uchun ham, ularni takomillashtirish uchun ham foydali bo‘lar ekan. Matematikani o‘qitish sohasida ko‘zga ko‘ringan Tomas Gudning aniqlashicha, o‘quvchilar matematikani o‘rganishda materialni yaxshi o‘zlashtirishlari uchun o‘qituvchilar biron bir masala ustida ular bilan birga ishlayotanda yechish jarayonini ovoz chiqarib gapirib o‘tkazishlari zarur. Pedagoglar ovoz chiqarib fikr yuritayotganida «axborotni qayta ishlash strukturasini va fikrlash usulini...» namoyish qiladilar, «...va bunda o‘quvchilar yashiringan bog‘lanishlarni yaxshi

tushunishlari mumkin». Fikrlashni yaxshilash yo‘llaridan biri — mutaxassislarning fikrlash bayonnomalarini tahlil qilish va keyin ularga o‘xshab o‘zlarining fikrlash jarayonlarini modellashtirishdan iborat.

Tadqiqotlar aniqlashlaricha, modellashtirishning bu usullari yangi o‘rganuvchilarning fikrlash jarayonlarini rivojlantirish uchun juda foydali hisoblanadi. Shuningdek, shaxsiy fikrlash yozuvlarini o‘rganish, o‘zining bo‘sh joylarini masalan, axborotni qandaydir bir turlari bilan ishlashga qobiliyat yetishmasligi yoki boshqa kamchiliklarni ko‘rish uchun ham foydali. Ovoz chikarib fikrlashni amalda qo‘llab, «odamlar aniq tizim bo‘yicha — oddinga ham ketib qolmay va asossiz bashorat bilan ham shug‘ullanmay ishlashga o‘rganadilar. Fikrlashni verballashtirish jarayoni fikr yurituvchiga u tanlagan strategiyani baholashga va muloqot qilish malakalarini rivojlantirishga imkon beradi. Bu uslubiyotlar fanlar bo‘yicha kurslarni o‘zlashtirishda ham foydali, chunki ular o‘quvchilar e‘tiborini o‘zlarining fikriy tushunchalariga va o‘rganayotgan faniga jalb qiladi.

Fikrlash jarayoniga bo‘lgan an‘anaviy nuqtai nazarga asosan tanqidiy fikrlash, munozara, tahlil va mantiqqa e‘tibor qaratiladi. Bu jabhalar juda katta ahamiyatga ega, lekin ularning barchasi — fikrlash jarayonining bir qismidan iborat.

Tanqidiy fikrlash

Ravshanki, agar biz har qanday fikrlashni nazarda tutib, «tanqidiy fikrlash» atamasidan foydalansak, «tanqidiy» tushunchasiga hech qanday ehtiyoj qolmagan va shu tufaylibiz bu atamani barcha o‘ziga xos tomonlarini yo‘kotgan bo‘lar edik. «Tanqidiy» [critical] so‘zi yunoncha bo‘lib, uning ma‘nosi «qozi» (sudya) ni bildiradi va adabiyotga lotin tilidan kirib kelgan. Lug‘atda uni «talabchan», «qattiqqo‘l», «injiq» iboralar sinonimlari sifatida aniqlaydi. Ko‘pincha «tanqidiy» so‘zi nimanidir yaxshi yoki yomon deb baholashda qo‘llaniladi. Lekin masalaning bunday qo‘yilishi tanqidiy fikrlashning asosiy qiymatini pasaytiradi va mohiyatini ochib bera olmaydi.

Ta'rifda foydalaniladigan tanqidiy so'zi baholash komponentini nazarda tutadi. Ayrim hollarda bu so'z biror narsaga salbiy munosabatni bildirish uchun qo'llaniladi. Masalan: «U filmga o'ta tanqidiy munosabatda bo'ldi», — deyilganda. Lekin baho ham ijobiy, ham salbiy munosabatlarning konstruktiv ifodasidan iborat bo'lishi mumkin va shunday bo'lishi shart. Biz tanqidiy fikrlaganimizda o'z fikrlash jarayonlarimizni (natijalarini qabul qilgan qarorlarimizni qanchalik to'g'riligini yoki qo'yilgan masalani qanchalik muvaffakiyat bilan xal qilganimizni) baholaymiz. Tanqidiy fikrlash shuningdek fikrlash jarayonining o'zini ham baholashni qamrab oladi. Bunda bizning xulosalarimizga olib kelgan mulohazaning qanday olib borilganligi yoki biz qaror qabul qilishda inobatga olgan omillarga baho beriladi.

Psixologiya va u bilan aloqador bo'lgan fanlarning mutaxassislari tomonidan tanqidiy fikrlash atamasiga berilgan bir qancha ta'riflar mazmun jihatidan birbirlariga anchagina yaqin. Mana ularning g'oyaviy mazmunini bera oladigan eng sodda ta'riflaridan biri:

Tanqidiy fikrlash — g'oyalarni ishlab chiqishda mantqqa asoslangan, yakuniy natijani olish ehtimolini oshiruvchi kognitiv texnika va strategiyalardan keng foydalanish jarayonidir.

Odamlar nimalarni qilishga qodirlaru, amalda nima qiladilar, buni farqlash juda muhim. Bunday farq imkoniyatlar bilan harakatlar orasidagi farq deb ataladi. Mabodo ulardan foydalanmaydigan bo'lsak, tanqidiy fikrlash malakalarini o'zlashtirishning ma'nosi bo'lmaydi.

Tanqidiy fikrlashga yo'riqnoma berishni ham fikrlash malakalarini rivojlantirishga nisbatan ahamiyati kam emas. Sire va Parsons mahsuldor fikrlashga yo'naltirishni muhimligini ta'kidlashga harakat qilib, tanqidiy fikrlashni etika nuqtai-nazaridan ta'riflaganlar.

Ko'p hollarda odamlar tanqidiy fikrlay olmaganliklari uchun emas, balki shunday qilishni xohlamaganliklari uchun xatoliklarga yo'l qo'yadilar. O'z fikrlash imkoniyatlaridan yaxshi va o'rtacha foydalanadigan odamlar va shunga mos kuchli va kuchsiz o'quvchilar orasidagi asosiy farqlardan biri — ularning o'z

imoniyatlariga bo'lgan munosabatidir. Tanqidiy fikrlashni qo'llaydigan odamga quyidagi sifatlar xos:

1. Rejalashtirishga tayyorgarlik
2. Moslashuvchanlik
3. Maqsadga intiluvchanlik
4. O'z xatolarini tuzatishga tayyorgarlik
5. Anglash

6. Kelishtiruvchi qarorlarni qidirish tanqidiy fikrlashga yo'naltirishning eng katta qiyinchiligi shundan iboratki, odamlar qachon beixtiyor harakat qilayotganliklarini yoki shablon asosida fikrlayotganliklarini ko'pincha anglab yetmaydilar. Mak Tay bu muammoni quyidagicha tasvirlagan

“O'quvchilar o'qiganlarini miyasiga dastlab kelgan talqini bilan qanoatlanadilar va ulardan o'z nuqtai nazarlarini tushuntirish yoki asoslash so'ralsa chindan ham tashvishga tushganday ko'rinadilar. Ularning ko'pchiligi shunga ham qobil emas: hatto boshqalarga nisbatan yaxshi javob berganlari ham masalalar yechishning tayyor strategiyalaridan foydalanib,-tanqidiy fikrlash malakalariga juda oz darajada murojaat qiladilar”.

Tanqidiy fikrlash malakalari — u qo'yilgan maqsadga yetishga yo'l topish imkonini beruvchi usullar yoki operatsiyalar majmuasidan iborat. Albatta, uzluksiz ravishda ro'y beruvchi fikrlash jarayonini bir qator bo'laklangan operatsiyalarga ajratish juda sun'iy bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin bunday qilinishi tanqidiy fikrlashga oid keng mavzuni ishlashga qulay tarkibiy qismlarga ajratish uchun zarur. Qismlarga ajratish materialni yaxshi o'zlashtirish uchun kerak bo'lib, u aslo tanqidiy fikrlash jarayonini alohida olingan elementlar ko'rinishida tasavvur qilish mumkin, — deb hisoblamaydi.

Faqat tanqidiy fikrlash bilan cheklanib qolish xavf-xatardan xoli emas. O'ta aqlli insonlar shu kabi qopqonga tushib qolib, zamonaviy jamiyat uchun zarur bo'lgan konstruktiv va yaratuvchan fikrlashlarini rivojantirmaydilar. Maktab ham, kollej ham, hattoki oliy o'quv yurti ham fikrlashning konstruktiv va yaratuvchan qirralarini rivojlantirishga e'tibor berib, vaqt ajratmaydilar: bu maskanlarda

shunchaki fikrlashga o'rgatamiz degan ishonch bor. Tanqidiy fikrlash xavfli takabburlikni tug'dirishi mumkin, chunki xatolar va kamchiliklardan xoli bo'lgan fikrlash, agar u mos bo'lmagan axborotga va noto'g'ri qabul qilishga asoslangan bo'lsa ham, avtomatik ravishda to'g'ri fikrlash, deb qabul qilinadi. Ijodiy va yaratuvchan fikrlash bilan mustahkamlanmagan tanqidiy fikrlash, yangi zarur g'oyalarni paydo bo'lishini yanada murakkablashtiradi.

Shunday qilib, ta'kidlash mumkinki, tanqidiy fikrlashdan tashqari bizga yaratuvchan—konstruktiv turdagi fikrlash ham zarurdir. Tahlil qilishdan tashqari ijod va ixtiro qilish mahorati ham zarur. Mantiqqa qo'shimcha yaxshi idrok etish qobiliyatiga ham ega bo'lish kerak.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Bilimlarni shakllantirishda fikrlashning roli qanday?
2. XX asr boshlarida va rivojlanish davrida psixologik fikrlarni ochib bering.
3. "Tanqidiy fikrlash" so'zini qanday tushunasiz?

IJOD TA'RIFI VA UNING BILISH JARAYONIDAGI ROLI

Ijod tushunchasining yagona ta'rifi yo'qligi shu bilan bog'liqki, odamlar «g'ayrioddiy», «yaxshi» va «foydali» deb nimani atash mumkinligi haqida yagona fikrga ega emaslar, shu sababli bu tushunchalar juda nisbiy. Qaysi nuqtai nazardan qarashingizga bog'liq. Shu sababli nima uchun ijod tutqich bermaydigan, sirpanib chiqib ketadigan muhokama predmeti ekanligini oson tushunish mumkin. Biron bir g'oya yoki qandaydir bir faoliyat natijasi ijodiy deb e'tirof qilinishi uchun avvalam bor, uni atrofida g'ayrioddiy, yaxshi va foydali, — deb tan olishlari zarur. Yana shuni ta'kidlash zarurki, ijod tushunchasida vaqtlar o'tgan sayin muhim o'zgarishlar ro'y bermoqda. Masalan, bizning zamonamizda eng, monumental

hisoblanuvchi Yerning aylanishi haqidagi tushuncha o'z vaqtida axmoqona fikr, — deyilgan edi.

Gardner ijodga bergan ta'rifida yana bir shartni qo'shdi. U ijodiy inson albatta uzluksiz ravishda ijodiy masalalarni hal qilishi va ijod mahsulotlarini yaratishi shart deb hisoblaydi. Bu qo'shimcha shart ijodiy jarayondagi «omad» tushunchasini siqib chiqaradi, chunki uzluksiz natija xisoblanayotganda favqulodda va juda kam bajaradigan harakatlar e'tiborga olinmasligi kerak. Lekin biz qaysi ta'rifni tanlab olmaylik, baribir barchamiz ijodga ehtiyoj sezamiz va u yoki bu darajada ijod qilamiz. Ijodiy faoliyat. bizning kundalik hayotimizni jozibaliroq qiladi; fan va san'atni ijodsiz tasavvur qilib bo'lmaydi; ijodsiz matematika va boshqa fanlar taraqqiyotini tasavvur qilish mumkin emas. Biz xar doim murakkab fikrni ifodalaganimizda yoki oq qog'ozni matn bilan qoraytirganimizda ijod qilamiz. Agar biz shu ishni samarali va g'ayrioddiy tarzda udallay olsak, bizni rosmona ijod qilish, — deb atash mumkin.

Hozirgi zamon psixologiya shunday xulosaga kelishdiki, Eynshteyn, Mariya Kyuri va Mosart kabi ijodiy gigantlarda «hech qanday g'ayritabiiylik» mavjud bo'lmay, ularning ijodini kundalik oddiy jarayonning davomi deb qarash mumkin. Vaysberg har doim ijodni oddiy hodisa, — deb qarashni himoya qilar edi. Bunta misol tariqasida u temir va simlardan yasalgan abstrakt skulpturalari bilan mashhur bo'lgan rassom Aleksandr Kalder (1898—1976) ning tarjimai xolini keltiradi. Yoshligida Kalder simlardan o'z singlisiga bezaklar yasagan. Uning ota-onasi rassomlar bo'lib, farzandalariga san'at darsini o'tar va bola yoshligidan otasi yaratgan xaykallar va onasining chizgan rasmlari bilan qurshalgan edi. U abstraksionist vaqti-vaqti bilan mashhur o'z ishlarida «kuchli» sof ranglar va abstrakt kashtalardan foydalangan rassom. Pit Mond — rianning ustaxonasida ko'p bo'lib turar edi. Shuning uchun rassom tomonidan shu bolalikniig barcha hayotiy taasurotlari yorqin abstrakt konstruksiyalarda o'z ifodasinin topganligi hech qanday kutilmagan hodisa emas. Kalder ijodida turli ta'sirlarning uyg'unlashuvi o'z aksini topdi. Vaysbergning so'zlariga qaraganda shunday bo'lishini uning tarjimai xolidagi faktlarga bir qator ko'z yugurtiriboq oldindan aytish mumkin edi.

Ijodiy jarayonda biz ko‘p ham biror narsani isbot qilishga harakat qilavermaymiz, balki barcha imkoniyatlarimizdan foydalanib, muammoning yechimini ilgarilatishga urinamiz va faqat yangi g‘oyaga kelgandan so‘ng uni haqiqiyligini va ahamiyatliligini isbotlashga kirishamiz.

Ijodiy fikrlash «sakrab» birorta yangi xolatni egallashga va keyin tanlab olingan natijani anglashga imkon beradi.

Gipotezalar, farazlar yoki ig‘vo tariqa g‘oyalardan foydalanib, keskin ijodiy sakrashni amalga oshirish mumkin. Ayrim xollarda axborot taqchilligida biz yetishmayotgan tafsilotlarni o‘ylab topishga majburmiz. Ijodiy fikrlash jarayonida farazlar va taxminlarni ilgari surish axborotlar olishga va g‘oyalarni paydo bo‘lishiga yangi yo‘llar ochadi.


Faqat axborotlarni tahlil qilishgina, yangi g‘oyalarni paydo bo‘lish uchun yetarli emas. Bunda aql, foydalanishga oldindan tayyor qilib qo‘yilgan, ya‘ni eski g‘oyalarnigina ko‘rishi mumkin. Shuning uchun farazlarni ilgari surish san‘atini rivojlantirish zarur. Ularning diapazoni yetarli darajada keng ya‘ni to‘la asoslangan tasdiq (gipotezalardagi kabi) dan tortib to ko‘p xollarda, xatto, to‘g‘riga o‘xshashlikka da‘vo ham qila olmaydigan mantiqsiz farazlargacha bo‘lishi mumkin!

Mantiqsiz g‘oya muammoga boshqa tomondan nigox tashlashga imkon beradi. U yangi yo‘llarni taklif kilmaydi, Lekin eski va toptalgan yo‘llardan chiqaradi.

Ijodiy fikrlashdan foydalanib «sakraganda» biz fikrlashimizdagi ikki xolatni birlashtiruvchi «so‘kmoq» ochamiz. Biz mashakqatli, sekin va kup mexnat talab kiluvchi ma‘lum faktlarni tanlashdan voz kechish bilan, go‘yo o‘z fikrlarimizdan ilagarilab ketganday bo‘lamiz.

IJODIY FIKRLASHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK JABHALARI

XV asr urtalarida (kitob chop etish ixtiro kilingan vaqtlarda) Yevropada har yili 1000 ga yaqin yangi kitoblar paydo bo'lar edi. XVIII asrning boshlarida yangi yaratilgan . ilmiy asarlarning soni yuztadan ortmas edi. XX asr urtalarida 120000 tagacha yangi kitoblar nashr kilindi. Bugungi kunda butun dunyoda har yili 60 million bosma varak ilmiy va texnik adabiyotlar nashr qilinadi. Hatto, xar bir yangy kitob bizni bilimlarimizni to'la ma'noda ko'paytiradi, deb tasdiklab bo'lmasada, keskin ortayotgan kitobiy maxsulotning hajmi inson bilimlarini muayyan chegarada sezilarli o'sishini xarakterlaydi.



1—rasm. Ilmiy axborot xajmining vakt bo'yicha o'zgarishi

1 — **insoniyat tomonidan jamlangan to'la ilmiy axborot;**

2 — **ilmiy axborotning yillik o'sishi;**

Mavjud mehnat taksimoti tizimida va unga moe kasbiy ta'lim differensiatsiyasida, o'quv materialini uzlashtirish natijasida olingan ixtisoslanggirilgan bilimlar o'z ahamiyatini tez yo'krtadi. Bundan tabiiy ravishda kelib chikadiki mutaxassis o'z kasbiy vazifalarini malakali bajara olishi uchun, o'z bilimlarini, masalan: malaka oshirish, kasbiy qayta tayyorlanish va hokazo yo'li

bilan uzluksiz yangilab borishi zarur. Olingan bilimlardan samarali foydalanish vahti tez kamaymokda.

Siz bilan shunday voqea sodir bo'lganmi: ko'p soatlar davomida biror masalani hal qilish ustida natijasiz bosh kotirsangiz — u, lekin qandaydir bir vaktga xayolingiz chalg'ishi bilan, masalaning yechimi miyangizga o'z—o'zidan kelgan. Aynan shu narsa inkubatsiya davri deyiladi. Inkubatsiya — anglaniliish kiyin tushuncha. Shu sababli Nobel mukofoti laureati psixolog Gerbert Saymonning bu xakda bergan tushuntirishini misol tariqasida keltiramiz:

Biz qandaydir bir masalani xal qilish ustida ishlayotganimizda, imkoniyatlari cheklangan kiska muddatli xotiramizda saklanayotgan nisbatan kam xoldagi tushunchalarga tayanamiz. Biz kachonki masala ustida bosh qotirishni to'xtatsak kiska muddatli yeki operativ xotirada saqlanayotgan axborot tez uiutiladi.

Agar bu axborot kerakli yechimini topish uchuy maxsulot\ bermaydigan bo'lsa, uidan uringulish xatto foydali omil bo'lishi mumkin. Buning ishonarli isboti sifatida hammamizga yaxshi tanish bo'lgan xolatii keltirish mumkin. Qachon biz kishini ismini eslashga harakat kilsak va u tilimizni uchida turgan bo'lsayu, lekin xech eslashni ilojini topmasak, u xolla natijasiz o'ylashga to'xtashimiz bilanok, u o'z —o'zidan. bizning xotiramizga kalkib chikali.

Psixologlar «biror narsa to'g'risida o'ylash» yoki «biror narsani xotirlash» jarayonlarini faollashtirishii tarkalishi, deb ataydilar. Kengroq bilimlar to'riga ega bo'lgan odamlarda faollashtirishni tarqalish sohasi ham kattaroq bo'ladi. Zich kirishgan bilimlar to'rini hosil qilishning eng yaxshi usuli — o'zaro bog'langan bilimlarga ega bo'lishdir. Aniq sohadagi bilimlar aloxida ahamiyatga ega. Agar siz talabalarigizni fanda ijodiy qobiliyatlarini namoyon kila olishini hoxlasangiz, ular muayyan sohada bilimlarni egallashlari, siz esa ularni masalani hal qilishi uchun zarur axborot olishlariga imkoniyatni ta'minlashingiz zarur. Yangi g'oya yaratish uchun aynan, bilimlarning zich kirishgan turi kerak, kam bilimlar, yangi g'oya yaratish uchun yetarli bo'lmagan fikrlarga olib keladi. Psixologlar «biror narsa to'g'risida o'ylash» yoki «biror narsani xotirlash» jarayonlarini faollashtirishii tarkalishi, deb ataydilar. Kengroq bilimlar to'riga ega bo'lgan

odamlarda faollashtirishni tarqalish sohasi ham kattaroq bo‘ladi. Zich kirishgan bilimlar to‘rini hosil qilishning eng yaxshi usuli — o‘zaro bog‘langan bilimlarga ega bo‘lishdir. Aniq sohadagi bilimlar aloxida ahamiyatga ega. Agar siz talabalaringizni fanda ijodiy qobiliyatlarini namoyon kila olishini hoxlasangiz, ular muayyan sohada bilimlarni egallashlari, siz esa ularni masalani hal qilishi uchun zarur axborot olishlariga imkoniyatni ta‘minlashingiz zarur. Yangi g‘oya yaratish uchun aynan, bilimlarning zich kirishgan turi kerak, kam bilimlar, yangi g‘oya yaratish uchun yetarli bo‘lmagan fikrlarga olib keladi.

Ijodni ham uchta tushunchalar orqali ta‘riflash mumkin, bular: sezgirlyak, sinergiya va yantuitsiyamd.

Sezgirlik — bu bizning sezgilarimizdan, bizning «tashqi dunyoga ochiladigan darcha»mizdan foydalanishdir. Biz ular yordamida sezamiz, xidlaymiz, ta‘m tatib ko‘ramiz.

Baribir bizning ko‘pchiligimiz odatda e‘tibor bermaydigan narsalarni ijodiy shaxslar sezadi va eslab qoladi.

Bunday insonning belgilaridan biri shuki, u faqat masalaning yechimigagina emas, balki uni qo‘yilishiga ham ijodiy yondoshadi.

Sinergiya — bu birinchi qarashda qo‘nshb bo‘lmaydigan ko‘rinadigan narsalarni bir butun, hamda foydali va ishlaydigan kilib birlashtirishdir. Agar siz bilimlarni turli sohalariga tegishli bo‘lgan ikki g‘oyani yangi mazmunda muvaffakiyatli ishlay boshlaydigan kilib birlashtira olsangiz . demak siz sinergiyaga ko‘rgazmali misolni namoyish qilgan bo‘lasiz. Sinergiyaga misollarni yukorida keltirilgan Kalderning kiska byografiyasidan ham topish mumkin. Chunki u simlar bilan ishlashdagi uz bilimlarini yorkin ranglar va abstrakt rasmlar bilan uyg‘unlashtirib hayratlantiruvchi konstuksiyalar yarata olgan.

Ijodning bakuvvat harakatlantiruvchi kuchi — bu intuitsiyadir. U kutilmagan va rejalashtirilmagan kashfiyotga olib keladi.

Intuitsiyaning ijod jarayonida muhim rol o‘ynashi shubhasiz, lekin shuningdek u macheadga intilish va mexnatsevarlik bilan mustaxkamlayushsh zarurligi ham hech qanday shubxa tug‘dirmasligi kerak. Albatga, ilmiy kashfietni

sof intuitiv ravishda qilish mumkin, lekin bunday baxtli «tasodiflar»ni laboratoriyalarda butun kunu—tun davomida bajarilgan mashakktali mexnatdan keyin ro‘y berish ehtimoli kattarok. Fikrlash jarayonida intuitsiya muhim rol o‘ynaydi, lekin intuitsiya to‘g‘ri yechimni ham ko‘rsatadi, — deb o‘ylash va undan umid qilib, faqat kutib o‘tirish yaramaydi. Intuitsiya ba’zi hollarda pand berishi ham mumkin, lekin u emotsiya va sezgilar bilan bir qatorda fikrlashning ajrtib bo‘lmaydigan qismidir.

Mantiq fikrlashning eng muhim elemeiti hisoblanadi. Bu taajubnalarli emas, chunki maktabda asosan reaktiv fikrlashga urg‘u beriladi. Ushbu holat oliy o‘quv yurtida ham davom etadi, ya’ni talabadan oldindan rejalashtirilgan sharoitga moe ravishda reaksiya qilish talab etiladi. Ko‘z oldingizda turgan narsaga siz qanday munosabatda bo‘lasiz? Shunday kilib, masalani xal qilish 'uchun barcha axborot to‘la berildi. Bopuotirmaning kismalari sizning qo‘lintizda. Javobni olish uchun siz mantiqiy mulohazani qo‘llaysiz.

Tanqidiy fikrlash to‘la bo‘lmasa ham, ko‘prok darajada mantiqka asoslanadi. Shuningdek muzokaralar va ikki tomonning xar qanday qarama—qarshiliklari ham. Mantiq yordamida biz bir xolatdan ikkinchisi tomon harakat kilamiz. Tashqaridan axborot kirmaydi, biz ilgariga faqat mavjud ma’lumotlar asosida siljiymiz (deduktiv mantiq).

Mantiqiy dalil kutilayotgan natijaga bog‘liq bo‘ladi. Agar biz «shunday narsani kutish mumkin» degan ibora bilan kifoyalansak, u holda faraz natija bo‘lib hisoblanadi.

Olimlar, oddiy ma’lumotli kishilar ham o‘z g‘oyalarini xar doim mantiqiy bayon qilishga harakat kiladilar. Xatto, agar ilmiy kashfiyot dof tasodifiy ravishda qilingan bo‘lsada, u baribir mantiqiy bayon qilinishi kerak. Aks holda u qabul kilinmaydi.

Bizga u yoki. bu xulosaga Qanday kelinganligini bilishimiz zarur, ya’ni biz mazkur natijaga olib kelgan fikrlashni qanday yo‘ldan borganligini kuzatipshi hohlaymiz.

Idrok — bu, bizni o‘rab turuvchi dunyoni ko‘rishimizdir. Odatda qabul qilinuvchi obrazlar tilning so‘zlariga yoki matematik simvollarga aylantiriladi. Keyin biz qandaydir xulosaga kelish uchun, tilshunoslikda va matematikada mavjud mantiqiy qoidalarni ko‘llaymiz.

Donishmandlik ham idrokka asoslangan. Donishmandlik — bu ko‘p mavjud yoki kelajakda paydo bo‘ladigan narsalarni qabul qilishdir.

Donishmandlik ularga turli tomondan nigoz tashlashga yordam beradi.

Hayol surish (voobrajenie) — bu hakikiy va haqiqiy bo‘lmagan yangi ob‘ektlar obrazlarini yaratish qobiliyatidir. Uning uch darajasi mavjud.

1) inson tomonidan ilgari qabul qilingan yangi (o‘zgartirilgan) ob‘ektning obrazini yaratish {masalan: barcha mevalar va sabzavotlar o‘sadigan daraxt);

2) odam o‘zi shaxsan idrok kilmagan, lekin u haqda dastlabki ma’lumotlarga ega bo‘lgan ob‘ektning yangi (kurilib bitkazilgan) obrazini yaratish (masalan: vaznsizlik, magnit to‘foni, shisha yomg‘ir);

3) butunlay mavjud bo‘lmagan va u haqda boshlang‘ich ma’lumotlar ham yo‘q bo‘lgan yangi (sintezlangan) ob‘ekt obrazini yaratish (misollar: o‘zga sayyoradan kelgan mavjudod, gazsimon o‘simlik, kattiq aks—sado, jonli hid, - odamning ichida yil fasllarining o‘zgarishi).

Ijodiy fikrlashni, boshqa xar qanday faoliyat kabi ijtimoiy ma’nosidan ajralmas holda karash zarur, bilish jaraenlariga oid adabietlarda aynan shu narsa, ko‘pincha e’tibordan chetda krlidiriladi.

Ijod bilan shug‘ullanuvchi odamlar, odatda tirishqoq mehnatkashdirlar. Ishtiyoqning bunday turi ichki ishtiyok deyiladi, chunki u individning o‘zidan chiqadi va aksincha, odatda maktabda va ishda taklif qilinadigan ishtiyoq taluqi ishtiyok deyiladi, u o‘zgalardan rag‘bat (yaxshi baho va pul va’dasi) ko‘riyushshda chiqadi. Amabayl va uning‘ hamkasblarining fikricha, insonni ijodga eng yaxshi tarzda tortish uchun, uning atrofida ichki ishtiyoqini meksimal darajada ko‘taruvchi xolatni yaratish kerak.

Ijod bu o‘z-o‘zini ishtiyokini o‘yg‘otuvchi va o‘zini o‘zi nazorat qilishni talab kiluvchi og‘ir aqliy mehnatning natijasidir. U yetarli darajada tushunish

uchun murakkab va sirli: hech kim «ijod» nimaligini va qanday kilib oddiy tashkil etuvchilardan shunday ajoyib narsalar yaratilishini anik, aytib bera olmaydi.

Deyarli xar bir ijodiy faoliyat, maqsadga erishish uchun, zaro'r, ilgari noma'lum bo'lgan, relevant axborotni aniklash yo'llarini o'z orqasidan ergashtiriladi. Odatda biz ijod tushunchasini san'at va fan bilan bog'laymiz, vaxolanki u oddiy xayotda ham, o'z mablag'larini oyning oxirigacha yetadigan qilib taqsimlashdan tortib, to o'qituvchining o'z vaqtida topshirilmagan dmaliyot bo'yicha qisobotni yoki kurs ishini qabul qilishga qanday majburlashigacha, kerak va muhim.

Ijodiy yechimni kuta olish uchun ijodiy shaxslar chindan ham o'z ishlariga qizikqan va g'oyaga sodiq bo'lishlari shart. Levin masala ustida ishlashga bo'lgan xoxishni «shaxsiy majburiyatlar qabul qilish» deb atagan. Bunda ishtiyoq-mexnatsevarlik, sarflangan vakt va barcha mumkin bo'lgan variantlarni o'rganishga xoxish orasidagi yakin bog'liqlik sifatida tushuniladi.

Ijodiy fikrlash — yangi yaratuvchan—konstruktiv (ayrim hollarda mantiq chegarasidan chikuvchi) g'oyalarni intellekt, intuitsiya va ijodiy tasavvur yordamida generatsiyalash va ro'yobga chiqarish jarayonidir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Har asrda chop etilayotgangan kitoblar sababini ochib bering.
2. Axborot psixologiyada qaysi sezgi a'zolar bilan bog'lanadi?
3. "Inkubatsiya" tushunchasini Gerbert Saymon qanday misollar bilan tushuntiradi?
4. Emotsiyalar, sezgilar, intuitsiya bir-biriga bog'lanishi bormi? Masalan.

IJODIY FIKRLASHNING TAFAKKUR OLAMIDAGI O'RNI

Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda talabalarni ijodiy fikrlashga o'rgatish muammosi oliy

ta'limning o'z yechimini kutayotgan eng dolzarb muammolaridan biriga aylanib koldi.

Xo'sh, ijodiy fikrlash o'zi nima? Uning fikrlashning boshqa turlari bilan munosabati, ular orasida tutgan o'rni va mavqei qanday?

Yer yuzidagi eng murakkab va noyob mavjudot — bu insondir. Yashash konunlari uni atrof olamni o'zgartira borib, ko'nikib qolingan xayotni ta'minlash uchun uzluksiz fikrlash va ijod qilishga majburlaydi. Insonni fikrlash va ijod jarayonlari yetarli darajada rang—barang va murakkab bo'lib, tor ma'noda uni barcha xossalarini va qonuniyatlarini aniq' tavsiflash kiyin. Shu sababli ijodiy fikrlashning anik ilmiy ta'rifi bugunga qadar mavjud emas. Shuning uchun bo'lsa kerak, fikrlash nazariyasining ko'zga kuringan namoyondalari ham fikrlashning bu noyob turini maxsuldor yoki intuitiv fikrlash bilan bir o'ringa qo'yib qo'yadilar. Fikrimizning dalili sifatida quyidagilarni keltiripshimiz mumkin:

«Ijodiy (maxsuldor) fikrlash tarixi va muammosi yetarli darajada anik ifodaga ega emas. Ismi eslatilishi bilan «maxsuldor fikrlash» atamasi yodga.tushuvchi Vertgeymer ham bu muammoni zarur aniklik bilan ayta olmadi»

[Ya.Ponomarev] «...»Tanqidiy» — deb aytilgan nom moe kelmaydigan fikrlashning uchunchi turi — ijodiy yoki intuitiv fikrlashdan iborat» .

Ijodiy fikrlash bir qancha tomonlari bilan tanqidiy fikrlashga yaqin. Shunga ko'ra Devid Klusterning makolasidagi tanqidiy fikrlash haqida bildirgan qimmatli fikrlaridan moslashtirib foydalanish mumkin.

Birinchidan, tanqidiy fikrlashga.o'xshash ijodiy fikrlash atamasi juda ham ko'p turli parametrlar (mahorat, faoliyat turlari va hokazo) ni o'z ichiga olganligi uchun uning anik ta'rifini berish oson emas.

Fikrlash nazariyasi borasida kilingan ishlar yana ijodiy jarayonni bir necha bosqichlar dan (ko'p hollarda uchtadan to'rttagacha) iborat deb xulosa chiqaradi. Turli mulliflar tomonidan taklif kilingan bu bosqichlar, asosan, tafsilotlari tomonidangina farklanib, umumiy ko'rinishda ularni taxminan quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

Birinchi bosqich (ongli ish)— tayyorgarlik — yangi g‘oyani yalt etib paydo bo‘lipshdan oldin bajariladigan aloxida faoliyat xolati.

Ikinchi bosqich (anglab yetilmagan ish) — pishib —etilish —. muammoni «echish ustida bajariladigan anglanmagan ish, yo‘naltiruvchi g‘oyaning inkubatsion davri.

Uchinchi bosqich (anglanmagan xolatni—anglangan xolatga aylanishi) — ilhomlanish — anglanmagan ish natijasida ong doirasiga kashfiyot g‘oyasining dastlabki — gipotetik holda tushishi.

To‘rtinchi bosqich (ongli ish) — g‘oyani rivojlantirish, uni oxirgi ko‘rinishda rasmiylashtirish va tekshirish.

Yuqorida aytilganlardan ijodiy fikrlashning intuitiv fikrlashdan farki birmuncha oydinlashadi. Xo‘sh, unda ijodiy fikrlashni fikrlashning boshqa turlari bilan o‘xshashligi ham bormi?

Ijodiy fikrlash eng avvalo bu, tanqidiy fikrlash kabi mustaqil fikrlashdir. Fikrlash mustaqil bo‘lgandagina u ijodiy fikrlash bo‘la oladi. Hech kim birov uchun ijodiy fikrlab bera olmaydi. O‘quv jarayonida talabalar uchun mustaqil fikrlash va o‘ta murakkab masalalarni ham mustaqil xal qilishga imkoniyat yaratish zarur.

Ikkinchidan, olingan axborot ijodiy fikrlash uchun boshlantich nuqta bo‘lib, aslo oxirgi bekat vazifasini o‘tamasligi zarur. Boshqacha aytganda ijodiy fikrlash axborot, dalillarni olishdan boshlanadi. Yangi bilimlar ijodiy fikrlash uchun intilishni paydo qiladi. Ba’zida aytiladigan «Bo‘sh kalla bilan o‘ylab bo‘lmaydi»,— degan ibora shu yerda juda o‘rinli. Chunki o‘ylash uchun kallada biror narsa bo‘lishi shart. Ijodiy fikrlashdek, murakkab fikr yuritish uchun dalillar, g‘oyalar, mavzular, nazariyalar, ma’lumotlaridan iborat tog‘dek «xom ashyo»ni qayta ishlash zarur.

Uchinchidan, ijodiy fikrlash masalani qo‘yish va yechiladigan muammoni aniqlashtirishdan boshlanadi.

Shunday pedagogikagina bugungi kun talabiga to‘la javob bera olishi va unga iloji boricha tezroq o‘tish zarurligi haqida Prezident I.A.Karimov shunday

degan edi: «O‘qituvchi-o‘quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o‘rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechayapti. O‘qituvchining bosh vazifasi o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko‘pincha yaxlit tushunamiz, afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz».

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ijodiy fikrlash tushunchasini ochib bering.
2. Ijodiy fikrlash bir qancha tamoyillar bilan bog‘langan (mahorat, faoliyat turlari va h.k.)
3. Ijodiy fikrlash bilan tanqidiy fikrlashning bog‘liqligi bormi?

IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH PRINSIPLARI

Ixtiroviy masalalar yechish bo‘yicha to‘plangan tajribani va fikrlash nazariyalarini tahlil qilish ijodiy fikrlashning asosiy prinsiplarini shakllantirish va ijodiy fikrlashga o‘rgatishning psixologik-pedagogik metodlarini ishlab chiqishga imkon beradi. Rivojlangan ijodiy fikrlashsiz insoniyat XXI asrda yashay olmaydi. Bizningcha bu prinsiplar quyidagilardan iborat:

1. Talabalarni maqsadga erishishning turli yo‘llarini qidirish, so‘ngra eng yaxshisini tanlashga o‘rgatish.
2. Ularni yetarli miqdorda ko‘llanmalar va mashqlar to‘plamlari bilan, ijodiy ko‘nikmalarni ishlatish va mashq qildirish uchun ta‘minladi.
3. Zarur savollarni berishga va muammoning mavjudligini aniqlashga o‘rgatish.
4. Talabalarni har qanday sezgilar va emotsiyalarni fikrlashning muhim tashkil etuvchilari, deb qarashga o‘rgatish.
5. Talabalarni eng avvalo ijodiy jarayonning o‘zidan qoniqish hosil kilayotganlarini kuzatayotib, original va foydali g‘oyalarini rag‘batlantirish. Talabalarni o‘z g‘oyalarini qadrlanishini anglab yetishlariga yordamlashish.

6. Talabalarga nostandart vaziyatlarda yechimlarni izlashi taklif qilish. Muvaffaqiyatsizlikka uchraganda izchillikni namoyon bo'lishi muhimligini isbotlash.

7. Talabalarga yechimlarni izlashning rejasini tuzishni taklif qilish taxminiy

8. Haddan tashqari tez yorliq yopishtirishdan, masalani oldindan ma'lum masalalar toifasiga kiritishdan va shoshilib qaror qabul qilishdan qochish. Chunki, bu asosiy muammodan og'ishlarga va fikrlash egiluvchanligining yo'kolishiga olib keladi.

9. Talabalarni fikrlashning muhim elementlari sifatida sezgi va emotsiyalarni boshqarishga o'rgatish.

10. G'oyalar generatsiyalash uchun hamda ularni ob'ektiv va ratsional tashlash uchun sharoit yaratish.

11. «Bo'lishi mumkin» va «bo'lishi kerak» iboralarini farqlagan holda keskin qarorlar chiqarish.

12. Talabalarda uzluksiz alternativ izlanishta, yangi yondashuvlarga va yangi g'oyalarga moyillikni shakllantirish.

Bundan tashqari, ijodiy yondashuvning yangi g'oyalarni qabul qilish va mustahkamlanish jarayonini yengillatishga yordam beruvchi bir nechta asosiy qoidalarga ham amal qilish lozim: Barcha narsalar juda sodda bo'lishi kerak.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ijodiy daraja tushunchasini ochib bering.
2. Har bir prinsipning yo'nalishiga misol keltiring.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA IJODIY TASAVVURNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Har bir dars bolaning qobiliyatining uchqunlarini alangalata oladigan kichik ixtiroday o'tishi zarur. Atrofdagi olam va o'zini anglashdagi kichik yutuqlar ham

butun o'quv faoliyatini g'aroyib va maftunkor qiladi. Bolalar uchun sinfdoshlari oldida o'zini ko'rsata olishi, nimalarga qodirligini isbotlay olishi juda muhim qirra hisoblanadi. Buning uchun ularga imkoniyat yaratish zarur.

1-sinflarda mashg'ulotlarni o'quvchilar tasavvur yordamida tugamas sayoxat tarzida tashkil qilish mumkin. O'quvchilar dastlabki xayolot usullarini o'rganishadi va bular asosida qiziq voqealar, xikoyalar, topishmoqlar, she'r va ertaklar yuzaga keladi. Bolalar ijodiyoti o'quv jarayoniga bog'liq ravishda borgan sari boshqariluvchan bo'lib boradi. O'quv yilining oxiriga kelib o'quvchilar mustaqil ravishda hikoya va ertak tuzish usullarini yetarli darajada o'zlashtirgan bo'lishlari kerak hamda tizimlarning ichki tuzilishi bilan tanishib, ularning bo'linmalari va nima uchun xizmat qilishini o'rganish uchun dastlabki qadamlar qo'yilishi kerak.

2-sinfda o'quvchilar ancha narsalarni mustaqil bajara oladilar. O'quv yili so'ngida o'quvchilar dars mavzusi bilan bog'liq tayanch so'z va tushunchalar asosida kichik hikoya, voqea, ertaklarni tuza oladigan bo'lishlari kerak.

Bu davrda bolalar mustaqil ravishda tizimlarni topish, ularning qanday bo'limlardan tuzilganini, qanday xususiyatlarga va belgilarga ega ekanligini, nima uchun xizmat qiladi va boshqa tizimlar orasidagi bog'liqligini anglab yetishi zarur.

3-sinfda o'quvchilar faoliyat muhiti turli-tuman bo'ladi. Bolalar darslikdagi mavzular asosida tuzgan yangi o'quv hikoya yoki turli fanlarga bog'liq ertaklardan yangi «Ertaklar kitobi» shakllanadi.

Tizimlarni bo'limlarga bo'lish va tizimlararo bog'liqlik ko'nikmasi avtomatik darajaga yetkaziladi, 3-sinf o'quvchilari faoliyatining asosiy yo'nalishi kartotekalar yig'ish izchilligini bila olishlaridir.

3-sinf o'quvchilarining qiziqishlari turli-tuman bo'lib, ular o'zlarini qiziqtirayotgan sohalari bo'yicha javob olishni xohlashadi. Berayotgan savollar va javoblari esa turli sohalardan bo'lishi mumkin.

4-sinfda o'quvchilar oson va erkin holda turli hikoyalar va ertaklarni tuza oladilar. Ular orasida maktab dasturiga mos «Ertaklar kitobi» tuziladi.

O'quvchi tizim bo'limlarini saralashni va xususiyatlarini erkin holda amalga oshiradi. Lekin 4-sinfda asosiy ish tadqiqotchilik faoliyati va kartoteka tuzishga qaratilgan bo'ladi.

Tushunchaviy fikrlashni qanday shakllantirish kerak?

Bolalar ijodiy faoliyatining natijasida egallangan malakalarning natijasi shubhasiz turli turdagi tahlillar o'tkazish imkoniyatini yaratadi. Ruxdgunos ruxiy tahlil yoki bolalar ijodining ruxiyatini o'rganishning muhim manbalarini topadi.

Tilshunos bolalar folklorini o'rganish uchun boy manbaga ega bo'ladi. Sotsiolog madaniy-yetnik muhit va bolalar ertaklari orasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadi. Bu qaydnomani uzok davom etgirish mumkin. O'qituvchi bolalar ertak, topishmoq va maqollarning tahlilini qaysi usullari uzluksiz va ilmiy fikrlashni shakllantira olishiga qiziqish uyg'otadi.

Ona tili fa ni da «Alifbo» mavzusi(1-sinf) Vazifa. «Alifbo»ni tartib bilan joylashtirish.

Buning uchun «Alifbo»dagi harflar alohida qilib kesib olinadi va konvertga solib, har bir guruhga beriladi. Guruh qatnashchilari konvert ichidagi harflarni yoyib (partaga), so'ng bir chekkadan tartib bilan yig'ishlari kerak.

Boshqa guruhlarga nisbatan ishni oldinroq yakunlagan guruhga quyidagi qo'shimcha vazifalarni berish mumkin (yoki o'qituvchi dars maqsadi bo'yicha vazifalarni tayyolabqo'ygan bo'lishi ham mumkin).

Qo'shimcha topshiriqlar:

1. Unli tovushlarni alohida jamlang.
2. Undosh tovushlarni alohida jamlang.
3. Ismlar (bor harflardan)ni shakllantirishga harakat qiling.
4. Yig'ilgan so'zlarni bo'g'inga ajrating.

Izoh. Berilgan barcha topshiriq daftarga yozilishi kerak (imkon qadar), hamma vazifalar bajarib bo'lingandan so'ng guruhlar nima ish bilan shug'ullanayotganliklari, nimalarni bilib olganliklari so'raladi va umumlashtiriladi.

Odobnoma (2-sinf) Vazifa. «Bola boshidan, o'g'lon yoshidan» she'rini yig'ish (42-bo'lak). Buning uchun matndagi so'zlar yoki so'z birikmalari alohida qilib kesib olinadi (2-

ilovadan) va konvertga solib har bir guruhga beriladi. Guruh qatnashchilari konvert ichidagi (soʻz)larni (parta, stolga) yoyib, soʻng bir chekkadan tartib bilan yigʻishlari kerak. Boshqa guruhlariga nisbatan ishni oldinroq yakunlagan guruhga quyidagi qoʻshimcha vazifalarni berish mumkin (yoki oʻqituvchi dars maqsadi boʻyicha vazifalarni berishi ham mumkin). Qoʻshimcha topshiriqlar:

Hisoblab aniqlang, matn nechta kesilgan boʻlakdan iborat?

Hisoblab koʻring-chi, matn nechta soʻzdan iborat (ekanligini koʻrsating).

Birinchi toʻrtliqda nechta unli harf borligini koʻrib chiqing.

Matnni oʻrganib, qaysi soʻzlar oʻrniga rasm chizib koʻrsatish mumkinligini aniqlang.

Matndagi inson organlariga tegishli soʻzlarni ajrating.

Matnning ichidagi tabiatga oid soʻzlarni ajrating.

Matndagi notanish soʻzlarni ajratib koʻrsating.

Izoh. Guruhlar ishlarni yakunlaganlarida har bir guruhning fikri eshutiladi. Masalan, quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin: 1. Guruhda kim nima ishlar qiladi?

Nima uchun sheʼrni yigʻish oson boʻldi? (Yoki aksincha.)

Qaysi vazifani bajarishda qiynaladingaz? Nima uchun?

Kimniig xatti-xarakati sizni kuvontirdi?

Odobnoma (3-siif) 1.Dars mavzusi. «Javdari non».

Darsning maqsadi:

Javdari non qanday undan tayyorlanishi, uning qanday non ekanligini tushuntirish.

Non qanday tayyorlanishini, qanday mehnatlar evaziga dasturxonimizga yetib kelishini oʻrgatish.

c) Nonni isrof qilmaslikka, uni qadrlashga oʻrgatish.

Dars turi: amaliy-nazariy.

Dars tipi: aralashgan, koʻrgazmalilik, oʻyin.

Dars jihozlari: darsga oid rasmlar, tarqatma didaktik materiallar, rebus va plakat, boshqotirma, lugʻat.

Darsning borishi.

2. Tashkiliy qism.

She'r bilan boshlanadi, navbatchi axboroti, davomatni aniqlash, ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

3. Uyga berilgan vazifani so'rash va baholash.

Uyga vazifa qilib berilgan she'rni yodlash so'raladi, savol-javob o'tkaziladi.

Qorbobo yil boshida qanday ekan?

Yil oxirida qanday bo'ldi?

Shu bir yil ichida u nimalar qilibdi? So'ng «mlzayka» o'yini o'tkaziladi.

O'yin qoidalari. Bu yerda har bir partaga bittadan konvert tarqatiladi, unda uyga vazifa qilib berilgan she'rdan parcha yozilgan. O'quvchilar bu so'zlarni oq qog'ozga terishlari kerak bo'ladi. Buning uchun ular she'rni yoddan bilishlari shart. Birinchi bo'lib so'zlarni terib tugatgan guruh g'olib bo'ladi.

4. O'tgan mavzularni mustahkamlash.

Qish haqida topshimoq, she'rlar yodlashadiyu So'ng barcha o'quvchilar 6 ta guruhga bo'linadilar. Doskadagi rasmlar asosida shar, sovuq, izg'irin, muz, yah yaxmalak, sumalak, ayoz so'zlariga qo'yib hikoya tuzadilar.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash uchun krossvord - boshqotirma yechiladi.

Daraxt o'sadi tikka, shox chiqaradi yonga, Quyoshdan nur oladi, yerga soladi.


5. Yangi mavzu bayoni

1. Boshqotirma. Rasmlar berilgan., Shu rasmlardagi bosh harflarni olib so'z yasaymiz. Biz o'rganmoqchi bo'lgan matnning nomi kelib chiqadi.

2. "Javdari non" hikoyasi guruhlariga bo'lib o'qitiladi.

6. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Shu matn yuzasidan savol tuziladi. Guruhlar savollarni tuzishlari uchun vaqt beriladi. Savollar tayyor bo'lgach, har bir guruh o'zining savollarini o'qiydi. Boshqa guruhdagilar esa savollarga javob beradilar. Matnni musgahkamlash uchun qisqacha non haqida ma'lumot berib o'tiladi. Bug'doy qandab yetishtirilishi, qanday qilib un qilinishi va albatta non qilib yopish uchun kancha-qancha kishilarning mehnati qadrlanishi aytib o'tiladi. Klaster usulida «non»niig turlari ko'rsatib beriladi.



Non haqida o‘zlari bilgan she’r, maqollar yodlashadi. Topshiriq: «Javdari non" mavzusida rasm chizadilar. Darsda faol qatnashgan o‘quvchilarni e’lon qilib, baholaydilar.

7. Uyga vazifa berish va darsga yakun yasash.

"Javdari non" matinini ifodali o‘qib, qayta hikoyalashga tayyorlanib kelish.

Shuning bilan darsimiz tamom, tanaffus.

Boshqotirma

1. Ilm maskani.

2. Tomda uning uyi, pastga o‘sadi bo‘yi.

3. Konki uchadigai joy.

Qishdagi harorat

Fasl.

Yangi yil qahramonlari.

Maktabdan o‘rganadigan narsa.

Baho

	M	A	K	T	A	B			
		M	U	S	T	A	Q	I	L
Y	A	X	M	A	L	A	K		
S	O	V	U	Q					
	Q	I	Sh						
Q	O	R	Q	I	Z				
		B	I	L	I	M			
	B	E	Sh						

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Ijodiy fikrlash bilan tanqidiy fikrlashning bogʻliqligi bormi?
2. Ijodiy jarayondagi «omad» tushunchasini misollar bilan isbotlab bering.
3. Faqat axborotlarni taxmin qilishgina yangi gʻoyalar paydo boʻlishi uchun yetarli emas? Buning uchun nima qilish kerak?
5. Har asrda chop etilayotgangan kitoblar sababini ochib bering.
5. Emotsiyalar, sezgilar, intuitsiya orasida bogʻlanish bormi?
6. Ijodiy fikrlash tushunchasini ochib bering.

BOSHLANG‘ICH TA‘LIM KONSEPSIYASI

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingandan so‘ng mamlakatimiz ta‘lim tizimida, xususan, boshlang‘ich ta‘limda keng qamrovli ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida umumiy o‘rta ta‘limning jumladan, boshlang‘ich ta‘lim mazmuni yangilandi, boshlang‘ich ta‘lim davlat standarti va yangi o‘quv dasturlari ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich ta‘lim jarayoniga joriy etildi. Davlat ta‘lim standarti va yangi o‘quv dasturlari asosida darsliklarning yangi avlodi yaratildi. O‘quvchilarni zamonaviy darsliklar bilan to‘liq ta‘minlashga erishildi.

Bugungi kunga kelib, an‘anaviy o‘qitish o‘rnini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar egallamoqda. Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam nazorat qilib borish, o‘quvchilarning olayotgan bilimlaridagi bo‘shliqlarni o‘z vaqtida to‘ldirib borish, iqtidorli o‘quvchilardagi intellektual potensialning muntazam rivojlanishiga shart-sharoit yaratish, kattalar bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga qiziqtirish, ularning salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va tajribalarni boyitish, sinfdan tashqari pedagogik tadbirlar rejasini ishlab chiqish, o‘quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan hamda pedagogika fanining ilg‘or yutuqlaridan muntazam foydalanish ya‘ni ta‘lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiya elementlarini olib kirish, ulardan samarali foydalanish, o‘qituvchilarning ota-onalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishini yo‘lga qo‘yish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakalarini muntazam oshirib borishda zamonaviy usullardan foydalanish kabi vazifalarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Boshlang‘ich ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan bunday keng qamrovli vazifalar, ilmiy asoslangan g‘oyalar, ya‘ni ma‘lum bir konsepsiya

asosida maqsadli yoʻnalishda amalga oshirilgandagina kutilgan natijalarni beradi. Mazkur konsepsiyaning asosini boshlangʻich taʼlim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan yondoshuvlar va gʻoyalar tashkil etadi. Mazkur konsepsiya boshlangʻich sinflarda taʼlim-tarbiya jarayonini tashkil etish, uning sifati va samaradorligini taʼminlashning ilmiy asoslangan gʻoyalar asosida amalga oshirilishiga qaratilgan. Konsepsiyada ilgari surilgan boshlangʻich taʼlimni rivojlantirishning nazariy-amaliy gʻoyalari pedagogika fanining yutuqlariga tayanilgan holda belgilab berilgan.

Boshlangʻich taʼlimning asosini shaxs kamoloti, uning barkamol shakllanib, rivojlanishi haqidagi gʻoyalar belgilaydi. Shu jihatdan taklif etilayotgan qarashlar va gʻoyalar tizimi amaldagi fanli oʻqitishga asoslangan boshlangʻich taʼlimdan integrallashgan, shaxsga yoʻnaltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshlangʻich taʼlimning istiqbolliligini ifodalaydi. Shaxsga yoʻnaltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshlangʻich taʼlim jamiyat taraqqiyoti bilan barobar rivojlanib, takomillashib boruvchi taʼlim nazariyasiga tayangan holda muntazam tarzda rivojlantiriladi va shaxsni jamiyat talablari asosida yuksaltirishga xizmat qiladi.

Boshlangʻich taʼlim konsepsiyasi uzluksizlik xarakterdagi taʼlim tizimining poydevori hisoblangan boshlangʻich taʼlimning pedagogik-psixologik asoslarini hamda taʼlim sifati va samaradorligini oshirish yoʻllarini oʻzida mujassamlashtirgan. Mazkur konsepsiyani yaratishda uzluksiz taʼlim tizimi, uning tarkibiy qismi boʻlgan boshlangʻich taʼlimga oid boʻlgan mavjud huquqiy-meʼyoriy asoslarga tayanildi.

Boshlangʻich taʼlimning maqsad va vazifalari:

Boshlangʻich taʼlim jarayonida oʻquvchilarni rivojlantiruvchi, shaxsga yoʻnaltirilgan, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan taʼlim-tarbiya tizimi amal qiladi. Maktabga ilk qadam qoʻyga bolalar oʻz yosh xususiyatlari hamda tafakkur va ruhiy taraqqiyot darajalariga muvofiq keladigan taʼlimiy faoliyatga kirishadilar. Bu davrda oʻqish, oʻrganishga asoslangan faoliyat yetakchi mavqega

ega bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish hamda o‘rganishga qaratilgan faoliyatning shakllanishida, har bir o‘quv fani bo‘yicha bo‘lgan bilimlarni egallash jarayonida ularning ongi, tafakkuri jadal tarzda rivojlanadi. Bu ong va tafakkur o‘z xarakteriga ko‘ra nazariy hamda ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirish natijasida vujudga kelgan ong va tafakkur bo‘lib, bolaning jadal tarzda taraqqiy etishini xamda dunyoqarashining rivojlanishini ta’minlaydi.

1.Boshlang‘ich ta’limning asosiy maqsadi: kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga o‘qish, yozish va hisoblashga o‘rgatish, tevarak-atrof va tabiat bilan tanishtirish, ijodiy va mantiqiy fikrlash xislatlarini, nutq va xulq-atvor madaniyatini, shaxsiy gigiena va sog‘lom turmush tarzi asoslarini shakllantirish hamda shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishdan iborat.

2.Shunga ko‘ra, boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalari:

- har bir o‘quv fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlarini ta’minlash;
- har bir o‘quv fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlariga sharoit yaratish;
- iqtidorli o‘quvchilarning intellektual potentsiallarini muntazam oshirib borishlariga sharoit yaratish;
- ijodiy va mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini,
- kommunikativ savodxonligini va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirish;
- jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olishga, milliy urf-odatlarini o‘zida singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o‘rgatishdan iborat.

Boshlang‘ich ta’limning samaradorligi o‘quvchilarda o‘ziga xos tarzda tarkib topgan ta’limiy faoliyatning keng qamrovli darajasiga bog‘liq. Bunday faoliyat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish va zarur kompetensiyalarni egallash

jarayonida o'qituvchi rahbarligida shakllanadi va muntazam rivojlanib boradi. Bunday o'quv faoliyati natijasida boshlang'ich ta'limni bitirgan o'quvchilar ob'ektiv olam jonli va jonsiz tabiatdan iborat ekanligi, insonlar esa muayyan jamiyatda yashab, faoliyat ko'rsatishi, jamiyat a'zolari o'zaro aloqadorlikda yashashi, jonli va jonsiz tabiatni hamda jamiyatni tavsiflay olishlari, tabiat va jamiyat haqidagi aniq yo'naltirilgan tushuncha va tasavvurlarga ega bo'lishlari lozim. Shu bilan bir qatorda, ular shaxsning kishilik jamiyatida tutgan o'rni va amalga oshiradigan faoliyatning ahamiyatini tushunib yetishlari zarur. Chunki, o'quvchilarga bu haqiqatni anglatmasdan turib, ularni shaxs sifatida shakllantirish, ijtimoiy turmushga moslashtirish mumkin emas.

Boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning ilmiy-pedagogik asoslari

Boshlang'ich ta'lim jarayoni mustaqil O'zbekiston davlatning ta'lim-tarbiya tizimida umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi sifatida namoyon bo'ladi. Ma'lumki, amaldagi boshlang'ich ta'lim fanli o'qitishga asoslangan ta'lim jarayoni bo'lib, uning asosiy maqsadi bolalarda elementar tarzda o'qish, yozish, hisoblash ko'nikmalarini hosil qilishdan hamda ob'ektiv olam haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishdan iborat. Ko'rinib turibdiki, amaldagi boshlang'ich ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun uni takomillashtirish va yangi yondashuvlar bilan boyitish lozim. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning milliy tizimi har tomonlama rivojlanayotgan hozirgi sharoitda boshlang'ich ta'limning sifati va samaradorligini ta'minlash maqsadida uni yanada takomillashtirish talab qilinmoqda.

3. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim oldiga bir qator vazifalar qo'yilmoqda:

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish, o'rganish, o'zlashtirgan bilimlarni qo'llash istagi va ko'nikmalarini shakllantirish.
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuqori darajada shakllangan bilish jarayoniga, bilish faoliyatiga intilishni kuchaytirish.

➤ Bilish faoliyatiga bo'lgan ongli intilish shakllangandagina ta'lim jarayoni sifati va samaradorligi ortadi. Agar boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchida bilishga bo'lgan ishtiyoqni shakllantira olmas ekan, yuqori sinflarga borgan sari uning bilishga bo'lgan intilishi susayadi.

➤ Bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich sinf bitiruvchilarining bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanish darajasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zlari va sinfdoshlari egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va ob'ektiv tarzda baholay olishga oid mas'uliyat ham shakllangan bo'lishi kerak. O'quvchining o'zi berilgan o'quv materialini modellashtira olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Bu jarayonda o'quvchilarning o'zlari mustaqil tarzda har qanday chizma model bo'la olmasligini tushunib yetishlari kerak. Buning uchun o'quvchilarda xayol, faraz qila olish ko'nikmalari ham shakllangan bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinflarda o'qishga, o'rganishga yo'naltirilgan faoliyat yetakchi mavqega ega bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining rivojlanishlarida o'yin, sport bilan shug'ullanish, ijodiy faoliyat ham asosiy o'rin egallashi kerak. Lekin ta'limiy faoliyat boshqa barcha faoliyat turlarini muayyan bir maqsad-ga – bolani kompleks rivojlantirish maqsadiga yo'naltirilishi lozim. Jumladan, og'zaki va yozma nutq savodxonligini rivojlantirish, o'quvchilarning jismoniy taraqqiyotlari va salomatliklarini muhofaza qilish kabilar.

Boshlang'ich ta'lim jarayonini rivojlantirishda o'qituvchining kasbiy kompetentligi va o'qimishlilik darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va bu sohadagi ilg'or tajribalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuv asoslarini bilishi boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida shaxsni intellektual, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan biri, ta'lim tizimini, ayniqsa, boshlang'ich ta'limni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishdan iborat. Ta'lim tizimidagi rivojlanish jamiyat taraqqiyotining negizini tashkil etadi. Buning uchun muntazam

tarzda boshlang'ich ta'lim tizimida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, shu orqali o'quvchilarning kompetensiyalarni egallash jarayonlarini jadallashtirish ularni rivojlanayotgan jamiyat talablariga moslashtirish taqozo etiladi. Sifatli ta'lim olish ehtiyojining kuchayishi O'zbekiston fuqarolarining muhim hayotiy qadriyati sifatida tobora dolzarblashmoqda. Chunki sifatli ta'lim ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va haqqoniylikning asosiy omilidir.

Ta'limning tashqi ehtiyojlarga nisbatan ochiqligi, liderlarni aniqlash va namoyon etishning tanlovga asoslanganligi, yangi yondashuvlarning amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilishi, kompleks yechimlarning manzilli yo'naltirilganligi va qabul qilinadigan qarorlarning yaxlitlik xarakteriga egaligi muhim ahamiyatga molik.

Boshlang'ich ta'limni o'quvchi shaxsiga yo'naltirish va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda tashkil etishning alohida yo'nalishlari milliy loyihalash ko'lamida tatbiq etilishi lozim. O'zbekiston Respublikasining ta'lim siyosatidagi strategik maqsadi – sifatli ta'limning qulayligini oshirish, bunda shaxs taraqqiyoti va jamiyat ehtiyojlarini hisobga olishdan iborat.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni, birinchi navbatda, insonparvarlik prinsipi asosida tashkil etilishi kerak. Chunki O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosati o'zining insoniylik xarakteriga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu siyosat, birinchi navbatda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishga yo'naltirilgandir. Insoniylik prinsipi asosida tashkil etiladigan boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchilarning erkin rivojlanishlarini ta'minlashi kerak.

Butun dunyoda ro'y berayotgan integrallashuv va globallashuv jarayoni bilan bog'liq holda ta'limning mazmun-mohiyati ham o'zgarmoqda. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldiga o'ta muhim vazifa – o'z-o'zini anglash salohiyati, yangi intellektual darajaga ega bo'lgan mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish vazifasi qo'yilmoqda. Bunday o'quvchilar nazariy tafakkur yuritish, ijodiy faoliyatni amalga oshirish, o'z xatti-harakatlari va faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

Buning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarida yuqori darajadagi o'qish mayllari shakllantirilishi lozim. Ma'lumki, barcha bolalar o'ziga xos iqtidorga ega bo'ladilar. Bolalarning iqtidorlilik darajalari haqida gapirilganda tengdoshlariga nisbatan yuqori idrok etish, ijodiy fikrlash darajasiga ega bo'lgan bolalar tushuniladi.

Agar 1-sinf o'quvchisi o'qishga tayyor bo'lsa, uning zarurligini tushunib yetsa u yaratish, fikrlash, tabiiy yechimlar topish ko'nikmasiga ega bo'lib, shaxs sifatida shakllanishi intellektual sohasi boyishi natijasida amalga oshadi.

Bugungi kunga kelib, boshlang'ich ta'lim tizimi oldiga O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan yuqori talablar qo'yilmoqda. Bu talablarni bajarish uchun boshlang'ich sinflarda yuqori darajada kasbiy salohiyatga ega bo'lgan, tom ma'nodagi ziyoli o'qituvchilar faoliyat ko'rsatishi kerak. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ta'lim jarayonida o'quvchilarga zamonaviy bilimlar va milliy tarbiya asoslarini singdirishi lozim. Bu jarayonda u, birinchi navbatda, o'quvchilarni sevishi va hurmat qilishi zarur. O'qituvchilar konsepsiya asosida boshlang'ich sinfga kelgan o'quvchilarning layoqatlarini aniqlay olishlari va ularni rivojlantirish yo'llarini belgilashlari lozim. Chunki o'quvchilarning layoqatlari muvaffaqiyatlarining ifodasidir.

Bugungi kunda "Bolani qanday vaziyatda olti yoshdan maktabga qabul qilish kerak?" degan savolga javob izlanmoqda. Maktabga tayyorlik – bolaning o'quv faoliyati komponentlarini qabul qilishiga, bir so'z bilan aytganda, maktabga tayyorligi bilan bog'liq. Olti yoshdan maktabga qabul qilish uchun bola o'z rivojlanishining ma'lum darajasiga yetgan, bilish jarayoniga kirishishga tayyor, hissiy qabul qilish imkoniyatiga ega hamda ma'lum darajada erkin bo'lishi lozim. Shu bilan bir qatorda, ularda muayyan shaxsiy sifatlar shakllangan bo'lishi kerak. Bu sifatlar hamda bolaning maktabga tayyorlik darajasi ko'p variantli pedagogik hamda psixologik testlar yordamida tekshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Bolaning maktabga funksional jihatdan tayyorlik darajasini maktab psixologik xizmati (uning tarkibida psixolog, bolalar vrachi, logoped hamda boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lishi shart) aniqlashi lozim. Bunda maktab o'ziga

xos rivojlanish xususiyatiga ega bo'lgan 6-7 yoshli bolalarni o'qitadigan o'qituvchilar bilan keng ko'lamli pedagogik-psixologik tashxisni amalga oshirishi zarur.

Maktab ta'limi, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bola shaxsiga, uning taraqqiyotiga yo'naltirilgandagina samarali bo'lishi mumkin. Bolalarning savodxonligini ta'minlash uchun ayni bir sinfda tahsil oladigan o'quvchilarning barchasi ruhan sog'lom bo'lishi kerak. Bolalar bilan keng ko'lamli psixologik-pedagogik tashxis amalga oshirilganda tekshirish natijalari pedagoglar tomonidan chuqur o'rganilishi hamda bolaning ruhiy rivojlanishi tavsiflanishi lozim. Anomal tarzda rivojlanayotgan bolalar, albatta, korreksiya sinflariga jamlanishi kerak.

Bolalarning rivojlanish jarayoni, bilim saviyasi, tarbiyalanganlik darajasi chuqur tekshirilib, sifat o'zgarishlar aniqlangandagina, ularga keyingi sinfda o'qishni davom ettirish imkoniyati berilishi lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv faoliyati natijalarini baholash muhim ahamiyatga ega. Biroq o'quvchilar ham o'qituvchi ham qo'yilgan bahoning aniqligi, uning qanday mehnat mahsuli ekanligini bilishi zarur.

4. Boshlang'ich ta'lim mazmuni

O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli, ustuvor yo'nalishlardan biri bu o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Milliy axloq tarbiyasi, ma'naviy-ruhiy hamda milliy nafosat va jismoniy tarbiya ham boshlang'ich ta'lim bosqichida ustuvor o'rin egallashi lozim. Bunda o'quv materiali shaklida berilgan ta'limiy matnlar, didaktik mashqlar, o'quv topshirshiriqlari yordamida o'quvchilarda turli shaklda axloqiy-ma'naviy tarbiya va milliy nafosat me'yorlari, umuminsoniy qadriyatlarni singdirish nazarda tutiladi.

Maktab ta'limi, asosan, bolaning mantiqiy tafakkuriga asoslangan holda ish ko'rishi lozim. Bunda obrazli tafakkur mantiqiy tafakkurning bir qadar past va oddiy shakli ekanligini nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Shu bilan bir qatorda, obrazli tafaqqur kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkurining asosiy shaklidir.

Shuning uchun ham, obrazli tafakkur boshlang'ich sinf o'quvchilariga chizmalar, modellar, atrof-muhitdagi turli jismlar yordamida bilimlarni puxta o'zlashtirish imkonini beradi. Shu asosga ko'ra, boshlang'ich ta'lim mazmunida bolalarning tasavvurini va ijodiy tafakkurini o'stirishga qaratilgan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan o'quv materiallari ajratilishi lozim.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida ona tili (o'qish) va matematika ta'limining ahamiyati beqiyosdir. Bu ta'lim jarayoni o'quv fanlarini o'qitish samaradorligi va sifatini belgilaydi.

Ona tili (o'qish) ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Boshlang'ich maktabda matematika ta'limi o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olishga, egallagan bilimlarini ijtimoiy faoliyatlarida qo'llashga hamda ta'limning ikkinchi bosqichida o'qishni davom ettirish uchun matematik tayyorgarlikni ta'minlashga xizmat qilmog'i kerak.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim qonuniyatlariga asoslangan holda boshlang'ich sinflarda ona tili va matematika ta'limi umumiy, milliy-ma'naviy, axloq, nafosat me'yorlari, umuminsoniy, milliy qadriyatlarni singdirishga, shuningdek, o'quvchilarning kommunikativ savodxonligi, nutqiy, mantiqiy, matematik tafakkuri, matematik til, muomala madaniyati, iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'minlash ko'zda tutiladi. Iqtisodiy munosabatlar rivojlanayotgan hozirgi sharoitda bunday ko'nikmalarni shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ona tili va matematika ta'limining mazmuni o'quvchilarning nutqi va savodxonligini, mantiqiy fikrlashlari va matematik tafakkurlarini hamda matematik til madaniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Ta'lim o'zbek tilida va qardosh tillarida olib boriladigan maktablarda "Rus tili" fani, ta'lim rus tilida va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarda davlat tili – "O'zbek tili" fani 2-sinf dan boshlab o'qitiladi. Boshlang'ich ta'limda

o'quvchilarda shu tillarda o'qish va yozish ko'nikmalari, kundalik hayotda zarur bo'lgan oddiy gaplarni qo'llagan holda muloqot qilish malakalari shakllantiriladi. Shu bilan bir qatorda, ertak va hikoyalar orqali shu xalqning urf-odatlarini, milliy madaniyati bilan tanishtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'rgatish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida chet tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganish umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, 2-sinf dan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitish bosqichma-bosqich boshlandi.

Boshlang'ich sinflarda chet tillar bo'yicha ta'lim mazmuni davlat ta'lim standartida belgilab berilgan. Chet tillarni o'qitishni yo'lga qo'yish hamda ta'lim sifati va samaradorligi oshirish maqsadida darsliklardan tashqari, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar, darsliklarning multimediyali ilovalari, ota-onalar uchun yo'riqnomalar bilan ta'minlanadi.

O'quvchilarni tevarak-atrofdagi olam, tabiat bilan tanishtirish, ularda olam tuzilishi va tabiat hodisalari haqida boshlang'ich tasavvur hosil qilish, ilmiy dunyoqarash kurtaklarini shakllantirish, tabiatga muhabbat uyg'otish va undan oqilona foydalanishni o'rgatish atrofimizdagi olam (1–2-sinf), tabiatshunoslik (3–4-sinf) ta'limi orqali amalga oshiriladi. Atrofimizdagi olam va tabiatshunoslik fanlari o'quvchilarni tevarak-atrofidagi narsalar bilan tanishtirish, tabiat va undagi hodisalar haqida tasavvurga ega bo'lish, ularni farqlay olish, qisqacha tavsiflab berish, o'rganganlarini amalda qo'llay olishga o'rgatadi. Bundan tashqari, umumiy

o'rta ta'limning ikkinchi bosqichida o'qitiladigan geografiya, biologiya, fizika va kimyo o'quv fanlarini o'rganishlari uchun zamin tayyorlaydi.

Ta'lim mazmunida o'qish, yozish, hisoblash, tabiatga oid ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish bilan bir qatorda o'quvchilarni kompleks rivojlantirishga asos bo'ladigan tarbiya elementlari ham o'z ifodasini topmog'i lozim. Bu esa ona tili (o'qish), matematika, atrofimizdagi olam (tabiatshunoslik) o'quv fanlari mazmuni integrallanishiga zarurat tug'diradi. Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining integrallashgan mazmuni o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlari, bilish imkoniyatlarining rivojlanish darajasini hisobga olgan holda aniqlanishi kerak.

Integrallashgan ona tili (o'qish), matematika, atrofimizdagi olam (tabiatshunoslik) ta'limi mazmunida mamlakatimiz tarixi, o'zbek xalqi hayotidagi ulug' sanalar, o'lkaning madaniyati, tarixiy obidalari, xalq mehnati, hunarmandchiligi, o'zbek xalqining turmush tarzi, o'lka geografiyasi haqida ham boshlang'ich ma'lumotlar ham o'rin olishi maqsadga muvofiq.

Boshlang'ich ta'limning mazmuni, birinchi navbatda, bilish jarayonining yaxlitligi va maqsadga yo'naltirilganligini ta'minlanishi kerak. Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularda milliy nafosatni va jismoniy chiniqishni tarbiyalashda estetik va jismoniy sikldagi o'quv fanlari (odobnoma, musiqa madaniyati, tasviriy san'at, mehnat va jismoniy tarbiya) alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu o'quv fanlarining mazmuni ta'lim-tarbiya berish jarayonida o'quvchining jismonan chiniqishini ta'minlashga xizmat qiladigan eng muhim ko'nikma va malakalarni, axloq-odob me'yorlari, milliy urf-odatlar, kiyinish me'yorlari, nafosat va go'zallikni his eta olish ko'nikmasini, olamni, moddiy borliqni, insoniyat dunyosini va inson faoliyatini ranglar yordamida tasavvur eta olish, milliy ruhni, inson his-tuyg'ularini turli musiqiy sadolar yordamida anglash ko'nikmasini, shuningdek, oila va uning iqtisodiy asoslari haqidagi dastlabki ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim.

O'quvchilarni san'at olamiga olib kirish natijasida ularda bir qator ruhiy imkoniyatlar tarkib topadi. Bunday ruhiy imkoniyatlardan biri – faraz qila olish imkoniyatidir. Chunki, bolada faraz qila olish ko'nikmasi shakllanmas ekan, unda ijodiy tafakkur va yuksak darajadagi axloqiy sifatlarni tarkib toptirish mumkin emas. Shu bilan bir qatorda, faraz qila olish ko'nikmasi inson faoliyatining barcha sohalarida muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

Faraz qila olish ko'nikmasi boshqa faoliyat turlariga nisbatan san'at namunalari yordamida jadal rivojlanadi. Tajriba va kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, 5-9-sinf o'quvchilari duch keladigan ko'pgina qiyinchiliklar ularda faraz qila olish ko'nikmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi tufayli vujudga keladi.

Boshlang'ich ta'lim mazmunida o'quvchilarga jismoniy va nafosat me'yorlarini singdirish ularning go'zalikka bo'lgan munosabatini va intilishini shakllantiradi. Bu esa milliy ongni rivojlantirishning asosiy omilidir. Shu jihatdan maktab ta'limida san'at asarlarini o'rgatishga asoslangan o'quv fanlari – odobnoma, tasviriy san'at, mehnat, musiqa madaniyati va jismoniy tarbiya asosiy o'rin egallaydi.

Boshlang'ich ta'limda o'qitiladigan o'quv fanlarining tayanch mazmuni har bir fandani ishlab chiqiladigan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarida belgilab beriladi. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 7-moddasida "Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir" deyilgan. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari boshlang'ich ta'lim (1–4-sinflar) va umumiy o'rta ta'lim (5–9-sinflar) uchun majburiy minimal ta'lim mazmunini hamda ushbu ta'lim bosqichlarini bitiruvchilariga qo'yiladigan majburiy minimal talablarni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi uchun har bir o'quv fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari ishlab chiqiladi. O'quv fani bo'yicha davlat ta'lim standarti ikki qismdan iborat bo'ladi: 1) 1–4-sinflarda berilishi zarur bo'lgan majburiy minimal ta'lim mazmuni; 2) boshlang'ich ta'lim bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablar.

Boshlang'ich ta'limning tegishli o'quv fanidan ishlab chiqilgan davlat ta'lim standarti (DTS)da belgilab berilgan majburiy minimal ta'lim mazmuni – shu fandan o'quvchilarga beriladigan minimal o'quv materiallari bo'lib, o'quv dasturini tuzishda ular tayanch qilib olinadi.

DTSda belgilangan boshlang'ich ta'lim bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablar o'quvchilar egallashlari shart bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni ifodalaydi. Boshlang'ich ta'lim bitiruvchilari (4-sinfni bitiruvchilar) DTSda belgilangan majburiy minimal talablarni bajargan bo'lishlari shart.

O'quvchilar qoniqarli baho olishlari uchun DTSda belgilangan talablarni bajargan bo'lishlari zarur. Yaxshi va a'lo baho olish uchun o'quvchilar DTSda belgilangan talablardan yuqori bo'lgan talablarni bajargan bo'lishlari kerak. Bunday yuqori talablar o'quv dasturida o'quvchilar egallashlari mumkin bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tarzida keltiriladi. Bunday talablar o'quv dasturida har bir sinf uchun belgilab qo'yiladi.

Boshlang'ich ta'lim bitiruvchilari DTSda belgilangan majburiy minimal talablarni bajara oladigan bo'lishlari uchun tegishli sinfda tegishli mavzu o'tilganda bunday talablarni o'z vaqtida bajargan bo'lishlari kerak. Shuning uchun DTSni ta'lim jarayoniga tatbiq etish uchun boshlang'ich ta'lim bitiruvchilariga qo'yilgan majburiy minimal talablarni 1–4-sinflarda o'tiladigan mavzular bo'yicha taqsimlab chiqilishi maqsadga muvofiq. O'qituvchi va o'quvchi o'tiladigan har bir yangi mavzu bo'yicha DTS talablari bo'yicha egallashlari shart bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni oldindan bilishlari kerak.

Majburiy minimal talablar har bir mavzu bo'yicha, har bir chorak bo'yicha, har bir sinf bo'yicha bajara borilishi boshlang'ich ta'limni bitirishda DTS talablarining bajarilishining garovidir.

5. O'quv-metodik majmualar bilan ta'minlash

“Ta'lim darslikdan boshlanadi” degan ibora, ayniqsa, boshlang'ich ta'limga juda taalluqlidir. Ta'lim jarayonida darslik eng muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, 1-sinfqa qadam qo'ygan o'quvchilar Prezident sovg'asi sifatida barcha darsliklar bilan to'liq ta'minlanadi. 2–4-sinf o'quvchilariga esa darsliklar bir o'quv yilida foydalanishlari uchun ijaraga beriladi. Shunga muvofiq 1-sinf darsliklari har yili, 2–4-sinf darsliklari har ikki yilda nashr etiladi.

Boshlang'ich sinf darsliklari shunday tuzilishi kerakki, uning tarkibi va mazmuni o'quvchilarni o'quv materiallari bilan muloqotga kirishishga undashi lozim. Natijada o'quvchilar o'quv-tarbiya jarayonida o'zaro hamkorlik qilish, mashqlar ustida ishlash, ijodiy faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

Darslik mazmuni kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartiga va o'quv dasturiga to'liq mos bo'lishi zarur. Undan tashqari, darslik mazmuni quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- buyuk kelajakni quruvchi, yuksak ma'naviyatga ega barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilishi;
- umuminsoniy qadriyatlarni, yurtimizga xos sharqona voqelikni, milliylikni o'zida mujassamlashtirishi;
- mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, milliy istiqlol g'oyalarini singdirish, vatanparvarlik hislarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi;
- ilmiy va amaliy ahamiyatga molik nazariy ma'lumotlar, qonun-qoidalar va tushunchalarning bo'lishi;
- fanlararo bog'lanishda takrorlashning oldini oladigan, parallel va muayyan mantiqiy, izchil ketma-ketlikka asoslangan uyg'unlikning bo'lishi;
- o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olinishi;

➤ darslikda keltirilgan material o'quv rejada ajratilgan soatlarda o'rganishga mo'ljallangan bo'lishi;

➤ qo'llaniladigan atamalar, tushunchalarning ta'riflari, qonun-qoidalarining ifodalari, hodisalarning izohlari fan bo'yicha amalda qabul qilingan va ommalashgan atamalarga mos bo'lishi;

➤ respublikamiz tabiati, ijtimoiy-siyosiy sohadagi salohiyati va yutuqlarni yoritishi kerak.

Darslikka qo'yilgan yuqoridagi talablar quyidagi didaktik tamoyillardan kelib chiqadi:

➤ ta'lim jarayonining tarbiyaviy yo'nalganligi tamoyili: ta'lim olish jarayonida o'quvchilarda komil inson fazilatlarini, odob-axloq asoslarini shakllantirish;

➤ ta'lim va tarbiya birligi tamoyili: o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy g'urur xissini shakllantirish.

➤ ilmiy dunyoqarashni shakllantirish tamoyili: o'quvchilarda fan asoslariga oid nazariy tushunchalarni singdirish;

➤ ilmiylik tamoyili: darslikda keltiriladigan hamma dalillar ilmiy asoslangan, ishonchli va aniq bo'lishi, voqea-hodisalar o'zaro bog'lanish va rivojlanishda yoritilishi;

➤ tushunarlilik va qiziqarlilik tamoyili: darslikdagi materiallar o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli bo'lishini ta'minlash, darslik mavzulari tushunarli, sodda va ravon tilda yozilganligi;

➤ hayotiylik tamoyili: materiallarning kundalik turmush va hayot bilan aloqadorlikda berilishi, milliy xususiyatlar va mahalliy sharoitning, qishloq va shahar hayot tarzining hisobga olinganligi;

➤ tarixiylik tamoyili: tarixiy ilmiy materiallarga, fan tarixi va milliy merosga asoslanishi, fan taraqqiyotiga hissa qo'shgan buyuk allomalar va olimlar haqida ma'lumotlarning berilishi;

➤ ta'limning hammaboplik tamoyili: o'quvchining rivojlanish darajasiga, oldingi bilimlariga va hayotiy tajribasiga tayanishi va mos bo'lishi;

➤ ta'limning muntazamligi tamoyili: darslikdagi tushunchalar, ilmiy dalillar, farazlar, nazariyalar, ta'riflar ma'lum mantiqiy tizimda izchil bayon qilinishi;

➤ ta'limning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili: darslikda amaliy mashg'ulotlar va topshiriqlarning, yosh avlodni kasbga yo'naltiradigan materiallarning bo'lishi;

➤ bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish tamoyili: o'quvchilarning o'rganilayotgan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashning nechog'lik zarurligini anglashiga, bu bilim va ko'nikmalarning hayot uchun foydasini, ahamiyatini tushunishga qaratilganlik, o'quvchilarni darsda faollashtiruvchi materiallarning berilishi;

➤ aniq va abstrakt tushuncha va faktlarning birligi tamoyili: o'qitish ba'zan faktlarni kuzatishdan boshlanishini, keyin esa xususiydan umumiyga, aniqdan mavhumga o'tishni; boshqa hollarda esa mavhumdan muayyan tushuncha va faktlarga o'tish tarzida amalga oshirilishi;

➤ ko'rsatmalilik tamoyili: darslikda keltirilgan materiallarning ko'rsatmalilikka va hodisalar rivojining ichki va tashqi mantiqiyligiga asoslangan bo'lishi, o'quvchilarda to'g'ri tasavvur va tushunchalarni shakllantirishga yordam beruvchi zarur suratlar, sxemalar, chizmalar kabi ko'rgazmali illyustratsiyalarning bo'lishi, bezaklar o'quvchi diqqatini o'ziga tortadigan bo'lishi va o'quvchining o'zlashtirishga yordam berishi, ranglarning o'z joyida va zaruriy minimal me'yorda ishlatilishi;

➤ bilimlarni puxta egallash tamoyili: quyi sinflarda olingan bilimlarni qo'llash va mustahkamlash, o'quvchilarning bilimlarni puxta egallashlari uchun darslikda mexanik tarzda eslab qolishga emas, faol fikrlashga, o'rganilganlarning ma'nosini o'qib olishga qaratilgan mashqlar bo'lishi, bilimlarni nazorat qilish uchun mo'ljallangan savol namunalarining berilishi;

➤ rivojlantiruvchi ta'lim tamoyili: bilimlarni egallash va o'quvchilarni har tomonlama kamol toptirish jarayonlari orasida uzluksiz aloqalarning o'rnatilishi, o'quvchilarning mustaqil bilim olishga yo'naltira oladigan materiallarning berilishi;

➤ ta'limning ijtimoiylik tamoyili: materiallarning jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarga mos holda berilishi;

➤ o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish tamoyili: dars materiallarining o'qituvchi shaxsiga qaratilganligi, o'quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, qiziqishlari va layoqatlari turlicha ekanligini nazarda tutilganligi;

➤ ta'limning o'quvchilar yoshi, psixologik xususiyatlari va saviyasiga mosligi tamoyili: o'quvchilarning individual, yosh va psixologik xususiyatlari va bilim darajasi hisobga olinishi;

➤ ta'limning uzviyligi va uzluksizligi tamoyili: o'quvchi shaxsining to'g'ri va tadrijiy ravishda shakllanib borishi, fanning yuqori cho'qqilari sari og'ishmay inilib borishi va ongining shakllanishiga muvofiq tarzda fan yutuqlarini o'zlashtirib borishi, takrorlovchi va umumlashtiruvchi materiallarning berilishi;

➤ gender tamoyili: hamma sohada ayol va erkaklarga (qiz bola va o'g'il bolalarga) teng qarash, kamsitmaslik masalalarining tegishli me'yorda yoritilishi.

Har bir dars uchun o'quv materialining bayoni odatda uch bosqichga bo'linadi:

➤ o'quv materialining taqdimoti;

➤ mavzuni rivojlantirish;

➤ qo'llash, mustahkamlash, integratsiya va baholash.

O'quv materialining taqdimoti bosqichi o'z navbatida quyidagi bosqichlarning turli tartibdagi zanjirdan iborat bo'lishi mumkin: oldindan muammoli vaziyatni qo'yish, motivatsiya, boshlang'ich yo'naltiruvchi masalani hal qilish, mavzuga oid hayotiy hujjat bilan tanishtirish, mavzuga oid hayotiy ob'ekt yoki vaziyat bilan tanishtirish, fanga oid atamaning boshlang'ich ta'rifi, kirish mashqi, o'quvchilar tomonidan tadqiqot ishining bajarilishi, dars maqsadini tushuntirish, oldingi orttirilgan bilimlarga murojaat qilish.

Mavzuni rivojlantirish bosqichi o'z navbatida quyidagi bosqichlarning turli tartibdagi zanjiridan iborat bo'lishi mumkin: ta'lim mazmunini xususiydan umumiyga qarab anglatish (induksiya), qo'shimcha ma'lumotlar taqdimoti, atama,

tushuncha, qoida va formula haqida boshlang'ich taassurot uyg'otish maqsadida umumiydan xususiya tomon anglatish (deduksiya), mavzuni rivojlantirish, rasm, chizma, sxema, diagramma kabi illyustratsiyalar taqdimoti, tajriba namoyishi, boshlang'ich muammoga qaytish, orttirilgan bilimlarni eslab qolishga qaratilgan mashg'ulotlar.

Qo'llash, mustahkamlash, integratsiya va baholash bosqichi o'z navbatida quyidagi bosqichlarning turli tartibdagi zanjiridan iborat bo'lishi mumkin: nazariyani qo'llashga doir mashq, tushunganlikni aniqlovchi savollar, mustahkamlash uchun mashqlar, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolar sharxi, qo'shimcha mashg'ulotlar, boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikni o'rnatishga oid mashg'ulotlar, orttirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni baholovchi mashg'ulotlar.

O'quv-metodik majmua sirasiga darslikdan tashqari, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, o'quvchilar uchun qo'shimcha adabiyotlar, didaktik materiallar ham kiradi.

Darslarni zamonaviy metodlardan foydalangan holda mazmunli va qiziqarli tarzda tashkil etishda o'qituvchilar metodik qo'llanmadan foydalanishlari mumkin. Metodik qo'llanmada darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda qiziqarli tarzda tashkil etish metodlari, turli interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar, mavzularning darslar bo'yicha taqsimoti, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablarning bajarilishiga erishish bo'yicha tavsiyalar, har bir dars uchun yoki namunaviy tarzda bir nechta dars uchun darsni o'tish metodikasi bayon qilinishi maqsadga muvofiq. Darsni o'tish metodikasida darsning maqsadlari (ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi), darsda foydalaniladigan metodlar, darsning turi, dars jarayonida foydalaniladigan jihozlar, darsdan kutilayotgan natijalar, darsning borishi (tashkiliy qism, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yangi mavzuning bayoni, yangi mavzuni mustahkamlash, uyga vazifa berish) keltirilishi tavsiya etiladi. Metodik qo'llanmada tegishli mavzuni o'tish bo'yicha o'qituvchi uchun qo'shimcha ma'lumotlar ham berilishi mumkin. Chunki darslikka murakkab

mazmundagi matnlar berilmaydi. Lekin o'qituvchi mavzu mazmunini chuqurroq anglab olishi uchun u ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Kezi kelganda iqqidorli o'quvchilar e'tiboriga shu qo'shimcha ma'lumotlarni ham havola qilsa bo'ladi.

Matematika bo'yicha metodik qo'llanmadan bulardan tashqari, tegishli misol va masalalarni yechish usullari ham ko'rsatib berilishi mumkin.

6.Ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni tatbiq etish

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash asosiy vazifalaridan biri sifatida ko'rsatilgan.

O'quv-tarbiya jarayonining asosiy shakli bo'lgan darsning samaradorligi uni qanday tashkil etilishiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida, darsda foydalaniladigan ta'lim metodlarining uyg'unligini ta'minlashni talab etadi. Buning uchun dars jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida hamkorlik, o'zaro muloqot qilish va ijodiy faollik ko'rsatish uchun qulaylik yaratishi kerak. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim oldiga yangi maqsadlarning qo'yilishi darsning yangi strukturasini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Shu bilan bir qatorda, boshlang'ich ta'lim jarayoniga samaradorlik darajasi ilmiy jihatdan asoslangan innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish zaruriyati kuchaymoqda.

«Innovatsiya» inglizcha «Innovation» so'zidan olingan bo'lib, «yangilik» degan ma'noni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar orqali pedagogik jarayonga, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish amalga oshiriladi. Innovatsion texnologiyalarni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalaniladi.

«Interfaol» inglizcha «interactive» so'zidan olingan («inter» – «o'zaro», «act» – «harakat») bo'lib, «o'zaro harakat qilmoq» degan ma'noni bildiradi. Interfaol metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinflarda darslarning samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarni yalpi o'qitish bilan bir qatorda, individual va kichik guruhlarda o'qitishni tashkil etish maqsadga muvofiq. O'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etilganda ular o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtiradilar. Aqliy rivojlanishi, qiziqishi, ehtiyoji, iqtidori, bilimlarni o'zlashtirish darajasi hisobga olingan holda tuzilgan o'quv topshiriqlarini o'quvchilar mustaqil bajaradilar va ular o'z bilish faoliyatlarining sub'ektiga aylanadilar.

O'quvchilar topshiriqlarni individual bajarish jarayonida ularning aqliy faoliyati jalb etiladi, o'z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonch ortadi. Buning natijasida har bir shaxs o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi. Shu tarzda tashkil etilgan bilish faoliyatida vaqtdan unumli foydalaniladi. Pirovard natijada ta'lim samara-dorligi ortadi. Ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanib o'tiladigan darslarda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi.

Pedagogik texnologiya deganda, ta'lim funksiyasini amalga oshirishdagi san'at va mahorat tushunilib, u juda qulay usullar asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga asos bo'ladi.

Pedagogik texnologiyalar darslarni o'tishda ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda mavzuni o'rganishga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinflarda darslarni didaktik o'yinlardan foydalanib o'tishning samarasi beqiyos kattadir. O'yin boshlang'ich sinf o'quvchilarida, ma'lum sifatlarni shakllantirish uchun qo'llaniladigan usuldir. O'yin vositasida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish jarayoni qulaylashadi, turli xil narsalar bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi, shuningdek, ularda muomala madaniyati shakllanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv-biluv faoliyatining komponentlarini bosqichma-bosqich shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun har bir dars o'qituvchi tomonidan loyihalashtirilishi, tarkibiy qismlari aniq chegaralangan bo'lishi zarur. Darsda o'qituvchi har bir o'quvchi bilan o'zaro muloqot va hamkorlik o'rnatish, dialogga kirishishi uchun qulay sharoit yaratilishi muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarni o'yin faoliyatidan o'quv-biluv faoliyatiga o'tishlarini ta'minlashga xizmat qiladigan innovatsion metodlar majmuini yaratish talab etilmoqda. Didaktik o'yinlar boshlang'ich ta'limda o'qitishning muhim metodi sifatida alohida mavqe egallashi kerak.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining asosiy talablaridan biri axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng tatbiq etib, o'quvchilarni mustaqil bilim olishga, erkin fikrlashga o'rgatishdan iboratdir. Shu maqsadda maktablarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi, maktablar kompyuter va boshqa texnika vositalari bilan ta'minlandi. Bularning barchasi ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgandir.

Hozirgi vaqtda pedagog kadrlarni axborot-kommunikatsion texnologiyalar bo'yicha malakalarini oshirish ishlari keng yo'lga qo'yilgan. Har bir pedagog o'z kasbiy faoliyatida kompyuter imkoniyatlaridan erkin va faol foydalanishni, dars jarayonida tatbiq qilishini nazarda tutadi.

Pedagoglarning axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tayyorgarligi bir necha komponentlarni o'z ichiga oladi. Ulardan biri axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish asoslari va ularni kasbiy faoliyatda qo'llash metodikasini egallash hisoblanadi.

Tovushlar va multimediyalar bilan ishlash multimediya vositalari deb ataladigan maxsus texnik va uskunaviy asboblardan yordamida amalga oshiriladi, "Multimediya" atamasi "ko'p tarmoqli muhit", "multimuhit" ma'nolarini anglatadi. Multimediya deganda, turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi. Elektron qo'llanma eng birinchi navbatda bu – yangi o'quv ma'lumotlarni namoyish etish, an'anaviy ta'lim usulida chop etilgan

qo‘llanmalarni mazmunan to‘ldiruvchi, ko‘rgazmali vositalarga animatsiya beruvchi, mavzuni audiovizual (ko‘rish va eshitish) to‘ldiruvchi, egallangan bilim va ko‘nikmalarni tekshirib ko‘rishga imkon beruvchi kompyuter-informatsion dasturiy vosita bo‘lib, unda multimediya imkoniyatlaridan keng foydalaniladi. Deyarli har bir ta’lim muassasasi kutubxonalarida multimediya prinsiplariga asoslangan elektron ma’lumotnomalar, ensiklopediyalar, tarjimonlar va lug‘atlar mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari elektron ensiklopediyalardan ochiq darslar davomida samarali foydalanishlari kerak.

7.Dars jarayonida quyidagi turdagi axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga e’tibor beriladi:

- yangi mavzuni bayon etish yoki mustahkamlash uchun slaydlar;
- ayrim mavzularni bayon qilish uchun har biri 5–10 minutli bo‘lgan multimediyalar;
- deyarli barcha mavzularni bayon qilish uchun har biri 5–10 minutli bo‘lgan multimediyalar;
- turli mashqlarni, amaliy topshiriqlarni bajarishga mo‘ljallangan o‘yinli multimediyalar.
- Bulardan tashqari, o‘quvchilar mustaqil shug‘ullanishlari uchun elektron darsliklar yaratish ko‘zda tutiladi. Elektron darslikda ayrim muhim mavzular yoki deyarli barcha mavzular bayoni, undagi mashqlar, topshiriqlar, testlar multimediya orqali beriladi. Unda turli mashqlar, topshiriqlar va testlar o‘yinli multimediyalardan iborat bo‘ladi.
- Elektron darsliklar o‘quvchilarni bilim olishga qiziqtiradi, o‘zlari ustida mustaqil ishlashga o‘rgatadi, bo‘sh vaqtlarini mazmunli va foydali o‘tkazishga yordam beradi.
- Boshlang‘ich ta’lim jarayonida multimediyadan foydalanish o‘qituvchiga:
- darsni zamonaviy tarzda modellashtirish;
- bilimlarini chuqurlashtirish uchun qo‘shimcha ma’lumot va axborotlarga ega bo‘lish;
- nazariy va mustaqil ishlashni tayyorlash imkonini beradi.

- Boshlang'ich ta'lim jarayonida multimediyadan foydalanish o'quvchilarga:
- fanga qiziqish uyg'otish, o'z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash;
- ensiklopedik ko'rinishdagi axborotlarni tezkor olish;
- mavzuni o'rganishda o'zi uchun qulay bo'lgan tezlik va o'zlashtirish darajasini tanlash;
- zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarga jalb qilish, uni egallash va unga doimiy ishlashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish imkoniyatlarni beradi.

Boshlang'ich sinflarda o'quv fanlari bo'yicha multimediyaga asoslangan dars ishlanmalarini o'qituvchi tomonidan tayyorlash juda katta mehnatni talab etadi. Bu ishlarni o'qituvchilarning hammasi ham uddalay olmavermaydi. Shuning uchun multimediyaga asoslangan dars ishlanmalarini markazlashtirilgan holda tegishli mutaxassislar tomonidan tayyorlab berilishi maqsadga muvofiq.

Multimediyaga asoslangan dars ishlanmalarini markazlashtirilgan holda tayyorlash axborot-kommunikatsion texnologiyalarni biladigan, ya'ni multimediyani tayyorlay oladigan mutaxassislari bilan shu o'quv fanining mutaxassislari birgalikda amalga oshirilishi kerak. Buning uchun fan mutaxassisi axborot-kommunikatsion texnologiyalardan, multimediyani tayyorlash texnologiyasidan yetarli daraja xabardor bo'lishi kerak. Bunda fan mutaxassisi tegishli dars uchun multimediyaga asoslangan dars ishlanmasining ssenariysini tuzib berishi, multimediyani tayyorlash jarayonida bevosita ishtirok etishi kerak.

Multimediyaga ovoz berish uchun ham maxsus mutaxassislar jalb qilinishi, ovoz ravon va tushunarli tarzda berilishi, o'quvchilarning diqqatini jalb qila oladigan darajada bo'lishi zarur.

O'quv topshiriqlarini multimediali vositalar yordamida o'quvchilarga taqdim etish bir qadar qulayliklar tug'diradi. Chunki multimediali vositalar o'quvchilarning mustaqil faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Har bir o'quvchini o'qituvchi hamda sinfdoshlari bilan muloqotga kirishish, hamkorlik

qilishga undaydi. Bunday vaziyatlarda multimediali vositalar alohida didaktik funksiyani bajaradi.

8.O'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash

O'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashda boshlang'ich ta'lim bitiruvchilariga DTSda belgilangan majburiy minimal talablardan hamda o'quv dasturida belgilangan o'quvchilar egallashlari mumkin bo'lgan talablardan kelib chiqiladi. DTSda belgilangan talablar murakkablik darajasiga ko'ra o'quv dasturidagi talablarning taxminan 56 foizini tashkil etgan bo'lishi kerak.

Qoniqarli baho olish uchun o'quvchi eng kamida DTS talablarini to'liq bajarishlari yoki o'quv dasturida belgilangan talablarning eng kamida 56 foizini bajargan bo'lishi zarur. Yaxshi baho olishi uchun o'quvchi o'quv dasturida belgilangan talablarning 71–85 foizini bajargan bo'lishlari kerak. O'quv dasturida belgilangan talablarning 86–100 foizini bajargan o'quvchilarga a'lo baho qo'yiladi.

DTSda belgilangan talablarning bajarilishini nazorat qilish boshlang'ich ta'lim yakunida amalga oshiriladi. Lekin boshlang'ich ta'lim yakunida bitiruvchilar DTS talablarini bajarishlari uchun bu talablar o'z vaqtida tegishli sinfda tegishli mavzu o'tilganda bajargan bo'lishlari zarur.

Shuning uchun ushbu konsepsiyaning 5-bandida keltirilganidek, DTSda boshlang'ich ta'lim bitiruvchilari uchun belgilangan majburiy minimal talablar asosida 1–4-sinflarda har bir mavzu bo'yicha o'quvchilar egallashlari shart bo'lgan talablar ishlab chiqiladi. Har bir sinf o'tiladigan har bir mavzu uchun ishlab chiqilgan majburiy minimal talablar DTS talablari sifatida e'tirof etiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashda har bir mavzu uchun belgilangan DTS talablarining barcha o'quvchilar tomonidan bajarilishi nazoratga olinadi. Oraliq yoki yillik nazorat ishlarini o'tkazishda nazorat ishi topshiriqlaridan 50–60 foizi DTS talablari darajasida, qolganlari DTS talablaridan yuqori darajada, lekin o'quv dasturi talablari doirasida bo'lishi maqsadga muvofiq. O'tkazilgan nazorat ishida faqat DTS talablaridagi topshiriqlar bajarilsa qoniqarli baho qo'yiladi. Nazorat ishida yaxshi va a'lo baho olish uchun DTS talablaridagi

topshiriqlardan tashqari boshqa topshiriqlar ham tegishli darajada bajarilgan bo'lishi kerak.

O'quvchilarning 1-sinfidan boshlab kamida DTS talablarini har bir mavzu bo'yicha, har bir chorak bo'yicha, har bir sinf bo'yicha o'z vaqtida bajara borishlari boshlang'ich ta'limni bitirishlarida DTSda belgilangan barcha talablarni bajarishlari uchun kafolat bo'ladi. O'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholashda bunday yondashuv ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

9.O'quvchilarning iqtidorlik darajalarni aniqlash va iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash

Maktabga ilk qadam qo'ygan har bir sog'lom bola qaysidir yo'nalishda layoqatga ega bo'ladi. Bolalardagi layoqatlarni tashxislash orqali amalga oshiriladi. 1-sinfda ta'lim olishga kirishgan bolalarning mavjud layoqatlari bilimdonlik darajalarini belgilaydi. O'quvchilar layoqatlilik darajalarini o'zlarini bilimdonliklari orqali namoyon qiladilar. O'quvchidagi layoqat rivojlantirib borilsa, bu layoqat iqtidorlikka aylana boradi. Iqtidorlilik haqida gapirilganda tengdoshlariga nisbatan yuqori idrok etish, ijodiy fikrlash darajasiga ega bo'lgan o'quvchi tushuniladi.

Maktab psixologlari tegishli o'qituvchi bilan hamkorlikda tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda har bir sinfda o'quvchilarning iqtidorlik darajalarini aniqlash bo'yicha tashxislashni amalga oshiradilar.

Tashxis natijalariga ko'ra iqtidorli deb topilgan o'quvchilar o'z intellektual potentsiallarini muntazam oshira borishlari uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Iqtidorli o'quvchining ota-onasi bilan maslahatlashgan holda unga qiziqclariga mos ravishda ular bilan qo'shimcha shug'ullanish tashkil etiladi. Parallel sinflardan bir nechta shunday iqtidorli o'quvchilarni tanlab, ularni tegishli fan to'garakclariga jalb qilish mumkin. Agar parallel sinflar 3 tadan ortiq bo'lsa, parallel sinflardan iqtidorli o'quvchilar yig'ib, alohida iqtidorli o'quvchilar sinfini tashkil etish mumkin.

Iqtidorli o'quvchilarga asosiy darslikdan tashqari qo'shimcha adabiyotlar bilan shug'ullanish yo'lga qo'yiladi.

10. Ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish

Maktabda o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarning darslarni o'zlashtirishida, ularni ta'lim olishga qiziqtirishda ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

Har bir o'quvchi tomonidan DTSda belgilangan talablarning bajarilishini ta'minlashda tegishli sinf uchun har bir o'quv fanidan har bir mavzu bo'yicha belgilangan DTS talablari har bir o'quvchining ota-onasiga ham yetkazilishi maqsadga muvofiq. Ota-ona har kuni farzandi qaysi o'quv fanidan qaysi mavzuni qay darajada o'zlashtirishi shart ekanligini bilishi lozim. Shu yo'l bilan ota-ona farzandining DTS talablari darajasida yoki undan yuqori darajada bilim olayotganligini nazorat qilishiga imkon yaratiladi. Bu bilan farzandi kamida DTS talablarini bajarishlari uchun ota-onaga ham mas'uliyat yuklatiladi. Shu orqali ota-onalarning o'qituvchi bilan muntazam hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga undaydi.

Ayniqsa, nazorat ishining natijasiga ko'ra DTS talablarining bajarilmaganligi ma'lum bo'lgan taqdirda, bu talablarning bajarilishiga erishish uchun o'qituvchi ota-ona bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishlari zarur bo'ladi. Ular o'quvchi bilimidagi bo'shliqlarni to'ldirish tadbirlarini birgalikda amalga oshiradilar.

DTS talablarini muntazam bajarmayotgan o'quvchining ota-onasi bilan hamkorlik qilishdan bosh tortgan holda, farzandining bilim olishiga befarq bo'lgan holda maktab ma'muriyati mahalla qo'mitasiga murojaat qiladi. Maktab ma'muriyati mahalla qo'mitasi bilan hamkorlikda farzandining ta'lim-tarbiyasiga befarq bo'lgan ota-onani tartibga chaqiradi yoki qonun doirasida tegishli choralar ko'radi.

Iqtidorli o'quvchi bilan shug'ullanishda ham o'qituvchi uning ota-onasi bilan hamkorlikda ish yuritadi.

11. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining salomatligi

O'quvchilarning salomatliklari ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardandir. O'quvchilarning o'qish va dam olishlarini tashkil etishda, o'quv dasturlari va ta'lim vositalarining mazmunini aniqlashda, bolaning yoshi bilan

bog'liq tarzda jismoniy hamda aqliy rivojlanishidagi morfofunktsional hamda psixofiziologik xususiyatlarni aniq hisobga olish lozim.

Ma'lumki, bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida ularning ruhiyati va jismida sifat o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bola imkoniyatlarining kengayishi natijasida uning idroki, diqqati, tafakkuri hamda aqliy- intellektual taraqqiyoti tezlashadi. Bu davrda bolalar organizmida toliqish vujudga keladi.

Bolalarning rivojlanishida 9-10 yosh alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu davrda ularning taraqqiyotida tizimli xarakterdagi izchil integratsiya jarayoni boshlanadi. Ta'lim jarayonini tashkil etishda xuddi shu asosga tayanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining salomatligini muhofaza qilish hamda pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlash nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan bir qatorda, maktab yoshidagi bolalar o'zlarining psixo-fiziologik rivojlanishlari bilan alohida ajralib turadilar. Bu o'z navbatida, ta'lim jarayonida ularga alohida yondashuvni taqozo qiladi. Shu asosga ko'ra haftalik o'quv yuklamasi maksimum quyidagicha bo'lishi mumkin: hafta davomida faqat ikki marta kuniga besh soatdan, qolgan uch kun esa 4 soatdan oshmasligi lozim. O'quv sinflari sanitariya hamda gigiena me'yorlariga qat'iy amal qilingan tarzda jihozlanishi, yorug'liq, issiqlik va tozalik me'yorida bo'lishi, muntazam shamollatib turilishi lozim. Barcha o'quv binolarida o'quv mebellari bolalarning bo'yiga, ularning o'tirish va harakatlanish me'yorlariga mos kelishi kerak.

12.Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Boshlang'ich ta'limning samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi barcha psixologik-pedaogik vositalarni qo'llagan holda, o'quvchilarda yaxlit tarzdagi o'quv faoliyatini shakllantira olishi kerak.

Zamonaviy ta'lim nazariyasida o'qituvchining mavqei o'quv-tarbiya jarayonining boshqaruvchisi sifatida tavsiflangan. Demak, o'qituvchi, shu jumladan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi peadgogik jarayonni to'g'ri boshqara bilishi uchun chuqur bilim va kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi lozim.

O'qituvchi ko'p jihatdan o'quvchi uchun o'rnakdir. Shuning uchun ham, u birinchi navbatda, ularni o'ziga jalb eta olishi kerak.

Shaxsga yo'naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang'ich ta'limni tashkil etishni nazarda tutgan holda o'qituvchining shaxsiy sifatlari, kasb mahorati hamda bilim darajasini tashxislash asoslari ishlab chiqilishi zarur. Tashxislash natijalari asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash, ular malakasini uzluksiz oshirish mazmuni va texnologiyalari takomillashtirishi lozim.

O'qituvchining kasbiy madaniyati va yetukligini ko'rsatuvchi muhim omillardan biri uning kiyimi hisoblanadi. Pedagog kiyimining to'g'ri tanlanishi o'quvchilarda yoqimli tasavvurlar hosil qilish imkonini beradi. Chunki o'qituvchining kostyumi uning kasbiy yetukligi va shaxsiy sifatlari: tartibliligi, shaylanganligi, jiddiyligi, ozodaligi, tarbiyalanganligi, madaniyatlilikini ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa uning kasbiy faoliyatini amalga oshirishda qulaylik tug'diradi. Shuning uchun ham o'qituvchilarning kiyinish qoidalariga qat'iy rioya qilishlarini ta'minlash lozim.

Zamonaviy o'qituvchining imiji uning kasbiy muvaffaqiyatlarini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. O'qituvchining imiji uning xatti-harakatlari, tashqi qiyofasi, odatlari, gapirish maromi, mentaliteti asosida o'quvchilar, kasbdoshlari, umuman atrofdagilarning hosil qilgan tasavvurlari demakdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining tashqi qiyofasida quyidagilar yaqqol namoyon bo'lishi kerak: o'quvchilarni sevishi, o'z ishiga qiziqishi, o'z sezgilariga asoslangan holda ongli tarzda kasbiy faoliyat modellarini tanlay olishi, o'quvchilarning ehtiyojlarini bilishi, mazkur ehtiyojlarni munosib baholay olishi, o'z o'quvchilari va atrofdagilar bilan samarali aloqa va hamkorlik o'rnatish, ular bilan do'stona munosabatda bo'lishi, zarur vaziyatlarda o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashi, o'quvchilar bilan dialog va muloqotga kirishish yo'llarini yaxshi bilishi, o'ziga ishonishi va faoliyati natijalarini yuqori darajada baholay olishi, o'quvchilarga va atrofdagilarga mehribon bo'lishi, ularni qadrlay olishi, ijtimoiy-shaxsiy mas'uliyatga ega bo'lishi lozim.

Konsepsiyani hayotga tatbiq etish chora-tadbirlari

Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan g'oyalarni hayotga tatbiq etish uchun quyidagi chora-tadbirlar belgilanadi va amalga oshiriladi:

Boshlang'ich ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'nalishida ilmiy-tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish.

Boshlang'ich ta'lim maqsadlaridan hamda har bir o'quv fanining vazifalaridan kelib chiqqan holda har bir o'quv fanidan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari loyihalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish mexanizmini tayyorlash.

Har bir o'quv fanidan ishlab chiqilgan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari asosida o'quv dasturlarini takomillashtirish

Darsliklarni kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va takomillashgan o'quv dasturlariga muvofiqlashtirish.

Ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng ko'lamda joriy etish.

Har bir o'quv fanidan o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning intellektual salohiyatlarini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha tavsiyalar tayyorlash.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahorati, kiyinish madaniyati va imijiga qo'yiladigan talablar majmuini ishlab chiqish.

Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 2 martdagi 36-son qaroriga I

LOVA

Magistratura to'g'risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida» 2012 yil 24 iyuldagi PF-4456-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2007 yil 10 sentyabrdagi 190-son qaroriga muvofiq magistratura faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish, kadrlar tayyorlash sifati va ularning raqobatbardoshligini kuchaytirish maqsadida ishlab chiqilgan va oliy ta'lim muassasalarida magistrlar tayyorlashning asosiy qoidalari va tartibini, umumqabul qilingan xalqaro standartlarga binoan magistrlik dissertatsiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan mezonlar va talablarni belgilaydi.

Ushbu Nizomning amal qilishi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Oliy biznes maktabiga;

O'zbekiston Respublikasi hududida uz faoliyatini yuritayotgan, o'rnatilgan tartibda faoliyati xususiyatlari inobatga olinib, magistrlar tayyorlashni amalga oshirayotgan xalqaro va xorijiy oliy ta'lim muassasalariga tatbiq etilmaydi.

2. Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida o'qitish kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.

Magistratura dasturi yakunlanishi «magistr» darajasini beruvchi yakuniy davlat attestatsiyasi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida magistrlar tayyorlashni tashkil etish ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq sxemaga binoan amalga oshiriladi.

3. Tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha magistrnlarni tayyorlash davlat akkreditatsiyasidan o‘tgan oliy ta’lim muassasalarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadigan davlat granti va to‘lov-kontrakt asosidagi qabul kvotalariga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Oliy ta’lim muassasalarida magistrnlarni tayyorlashni muvofiqlashtirishni magistratura bo‘limlari amalga oshiradi, ular kafedralar va dekanatlar bilan birgalikda quyidagilarni:

- magistrlar tayyorlash bo‘yicha o‘quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga, ularga taqdim etilayotgan ta’lim va o‘qitish sifatini nazorat qilishga ko‘maklashishni;

- o‘quv-izlanish va ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilishini; oliy ta’lim muassasalari barcha bo‘linmalarining magistrlar tayyorlash bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilishni;

- magistrnlarni o‘qitish va ularning kelgusida ishga joylashishi ustidan muntazam monitoringni amalga oshirishni, magistrlar tayyorlash masalalarini tahlil qilish va ular yuzasidan muntazam ravishda hisobotlar tayyorlashni ta’minlaydi.

5. Magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha ikkinchi va undan keyingi oliy ta’lim olish to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

II. Magistrlar tayyorlashga qo‘yiladigan talablar

6. Magistrlar tayyorlashga qo‘yiladigan umumiy talablar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida» 2001 yil 16 avgustdagi 343-son qarori bilan belgilanadi. Aniq mutaxassislik bo‘yicha magistrlar tayyorlashga qo‘yiladigan talablar oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan magistratura mutaxassisliklari malaka talablari bilan belgilanadi.

7. Magistr:

- tanlangan mutaxassisligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va

kasbiy faoliyatni mustaqil yuritishga;

- kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga;

- oliy ta'lim muassasasidan keyingi ta'limni magistrlik tayyorgarligiga muvofiq mutaxassislik bo'yicha katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutida davom ettirishga;

- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olishga tayyorlanadi.

8. Magistr o'z mutaxassisligi, ilmiy va ilmiy-pedagogik tayyorgarligiga muvofiq kasbiy faoliyatining quyidagi turlari:

- ilmiy-pedagogik;
- ilmiy-ijodiy;
- ilmiy-tadqiqot va tajriba; loyiha-konstruktorlik; loyiha-texnologik;
- ishlab chiqarishda boshkaruv, shuningdek bakalavriat ta'lim yunalishiga muvofiq boshqa faoliyat turlari bo'yicha ham shug'ullanishi mumkin.

III. Magistratura talabalarining huquq-majburiyatlari

9. Magistratura talabalari:

- ta'lim, fan, madaniyat, texnika, iktisodiyotni, ijtimoiy va boshqa sohalarni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalariga muvofik bilimlarni olish;

- oliy ta'lim muassasasi faoliyati bilan bog'liq muhim masalalarni ko'rib chiqish va hal qilishda bevosita ishtirok etish;

- oliy ta'lim muassasasi axborot-resurs markazlari xizmatlaridan, shu jumladan o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlardan, shuningdek oliy ta'lim muassasasining ustavida belgilangan tartibda boshqa turdagi xizmatlardan bepul foydalanish;

- ilmiy-tadqiqot ishlarida, konferensiyalar va simpoziumlarda ishtirok etish;
- o'z ilmiy-tadqiqot ishlarini ilmiy nashrlarda chop etishga takdim etish;
- oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashi tavsiyasiga muvofiq yetakchi

xorijiy va respublika ta'lim (ilmiy) muassasalarida amaliyot o'tash, stajirovkada bo'lish yoki magistrlik dissertatsiyasining tajriba-sinov kismlarini bajarish uchun ushbu muassasalar bilan tegishli kelishuvlar mavjud bo'lganda ularga yullanma olish;

- oliy ta'lim muassasasi rahbariyatining qarorlaridan norozi bo'lgan taqdirda tegishli idoralarga belgilangan tartibda shikoyat qilish;

- talabalar uchun qonunchilikda belgilangan tartib va miqdorlardagi stipendiya, Davlat stipendiyasi hamda o'qishga yullagan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tayinlanadigan stipendiyalarni olish huquqiga ega.

Magistratura talabasi qonun hujjatlarida yoki oliy ta'lim muassasasi ustavida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

10. Magistratura talabalarining majburiyatlari:

- magistraturaning tegishli mutaxassisligi bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarida nazarda tutilgan bilimlarni egallash va o'zlashtirish;

- o'quv rejada nazarda tutilgan barcha turdagi topshiriqlarni belgilangan muddatlarda bajarish, shuningdek magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;

- oliy ta'lim muassasasining ustavi talablariga va ichki tartib koidalariga rioya etish.

Magistratura talabasiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

IV. Magistraturada ta'lim jarayonini tashkil etish

11. Magistraturada ta'lim jarayoni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida» 2001 yil 16 avgustdagi 343-son qaroriga, shuningdek oliy ta'limni boshkarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiklanadigan aniq magistratura mutaxassisligi o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq tashkil etiladi.

12. O'quv jarayonining xususiyatlari va o'qitish muddatlari (3 yil) hisobga olingan holda tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar, davlat qumitalari va idoralar bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan ayrim magistratura mutaxassisliklari o'quv

rejalari va dasturlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

13. Magistraturada ta'lim jarayonini tashkil etishga quyidagi talablar qo'yiladi:

- oliy ta'lim muassasasining magistratura mutaxassisliklari bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlar bilan, shu jumladan kadrlar tayyorlash ixtisosligi va yunalishiga mos keluvchi professorlar, dotsentlar bilan ta'minlanganligi;

- nazariy, laboratoriya mashrulotlarini o'tkazish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, shu jumladan magistrlik dissertatsiyalariga qo'yiladigan talablarga mos holda ularni tayyorlash uchun zarur o'quv-metodik va moddiy-texnika bazaning mavjudligi;

- o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq tashkilotlarda magistratura talabalarining amaliyotlari, stajirovkasi va magistrlik dissertatsiyalarining tajriba-sinov kismlarini bajarishi uchun bu tashkilotlar bilan oliy ta'lim muassasasi (fakultet, kafedralar) o'rtasida tuzilgan shartnomalar va kelishuvlarning mavjudligi;

- magistratura talabalarini tayyorlash jarayoniga O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi ilmiy muassasalari, tarmoq ilmiy-izlanuvchilik va loyiha muassasalarining yetakchi olimlari, shuningdek xorijiy olimlar, yuqori malakali, tajribali mutaxassislarning soatbay asosida jalb etilganligi.

14. Magistratura talabasining o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot, pedagogik ishlari, amaliyot, stajirovkani o'tashi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash bo'yicha faoliyati ushbu Nizomga ilovaga muvofiq magistratura talabasining kalendar ish rejasiga binoan amalga oshiriladi.

15. Magistratura talabasining kalendar ish rejasi mazmuni ilmiy rahbar bilan birgalikda ishlab chiqiladi va oliy ta'lim muassasasining o'quv ishlari bo'yicha prorektori (direktor urinbosari) tomonidan tasdiqlanadi. Magistratura talabasi o'zining kalendar ish rejasi bajarilishi bo'yicha har oyda kafedra yig'ilishida hisobot beradi.

Har o'quv semestri yakunida tegishli fakultet o'quv-metodik kengashi yig'ilishida (magistratura bulimida) kafedra mudiri magistratura talabasining

kalendar ish rejasi bajarilishi yuzasidan hisobot beradi.

Magistraturada pedagogik faoliyatga jalb etiladigan o'qituvchilarga qo'yiladigan umumiy malaka talablari

16. Magistraturada pedagogik faoliyatga jalb etiladigan o'qituvchi ta'lim jarayoni doirasida:

- Hamma turdagi o'quv mashg'ulotlarini yuqori darajada o'tadi; o'quv, ilmiy va o'quv-metodik ishlarni rejalashtiradi, tashkil etadi va nazorat qiladi;
- ilmiy-tadqiqot ishlariga va magistratura talabalarining magistrlik dissertatsiyalarini tayyorlash jarayoniga rahbarlik qiladi;
- kafedra ixtisosligi bo'yicha ilmiy, ilmiy-tadqiqot seminarlarini tashkil etadi va ularda ishtirok etadi;
- talabalar ilmiy seminarlarini boshqaradi;
- kafedra pedagoglari tomonidan barcha turdagi o'quv mashg'ulotlari sifatli o'tkazilishi ustidan nazorat qiladi;
- magistraturaning tegishli mutaxassisligi bo'yicha namunaviy va ishchi o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqadi;
- kafedra ilmiy tadqiqotlari yunalishlari doirasida tashkil etiladigan yig'ilishlar va konferensiyalarda, shu jumladan xalqaro konferensiyalarda ishtirok etadi;
- magistratura talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etadi va rejalashtiradi;
- magistratura talabalarini uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish va nashrga tayyorlashda ishtirok etadi;
- magistratura talabasining kalendar ish rejasi bajarilishini nazorat qiladi.

17. Magistraturada pedagogik faoliyatga jalb etiladigan o'qituvchilarga quyidagi malaka talablari qo'yiladi:

- fanni yuqori darajada bilish hamda uning nazariy asoslarini va muhim yutuqlarga erishish mumkin bo'lgan yo'llarni ko'ra bilish o'quviga ega bo'lish;
- ilmiy muammolarni ishlab chiqa olish, tadqiqotlar o'tkaza olish va

ularning natijalari bo'yicha chop etilgan ilmiy ishlarga ega bo'lish;

– magistratura talabalarining individual xususiyatlari, shaxsiy sifatlari va dissertatsiyalari maqsadlarini hisobga olgan holda pedagogik faoliyat yunalishlarini belgilash qobiliyatiga ega bo'lish;

– magistratura talabalarining bilim va malakalarni egallab olishga imkoniyat beradigan innovatsion pedagogik texnologiyalarni ko'llashga tayyor bo'lish;

– pedagogik holatlar tahlili asosida pedagogik vazifalarni shakllantirish va ularni hal etishning makbul yechimlarini topish o'quvi;

– magistratura talabalarining kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yunaltilgan innovatsion kurslar ishlab chiqish bo'yicha amaliy tajribaga ega bo'lish;

– ma'lumotlarni tizimlashtirish va izlash orqali o'z bilimini takomillashtirish uchun doimiy o'rganish, ma'lumotlarni elektron qayta ishlashda axborot-kommunikatsiya va multimediya texnologiyalaridan foydalanish mahoratiga ega bo'lish.

18. Magistraturada pedagogik faoliyat yuritishga ilmiy unvon (ilmiy daraja)ga va kamida 3 yillik uzluksiz ilmiy-pedagogik (ilmiy) ish stajiga ega bo'lgan, shuningdek xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajali shaxslar jalb qilinadi.

V.Mavzuni tanlash va ilmiy rahbarni tayinlash

19. Magistrlik dissertatsiyasi o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish jarayonida magistratura talabasi egallagan nazariy va amaliy bilimlari asosida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijasi hisoblanadi.

20. Magistrlik dissertatsiyalarining mavzulari oliy ta'lim muassasalari kafedralarida kafedralarning professor-o'qituvchilari tarkibi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalari, tarmoq ilmiy-tadqiqot va loyihalash muassasalari xodimlari tomonidan shakllantiriladi.

Magistrlik dissertatsiyalarining mavzulari, qoidaga ko'ra, dolzarb ilmiy-tadqiqot masalalariga yoki aniq amaliy vazifalarni hal etishga bag'ishlanadi.

21. Magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy raxbarlik oliy ta'lim muassa- salarida ishlaydigan professorlar, fan doktorlari, dotsentlar, fan nomzodlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalari olimlari, tashkilotlarning yuqori malakali va tajribali mutaxassisleri, shuningdek belgilangan tartibda magistrlik, ilmiy darajalar yoki ilmiy unvonlarga ega bo'lgan xorijiy mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Magistratura talabasi o'qiyotgan oliy ta'lim muassasasida ishlamaydigan xodimlardan unga ilmiy raxbar tayinlangan takdirda, talabaga qo'shimcha ravishda tegishli kafedra professor-o'qituvchilari tarkibidan ilmiy maslahatchi tayinlanadi.

Belgilangan talablarga muvofiq magistrlik dissertatsiyasini bajarish doirasida ilmiy rahbar bilan bir xil mas'uliyat ilmiy maslahatchiga ham yuklatiladi.

22. Magistratura talabasi o'qiyotgan oliy ta'lim muassasasi xodimlari tarkibidan bo'lgan ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchining magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash bo'yicha talabalar bilan ishlashi ularning oliy ta'lim muassasasida o'quv yili shaxsiy ish rejasi bilan belgilanadigan o'quv yuklamasiga kiritiladi.

Magistratura talabasi o'qiyotgan oliy ta'lim muassasasida ishlamaydigan xodimlardan bo'lgan ilmiy rahbar mehnatiga xaq to'lash belgilangan tartibda mehnatga soatbay haq to'lash shartlari bo'yicha bir o'quv yiliga bir magistratura talabasi uchun 50 soatdan oshmagan hajmda, tegishli oliy ta'lim muassasasi xarajatlar smetasida bu maqsadlar uchun nazarda tutilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

23. Professor yoki fan doktori beshtagacha, shuningdek dotsent, fan nomzodi va mutaxassis uchtacha magistrlik dissertatsiyasiga rahbarlikni amalga oshirishi mumkin.

24. Kafedralar tomonidan takdim etilgan va oliy ta'lim muassasasi yoki fakultet ukuv-metodik kengashida muhokama kilingan magistratura talabalarining magistrlik dissertatsiyalari mavzulari va ularning ilmiy rahbarlari (ilmiy maslahatchilari) ilmiy ishlar bo'yicha prorektor (direktor urinbosari) takdimnomasiga asosan magistratura talabalari o'qiyotgan birinchi o'quv yilining

birinchi ikki oyi ichida tegishli oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori)ning buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

25. Ilmiy rahbarning majburiyatlariga quyidagilar kiradi: tadqiqot mavzusi doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan masalalar

- bo'yicha tizimli ravishda yordam berish maqsadida maslahatlar jadvalini tuzish;
- tadqiqot usullarini tanlashda ishtirok etish va ularni tadqiqot ishida qo'llashda magistratura talabasiga ko'maklashish;
- magistratura talabasining belgilangan kalendar ish rejasi bo'yicha ishlarning bajarilishini va magistrlik dissertatsiyasi o'z vaqtida tayyorlanishini nazorat qilish;
- dastlabki ximoyagacha magistrlik dissertatsiyasiga xulosa berish.

VI. Magistrlik dissertatsiyasining tuzilishi va uning mazmuniga qo'yiladigan talablar

26. Magistrlik dissertatsiyasi quyidagi tarkibiy kislardan iborat bo'lishi kerak:

- titul varaq;
- ikki tilda (o'qitish tili va ingliz tilida) magistrlik dissertatsiyasining qisqacha annotatsiyasi; mundarija; kirish; asosiy qism; xulosa;
- adabiyotlar ruyxati; ilovalar (mavjud bo'lsa).

27. Kirish quyidagilarni qisqacha o'z ichiga olishi lozim: magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi;

- tadqiqot ob'ekti va predmeti; tadqiqot maqsadi va vazifalari;
- ilmiy yangiligi;
- tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari;
- tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili);
- tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi;
- tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati;

- ish tuzilmasining tavsifi.

28. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy kismi kamida uch bobdan iborat bo‘lib, boblar hajm jihatidan o‘zaro mutanosib bo‘lishi va quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

- tadqiqot mavzusiga taallukli boshqa manbalarda keltirilgan nazariy, amaliy va empirik tadqiqotlar natijalarining tanqidiy tahlili;
- tadqiqot metodikasi va ishning amaliy kismi bayoni;
- tadqiqot olib borilgan masalani hal etishda magistratura talabasining shaxsiy hissasi ko‘rsatilgan holda tadqiqotning asosiy natijalari bayoni.

29. Magistrlik dissertatsiyasining xulosa qismida barcha boblarda qayd etilgan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, shuningdek ilmiy tadqiqot muammosini hal etish bo‘yicha xulosalar yoritiladi. Xulosa kismi 4 sahifadan oshmasligi kerak.

30. Magistrlik dissertatsiyasiga uning mazmunini bayon etish uchun bevosita zarur bo‘lgan qo‘shimcha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan materiallar ilova qilinishi mumkin. Ilova qismining hajmi magistrlik dissertatsiyasi umumiy hajmining uchdan bir qismidan oshmasligi lozim.

31. Magistrlik dissertatsiyasi ustida ishlayotgan magistratura talabasi kasb odob-axloki qoidalariga rioya etishi (plagiat, ma’lumotlarni soxtalashtirish, shuningdek yolg‘on sitatalar keltirishga yul qo‘ymaslik) lozim.

32. Dissertatsiya matni standart varaqda yozilgan bo‘lib, unda quyidagi qoidalarga rioya etilgan bo‘lishi lozim:

- qatorlar oralig‘i — 1,5 sm;
- yuqori va pastki hoshiya 2 sm, satr boshi: chap tomondan 3 sm, o‘ng tomon- dan 2 sm;
- xatboshilar orasidagi oraliq — 5 yoki 6 belgili.

Magistrlik dissertatsiyasi matnini MisrosoftWord matnli redaktorida TimesNewRoman shriftida yozish tavsiya etiladi.

33. Magistrlik dissertatsiyasining hajmi titul varaq, mundarija, adabiyotlar

ruyxati va ilovalardan tashkari 70 — 80 sahifa bo‘lishi tavsiya etiladi.

34. Magistrlik dissertatsiyasi magistratura talabasi o‘qigan tilda (kafedra yoki magistratura bo‘limi tavsiyasiga muvofik chet tilda) tayyorlanadi. Chet tilda tayyorlangan magistrlik dissertatsiyasiga davlat tilida yozilgan annotatsiya ilova etiladi. Bunday magistrlik dissertatsiyalarining dastlabki va rasmiy himoyalari tarjima bilan o‘tkaziladi.

35. Magistratura mutaxassisligi xususiyati hisobga olingan holda magistrlik dissertatsiyasi tarkibiy kismalarining mazmuni va hajmi fakultet O‘quv-metodik kengashining qarori bilan o‘zgartirilishi va kupaytirilishi mumkin.

VII. Dastlabki va rasmiy himoyani o‘tkazish tartibi

36. Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi) ishtirokida kafedra tomonidan tuzilgan komissiyada tashkil etiladi.

Dastlabki himoyaga boshka kafedralardan, shuningdek boshka tashkilotlardan mutaxassislar taklif etilishi mumkin.

Ilmiy maslahatchi tayinlangan holda dastlabki himoyaga qadar undan magistrlik dissertatsiyasiga xulosa olish ham talab etiladi.

37. Dastlabki himoyaga kadar magistratura talabasi ichki va tashki hamda ilmiy rahbar takrizlariga, shuningdek dissertatsiya mavzusiga doir kamida 2 ta ilmiy maqola yoki tezisga ega bo‘lishi kerak.

Dastlabki himoya yakunlari kafedralar yig‘ilishi bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

38. Ichki va tashki taqrizchilarni oliy ta’lim muassasasining tegishli kafedrasi tavsiya etadi va ularning ro‘yxati ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor (direktor urinbosari) tomonidan tasdiqlanadi.

39. Takrizchi vazifalariga quyidagilar kiradi:

magistrlik dissertatsiyasining dolzarbligi, ilmiy yangiligi va tugallanganligi tug‘risida xulosa takdim etish;

- dastlabki himoyadan kamida 3 kun oldin takriz takdim etish;
- kasb odob-ahloqi koidalarining buzilishi holatlari (plagiat, ma’lumotlarni

soxtalashtirish, yolron sitata keltirish va boshkalar) aniqlangan taqdirda, ularni taqrizda ko'rsatish.

40. Magistrlik dissertatsiyasi belgilangan talablarga mos kelmagan holatlarda, magistratura talabasi tomonidan kasb odob-axloqi koidalari (plagiat, ma'lumotlarni soxtalashtirish, yolg'on sitata keltirish va boshqalar) buzilganligi aniqlangan taqdirda, shuningdek ushbu holatlarni qisqa muddatda tuzatish imkoniyati mavjud bo'lmaganda takrizchi magistrlik dissertatsiyasini himoyaga quyish maqsadga muvofiq emasligi tug'risida xulosa beradi.

41. Magistrlik dissertatsiyasini rasmiy himoya qilish kuni oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori)ning buyrug'i bilan tasdiklangan jadval asosida belgilanadi.

42. Magistrlik dissertatsiyasining rasmiy himoyasi oliy ta'lim muassasasining Davlat yakuniy attestatsiya komissiyasi (keyingi urinlarda Komissiya deb ataladi) tomonidan o'tkaziladi.

43. Magistratura talabasi magistrlik dissertatsiyasining rasmiy himoyasi taqdimot materiallari bilan bayon etilishi va 20 daqiqadan oshmasligi lozim.

44. Rasmiy himoyada Komissiya a'zolari magistratura talabasini quyidagi mezonlar asosida baholaydi:

- magistrlik dissertatsiyasi tadqiqot mavzusining dolzarbligini va uning amaliyot bilan bog'liqligini ko'rsatib bera olishi;

- magistratura talabasining tadqiqotga va vazifalarni hal etishga mustaqil yondashuvi;

- foydalanilgan ilmiy adabiyotlar, ilmiy nashrlar, normativ-xuquqiy xujjatlar, statistik ma'lumotlar, shuningdek xorijiy tillardagi adabiyotlar tanqidiy tahlilining to'liqligi va chuqurligi;

- tadqiqot usullari amaliyotda qo'llanilganligining asoslanganligi;

- olingan natijalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliy ahamiyati;

- magistratura talabasining magistrlik dissertatsiyasi doirasida o'tkazilgan tadqiqotlar va olingan natijalarni rivojlantirish istiqbollarini ko'ra bilish qobiliyati;

– magistrlik dissertatsiyasining nazariy va amaliy qismlaridagi o‘zaro mantiqiy bog‘liqlikni kuzata bilish malakasi.

45. «Konikarsiz» baxo qo‘yilganda yoki magistrlik dissertatsiyasi rasmiy himoyaga qo‘yilmagan taqdirda magistratura talabasi keyingi 3 yil davomida uni qayta himoya qilish xuquqiga ega.

46. Magistrlik dissertatsiyalari rasmiy himoyasi natijalari oliy ta’lim muassasasi Ilmiy kengashida muhokama etiladi.

47. Himoya kilingan magistrlik dissertatsiyalari oliy ta’lim muassasasida 3 yil davomida saqlanadi.

VIII. Magistratura talabalari faoliyati monitoringi

48. Magistratura talabasi faoliyati ustidan doimiy monitoring olib borish va magistraturada ta’lim jarayonini tashkil etish sifatini oshirish maqsadida oliy ta’lim muassasasi rektori (direktori) buyrug‘i bilan yetakchi o‘qituvchilar tarkibidan iborat, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy muassasalari olimlari, tashkilotlar-kadrlar iste’molchilari mutaxassislarini jalb etgan xolda, Ishchi guruh tuziladi.

49. Magistratura talabasi faoliyati ustidan monitoring quyidagi ko‘rsatkichlar asosida olib boriladi:

a) birinchi kursda:

– magistratura talabasining kalendar ish rejasi belgilangan muddatlarda o‘z vaqtida bajarilishi;

– bitta ilmiy makola yoki respublika yoki xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyada bitta tezis chop etganligi;

– ilmiy seminarlarda ishtirok etganligi;

– mutaxassislik bo‘yicha o‘quv fanlarini o‘zlashtirish darajasi.

b) ikkinchi kursda:

– magistratura talabasining kalendar ish rejasi belgilangan muddatlarda o‘z vaqtida bajarilishi;

– ikkita ilmiy makola yoki respublika yoki halkaro miqyosdagi ilmiy konferensiyada ikkita tezis chop etganligi;

– magistrlik dissertatsiyasi dastlabki himoyadan o'tganligi, agar u monitoring davrida rejalashtirilgan bo'lsa;

– ilmiy seminarlarda ishtirok etganligi;

– mutaxassislik bo'yicha barcha o'quv fanlarini o'zlashtirish darajasi.

50. Ta'lim jarayonining xususiyatlari va o'qish muddatlari (3 yil) hisobga olingan holda tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ayrim magistratura mutaxassisliklari monitoring ko'rsatkichlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi mumkin.

51. Monitoring jarayonida magistratura talabalari bilan suhbatlar o'tkaziladi, tegishli taklif va tavsiyalar beriladi.

52. O'quv yili oxirida Ishchi gurux monitoring yakunlari bo'yicha oliy ta'lim muassasasi Ilmiy kengashida xisobot taqdim etadi.

IX. Yakunlovchi qoida

Nizoli masalalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Abstraktlashtirish yoki mavhumlashtirish (fanda) - fikrlash jarayoni, o'rganilayotgan hodisalarning asosiy qonuniyatlarini aks ettirish imkonini beradigan nazariy umumlashtirish.

Adaptatsiya yoki moslashtirish (fanda) - aks ettirishning alohida shakli, ichki va tashqi muhit o'rtasida dinamik muvozanat o'rnatuvchi jarayon.

Analiz - ilmiy, haqqoniyligini, aniqliligi atroflicha o'rganilgan, to'laqonli, detallashtirilgan, qiyosiy, diqqat bilan, chuqur o'rganilgan.

Axborot - aniq, to'laqonli, atroflicha, to'plangan, asoslangan, qimmatli, zaruriy, tezkorlik bilan olingan, yetarlicha, yangi, mavsumiy, kundalik.

Bashorat qilish - biror-bir hodisaning istiqboldagi rivojlanishini maxsus ilmiy tadqiq etish.

Chegaralangan daraja-chegaralangan texnologiya – ta'lim-tarbiya jarayonining alohida qismlarini ifodalab, xususiy didaktik va tarbiya masalalarini yechadi (faoliyatning alohida turlarini texnologiyasi, tushunchalarning shakllanishi, yangi bilimlarni o'zlashtirish, materialni nazorat qilish va qaytarish texnologiyasi).

Davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish hamda nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.

Davlat va jamiyat – uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi barcha uchun ochiq bo'lishini va hayot o'zgarishlariga moslashuvchanligi ta'minlaydi.

Deduksiya - umumiy aqliy xulosalardan xususiylikka, bir qancha xususiy xulosalarni umumlashtirib, ularni o'zaro ta'siri ostida xulosa chiqarish.

Didaktika – pedagogikaning ta'lim jarayonini umumiy qonuniyatlarini o'rgatuvchi qismi bo'lib, «didasko» – «o'qitish», «didachol»-o'rgatuvchi degan ma'nolarni bildiradi.

DTS (davlat ta'lim standarti) – ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilaydi.

Egiluvchanlik – o‘ziga qulay vaqtda, joyda va sharoitda o‘qitish imkoniyatini beradi.

Eksperiment - lotincha so‘z bo‘lib, sinab ko‘rish, «tajriba qilib ko‘rish» ma'nosini anglatadi. Asosan ta'lim-tarbiya jarayoniga ilmiy faraz yoki amaliy ishlarni tatbiq qilish jarayonini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Elektron pochta – «elektron pochta» nomining o‘zidayoq mazkur tushunchaning mazmuni ochib berilgan, ya’ni korrespondensiyalarni almashishi uchun pochtaga o‘xshash ravishda axborot uzatish va ishlab chiqishning elektron usullaridan foydalanish, ya’ni bosma materiallar, jadvallar hamda jurnallarni uzatish. Elektron pochta qog‘ozsiz pochta aloqalari xizmatidan iborat bo‘lib, aslida hujjatli xabarlarni to‘plash, ishlab chiqish va taqdim etish hamda ma’lumotlarni uzatish tarmoqlari tizimidir.

Epistemologiya - bilim, uning tuzilishi, tuzilmasi va rivojlanishini o‘rganadigan falsafiy-metodologik ta’limot.

Fakt - real, aniq, ma'lum bo‘lgan, ishonchli, hech qanday isbot talab qilmaydigan, manbali.

Falsifikatsiya (fale.) - eksperimental yoki nazariy ma’lumotlarga muvofiqligini empirik yoki nazariy tekshirish asosida u yoki bu ilmiy gipotezaning soxtaligini aniqlovchi konsepsiya.

Fan - bilish faoliyatining yangi, ob’ektiv bilimlar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan alohida turi, voqelik haqidagi bilimlarning uyushgan tizimi.

Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi.

G‘oya - turli qarashlar asosida ahvolni aniqlash. G‘oya shu bilan farqlanadiki, unda nafaqat o‘rganish ob'ektigina tushunilmay, balki qarashdagi maqsadlar, uning isbotlari, amaliyotda tatbiqiy o‘zgarishlar ham ko‘zda tutiladi.

Gnoseologiya - falsafa va fandagi bilish nazariyasi.

Ijod - yangilik yaratash bo‘yicha konstruktiv faoliyat.

Ilmiy aspekt – pedagogik texnologiya pedagogik fanning qismi sifatida ta'lim uslublari, tarkibi va maqsadlarini ishlab chiqib o'rganadi, hamda shu bilan birga pedagogik jarayonlarini loyihalashtiradi.

Ilmiy bilimlar metodologiyasi - ilmiy tadqiqot faoliyatini olib borishning shakli, yo'llari va prinsiplari.

Ilmiy ish farazi - ilmiy taxmin etilgan, ob'ektiv haqiqatni topish, isbotlash bo'yicha aqliy fikr yuritish va uni rivojlanishini bashorat etish sabablarini aniqlash.

Ilmiy izlanish - ilmiy, ob'ektiv, nazariy, tajriba-sinovli, aniq, fundamental, chuqurlashtirilgan, atroflicha, faol, jiddiy, murakkab, qimmatli.

Ilmiy mavzu - ilmiy xarakterga ega bo'lgan vazifa bo'lib, u ilmiy tadqiqot olib borishni talab etadi. Ilmiy tadqiqotni reja, hisobot asosida olib borish ko'rsatgichidir.

Induksiya - ilmiy izlanishda mulohaza yuritishning uslub va metodlari. Ammo umumiy xulosalar chiqarishda shaxsiy yakka qarashlar asosida xulosalar chiqarish.

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy–texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Kasb ta'limi jarayoni – pedagogik jarayonning muhim qismi, u o'qitish, bilim berish, ko'nikma va malakalar hosil qilish bilan birga kasbga yo'naltiradi.

Kasb ta'limi metodlari – talabalarni bevosita kasbga yo'naltiruvchi usullar majmuasi.

Kasbiy ta'lim uslubiyoti – talabalarni kasbga yo'naltirishning shakl, metod va vositalarining birligi.

Kauzallik - sababiyat, biri (sabab) boshqasini (oqibatni) belgilovchi hodisalarning biri ikkinchisidan kelib chiqishini ifodalovchi falsafiy tushuncha.

Kauzallik - sababiyat, biri (sabab) boshqasini (oqibatni) belgilovchi hodisalarning biri ikkinchisidan kelib chiqishini ifodalovchi falsafiy tushuncha.

Konsepsiya – biror narsaga tizimli yondashuv, asosiy fikr ilmiy tadqiqotning maqsad va vazifalariga qaratilib, uni olib borish yo‘llari ko‘rsatiladi.

Kuzatish - borliqni ob'ektiv maqsadli qabul qilish, ob'ektini tashqi qiyofasi, xususiyatlarini, ob'ektga munosabatlarini ta'minlaydi.

Ilmiy tadqiqot - yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni bo‘lib, ilmiy qiziqishning bir turidir. U o‘zining ob'ektivligi, qayta ishlanishi, isbotlanishi va aniqligi bilan ajralib turadi.

Logos - dastlab dunyoning umumiy qonuni, negizini, undagi tartib va uyg‘unlikni ifodalagan atama; tushuncha, so‘z va ma’noning birligi.

Logos - dastlab dunyoning umumiy qonuni, negizini, undagi tartib va uyg‘unlikni ifodalagan atama; tushuncha, so‘z va ma’noning birligi.

Ma'lumot – ta'lim–tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma hamda shakllangan dunyoqarashlar majmui.

Magistr - fundamental bazaviy bilimga ega, ilmiy ijodkorlik metodologiyasini o‘zlashtirib olgan, zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash, axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlash ko‘nikmasiga ega shaxs.

Magistratura — magistrnlarni tayyorlash shakli, ularni ilmiy tekshiruv va ilmiy pedagogik faoliyatga tayyorlaydi, bakalavriatdan keyingi bosqich.

Magistrlik dissertatsiyasi - ilmiy tadqiqot ishlarining alohida turi yoki kichik ilmiy asardir. U ilmiy izlanish bo‘lib, ilmiy rahbar yordamida olib boriladi. Bu mustaqil bajarilgan ilmiy ish davlat attestatsiyasi komissiyasida himoya qilinadi va davlat akkretizatsiyasidan o‘tkaziladi.

Maqsad - juda muhim bosh masalaga asoslangan, ilmiy tadqiqot yakunida qo‘lga kiritiladigan, ilmiy-amaliy, real qo‘yilgan topshiriqdir.

Masofaviy o‘qitish – yangi va ancha progressiv bo‘lgan o‘qitish shaklidir. Bu usulni turli xil muassasalariga tatbiqi, xususan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy sohalarga tadbig‘i talaba va o‘qituvchilarning ilg‘or dunyo ilmiy maktablarining yuqori sifatli o‘quv uslubiy ishlanmalari, zamonaviy va so‘nggi axborotlardan qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar to‘g‘ridan–to‘g‘ri foydalanish imkoniyatlarini beradi. Bularning barchasini e’tiborga olgan holda oliy va o‘rta ta’lim vazirligi

ustoz fondi qiyofasida jahon instituti bilan oliy ta'limda masofaviy o'qitish usuli komponentlarini tatbiq qilish haqida kelishuv tuzildi.

Material - ilmiy eksperimental, ma'lumotli, statistik, faktik, umumlashgan, tizimlashtirilgan, olingan, mavjud bo'lgan, katta, boy, yetarli, ishonchli, chuqur o'rganilgan.

Mavzu dolzarbligi - davrga nisbatan, shu kungacha zarur-muhimligi, mavzuni shu kun ta'limi sifatini ko'tarish yoki o'quv jarayonini takomillashtirish uchun muhimligi.

Metodologiya (fanda) - ilmiy tadqiqotda foydalaniladigan metodlar majmui; olimning nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish va tuzish usullari haqidagi ta'limot.

Modellashtirish - ob'ekt originalining ayni nusxasini (model) o'rganish holati. Originalning o'rnini bosuvchi, aniqligini atroflicha o'rganish, o'rganilayotgan ob'ektning hususiyatlarini saqlagan holda amalga oshirish. Model ob'ektni o'rganishga qulayligi bilan boshqalaridan ajralib turadi.

Modullik – o'quv kursiga bog'liq bo'lmagan holatda shaxsiy, hamda guruh talabiga javob beradigan o'quv rejasini amalga oshiradi.

N aturfalsafa - tabiat falsafasi; tabiatni uning yaxlitli-gida akliy mushoxada yuli bilan talkin kilish.

Naturfalsafa - tabiat falsafasi; tabiatni uning yaxlitligida aqliy mushoxada yo'li bilan talqin qilish.

O'qitish mazmuni – bu o'quv informatsiyaning tarkibi, tuzilishi va ma'lumoti hamda masalalar, topshiriqlar va mashg'ulotlar to'plami, ular kasbiy malaka hamda idrokni shakllantiradi, mehnat faoliyatining dastlabki tajribasini yig'ishga imkon beradi.

O'qitish mazmuni - o'qitish jarayoni, usullari va tashkiliy tartibini amalga oshirilishi uning tarkibi bilan ifodalanadi.

O'qitish ob'ekti – masofaviy o'qitish ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchi ushbu usulda ta'lim oluvchilar ob'ektlari bo'ladi.

O'qitish sub'ektlari – masofaviy o'qitish sub'ektlari o'qituvchilar hisoblanadi. O'qituvchi ta'lim jarayonining yuqori samarasini ta'minlashda asosiy bo'g'indir. Masofaviy o'qitish o'qituvchi faoliyatining muhim ixtisosligida kompyuter terminini kiritish zarurligini keltirib chiqaradi. Bu – o'qituvchi maslahatchi, u fundamental informatika va telekommunikatsiyalar asoslarini bilishi kerak. Uning bilimligini o'zuvchi xarakterga ega bo'lishi kerak.

O'qitish usuli – o'qitish maqsadlariga erishish uchun o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro harakati ta'siri me'yorlar tizimi to'g'risida nazariy tasavvurlab beradigan didaktik turkumdir.

O'qitish usullari – masofaviy tartib o'z ichiga 5 ta umumdidaktik o'qitish usullarini oladi: informatsion-retseptiv, reproduktiv muammoviy ifoda etish, evristik va tadqiqot. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro harakat pedagogik AKTlarning butun to'plamlarini o'ziga qamrab oladi.

O'qitish vositalari – masofaviy o'qitish ta'limi jarayonida an'anaviy ta'lim bilan birga innovatsion o'qitish vositalaridan foydalaniladi. Ular kompyuter texnikasi, telekommunikatsiyani qo'llashga hamda ta'minot texnologiyasi sohasida oxirgi erishilgan natijalarga asoslangan.

O'qituvchilarning yangi vazifalari. Masofaviy o'qitish o'qituvchining vazifalarini kengaytiradi va yangilaydi. O'qitilayotgan kurslarni doimo takomillashtirish, ijodiy faolligini yuqorilashtirish va malakasini, kiritilgan yangiliklar va innovatsiyalarga mos bilim jarayonini muvofiqlashtirishi zarur.

O'quv–ilmiy moddiy asosi – o'quv dasturlariga mos bo'lgan, o'qitish uchun zarur moddiy va texnikaviy to'plam. U o'z ichiga o'quv va o'quv yordamchi joylarni, o'qitish texnik vositalari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar hamda boshqa o'quv–uslubiy materiallarni oladi.

O'rganish - asoslangan tajriba-sinov, nazariy, amaliy, qiyosiy, tajribaga suyanilgan, bevosita maxsus uzoq muddatli, doimiy, tizimli, navbatdagi, chuqur, jadallashgan, atroflicha, detallashtirilgan.

Pedagogik texnologiya – bu o'quv jarayonini amalga oshirilishining sermazmun texnikasidir (G. Bepalko).

Pedagogik texnologiya – bu o‘quv jarayonining loyihalashtirilishi, tashkil etilishi, o‘tkazilish bo‘yicha barcha tavsilotlari bilan o‘ylab chiqilgan jamoa pedagogik faoliyatining modeli hisoblanadi. U o‘quvchi va o‘qituvchilarga qulay sharoitlar yaratishi shart. (Monaxov)

Pedagogik texnologiya – bu ta’lim shakllarini optimizatsiyasini o‘ziga maqsad qilib olgan inson hamda texnik resurslari va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda o‘qitish jarayonini tashkil etish, qo‘llash va aniqlashning hamda bilimlarni o‘zlashtirishning uslublaridir. (YuNESKO)

Pedagogik texnologiya – o‘qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishish jarayonining tavsiflaridir.

Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishish uchun qo‘llaniladigan shaxsiy, intellektual, uslubiy vositalarning amal qilish tartibidir. (Klarin)

Pedagogik texnologiya – ta’lim shakli, usuli, uslublari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig‘ilishini aniqlovchi psixologik-pedagogik ko‘rsatmalarning majmuidir.

Pozitivizm - pozitiv (haqqoniy) bilimni faqat ilmiy (lekin nofalsafiy) bilish asosida olish mumkin, degan qarashni ilgari suruvchi ta’limot.

Protsessual-amaliy aspekt - pedagogik (texnologik) jarayonning amalga oshishi, barcha pedagogik metodologik (uslubiy), instrumental vositalariga amal qilish.

Protsessual-tavsifiy aspekt - ta’limda rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun jarayonni tasvirlash, maqsad, tarkib, uslub va vositalar majmuidir.

Qisman pedagogik daraja – qisman predmetli pedagogik texnologiya «qisman metodika» tushunchasini beradi, ya’ni bir fan doirasida tarbiya va ta’lim, uslub va vositalar majmuidir.

Qurshov – bir vaqtda ko‘p ishtirokchilarga o‘quv ma’lumotlari bo‘yicha murojaat qilish tarmoq yordamida o‘zaro axborot almashinuvini to‘g‘ri tashkil qilishdir.

Relyativizm - nisbiy. Bilish mazmunining nisbiyligi va shartlilikini absolyutlashtirish.

Rssientizm - jamiyatning madaniyati va ma'naviy xayotida fan-ning rolini mutlaklashtiruvchi konsepsiya.

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisi.

Shaxsiy reja - ilmiy ishni olib borish, o'z vaqtida algoritmlar asosida shakllantirish, yakunlash yo'lidir. Magistrantni ilmiy ishni olib borishdagi rahbarlik hujjatidir. Unda ishning yo'nalishi, mazmuni, o'qish, o'rganish, yozish va ijro muddatini belgilaydi.

Sinergetika - hozirgi zamon o'zini o'zi uyushtirish nazariyasi, global evolyusiyaning o'uzini o'zi uyushtirish hodisalarini o'rganish bilan bog'liq. yangicha dunyoni ko'rish.

Ssientizm - jamiyatning madaniyati va ma'naviy xayotida fanning rolini mutlaqlashtiruvchi konsepsiya.

Ta'lim tamoyillari – umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish hamda o'qitish jarayonlarining yo'nalishi, talabalar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim, malaka va ko'nikma hosil qilishning asosiy qonun-qoidalarini yig'indisidir.

Ta'lim texnologiyasi – bu didaktik tizimning asosiy protsessual qismidir (Usmonov).

Tadqiqot metodi - olingan, erishilgan bilimlar asosida yangiliklarni yaratish yoki hosil qilish.

Tadqiqot ob'ekti - ma'lum bir jarayon yoki hodisa bo'lib, o'rganish uchun tanlangan va muammoli vazifani yechimiga qaratilgan tekshirish faoliyatidir.

Tadqiqot topshirig'i - ilmiy tadqiqot olib borishning tashkil etish konsepsiyasi. Uni ijro etish muddati aniq ko'rsatiladi. U mavzuni olib borilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning metodikasi - aniq uslublar tizimi yoki biror tadqiqotni olib borish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlari.

Tadqiqotning predmeti - tadqiqot ob'ekt ichida bo'lib o'tadigan, tadqiqotning ilmiy yechimiga qaratilgan mazmun, metod, shakllari, vositalaridir.

Tajriba-sinov ishlarini natijalash - tajriba-sinov jarayonining boshlang'ich natijalari har chorakda yakunlab boriladi. Zarur hollarda yo'l-yo'lakay ayrim tuzatishlar o'rnatilgan tartibda kiritib boriladi.

Tajriba-sinov materiali - ilmiy izlanuvchi tomonidan tayyorlanadi. Ilmiy rahbar bilan kelishiladi. Tajriba ob'ektidagi rahbar va o'qituvchilar roziligi olinadi.

Tajriba-sinov sinfi – tajriba-sinov ishlari aniq bir sinfda, sinf rahbari va dissertant hamkorligida olib boriladi. Tajriba-sinov sinfiga teng tayyorgarlikka ega bo'lgan parallel nazorat sinfi tayyorlanadi. Tajriba-sinov natijalari har 2 sinfda bir-biriga taqqoslanib, natijalar chiqariladi.

Tayyorgarlik muammolari – bular o'qituvchi va o'quvchi–talabalarning hisoblash texnikasidan foydalanish o'quvchilari bilan bog'liq.

Tejamkorlik – o'quv maydonlardan, texnik vositalardan, transport vositalardan unumli foydalanish, o'quv axborotlarini to'plangan va bir xillikka keltirilgan holda ifodalash hamda ularga erishilgan mutaxassislarni tayyorlash xarajatlarni kamaytiradi.

Telekonferensiyalar – telekonferensiyalar zamonaviy axborot texnologiyalarning amalga oshirilishiga misol bo'la olmaydi. Telekonferensiyalar o'tkazish uchun quyidagi apparaturalar foydalaniladi: terminallar, televeziyon kameralar, grafik displeylar, katta namoyish ekranlari.

Texnologik – ta'lim berish jarayonida insonni jahon past industrial fazoga yurishtirishga imkon beradigan yangi erishilgan informatsion va telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanish.

Texnologik jadval – texnologik jarayonning shartli tasviri, uning alohida funksional elementlariga bo'linishi va ular o'rtasidagi mantiqiy aloqalarning belgilanishi.

Texnologik xarita – jarayonni bosqichma-bosqich usulda ifodalash, bunda maqbul bo'lgan vositalar ko'rsatiladi (bu odatda grafik shaklda ifodalanadi).

Texnologiya – bu bir ishda, mahorat va san’at qo‘llaniladigan usullar yig‘indisidan iborat.

Texnologiya – bu san’at, mahorat va qobiliyat, ishlov uslublarining majmuidir (Shepel).

Transsendensiya - hissiy tajriba bilan tasdiqlanmaydigan aqliy mushoxada ob’ektlarining oliy turini ifodalovchi falsafiy tushuncha.

Tushuncha - predmetni farqlantiruvchi, o‘zaro munosabatlarini bildiruvchi yaxlitlangan fikrdir.

Umumiy pedagogik daraja – umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiya) texnologiya berilgan hududdagi ta’lim maskanida ta’limning ma’lum darajasidagi to‘liq umumta’lim jarayonini tavsiflaydi.

Umumlashtirish - fikrlash uslubi va uni natijasida o‘rganilayotgan ob'ektni, uning o‘ziga xosligini, xususiyatlarini belgilab beradi.

Uzluksiz ta’lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi.

Vazifa - 1-navbatdagi yaqin oradagi mo‘ljalga olingan, farazlarni, maqsadlarni amalga oshiruvchi vosita, yo‘llar orqali masalani yechimini topishga asoslangan aniq yo‘nalishdagi ishdir.

Verifikatsiya - empirik ma’lumotlar yoki nazariy qoidalar asosida ilmiy gipotezaning haqqoniyligini aniqlash mantiqiy-metodologik jarayoni.

Yo‘nalish - bosh yo‘nalish, asosiy hal qiluvchi, global, nihoyatda muhim, to‘g‘ri, xato-tanlangan, ko‘rsatilgan, navbatdagi vazifa.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A.«Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» T. «Shark» 1997 y.
2. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» T. «Ma'naviyat» 2008 y.
3. Karimov I.A. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir”. Ma’rifat. 29.01.2010 y.
4. Gershunskiy B.S. Filosofiya obrazovanilya XXI veka. M. «Sovershenstvo». 1998 y.
5. Kuzin F.A. Magisterskaya dissertatsiya. Metodika napisaniya, pravila oformleniya i poryadok zapshtn. Iz-vo. Osb-89 M. 1998 y.
6. Kuzin F.A. Dissertatsiya. Metodika napisaniya. Pravila oformleniya, poryadok zashitm. Osb-89 M. 2001 y.
7. Rayzberg B.A. Dissertatsiya i uchenaya stepen. Posobie dlya soiskateley. INFRA-M. M.2002 y.
8. Xodiyev B.Yu., Bekmuradov A.Sh., Boltaboyev M.R. i dr. Osnovn podgotovki k nauchno issledovatel'skoy deyatel'nosti (uchebno-metodicheskoe posobie) T. Ekonomika 2007 y.
9. Muxitdinov M., Potopov A.I. Podgotovka i zapshta dissertatsii (nauchno - metodicheskoe posobie) T. VAK Uz. 2005 y.
10. Мавлонова ва б. Педагогика. Т., “Ўқитувчи”. 2008 й. 9 б.
11. Подласый И.П. Педагогика (Учебник). Высшее образование. М., 2007. гл. 5. 138-139 с.
12. Селиванова Н.Л. Теоретико-методологические основы исследования проблемы воспитания. Калуга. 2000.
13. Саифназаров В., Никитченко Г., Косимов Б. Илмий ижод методологияси. Ўқув қўлланма. Т.,ТДПУ. 2004.
14. Yuldashev J.G.va boshqalar «Tajriba-sinov maydoni; nazariya, amaliyot, texnologiya». T.2005

15. Ходиев Б.Ю, Бекмуродов А.Ш., Болтабаев М.Р., Голиш Л.В., Гимранова О.Б. Илмий-тадқиқотчилик фаолиятига тайёргарлик асослари: Ўқув-услубий қўлланма - Тошкент: Экономика, 2010 й.
16. Мавлонова Р.А. “Бошланғич таълимни интеграциялаш”. ТДПУ. 2007 йил.
17. Мавлонова Р.А., Тўраева О.Т., Холиқбердиев К.М. “Педагогика” Т.Ўқитувчи 2008 й.
18. Мавлонова Р.А. “Бошланғич таълимни интеграциялаш”. ТДПУ. 2007 йил.
19. Vivian de Landsheer. Konsepsiya «minimalnoy kompetentnosti» //Perspektivy, № 1, 1988.
20. Vsemirnaya deklaratsiya o vysshem obrazovanii dlya XXI veka: podhody i prakticheskie меры //Vsemirnaya konferensiya YUNESKO po vysshemu obrazovaniyu, Parij, 1998.
21. Halpern D. Psixologiya kriticheskogo myshleniya. Sankt-Peterburg: Piter. 2000, 503 s.
22. Gardner N. To open minds. New York: Basic Books, 1989.
23. Pidkasisty P., Fridman L., Garunov M. Psixologo-didakticheskiy spravochnik prepodavatelya vysshey shkoly. M: Pedagogicheskoe obshchestvo Rossii, 1999.
24. Sternberg R.J. The nature of creativity. New York: Cambridge University Press, 1988
25. Weber R.J., Perkins D.N. Inventive minds: Creativity in technology. New York: Oxford Univ.Press, 1992
26. Klarin M.V. Innovatsii v obuchenii: metaforы i modeli, M: Nauka, 1997.
27. Kluster D. Chto takoe kriticheskoe myshlenie? // Peremena, №4,2001.
28. King A. Inquiry as a tool in critical thinking. In D.Halpern, Changing college classrooms: New teaching and learning strategies in an increasingly complex world. San Francisco: Jossey-Bass, 1994

29. Resnick L.B. Cognition and instruction, In B.L.Hammonds, Psychology and learning: The master lecture series, Washington; American Psychological Association, 1985
30. Cordes C. Search goes on for «best» ways to learn science. American Psychological Association Monitor, 1983 April
31. Simon H., Kaplan C. In M.Posner. Foundations of cognitive sciences. Cambridge, MA: MIT Press, 1989
32. Stahk N., StahlR. We can agree after all! Achieving consensus for a critical thinking component of a gifted program using the Delphi Technique. Roeper Review, 14 (2), 1991
33. Moore V., Parker R. Critical Thinking (4th ed.). Mountain View, CA: Mayfield, 1994
34. Sears A, 'Parsons J. Towards critical thinking as an ethic. Theory and research in Social Education, 19 (1), 1991
35. McTighe J. Thinking about adolescent thinking. The early adolescence magazine, 1,1986
36. E.de Bono.,Uchite vashego rebenka myslit. Minsk: Popurri, 1998.
37. Weisberg R. Creativity: Beyond the myth of genius. New York: Cambridge University Press, 1993.
38. Hayes J. Cognitive processes in creativity. In J.Glover, RRonning, C.Reynolds, Handbook of creativity, New York: Plenum, 1989.
39. Michael Uljens School didactics and learning: A School Didactic Model Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory. 2008 y.
40. John Dewey. How we think. 1910 y.
41. Martin, Jay. The education of John Dewey. 2003 y. Columbia university Press.
42. Gutek, Gerald L. New perspectives on philosophy and education. Pearson education, Inc. 2009 y.

43. Kenklies K. "Educational theory as topological rhetoric. The concepts of pedagogy of Johann Friedrich Herbart and Friedrich Schleiermacher". Studies in philosophy and education. 2012 y.
44. Trambalchini. Paola. "Maria Montessori Through the seasons of the method". (Spring) 2011 y.
45. Berger, Manfred: 150 Jahre Kindergarden. Ein Brief an Friedrich Frobel. Frankfurt. 1990 y.
46. Educational Psychology: A tool for effective teaching. Chapter one.
47. Peter Menck. Looking into classrooms: papers on didactics.
48. Doug Johnson. The classroom teacher's technology survival guide first edition.
49. Howard Pitler. Using technology with classroom instruction that works, second edition edition.
50. M.D.Roblyer. Integrating educational technology into teaching 5 th edition.